

**Alxan Bayram o`g`li  
Ramiz Asker**

**OZARBAYJON DEMOKRATIK  
RESPUBLIKASI VA MUSTAQILLIK DAVRI  
OZARBAYJON ADABIYOTI**

*821.512.162*

*B 40*

**Alxan Bayram o'g'li  
Ramiz Asker**

**OZARBAYJON DEMOKRATIK RESPUBLIKASI  
VA MUSTAQILLIK DAVRI OZARBAYJON  
ADABIYOTI**

**Toshkent – 2019**

**Muharrir:**

*Asif Rustemli*

*filologiya fanlari doktori, professor*

**Ilmiy muharrir:**

*Bakir Nabihev*

*akademik*

**Alxan Bayram o'g'li, Ramiz Asker. Ozarbayjon Demokratik Respublikasi va mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyoti. Ozarbayjon tilidan Obid Shofiyev va Feruza Hafizova tarjimasি Toshkent, – 336 s.**

*Filologiya fanlari doktori Alxan Bayram o'g'lining bu kitobida Respublika davrida adabiy-ijtimoiv maskurasiiga taaluqli muammlarning g'oyaviy-estetik ko'rinishi davrning poeziya va nasr (qisman publisistikada ham) na'malari asosida tahlil qilindi. Bu davr adabiyot vakillari – A.Shaiq, M.Hodi, E.Javad, Y.V.Chemenzeminli, S.Huseyn, M.Shahtaxthi, Um Gulsum, J.Jabbarli va boshq. yaratgan obrazlarda, bildirilgan munosabatlarida davrning ijtimoiy-tarixiy hodisalariga nazar solinadi.*

Abdulla Qodiriy nomidagi  
viloyat AKM  
INV № 2023/32-51

## KIRISH

Ozarbayjon Xalq Respublikasining o'tmish tarixi, ilmiy haqiqati qasddan, ongli va rejali tarzda saqlangan yoxud siyosiy, ijtimoiy jihatdan an'anaviy boshqaruvning roppa-rosa yetmish yillik tarixi bor. Vataniimizda sovetlarning 70 yillik mafkuraviy hokimiyyati OXR bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni ikki qavatli yopiq eshiklar orqasida saqladi. Yuzaga kelgan bo'shliqni "millatchilik", "turklarga qarshi", "islomga qarshi" kabi ibora va so'zlar bilan to'ldirishga urinishdi. Hatto Ozarbayjonda mustaqillik davri arafasida maydonga chiqqan bir qancha maqolalarda respublikaga ilmiy axloq va odob etikasini yangi shaklda davom etirishlarini ma'lum qilishdi.

Respublika o'tmish tarixi va ilmiy sohani rivojlantirishning eng yaxshi yo'lli bu - o'sha davrning ijtimoiy, siyosiy, badiiy san'atlarini yuzaga chiqarish va matbuotda nashr ettirishdir. Quvonarlisi shuki, bu sohadagi tajribaning o'z an'anasi, o'z mutaxassislik tarixi bordir. Ham ilmiy matnshunos, ham o'z vazifasini ayni vaqtida vijdonan bajargan ya'ni olimlar avlodining ilk namoyondalaridan biri - betakror tadqiqotchi, matnshunos olim, filologiya fanlari doktori Alxan Bayram o'g'lidir. Xususan, OXR davrida madaniy-badiiy nasr, adabiy-ma'naviy doiradagi ilk matbuot va arxiv manbalarining ilmiy o'r ganilishi aynan uning tadqiqotchilik amali hamda ziyoli olimlarning vatandoshi bo'lganligining natijasida sodir bo'ldi.

Bu davr adabiyotining namoyondalarining milliy-inqilobiy ruhiyati, mavzu va muainmolari, milliy xotirasi, she'riyati – san'atkorlik manzarasi, janri, uslubi va tipologiyasi nuqtai nazaridan ilmiy nazariyani yaratgan tadqiqotchilardan biri Alxan Bayram o'g'lidir. O'z qarashlarini, amaliy tadqiqot izlanishlarining ilmiy tafsirini, nazariy ifodasini u muntazam ravishda maqola va kitob shaklda o'quvchilariga yetkazdi. "Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida adabiyot" nomli monografiyası ham uning ana shu tarzda o'quvchilarga taqdim etilgan navbatdagi kitobidir.

Kitobda davrning adabiy peyzaji, asosan, she'riyat va nasrga berilgan ta'riflar bilan aks ettirilgan. Abdulla Shoyiq, Muhammad Hodiy, Ahmad Javad, Ja'far Jabborli, Salmon Mumtoz, Um Gulsum, Said Husayn, N.Vazirov, A.Yusufzoda, Ibrohim Shokir, Husayn Vidot, R.Afandizoda, Ali Maston kabi shoir va yozuvchilardan badiiy o'raklar olgan va ma'naviy-badiiy tafsif va tahlil qilingan.

Ma'lumki, M. Rasulzoda Respublika davrini nazarda tutib: "Yangi davrga bunday adabiyotning kirib kelishi ham bir davridir" deb yozadi. Mirzabola Muhammadzoda ham ayni fikrga qo'shilib, ikki xalqning adabiyotida tahsinga sazovor asarlarnig bo'lishi kerakligini e'tirof etgan.

Shubhasiz, har ikki muallif bu so'zlarni aytarkan, bilvosita respublika obrazini, o'zida butun buyukligi va mardligi bilan yaratgan klassik san'at mahsullarini nazarda tutishadi.

Lekin kitobdagagi ma'lumotlar bu buyuk san'at mahsullari yolg'iz yaralmasada, OXR qo'lllarida Respublika ideallarini tarrannum etgan rangin bir poeziya, nasr va faol adabiy harakat mavjud ekanligiga ishontiradi. Ozarbayjon barpo etildi, milliy orden ta'sis etildi, Ozarbayjon tili davlat tili deb e'lon qilindi hamda bu bilan bu e'tiborli zaminda uch oyda hukumatning eng buyuk tadbirlari ham demokratiya, ham ilm, ham milliy madaniyat sohasida hayotga tadbiq etildi; Boku Davlat Universiteti (1919), Ozarbayjon Davlat Teatri (1919), "Teatr xodimlari jamiyati", "Musulmon muharrir va jamiyati", "Yashil qalam" adabiy tashkilotlari ochildi, milliy ramzlar - gerb, bayroq, madhiya ta'sis etildi. Badiiy prozaga asos solgan va yaratganlar, avvalo, M.Rasulzoda, Mirzo Balla, parlament raisi M.Topchubashov, parlament raisi muovini H.Ag'ayev, S.Mamedzoda, U.Hajibayli, H.Javid, A.Shaiq, Muznib, S.Mumtaz va boshqalar edi. Xususan, "Respublika Shoiri" A. Javad' iyusif Ray, Um Gulsum honim (M. Rasulzodaning ammasining qizi, S. Husaynning umr yo'ldoshi), Min Abid, (Gultekin), J. Jabbarli, Dovud, Ali Shovqi, kabilarning she'rlari ehtirosli ellikkha yaqin marsiya, madhiya, yallaga o'zgardi . Nazira, qasida, g'azal, marsiya, an'analarini esa Jannatiy, I.Tohir, A.Muniriy

kabi shoirlar davom ettilishdi. Umumiylar tarzda aytganda, Muhammad Hodiy va Husayn Jovid, Hoji Karim Saniliy va Ahmad Javad. Abdulla Shoyiq va Amin Obid, Jalil Muhammadqulizoda va Uzeyir Hujibeyli, Said Husayn va Ja'far Jabborli, Tog'l Shaxboziy (Semurg'), Yusuf Vazir Chamanzaminli va Faridunbey Kocharli, Um Gulsum va I. Ashirbeyli, bilvosita Ozarbayjon istiqlolisi, milliy davlati, bayrog'l, gerbi, turk o'zligiga, islamiy va umum-bashariy munosabatlarga bag'ishlangan eng yaxshi adabiy-badiiy, ilmiy-publitsistik, falsafiy-tarixiy asarlarini yozganlar.

Badiiy asar mazmuniga bir necha asos va ijtimoiy mavzu atrofida markazlashtirildi: bayroqdag'i ranglar - turk millatiga mansublik, islam va musulmonlik madhi, turk va islam tarixining tarrnumi, birlashgan davlatlar ichida ilk mustaqil, suveren milliy davlatning barpo etilishi, uning yaratilish solnomasi, milliy davlatchilik ma'naviyatining ifodasi, tasdig'i, armanlarning Qorabog' da'vosi, Ozarbayjonda tinch aholining vahshiylarcha qatl etilganligi va ular molining talon-taroj qilingani, dushmanlarning Bokudagi tarixiy obidalarni, ilm va madaniyat o'choqlariga o't qo'yaganligi, 18-31-mart hodisalari, xalqning turk taqdiri va islam tarixidagi shahidlik va qahramonlik sahifalarining madhi va xotirasini solnomasi, shimoldan yaqinlashgan qora tuman va Vatanimizning boshi uzra aylanayotgan tahlika sababli yuzaga kelgan tashvish ifodasi kabilar tasvirlangan. Milliy ozodlik, hurriyat tus-hunchasi va istiqlol xohishi Hodiyning shu kungacha saqlanib kelingan ikki respublika davriga oid bo'lgan she'rida - "G'alaba ya-qin", "Askarlarimiz va ko'ngullarimizga" manzumalarida, hamda "Oydin bir kechadagi tafakkur daqiqalari", "Bahor ilhomlari va ramzlar", "O'tli qalb shoir va yoxud kuygan holimdag'i sochmalaram", kabi she'rlerida davom etgan. Kelajak va istiqbol taronasi, jumladan, A.Shoyiqning "Intizor qarshisida", "Araz"dan "Turan"ga", "Yangi oy chiqarkan", "Vataning yoniq ovozi", "Turk kishisi - Markaziy firqa ozodlik uchun" she'rlarida davom etgan. Ja'far Jabborlining istiqlol mavzusidagi to'rt ustunli, esdan chiqar darajadagi uzoq vaqt oldin yozilgan she'rlari mavjud. Holbuki ular 1918-20-yillarning inqilobi va romantikasini qabariq

tarzda ifoda etgan falsatiy simvolik namunalardir, masalan: - "Sevgim", "Ozarbayjon bayrog'iga", "Sevimli o'ljam", "Salom" kabi she'rlar...

Respublikaning fath etilgan samosi va mayin musiqa kabi yaratilgan eng nozik badiiy notalarini yangicha paydo bo'lgan she'riyat tongining ilk ayol shoirasi Um Gulsumning betakror ijdini ifoda etadi. Uning "Askar onasiga", "Qayt, daf bo'l", "Mayning bir kunida" kabi she'rlari mazmunida eng zarif kechinmalar, bundan tashqari, tashvishga yo'g'rilgan, xususan, "shimoldan kelgan qora tuman" haqida ham fikrlar bor. Istiqlol mavzusi, uning muvaffaqiyati va mashaqqatlari, xaloskor turk obrazi, xususan, davrning ma'naviyati, maishiy va axloqiy muammolari bu davr nasrida ancha o'rinn egallagan: "Hurriyat quyoshi" (Semurg'), "madan sohibining farosati" (B.Tolibli), "Singan qanotlar" (A.Yusufzoda), "Hammomchi", "Tilanchi", "Uch do'st" (I.Qambaro'g'li), "Adashgan kishi" (Fahmiy) va boshqalar. O'ldiriganlar, mavh etilganlar millatning yagona o'g'il-qizlari emasdi. Rejali va maqsadli shaklda xalqning madaniyat obidalari mavh ettirildi. Arman bosqinchilarining Bokudagi "madaniyat genosidi" matbuotida o'zgacha mavzuda. M.Rasulzoda, U.Hojibeyli, M. Muhammadzoda hamda Said Husayn chtiroslari va og'riqli badiiy-publisistik chiqish qilishdi.

Shahar me'morchiligining eng buyuk unvoni kabi "İsmoiliya" (hozirgi Milliy Olimlar Akademiyasi) binosi qad ko'tardi. "İsmoiliya alangasi" badiiy-ijtimoiy g'oyasi bilan bir vaqtida yuz berdi. Hatto "Yashil qalam" adabiy birligi ham hozirgi mavsum uchun "eng yaxshi badiiy asar" tanlovini e'lon qildi. G'alaba gulchambariga esa "Hazin bir xotira - İsmoiliya" hikoyasi bilan "Yashil qalam"ning rabbari Said Husayn ega bo'ldi. Aslida u sochma she'rt bo'lib, "İsmoiliya" madhiyasi edi. Respublikaning toshdan yasalgan haykali va ramzi sifatida, "milliy harakatlarning", "hurriyat va istiqlol maskurasining" tug'ilgan yeri deya e'tirof etildi. Qayd qilinishicha, "İsmoiliya" mavzusidagi har 2 hikoya yangidan matbuot yuzini ko'rdi. Yetuk metodologik asosga ega bo'lgan

tafsir ham Aloxan Bayramo'g'liga tegishlidir. Xulosa qilib aytganda, iste'dodli olim, asabiyotshunos, Respublika davri adabiyatining e'tiborli, sobitqadam, zabardast tadqiqotchisi sifatida tanilgan Aliyan Bayramog'lidir. Alxan Bayramog'li bundan keyingi izlanishlarini yanada keng miqyosda, va keng ko'lamda davom ettiradi.

**YASHAR QARAYEV.**  
*Ozarbayjon Ilmlar Akademiyasi muxbir a'zosi*

## KİTOB VA UNİNG YARATİLİŞİ TARİXİ

Ozarbayjon Demokratik Respublikasining qulashidan keyin sovet imperiyasining siyosatiga uyg'un holda bu davr tariximizning ustiga qalin parda tortdi. Tarix mashinasi o'z yolg'onlari bilan bu parda ortidagi Ozarbayjon tarixi, adabiyoti, va madaniyati rivojiga ayovsiz la'nat va tuhmat toshlarini otdi, xalqning milliy-tarixiy xotirasi ildizlarini har turli vositalar bilan beayov yo'qotishga, xalqni manqurt qilishga, bosh maqsad bo'lgan yangi tarix va yangi ijtimoiy birdmlik millatining yaratilmasligiga qasd qildi. Tariximizning shon-shuhratli va faxrli sahifalari respublika davrida ta'riflandi va aksincha la'natlash payti kelganda esa hech ikkilanmay "jaholat davri" deya xotirlandi.

Imperiyaning butun kuch-g'ayrati bilan davlat miqyosida dasturlashtirilgan intensiv shaklda hayotga tatbiq etilishi lozim bo'lgan manqurtlashtirish siyosati amalga oshmadi. Buyuk va shuhratli tarixga, sog'lom genetik fondga ega bo'lgan Ozarbayjon xalqining milliy-tarixiy xotirasini, genetik aloqa va rishtalarini quritish, mavh etishning imkonini bo'lmadi. 1980-yillarning o'rtalaridan boshlab kuchli alanga olgan ozodlik kurashi, avvalo fikrlarda, xayollarda hozirlandi. Shunday kunlarning birida - 1989-yilning sentabrida men ishlaydigan Nizomiy nomidagi Ozarbayjon Ilmlar Akademiyasi adabiyot institutining direktori, professor Yashar Qorayev o'z kabinetida institut nufuzli olimlarining muzokarasini uyuشتirdi. Muzokarani boshlashdan maqsad, adabiyot tariximizning bugungi kungacha g'uborsiz saqlanib kelinayotgan tafakkur nurida yanada yorqinlashtirish, xatoliklarini yo'qotish, ko'p jildlik "Ozarbayjon adabiyoti tarixi"ni yanada takomillashtagan shaklda yuzaga chiqarishdan iborat edi. Yangi-yangi yozildigan asarlaning ko'p jildli bo'lishida o'z hissalarini qo'shishlariga va'da berildi. Shunga aloqador aniq mavzudagi asarlar taklif etildi va rejalashtirilgan ish sifatida ko'ngilli ravishda ko'tarilgan har bir ilmiy-tadqiqot mavzusi uchun ilova qilish haqqi undirilishi belgi-

landi. Har bir kishiga o'z imkonlari darajasida mavzu yoritish erkinligi berildi va bu ish yilning (1989-yilning) oxirigacha tugatilishi talab qilindi.

Men Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrining adabiyotini tarixini o'rganishni o'z bo'ynimga oldim. 1990-yil 8-fevralda "Ilm" gazetasida bu o'rganishlarning ilk natijalarini aks ettirgan bir maqolam chop qilindi. Shuning dek, "Yulduz" jurnallining 5-sonida "Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida adabiyot" nomli katta bir maqolam chop etildi va Turkiyada (Anqarada) chiqqan "Ozarbayjon" (1991 № 281, S 5-18) va "Turk dunyosi topilmalari" (1991 № 75, S 87-108) jurnallari ham o'z nashrlarida chop etdi. Bundan so'ng "Diolog", "Ozarbayjon", "Ochiq so'z", "Dunyo", "Yoshlik", "Harbiy bilim" jurnallarida, "Ozarbayjon" (Anqara) va "Ochiq so'z", "Ozarbayjon qo'shini", "Vatan sadosi", "Boku", "Ikki sohil", "Hayot", "Panorama", "Adabiyot gezeti", "Sovet o'zligi", "Insoniyat", "Saboh", "Yangi hukumat", "Navro'z", "Ozod Ozarbayjon", "Hikmat" kabi gazetalarda olib borgan izlanishlarim natijasi aks ettirilgan 70 ga yaqin maqolalarim nashr qilindi. Birinchi kitobim nashrdan chiqdi, radio va televideniyalarda namoyish qilindi.

Tadqiqotlarim natijalari ilmiy-ijtimoiy soha va yoshlardan monidan iliq kutib olindi, olqishlarga sazovor bo'ldi.

Hatto hamkorlarim orasida izlanishlarimning natijalaridan foydalanish uchun samimi ruxsat olib, bu ma'lumotlarni o'zlarini qilib olish niyatidan uzoq ekanliklarini so'zlasalar ham, keyinchalik mening ilmim va xizmatlarimga ko'z yumib, uni o'zgartirishga, ba'zi birlari esa o'z nomidan chop ettirishga urunishdi. Ular hozirgi vaqtida boshqa kishilarga tegishli bo'lgan tadqiqot ishlarida zeb berishda ko'maklashib, ularga egalik qilishmoqda. Lekin haqiqat vaadolat uchun respublika davri adabiyotimiz uzra qoplangan pardani olishni, avvalo, ana shunday yomon niyatli kishilarni tezda aniqlab, fosh etishimizga amin bo'lib, o'z ishlarmizda davom etmoqdamiz.

## DAVRNING TARIXIY-IJTIMOY, SIYOSIY XULOSASI

Bir-biridan qolishmaslikka intilish natijasida Romanovlar sulolasining hokimiyat kaliti bilan Rossiya imperiyasining hukmronligiga raxna solina boshlandi. Uzoq tarixiy muhoraba oqibatida kechgan tabaqalanish jarayonida o'z faoliyatini olib bormoqchi bo'lgan har bir xalq milliy o'zligi, milliy g'oyasini shakllantirishi va buning natijasida xalqlarning milliy muxtoriyat va suveren davlat yaratish orzusini yashnatishi kerak edi. Shu tariqa xalqlarning mustaqil yashash tahdidlar ortiga berkildi. Qadimiy va boy milliy-madaniy meros va tarixga ega bo'lgan Ozarbayjon xalqi tarixining erksizligidagi jiddiy siyosiy va milliy-ma'naviy zARBALARGA, nadomatlarga yuz bursa-da, o'zligini, milliy siyemosini saqlay bildi. Ijtimoiy-siyosiy va tarixiy-inqilobiy harakatlar zamirida boshqa xalqlardan, nafaqat qoloq emasligini, hattoki ulardan ilgarilab imkoniyatini beruvchi o'z tarixiy haqini - mustaqil va suveren davlatga ega bo'lish huquqini beruvchi imkoniyatni qo'ldan bermadi. Bu ishda, ya'ni, ijtimoiy-siyosiy va milliy-ma'naviy to'qnashuvlarning kechishida Ozarbayjonning geografik holati, tabiiy boyliklarining turli-tumanligi va intellektual potensialining kuchi bilan har tomonlama, xususan, XIX asrning o'rtalaridan boshlangan ishchilarimizning qo'ygan maqsadlari, qizg'in va ayovsiz kustralshari, ko'rsatgan fidokorliklari ham muhim rol o'ynaydi. Ayni zamonda qayd etganimizdek, Ozarbayjon tijorat iqtisodiy aloqalarining siyosat bilan kesishgan nuqtasida istar-istamas, ko'p millatli xalq hayotining qaynagan go'shalaridan biri o'zgartirildi. Oktyabr sotsialistik inqilobidan keyin Bokuda hokimiyat "komunalar" qo'liga o'tdi. Lekin markazdan keltirilgan bu "sotsializm" Ozarbayjondan ko'ra ko'proq Rossiyaning manfaatiga xizmat qilmoqda edi. V.I.Leninning bir qancha maktub, telegram va asarlarida ifoda qilinganidek, Boku Rossiyaning yirik sanoat markazlaridan deb hisoblanishi orqali Rossiya sotsialistik inqilobining yashashi uchun xizmat qilishi kerak edi. Boku kommunasi rahbarlarining aksariyati uchun Ozarbayjon xalqining qarshiligi

asosiy maqsad emas, vosita edi. Ya'ni ular bu xalqning haqiqat ovozini ko'pgina vositalar, shu jumladan, sinalgan milliy qirg'inlar yo'lil bilan o'chirishga urinadilar. Bu kurash boshlanishida yak-dil bo'lgan xalqlarning ba'zi yetakchilari keyinchalik milliy manfaat masalasi o'rta ga chiqqanida kechagi maslakdoshlariga zid holga tushishdan qochmadilar. Natijada xalqlarning millatlararo qardoshligiga milliy adovat urug'i sepilishi bilan bir-birlariga qarshi chiqishlariga erishildi. Bu yo'lda esa hammasining ishtiroki va gunohi, tabiiyki inkor etildi.

XIX asr boshlarida Chor Rossiyasi bilan Eron monarxiyası orasida parchalangan Ozarbayjon har ikkala monarxiya tarixi sahifalaridan o'chirilishi va ichkaridan imkon qadar tezroq aritish uchun maqsadli va rejali ishlar bajarilardi. Inqilob kurashi jarayonining ilk qarshiliklarida yuqoridaq ishlarning ta'siri o'zini ko'rsatdi. Siyosiy kurash maydonida Ozarbayjon nomi mavhum, to'g'rirog'i, umuman ko'rinnmasdi. Milliy-siyosiy g'oya tashkilotchilik zaif edi. Ya'ni ko'pgina milliy bashariy va kelajak masalalari to'g'risida gap ketganda boshqa xalqlardan orqada edi. Bularning barchasi esa Ozarbayjon xalqining ozodlik va istiqlol yo'lidiagi ancha og'riqli kurashlarda kechishi bilan natijalanardi. Rossiya tarixidagi boshqa xalqlar, jumladan, armanlar esa keyingi bo'ladi-gan hodisalarning natijalaridan yuqori darajada foydalanish maqsadi bilan ozarbayjonliklarni ham o'z tarafiga ag'darib, chorizm tarkibidan chiqish uchun qizg'in harakat qilardi. Bu jihatdan, "Sharqiy Rossiya" gazetasiga tegishli bir ma'lumot yuzaga chiqdi.

1905-yilda yozilgan o'sha ma'lumotda shunday yozilgan edi: "O'tgan yil "Sharqiy Rossiya" gazetasida shunday maqolalar chop etilgandiki, buning uchun Rossiyada har qaysi, hatto senzur-asiz gazetaga ham ayb qo'yilib, muharririni surgun qildilar. Amмо bularning barchasi senzurachi Qoraxonovning ko'z oldida bo'ldi. U ham qasddan shunday bir davra hosil qildiki, hukumat siyosatidan norozi bo'lgan armanlarni jangovar hislar bilan mu-sulmonlarni o'zlariga birlashishga va dushmani ezishga da'vat etardi". Bu xabar ba'zi siyosiy hodisalarning sabablarini oydin-lashtirishga ko'maklashardi: ko'rinish turibdiki, armanlar bilan

ozarbayjonliklar orasida umumiy dushman chorizmga qarshi kуrashni his etgan sari imkon qadar mustahkam bo'lган imperiya-ning davlat apparati vaziyatdan chiqish uchun bu xalqlar orasida milliy qирг'ин uyushtirish zarur deb hisobladи. Armanlarning nec-ha asrdan buyon chekayotgan vatansizlik dardi va o'zlarini arazda tutib, ikki o'rtada milliy davlatlarini yaratish hasrati bu ayyorona rejaning hayotda tatbiq etilishini ta'minlagan eng asosiy nuqta edi. Chunki biror imkoniyat hasratida bo'lгани uchun nishon bo'lish kifoya qildi. Shu kungacha o'sha odamlar ishondilarki, ular dar-dining darmoni kurashmoqdir. Qolgan har narsa osondir. Rossiya imperiyasi ham Ozarbayjонни qo'lда saqlash uchun armanlarning bu ishidan foydalanish qaroriga keldi va tashlagan qarmog'i bo'sh chiqmadi. Albatta, bularning barchasi Rossiya imperiyasining ar-manlarga yon bosganlardan emas, qayd etganimizdek, Ozarbay-jонни qo'lда saqlash niyati tufayli harakat qilardi. Tasodif emaski, davrning yosh ishchilari bu qирг'inning markazdan yo'naltirilgan-ligini ko'rsatar, o'sha manfur niyatini dona-dona ifoda etib, xalqni birlikka chorlardi. Lekin mohirona o'ylangan reja mahorat bilan hayotga tatbiq etildi. Har ikki xalqning yosh tushungan ishchi-xodimlari esa milliy istiqlol yo'lidagi kurash qarshisidagi majbu-riyat yuzasidan agar bu ishga muvaffaq bo'linsa, el chekkan milliy qирг'inni bartaraf etishga harakat qildilar.

Sinovdan o'tgan bu manfur usul tarixning aylangan nuqtalari-rida o'sha xalqlarning milliy istiqlol kurashining ozdirish vosita-siga almashdi va qarshilik qilinmasdan kechayotgan avvalgi alo-qalar hamda milliy dushman bo'lishga asos bo'ldi. Armanlarning iddaolari milliy adovat zamirida qilindi. Bu makrli reja, g'oya hamda ishning faol ishtiroki bilan kishilar ongiga ustalik bilan singdirildiki, ruslardan avval armanlar Ozarbayjонни bo'lish ish-larini boshladilar. O'sha shahd bilan qilingan ishlar 1918-yilda o'-zini ko'rsatdi. Tasodif emaski, Kommuna hukumati Boku va Bo-bu guberniyasini Ozarbayjondan ajratishga qaror qildi. Inqilob-ning boshqa yerlarga yoyilishiga yo'l qo'yilmadi. Bolu va Boku guberniyasini Qorabog'da bo'lib, buyuk bir arman rahbarlarining,

g'arb qismi esa mensheviklarning ko'z ostida edi. Boshida S.Shumyan bilan A.Chaparidzening tuzgan "Kommuna" hukumati 2 o'yin o'ynadi, o'zlarining milliy shovinistik g'oyalariga malham topish chirasini Boku va uning atrofidagi tumanlarida ozarbayjonliklarga qarshi qirg'inlar tashkil etishni ko'zladilar. Shu sababli 1918-yil mart oxirlarida Bokuda, undan so'ng Qubo, Shamaxi, Qorabog' va Ganjada ozarbayjonliklarga qarshi qirg'inlar uyuştirildi.

Xalq benihoya og'ir musibatlarga qoldi. Lekin hamma taziyqlar Ozarbayjon xalqining milliy o'zlik tuyg'usini so'ndirish evaziga, uning milliy mustaqilligi uchun kurashishiga yana yo'l qo'ydi. Natijada I jahon urushining so'nggi yili - 1918 yil katta bir millatlararo masalalarni oydinlashtirish ishi Ozarbayjonni xalqi uchun ham milliy o'zlik tushunchasining shakllana boshlash sari qadam qo'yilgan kun kabi xotiralarda qoldi. 1918-yil 28-mayda Ozarbayjonning istiqlol bayonnomasi e'lon qilindi. 4-iyunda esa Ozarbayjon Respublikasi va Usmonli turk imperiyasi o'rtaida tuzilgan shartnomaga asosan, qonun ustuvorligi va o'lkaning bexavotirligini ta'minlash uchun ehtiyoj paydo bo'lgan taqdirda Ozarbayjon Respublikasi hukumatiga qurolli kuchlar yordam qilishni ikinchi tomon (Usmonlilar) o'z zimmasiga oldi. Unga ko'ra yosh Ozarbayjon hukumatining murojaatiga asosan Turkiyaning harbiy noziri Anvar poshshoning yaqini Nuri poshshoning qo'mondligi bilan Kavkaz Islom Armiyasi Ozarbayjonga keldi. Ozarbayjon hukumati bu arniyaning ko'magi bilan yerlarida o'z hokimiyatini mustahkamlab, o'lkada tinchlik-osoyishtalikni yarata oldi. Bundan keyin Boku uchun kurash diqqat markazida bo'ldi. O'sha kunlarda Bokuda hokimiyat kommunaning qo'lida edi. Lekin bir tarafdan ichki siyosiy ziddiyat, xalqimizga qarshi milliy shovinizmdan yuzaga kelgan qusurli, makrli faoliyat dasturi va usuli, boshqa tarafdan esa Denikinning iddaolari va xalqaro kuchlarning Boku neftiga bo'lgan qiziqishlari vaziyatni yanada keskinlashtirdi, sotsial va ma'nnaviy kuchlari zaiflanib, faqatgina qonli ko'lga tayanishni istagan Boku Kommunasining istagini quvvat-

lamas edi. Ya'ni kommunal hukumatining o'zini qutqarish harakatlari puchga chiqdi. Qisqa muddat ichida boshiga tushgan musibatlardan to'g'ri xulosa chiqarishi bilan Ozarbayjon xalqi o'zining milliy va siyosiy qiziqishlariga yot bo'lgan kuchlardan yuz burdi. Ustalik, Kommunaning o'zlariga yarasha hisob qilganlari Bichexarov va armanlar Bokuda qo'zg'olon ko'targan Kavkaz Islom Armiyasining vahimasi qarshisida dosh berolmay qolib, qochdilar. Natijada iyunning oxirlarida kommunal iste'fo berishga majbur bo'ldi. Bokuda hokimiyat "Markaziy kasbiy" hukumati nomi bilan tanilgan va yana Ozarbayjonga tamomila begona bo'lган kuchlar qo'liga o'tdi. Ozarbayjonga, Ozarbayjon xalqining milliy manfaatlariga yomon munosabat bildirib boshlaguncha xorijiy kuchlarning shirin va'dalariga uchishi natijasida "Markaziy kasbiy" chilarning ham umri juda qisqa bo'ldi. Ular o'zlariga o'sha zaminda tirkak topa olishmadı. Markaziy Kasbiy diktaturasining hokimiyat boshiga kelgan kunlarda - 27-avgustda Rossiya va Germaniya o'rtaсидаги тузилган шартноманинг 14-moddasiga ko'ra, Germaniya Boku guberniyasining turklar tarafдан egallanishi ga yo'l qo'ymaslik evaziga Rossiya bu yerdagи neft yetkazib berishni ta'minlashga kelishildi, chiqarilgan mahsulotning 1/4 qismini yoki xususiy oylik foizini Germaniyaga berilishi ko'zda tutildi. Albatta, Ozarbayjon hukumati uning xabari bo'limgan bu bitimga qarshi nota bildirdi, u "Bokusiz Ozarbayjon - boshsiz nadir" deyilgan. Inglizlarning Bokuga chaqirilishi ham Markaziy Kasbiy diktaturasini xalos qila olmadi, 15-sentabrda Boku ozod bo'ldi va Ozarbayjon hukumati o'zining qonuniy poytaxtiga ega bo'ldi. Lekin Antantaning g'alabasi bilan "Uchlar Ittifoqi" ning namoyondasi kabi Turkiya ham og'ir vaziyatga tushdi va g'olib tarafning talabiga ko'ra o'z qo'shinlarini Kavkazdan chekintirishga majbur bo'ldi.

Shuning uchun Turkiya o'ziga qardosh sanagan Ozarbayjon xalqiga yordam bera olmadi, Kavkaz Islom Armiyasining ko'magi bilan ozarbayjonliklar muqarrar qirg'indan va siyosiy kirlidan xalos bo'lishdi. O'lkada muayyan ichki sobitlikka, armiya butunligiga, sarhadlarimizning mustahkamlanishiga muvaffaq bo'lindi.

Poytaxt uchun olib borilgan kurash g'alaba bilan tugadi. Ilmiy adabiyotlarda aytigelanidek, "Bu davrda Ozarbayjon hukumati ning mustaqillik yo'lidagi ishi, aynan eng buyuk qadami bu o'z poytaxtini egallab, o'z hokimiyatini butun Ozarbayjonda yoyilishi bo'ldi-ki, bu yo'lida qardosh turk xalqining mingdan ortiq askari, 30 zabit o'z jonini fido qilishdi. Balki musulmon xayriya jamiyatining qarori bilan shahidlar xotirasiga obida barpo etilishi mumkin edi. Chunki ularni "bosqinch'i" deb atash, "talonchi" nomini berish o'sha davr tushunchalariga ko'ra nonko'rlik hisoblanardi. O'sha yillarda "Ozarbayjon" gazetasi anchagina haqiqat bo'lgan quyidagi fikrni yozdi: "Turk qo'shinlari Ozarbayjon Respublikasiga ko'mak berib, uni egallah, ishg'ol qilish maqsadi bilan kelmadи. Ular o'z qardoshlarini xalos erish uchun kelishdi va o'z qadrondonlari qarshisida burchlarini ado etib ketishdi".

Bu ham tasodif emasdi. Chunki rus va ingliz diplomatiyasi ning qo'lida doim qo'g'irchoq bo'lgan arman siyosatchilari turkiy xalqlarga keskin dushmanlik kayfiyatida bo'lar, fursat bo'lishi bilan o'z makrli niyatlarini vaxshiylikdan ham battar bir shafqatsizlikda hayot kechirardilar. Shu jihatdan Muhammad Hasan Hajinskining "Armaniston mustaqilligiga munosabatingiz? - degan savolga Anvar poshshoning bergan javobi ham qiziq bo'ldi: "Turkiya mustaqil arman davlatining paydo bo'lishi ilohiy emas. Ular ingliz-rus siyosati bilan turklarga qarshi dushmanligiga yakun yasasin". Hodisalar rivoji davomida Anvar poshshoning bu mulohazalari rostligi isbotlandi. Ya'niki, Ozarbayjon Demokratik Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini xalqaro olamda tasdiqlashtirish uchun Parij sulk konferensiyasiga olib borgan maqsadli kurashning hal qilinganligi, borligi, suverenligini shimoldan kelgan tahlikadan saqlayotgan kunlarda doimo armanlarning aks tabiat, xiyonati va Ozarbayjon xalqiga xiyonatkorlar bilan sherik bo'lgan qiyin vaziyatga tushdi, nihoyat 1920-yil aprel oxirlarida yana bir armanlarning qattiq dushmanlik harakatlari natijasida milliy mustaqil davlat bo'lishi haqidagi hujjatga qo'l qo'yishga majbur bo'ldi.

## POEZIYA

Sovet hukumatining o'lkamizda hukmron bo'lgan 70 yildan ortiq davr ichida Ozarbayjon Demokratik Respublikasining tarixi, davlat tashkil topganligi, iqtisodiy siyosati, adabiy-madaniy hayoti o'zgacha talqin qilindi. Siyosiy va ilmiy adabiyotda bu davr barchani kaltaklash, zo'ravonlik, lozim bo'lganda yo'q qilish. barcha jabr-zulmlarni xalq boshiga solgan bir davr sifatida la'natlangan. Bularning barchasi xalqning o'zining tarixiy-etnik aloqalardan uzib qo'yish va buning evaziga "yagona sotsialistik millat" yaratmoq niyati orqali imperiyaning mustamlakalarda o'z geemonligini mustahkamlashga xizmat qildi. Davrning adabiy-tarixiy, ijtimoiy-siyosiy materiallari bilan yaqindan tanishish natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Ozarbayjon Demokratik Respublikasi tariximizning eng yorqin va faxrli sahifalaridan biri ekanligi ravshan bo'ladi. Taraqqiy parvar ziyolilarimiz o'nlab yillar mobaynida milliy taraqqiyot g'oyalari va milliy vatanparvarlik tuyg'usi bilan kurash olib borishgan va milliy mustaqilligimizni taranum etishgan hamda respublika tashvishlari bilan yashab, ularning yechimlarini topishga harakat qilganlar. Yuqorida aytib o'tilganidek, mamlakatning ma'naviy-psixologik qo'llab-quvvatlash, ko'plab xalqlar kabi ozarbayjonlarning milliy ongi va psixologiyasini shakllantirishga katta turki berdi.

Yozuvchilarimiz anglab yetdilarki, bu ruhda odamlarni mustaqillik uchun kurashga safarbar etish va bunga erishish uchun milliy-tarixiy va ma'naviy huquqi borligiga ishontirish hamda eng ta'sirli yo'llaridan biri, ulug' ajdodlarimizning boshdan kechirgan shubratli yo'lini bugungi yosh avlodga o'rnak kabi taqdim etishdir. Chunki har bir inson, jumladan yoshlar uchun ham o'z ajdodlarini, nasl-nasabini, bosib o'tgan shonli yo'lini bilish unda g'urur tuyg'usuni uyg'otadi. Aynan shu iftixor tuyg'usi hayotda o'z o'rni ni topib muvaffaqiyatlarga erishishida alohida rol o'ynaydi. Shoir Um Gulsum o'zining "Ey turk o'g'li" she'rida bugungi yosblarga qarata shunday deydi:

Ey turk, sen ey qahramon. Turonning farzandi  
Shonli, yuksak otaning o'g'lilicing unitma  
Sen ham uning yo'lida yur  
Yurgin va o'zingni hech narsadan qo'rqtma  
Yurgin, bir marta tamadduning  
Yuksak tuyg'ular bersin turkning hassos qalbiga  
Hurmat, izzat keltirsin buyuk turk eliga  
Tarixlarda faqat sening xizmatlaringni  
Yozishsin, bo'rondek yashaganiningni eshitib  
Yevropaga qarshi bir  
uysiz asir kabi qarashmasin.

O'zining yosh o'quvchilariga buyuk otasining shonli tarixiga  
nazar solib undan o'rnak olishga chaqirgan shoirning maqsadi  
ham o'zligini anglab yashashdir. Bu shuni ko'rsatadiki, bunday  
ulug'vor o'tmishga ega bo'lgan xalqning vorislari ajdodlaridan xa-  
barsiz, begona o'lkalarning qarshisida mavjud bo'limgan mavjud-  
ot kabi bo'yin egib turishga ma'naviy haqqi yo'qdir. Aks holda,  
o'z qudratidan bexabar bo'lgan millat jirkanch tubsizlik va vay-  
rongarchilik bilan boshqariladi. Yuz yillar davomida davom eta-  
digan bu baxtsizlikni yengish uchun faqat kurashish, kurashganda  
ham haqiqiy kurashish talab etiladi.

Yuz yillarcha ezilgan, qiynalgan  
Yuz yillarcha qichqirding, eshitilmadi ovozing  
Endi hayqir va baqir bitgunicha nafasing.

Muallif o'z fikrlari bilan shuni aytmoqchi bo'lyapdiki, ozod-  
lik va istiqlojni ularga hech kim bermaydi. Bu ulug' ne'matni har  
bir xalq faqat o'zining aqli, ilmi va harbiy-fizik qudrati ila qo'lga  
kirta oldi. Gulsum bu kabi fikrlar bilan Kavkaz turklarini ham  
yuksak saviyada mavjudligini qayd etish orqali unga bir nazar so-  
lish va g'arb dunyosining har qaysi ta'sir vositasi va harakatlari bu  
yuksak kayfiyatlariga soya solishga imkon bermasligini uqtirgan.  
Bunga hech qanday milliy-ma'naviy haqqimiz ham yo'q.

Ey qahramon, dushmanga qilich tutgan bilaging  
Vataningga, yurtingga bir qal'a kabidir  
Bu kun sening porloq tilaging  
O'z urfoning kuchi, qudratila berilur

Kavkazning eng buyuk, yuksak, ulug' dog'lari,  
o'rmonlari, bog'lari  
Sening muzaffar oting, sharafigla tanishsin  
Seni vaxshiy tanigan omadaniy jonivor  
Mag'lub o'lsun, xor o'lsun intiqomlar olinsin.  
Turk bayrog'i ul zamon samo uzra porlaydi.

Shoirning vatandosh qalbiga eng ko'p ta'sir qilgan tomoni shundaki, "madaniy jonivorlar" yuz yillar davomida o'z yirtqich xislatlarini yashirish uchun bizni doimo vaxshiy deb layoqatimizni tahqir etishdi. O'z milliyligini tark etgan bir xalq uchun bundan og'ir azob bo'lmas. Shunday qilib, muallif o'z yurtdoshlaridan bu tarixiy adolatsizlik evaziga shafqatsiz intiqomlar dushmanni xor qilishni talab qiladi. Uning fikricha, g'alabalarsiz to'qnashuvda "Turk bayrog'i osmonlarda porlamaydi".

Albatta, har tarafdan dushmanlar qurshab olgan bir sharoitda amalga oshiriladigan og'ir va shonli kurashda yakka holda g'alaba qozonish qiyin bo'lar edi. Abdulla Shayx turkiy tilli xalqlarning ma'naviy va ijtimoiy-siyosiy birligidagina vaziyatdan chiqish yo'llini ko'rdi. Bu fikrlar shoirning "Bir oylik yangi oy" she'rida aks etgan. Asarda tasvir etiladiki, Turk onasi o'g'liga turkning yangi chiqqan hilolini ko'rsatar ekan, bu go'zal qizga o'xshaydigan go'zal – yangi oy turk o'g'ilning umidini ko'rsatadi. U Oyning atrofida yetti yulduzga e'tiborini qaratadi va bu yetti turk davlatining ramzi ekanligini aytadi. Ushbu yulduzlar oyning atrofida yorqin-roq ko'ringani kabi, turk davlatlari ham o'zlarining yarim oylari atrofida chambarchas birlashsalar yanada kuchli va yengilmash bo'ladiilar.

Qizig'i shundaki, turk o'g'li Yavuz Quyoshni Oy va o'lkalardan ko'proq sevsə ham bu yangi oyga qarab, g'alati tuyg'ularni his qildi:

Onajonim! Men quyoshni oydan,  
Yetti o'lkalardan ko'proq sevaman,  
Bilmayman nega shu oyga qarashim  
Bilan nechun eski tilaklarim ko'zinga ko'rinar.  
Nechun totli, yoqimli bir tuyg'u tuyyapman  
Nechun bu oy ruhimga uyg'un, munis ko'rinyapti?  
Nechun suratim, siyratim quyosh kabi nurga belanar?  
O'lkalari, onajon, boq qanday ko'rinar  
har biri bir-biridan uzoq.  
Men xohlayman yeti o'lka bir-biriga birlashsin  
Quyosh kabi o'z yerida porlab tursin.

Bu Quyosh turk tilli davlatlarning yaqinlashishidan, ma'naviy-siyosiy birligidan yaralgan quyoshni "O'lkaning taqdiri" deb nomlagan yovuz butun dunyoni shu quyosh bilan yoritishi, undan vulqon kabi hayot qaynashi va yer yuzida omon-omonlik barqaror bo'lib, qo'zi bo'rilar bilan yurish orzusi bilan yashaydi. Bu muqaddas orzudan maminun ona o'g'liga shunday deydi:

O'g'lim, oy, yulduzlarimi  
bir-biriga birlashtirib porloq quyoshga aylantir.

Onaning xayrli bu duosi aslida turk tilli xalqlar, turk davlatlarini birlikka chaqirgan milliy-ma'naviy bir chaqiriq kabi eshitiladi. Bu chaqiriq bugun ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q.

Abdulla Shaiqi bu da vatni Tenglik partiyasi kabi bir tashkilotning amalga oshirgan milliy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy harakatlarning tarixi kurashlar davomida qolipga solingen odatlarni inobatga olib, islomiylik, turkchilik va muqaddas amallarni muqaddas deb biladi va amalga oshirilayotgan xalqimizning mudofaa va tasdiq talablaridan, hayot muhabbatidan, ozodlik va istiqlol tuyg'ularidan kuch olishini ta'kidlaydi. "Turk odami markaziy firqasi" chop etgan "Marsh" she'rida yaqinlariga bu partiya,

uning tutgan yo'li, maqsadi uning atrofida birlashishga chaqirib yozadi.

Birlashaylik turk o'g'li, bu yo'l millat yo'ldir  
Sharaf ila shon ila tariximiz boyisin.

Yaqinlarini, birodarlarini dengiz kabi mavjlanishga chaqirgan shoirning ruhida, qalamida temir kabi, po'lat kabi mustahkamdir. U dushmanni "Turk qafasda qo'rquv bilmasligini" bayon qilib, o'lguncha na vatandan, na mustaqillikdan kechmasligini aytadi. She'ming so'nggi misralarida qahramonning ruhini, qonini junbushga keltirgan tiyg'ular haqida o'qishimiz mumkin.

Hilpiraydi boshimda Turon bayrog'i  
Ketdik, yo'lga chiqib, haqsizlikni tugataylik.  
Turonda kunduzlari zulmatni quvaylik.

Kelajakda jannat kabi olomon bor Quyosh u yerda porlaydi,  
baxt u yerda bo'ladi.

Turkiyaning "Musavvat" partiyasi  
Qushlarning qanotin ochaylik,  
Erkin nafas olib,  
Ulug'vor hayotni topaylik.

Ko'rini turgani kabi, bu davrda milliy kurash ham siyosiy mazmunga ega. Shoir bu kurashning muvaffaqiyatini aniq bir partiyaning – "Musavvat" atrofida mustahkam birlashganini, erkinlikni qamrab olgan hayat tarzini qushning baland parvozida ko'radi.

Yosh shoira Um Gulsum esa milliy ozodlikni shu kabi shonli kurashlarda ko'radi. Uning fikriga ko'ra, bizning taqdirimiz hayat-mamot qarshisida qolgan bir zamonda turk qizlari ham faol bo'lganligini, o'g'llarining, erlarining yonida qo'llab-quvvatlashi kerakligini aytadi. Bu fikrlarni turk qizlariga bag'ishlangan "Nido" she'rida ifoda etgan:

Turkiy emas, biz o'zimiz turklarmiz,  
Xalqimiz biz bilan barhayot.  
G'olib chiqaylik,  
Fotih xonning qizi turk nomini yuksaltirdi.

Um Gulsum o'z yaqinlarini kurashga ruhlantirmoq uchun ularning milliy-tarixiy xotiralarini uyg'otishga harakat qiladi. Ular turkiy xalq, ya'ni haqiqiy turk irqiga mansubligini uqtiradi. Turklarning nomi hamisha mag'rurlik bilan, ya'ni o'lkani fath etib shon-shuhrat-la tilga olingan. Agar shunday bo'lsa, bizning jim bo'lishga, to'xtashga haqqimiz yo'q, chunki biz asl naslli turk xalqining qizlarimiz. Unga ko'ra nasabimizga sodiq qolamiz:

Nido bering, borligimiz bilinsin  
Turk xalqining yetimligin o'ylamang  
Kuch beraylik, quvvatimiz ko'rishsin  
Qiz, ayollar yolg'iz qolmasin.

Um Gulsum fikricha, turk o'g'illariga tayanch bo'lish orqali qizlarimiz o'zlariga ko'mak, hayot ta'minlashga yordamchi bo'ladilar. Shoirani faqat Ozarbayjon turklari emas, birlashmagan barcha turklarning tarixi, taqdiri bezovta qiladi. Shuningdek, S.M.Genizoda, A.Shaiq, E.F.No'monzoda va boshqalar bilan birgalikda I jahon urushida ruslar tarafidan asir qilingan Boku yaqidagi Nargin orolida saqlangan turk mahbuslarining achinarli holatiga befarq bo'lmadi. Sharaning "Nargin mahbuslari tilidan" yozgan "Turon so'zi" she'rida turkiy irqchilik taqdiridan qayg'urgan vatandosh azoblari alanga ichida tasvirlangan.

Bu yerda turklarning tushgan vaziyati eng og'ir sharoitlarda ekanligi va hatto haftalab ovqat va suvdan mahrum ekanliklari xastalarning tili bilan ifoda etilgan.

Maskanimiz falokat o'chog'i.  
She'rimiz g'azabning quchog'i,  
So'nadimi bu turklarning g'azabi,  
Anotoliya qayerda, Turon qayerda?  
G'ariblar quvg'indilar, yetim go'daklar yig'lar,  
Do'zax to'lqinidek shivirlaydi,  
Rahm-shafqat uchun himoya qiling.  
Adolat qayerda, vijdon qayerda?

Turonliklarning chekkan azoblarini aynan she'ri orqali turonliklar qulog'iga yetkazishga harakat qilayotgan Um Gulsum barcha turk xalqlarining bir-birini bilishga, tanishga va bir-birlariga yordam berishga chaqirdi. U onalarimizni turk tilli xalqlar boshlagan mustaqillik kurashi uchun ovoz berishga undadi, shunda bu kuch birligi bizning tole' quyoshimizni mustahkamlaydi.

Tahlilga jalb etgan badiiy na'munalarda biz "Panturanizm" yo'nalishini ilgari surilganini ko'ramiz. tabiiy ravishda to'liq emas, cheklangan va bir tomonlama. Chunki u paytda 1 jahon urushi so'ngiga yetmoqda edi. Bu siyosiy va mafkuraviy, davlatlararo va milliy kurash kabi edi. Urush nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy va milliy-ma'naviy jihatdan ham halokatli ta'sir ko'rsatdi. Qadimgi modellarni yangilari bilan almashtirish jarayonida har bir millat o'zining mavjudligiga yangidan, aniqroq xulosa bilan qarashga harakat qildi.

Turk tilli xalqlarning milliy kelib chiqishi tabiiyki, ularni bir-biriga yordam berishga chaqirdi. Chunki bu zamonda ham dunyo xalqlari orasida qamamoq qattiq qoralanar, milliy va siyosiy masalalar manfaat ustun qo'yildi.

Voqealarning keskin tus olishi turktilli xalqlarning mustahkam birlashishini talab qilardi. Shunday qilib har bir siyosiy partiya qarshisida 1-navbatda milliy manfaat turar edi. Milliy manfaati qarshisida har qaysi xalq boshqa xalqning birligi va yaqinlashishiga ziddiyatlari qarshidir. O'sha paytda odamlar orasida milliy o'z-o'zini anglash, o'z-o'zini tushunib yetish har bir kishida o'zining ruhida uyg'un aks etadi. Bu har bir millatning tarixiy-ijtimoiy va milliy-ma'naviy taraqqiyotining o'ziga xos xususiyatlari bilan belgilanadi. Qadimiy va shonli tarixi sharaf bilan sobit-qadam o'lgan turktilli xalqlar tarixining bu qorong'u onlarida o'z yaqinlari atrosida mustahkam birlashgani, etnik, siyosiy-ijtimoiy va milliy-ma'naviy yakdillikda ko'rindi. Bu birlikning natijasi ba'zan tarixiy jarayonlarda ham ko'zga tashlanmoqda.

Siyosiy, iqtisodiy va mafkuraviy kurashning samaralari har bir millatning kurashlarida namoyon bo'lishi, shubhasiz. Rossiyada sotsiolistik inqilob g'alaba qozongan bir davrida fursatdan

foydalanib o'z davlatini yaratishni istagan boshqa xalqlar maqsadlariga erishish uchun Ozarbayjonni ham tarix sahnasidan yo'q qilmoqchi bo'ldilar. Keskin siyosiy va milliy-ma'naviy kurash davrida ozarbayjonliklarning o'z yaqinlari bo'lgan turklardan yordam so'rashlari tabiiy hol edi. Negaki rus va arman tayziqini yolg'iz bartaraf etish juda qiyin ish edi. Unga ko'ra Turkiya yordamga rozi bo'ladi, chunki siyosiy maqsadlari tuban dushman partiyalar Ozarbayjonni yer yuzidan yo'q qilish uchun eng dahshatli vahshiyliklarni qilishga tayyor edi. Ular ozarbayjonliklarni qirib tashlar, uylarini yondirar, ularning nomuslarini, milliy-ma'naviy layoqatlarini haqorat qilib toptaydilar. Masalani murakkablashtirgan taraflardan biri qarshi tarafning yetarli ta'minotga ega ekanligi, ozarbayjonliklarning esa bunday imkoniyatlarga ega emasligi edi.

Yosh Ozarbayjon davlatining rasmiy murojaatiga asosan turklarning ozarbayjonliklarga yordanga kelishi xalqimizga umid uchqunlarini baxsh etib, ruhlantirdi. Yaxshi kunlarning yaqinligi, dushmanlarning mahf etilishiga ishonchi ortdi. Turklar Ozarbayjon milliy armiyasining talablarga javob berishida qo'lidan kelgan yordamni berdi. Endi har qadamda zafar qozonayotgan Ozarbayjon xalqining ruhiy jo'shqinligi, yuksakligi uyg'un ko'rinardi. Shu sababdan Kavkaz Islom davlati bilan birga Turkiyaning madaniyat xodimlari, jumladan, shoir va adiblari ham Ozarbayjonga kelib o'z qon-qarindoshlarini xursand qilishga, hayotga bo'lgan ishonchlarini mustahkamlashga, ularni kurashda faol bo'lishga chorlashdi. Shuningdek, respublikada turkiy xalqlarning g'alabasi, ularni Kavkazni ozod etganidan tuygan sevinch va iftixorning badiiy aksini ozarbayjon va turk shoirlarining o'sha davrdagi she'rlarida ko'rishimiz mumkin. Bulardan Orif O'ran Garasman, Ravshan Ashraf o'zlarining amaliy ishlari bilan Ozarbayjon xalqining mustaqilligini ta'minlashga ko'mak bergen bo'lsa, Muhammad Amin Yurdaqul, N.Kamal, T.Fikret va boshqa mualliflarning asarlaridan ba'zi na'munalari davr matbuotida yoki kitob shaklida chop etish bilan bir tarafdan xalqning milliy-tarixiy taraqqiyotini ta'minlovchi milliy ruhini uyg'otib, boshqa tarafdan

esa Ozarbayjon turklari va Usmonli turklari orasida yangidan paydo bo'lgan ma'naviy ko'priki mustahkamladilar.

Kavkaz Islom Respublikasining xaloskorlaridan umid va sevinch hislari davrning badiiy na'munalarida o'z aksini topgan. Masalan, Ahmed Zavad "Xalil Podshoga" bag'ishlagan "Orzusini ko'rdim" she'rida sevinch-la aytadi: boshimizga tushgan eng qiyin, eng bo'ronli vaziyatda qon-qarindoshlarimiz bizga yordamga kelib ko'planning umidini uyg'otgan paytda:

Men tushimda nozli yorning  
Qo'llarini o'pgandim  
Bu sevinchli zamonlarning  
Ro'yosini ko'rgandim

Shoir aytadiki, mayli bunga ishonmagan ishonmasin, bizning quyosh botib, hamma umidsiz qolganda mening ko'nglim sezdi bunday bo'lmaydi deb. Millatim yo'q bo'lib ketmaydi. Ko'kdan yordam keladi. Shoirni sevintirgan orzusi chin bo'lishini juda xohlaydi. Uning Vatanimizni kuylagan "Ey askar" nomli boshqa she'rida xalifaning farmoniga bosh egib, mazlumlarni qiynganda Kavkaz Islom Armiyasining kelishi bilan yurtimizda vaziyatning yaxshilanishi, zafarlar tarannum etadi. Ayni damda ularning Ozarbayjonga ko'rsatgan xizmatlari aniq misollar orqali tasvir etiladi:

Atrof tumanga burkangan  
Sen afsuski kelmading.  
Ko'rganingda mazlumlarning faryodin  
Yer-u osmon koinotni titratdi.  
Yur, yurgin botgan Quyosh tomonga  
Kulimsirar quyosh yuzinga

Turk armiyasining zafarli yurishlaridan mamnun bo'lgan Ozarbayjon adiblaridan biri Muhammadamin o'gli Salmon Mum-

tozdir. Kavkaz Islom armiyasining yordamga kelishi bilan aloqador shu armiyaning komandiri Nuri podshoga bag`ishlangan “O`yin millat” she`rida o`z xalqini shod kun, ozodlik onlari munosabati bilan tabrik etib, alamlı kurnarning orqada qolganini bildirdi.

Tafakkur qil, ey millat, muroding hosil bo`ldi  
Mashaqqat-la yuksalganing unutma  
Ziyosiz rus zulmidan yuksak ruhing o`ldi  
Og`zi sharobga to`la edi  
Go`zal gul, ochil gul, ko`r turklarning shonli qo`shtinin  
U buyuk Usmonli imperiyasining unvonidir  
Butun turk xalqi qadimiydir  
Bundan keyin turklar ulug`lanadi.

Bundan biroz oldin Kavkaz Islom armiyasining Ozarbayjon hududiga doxil bo`lgan qozoq shoiri A.A. Gayibov komandirlardan biriga bag`ishlangan “Miralay Zemil Zahid bayning madhidida” she`rida qahramon shaxsi orqali turk qo`shtining I jahon urushida boshidan kechirgan shonli yo`lini eslab shunday yozadi:

Siz millat yo`lida to`g`ri ish qilgansiz  
Senga, ey millat joni, ming rahmatlar bo`lsin  
Chekibsan, ranj-zahmat, aziyat, mashaqqatlar  
Turk qavmi iqtidor sohibi o`lsin  
Yana olga yur, ko`tar turkning obro`sın  
Sening uchun shavkat izzat, bizning uchun iftixor o`lsin

Ko`rinib turgani kabi shoir turk qo`shtining o`z millat va davlatlarining salomatligi, iqtidor sohibi ekanligini e`tiborga ola-di. Unga ko`ra, Zemil Zahid bunday murojaat bilan uni yanada yuksalishga, buyuk qahramonliklar ko`rsatishga chaqiradi. Shunday qahramonlikki, unga ko`rsatilgan shon-u shuhrat, turk Ozarbayjon ellariga iftixor keltirsin. Shunday qahramonlikki, zulmi bilan Islom ummatiga yangi hayrat berib, uni xayollariga g`arq etsin.

Shoirning qalamga olgan satrlari turk hissining ta'siri bilan yozilgan.

Sening mangu nominga bu she'rim yodgor bo'lsin  
Qozoq shoiri Abbas Gaibzoda Nazirdan  
Samimiy qalbdan arzi salom bo'lsin

Bu kabi namunalar tahlil qilinganda, yozilgan tarixiy-ijtimoiy sharoitdan ayrib, faqat ularning maydonga chiqish sabablarini keltirmasdan, panturkizm ruhli asarlar kabi o'rganiladi. Real vaziyatdan yuksak tuyg'ulardan tuygan hislar hech bir ro'yo, siyosat va mafkura bilan ifoda qilib bo'lmaydi. Shoir turktilli xalqlarning bir onda razillik hissi bilan boror natijaga kelishi, turktilli xalqlar yer yuzining ezilgan xalqlarining hammasidan uzoq bo'lib, turk sharifi, o'z shonli davronini suradi.

Kavkaz Islom armiyasi kelishining Ozarbayjon adiblari tarafidan bu qadar jo'shqinlik bilan vasf etilishining bosh sababi u zamon Vatanimizning va yangidan tashkil etilgan respublikamizning mahv etish tahlikasining kundan-kun uzoqlashmoqda edi. Qonimizga sohib chiqqanni istagan dushmanlarimiz yo'llarimizni berkitdilar. Ozarbayjon valqining fizik, ma'naviy va siyosiy jihatdan mahv etib yer yuzidan yo'qotishga harakat qildilar.

Ozarbayjondagi mavjud holat mohiyati haqida Bokuning ozod etilmasligi munosabati munosabati bilan nashr qilingan "Haqiqiy kun" nomli maqolasida Muhammadamin Rasulzoda Bolshevik firqa da`vosi haqida yozadi:

"Har millat mustaqil bo'lib yashay oladi", -deb dunyoga qarshi namoyishlar qilgan bolsheviklar Bokuni qo'ldan berishni istamas edilar". "Boku Sovet Rossiyasida lozimdir", - deya Ozarbayjon Demokratiyasiga qasd etmish, baxtli kunlarini turklarning badbaxtligi evaziga qurbanlar bilan ittifoq boshlagan, mart hodisalari Bokuda bo'lib o'tgan xunrezliklar orqali Ozarbayjon madaniyatini yo'q qilishni istashar edi.

Faqat Ozarbayjon turklari bir qadar mayuslik va umidsizlik darajasida qolib yolg'iz Usmonli turklarni yordamiga umid bog'-lab, qardoshlari ovozini kutayotgandi. Bir tarafda bolshevik, menshevik keyinroq ingliz, nemis quvvati, boshqa tarafdan esa Turkiya – Ozarbayjon quvvati kuch bag'ishlayotgan edi.

Birinchi taraf Bokuning Ozarbayjondan ayirishni siyosiy bir qatl kabi istasa, boshqa taraf esa oxirgi tomchi qoni qolguncha haqiqat uchun kurashishni xohlashar edi.

Shukrki, ikkinchi taraf - haqiqat uchun kurashganlar g'olib chiqdi. Boku dushman qo'lidan ozod etilib, ozarbayjonning qonuniy poytaxti kabi tan olindi. Shu munosabat bilan yozilgan "Bismilloh" she'rida istiqlol kuychisi, shoir Anmad Javed Bokuga bunday murojat qiladi:

Ey Boku, sen qo'rhma, keldik.  
Kelamiz sening-chun yordamga keldik  
Sog' qolganlar, onalarga tasalli  
Shahidlarning ruhi shod bo'lsin, Bismilloh  
Yurtimizda bizga sharaf o'qigan  
Yomonliklar qilib charchamagan  
Tanbur ovozini uzoqdan tuygan  
Dushmanimiz omonlik istar, Bismilloh

Ozarbayjon qo'shinini bu tarixiy g'alabasini olqishlagan Dovud taxallusli bir shoir g'alabani kuylab, turk qo'shini, ya'ni Kavkaz Islom qo'shini bizga yordamga kelguncha yurtimizning ustini qora bulut qoplagan, Haimmaning qalbini umidsizlik chulg'agan edi.

Bunday kunda:

Porladi birdan sharqning quyoshi  
Ayro tushdi barcha qon qarindosh  
Dushmanlarni mavh etding shonli qo'shin  
Jonlantirding, ruxsiz qoldi shu yering

Ibrohim Shokir otli boshqa bir muallifning "Turk o'shiniga" nomli manzumasida esa Turk-Ozarbayjon qo'shinining yurishlari tufayli o'z jonidan xavfsiragan dushman tasvirga olingan. Manzuma ushbu misralar bilan yakunlanadi

Shod bo'ldi dunyo, pir-u Javon,  
Juda baxtli dunyomiz xandon.  
Yashasin shonli qo'shin, bor bo'lzin,  
Dushmanlari doimo xor bo'lzin.

Butun bulardan ma'lumki, qozonilgan g'alabalar so'nayotgan umidlarni jonlantirdi. Turk tilli xalqlarning ertangi kuniga ishonch uyg'otdi.

Turk xalqining qudrat va qobiliyatiga ishonch bag'ishlab, bunday xalqning Ozarbayjon turklarining namoyondasi ekanligi bilan faxrlangan ovqalb vatanparvar shoirimiz Abdulselimzoda Muhammad Hodi bu munosabatga "Ozarbayjon" gazetasining ilk sonida nashr ettirgan "Turk nag'malari" she'rida yozadi.

Turkning to'kkani qonlari behuda ketarmi  
Diqqat bilan tushun, yo'qsa bu qon bekor ketarmi  
Dard bilan berilgan bu qadar jon bekor emas  
Mafkura yo'lida to'kilgan qon bekor emas  
Qiymatli o'lgan shahid qoni bekor emas  
...Baxtsiz bo'lgan afg'on – yetim bekor ems  
Turkning to'kkani qonlari behuda ketarmi  
Diqqat bilan tushun yo'qsa rostdan bekor ketar.

She'rdan ko'rinish turgani kabi 4 yil ichida (muallif 1-jahon urushini nazarda tutyapti) turk irqi, shu jumladan Ozarbayjon turklari ozodlik va istiqlol mafkurasi yo'lida qon to'kar, shahid bo'lar xotinlar tul, bolalar yetim qolar. Butun bular bekorga emas, burriyat uchun kurashdir. Shu uchun shoир so'zini qat'iyat bilan davom ettiradi.

Qon bilan qozongan zafarlarni bermaylik qo'ldan.  
Asraylik xalqni dovuldan,  
Aslo qo'rqlaymiz azal-azaldan.  
Zahmat cheksak ham davrdan,  
Turklar chekinmaydi amaldan.

Muhammad Hodining dunyoga bunday dav'at bilan chiqishiga sabab, o'zini turk dunyosiga bag'ishlab uning mavhi uchun og'zidan olov purkagan davlatlardan qo'rqlasdan zafar uchun kurashga bel bog'laganligidir.

Shoir g'oyibdan kelgan g'urur va jasoratlar bayon etadiki, dunyo ostin-ustin bo'lib, o'z o'qidan chiqib ketsa ham turkni o'z amalidan ketkaza olmaydi. Bu jasorat unga 1-jahon urushida turklarning g'alaba qozonishiga ishontirdi. Bunga uning ham ma'nnaviy, ham huquqiy imkonli bor shoir shu fikrlarni 1-jahon urushining oxirlarida 1918-yilning oktabrlarida nashr ettirilgan "Ikki tomonning urushga munosabati" va "Inqilob zarbasi" maqolalarida ilmiy-publistik shaklda bayon etadi.

Birinchi maqola ikki siyosiy arbob – german va ingliz "harbiy vazirlar" ning jahon urushining taqdiri haqidagi fikrlariga asoslangan. Bu maqolada M. Hodini Germaniyaning harbiy vaziri, feldmarshal Kuchnerinning fikrlari e'tiborini tortdi. "Bu jahon urushida (1-jahon urushi nazarda tutilyapdi – A.B) qaysi millat, qaysi ishtirokchi davlatning xalqi, irodasi metin va sog'lom bo'lsa u g'alaba qozonadi."

M. Hodini shu fikrlarni davom ettirib, yozadi: "Bundan anglas-hilgani shuki, irodasi sog'lom va metin bo'limgan millatning mag'lubiyati ham aniqdir. Hayotda mag'lub bo'lganlarga salom!"

Bu yerda vatanparvar mutafakkirming diqqatini jaib qilgan genetik aloqasi kuchli bo'lgan xalqlarning vatanparvar mutaffakkirlarning diqqatini jaib etgan narsa kurashganlarning doim g'olib bo'lib, boshqalarning yengilayotganligidir. Unga ko'ra, u o'z xalqining porloq kelajagini ta'minlash uchun g'ayrat bilan harakat qilmoq lozimdir, aks holda mag'lubiyat aniqdir.

Shunday qilib, qondoshlarimiz bo'lgan usmonlilar beshinchı yilga qadam qo'yayotgan I-jahon urushi qay darajada sog'lom ekanligini butunligicha ko'rsatadi.

Albatta, hayotda va urushda g'olib chiqish uchun quvvat va matonatlil bo'lmoq, qanday kuch qarshisida usmonlilar kabi qarsi turib, turktilli xalqlarni asrab. mustaqil yashashga loyiq ekanliklarini ko'rsatmoq lozim

M.Hodi tushunadiki, xalqning mustaqilligi va ozodligi uning fizik qudrati bilan barobar aqli va zehni bilan qo'riqlanadi. Haqiqatan ham aql va tushuncha bilan idora qilinmagan kuch hech qanday samara bermaydi. Undan tashqari, boshqa bir "Inqilob zarbasi" maqolasida ajdodlarimizning qimmatbahosini ,asarlarini o'rganmay turib, go'zal kelajakka sohib bo'la olmaymiz.

Tarixga nazar solsak, shu narsa ma'lum bo'ladiki, avvallari tashabbus ko'rsatmaganimiz uchun idrokimiz bo'sh qotib, yerusti, yerosti boyliklarimiz vatanimiz dushmanlari tomonidan talandi va endi ham talanmoqda.

Ko'rriburgani kabi, M.Hadini bezovta qilgan bu og'riqlar g'aflatda qolgan ajdodlarining hatto ziyoli vatanparvarlarning ovozini eshitgach. biroz ma'naviy quvvat oladi.

M.Hodi bu mahsuldor, yoqimli, sahovatli diyorga, vatanimiz Kavkazga asl sohib huquqini qozonmoq uchun idrok, fikr, tushuncha va ilm, fan sarmoyasi bilan miyamizni to'ldirish kerakligini uqtiradi. Fikrini quyidagicha yakunlaydi:

"Nasihatlar va musibat otashlari inqilob zarbalari bizni hushyor etsin..."

1918-yilning 15-sentabrida Boku dushmanlarimizdan ozod etilib, qonuniy va huquqiy poytaxtimiz bo'lganda Hodi turk xalqlarining o'z milliy sharaf va layoqatini azm va matonat-la kuylab, dushmanning ustidan g'olib kelishi munosabati bilan yozilgan "Zafar qozonildi" she'rida bu g'alabani poetik pafos bilan tarannum etadi:

Mard askarlarga taqdir aziyat etar  
Askar bo'lish farzdir har mo'minga

Askar o'lmoq sharafdir turk uchun, islom uchun  
Mardlik bilan yashar askar shon bilan  
Issiq umr istasak quyoshga boqamiz.

Demak, asl kishi askar bo'lishni o'ziga sharaf deb bilishi kerak. Chunki vatan va millatni qo'riqlagan, uning sharafini saqlagan quvvat askardir. Bu koinotda quyoshli, xushbaxt bir umr surishni istagan har bir xalq uning borligiga, huquqiga tajovuz etgan dushmanlariga qarshi kurashmog'i, shu vatan uchun harakat qilmog'i lozimdir. Hodi faxr va sevinch-la bildirdiki, turk o'g'li o'z nomusini qilich, dildagi iyomon, adolat bilan qo'riqlaydi. Ular dunyo olovi so'nsa-da qo'rqlaydilar:

Qo'rqlasmiz dushmanidan also, botsa dunyo quyoshi  
Har zamonda titraydi dunyo otashi  
Qadimdan shonlidir tariximiz  
Bo'ron kabi yashnaydi tarix  
Qo'rqlaymiz hech kimdan ne desa ham

M.Hodining fikricha, Ozarbayjonda yuksalgan hilol butun Sharq olamiga bir nur bag'ishlagan.

Shoir ishonadiki, vatan va xalqning ozodligi, saodati va istiqboli yo'lida qurbon bo'lganlarning nomi abadiy tirik bo'ladi va ruhlari shod bo'ladi. Shu fikrlarni 1918-yil Bokuda sodir etilgfan Mart qirg' inlari va ozodligimiz uchun qurbon bo'lganlar xotirasiga baxsh etib yozgan "Qurbonlarga bag'ishlov" she'rida asoslaydi.

Muhabbat mangudir bu dunyoda  
Sizning ruhingiz o'chsin arshi-aloda  
Bizni xalos etar asoratdan  
Butun boshli vaslatdan  
Butun bu sharaf va layoqat-la  
Shahidlar haqiqiy istiqbol fidoiyları bo'lishga  
loyiqdirlar.

Ahmed Javadning "Ozorbayjondagi usmonli shahidlarga" murojaatnomasidagi "Galx" she'rida ham Ozarbayjon turklari ning ozodligi va istiqlolli uchun jonidan kevhgan qon-qarindoshlarning ruhlari qarshisida so'ngsiz minnatdorchilik izhor etadi. Bu tuyg'u shahidlarni qo'sha-qo'sha ziyoratga kelgan ozarbayjonlik qardoshlarining ham ko'nglida ham o'z ifodasini topgan.

Ozarbayjon tuprog'i "qudratining shahid qonidan o'sib chiqqan lolalar" bir bor muqaddas ekanligi, boshlangan amallar ko'rilgan ro'yolar haqiqatda amalga oshmoqda.

Sening qoningdan o'sib chiqqan  
Qudratli o'sib chiqqan lola.  
Tillaringdan bir yoniq nola  
Yoqsa u nolaning ruhimga so'ylar,  
Kelarkan osmonda bir qator turna.  
Yig'laydi bu yerda ko'zлari surma,  
Boq, to'g'ri chiqmoqqa ko'ringan riyos.  
Boshlangan amal bu kun ushalar.

M.Hodi butunligicha aks ettirgan, istiqlolning hali bu hammasi degani emas. Bu istiqlolni g'ayrat va matonat-laqo'riqlash lozimdir. Bu fikrlarni "Askarlarimiz ko'ngillarimizda" she'rida yozadi:

Millatning nomusi sizdan ko'p harakat kutadi,  
Davlatni, milliy qadriyatni kutadi.  
Kutadi sizdan zafar, istiqlolimiz  
Shonli g'ayrat, shonli himmat, shonli jur'at kutadi.  
Bir boqing iffatparvar millatimizga  
Demishki, bir umid sizdan hamiyat kutadi  
Yutimiz bugun sizdan ko'p himmat kutadi.

Ozarbayjon turklarining haqiqatdan aytadiki, natijasi yaxshi bo'lishi uchun, albatta, chin dildan kurashmoq lozim. M.Hodi shuningdek "Askarlarinizi ko'nglimizda she'rining 2-bandida shunday yozadi"

Qo'rqitmasin bizni yo'llarda  
Mafkuraning yo'lidan yur, turma tez kel  
Millat yo'lingda haykal qo'yadi  
Qo'yma yutinga ishongan el.

Bu yerda M.Hodi tarixiy shon-shuhratga, qahramonlik an'analariga molik bo'lgan bir millat o'z layoqatini asramoqning har bir onini fikri bilan talqin qilar, chunki o'zligini asrashga g'ayrat va jasorati yetmagan kishi millat boshqalar tarafidan tahqir va toptalishga mahkumdir.

Shonsiz yashamoq istamaymiz, shon tilaymiz shon.  
Xalqning hamiyat, dili parishon.  
Himmatlarda bilak, amal nurafshon,  
G'ayratsiz bo'lgan millat bo'ladi benishon.  
Amallarimizga to'g'ri kelmasa ham kel,  
Millatga, Vatanga qurban bo'laman kel.

M.Hodi bu olovli chaqiriqlarni, vatani ozod bo'lmagan millat o'zligini asrab yasholmasigini ta'kidlaydi.

Shunga ko'ra hubbul vatan –vatanni sevishimizni also kamaytirmaylik.

Shoir, butun bu vazifalarni ado etish uchun millatning boshinda layoqat-la turib, idora qilishga qodir bo'lgan davlatning bo'lishi zarurdir. Ikki bandan iborat "Mafkurani egallaymiz" tarkibidagi Ozarbayjon davlati nomli she'rida yosh Ozarbayjon davlatini xalq va vatanining sharaf va layoqatini idora etishga chaqirdi:

Qoldir samo-shavkatni nazm-u hilolga  
Ko'rsat bu arzning ahliga qayg'u ozorini  
Isbot qil hayotga ig'vo, alamni  
Baxsh ayla hayotni shavqi azmga  
Kuchli ko'rın dushman yig'lasin  
Millat yuzida xandon umid porlasin.

Shoir orzu qiladiki, Ozarbayjonning yosh demokratik davlati olib borayotgan aqlli, tushunarli, foydali siyosati bilan dunyo xalqlarining rahmat va tahsiniga sazovor bo'lib, millatning sharafini yanada yuksaltirsin. Bu istak bilan shunday yozadi:

Iqtidoring siyosini ko'rsin butun jahon  
Ey turk davlati, sening baxting novjahon  
Olsin butun dunyo siyosatin  
Sharaf bilan qo'liga  
Bilsin nedir layoqati bu shonli millatning

M.Hodi tushundiki, millatning istiqqloli asosli va davomli bo'lishi, uning namoyondalarining aqli va bilim saviyasiga bog'liqdir. Muhammad Hoji davlatning, millatning taraqqiyoti, olib borgan siyosati xalqi tomonidan qo'llab-quvvatlangandagina istalgan samarani beradi. Xalqi ilmsiz va taraqqiyotsiz bo'lsa, bu davlat uchun istiqlol va saodat yo'qdir. Shu fikrlarini M.Hodi "Vaqtning sasi va hayotning so'zi" she'rida quyidagicha ifoda etadi"

Ilming, hunaring, ma'rifating bo'lsa,kel  
Yo'qsa, bu hayot alamin olar har gal  
Ajdodlar yeridir bilki bu maydon  
Kim toptasa uni derlarki nodon  
Sohib bo'lgan yerkarda quvvat bilan amin bo'l  
Ey, kuchsiz bo'lgan sen faqat zamin bo'l  
Yolg'on ila taraqqiy yo'q, so'zla faqat rostini  
Bilsang qancha qudratli so'zning chin-u rostini

Muhammad Hodining fikriga ko'ra, ilm va texnikaning yutuqlarini hayotga tatbiq etishni bajargan millatlar dunyoga hukmron bo'ladilar. Chunki ular harbiy tehnikani ham puxta biladilar.

Bunday ko'rinish turibdiki, millatning davlatning va vatanning yorqin kelajagi baxtli tongi, bu tongga chiqish uchun qarshisida turgan vazifalarning bajarilishi shoir uchun muammolarning

hal bo'lishidir. Shoir bundan so'ng o'tmishni eslashdan ko'ra romantik kelajakni vasf etishni reallikdan chetga chiqib, chin dildan qilingan orzular uchun olib borilgan kurashlarda to'kilgan qonlarni eslamaslikni faqatgina, mustaqillikni kuylab yashashni afzal ko'radi.

Yo'qlikdagilar, ko'z nurin ichida,  
Yulduzlar uzra; ochiq havo ichida.  
Quyosh esa oyga, nurga bir olam,  
Mazlum bashariyat yana ovorai olam.  
Ovorai olam, albat ovorai - mutlaq,  
Bo'lmas tabiat-la, kamolotga muvaffaq.

Shoirni tashvishga solgan narsa hamyurtlarining umidsiz, yomon ahvoli edi. Chunki uning fikriga ko'ra, bashar avlodni bu andishali to's-to'polon ichida, shu ahvoli ruhiyatida ham bo'lsa, hech qachon "kamolotga erisha olmas". U bu vaziyatdan chiqish yo'lini yomonlikdan uzoq bo'lishda, kelajakka nekbin nigoh ila boqishda ko'rardi. Shunday ekan, bu she'r yozilgandan so'ng bir hafta o'tgach, qalamga olgan "Umid bilan yashayin!" maqolasining muqaddimasida qo'ygan fikrida quyodagicha davom etdi: "Shu kunlarda siyosat olamida yangi o'zgartirish vujudga keldi. Bu yangi siyosat, chtimolki, insonlarning umidini yo'q qildi. Bi-roq umid yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik kerak. Istiqbolga porloq bir umid ila boqishimiz, bizni bo'g'ishni istaganni biz o'zimiz bo'g'is-himiz lozim".

M.Hodiy hamyurtlarini Birinchi jahon urushining oxiriga ya-qinlashishi bilan aloqada dunyo siyosatiga e'tibor qaratib, Ozarbayjonning ham ijtimoiy-siyosiy va milliy-ma'naviy qarama-qarshiliklariga ta'sir ko'rsatgan o'zgarishlar qarshisida parchalanib, o'z mardonavor kayfiyatini yo'qotmaslik uchun, bizni bo'g'ishni istaganni biz o'zimiz bo'g'ishimiz kerakligiga chorladi. So'ngra jahondagi protseslarda ilk boqishda ko'zga tashlanmaydigan hodisa hamda vaziyatlarning yuzaga chiqishini tabiiy holda va mumkin qadar ko'rsatardiki, ya'ni "orzulariga xilof bo'lган

shafqatsiz bu holatlarga yakun yasalishi kerak. Bil'aks qalbimizga yanada kuchli matonatni baxsh etishi uchun". Shoir Ch.Darvining tabiiy tanlanish qonuniga muvosiq hayotda faqat "yashashga loyiq bo'lganlarning yashay olishini" nazarda tutib, bizni yashashga loyiq ekanligimizni o'z faoliyatimiz bilan isbot qilishga ruhlantirar, ayni paytda buning uchun jamiyatning mavjud qonunlaridan va davlatlarning siyosat ishlaridan yuz burib, ishlashimizda xususiy ahamiyat tasdig'ini ko'rsatib, quyidagicha xabar qildi: "G'am ruhning o'llimi, umid esa ruhning tirikligidir. Milliy siyosat qanday ish ko'rsa-ko'rsin, faqat millatimizdagi begonalar umidni sindirmasalar bo'lgni".

Butun bir tushuntirishlardan so'ng M.Hodiy yuzini hamyurtlariga qaratib deydiki, kurashni amalda olib borishimiz kerak, nurli tongga yetish uchun "iqbol va istiqbol umidi bilan yashaylik, do'stlar!". Shoirning qattiq qanoati va matonatiga ko'ra: "Istiqlol jayoli - hayot bo'lganlarniki emas, o'chmas va o'lmas bir umid ila ishlayotganlarnikidir". M.Hodiyning butun bir vatandosh-shoirlilik tashvishlari tutqunlik davrining ijtimoiy-adabiy fikrining ahamiyati ifoda etishi bilan qiymatlidir. U bir tarafdan "turklarning to'kilgan qonlarining behuda" ketmay, natija berajagidan yozar, bir tarafdan esa vatandoshlari umid va ishonch ila yashashga chaqirar, yana bir tarafdan esa askarlarimiz va davlatimizni vatanni, qozoniladigan istiqlolimizni qo'riqlashga chaqirar, o'z birodarlarining turk millatining kuchli, matonatli va diyonatli bo'lib, ozod bo'lishiga haqqi borligiga o'quvchilarini ishontirishga urinar, har narsadan avval ilmiy bilimlarga, bashariyatning idrok xazinasi ning kalitlariga ega bo'lishning vojibligini nazarda tutardi.

Yosh shoir Ali Yusufning "Bir turk yo'lovchisi deydiki" sh'eridan ko'ringani kabi Ozarbayjon ijtimoiy-adabiy fikri necha asrlardan beri uyquda qolgan Sharqning dardina ham turk-ozarbayjon yigitining chora topishiga chuqr ishonardi. Bu ishonch bilan olamga jar soldiki:

Dedilarki, o'ksik Sharqning ko'rgan bog'ida,  
Qayta boshdan qizil gullar, yosumanlar gullajak.

Bu qorong'u kechalarning hissiz, sovuq chog'ida,  
Olmos yulduz tug'ilajak, eski yulduz so'najak.

Shoir sevinch bilan "Ozarbayjon turkining qo'lidagi eski otash qaytadan olovlanib, alangalanishini" bildirdi. Qahramonning yuragini shunday bir tuyg'u va ishonch to'ldirdiki, beixtiyor "bugun Sharqqa Ka'ba bo'lgan bu o'lka - Ozarbayjon ertaga Turron, O'g'uz elining hatto butun sharqning ziyoratgohiga aylana-jak" degan so'zlarni aytdi. Shu tariqa yuzini sirdosh-qardoshlariga tutib, shunday murojaat qildi:

Ey, turk o'g'li! Seni Tangri sharqqa tomon yubordi,  
Mudroq yurtni qardosh kabi titrat, qoldir, uyg'ontir.  
Ya'nii ma'sud bir hayotga da'vat ayla, ishontir,  
Yuragingda so'nmaydiga bir tabiiy olov yondir.

Ozarbayjon turklarining bu vazifani o'z zimmasiga olishi uchun, turli imkon va qobiliyatlarning bo'lishi uchun shoir butun umidlarini hayotning o'zidan oldi. Tasodif emaski, Ozarbayjon Demokratik Respublikasini va hukumatini xalqaro dunyo bir shart bilan qabul qildi. Ya'nii Ozarbayjon xalqi ham o'zini mustaqil ravishda idora etish uchun jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan tayyor bo'lishi kerak. G'arb dunyosi bu xalqning milliy mustaqilligini tanitmoq yo'lida uning madaniy va aqliy saviyasining o'chog'i bo'lishi kerakligi haqidagi fikrini bir bahona kabi ilgari surdi. Ya'niki, milliy dushmanlarimiz xalqning aqliy va madaniy saviyasini faktik ko'rsatuvchi bo'lgan milliy universitetining ochilishiga turli yo'llar bilan monelik qildilar. Ochiq ko'zli taraqqiy-parvar xodimlarimiz buni tamoman tark etganliklari va xalqqa malakali kadrlar tayyorlash orqali uning kelajak hayotining taraqqiy etishi va mustahkamlanishi bu yo'lida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan norozi, qarshi chiqib, monelik qilganlarni shijoat bilan daf qilishda kerak bo'lishini bilishardi. Masalan, poliglot olim, olov-qalb publitsist va ijtimoiy xodim Muhammad og'a Shohtaxtli "O-

zarbayjonda dorilfunun" maqolasida bu munosabat bilan quyidagicha yozdi: "Nega biz hur - mustaqil bo'lganimizni namoyish etmaymiz? Biz jamiyatda hurriyat sohiblarimiz. Modomiki shunday ekan Yevropa o'lchovlariga o'xshamagan mustaqil va erkin bir dorulfunun ochmog'imiz kerakki, toki bu dorilfununimiz mustaqil bo'lganimizning dalili bo'lib, bizning nafsoniyatimizga tegish uchun yevropaliklarning "siz mustaqil - erkin emassiz. Sizga istiqlol berilmaydi" degan iddaolarini olsin. Shu tariqa norozilarning moneliklariga qaramasdan, 1919-yilda Ozarbayjon xalqining ilk milliy universiteti ochildi. Bu tarixiy, madaniy hodisadan biroz avval esa, Qori-muallimlar instituti Ozarbayjon sho'basing ulug' olimi Faridun bey Ko'charlining rahbarligi ostida Qozog'istonga ko'chirib, mustaqil Qozoq Muallimlar instituti nomi bilan faoliyatini boshladi. 1918-yil 8-9 noyabr kunlari ushbu institutga ilk qabul imtihonlari bo'lib o'tdi.

Ko'pgina ziyorolarimiz faqat shuning bilan hamma ish hal bo'lmasligini bildirishdi. Ular begona madaniyat o'choqlarining ta'sis etilishi zaruratinibir vazifa kabi ilgari surdi. Shu jihatdan ulug' yozuvchi va ijtimoiy-xodim Yusuf Vazirning "Milliy madaniy ishlarimiz" nomli umumiy mazmunli maqolalari diqqatga loyiqidir.

Muallif bu maqolalarda milliy kutubxona, nashriyot shirkati, matbuotning yaratilishi lozimligi masalasini ilgari surish fikrni, ulug' adiblarimizning, shu jumladan F.Ko'charlining qiyamatli asarlarining nashr etilib xalqqa tortiq qilinishini bir vazifa sifatida oldinga surdi. Bundan tashqari, ulug' san'atkorlarning, shu jumladan Sabrning asarlari nashri masalasini "Yashil qalam" adabiy uyushmasi zimmasiga olib, bu ish ijrosi uchun gazeta orqali shoirning ustozlaridan ijozat istadi. Birozdan so'ng Sabrning ustozlarining ulug'laridan bo'lmish Ashraf Safarovning imzosi bilan yozilgan "Tashakkur izhori" maktubida ustozlarning bu ishga roziligi va tashakkuri bildirildi. "Yashil qalam" adabiy uyushmasida shoir va yozuvchilarining hayoti va ijodi haqida ma'ruzalar tinglanar, yangi qalam mahsullari bilan ijodkor ziyorolar safini erta tark etgan Abbas Sihat va boshqalarning matbuotga zid asarlari ham

o'qilar, muzokara qilinardi. Bundan boshqa milliy hukumat yetuk mutaxassis bo'lgan yosh kadrlarni yetishtirish qayg'usida qolgan ziylolilarning ko'pchiligi tahlilini yanada takomillashtirish uchun, xorijga o'qishga yuborildi. Barcha tadbirlarning aks-sadosi o'z badiy aksini she'riyatda topdi. Masalan, Ali Yusufning Zeyhunbey Hojibeyliga bag'ishlangan Y. taxallusli "Ketma" she'rida birodar va yaqin do'stining ayrilig'idan ma'yuslikda qolishi bilan birga, muallif o'z qahramonini yo'qotmaslikni xohlar edi. Ali Yusufning yana bir "Alvido" she'rida esa xorijiy o'lkaza o'qish uchun yo'lga tushgan yigitchaning dilidan kechganlari bayon qilinadi:

Ey muqaddas shonli, sevimli o'ljam,  
Haqqini halol et, biz ketar bo'ldik.  
Kim bilan qazoga qaytnasmiz balki,  
Haqqining halol et, qaytmasmiz balki.

Bu misralarda o'z yurtiga qalban bog'langan bo'lib, undan yiroqda bo'lsa, azoblar ichida ayrilgan vatandoshining yurak dardlaridek tuyuladi. Safar uchun yo'lga chiqish mashaqqati bu vatan-parvar uchun tashvish bo'lsa-da, u vatan oldidagi bo'yniga tushgan vazifani ado etish uchun tamoman ketib borardi. Vataniga, eliga bog'langan rishtalar sababli, uning qarshisida muqaddas burchi boshiga tushgani uchun, qahramon so'ngi va og'ir bo'lgan xayrashish orasida o'z yurtidan halollik ulashni istamoqda. Xalqning milliy-ma'daniy, tarixiy potensial imkonlari, davlat tanazzulga uchragan paytdagi ko'rilgan ishlar va boshqa ko'rsatmalar Ozarbayjon mustaqilligining xalqaro davlatlar tarafidan tanilishi-ga kifoya qiladigan asos bo'ldi. Bularning hammasi Muhammad og'a Shohtaxtli o'zining "Respublikamizning jahonga tanilishi" maqolasida ilmiy-mantiqiy dalillar bilan asoslandi. Shunisi qiziqki, maqola chop etilganidan bir necha kun o'tgandan keyin, hayot Muhammad og'aning mulohazasi va fikrining nechog'li to'g'ri bo'lganini tasdiqladi. Ya'ni 1920-yil 13-yanvarda Parij tinchlik konferensiyasida Ozarbayjon davlar mustaqilligining tan olinishi haqida qaror qabul qilindi. Shu munosabat bilan o'lkada darhol

o'sha oqshom bayram alangasi yoqildi. Matbuotda farahli va sevinchga to'la ijod namunalari, jumladan, Dovudning "Millatimga" she'ri, M.Rasulzodaning "Ko'zlarimiz aytin", Homidiyning "Ozarbayjonning buyuk kuni" va boshqa maqlolalar chop etildi. Shuni ta'kidlash lozimki, davlat mustaqilligi tasdig'inining xatari va shu bilan birga qalamga olingan ijod namunalarining chop etilishi 1920-yil 14-yanvar sanasidan boshlab "Mustaqil Ozarbayjon" nomi bilan chop ettirdi. Milliy ozodlik tufayli yuzaga kelgan sevinchning ko'z qamashtiruvchi ta'siri juda tez yoyildiki, xalq bu ozodlik va mustaqillikning qo'lda saqlanib qolinishi uchun amaliy tadbirlar qildi, vatanni qo'rqliash lozimligini anglatdi va o'zini bu ishga safarbar etdi. O'sha kunlarda vatanni madh etuvchi asarlar tez-tez ko'rina boshladi. Masalan, R.Afandizodaning "Vatan" she'rida shunday bir g'oya talqin etilganki, Vatanni asrash har bir fuqaroning burchidir. Chunki bu yerda ota-bobolarimiz yotibdi. Aks holda kelajak avlodning nafratiga duchor bo'ladi. Badr taxallusi bilan "Dushmanga" she'rida dushman uchun maydon tayyolab, "kim bo'lsang ham vatanni senga bermaymiz. Chunki uning har qarichini qonimiz bolan lolazorga aylantirdik" degan fikrni bildiradi. Ali Mastonning "Bir askar tilidan" yozuvini "Vatan" she'rida uchratishimiz mumkin:

Men ketyapman, Vatan, sen qol salomat,  
Turk askari istamas hech malomat.  
Yovuzlikdan turklarda bor sinoat,  
Ketarkanman, kulib-kulib jo'nayman  
Ey sirlar olamining makoni.

Bu yerda qahramon endi amaliy tarzda ish boshlab, vatanga sihat-salomatlilik tilab, uning uchun shijoat ila kurashga chog'lanmoqda. Qizig'i shundaki, onalar ham o'z farzandlarining vatan yo'llida shahid bo'lismiga, bu juda qiyin bo'lsa ham, sabr qilishga tayyor. Toki Vatan omon bo'lsin. Bu jihatdan " Bir ozarbayjon ayloning go'dagiga alla aytgani" nomi bilan taxallussiz chop etilgan she'r diqqatga sazovordir. Ona o'g'liga quyidagicha alla aytgan:

Alla-alla bolam, allayo,  
Askar bolam allayo.  
Bu Vatanchun yelkangga,  
Mas'uliyat olarsan.  
Vatan ila millatni,  
O'g'lim, rozi qilarsan.  
Alla-alla bolam, allayo,  
Askar bolam allayo.  
Sarhadda bir nafar ham,  
Bo'lса, qo'yма dushmanni.  
Vatan uchun jon bersang,  
Shod etursan sen meni.  
Alla-alla bolam, allayo,  
Askar bolam allayo.

Butun bir vatanparvarlik g'oyasi bilan barobar holda, muallif  
Ona qalbining farzand dog'inin ham esdan chiqarmaydi. O'g'lini  
kurashga yuborgan Ona uning vatan yo'lida qurbon bo'lishiga  
tayyor ekanligini bildirib, bundan rohat topishini so'ylasa ham,  
uning sog'-salomat qaytishi uchun Allohga quyidagicha duo qilib,  
yalinadi:

Ilohim Vatanimni  
Qil salomat balodan.  
Vatan, millat yo'lida,  
Kecharman shu bolamdan.  
Alla-alla bolam allayo,  
Askar bolam allayo.

She'rдан ko'riniб turganidek, yurtни dushmanlardan qo'riq-  
lash vazifasiga vatan o'g'lonlarining tayyor turishi g'oyasi davr-  
ning poeziyasida ham o'z aksini topgan. O'lka va millat nomusin-  
ning asralishiga qo'shindan, askarlardan, hamda uning ham ma'-  
nan, ham jismonan tayyorgarligi tufayli erishilishiga M.Hodiy  
she'riyatida boshqa shoirlarning asarlaridagidan ko'proq nazar

tashladi. Taqdirga loyiq jihatlardan biri shunda ediki, bu asarlar quruq, bo'sh va ta'sirsiz xabarlardan uzoq bo'lib, o'zining badiiyg'oyaviy kayfiyat bilan vatan o'g'lolnariqa vatanning xavfsizligi yo'lida chekinmasligining muqaddasligi va kerakli fikrini ochib bera oldi. Yurt o'g'lona quyidagicha bir g'oya talqin qilindi: se ning himoyang bu tuproq ne'matlarning (ota-onang qoni ham o'sha tuproq ne'matlardan biri) himoyasi, shu orqali ona tuproqning jamiki ne'matlari timsolida yurt tuprog'ini himoya qilish bilan butun borlig'ingni ham ona zaminga baxshida et. Shunday ekan, har bir kishi Vatanini himoya qilishi bilan aslida o'zini, o'z borlig'ini himoya qilgan bo'ladi. Kurashuvchi inson vatan yo'lida shahid bo'lib, tuproqqa qo'shilishi bilan o'zligiga, o'zining tiriklik hayotiga qaytadi. Bu shunday bir holki, ajdodlarimiz asragan bu zaminning sharaf va shavkatini asrashimiz bilan ertangi kunning yosh avlodlariga yetkazgan bo'lamiz. Bu ayni haqiqat, bu falsafiy hikmatni anglab yetgan Vatan o'g'loni kurashga yo'llanar ekan:

So'zlarimiz validasidir Vatan,  
Lutf ila so'zlaymiz hainmaga.  
Uning, hammamiz sog' ekan,  
Shaylanaylik vatan himoyasiga.

O'shanday bir falsafiy jasorat hamda zaminga egalik hissi bilan kurashga chog'langan askar ortga chekinishni xayoliga ham keltirmaydi. Unga shunday bir qattiq ishonch yordam beradi:

Bu yerni qon to'kib olgan ajdodlar,  
Olloh deb, qilichlarini yalang'ochlab chopganlar.  
Mabodo biz qochar bo'lsak, bizlarni ko'rарlar,  
U tanalar yerga chiqib, ustimizga kelarlar.

Bu saf qo'shiqlari va kurash qo'shiqlarining bir ahamiyati ularning yosh avlodga, zaminga egalik hissini uyg'otishdir. Yurtga egalik hissi kuchli bo'lgan insonda vatanparvarlik va qahra-

monlik tuyg'usi ham yuksak bo'ladi va u "jonim Ozarbayjonga fi-do bo'lsin, qonim Ozarbayjon uchun halol bo'lsin" degan qat'iyat bilan kurashga otlanadi. Armiya saf qo'shiqlarining yaratilishi va ularning kitobchalar shaklida to'plangan nashrlari vatan uchun armiyani, armiya uchun saf va kurash qo'shiqlarining naqadar ahamiyatga egaligini ko'rsatadi. Buning natijasi o'lar oq Sadoqat Madedovaning quyidagi satrlari e'tiborga loyiq: "Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida milliy armiya bilan bir qatorda uning saf qo'shiqlari ham yaratildi. O'sha saf qo'shiqlarida zaminga egalik hissining ortishi bilan qahramonlik, kurashuvchanlik va chaqiriq ruhi bilan kelaveradi:

Vatan qo'lidan ketmoqda,  
Bizga faryod qilmoqda.  
Yengillikka yet deydi,  
Faryodimga kel deydi.  
Vatan ozodligiga,  
Tinchligiga kel deydi.

Ozmi-ko'pmi taassub va zaminga egalik hissi bo'lgan odamning bu kabi azaliy, abadiy va bashariy chaqirig'i evaziga javob qaytarmaslik mumkin emas. Chunki asl vatandosh mulkiy, milliy va davlatga oid ziddiyatni uning bu kabi chaqirig'iga munosabatini bildirishi bilan bartaraf etadi.

Davrning she'riyat namunalarida Ozarbayjon Armiyasini tajovuzkor emas, balki o'z vatanini yot ta'sirlardan, bosqin va tajovuzlardan saqlagan tinchlik tarafdori, adolatli qo'shin ekanligi xususida so'z yuritilgan va askarlarimiz ham shu ruhda tarbiyalangan. Ayni zamonda, eng yaqinlarimiz - ota-onalar ham esdan chiqarilmagan. Ular o'z o'g'llarini kurashdan, askarlikdan turfa xil yo'llar bilan uzoqlashtirish fikridan yiroq holda, vatanini himoya qilishga yo'l olgan er-yigitlarning qo'l-qanotlarini ko'z yoshlari bilan artib, ruhlarini cho'ktirmay, er-yigitlarimizga ma'naviy suyanch, tayanch bo'lib, ularning kurashish siyosatini o'z diyonat va imonlari bilan yuksaltirishga chorlardi. Um Gulsum, Muhammad

Umid Yoshli, Ibrohim Shokir va boshqalarning ba'zi qalam mahsullari fikrimiz dalilidir. Davrning ijtimoiy-adabiy muhitida milliy armiyaga bu qadar diqqat berilishi bir tarafdan Vatan va xalqimizning og'ir muammolarini hal etishda, milliy ziddiyatlarda armiyaning tutgan o'mining muhimligidan dalolat bersa, boshqa tarafdan ham o'sha davrda vatanimiz hamda davlatimizning ancha katta kuchlar tarafidan siyosiy va harbiy tazyiqqa uchrashi bilan bog'liq aloqalar edi. Vaziyatni qiyinlashtirgan masalalardan biri ham Birinchi jahon urushida mag'lub bo'lgan "Uchlar Ittifoqi" ning namoyondalaridan biri bo'lgan Turkiyaning ham xalqaro imperialist kuchlar tomonga o'tishi va g'olib taraf - Antantaning tabibi bilan Kavkaz Islom Armiyasining Ozarbayjonni tark etmoqchiligida edi. Turk dunyosi va Ozarbayjonning bu siyosiy vaziyatidan chuqur qayg'uga botgan Abdulla Shoyiq "Vatanning yoniq ovozi" nomli she'rida Vatan tili bilan ulug' bobokalonlarimizning shon-shuhratli o'tmishiga nazar soldi. Kavkazning - bu ulug' vatanimizning go'zal va xushbaxt kunlarini, bizning ulug' ajdodlari-mizni necha bor sevinchla o'z ko'ksiga olganda va bu avlodlarning timsolida o'ziga e'tiborli qo'rirqchi topib doim mammuniyatda bo'l-gani, jasorat va rohat topganini xotirlab, bugungi manzaradan, o'sha naslning avlodlarida avvalgi talpinishni ko'rмагандан рангиганини quyidagicha ifoda etdi:

O tangizdan uzilguncha qo'llarim,  
Ko'zlarimni sizga tikardim faqat.  
"Nasldan naslga o'tadi" derdim,  
"Yomon kunda yupanch bo'larsiz" derdim.

Umidlarining sarobga aylanganligini ko'rgan Vatan bugungi avlodning zaminga, yurtga "egalik" hissini qayerdan olishi haqidagi, milliy-ma'naviy loqaydliklar sabablari to'g'risidagi savollariga qat'iyat bilan javob topib, bildirdi:

O sen, o baxtiyor ko'nglim to'la qon.  
Qayta uqubatni takror chekaman.

So'nmas tanda eski sevgi va imon,  
Yuz, boshimni olchoqlarga egaman.  
Momaqaldiroq chaqsin!  
Bulutlarim to'fonga hozirlansin  
Tog'im, toshim bo'yalsin qizil qonga.

Shunisi quvonarligi, shonli va qudratli turk millatining bu-gungi avlodi vatan ovoziga javob berar ekan "qonlarining nasldan naslga o'tganiki, yuraklarining yana avvalgi tuyg'ularga to'lib-toshganligini, bu Vatanning tog'-u toshlarida qurban bo'ladijan qahramonlarning kam emasligi" ni bayon etib, so'zini qat'iyat bij-lan davom ettirdi:

Besh olamning vaxshiylari to'plansa,  
"O'lum" - deya, "Vatan!" deya qo'shilamiz.  
Bu tuproqlar qonimiz-la bo'yalsa,  
So'nggi nafasgacha sodiq qolamiz.

Bu o'g'lon go'yo o'z onasi qarshisida ont ichar: "bu qo'llar seni saqlash uchun shaylangan, bu tillar senga ishonar, bu yurak sening uchun uradi, bu oyoqlar "Vatan" deya yuguradi".

Qizil qonga bo'yansin,  
Sevgilisi boshi uzra yosh qolsin.  
Onalari oqin kiyib, soch yulsin,  
Sening kabi yig'lasin.

Vatanning yoniq ovoziga berilgan bu javob yangradi. Shuning bilan Abdulla Shoyiq o'z yurtdoshlarini, Vatanni dushman bosqinidan qutqarish uchun doim tayyor va safarbar bo'lishga ruhlantirardi.

U.Gulsumming shu kabi Abdulla sharqning she'riga javob tariqasida qalamni qo'liga olib, "Istiqlol" gazetasining navbatdag'i sonida nashr ettirgan "Bu yilgi mayda"she'rida o'zgacha tasali va ishonch usurib turadi:

Safo umid qilsak,jafolar kelsa  
Yig'lama.Harjafoda safo yashirin.  
Umidingdan kechma balolar kelsa,  
Bo'yningda ko'p qiyin kunlar yig'ilgan...  
Oldindadir sening oydin kunlaring  
Visolingni kutmoqdadir dilbaring

Yuqoridagi nekbinlik bilan yondashilgan shoirning navbat-dagi "Yo'lni ko'rardim" she'rida Kavkaz Islom Armiyasining Ozarbayjonda nihoyasiga yetkazilgan xaloskoriga minnatdorlik tuyg'usi bilan xotirlagan.

She'r boshida berilgan fikrimizni tasdiqlagan. Bu she'ming qaydida (epigrafida):

"Mazkur she'r bir yil oldin mart voqealarida Ozarbayjon Turk Islomlarining yoqasini dushman qo'lidan olish va o'limdan qutqarish uchun do'st-birodar bo'lib, dara ,tepalik tog'-u toshlarni olib,yordamga kelgan shonli Turkiya armiyasi xotirasiga bag'ishlanadi" deyilgan. She'r boshlanishida ona yurtning dushman qo'lida ko'z yosh to'kkan kunlarga qolishi, ulug' turk elining boryo'g'ini bosqinchilik bilan egallashi, alangalar ichida yondirilishi, qahramonlarning qon ichra yugurib jon berishlari ayol-qizlarning o'z or-nomusini saqlab dushman qo'lida qutulish uchun cho'llarga tushib qolishi va boshqa fojiali manzaralarni ta'sirlanganidan keyin shunday bir tarixiy haqiqat ko'zga tashlanadiki,

Ey, Kavkaz Islom Armiyasi, deya qo'lga qalam oldi.  
Kelib mening ko'zlarimning yoshlarini quritding,  
Norozilik olinmagan g'arib ruhga o'xshaydi.  
Hech hisobsiz, tugamagan dardlarimni tinchitding.  
Qora kunlarim hilolingning nuri ila porladi  
-Ortiq menga nasib etmas,shodlik,sevinch ,-dedim men,  
Kelding, olding yuragimni –Yig'lama, gul,-deding sen.

Butun bir minnatdorlik tuyg'usi Ozarbayjon saodatining porlashida turk hilolining nuri ahamiyatidan Kavkaz Islom arniyasi ning og'ir kunda xalqimizga ko'rsatgan mislsiz ko'magidan ilgarilab bormoqda.

Yuqorida yurtimiz ozodligining, xalqimiz mustaqilligining abadiy bo'lishiga yuksak ishonch bor. O'sha ishonch turkiyzabon xalqlarning bir-biriga tirkak, suyanch va tayanch bo'lishi, ularning ozodlik ishqisi va kurashish shijoati yanada mustahkamlaydi. Bu ishonch yurtimizni shimoldan yaqinlashayotgan Denikin arniyasi va umuman Sovet Rossiyasidan kelgan tahdidlarga qarshi yozilgan asarlarda o'zini namoyon etadi.

Um Gulsemning "Yoqol, daf bo'll!" she'rining qahramoniga ruh, quvvat baxshida etgan omillardan biri uning ozodligi, boshini ko'tarib, yuqorida doim turk hilolini ko'rishidir. Dunyoga ko'zlarini asirlikda ochmagan qahramon "u go'zal zamonni" ya'ni turk hilolining yuzini ko'rib ,unga talpinishi uchun dushmanga qat'iyat bilan "yotlarga bermasman go'zal vatanni" deydi. Qo'r-qoqlik, ojizlik hislari ruhiga o'mashib olgan bu qahramon yuzini Denikinga va Bolshevik tahlikachilarga turib, ularni quydagicha xabardor qildi.

Ey muzli shimoldan singan  
Qalbiimga yaqinlashma, otashi porlar.  
Yoqol, kelma, seni nafasim bo'g'ar,  
Daf bo'l, vatanimda ko'rmayin seni...  
Ey murdor yulduz, sen ey,  
Sevganim emassan, qarshimda turma!  
Nafratim kuchlidir, kelma men tomon,  
Mavh etar kuchlarim borar sen tomon!

O'sha kunlarda xalqning ozodlik kurashi shijoatining yuskligini Ahmed Javadning "Denikin va yoshlik" maqolasida ham ko'rish mumkin. Maqolada Denikinning sarhadlarimizga yaqinlashishi aholi orasida katta hayojanga sabab bo'lgani ko'rsatilgandi. Faqat ruh tushkunligi yo'qtir. Kimdan so'rasangiz hech

bir fidokorlikdan chekinmasligini buyuk bir matonat bilan so`zlaydi....”

Xalqning bu xildagi mardonavor ruhiyatda bo`lishi, g`alabaga ishonchi bilan o`z istiqlolini va vatanini muhofaza qilish jasorati Ahmed Javadning bundan taxminan bir yil avvalgi dushman-ga murojaat va tabdid bilan yozilgan “Kelma!” she`ridagi g`oya-ning va misralar zamiridagi ma`noning tasdig`i bo`ldi:

Sen ey, ko`zlarimga botgan zirapcha  
Imoni butunlar sendan qo`rmagay  
Pok vijdonli bo`lish eng buyuk tuyg'u  
Yengilmas qal`adir har vijdon, kelma!

Vatanning og`ir kunlarida barcha lozim bo`lgan kuchlar, shu jumladan, ijtimoiy-adabiy fikr erkinligi va mustaqilligimizning himoyasi g`oyasi hamda amaliy tadbirdar yuzaga chiqdi. Bu ham xalqning milliy o`zlik tuyg usining, zaminga egalik hissining, ozodlik yo`lida kurashuvchan bo`lish ruhining yuksakligidan rivojlanib borardi. Tasodif emaski, o`sha kunlarning muhri hisoblangan asar qahramonlarining asragan vatanlarining qadr-qimmatlarini juda go`zal deb bilishardi. Shu jihaddan Ali Shavqiyy va Badriddin Alizodaning “Vatanim” nomli mushoiralarini tinglash va o`qish maroqlidir. Har ikki muallif asarlarida Vatan chin ma`noda qahramonlar xayoli, yigitlarning jon yurti, mazlumlar panohi bo`lishi ko`rsatilar, erosti va yerusti boyliklari, geografik o`rnining qulayligi va boshqa jihatlarini vasf qilinardi. Shunday boy va go`zal diyorning boshi uzra uning o`z milliy ramzi bo`lgan bayroqning qadalishi vatandosh shoirning qalbini faxrga to`ldirdi va u o`sha bayroqni M.A.Jannatiyning “bayroq” she`rida qahramon milliy bayrog` imizni samo bag`rida ko`rib, uning soyasida porloq kunlarga, nurli tongga chiqishga tilak bildirgan bo`lsa, boshqa asarida esa u qalban sevgilisiga murojaat qilardi. Oshiq uchun sevgilisining muhabbatni qanchalar muqaddas, pok, beg`ubor va sevimli bo`lsa, milliy bayroq ham el uchun shunday-

dir. Bu fikr Z.Zabarzodaning she'rlarida ham o'z ifodasini top-gan. Uning "Ozarbayjon bayrog'iga" she'rini "Sevgilim" to'plamida ko'rish mumkin.

Jon oluvchi bir ulug'-la tog' boshida,  
Bahor yeli yanglig' ochiq-oydin shabboda.  
Nozli shabada uzra sochlarini yoggandi,  
Ba`zan-ba`zan o'xshayursan butun Turon xalqlarin.  
Oltoylardan, oltin tug'dan munis hislar kutadir,  
Yashil kamzul, moviy ko'zli, ol yanoqli sevgilim.

Shoirni ilhomlantirgan, uni sevgilisiga yana qaytadan bog`lagan muhabbatning nainkiy Ozarbayjonning, balik Turon elining sisfati, qo'llari bilan turkiy xalqlarni birlashtirishga intilgan chaqirig'idir. Har bir bandning oxirida takrorlanagn "yashil kamzul, moviy ko'zli, ol yanoqli" ifodalarining aniq o'xshatilishi muallifning o'sha she'rdan 4 kun keyin chop ettirgan "Ozarbayjon bayrog'iga" she'rida oydinlashadi. O'z sevgilisi bilan sayr etishga intilgan oshiq uni malaklar qanotlariga, so'lmaydigan afsonaviy gullarga va o'tlarga yaqinlashtirdi:

Rozi bo`ling, sayr etaylik, tushunaylik, dard to'kaylik,  
Shu sevimli, uch bo`yoqli, uch ma'noli bayrog'i.  
Malaklarning qanotimi ko'lga tushib yoyilgan,  
Ne ekan bu, ey Ollohim!olov yurtning yaprog'i.  
Ko'k yaproqlar, qizil gullar, yashil naysonlar ichra  
Yo'q,yo'q! Gullar so'lar, maysa yerda yanchilar.  
Faqat bizning bayrog'imiz shunday buyuk pok sevarki  
Yulduzdan-da.hiloldan-da yuksaklikka intilar.

Bu beg'uborlik va musaffoligining natijasi unng soyasidagi oy ham bu go'zalni ko'rmoq, bag'riga bosmoq uchun intilishi bo'ldi. Shu bilan og'ushda ham bir shafqat, bir muqaddaslik va poklikni ko'rdi"

Soyasida oy egilib bu go'zalni kuzatar,  
 Kuzatajak sevgilim-la yuksaklarga ucharman.  
 Shu ko'rinins bir onaning shafqatiga o'xshaydi,  
 Tushunganim tuyg'ularim, vijdonimga o'xshaydi.

Oshiq uning vijdoniga, ruhiga xshagan o'sha g'oyaning  
 yuksak mohiyatini, ranglarini, oy va yulduzlarning yulduzlarning  
 bir yerga to'planishini, ularning bu "qurultoy" larning maqsadini  
 bilish uchun shunday bir jasorat bilan:

Bu oy, yulduzlarning qurultoyi ne demak?  
 Bizningcha shunday so'zlashsa kerak:  
 Bu ko'k bo'yoq, ko'k mo'g'uldan qolgan bir turk nishoni  
 Bir turk o'g'loni bo'lsa kerak.  
 Yashil bo'yoq musulmonlik parchalanmas ishonchi  
 Yuraklarga to'lsa kerak  
 Sakkiz burchak sakkiz harfli "olov yurti" degani  
 Jasoratning kechasidan fursat topgan qush  
 kabi sahrolarga uchmishdir  
 Shu hilolda turk belgisi, go'zal sevgi nishoni  
 yurtimizga ko'chmishdir.

Demak, bayroqdagi ranglar o'z "qurultoy"larida turkligimizning alomati, musulmonlik yuraklariga darmon bo'lgan ishonch bo'lsa, sakkiz qirrali yulduz bilan uni og'ushiga olgan hilol, olov yurtning ozodlik ishqining va turk milliy tafakkurining dunyoviy bilimlari jam bo'lgan nurli burchak ifodasiidir. Bularning hammasi oshiqni ham shu qadar maftun qildiki, ular bizning ma'naviyatimizga yet bo'lmay, o'zida milliy turk shuurining yuraklarda boshlangan ozodlik va mustaqillik g'oyasining ramzlarini birlashtirdilar. Ko'rghanlaridan kelib chiqib, jasorat oshiqda shunday bir orzuning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi:

Olloh, amallarim ila shu bayroqqa intiq bo'l,  
 To'g'rib bo'lgan biror nam olmishdir bu istiqlol.

Yuragimda bir tilak bor, u ham to`g`ri yo'l olsin,  
Bir kun kelib, bu ko'k bayroq Turon uzra yig`ilsin.

Ahmed Javadning "Milliy bayrog'imizga!" she'rida ham uch rangli bayroqdan va Turkiston qo'llariga tortiq etganligidan suhbat borardi.

Bu bayroq vatandosh shoirning boshiga davlat qushi kabi qo'ndi, uni baxtli qildi. Qahramonimiz bu saodatdan ki'z yoshlarini ham yashira olmadi, uning bayrog'ining rangi milliy-tarixiy xotirasida yotgan genetik kodlarini esga solardi, chunki uning ranglari bog'liqligimizni anglatardi. Albatta, "Qo'ynida Allohnning yulduzi", Oyning ko'ksiga sig'ingan shunday bir bayroq soyasi tushgan yer - vatan tuprog'i e'zozga loyiqdir.

Qozi xon holidan olgandir rangni,  
Kuzatmish Elxon-la hali musulmon.  
Elxonning avlodi, elning tirgagi,  
Ko'nglimga shodlikni keltirding bayroq.

Ko'ksimda to'fonlar keldim oldinda,  
O'pdim ko'lga tushgan muborak yerni.  
Ollohnning yulduzi cy go'zal pari,  
Qo'yningda sig'inar oyga, bayrog'im.

Milliy bayroqning muqaddas bir ulug'lik ramziga aylanib, yagona Ozarbayjonda emas, ayni paytda butun turk dunyosida ma'lum bo'lgan sevilish orzusi alohida tarzda yuraklarda kechishining, butun xalqning asl holatiga qaytishining, o'sha holatda birlashish jasoratining natijasidir. Bu orzuning zamirida bir vatandosh tashvishlari ham bordek go'yo. Butun Turon ellarining istiqloli va birligi orzusidan yuzaga kelgan o'sha hasrat va tashvishlarni Jafar Jabborlizoda "Muhammadzoda Mirxabala do'stimiga tuhfa" nomli to'plamidagi "Salom" she'rida shunday ifodalagan:

Ozod qushlar sharqqa tomon ucharlar,  
Kunchiqishda murod suvin icharlar.  
Tong sabosi Oltintog'dan esarkan,  
Turon ellariga salom yo'llayman.  
Intizor ko'zlarda Xazar tug'ildi,  
Hasratda yuraklar Yonartog' bo'ldi.  
Tillarimiz "Turon" deya yo'g'rildi,  
Turon ellariga salom yo'llayman.

Oshiq amalga oshirishni istagan maqsadlariga diqqat qilganda bu intizor ko'zlar, hasratli yuraklar orzusining ozodlik va erkinlik, yana ham to'g'rirog'i umumturk mustaqilligi niyatida bo'nga ko'zga tashlanadi. Balki bu aslida bu saf tortgan yulduzli, ko'k rangli, yarimoyli bayroqdir:

Yulduzli ganch, moviy rang, yarim oy ramzları bor,  
Bir oz imkon berdim, yetkazing yorga.  
Turnalar, turnalar, bizdan yiroqda,  
Turon ellariga salom yo'llayman.

Bu hasrat shoirning o'z yurtiga bo'lgan muhabbat va aloqadorligidan, uni ozod va obod ko'rish istagidan kuch oladi. Muallif Ozarbayjon istiqlolining mustahkam va abadiyligi butun Turon ellarining ozod va yakdil bo'lishidan muhimligini aytadi. Shu bilan bir qatorda, u o'z o'lkasining - Ozarbayjonning yer yuzida ko'rsatgan fidokorligi, boy merosi, "Yonartog'" lardan jo'shib-qaynagan alangasi ko'p xalqlarning ziyoratga kelishlarini, bu yurtning qiblagoh va sajdagohga aylana oladigan darajada muqaddasligini va ozod yashashini o'lan she'rida ko'zga tutganidan so'ng, shunday bir jihatga e'tibor qaratish lozim:

Qizlar ipaklardan chodirlar tikar,  
O'lkkalarin ozod ko'rishni tilar.  
Bu yerkarni butun xalqlar sevarlar,  
Faqat bizda ko'zlari bor o'lkkamning.

Shoirning vatanparvar qalbini iqtidor hissi bilan to'ldirganda ko'plarning yodida bo'lgan "Bu rangin va boy" (M.Hodiy) o'lka ning faqat bizga - Ozarbayjon turklariga tegishli bo'lishi, faqat bizga xosligini bildirib o'tgan. Shunday o'lka har birimiz uchun sevilishga, sevimli bo'lishga loyiq, turk qudratli musulmon imonli, olovdek kuchli, farishta qanoti kabi beg'ubor muqaddas ramzlari hamda davlatchilik munosabatlari, boy yerusti va yerosti zaxiralariga ega bo'lgan jannatmakon, ozod bir o'lka, suyukli vatanimizga har birimizda chuqr sadoqat hissi bo'lmog'i lozim. Bu his va tuyg'u Vatan himoyasi, abadiylashtirilishi va xalq farovonligi kabi amallarda foyda berishi va ilhomlantirishi lozim. Jafar Jabborlining biz ko'zdan kechirgan she'rlarida o'quvchilarga, shogirdlariga bu amal va g'oyalarini talqin etish istagi bilan birlashtirdi.

1919-yil oxirlari va 1920-yil boshlarida turk dunyosining, shu jumladan, Turkiya boshi uzra to'lgan qora bulutlar soyasi Ozarbayjon shoirlarining ilhom parisini ham to'sardi. O'sha ko'lanka ta'siridan paydo bo'lgan hasratli, intizorli, bir qadar yengil notalarini J.Jabborlining yuqorida ko'rib o'tganimiz "Salom" she'rida ham ko'rib o'tdik. Ahmed Juvaldning "Istanbul" she'ri esa tamomila shu mavzuga o'xshash. Shoир o'z sevgilisining begona q'llarida hasratli ko'zlaridan qonli yosh to'kkani xabarini eshitishi bilan quyidagicha javob qaytaradi:

Oh sevgilim, marmar siynali yorim,  
Dedilar qo'yningda begonalar bor.  
Ufqlarga, uzoq yo'llarga boqib,  
Moviy ko'zlar yig'lar oqshomlar.  
Oh, ey so'lg'in yuzli g'amgin Istanbul,  
Moviy ko'zlarining pok bo'lsin Istanbul.

Eshitgan xabarining vahimasi qalb ohining alangasiga qo'shilib, shoirni boshi berk ko'chada qoldiradi, u ko'ngil istagi ega-siga yordam uchun oshiqadi. Oshiqning oyoq-ko'lini bog'lagan, uning yo'lini to'sgan narsa siyosiy ahvoldir. Bu siyosat qarhisida

umidsizlikka tushgan oshiqning dardi yukining og'irligi she'r mis-ralariga ko'chadi:

Bu qalbimdan chiqqan har yoniq faryod.  
His etgan dardlarim tarjimonimi.  
Nahotki yo'q bo'lsa, hech kimdan madad,  
Bu baxtsiz sevgimning so'nggi onimi.  
Ah, ey so'lg'in yuzli, g'amgin Istanbul,  
Moviyo'zlarining pok bo'lsin Istanbul.

Bu qadar mashaqqatni his etgan shoir so'nggi soniyada yuzini Tangriga tutib, undan ozodlik va istiqlol haqidagi jo'shqin musiqalarni chalgan ko'ngil so'zining kuyini to'xtatilanligi, bu orqali Turon eliga jabr qilingani sababini so'raydi:

Nahot bu qalbimni bilmasmideng sen?  
Qirdagi so'zimning jonli kuyiga.  
Tusharkan yana bir umid bilan men,  
Nechun jabr qilding Turon eliga?  
Ah, ey so'lg'in yuzli, g'amgin Istanbul,  
Moviyo'zlarining pok bo'lsin Istanbul.

Turkiy xalqlarning begonalar qo'lida zor bo'lishi xabarining to'g'riligi, bu balodan qutulish uchun yo'llarda qidirgan jasorati Abdulla Shoyiqning "Turon" she'ridagi asosiy mazmundir. Bu she'nda oshiq va sevgilisining atrofida qora quzg'unlar aylanishi va boshlarini uning tizzasiga suykalishi xabaridan qo'rqqani tas-virlangan. Uning qalbini parchalagan sevgilisining umidsizlik girdobida "ko'zlariningdan marjon kabi yoshlari to'kib, uzilgan gul kabi kundan-kunga so'lmoqdadir. Shoir yagona bo'lgan vaziyatdan chiqish yo'lini turk o'g'loni o'z elida qudrati, kuchini ko'rsatishida deb bildi. Tasodif emaski. begonalar qo'lida qolgan go'zal ham intiqlik bilan Turk olamida, Turon eli meni qutqaradigan biron yigit yo'qmi deydi. Bu go'zalning yagona sevgilisi, uning juft-u haloli turk yigitidir. Shunga ko'ra quyidagicha nola chekadi:

Qayda mening turk og'lonim, oh, mening qahramonim,  
Yo'lni ko'p kuzatdim, yo'l ber unga, ey Tangrim!  
Uchqur tulporim minib, kelib meni qutqarsin.  
Nafratlangan shu xoinlar boshlarini-da olsin.  
Umidsizlik bir qadar cho'kmish Turon eliga.

Bu achchiq xabar shoirning ikkala she'ri ila jo'shqin dengizga qiyoslandi. Jo'shqin dengiz ovozlaridan g'azablangan momaqaldiroq kabi chaqar, uning kipriklarida sarosima o'ynar va Turon ellariga solingan azoblar, bor bo'yli bilan bilinardi.

Turon yurtida tinchlik o'rnatilgandan keyin dengiz uzra sayr etdi. Uning markazida zumrad bir orol, orol o'tasida esa oltin g'ishtli ko'shk ko'rindi. She'r shunday bir romantik xotima bilan tugaydi:

Ko'shkning ro'parasida qizil olma bog'i bor,  
Oyoq bossa tosh bo'lar, har kim unga dushmandir.  
Qizil olma bog'ida kezar dunyo go'zali,  
Kular jo'shqin sevinch-la turning qo'li qo'lidadir.

Ko'ringanidek, shoir Turon xalqning ramzi bo'lgan dunyo go'zalining devlari qo'lidan xalos bo'lishining asl yo'llarini topa olmay, uning qo'lini turk o'g'lining qo'liga o'zining romantik shoir dunyosining vositasi, bu romantikaning sehrli kuchi bilan tasvirlaydi. Turon xalqlarining nurli tonggi, turk go'zalining ozodlik va mustaqilligining ishqiy-badiiy aksi Abdulla Shoyiqning shoirlilik g'oyasining bajarilishidan, nihoyasizligidan va nurli tongga, Turk dunyosining ozodlik va saodatiga chuqur ishonchidan kuch oldi. Lekin ijtimoiy-badiiy va poetik fikri vaziyatdan chiqish yo'lini yanada ko'proq haqiqatdan qidiradi.

Xulosa qilib aytganda, davr she'riyatida kechayotgan poetik g'oyaning mavqeyini aniqlashtirish bilan birga, ko'ringani kabi, hodisalarining sodir bo'lishiga uyg'un holda she'riyat rubobi goh qayg'uli va alamli, goh mardona, kurashuvchi notalarda taraladi. Masalan, agar Um Gulsumning "Bir qiz uchun" she'rida ana

shunday ochilmasdan so'lgan bahor gullarining "Qon oqayotgan yarasini malham topilmagani" uchun uning bahoridan avval xazoni ketdi. Go'zalinig bu baxtsizligidan yig'layotgani shunday tasvirlanadi:

Nechun bu ko'zlardan motam ko'rinur,  
Titroq dudoqlarning shakli buzilar?  
Nechun kulgularing, ko'z yosh tuyular?  
U ma'sum ruhiga o'xshashi yo'qmi?  
Shu o'ksik ishqini bir tuygan yo'qmi?

Bu yerdagi lirika ijtimoiy mohiyat kasb etgan. She'rning yo-zilib chop etilishi davrida 1920-yilning aprelida Ozarbayjonda so-dir bo'layotgan tarixiy va siyosiy jarayonlarning esga olinishi fikrimiz asosidir. J.Jabborlining "Yashamoq" she'rida ham lirik qahramonning andisha, iroda va umidlari puchga chiqadi, chunki qahramonning umid yulduzi undan uzoqlashmoqda, dunyosini zulmat va zaharli ukkilar ovozi egallagandi. Shuning uchun, u o'-ziga o'limni sog'inib, qutulish yo'li eng oxirida, abadiy uyquga ketishda ko'rdi. Lekin uning shukuhli kunlarida umid yulduzi porlab osmon-u falakdan tabassum hadya etadi.

Bularning bari qahramonning nozik jismiga quvvat, ruhiga halovat berardi. Yuragini "kimdirdek yashamoq" singari nurli xayollar egallagandi.

Ali Yusufning "Qorabog' sotqinlariga" murojatnomasiga yozgan she'rida o'quvchining ko'z oldida "Ozarbayjon tojining eng qimmatli olmosi" M. Vaqfiyning Abdulla beyning madaniyati she'r qo'shiq makoni, yerosti va yerusti xazinasiga boy, sof havas bilan "qiymatli" fazilatli bir o'lka Qorabog' jonlanadi.

Shoir o'zini bu "tog'larda kezgan yosh ohuga" – arman hamkasblariga, "qo'llarini" va "xanjarlarni qon bilan yuvgan qasos-korga" o'xshatib, tahdid bilan ortga chekinmaslikka chaqirib, "uyg'otuvchi qo'ng'iroq chalmasang uyg'onmasmi?" deydi.

Jalol Sohirning "Kavkaz turklari" she'rida esa Kavkaz yigitlari, Turk avlodlari uyg'onib, vatanni dushman qutqusidan ozod etishi yo'lida atalgan qo'shiq yangradi:

Go'zal Kavkaz yetar uyqu, uyg'on endi,  
Yuzing so'lmish, dushman qonin oqiz endi.  
Bayroq kabi qirmizi ko'l, quyoshdek porla!  
Turkning yorqin hiloliga aylangin, o'xsha,  
Seni uning pinhonligi soldi, shu holga.

Shoir turk yigitlarining Kavkaz va Qorabog'ni dushman qo'-lidan qutqarish uchun qo'llariga qilich olishlarini orzu qilmoqda. "Tangri esa bu asoratli, faqirona holatga, nihoyat, yakun yasab, Kavkazni go'zal hilol sari yetaklasin".

Ko'rinish turgani kabi, tarixning eng og'ir sinovlarida shunday ijtimoiy-badiiy tushunchada, umummilliy g'urur va nekbinlik, kurashuvchanlik, bo'ysunmaslik va boshqa motivlar mavjud edi. Buning qozoq shoiri Oshiq Israfilning "Tog'la", "Yuraklar" va boshqa she'rlerida yuzaga chiqqanligini ko'rish mumkin. Dardli shoir o'z o'quvchisiga shunday fikrni g'oya talqini bilan murojaat qiladi:

Singan yurak, qo'rkoq yuz  
Sirlilikning soyasidir!  
Sotma go'zal yurtingni  
U jannatning juftidir!  
Ko'ngil berma begonaga  
Yo'q qiladi vataning  
Unutmaki, tuzalmagan  
Ko'p dard bergen dushmaning!

Shoir o'z qahramonining quruq, bo'sh shoirlarga e'tibor qilmasdan, sog'lom qo'llar bilan Vatanni asrashga chorlaydi. Chunki bu shoirlar ularni bog'ib, ishdan qo'yadi deb o'ylaydi. She'rda mard o'g'longa boshini tik tutishi tavsiya etilgan. "Uning tutgan

yo'li haq yo'ldir, to'g'ridir. To'g'ri yo'lning begona qo'llar bilan chalkashtirilishiga esa yo'l qo'yib bo'lmas" fikriga asosan shoir er-yigitlarni mard bo'lishga da'vat etmoqda.

Ko'nglingni bog'lagin  
Tarovatin sen  
Yot ellarni qo'yimagin  
Uning pok zaminiga.

Bu his asl turk milliy tafakkurining mahsulidir. O'sha tafakkurning beedad imoniga ko'ra og'ir, azobli onlar tezda tugab, same oydinlashajak:

Unutmaki o'tar-ketar  
Dengizdag'i girdoblar  
Sohillarda o'shshaygan  
Qoyalardan so'rab ko'r!

Bu turk sevgisi va ishonchi Ozarbayjon milliy tafakkuridan qo'rqaqlig, umidsizlik hissini uzoqlashtirib, uning nekbinligini va yengilmasligini, bo'ysunmasligini bildirib, sezdirib turadi.

Qiyin damlarda ana shunday deb urgan yurak dukurini ting-lagan vatan o'g'loni o'zini lirik tuyg'ularga boyitmoq uchun kuch topadi. Ali Yusufning "O'par kim bilar, balki bir samo" she'rining qahramoni sevgilisining "tarqalgan, sochilgan ipak sochlari" ining uning ruhida paydo qilgan ehtiyojini vasf qiladi:

Qayiqdan egil, zulfin suvga sol,  
Tushing o'yla osuda uyqudag'i.  
O'par kim bilar balki bir samo,  
Tarqalgan, sochilgan ipak sochlari.

Oshiqning sevgilisi dengizdadir. Bundan sevinib yaqin kelgan to'lqinlarning har biri o'sha go'zalning qo'lidan o'pmoq hasrati ila u tomon siljirgi. U raqsga tushayotgan, o'ynoqi sevgilisini tutish uchun qayiqning biriga yaqinlashdi:

Kichik to'lqinlar qayiqqa yaqinlashar  
U sevgili – raqqosani tutay deya,  
Kesar, intilar, ko'rishni istar  
Tarqalgan, sochilgan, ipak sochlari.

She'rda tasvirlangan romantik hayollar, beg'ubor tuyg'ular dunyosi o'quvchiga rohat bag'ishlaydi.

Jafar Jabborlining "Ko'zlarda kechagi kun" she'rida esa lirik qahramon o'z sevgilisining beqarorligidan shikoyat qilgan. Oshiqning qalbini parchalagan narsa kechagi soflik, samimiyat va sevgining bugun esa yolg'on va riyoga to'la hiylaga almashgani-dir. Shu sababdan yurakni larzaga soluvchi bir nola chekadi:

Qayerdadir men ko'rgan samimiyat  
Nega, Olloh, riyolarga aylandi.

Bu tasvirlar lirik qahramon qalbining sofligini, sevgilisining pok va beg'uborligini aniq shaklda tasvirlagan.

Yuqorida qoya etganimiz kabi 1919-yil 15-sentabrda Bokuning ozod bo'lganining 1 yilligini tantana bilan nishonladi. O'sha kun xalq bu shodon kunda his etgan turk va ozarbayjon shahidlarining ham mozorlarini ziyorat qilish bilan birga o'tli chiqishlar qildi. "Yashil qalam" adabiy uyushmasi tarafidan chiqish qilgan yosh shoir Ahmad Javad u va o'zining qalamdoshlari ilhomlarining butun kuchini bundan keyin ham xalqning yuragida ozodlik va istiqlol obidasining yana qad ko'tarishiga, bu ishonching kuchlanib ravnaq topishiga sarf qilajaklari haqida aytib o'tdi.

O'tkazilgan bayram tadbirlari va jamiyat haqida bo'y ko'rangan ijtimoiy-milliy va ma'naviy protseslarni, qarshisida turgan kelajak vazifalarini tahlil qilgan M.Rasulzoda "Ozodlik kuni"

maqolasida quyidagi fikrlarni yozadi: "Matbuotning, adabiyotning millat qalbida milliylik va istiqlol urug'larini sochgan bir amaldir. Faqat keyin angladikki, bir qancha askarning milliy qo'shiqlarida bir nafaslik kechishi matbuotning 10-sonli dasturidan ko'ra kata ta'sir ko'rsatadi. Yosh shoirimiz (Ahmad Javadga ishora) ochiq bayon qildiki, o'zining quvnoqligi bilan adib va mu-harrirlarimiz yuraklarida obidalar tikkadi. O'z respublikasida o'z askarlarining yurish-turishi, o'z hukumati, o'zi ishongan vositasi bilan qabul qilgan, o'z armiyasining o'z generallari, o'z zabit va o'z qo'shinlaridan tashkil etganini xalqning 1 yil avval yosh va tashqi jihatdan yopiq qalbi bu yil bir qadar ochildi, ruh tarjimonlari bo'lган shoirlar ortiq qisqa emas, ochiq va erkin bir lison ila unga ovoz qilishdi."

Ey millatning dil kaliti bo'lган shoirlar, adiblar, millatning amallarini, beg'ubor niyat va maqsadlarini biling, o'zingiz uchun millat sevgisi, vatan muhabbatи, hurriyat ishqini talqin eting. Yosh armiyamiz bu beg'uborlik ulug'lovining sochilishi tufayli yurtimizni asraydi, bu buyuk tuyg'ularning aksini tashkil etgan ko'kslari yuzakiligicha qoldi.

Tahsilga jalb qilingan badiiy namunalarga, ulardan keladigan jasoratga asosan shoirlarimiz zimmalariga tushgan ijtimoiy-sotsial va milliy-ma'naviy muammolarning poetik aksining keraklicha talqin etilishi maqsadlariga asosan bildirgan. Bu davrdagi asosiy maqsad xalqning milliy o'zligini mustahkamlash, uning milliylik shuurning shakllantirilishini to'g'ri yo'naltirish, xalqda zaminga vatanga egalik va sodiqlik hissi bilan tarbiya etish bilan barobar, uning milliy-tarixiy xotirani, genetik aloqa va rishtalarini doim uyg'oq saqlamoq, mustaqillik va davlatchiligidiz qadrlab va asrab, himoya qilish va mustahkamlantirishga xalqni safarbar etish va shoirlar ko'magida umumturk dunyosining shakllanishi va uning mustahkamlanishi masalalari ham davrning mustahkamlanishi masalalari ham davrning she'riyatida tushuntirilgan muammolardan biri edi.

Mushohadalar Respublika davrida milliy she'riyatimizning qarshisida turgan vazifalarining bajarilishi lozimligini tasdiqladi.

Shunisi qiziqki, she'riyatda ijtimoiy ko'zgusining tanqidiga bu yillarda ishonilmagan. Yagona umumiy xaraterli tanqidiga ruh bag'ishlagan 1-2 fikriga va Aliquli Qomkusarning she'rini ko'r-satish orqali bular daryodagi baliq timsolidir. Aliquli Qomkusar-ning boshqa bir she'ri xalqaro imperializmga qarshi yo'naltiril-gan, 1-she'rning to'g'ri yo'lida yozilmaganini tasdiqladi.

Shuni ham qayd etish lozimki, Ozarbayjon Demokratik Res-publikasi davrining she'riyati, umuman olganda, ijtimoiy-badiiy fikri butun diqqati Respublikamizning, xalqning ishonchining mustahkamlanishi muammosiga yo'naltirilganligi uchun (bu ham zamon talabi bilan ilgarilagan) sotsial masalalarning oydinlashti-rish ishi orqa planda qolardi. Davr shu qadar ma'suliyat talab qilar ediki, shoir va yozuvchilarimiz kundalik hodisalarga operativ shaklda diqqat qilishga safarbar qildi. O'sha adabiyotning oydin va faol faoliyat dasturi muayyanlashtirildi. Buning uchun adabiy-ijtimoiy fikrga muayyan vaqt va imkon lozim ediki, u ham hali mumkin emasdi. Faqat o'sha masala, ya'ni yangi qurilgan hayot-ning ruhiga uyg'un yirik hajmli, hamda milliy-ijtimoiy ko'rinish-dan yanada oydinroq g'oyaviy asarlarning haligacha maydonda yo'qligidan paydo bo'lgan tashvishlari mavjud edi. Mirzabola Mirzazodaning "To'g'rilik bilan yangi hayotga" maqolaning zamiridagi tashvishlilik bu tasdiqlangan.

U adabiyotda yangi davrning ruhining har taraflama va o-chiq-ayon g'oyaviy-badiiy shaklda aks ettirilgan adabiy sonlari-ning hali ham yaratilmaganligidan kuyunib yozadi: "Yangi hayotga qadam qo'ygan kundan matbuot va adabiyot sahnasida yangi asr ruhi ufurgan bir kitob-roman deb ataldi. Teatr xalqimizning yagona to'planadigan joyidir. U ham biror yangilik bermadi. Unda ham yangi hayotga to'g'ri bir da'vat, bir olg'a siljish mavjud emas. Hamon eski tos, eski hammomdir".

Muallifning vatanparvarlik tashvishlarining nasr va drama-turgiya, shu jumladan, teatr turida ko'rindiki, she'riyat har holda, bu janrlarga qaraganda faolroq bo'lib, yangilik izlash ishlarini olib borardi.

Davrning ijtimoiy-siyosiy, milliy-ma'naviy muammolarining badiiy talqinida she'riyat muhim rol o'ynasa-da, bu ishda nasrning ham o'mini ta'kidlamay iloijimiz yo'q. Milliy nasrimiz Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida ijtimoiy-milliy-ma'naviy muammolarni badiiy aks ettirish uchun bor imkoniyatini ishga soldi. To'g'ri, o'sha vaqlarda davrning ijtimoiy-siyosiy va milliy-ma'naviy muammolarini badiiy holini aks ettirgan romanlar maydonga tashlanmadi (bu aslida, to'satdan mumkin emas edi. Albatta, buning uchun ko'p vaqt kerak edi), lekin badiiy nasr davrning hodisalari tabiatini ko'rsatishga harakat qildi va ba'zi "kichik" namunalarni maydonga tashladi. Bu asarlar asosan, kichik hikoyalardan, publisistik ruhdagi asarlardan iborat ediki, buni zamon talabi deb qarash kerak; hodisalarning tez va o'zgaruvchan rivojlanishi ham shunchaki odatiy, shuningdek, publisist ruhiyat va operativ ijodiy adabiyotlardan ham foydalanish mumkin. Nasr davrning bu talabi bilan hisoblashib, mavzu doirasining kengligi uchun kurashar edi.

Ijtimoiy surur tantanasi badiiy aksini davrning nasrida ham ko'rdik. Ushbu namunalarda xalq milliy ruhning ifodasi aniq detallarga qaratilgan. Shunday qilib, Ozarbayjonda sodir etilgan mart voqealari davrida xalqimizning katta miqdorda moddiy, jismoniy va milliy-ma'naviy zararlari ichida milliy istiqlolimizning qarorgohi bo'lган bino-tarixda "Ismoil" nomi bilan mashhur bo'lган va hozirda Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasining mas'ul hay'ati joylashgan binoning ham yondirilishi ham bor edi. Dastlab binoning buzilishi oddiy holdek ko'rindi. Ammo bu erda odatiy emas, bir hikoya borki, binoni tark etish xalqimiz uchun ijtimoiy va milliy ahamiyatga ega. Shunday qilib, bizning davlatimizning milliy uyg'onish va kurash davrida xalqimizning tafakkurida bu binoni yo'q qilish shuning uchun u kerak ediki, Ozarbayjon milliy g'ururi, milliy ozodlik va mustaqillik uchun kurash jarayonida milliy o'z-o'zini anglash ramzi mavh etilsin va xalq-

ning ozod bo'lishiga umidi yo'q qilinsin. Xalqning ozodlik va istiqlol ramzi bo'lgan bu bino kabi umidlari ham yo'q bo'lishini xohladilar. Go'yo har bir daqiqada eslanib qiynalish kerak. Sababi bu bino hukumat qarorgohi edi, xalqning tarixiy taqdirida muhim rol o'ynagan masalalar aynan shu yerda hal qilinar edi. Nati jada, xalq Ismoiliy binosiga umid bilan qarar edi. Shuning uchun, qilingan bu suiqasd haqida vatandosh yozuvchi - Sayyid Husayn dadil qiyqiriq bilan siyosiy chaqiriq qildi...

Ozarbayjonga qilingan bu suiqasd oldini olish uchun Sayyid Husayn, "G'amgin bir xotira", "Ismoil" nomli hikoyalar yozdi. Chuqur lirik, ijtimoiy fuqarolik tuyg'usi kuchi publistik ruhi bilan ajralib turuvchi bu hikoya "Ismoiliya"ning boshidan kechirgan tarix yo'l solnomasidir. Ammo bino yiqitish uchun qaror qabul qilinganda yozuvchi fuqarolar qalbiga yo'l topa olmaydi :

"So'nggi kecha ahamiyatsiz, baxtsiz bir qizning sochlari kabi parishon odam ham binoning millat ozodligi va mustaqilligi uchun shahid ketgan qahramonlar kabi dushman shafqatsiz urushlariiga ko'ksini qalqon qilgan binoga nazar solib uni madh etmoqda, tushunmoqda, gazetada uning halokatga uchrashi haqidagi qarorini o'qimoqda. Xayolim uzoqlarga ketib, xotiralar olamiga sho'ng'idi. Menimcha, rangli suratlar va shakllar tarqatildi. Men "Ismoiliy" binosining juda uzoq bo'lmagan tarixini, 18-20 kunlik hayotini, tarjimayi holini ko'z o'ngimda jonlantirdim"- degan yozuvchi binoning yaratilsh tarixiga nazar solib uning xalq uchun qilgan xizmatlarini ma'yus bayon etadi. Uning fikriga ko'ra, binoning xalq oldidagi tengsiz xizmatlaridan eng qimmatlisi uni siyosiy jarayonlarda Ozarbayjon xalqiga bir ona-mushfiq va mehribon bir ona kabi maydonga chiqishidir. Ushbu hikoyada quydagilarni o'qiymiz:

"Inqilobdan so'ng. "Ismoil" binosi siyosiy jarayonlar binosi bo'ldi. Birinchi Kavkaz musulmon Kongress shu yerda ochildi. Birinchilardan bo'lib muxtoriyat va federativ-markaz g'oyasi shu yerda maydonga tashlandi.

Ushbu sana so'ng, barcha uchrashuvlar, siyosiy intervyular, hisobotlar shu binoda tinglandi.

Ismoiliyning hech kimga ta'zim qilishni istamagan muhtasam xonasi ko'plab tarixiy voqealarning guvohidir. Ko'pgina ma'-ruzachilarining nutqi hali yonayotgan toshlarda namoyon bo'ladi. Ismoiliyada biz ozarbayjonliklar ko'plab quvonchli va g'amgin kunlarni o'tkazdik. Biz taqdirimiz haqida ko'plab hikoyalalar eshitdik, kelajagimiz haqida ko'p qarorlar qabul qildik ...

Ozarbayjon xalqiga bir ona- mushfiq va mehribon bir ona kabi maydonga chiqqan bino devorlari martning (1918-yil mart hodisalari- A.B) fayzli kunlarida dushmanlarga qarshi kurashdi".

Ulug` xalqimizning dushmanlari erkinligi va daxlsizligini yo`q qilmoqchi bo`ldilar. Milliy dushmanlarimiz esa bu ulug`likni mavh etib xalqimizning umidlarini tuproqqa ko`mmoqni istaydilar. Chunki dushman dushman bo'lgan azaldan.. Shuning uchun undan har qanday baxtsizlikni kutish mumkin va bu tabiiydir. Bi-roq, ta'siri o'z-o'zidan qisqartirilsa, ta'siri murakkab bo'lmaydi. Shuning uchun Ismoiliyni yondirishda boshqa milliy partiyalar ning rolini ko'rish qiyin. Bu og'irlik shafqatsizlik bilan ezilgan har bir vijdonli fuqaroning qalbini zeriktiradi. Go'yoki, xalqning keljakdag'i milliy fojiasi, bu xiyonat, o'z-o'zini hurmat qilmaslik bilan boshlangan. Shu sababli hikoyaning oxiri ajoyib va chuqr ildiz otgan janjal bilan tugaydi:

"Ey Bokulik qarindosh, ey Ozarbayjon fuqarosi, niлага tayanib baxtiyorsan? Qoch! Ismoiliyning qarshisiga kel. Uni sendan ayirmoqchilar. Uni subutsiz mayit kabi dafn etadilar, ko`z o'nginda dafn qiladilar. Holbuki, uning mahzun ko`zları seni kutadi. Oxirgi marta uni ko`rgani bor. Ozarbayjon bayrog'ini yuqorida hilpirayotganini ko`r. Chunki boshqa uni ko`ra olmaysan".

Bu chaqiriq ham qimmatlidir, chunki u odamlarni nafaqat milliy g'urumi tomosha qilishga, balki milliy qadr-qimmatini himoya qilishga da'vat etardi. Shu sababdan milliy ozodlik, milliy mustaqillik ramzi bo`lgan binoni himoya qilish tuyg'usi najot demakdir.

Qizig'i shundaki, Sayyid Husayn "G'amgin xotiralari", "Ismoiliy" otli hikoyasidan so'ng "Yaxshi qalam" adabiy birlashma-

si "Ismoiliy" musobaqasini e'lon qildi va bu orqali bir necha nasiy asarlarning e'lon qilinishiga sababchi bo'ldi. Natijada badiiy so'zning ta'siri bilan bu binoning yo`q bo`lishning oldi olinishi kerak edi. "Ismoiliy" hali-hanuz o'z qudrati, ulug' vorligi , muhtashamligi bilan turganidek, Ozarbayjon xalqining ham milliy istiqlol va milliy mustaqillik tuyg'usi ham zarracha o'z qiymatini yo`qotganicha yo`q.

1920 yilda Seysil Husayn yana bu mavzuga qaytib keldi va "Ismoiliy" deb nomlangan ikkinchi xotira kitobni yozdi. Lekin bu safar, "Ismoil" Ozarbayjonning mustaqillik mafkurasini o'z qalbida saqlab, "Ozarbayjon bayrog'ini ko'targan" qo'llardan mammunlik hissini yozdi. Shunday qilib, hikoyada galaba tantanasi ning g'ururi, baxtli lahzalari o'z ifodasini topdi. Shuningdek maqolada "Ismoil" binosining xiyonatkorona va yomon niyat bilan yoqib yuborilganligi va bundan xalqning qanchalik azob chekkaligi aks etdi. Martning qonli voqealaridan keyin parishon vaziyatni qalamga olgan shoir o'z fikrlari va e'tiqodi, g'azab va nafaratini quyidagicha ifodalaydi:

"Ko`zlarimga ishongim kelmayapdi. "Ismoiliy" – milliy an'analarimiz debochasi bo'lgan makon, u muhtasham bino, Ozarbayjon fikrini, istiqlol mafkurasini bir ona kabi tarbiyaladi. Shundan kelib chiqadiki, Ismoiliyning taqdiri, qo'rquvlari faqat binoning qulashi sababli emas. Ushbu tashvishning ildizi milliy va insoniy tuyg'ulardan oziqlanadi. Shuning uchun u g'alaba qozonmoqda.

Bilasizmi, Ismoiliyani yondirilganini isboti nima?

Ozarbayjonda uch rangli va sakkiz yulduzli Ozarbayjon bayrog'i namoyish etildi .

"Ismoiliya"ning saqlanib qolishiga olib keladigan ushbu asarlar dushmanga qarshi badiiy so'zlarning g'oliblari edi. Bu g'alaba milliy o'zligimiz, milliy mustaqillik va milliy ozodlik tuyg'usidan kuch olgan, vatanparvar yozuvchilarimizning badiiy so'z san'ati ifodasi edi.

Milliy ong, g'urur va qadr-qimmatini, mustaqillikga va o'z-o'ziga ishonch harakatini "Hikoyanavis" imzoli asarida ham

ko'rishimiz mumkin. "Ozarbayjon" gazetasida "Hafta felyetoni" ustunida chiqqan bu hikoyada tasvirlanishicha, Murtuza Mashadi uyida yaxshi damlangan ko'k choy ichib o'tirardi. Shu payt eshik ochilib uning eng yaqin do'sti Salmon o'g'li Sulaymon keladi va yaqinda Denikin yuz ming qo'shin bilan hujum qilishini xabar beradi. Hujum qilmoqchi bo'lganlar barchani qilichdan o'tkazish niyatida ekanlar. Hatto uning otryadlari (samolyotlari) shaharni bombardimon qildi, Bu vahimalar Mashadi Murtuzaning oyoq-qo'lini muzlatdi. Nafas olishga qiynalib qoldi va rangi o'chgan holda Sulaymonidan nima maslahat berasan?" - deb so'raydi.

Hikoyada yomon yangiliklar ta'sirida Mashadi Murtukanin psixologik holati tasvirlanadi.

Bu savol ("nima maslahat berasan?", - savoli - muallifdan) qalbiga qo'rquv, iztirob solib, allaqanday tushkun holatda Salmon o'g'li Sulaymonga berilgandi. Salmon o'g'li Sulaymon Murtuzaning savoliga yagona yo'l qochish ekanligi bilan javob qaytaradi. Lekin o'tgan mart hodisalarida qochnalar qay ahvolga tushganlarini xotirlab ko'z oldiga keltirgan Murtuza biroz o'yab ko'rishini, qarindoshi Ferez bilan ko'rishib maslahatlashishini aytadi. Shunday qilib, ikki do'st Ferczning oldiga borib, unga niyatini aytishadi. Ferez ularning bu holiga kuladi. Uning qahqahasi Mashadi Murtuzani biroz ranjitadi. Ammo endi ko'zlar ochilgan Mashadi Murtuza atrofda odatiy hayot oqimi ketayotganligini anglaydi.

Albatta, bu davrdagi asarlarda hammaning g'oyalari, siyosiy, milliy va ma'naviy rivojlanishi bir xil darajada emas edi. Xalqning buyuk namoyondalari atrofdagi jarayonlardan to'g'ri xulosa chiqarishga harakat qilar edi. Bu kabi holatlar quyidagi kichik hikoyada ham o'z aksini topgan. Hikoya qilinishicha bir necha kishilar Naxshivondan Mashhadga ziyoratga yo'lga tushdilar. Erkaklar, ayollar, bolalardan iborat bu karvonda boylar ham muhtojlar ham bor edi. Uzoq yo'ldagi mashaqqatlar tufayli ko'plar vafot etdi. Biroq ular qiyalsalar ham o'z yo'llaridan qaytmay birlariga tasalli berardilar.

Ijtimoiy-milliy axloqiy muammolarni tanqid qilish bilan mammun bo'limgan proza ham mavjud fojealarning ildizini topishga harakat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, "A". imzoli "Tarbiya" hikoyasi qiziqarli.

Hikoyaning qahramoni, Kerim Og'a, olijanob jamiyatda tarbiyalangan va u o'z xalqining farzandlarida boshqa o'lkalar tarbiyasida tarbiyalaydi. Gimnaziyada o'qiganida, u to'satdan yo'ldan adashib, keyin yanada harakat qila boshladi. O'qishga qodir emas, ikki yil bitta sinfda qoladi. Hamina narsani so'ragan Karim Og'a jamoat-milliy uyg'onishdan bexabar. Hatto inqilobdan nafratlana-di. Lekin bu ish, inqilob Karimga juda boy pul beradi; millatlash-tirilgan mulkka va iqtisodiyotni millatlashitirishga qarshi Kerim Og'aga juda ko'p pul to'laniadi. U hayotini qayta jonlantirishga qodir, ammo qimordan qochishga qodir emas.

"Tarbiya" hikoyasidan farqli ravishda Ag'ababa Yusufzoda-ning romantik shaklda yozilgan "Siniq qanotlar" nomli romanining bosh qahramoni Nodir uzun bo'yli, to'ladan kelgan, xumor ko'zli va kamon qoshli bir yigitdir. Faqat otasi yo'q edi. Onasi Maryam esa harchand sabrli bo'lsada, oxirgi paytlarda uning ham sabr kosasi to'lgan edi. Bunga sabab, bir tomondan moddiy qiyinchilik bo'lsa, boshqa tomondan erining vasiyatiga ko'ra o'g'li ni ustaga shogirdga berishi kerak edi. Ammo Nodir buni xohlamas, o'qishni xoblar edi.

Yoz boshlandi, xirmonda ish ko'paydi. Maryam qish ozuqasi uchun erta ketib kech qaytardi. Keyinchalik Nodirni ham birga olib ketadigan, u ham onasiga qarashadigan bo'ldi. Ahvol shu zaylda davom etardi.

Ismoilbey esa ziyoli va vatanparvar, gumanist odam edi. U Maryamga kerakli yordamni ko'rsatish bilan birga ularni yaxshi yashashlari uchun bir muddat o'z uyida saqladi. Bu yer Nodir uchun ham qulay edi. U tezlikda Ismoilbeyning qizi Munavvar bilan do'stlashdi. Ismoilbey ham Nodirning qobiliyatidan xabardor edi. Shu sababdan u Maryamdan o'g'lini o'qitishga rozilik so'radi va

o'qish harajatlarini o'zi to'lashini aytadi. Bu xabarni ular qu-vonch bilan qabul qilishadi. Bu orada Munavvar bilan Nodir birlariga bog'lanib qoladi. Ular uch yil birga yashashadi.

Keyinchalik ular bir-birga bog'lanib ko'ngil qo'yishdi. Lekin Ismoilbeyning yoshlar idorasiga bergen arizadan kelgan javob yoshlarning ixtirobi uchun zamin bo'ldi. Unga ko'ra, Ismoilbey bir haftaning ichida Tiflisga ketib u yerda yangi lavozimini boshlashi kerak edi. Uning yo'l hozirligini boshlagani Nodir va Munavvarning ko'ngliga ixtirob soldi. Ularning qayg'ulari esa Ismoilbeyni o'ylantirib qo'ydi. Bir kuni Munavvar otasiga: "Dada, nega Nodir biz bilan Tiflisga ketmaydi?" – deb so'radi. Ismoilbey esa xayol olamiga g'arq bo'ldi. "Nega qizim bunchalar bezovta, xayollari parishon. Axir Nodir hali yana ikki yildan so'ng madrasani tugatadi. Kelajakdag'i hayoti uchun unga bu madrasanining shahodatnomasi lozimdir". Ismoilbeyning bu sikrlarini Mayramni chaqirib unga bayon qildi. Nodir tahsilni bitirishi uchun bu yerda qolishi kerak edi. Mayramga o'g'lining o'qishni tugatishi uchun barcha xarajatlarni o'z hisobidan to'lashini, muammo bo'lmasligini aytadi.

Ma'lum bo'lishicha, Ismoilbey Nodirning iste'dodli ekanligiga ishonar, bu qadar ilm sohibini ilmdan mahrum qilish buyuk jafo ekanligini bilar edi. Uning o'qishi uchun bergen va'dalariga sodiq bo'lsa-da, lekin qizi bilan bo'lgan munosabati va bu munosabatning kelajagiga oxiri yoq deb qarar edi. Uning beylik izzatnafsi bilan ziyolilik ma'naviyat to'qnashganda birinchi taraf – beylik g'ururi ustun keldi. Bu esa Ismoilbeyning bir ziyoli vatan-dosh kabi tamomila komil bo'lmanagini ko'rsatadi. Bir-birlaridan ayrilgan oshiqlarning ixtirobli kunlari boshlanadi. Dastlab Nodir qizning maktublariga javob yozmaydi, biroq keyingi maktublaridan ko'nglida umid paydo bo'lib javob yozadi.

Nodirning bu holiga sinfdoshlari, onasi, ustozlari qayg'urib, chora axtara boshlaydi. Ustozi uning salomat ekanligini aytadi. Biroq u ishq dardiga mubtalo bo'lgan edi.

Shu yerda roman ochiq qolib ketadi. Uning na qo'lyozmasi, na nashr etilgan "xalq hayoti" jurnalining davomi qo'limizda

bo`limgani uchun asar haqida tugal fikr bildira olmaymiz. Faqat mavjud qismidan, voqealar rivojidan va asar nomi (Siniq qanotlar)dan oshiqlarning taqdiri ijtimoiy yakunlanmaganini taxmin qilishimiz mumkin. Nodir va Munavvarning omadsiz taqdiri jamiyatda hukm surgan ijtimoiy-milliy va ma`naviy jarayonlarga qarshi bo`lgan e`tirozning badiiy aksidir.

Butun bular ko`rsatadiki, Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida nasr ijtimoiy-siyosiy, milliy- manaviy, axloqiy muammolarga jasorat bilan qarshi chiqqan. Shuningdek, uning mavzu doirasi rang-barangdir. Demokratik Respublik davrida yangi hayotning , yangicha fikrlash va dunyoqarashning shakllanishi tabbiy edi. Bunga ijtimoiy-siyosiy, baynalmilal xalq vaziyati ham ta`sir ko`rsata boshladi. Yaratilgan asarlarda davlat va xalqning istiqlolga tashna bo`lgan fikrlari bo`y ko`rsatdi. Taasuflar bo`lsinki, milliy o`zlik, milliy istiqlol orzusi davrning proza va poeziyasida aks etgan bo`lsada, lekin sotsial-siyosiy muammolar diqqatdan chetda qoldi, ma`naviy-axloqiy munosabatlarga kam e`tibor berildi.

## **TANQID VA ADABIYOTSHUNOSLIK** *(qisqacha xulosa)*

Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrida adabiyotshunoslik o`zining milliy, ijtimoiy va badiiy g`oyalarini boshqarishga qobiliyatini targ'ib etishga intildi. Adabiy tanqid, bir tomonidan dahshatli milliy va ijtimoiy muammolarga e`tibor qaratadi, ularning badiiy va amaliy yechimini taklif qiladi, boshqa tomonidan, adabiy asarlar va adabiy shaxslarni asrab-avaylashga harakat qiladi. X.Xamanzaminli, Adilxon Ziyadhoni, Seyid Husayn, M.B.Mahammadzade, M.Hadi, M.Rasulzade, Tamashachi, A.H. va b. yozuvchilarining umumiyligi muammolari, F.Kozarli, J.Jabbarli, A.Saxhat, A.Kavod, X.Saniliy, M.A.Sabir va boshqalar. Ular orasida qimmatli ilmiy va publisistik maqolalar yozadilar.

Ushbu maqolalarda klassik adabiy va ilmiy merosimizning nashr etilishi, shuningdek, bugungi avlodga taqdim etilishi vaqtning milliy-ijtimoiy muamminolarini ommaviy-badiiy yoritish masalalari bilan bir qatorda muhim vazifa bo'ldi. Ushbu muammolar, asosan, yaratilmagan professional tanqidlar bilan emas, balki yakka tartibdagи yozuvchilar va mafkurachilarining ishlarida ko'tarilgan edi. Bundan tashqari, badiiy va publitsist ohangda ham adabiy tanqidlarga sabab bo'ldi. Shunga qaramay, davrning adabiy-nazariy g'oyasi uning faoliyati va chuqur ilmiy va ijtimoiy-milliy masalalarning kuchiga e'tibor qaratdi.

Adabiy anjumanlarda (jamiyatlarda), ona tilida, adabiy munosabatlarda va boshqalarda alohida uchrashuvlar va ijtimoiy adabiy masalalar. Muammolar muhokama qilindi va almashildi.

Adabiy tanqidlarga qo'shimcha ravishda, adabiy tarix ham rivojlanmoqda. Bu Y.V.Chamenzaminli, F.Ko'charli "Ozarbayjon adabiyoti tarixi" ni nashr etish masalasini ko'tarish uchun etarli emas edi. 1919 yilda Turkiyada nashr etilgan "Ozarbayjon adabiyotiga qarash" monografiyasi juda yaxshi isbotdir. Bu ishda Ozarbayjon adabiyoti klassikasining ijodiyligi adabiyoti tahlil qilinadi.

Ijtimoiy-badiiy fikrning nazariy va mafkuraviy masalalari ham davrning oshkor bo'lishiga qo'shildi. Bu holatda Y.V. Chamenzaminli, U.Hajibeyli, A.Shaiq, M.Hadi, M.Shahtaturli, A.Javad, M.Hanafi va boshqalar faolroq edi. Yevropa davlatlari tomonidan Yevropa tillarida nashr etilgan maqolalar va brashyuralar bilan bir qatorda Ozarbayjonning adabiyoti va madaniy xazinalari Parij tinchlik konferensiysi tomonidan o'rganilib, targ'ib etildi. Umuman olganda, Ozarbayjon Demokratik Respublikasi davrining ilmiy, nazariy, tanqidiy va oshkoraliqi badiiy-estetik fikrlash bilan faol va aniq nuqtayi nazarga ega bo'lishi va ta'sir qilishi mumkin edi.

## **Ramiz Asker. Mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyoti.**

**Ilmiy muharrir:** Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi  
muxbir a'zosi

Prof. M. Imanov

**Muharrir:** Ali Shomil, Noila Asker

**Nashrga tayyorlovchi:** Yusuf Gedikli

Kitobda Ozarbayjonning milliy mustaqillik yo'lida olib bor-  
gan muqaddas kurashida adabiyotning o'ynagan roli, Sho'rolar-  
ning adabiyotga nisbatan tutgan siyosati, xalqning milliy, ma'na-  
viy va ijtimoiy rivoji yo'lida adabiyotchilarining kurashlari, mus-  
taqillik yillarda Ozarbayjon she'riyati, nasri, dramaturgiyasi,  
adabiyotshunosligi, yangi adabiy oqimlar va izmlar ko'zdan kec-  
hirilgan, ba'zi natijalarga borilgandir.

## “MUSTAQILLIK DAVRI” OZARBAYJON ADABIYOTI

Turkiyadan boshqa turkiy o'lkalar maktab o'quvchisi chog'larimdayoq doimo meni qiziqtirib kelgan. Ular orasida Ozarbayjon muhim va maxsus o'rinnegi egallardi. Buning asosiy sabbablaridan biri Ozarbayjonning sharqiy qo'shnimiz va har jihatdan biz bilan bir xillik kasb etishi edi. Maktab chog'larimdayoq turli-tuman xayollarga berilar, Ozarbayjon va boshqa turkiy xalqlarga doir tadqiqotlar olib borishni, turkiy xalqlar madaniyatini Turkiyada tanitishni orzu qilardim.

Litsey va universitet talabasi paytlarimda Zaynab Xonlarovaning qo'shiqlarini tinglab, Shahriyorning she'rlarini o'qib, o'z orzularimni haqiqatga aylantirish rejalarini tuzardim. Universitetni tugatgandan keyin ukam Fathi Gedikli bilan birga ilk tadqiqotimizni “Zamonaviy Ozarbayjon she'riyati antologiyasi” nomi bilan 1983 yilda nashr qildik. O'sha yildan biroz keyin esa *oshkorralik* va *qayta qurish* siyosati tufayli Sovet Ittifoqi tobora yums-hab, dunyoga ochila boshladi. Sekin-sekin ozarbayjonlik ziyolilari, san'atkori va ijodkorlar bilan tanishish, uchrashish fursatiga ega bo'ldik. Ilk tanishgan ozarbayjonlik ziyolilardan biri, 1987 yilda o'lkamizga tashrif buyurgan marhum shoir Rafiq Zako Xandon, ikkinchisi esa Abdulloh Abbas edi. O'sha fursatlarda tanishishga muyassar bo'lgan ilk ozarbayjonliklardan yana biri esa Ramiz Askerdir.

Ramiz Asker 1954 yilda hozirgi Armaniston hududida qolib ketgan Gumru viloyati tarkibidagi Amasya tumanining Qorachanta qishlog'ida tug'ildi. Universitetni 1978 yilda bitirdi. 1983-84 yilda ozarbayjon turkchasi, Kichik Osiyo turkchasi, arab, fors, ingлиз, fransuz va olmon tillarida nashr qilinadigan “Bugungi Ozarbayjon” jurnalining, 1984-91 yillarda esa lotin, krill va arab alifbolarida chop etiladigan “Olovlar yurti” gazetasining bosh muharriri vazifalarida ishladi. Turli lavozimlarda faoliyat yuritgach, keyinroq universitet hayotiga kirib keldi. Hozirgacha u Boku Davlat universitetining Turkiy xalqlar adabiyoti kafedrasini muddiri vazifasida ishlab keladi.

Ramiz Asker bir qator muhim ilmiy ishlarga bosh-qosh bo'ldi. U tomonidan amalga oshirilgan ezgu ishlarning boshida "Qutadg'u Bilig tadqiqi" (2003), Mahmud Koshg'ariy va "Devonu lug'otit-turk" bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar (5 ta alohida kitob, 2008-2010 yillar orasida) va "Dada Qo'rquq" kitobi bilan bog'liq tadqiqotlar bibliografiyasi (nashrda) kabi ilmiy ishlar turadi. "Turkiy xalqlar adabiyoti" (2011), "O'rxun obidalari" (2012) kabi asarlari ham mazkur tadqiqotlar sirasidan o'rin olgan.

Ramiz Asker turkiy xalqlar madaniyatining shoh asarlarini ozari turkchasiga o'girib, nashr qildirdi. Ular orasida "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit-turk", Boburning "Boburnoma"si va she'rlari, Husayn Boyqaro she'rlari, "Mo'g'ullarning yashirin tarixi", Faruq Sumerning "O'g'uzlar (Turkmanlar)", Bahoddin O'gelning "Turkiy mifologiya" kabi tadqiqotlari bor.

Turkmacha, o'zbekcha, tatarcha, qozoqcha, qirg'izchadan ko'plab yozuvchi va shoirlarning hikoya va she'rlarini ozarbayjon turkchasiga o'girib, Ozarbayjonda kitob shaklida nashr qildirgan. Gagauzlardan Todur Zanetning, qozon tatarlaridan Abdulla Tuqayning, qrim tatarlaridan Bakir Cho'bonzodaning she'rlari u tomonidan ozarbayjon turkchasiga o'girilgan asarlar orasida o'rin olgan. Turkman shoirlaridan Mahdumquli Firoqiy, Mulla Nafas, Nurmuhammad Andalib, Abdulla Shohbanda, Davlatmamat Ozodiy, O'roz Yog'muning she'r va boshqa asarlarini o'z ona tiliga ag'darib, chop ettirdi. Shu bilan birgalikda, turkman va o'zbek she'riyati antologiyasini nashr qildirdi. Onaduli turkiy devon shoiri Mehri Xotunning she'rlari va "Turk adabiyoti tarixi" kitoblarini o'girib, chop ettirdi. Otatirkayot bilan bog'liq kichik bir kitobi ham dunyo yuzini ko'rdi.

Ramiz Asker ushbu ijodiy faoliyatlarini tufayli bir qator mukofotlarga loyiq topilgan. Mukofotlari Ozarbayjon, Turkiya, O'zbekiston, Turkmaniston, Ukraina, Quvayt kabi mamlakatlarning ilmiy muassasalari tomonidan taqdim etilgan. Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tatariston, TURKSOY tashkilotlari ham Ramiz Askerni mukofotga loyiq ko'rgan ilmiy muassasalar qatorida o'rin olgan (Tadqiqotchimizning barcha asar va muko-

fotlarini bu yerda alohida-alohida sanab o'tishni lozim topmaymiz. Chunki gapni cho'zib yuborgan bo'lamiz. Lutfan, ushbu kitob so'ngidagi tarjimai holni o'qing).

Ramiz Askerning "Mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyoti" asari mustaqillikdan davridagi, ya'ni 1991 yildan keyingi Ozarbayjon adabiyotiga tutilgan o'ziga xos bir linzadir. Asar mustaqillikning ilk yillardan bungacha o'tgan 25 yilda, boshqacha aytganda chorak asrda Ozarbayjon adabiyotining boshidan kechirgan dovonlari, bosqichlari, yuksalish-u inqirozlarini ravon bir til va uslub bilan qalamga olgan. Tan olish kerak, mustaqillikdan oldingi Ozarbayjon adabiyoti haqida juda oz ma'lumotga egamiz, bu haqdagi fikrlarimiz ham shunga yarasha. Biroq mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyotini ham yaxshi bilmaymiz desak, yanglishgan bo'lmaymiz. Ramiz Askerning ushbu kitobi bizga bu masalada katta yordam beradi.

Mustaqillik Ozarbayjonga so'z va ijod erkinligini bergani ayni haqiqat. O'nlab yillar, hatta yuzlab yillar davomida mute'bo'lgan, jimjitlikka mahkum etilgan xalqlarning ozodlik bilan birgalikda muayyan bir huzur-halovatga erishishlari, oyoqlariga kishan bo'lib kelayotgan to'siqlarni uloqtirib tashlaganliklari ham ayni haqiqatdir. Ozarbayjonda ham shunday holat kuzatildi. Mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyotida Sho'rolarning "burjuaziya illatlari" deb baholagan turli adabiy oqimlari suv yuzasiga qalqib chiqdi. Ozarbayjon ham go'yo bir ijodiy laboratoriyaga aylandi. Boshqacha ta'riflaydigan bo'lsak, bugungi kun Ozarbayjon adabiyoti o'tish davrini boshdan kechirmoqda. Bu g'oyat tabiiyidir.

Ramiz Askerning "Mustaqillik davri Ozarbayjon adabiyoti" kitobi asosan Sho'rolardan keyingi davrga bag'ishlangan bo'lishi bilan birgalikda Sho'rolar davrini ham qamrab olgan. Kitob universitetlarimizning ixtisoslashgan bo'limlari uchun ham darslik kitobi mohiyatidadir. Shu bois ushbu asarning kitobxonlarning nazariga tushadi, degan umiddamiz.

**Fan doktori Yusuf Gedikli**  
*Istanbul, 24 may 2016 yil*

## 80- YILLAR SIYOSIY MUHITI: QAYTA QURISH VA OSHKORALIK

Sovet davlatining yoshi (1917-1991) qariyb bir inson umri bilan tengdir. Yaxlit 74 yil. Bu 74 yillik bir davr bo'yи qat'iy bir Marksist-Leninchi ideologiya hukm surdi. Jahon proletariatining yo'lboshchisi va Sovet davlatining asoschisi Vladimir Ilich Leninning 7 yil (1917-1924), aslida og'ir kasalligi sababli 5 yil davrom etgan qisqa bir hokimiyati mustasno, sovetlarning har qaysi liderining boshqaruv davri, hokimiyati tugagach, salbiy nom bilan atalgan. Masalan, Iosif Stalin davri (1923-1953) "shaxsga sig'inish" davri deb nomlandi. Undan keyingi lider Nikita Xrushchev davri (1954-1963) "voluntarizm davri" deya nom oldi. Mu'tadil bir lider bo'lgan Leonid Brejnevning Sovet Ittifoqidagi turkiy xalqlar uchun ancha yaxshi bo'lgan 18 yillik boshqaruv davri (1964-1982) "turg'unlik davri" deb ataldi. Bu davrda SSSRdagagi turkiy jumhuriyatlar har tomonlama rivojlandi, Qozog'istonidan Dinmuhammad Kunayev, O'zbekistondan Sharof Rashidov va Ozarbayjondan Haydar Aliyev Politbyuro a'zosiga aylandilar. Ulardan keyin bir yarim, ikki yil Kommunistik Partiya Markaziy Komiteti Bosh Sekretari bo'lgan Yuriy Andropov (1982-1984) va Konstantin Chernenko (1984-1985) davlarları, har holda qisqa muddatli bo'lgani uchun nom qo'yilmadi. Niheyat Mixail Gorbachyov davri (1985-1991) "perestroyka" (qayta qurish) va "glasnost" (oshkoraliq) nomi bilan tarixga kirdi.

Xo'p, bitta partiyaga bosh sekretarlik qilgan kishilar davriga nega biron bir salbiy nom qo'yish odat tusiga kirgan? Bu, og'izda "Xalq uchun, xalq nomidan, xalq tomonida" shiorlari bilan qurollangan Sovet siyosiy tizimining o'z xalqi bilan hech qachon hisoblashmagan, boshliq hayot paytida unga sig'ingan, vafot etgan yoki ag'darib tashlangan rahbarga teskari qaraydigan, nomini ham tilga olmay qo'yadigan boshqaruv falsafasi bilan aloqadoradir. Qizig'i shuki, har rahbarning orqasidan qoralash shon-sharafli Leninizmni yuksaltirish uchun biror shans sifatida qaralib, amaliyotga joriy qilingan. 1956 yilda Iosif Stalin haqida gapira turib

Nikita Xrushchev uni “Partiya ichida Lenin normalarini jonlantirgan yo‘lboshchi” deb maqtagan, 1964 yilda esa “Lenin normalari bilan hisoblashmagan volontarist rahbar” deb tanqid qilgan edi. Eski rahbarining ketishi va yangi rahbarning kelishi bilan Leninizmni maqtash shansiga ega bo‘lgan Kommunistik Partiya mamlakatni yakka o‘zi boshqarib, davlatga, kuchlar ayroligiga, ya’ni boshqaruvga, qonun chiqarish va idora qilishga, tergov ishlariiga, bir so‘z bilan aytganda, hamma narsaga ega chiqqan, hech qanday avtoritet va qonun-qoidaga bo‘ysunmaydigan bir chirkin rejimga aylangan edi. U taniydigan va tan oladigan, to‘g‘rirog‘i, o‘zaro birikib ketgan bir ism mavjud edi: Lenin. Sovet tizimida muqaddas ikkilik – Partiya (Kommunistik Partiya) va Lenin edi.

1920-30 yillarning mashhur proletar shoiri Vladimir Mayakovskiy siyosiy she’riyatning eng go‘zal namunasi bo‘lmish “Lenin” she’rida bu holatni quyidagi misralarda yaqqol ifodalagan edi:

Lenin bilan partiyamiz  
Ikki qardoshdir egiz.  
Tarixdan so‘raylik biz:  
“Qaysisi azizroqdir?”  
Lenin degach tilimiz,  
Esga tushar partiyamiz.  
Partiya deganda biz,  
Leninni eslaymiz biz

(Ruschadan tarjima – R. A.)

80- yillarning eng qizg‘in pallasi 1982 yilga to‘g‘ri keldi. Bu sana Sovet Ittifoqi uchun haqiqatan ham turg‘unlik davrining cho‘qqisi edi, deb hisoblash mumkin. Faqat bu sana Ozarbayjon uchun, aksincha rivojlanishning ayni avj pallasi edi, deya olamiz. 1969 yil Haydar Aliyev Ozarbayjon Kommunistik Partiyasi Markaziy Komitetining Birinchi Sekretarligi lavozimiga tayinlangandan keyin Ozarbayjon zudlik bilan rivojlanish pallasiga kirdi.

ko'plab miqdorda neft, ximiya sanoati, texnika va turli sanoatlariga ega, qishloq xo'jaligi sohasida, xususan, paxtachilik, uzumchilik, sabzavotchilik sohalarida rekord natijalarga erishdi.

1980 va 1982 yillarda Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti Bosh sekretari Leonid Brejnev Ozarbayjonga tashrif buyurib, Ozarbayjonga "Lenin" va "Xalqlar Do'stligi" medallarini topshiradi. O'sha paytlarda bunday tashriflarning Ozarbayjon uchun qanchalik katta ahamiyatga ega keng imkon va faxr bo'lganini aytib o'tishga hojat yo'q. Leonid Brejnev Boku ziyorati asnosida u tomonidan ta'kidlab o'tilgan "Ozarbayjon shaxdam qadamlar bilan rivojlanayapti" junlesi butun SSSRda ushbu o'lkanning reklamasiga aylangan edi. Holbuki, 1980- yillar-gacha Sovet Ittifoqida oddiy odamlar Ozarbayjonni yaxshi bilar edi, deb ayta olmaymiz. Ozarbayjon xalqi, millati, tili, dini, tarixi, madaniyati, adabiyoti, musiqasi, umumiy imidji ancha-muncha majhul edi. Masalan, "O'zbekiston" deganda har qanday Sovet insonining ko'z oldida darhol ba'zi narsalar mujassam bo'lar edi: bu yer o'zbek xalqining vatani, tili o'zbekcha, muslimon va hokazo. Ozarbayjon deganda esa ko'z oldida gavdalanadigan ko'p narsa yo'q edi. Qat'iy va obyektiv o'laroq shuni aytish mumkin: mashhur davlat arbobi Haydar Aliyevning 1969 yilda hokimiyat tespisiga kelguniga qadar Ozarbayjon SSSRda yaxshi bilinmas edi. 1970- yillarning so'nggi yillarda Moskvada tahsil olgan chog'larimda ham ayrim rus kishilarining "Qayerliksiz?" degan savoliga "Ozarbayjondan" deya javob berganimda, ularning hayrat bilan "U yer qayer bo'ldi? Armanistonni? Yoki Gruziyami" shaklida g'arib javoblarga shohid bo'lardim.

1980- yillarda Ozarbayjon ikkita muhim sohada rivojlandi. Iqtisodiyot va madaniyat. U yillarda Ozarbayjonda ta'lim va madaniyat taraqqiy etishining avj pallasida edi. Qariyb o'n besh ming yosh talabalar Ozarbayjondan tashqarida Sovet Ittifoqining eng kuchli universitetlarida tahsil olmoqda edi; adabiyot, musiqa, rassomchilik kabi madaniyat sohalarida mashhur insonlar bor edi. O'sha paytda adabiyot sohasida Mirza Ibrohimov, Sulaymon

Rustam, musiqada Qora Qurayev, Fikrat Amirov, Niyoziy, ras-somchilikda Mikoil Abdullayev va boshqalar SSSRning eng yuksak mukofotiga, ya'ni Sotsialistik Mehnat Qahramoni mukofotiga loyiq ko'rilgan edilar. Sovet Ittifoqi miqyosida odamlar meh-rini qozongan Rashid Behbudov, Muslim Magomayev, Po'lat Bulbulo'g'li, Zaynab Xonlarova musiqa va qo'shiqchilik san'ati-ning cho'qqisiga chiqqan edilar.

Bu o'lkada iqtisodiy rivojlanish biroz bo'lsa-da, tashqi man-balarga suyanar edi, biroq asosi Ozarbayjon edi. Ya'ni o'lkada quriladigan fabrika va boshqa sanoat muassasalarini Moskva tayinlar, atrof-muhit uchun zararli bo'lgan va zaharli barcha neft-ximiya sanoatlarini, neft rafinalarini Ozarbayjonda qurmoqda edi. Hatto, past oktanli va yuqori darajada oltin gugurtli Sibir neftini Ozarbayjonga keltirib, shu yerda tozalash ishlarini yo'lga qo'ygan edi. Tabiiyki, neft sanoatida ishlash uchun yuqori mala-kali mutaxassislarga chtiyoj katta edi. O'z vaqtida Haydar Aliyevning o'tkir zehni bilan strategik rejalar ishga tushirildi: eng hassos sohalarda mutaxassislar tayyorlash uchun har yili mingdan ortiq talaba yoshlar Rossiya va Ukrainianing Moskva, Leningrad, Kiyev va boshqa yirik shaharlardagi universitet va yuqori bilim yurtlariga yuborilmoqda edi. Shu tariqa, Ozarbayjon iqtisodiyot va ta'llimni bir vaqtning o'zida rag'batlantira boshladи. Boku, Ganja, Sumgait, Mingechevir, Alibayramli shaharlarda qurilgan zaharli ximiya, ayniqsa, super-fosfat kabi zavodlar bilan birgalikda ayrim yirik sanoat muassasalari ham aynan Haydar Aliyev so-yasida Ozarbayjonda barpo etilganini ta'kidlab o'tish kerak. Ma-salan, chuqur dengiz sondaj mexanizmlari, konditsioner jihozlari ishlab chiqaradigan gigant zavod va fabrikalar faqatgina Ozarbayjonda emas, butun Sovet Ittifoqi miqyosida maqtovga arzigu-lik sanoat muassasalarini edi.

1992 yilda "Hurriyat" gazetasining Istanbul muxbiri sifatida Haydar Aliyev bilan Naxchivondagi uchrashuvimiz chog'ida unga paxta yetishtirish sohasida yuz bergan soxta hisobotlar yoki o'z davrining mashhur iborasi bilan aytganda bo'rtitirilgan raqam-lar haqida so'ragandim. O'shanda u menga "Sen "investitsiya"

siyosatining nima ekanini bilasanmi?" deya savol berdi. Men esa, unaqa siyosat u yoqda tursin, bu so'zning ma'nosini ham bilmasdim. Investitsiya – bu marksist-leninchchi siyosiy iqtisod ilmiga kaptalistik siyosiy iqtisoddan yangigina sizib kirayotgan so'z bo'lib, "sarmoya yotqizish" ma'nosida edi. Holbuki, o'sha paytlarda biz bilgan va qo'llanayotgan yagona atama "sarmoya qo'yish" edi.

Vaziyat shunday bo'lgandi: Moskva iqlimi nari-beri bir xil bo'lgan Gruziya va Armanistonni enas, aynan Ozarbayjoni paxta yetishtirish uchun majburlab, bu yerda qiziq bir sarmoya siyosatini olib borardi. Maktab o'quvchilari bilan bir qatorda universitet talabalari ham o'qishdan mosuvo qilinib paxta dalalarida har kuni 16 saat qul singari ishilatilar va oqshom payti ular tomonidan terilgan paxtaning har bir kilosiga 10 tiyin pul olardilar. Oddiy bir shaharlik ishchi bir kunda 30 kilo, qishloqlik ichshi esa 50 kilo paxta tera olardi. Ayrim chaqqon qishloq ayollari bir kunda 200-300 kilo terishi hollari uchrab tursa-da, 5-6 kishidan iborat oila a'zolari o'zlarini tergan paxtani bir kishining (ko'pincha onaning) nomiga yozdirish yo'li bilan soxta mehnat qahramonlari ham paydo bo'lardi. Bir kilosi 10 tiyinga terilgan paxta Rossiyaga yuborilib, fabrikalarda qayta ishlanar va har bir kilo paxta tolasidan 3 dona ko'ylak ishlab chiqarilib, 50 so'mga sotilardi. Shu tariqa, Rossiya 1 kilo Ozarbayjon paxtasidan nohaqlik bilan 500 karra ortiqcha foyda ko'rmoqda edi. Bitta bolasini qornida, ikkinchisini yelkasida bir nechtasini esa paxta shiyponida qoldirib, jazirama issiq ostida paxta terib, kuyib kulga aylangan bechora ozarbayjon ayolini va salqin fabrika-zavodlarda oppoq kiyim va qo'lqoplar bilan kunda 8 saat ishlagan baxtli rus ayolini ko'z oldingizga keltingir. Shu asnoda Fridrix Engelsning mashhur "Paxta – mustamlaka o'simligidir" so'zlarini ham yodga oling. Yo'qsa, Ozarbayjon mustamlaka edimi? Yo'q, azizim, unday emas, unday bo'lishi mumkin emas! Ozarbayjon Sovet Ittifoqiga ko'ngilli (faqat va faqat ko'ngilli) o'laroq a'zo bo'lgan 15 tenghuquqli Sovet Sotsialistik jumhuriyatlaridan biri edi. Ushbu jumhuriyatning poytaxti

go'zal Bokuda, Ozarbayjonning boshqa shahar, qishloq va tumanlarida toshga, devorga va lavhalarga moyli bo'yoq va neon nurlarida "May! Tinchlik! Qardoshlik! Tenglik!", "Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasining Leninchi ichki va tashqi siyosatini chin ko'ngildan qo'llab-quvvatlaymiz!" singari minglab shiorlar yozilmagan edimi! Yozilgandi! Unday bo'lsa rus ayollarini ham bir yilda bir marotaba bir oyga bo'lsa ham Ozarbayjonga kelib ayni bizning ayollarimiz kabi nega paxta terishmasdi? Chunki mehnat taqsimoti degan bir narsa bor edi! Bittasi qulday ekib, yetishtirib, terib olar, ikkinchisi esa ular yetishtirgan mahsulotni fabrikada rohat-farog'atda gazlamaga aylantirardi. Unday bo'lsa foyda qanday bo'lishi, to'g'rirog'i qay tarzda taqsimlanishi kerak edi? To'g'ri topdingiz! Qizil poytaxtimiz Moskva buni ham o'ylab qo'ygandi. Yil oxirida fabrikaning tekinga qo'lga kiritgan foydasining yuzdan biri miqdoridagi pul paxtakorlarga primiya sifatida berilar edi. Primiyalar yilda bir marotaba berilishi va mehnatga qarab ajratilgani uchun anchagini summani tashkil etardi. Primiya olgan qishloqliklar guyoki juda baxtli bo'lishar, uy qurar, masina sotib olar yoki bolalarini uylantirar edi.

Baxt dedik, bu qanday baxt? Ozarbayjon xalqi Ozarbayjonda, Sovet Ittifoqida baxtli edimi? Bu savolga "ha" deyish qiyin. Avvalo, bu yurt, bu o'lka yuzda-yuz uning xalqiga tegishli emasdi. Bu yer shon-sharafligi baynalimilal an'analarga ega muayyan bir Sovet mamlakati edi. Uning poytaxti ko'pmillatli bo'lisch bilan g'ururlanar edi, go'yo. Qanday qilib, Tbilissi va Yerevan millilik kasb etishi bilan, Boku, Toshkent, Almati, Ashxabod kabi shaharlar esa ko'pmillatli bo'lisch bilan maqatanar edi? Qay yo'sinda bunday o'zini past hisoblash tuyg'usi g'ururlanish holatiga kelgandi? Qay tarzda mamlakatning o'zgalar tomonidan ishg'ol qilinish tarixi xalqqa mustaqillik bayrami sifatida singdirilgandi? Bokuda ona tilida gaplashish faqatgina Yozuvchilar Uyushmasida mumkin edi. Qurultoy va sempiozumlarda biror mehnatkash, biror cho'pon yoki biror qishloqlik turkcha gapirib, qatnashchilarni qutlardi. Mahalliy aholidan yuzlab insonlar ishlaydigan yirik tashkilotlarda bittagina rus, arman yoki boshqa biron bir millat

vakili ishlaydigan bo'lsa hamma ruscha gaplashishga harakat qilardi. Ozarbayjon turkchasi barcha tashkilotlarda, vazirlikda, fabrikada, xullasi kalom hamma joyda ikkinchi darajali til edi. Maktablar, universitetlarning barchasi ikki qismli edi: ruscha va Ozarbayjon turkchasida dars beriladigan alohida sinflar. Rus sinflari ustun edi, sifatli edi. Buning maxsus joriy qilingan yoki akchinchha ekanini aytish qiyin. Rus sinflarini bitirganlar, ustun tilni o'zlashtirgan yoshlar kuchliroq, bilimliroq, madaniyatliroq bo'lib chiqardi. Masalaning yomon tomoni rus bo'limini bitirgan talabarning yarmidan ko'prog'i mahalliy xalq vakillari edi. Maktablar, bog'chalarda ham xuddi shunday ahvol hukmron edi. Bugun biz muayyan bir millat sifatida buning alamini tortayapmiz. Ozarbayjonning 10 millionlik aholisining 1 millioni rus tillidir. Ularning aksariyat ko'pchiligi mamlakatning siyosatiga, madaniyatiga, ma'naviy hayotiga moslasha olmaydi yoki moslashishini istashmaydi. Ular doimo Rossiyaparast yoki rusparastlik kayfiyatida bo'lib, Moskva kanallarini tomosha qiladilar, Rossiyada nashr qilingan gazetalar va jurnallarni o'qiydilar, Rossiya siyosatini qo'llab-quvvatlaydilar, Rossiyani manfaatlarini himoya qiladilar. Mamlakatning mustaqilligi ular uchun ramziy bir narsadir, ularning fikricha Ozarbayjon har bir fursatda Rossiyaning bir qis-miga aylanadi yoki aylanishi shartdir.

Endi, ushbu holatning 80- yillardagi asl holatini ko'z oldin-gizga keltiring. Assimiliyatsiya ostonasida turgan, jon talvasa qilayotgan bir millatni o'ylab ko'ring. Tili cheklangan, tarixi butunlay soxtalashtirilgan, milliyligi baynalmilallikka almashtirilgan, g'ururi toptalgan, qadimiyligi boy madaniyatidan kuch olib, o'zligini saqlab qolishga intilayotgan, qarshilik ko'rsatayotgan bir millatni tasavvur qiling. Dini ta'qiqlangan, musulmonchilikni qo'lidan boy berayotgan, ma'naviy bo'shliqqa itarib yuborilgan ushbu asl va bechora millatning ziyyolilari Ozarbayjonning 15 ta ittifoqdosh va tenghuquqli jumhuriyatlardan biri ekanligiga ishonmas edilar. Nega?

Bugungi kunda ayrim kishilarning Sovet tizimiga nostalgiya tuyishiga qaramay, millat o'lar oq SSSRda tom ma'noda 7 ta sinfga bo'linuvchi fuqarolar bor edi. Birinchi va eng ustun sinf slavyan birodarlarimiz edi. Ushbu sinfga ruslar, ukrainlar, beloruslar va boshqa slavyan xalqlari mansub edi. Ikkinci sinf hamyurtlar xristian armanlar va gruzinlar edi. Davlat ushbu ikki millatga ni-hoyat darajada ishonch ko'zi bilan qarar, ularni juda murakkab va o'ta maxfiy xizmatlarga jalb qildilar. Uchinchi sinf hamyurtlar xristian diniga mansub Moldaviya va Boltiqbo'y i jumhuriyatları xalqlari edi. To'rtinchi sinf g'aytixristian va an'anaviy dinlariga sig'inuvchi buryat, qalmiq, oyrot va shunga o'xshash etnik guruhlar edi. Ulardan keyingi o'rinda musulmonlar turardi. Bular turkiy va g'ayriturkiy xalqlardan iborat edi. Masalan, beshinchi sinfga tojiklar, Shimoliy Kavkazlik g'ayriturkiy xalqlar edi. Oltinchi sinf fuqarolar turkiylar edi. Ularni (musulmon yoki aksinchha) ishonchlilikiga qarab quyidagicha keltirish mumkin: xakas, tuva, oltoy, chuvash, yoqut, boshqird, tatar, qoraqalpoq, qirg'iz, qozoq, o'zbek va yettinchi sinf o'lar oq ozarbayjon turklari. Shu o'rinda e'tiroz tug'ilishi mumkin deb o'layman: hozirgi kunda mustaqil yashayotgan, yuqorija sanab o'tilganlardan so'nggi 4 tasi o'zlarini yettinchi sinfga mansub bo'lgan deb hisoblashlari mumkin. Ularning hammasi ham o'zlarini shu sinfga oid hisoblashlarida muayyan darajada haqlidirlar. Ajablanarlisi, uy-joy muammosi faqatgina turkiy jumhuriyatlarda mavjud edi. Bu yerlarda mahalliy ziyorolar cheksiz navbatda turib, uzoq yillar mobaynida biror burchakda ijara yashagandan so'ng 40 yosh atrofida davlatdan uy-joy olish imkoniga ega bo'lar, bir necha yil uning ta'mir ishlari bilan mashq'ul bo'lib, eng unumdon yillarida milliy asarlar yozishga vaqt topa olmay vafot etib ketardilar. Ajablanarlisi, Bokuda har bir armanning bir nechta lab uy-joyi bor edi va mamlakat burchaklaridan kelgan har qanday ozarbayjon turki yillar davomida ularga ijara to'lashga majbur edilar.

Ajablanarlisi, 40-50 million musulmon turkiy aholidan SSSR miqyosida hech qanday vazir yo'q edi. Generallar barmoq bilan sanaydigan darajada juda oz oz edi. Marshal umuman yo'q edi.

Elchilar bor deyishga arzimaydigan darajada kam edi; hech bo'limganda Turkiyada, Eronda, Misrda, Pokistonda, Saudiya Arabistonida, Suriyada, Indoneziyada, Nigerda, Nigeriyada, Afg'onistonda elchi, bosh konsullik qila oladigan kishilar yo'q edimi? Kishilar bor edi-yu, ularga ishonch yo'q edi. Kreml tash-qarida turkiy xalq vakillariga ishonmaganidek, mamlakat ichkarisida ham ularga ishonmas edi. Yo'qsa, Dinmuhammad Qunayevdan keyin uning o'rniiga birorta kommunist qozoqni qo'yish shunchalar qiyin edimi?

Sovet Ittifoqida, xususan, Ozarbayjonda hamma narsa KGBning qattiq nazorati ostida edi. Haqiqiy vatanparvarlikka doimo millatchilik sifatida qaralar edi. Ayniqsa, turkchilik qat'iy ravishda ta'qiq ostida edi va panturkizm bilan tenglashtirilar edi. Ruslar mushtarak slavyan madaniyati, mushtarak slavyan yozuvi, mushtarak slavyan tarixi mavzusida bemalol suhbatlashib, bu haqda turli maqola va kitoblar yoza olgan holda, bizlarning turk nomini tilga olishimiz ham ta'qiqlangan edi. Bu holat to'rt asr oлdin Usmoniyarlarni o'ziga dushman sanagan Romanovlar davridan beri tinimsiz qo'llanilib kelayotgan siyosatning davomi edi. 1920-30 yillardan beri Bolsheviklar Rossiyasining uddaburonlik bilan yuritayotgan siyosat bilan aloqador edi: Turkiyani birinchidarajali dushman ko'rish, Turkiya bilan Sovet Ittifoqidagi turkiy xalqlar o'rtasidagi butun aloqalarni uzib tashlash, ularni bir-biriga begonalashtirish. 1937-1938 yillarda o'n minglab Ozarbayjon zi-yolisi millatchilik, panturkizm, "xalqaro imperializm (asosan Turkiya)ning josusi" deb ayblanib, otib tashlangan yoki Sibirga surgun qilingandi. O'lim jazosiga tortish yoki surgundan tashqari xuddi shunday siyosat 80- yillarda ham davom etdi. Bu mavzularda Markazning eng yaqin yordamchilari armanlar edi. Ular chaqmachaqarlik qilib Ozarbayjon turklarining har qanday milliy harakatini juda osonlik bilan yo'qqa chiqarar edilar. Masalan, 1956 yilda mashhur yozuvchi Mirza Ibrohimov Ozarbayjon Yu-qori Soveti (Parlament) raisi lavozimida ekan, Ozarbayjon turkehasini davlat tili deb e'lon qiladi. Bu aslida juda normal holat edi. Bokulik ruslar va boshqalar buni normal holat sifatida ko'rsalar-

da, Boku konservatoriysi talabasi bo'lmish armanlardan biri Moskvaga shikoyat xati yuboradi. Shundan keyin yer go'yo o'rni dan qo'zg'alib ketadi, Mirza Ibrohimov lavozimidan olinadi, parlament qarori bekor qilinadi.

Chorizmga qarshi kurashgan shonli xalq qahramoni Qochoq Nabi haqida sahnlashtirilgan "Otlarni egarlang" filmi ancha vaqt ko'rsatuvga berilmay turib qoladi. Buning oddiy bir sababi bor edi: armanlardan biri Nabining "Qochoq" laqabini armanlarni qirg'in qilgani uchun olganini yozgan edi. Shon-shuhratli Qizil Moskva dunyo miqyosidagi eng yirik Fanlar Akademiyasidan, Akademiya tarkibidagi Tarix institutidan so'ramasdan "1960 yildan Kommunistik artiya a'zosi falonchi" imzosiga ega arman chaqimchisi tufayli ko'p yillar davomida ko'rsatuvga berilmagan edi.

Ozarbayjondagi barcha muassasa va tashkilotlarga armanlar joylashtirilgan edilar. Nozirlar, vazir muovinlari, bosh direktorlar, bo'lim boshliqlari, maxfiy xizmat xodimlari, kotiblar asosan armanlardan tayinlanardi. Armanlar Moskva xohishi bilan Ozarbayjonnini o'rgimchak to'riday o'rab olgan edilar. Ozarbayjonning yashirin, maxfiy hech bir narsasi qolmagandi. Armanlarga mol-mulk, ma'muriy da'voda bo'lgan har qanday odam albatta mag'lubiyatga uchrardi. chunki ular har qanday vaziyatda shovshuv ko'tarib Moskvaga shikoyat qilar, ozarbayjon huquq xodimlarini, prokurorlarni tarafkashlikda ayblar, millatchilik tamg'asini yopishtirar, undan ham dahshatlirog'i panturkizm tamg'asini yopishtirishga harakat qilar edilar. Moskva esa voqealarni hech qanday tekshirib ko'rmasdan armanlarni oqlashga tirishardi. Huquqchilar, tergovchi va prokurorlar qo'rqqanidan Moskvaga bo'yin egishga majbur edilar.

1982 yil Sovet Ittifoqi rahnamosi Leonid Brejnevning vafoti intihoning boshlang'ichi bo'ldi. 1984 yilda Yuriy Andropov, 1985 yilda uning o'miga o'tirgan Konstantin Chernenkonning (Abulfayz Elchibeydan eshitishimcha u Sibirda yashaydigan turkiylarning kamsonli bir jamoasi bo'lmish tosalardan edi) vafoti tarix g'ildiragini o'zgartirib yubordi. Muammolar girdobida qolgan SSSRning tepasiga Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi

Bosh Sekretari Mixail Sergeyevich Gorbachyov keldi va ko'p o'tmasdan "perestroyka" (qayta qurish) va "glasnost" (oshkorallik) siyosatini boshlatib yubordi. Bechora Ozarbayjon ushbu holatni katta bir fursat sifatida qabul qildi. Ozarbayjon ziyolilari dastlab ozarbayjon tilining davlat tili sifatida e'lon qilish, shahar va tumanlarning eski tarixiy nomlarini qayta tiklash (xususan, Ganja nomini), lotin yozuviga o'tish, ekologik muammolarni hal etish va madaniy qadriyatlarni qaytarish kabi talablarni olg'a sura boshladilar. Ayni shunday bir pallada yirik bir voqeа yuz berdi. Armanlar Yuqori Qorabog' Muxtor O'lkasini o'zlariga berilishini istadilar. Mana shu voqeа Ozarbayjonning milliy uyg'onishiga turki bo'ldi. Holbuki, boshqa Sovet respublikalari bilan solishtirganda Ozarbayjondagi xalq harakati nisbatan sekin yuzaga kelgan va uzoq muddat madaniy intelektual shakldan siyosiy shaklga o'ta olmagan edi. Armanlarning da'vosiga Moskvaning munosabati esa ancha beqaror edi.

O'zini xalqlar do'stligining homiysi e'lon qilgan SSSRda bunga o'xshash qariyb 40 ta da'vo (iddao) bor edi. Armanlarning talabiga u yoki bu darajada "ha" deyish, boshqa da'volarning kun tartibiga chiqishiga olib kelardi. Ustiga-ustak, Mixail Gorbachyov va uning ayoli Raisa Gorbachyova arman diasporasidan olgan hadya (ya'ni pora) tufayli SSSRning kelajagi bilan o'ynashgan edilar. Kreml arman da'vosini ochiqcha va yashirin tarzda qo'llab-quvvatlay boshladi.

Shon-sharasli Kommunistik Partiyaning Leninchi ichki va tashqi siyosatiga ko'r-ko'rona ishongan va chin yurakdan dastak bergen Ozarbayjon bunday ahvol qarshisida uzoq vaqtgacha taaj-jubda qoldi; nihoyat duch kelgan shokni bartaraf qilib, 1989 yilning iyul oyida Ozarbayjon Xalq Jabhasi (OXJ)ni qurdi. Faqat bu jabha kutilganidek klassik bir jabha emasdi. Chunki bu paytda Ozarbayjonda hanuz siyosiy partiyalar va ularning koalitsiyasi yo'q edi. Bu jabha ko'proq yurtparvar olimlarning birdamligi natijasida takshil topgandi. Jabhaning ilk boshlig'i muxolifatchi va millatparvar Abulfayz Elchibey edi. Ozarbayjon Xalq Jabhasining dastlabki programmasida liberalizm g'oyalari asosiy o'rin

egallagandi. U paytlarda mustaqillik degan narsa hali dolzarblik kasb etmagan, jabhaning maqsadi “qayta qurish” va “oshkorilik”ning Ozarbayjonda amalga oshirilishini ta’minlash edi. Shu bilan birga, u paytlarda mazmuni uncha aniq bo’limgan, biroq barchaning tilida doston bo’lgan “suverintitet” degan bir so’z aylandib yurardi. Ushbu atama ostida Ozarbayjonning iqtisodiy va madaniy haq-huquqlarini ruyobga chiqarishi, etnomadaniy qadriyatlarini Sovet Ittifoqi doirasida emin-erkin rivojlantirishi ko’zda tutilmogda edi.

1988 yilning oxirlariga kelib Armanistonda yashaydigan 250 ming ozarbayjon turkining otameros joylaridan haydab chiqarilishi bilan Armaniston – Ozarbayjon janjali olovlandi. Buning ortidan armanlar Ozarbayjonning Yuqori Qorabog’ viloyatidagi ozariylardan etnik tozalash ishlarini boshlab yubordilar. Moskva Ozarbayjoni o’z vatandoshlarini himoya qilishga ruxsat berma-di. Aholidan ov miltiqlari yig’ib olindi, armanlarga esa qo’l ostidan zamonaviy qurol-yarog’lar tarqatildi. Armanlar KGBning yordami bilan Boku yaqinidagi Sumgait kentida armanlar zarari-ga provakatsiya yuritib. 26 kishining o’limiga sabab bo’ldi va bu voqealarni video tasvirga olib Ozarbayjoni qoralash kampaniya-sini boshlatib yubordi. Keyinchalik esa Moskvaning qo’li bilan 1990 yil yanvar oyida Bokuda etnik to’qnashuv sahnaga qo’yildi. 20 yanavr kuni kechqurun Sovet qo’shini Bokuga kirdi, favquloda holat e’lon qilindi. Sovet qo’shinining to’g’ri kelgan kishilarni o’qqa tutishi natijasida 131 kishi qatl qilindi, yuzlab kishilar yaralandi. Ozarbayjon Xalq Jabhasining barcha byurolari yopildi. Ozarbayjon Kommunistik Partiyasi Markaziy Komitetining 1. Sekretari Abdurahmon Vazirov Moskvaga qochdi, uning o’mini Ayoz Mutallibov egalladi. Faqat Mutallibov ham Moskva taraf-dori bir siyosat yuritdi. 1991 yilning oktabr oyida Xalq Jabhasining va jamoatchilikning bosimi ostida Yuqori Sovet (Parlament) Ozarbayjonning mustaqil davlat bo’lishi haqida Konstitusiya qarorini e’lon qildi. 1992 yilda dastlab Ayoz Mutallibovning, undan qisqa bir vaqt o’tgach esa Yoqub Mammedovning lavozimini tark etishi bilan Ozarbayjonda kommunistik davr barham topdi. 1992

yilning mart oyida esa Ozarbayjon Birlashgan Millatlar Tashkilo-tiga a'zolikka qabul qilindi.

1992 yil 7 iyunda prezident saylovi bo'lib o'tdi. Milliy mustaqillik harakatining lideri Abulfayz Elchibey yuzda 60 % ovoz olib davlat boshlig'i saylandi. Ayni shu kunlarda Rossiya kutilmagan bir qaror qabul qilib, 1993 yil may oyida o'z harbiy kuchlarini Ozarbayjondan chaqirib oldi. Iyun oyida Rossiya tarafidori osiy polkovnik Surat Husaynov qo'l ostidagi askarlar bilan Gan-jadan Bokuga yurish qildi. Mamlakat ichki to'polonlar girdobida qoldi. Mashhur davlat va siyosat odami Haydar Aliyev o'rta ga tushib, ichki urushning oldini oldi. Voqealar Elchibeyning lavozimni tark etishi va Haydar Aliyevning davlat boshlig'i lavozimini dastlab amalda, keyinroq esa huquqiy tomondan egallashi bilan yakun topdi. 1994 va 1995 yillarda ichki va tashqi qora kuchlar yana to'ntarish yasamoqchi bo'ldilar, faqat Haydar Aliyevning kuchli siyosiy zakovati va metin irodasi oldida mag'lub bo'ldilar. Haydar Aliyev davlatni himoya qildi, Ozarbayjonda ikkinchi marratoba davlat tepasiga kelishi bilan 2003 yilda yuz bergan vafotigacha o'n yil davomida amalda yakka odam boshqaruvini muvafiqiyatl ravishda davom ettirdi. 2003 yildan bugungacha uning o'g'li Ilhom Aliyev Ozarbayjonda prezidentlik lavozimini egal-lab kelayapti.

Qayta qurish va oshkorlik siyosati yuzaga chiqargan eng muhim natija o'lkaning 177 yil oldin qo'lidan chiqarib yuborgan mustaqilligiga qaytadan qovushishidir. Ozarbayjonning ikki asr-ga yaqin vaqt mobaynida eng asl farzandlarini qurban bergen mu-qaddas da`vo amalga oshdi. Shu bilan birga qayta qurish va oshkorlik siyosati natijasida vatan tuproqlarining beshdan biri, to'g'rirog'i Yuqori Qorabog', yaqin atrofdagi Kelbejer, Qubatli, Lochin, Zengilan, Ag'dam. Fuzuliy, Jebrayil tumanlari armanlar-ning qo'l ostiga o'tdi, 25 ming yurtdoshimiz shahid bo'ldi, 50 ming kishi nogiron bo'lib qoldi. Armanistondan, Yuqori Qorabog'dan, sanab o'tilgan tumanlardagi otayurtidan zug'um, etnik tozalash va qatliomga duch kelib, qochqinlarga aylanishdi, bir miqdor aholi – O'zbekistondan quvg'in sisatida kelgan mesxeti

turklari bilan birgalikda qariyb 1 million turk aholi o'z joyini o'zgartirish majburiyatida bo'ldi. G'arb davlatlarining, xususan, Rossiyaning ikkiyuzlamachi siyosat yuritib, Armaniston tomonida joy olishi oqibatida Ozarbayjon misli ko'rilmagan ofatlarga duchor bo'ldi, bir necha o'nlab million dollarlik zararga uchradidi. Shu bois Ozarbayjon xalqi qayta qurish va oshkoraliikka ikkita tuyg'u bilan yonashadi: bir ko'zi bilan kular ekan, bir ko'zi bilan yig'laydi.

Qayta qurish siyosati soyasida Ozarbayjonda hech qanday narsani yangidan qurish imkonini bo'lmadi, aslida bunga ruxsat ham yo'q edi. Faqat uzoq yillar davomida katta mehnatlar evaziga yetishtirilgan uzumzorlar Moskvaning xohishi bilan yo'q qilindi. Sababi, ruslarning haddan tashqari aroq ichishlarining oldini olish, deb ko'rsatildi. Oshkoraliik sohasida esa muhim voqealar yuz bergenini aytish mumkin. Masalan, mutaxassislarga ayrim yashirin arxivlarda, xususan, KGB arxivlarida ishlashga ruxsat berildi. 1937 yilda otib tashlangan Ozarbayjon ziyolilarining hujjalari e'lon qilindi. Faqat Moskvaning Ozarbayjonga qarshi amalga oshirganadolatsiz va makkor planlari bo'yicha hech qanday ma'lumot berilmadi. Masalan, Ozarbayjonning nima sababdan Armaniston. Gruziya va Rossiya foydasiga doimiy ravishda o'z tuproqlaridan ayrılgani masalasi mavhumligicha qoldi. Ikkinci jahon urushida Ozarbayjon xalqining nima sababdan butunicha O'rta Osiyoga surgun qilinmoqchi bo'lganligi kabi savollar javobsiz qoldi. Moskvaningi o'lkada yuritgan maxsus yashirin siyosati milliy madaniyatning va an'analarning yo'q qilinishi, internatsionalist Bokuning barpo etilishi haqida ortiqcha so'z aytildi. Ozarbayjon iqtisodiyotining asl ahvoli, haqqoniy ma'lumotlar, markaz bilan Ozarbayjon o'rta sidagi oldi-berdi miqdori ham hech bir izohsiz qoldi. Bu orada SSSR Boshvazir I-chi yordamchisi va Politbyuro a'zoligidan uzoqlashtirilgan Haydar Aliyev zarariga Moskva va Bokuda buhtondan iborat maqolalar chiqqa boshladi. Bunga ko'ra Bokudagi ayrim chiroyli binolar Leonid Brejnevning Ozarbayjon safari mobaynida yashash va dam olishi uchun Haydar Aliyev tomonidan maxsus qudirilgan bo'lib.

mamlakatning milliy jamg'armasi talon-taroj qilingan edi. Bu kabi ma`nosiz maqolalarining asl maqsadi xalqning diqqat-e'tiborini Yuqori Qorabog' voqealaridan chalg`itish edi.

### **1980- yillar Ozarbayjon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?**

Hech shubhasiz bu davrda Ozarbayjonda muayyan bir adabiyot bor edi, faqat she'riyat mustasno o'z davri voqeliklarini to'g'ridan-to'g'ri o'zida aks ettirgan kuchli bir adabiyot mavjud bo'lmasdi. Adabiyot ushbu qisqa bir davrda taajjublanish pallasini yashadi, biroq ularni o'z asarlarida aks ettirmadi yoki aks ettira olmadi. Adabiyot o'zini ko'proq matbuot va jurnalistika sohasida namoyon qildi. Bu hayratlanarli holatdir.

Hayratga molik yana bir holat esa Sovet Ittifoqining adabiyot siyosatidan shikoyatchi bo'lgan, asl tushuchalarini senzuradan yashirib, doimo satrlararo imo-ishora yo'li bilan o'z fikrlarini bayon qilgan va bu bilan g'ururlangan Ozarbayjon yozuvchilarining qayta qurish va oshkoraliidan avval ham qalamga olgan, biroq nashr qildira olmagan hech bir asar o'rtaga chiqmadidi. Yashirin adabiyot deb o'ylaganlari puch edi. Faqat shoir Nabi Hazrining Hazrati Muhammadga atab yozgan "Payg'ambar" nomli bir manzuma yozgani haqida gap-so'zlar yuradi. Boshqa birovlardan eshitishimizcha shoir bu asarini qayta qurishdan oldin emas, qayta qurish davrida yozgan.

1990- yillarda va undan keyinroq mavjud bo'lgan bozor iqtisodi va pul hamma narsaga hokim bo'lgach, endi bir qancha milliy qadriyatlar kabi adabiyot ham, kitob ham avvalgi ahamiyatini muayyan darajada yo'qotdi.

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azerbaycan Edebiyatı Tarihi: III cilt. Sovet dövri. – B.: Azerbaycan Elmlər Akademiyası Neşriyatı: 1957. – 562 s.
2. Azerbaycan Filoloji Fikri: Dünən, Bugün. Sabah / Elmi konfransın tezisleri. Red.: N.Q.Ceferov, M.M.Memmedov. – B.: Bakü Universiteti, 2001. – 83 s.
3. Azerbaycan Yazıcıları XX-XXI. Yüzyılında (Ansiklopedik Malumat Kitabı). - B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
4. Jukov Ivan. Kahramanın Ölümü // ‘Azerbaycan’ dergisi, No. 4, 1988, s.81.
5. Eliyev A. Edebiyyatımıza Muasır Bakış. – B.: Elm, 1999. – 196 s.
6. Efendiyyev E. Millilik ve Umumbeşerilik / Dil ve edebiyat jurnalı, № 4 (22), 1999, s.428.
7. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. I. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 504 s.
8. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. I. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 564 s.
9. Nebiyev B. Roman ve muasır qehreman. – B.: Azerneş, 1987. – 296 s.
10. Rzayev Yaşar. Milli Azatlık Şuurunun Formalaşmasında Azerbaycan Edebiyatının Rolü. Fil. elm... diss. avtoref. – B.: 2006. – 26 s.

## OZARBAYJON ADABIYOTI VA SOTSIALISTIK REALIZM

Sovet davlati adabiyot, musiqa, san'at, madaniyat, matbuot, bir so'z bilan aytganda moddiy va ma'naviy hamma narsani yalpi nazorat ostiga olgan yagona bir tizimdir.

1917 yildan 1991 yilgacha (Ozarbajjon 1920 yildan 1991 yilgacha) Sovet Ittifoqida adabiyotga aloqador ikkita keskin siyosat uzliksiz ravishda joriy qilingan edi: senzura va sotsialistik realizm.

Mustamlakachilikning niima ekani, nega va qanday amalgalashirilgani ma'lum deb o'ylayman. Faqat shunday bo'lishiga qaramay, bu masalada ma'lum darajada ma'lumot berib o'tish kerak. Adabiyotda senzura biroz oddiy va farqli bo'lganligi bois mavzuga matbuot orqali nazar tashlash yanada haqqoniyroq manzarani namoyon qiladi. Sovet davrida haftalik va kunlik gazetalar radio va televedeniyeda ishlagan kishi sifatida bu haqda juda yaxshi xabardorman. U paytlarda (hozir ham shunday) gazetalar oqshom payti. kerak bo'lsa yarim kecha nashrga berilish uchun imzolanar edi. Faqat undan oldin har bir sahifa takror va takror senzuraga berilar va ma'lum bir vaqt o'tgach qaytarib olinar edi. Senzura tuzatilishini istagan narsalar hech qanday e'tirozsiz zudlik bilan tuzatilar va gazeta sahifalari yangidan senzura stoliga yuborilar edi. Umuman olganda, senzuraga nimalar doxil edi, deb so'rasangiz, javobi oddiy: aslida istisnosiz o'laroq hamma narsa. Senzura gazeta sahifalarida yozuvlarda davlatga qarshi, siyosiy tizim, tuzum va sotsializmga qarshi, shonli Kommunistik Partiya va Politbyuroga qarshi, xalq va xalqlar do'stligiga qarshi ochiqcha, yashirin yoki imo-ishora yo'li bilan satrlar orasida joy olgan biror narsa bor-yo'qligini batafsil nazorat qilib chiqardi. Shuningdek, faqatgina senzura xodimi biladigan, biz esa hech qanday xabarimiz yo'q davlat sirlari, masalan, harbiy kuchlar va qurol-yarog'lar, ularning joylashuvi, xodimlar tarkibi, xarita, yo'l va ko'pri, ayrim fabrika va yashirin muassasalar ishlab chiqaradigan mahsulotlar va ularning ishlash qobiliyati, neft va gaz singari strategik moddalarning ishlab chiqarilishi, oltin, kumush, uran va

boshqa ma'danlarning joylashuv o'rni, ishlab chiqarilishi va miqdori, qisqasi, inson aqliga siqqan va sig'magan ko'plab narsalar senzura tomonidan batafsil ko'rib chiqilardi. Diqqatga sazovor jihat, senzura odob-ahloq, odamlarning shaxsiy hayoti, besoqolbozlik mavzulariga juda diqqat bilan qarardi. Irqiy kamsitish, urushga gij-gijlovchi, millatchilik va shovenizinga da'vat etuvchi maqolalarga ham ruxsat bermasdi. Bunday narsalarni matbuot emas, yashirin Sovet xizmatlari qoyillatardi. Sinflarga kelsak, shonli proletar sinfining alohida o'rni bor edi; matbuotda doimiy ravishda ular madh qilinar, manfur kapitalist sinfi va kapitalizm tartibi haddan tashqari haqoratlanardi.

Sovet senzurasining umumiy vazifasi shulardan iborat edi. To'g'ri, aytib o'tilganlardan tashqari boshqa narsalarga ham e'tibor qaratilardi. Masalan, Ozarbayjonda va boshqa turkiy respublikalarda xristian dini va xristianlarga qarshi matbuotda hech qanday ma'lumot joy olmasdi, ammo islomga va musulmonlarga qarshi har xil tanqidiy fikrlarga yo'l ochiq edi. Misol uchun, armanlar aslo tanqid qilinmasdi, chunki bu holat xalqlar do'stligi g'oyasiga teskari edi. Armanlarni eslatadi, deb hatto Dashnoqlarni tanqid qilish ham ta'qiqlangan edi. Ularni faqatgina juda ehtiyyotlik bilan Musovatchilar bilan birga tanqid qilish mumkin edi.

Senzurani barpo qilgan maxsus tashkilot Sovet Ittifoqi tomonidan ixtiro qilingan va o'ta nufuzli, o'ta sinfiy, o'ta revolyusyoner edi. Rasmiy nomi ham shu tarzda edi: "Matbuotda davlat siralarini muhofaza qiladigan bosh idora" (Bosh mudirlik). Senzura bosh mudirligi har bir respublikada Ministrlar Soveti qo'l ostida ish olib borardi. Senzura KGBchalik kuchli edi, Ozarbayjonda esa haqiqiy bir mustabid edi.

Ozarbayjondagi matbuot ustidagi (xususan, adabiyot ustidagi) senzura 1996 yilgacha amalda bo'ldi. Matbuot 1980- yillarda Sovet tarafdori kommunistlar va mustaqillik tarafdori yurtparvar demokratlar uchun, mustaqillik davrida esa hukumat va muxolifat jihatidan juda katta ta'sirga ega siyosiy vositaligi tufayli qattiq senzura ostiga olingan edi; faqat adabiyotga nisbatan bunday deb bo'lmaydi. 80- yillarda adabiyot jadal o'zgargan vogeliklarga

moslasha olmagani uchun matbuotga solishirilganda ikkinchi planda o'rin oldi, faqat nufuz va tirajini bir muddat saqlab qola oldi. Ustiga-ustak, adabiyotning matbuotga eng yaqin tarmog'i bo'lmish she'riyat ma'lum darajada o'sish ko'rsatdi;

- Matbuotni shu tariqa ilma-teshik qilib tekshirgan senzura adabiyot maydonida ham qariyb shunga o'xhash vazifani amalga oshirar, shuningdek, qo'shimcha o'laroq adabiy asarning ideologiyasiga, mazmuniga, g'oja va maqsadiga, satrosti va satrlararo ma'nosiga, imo-ishoralariga va muddaosiga qarab chiqardi. Asarning badiiy tomonlariga ham aralashar, biror kitob qahramonining nega bunaqa, boshqasining esa nega unaqa xarakterda ekanini jiddiy ravishda tekshirib chiqardi. Birorta shubhaga borsa senzuraga yoqmagan joylarni to'g'ridan-to'g'ri qaychi bilan kesib tashlardi. Senzura buni 1988 yilda Yurtidan tashqarida yashaydigan millatdoshlar bilan Madaniy aloqalar jamiyati (Vatan jamiyati)ning nashr organi bo'lmish "O't-olovlar Yurti" gazetasida Bosh direktor bo'lgan paytimda ham qat'iyat bilan yondashganda men nashrdan olib tashlangan va kesib tashlangan xabarlar joyini bo'sh qoldirgan, ularning o'miga bittadan qaychi rasmini qo'yib chiqqan edim. Keyinroq boshqa hamkasblarim ham xuddi shunda yo'l tutgandilar.

Senzuraning amaliy jihatdan ba'zan qarshilikka uchragan hollari ham uchrab turardi. Bunga eng yorqin misol sifatida 1988 yilda yana "O't-olovlar Yurti" gazetasida 1918-1920 yillar orasida 23 oy davomida Rossiyadan mustaqil bo'lgan Ozarbayjon Demokratik Respublikasining asoschisi Mehmet Emin Rasulzoda haqida qariyb bir betlik hajmda bosilgan maqolani ko'rsatish mumkin. Senzura dastlab bu maqolaga butunlay qarshi chiqdi. Gazetaning mamlakat ichkarisida biror dona sotilmaganini, tirajning butunlay mamlakatdan tashqarida yashaydigan millatdoshlarimizga yuborilganini, ushbu maqolani bosish orqali Sovet ittifoqining qayta qurish va oshkoraliykda naqadar samimiyl ekanligini ko'rsatishni istaganimni aytdim. Senzura xodimi bir muddat o'ylanib turgach: "Men ayrim qattiq joylarini chiqarib tashlayman, sen bo'lsa u joylariga qaychi rasmini qo'yamsan" dedi.

Shu tariqa matbuotda ilk marotaba qayta qurish va oshkorlikka yo'l qo'yildi. Bundan avval ham Chor Rossiyasiga xizmat qilgan bir guruh ozarbayjon generallari haqida maqolalar nashr qilgandik. O'sha paytda bunday generallarning nomini tilga olish ham ta'qilangan edi; faqat nima bo'lsayam Turkiyaga, Eronga emas. Rossiyaga xizmat qilganliklarini e'tiborga olib ruxsat berishgandi. O'sha yillari Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining nashr organi bo'lmish "Ilm" gazetasining bosh muharriri, rahmatli fan nomzodi Oydin Salimzodaning senzura xonasida jahldan bir necha bor yurak xuruji tutib qolganini yaxshi eslaman.

Sovet ittifoqida senzuraning adabiyot ustidan nazorat uslubiga, to'g'rirog'i tuzumning adabiyotga yondashuv tarziga "sotsial realizm" deyish to'g'ri bo'ladi. Xo'sh, "sotsialistik realizm" nima degani? Buning uchun ayrim adabiy atamalarni, xususan, ular orasida "klassizm", "sentimentalizm" va "realizm" atamalarini izohlash kerak bo'ladi. Ulardan dastlabkisi lotincha classicus, klassik ma'nosida bo'lib, G'arbiy Yevropada va Rossiyada 17-18 asrlarda adabiyotda va san'atda hukmron oqimdir, antik, klassik davrga taqlid qilgani uchun bu nomni olgan, asosan feudalizmni tarannum qilgan. Eng mashhur vakillari Rasin, Kornel, Bualo va Molyerdir. Sentimentalizm (ya'ni his-tuyg'uga berilish) oqimi yüksäləyotgan kapitalizmning manfaatlarını himoya qilgan va unga estetik zavq bergen adabiy maktabdır. Bu oqimning tarkibidə G'arbda va Amerikada realizm usuli paydo bo'lgan (lotincha realist, ya'ni haqiqat va ashyo so'zlaridan iborat). Vahshiy kapiyalist tuzumni tanqid qilgani uchun tanqidiy realizm nomini olgan. G'arbda eng tanilgan vakillari Anri Barbus, Bertold Brext, Luis Aragon, Nozim Hikmat, Pablo Neruda, Jorji Amadu, Jeyms Aldridg, Teodor Drayzer, Julius Fuchik va hokazolar. Sovet yozuvchiları ularni qardosh sıfatida ko'rар edilar. Ozarbayjon shoirlaridan Samat Vurg'un mashhur Braziliyalik shoir Jorji Amaduga xitoban shu tarzda murojaat qilgan edi:

Qardoshim Amadu, yuksalt sasingni,  
Sen yordam kutmagin qiroldan, serdan.

Yozaylik komunizm taronasini,  
Sen Braziliyadan, men-chi SSSRdan

1917 yilda shon-sharaflı Ulug‘ Oktabr sotsialistik to‘ntarishi tarixda yangi bir tuzumni boshlab berdi. Bu tuzumda asosiy adabiy va badiiy usul sotsialistik realizm nomini olgan usuldır. Dastlab Sovet Rossiyasında, so‘ngra Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqida, keyinroq esa butun Sharq bloki (Sovet qo‘g‘irchog‘i) o‘lkalarda sotsialistik realizm adabiyot va san‘atga o‘z hukmini o‘tqazdi. Shu o‘rinda ikkita anglashmovchilikka duch kelamiz: sotsialistik realizm qulqqaga g‘alati eshitiladi. Agar u tuzum va tizimga xos bir narsa bo‘lsa, u holda nega feodalistik realizm, kaptitalistik realizm, xristian realizmi, islom realizmini kabi atamalar yo‘q? Demak, bu bir marotabalik maxsus o‘laroq faqatgina sotsialistik realizm tuzumiga xos xususiyatdir. Ikkinci ajablanarli hol shuki, sotsialistik realizmnning ilk asari mavqeidagi Maksim Gorkiyning “Ona” romani sotsialistik to‘ntarishdan 11 yil avval 1906 yilda yozilgan. Xuddi shu yilda mashhur rus revolyusioneri, munaqqid va yozuvchi, Sovet Rossiyasining birinchi ta‘lim vaziri Anatoliy Lunacharskiy “proletar realizmi”, 1920- yillarda esa “yangi sotsialistik realizm” iborasini o‘rtaga tashlagan bo‘lsa ham bu iboralar tarafdir topmagan.

Butun jahon mehnatkashlarining ulug‘ yo‘lboshchisi, proletar inqilobining me’mori Vladimir Lenin adabiyot va san‘atning sinfiyligi haqida ko‘p o‘rinlarda eslab o‘tgan. Bu mavzuda eng muhim ishlaridan biri 1905 yilda yozilgan “Partiya tashkiloti va Partiya adabiyoti” maqolasidir. Lenin bu maqolasida shunday deydi: “Adabiyot partiyali bo‘lishi kerak... Yo‘qolsin partiyasiz adiblar! Yo‘qolsin g‘ayriinsoniy adiblar! Adabiyot ishi umump-roletar ishining, butun ishchi sinfining eng bilimli yo‘lboshchilarini tomonidan harakatlantiriladigan yakka, yagona va buyuk sotsial-demokrat mexanizmining boltlari va g‘ildiraklari bo‘lishi kerak”.

1917 yildan keyin amalda mavjud bo‘lgan sotsialistik realizm usuli 23 may 1932 yilda “Literaturnaya gazeta”da Sovet Yo-

zuvchilari Uyushmasining muvaqqat raisi Ivan Gronskiy tomonidan rasman e'lon qilindi, 1934 yilda Sovet Yozuvchilarining 1. Qurultoyida davlatning adabiy va badiiy doktrinasiga aylanadi. 1932 yilda muhojirlikdan Rossiyaga qaytgan mashhur proletar yozuvchi Maksim Gorkiy Yozuvchilar Uyushmasining raisi qilib tayinlandi.

15 avgust 1934 yilda Moskvada o'z faoliyatini boshlagan Sovet Yozuvchilarining 1. Qurultoyi to'liq 10 kun cho'zildi. Qurultoyda Sovet Ittifoqining turli joylaridan 52 millatga mansub 597 nafar yozuvchi qatnashdi. Ozarbayjon delegatsiyasidan Jafar Jabborli, Ali Nozim, Mikoil Refili qurultoyda so'zga chiqishdi. Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi raisi Mehmet Kozim Alekberli esa Ozarbayjon adabiyoti haqida hisobot ma'rzasini sundi. Bundan qariyb bir oy oldin u Bokuda chaqirilgan Ozarbayjon Yozuvchilari 1. Qurultoyi badiiy adabiyotga doir partiya siyosatini jon ko'ngildan himoya qilib, uni qabul qilgan edi [1, 46-48].

Sovet Yozuvchilar Uyushmasining tuzugida sotsialistik realizmga shunday ta'rif berilgan edi: "Sotsialistik realizm Sovet badiiy adabiyoti va adabiy tanqidining tamal usuli bo'lib, yozuvchidan haqiqatni haqqoniy ravishda, tarixan obyektiv, revolyusion taraqqiyot doirasida tasvirlashini talab qiladi. Bu davr haqqoniy badiiy tasvirning to'g'riligi va tarixiy obyektivligi mehnatkashlarning sotsializm ruhida tarbiyalanishi va fikr metinliligi bilan olib borilishi kerak".

Keyinchalik sotsialistik realizmning eng tamal, eng dastlabki g'oyalaridan chekinildi: komunizmga sodiqlik, partiyaviylik, sindiylik, xalqchillik, aholi guruhlarining o'zaro kurashiga qat'iy bog'liqlik, sotsialistik insonparvarlik va baynalmilallik, tarixiy optimizm; formalita va subyektivizm va naturalistik primitivlarning barcha jihatlariga qarshi chiqish.

Bu yerda eng qiyin masala komunizm masalasıdır. Marksizm – Leninizm ta'lilotiga ko'ra, komunizmda na boy, na kambag'al, na pul, na urush, na qamoq va na chegara bo'lishi kerak. Insonning inson tomonidan ekspluatatsiya qilinishi hech qachon bo'lmasligi kerak. Komunizmda kasallik bo'lmasligi kerak, hatto

o'lim bo'lmasligi kerak. Barcha istaganiday yeyishi, istaganicha mehnat qilishi, mehnat insonga musibat emas, zavq berishi, dard-iztirob emas, shodlik keltirishi lozim. Endi, roman yozgan yozuvchini ko'z oldingizga keltiring, u bularni o'z asarida qanday aks ettirsin?

Partiyaviylik tushunsa bo'ladigan muayyan bir g'oyadir. Yozuvchi o'zi mansub bo'lgan partiyaning (ya'ni Komunistik Partyaning) siyosatini qo'llab-quvvatlashi, o'z asarida hamma narsaga, mavzu va voqeliklarga partiya ko'zi bilan qarashi, partiya doirasasi va nizomidan chetga chiqmasligi shart. Siyosat mavzu qilib olingen biror asarda bularni amalga oshirish mumkin, biroq sevgi-muhabbat mavzuli muayyan bir asarda partiyaviylik g'oyasi qanday qilib tasvirlanishi mumkin deb so'rasangiz savolningiz al-batta javobsiz qoladi.

Sinfiylik deganda dastlab ishchilar sinfi tushunilishi kerak. Inqilobchi ishchilar sinfining yakka-yu yagona ittifoqchisi dehqonlardir. Ushbu ikki sinfdan yetishib chiqqan ziyolilar guruhi ham bir-birlari bilan o'zaro ittifoqchi; faqat ular kapitalistlar sinfining dushmani bo'lmos'i lozim. Shahar burjuaziysi, qishloq boylari, mayda burjuaziya ziyolilar ham sinfiy dushmanlardir. Bir so'z bilan aytganda sinfiylik Sovet siyosiy alifbosining, tom ma'noda Sovet adabiyotining "a" harfidir.

Xalqchilik g'oyasi birmuncha o'ngg'ay, yozuvchi xalqni sevmog'i, jonli xalq tilida yozmog'i, asar qahramonlari xalqning baxti uchun chin ko'ngildan jon bermog'i. Mumkin.

Yozuvchi oddiy aholining kurashiga jonu-dildan berilmog'i kerak, chunki bu muqaddas kurash sotsializm, chiroyli hayot va nihoyat kommunizm qurish uchundir. Yozuvchi buni hech qachon unutmasligi va doimo oddiy xalqning, ya'ni mehnatkash aholining yonida joy olmog'i lozim.

Keyingi g'oya insonparvarlik g'oyasidir. Hamda aynan qayma'noda ekanligi mavhum sotsializm insonparvarligi. Mayli, feodalizm yoki kapitalizmga, dinga xos insonparvarlik tushunchasi

bo'lsaydi, shunga tayanib sotsializmga xos insonparvarlikning ni-ma ekanligi u yoki bu darajada anglashilsa edi... Holbuki bunday narsaning o'zi yo'q.

Internatsionalizm (baynalmilallik) g'oyasi eng osoni: istis-nosiz o'lar qo'sha joyda mutlaqo bir xalqlar do'stligi g'oyasi tas-virlanishi, xususan, musbat inqilobchi rus va arman qahramonlar o'rinni olmog'i, ular turkiy va musulmon mehnatkashlarga inqilob maydonida rahnamo bo'lmog'i lozim edi. Ammo, chekka bir ozarbayjon qishlog'ida rus va armanni qanday topish mumkin? Nima bo'lgandayam yozuvchi buning yo'lini topishi, qaydan bo'lsayam ularni topib o'z asarida jonlantirmog'i lozim. Bu soha-da eng namunaviy adabiyot ozarbayjon adabiyoti bo'lsa kerak! Ijobiy rus va arman qahramon barcha kitoblarimizda o'rinni olgan. Masalan, Samat Vurg'unning "Inson" dramasida Valentin va Ma-riya, Mirza Ibrohimovning "Parvona" romanida Natasha, Sem-yon Volkov, Mir Jalolning "Bir o'smirning manifesti" romanida Suren, Ja'far Jabborlining "1905 yilda" pyesasida Ollohverdi va Baxshi, Yusuv Vazirning "Studentlar" romanida Kaspariyan, Mehri Husaynning "Shomil" dramasida Tamarin... Sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Endi arman sovet adabiyotiga bir nazar tashlaylik. Hayratlanarlisi, ularda ijobiy qahramon sifatida birorta ozarbayjon yoki musulmon obrazni uchrata olmaysiz. Buni tus-hunish mumkin. Armanlar 19. asrning oxirlaridan boshlab turkiylarni dushman sifatida ko'ra boshlaydilar. 1920-30 yillarda ozarbayjon yozuvchilari bundan yaxshi xabardor edilar, biroq Moskvaga xush yoqish uchun o'z asarlarida armanlarni ijobiy qahramon sifatida ko'rsatishga harakat qilishardi.

Tarixiy pozitivizm degan g'oya ham sovet adabiyotida yetakchi o'rinnlarda joy olgandi. Buning asosida har qanday asar aso-san salbiy atmosfera, negativ muhitni tasvirlamasligi, jamiyatga va odamlarga faqat ijobiy hayotni tasvirlab ko'rsatmog'i lozim edi. Aslo boshqacha bo'lishi mumkinmas. Ozarbayjon yozuvchilarining asarlari ham kitobxonlarga katta umidlar, baxtli kelajak va'da qildi.

Shu yergacha ayтиб о'тилган г'ояларнинг мазмун-мөhiyati birmuncha qiyin bo'lsa-da anglashiladi. Faqat formalita va subyektivizmning, naturalist primitivlikning butun ko'rinishlari deganda nimani tushunish mumkin? Buni qanday anglamoq kerak? Bu savolga maqbul va qoniqarli javob olish qiyin.

Bulardan boshqa yana bir qator г'оялар bor edi. Masalan, sinfiy dushmanqa va adabiy raqiblarga (simvolistlarga, futuristlarga, imperetsionistlarga, imajinistlarga va h.k.) nisbatan qattiq qarshilik ko'rsatish, taslim bo'lmagan dushmanni yengish, principlardan aslo voz kemaslik, janjalkash va inqilobchi bo'lish, moziy sarqitlariga, salbiy an'analar va zararli illatlarga, din va qo-loqlikka, eskicha fikrlar va mutaassiblikka qarshi chiqish, umumiylilik va tipiklik qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim va h.k.

Adabiyotning badiiy jihatlari ham muhim edi. Masalan, asarning kompozitsiyasi, syujeti va obrazi, bosh qahramonlari, ijobjiy va salbiy qahramonlari, voqealarning oddiylikdan murakkablikka to'g'ri rivojlanish jarayoni, bahs va tortishuvlarning tobora kuchayishi, ziddiyatlarning yuqori nuqtaga chiqishi va kulminatsion holatga yetib borib, asta-sekin o'z yechimini topishi va nihoyat yakuni ham sotsialistik realizm doirasida tasvirlanishi shart edi.

Sovet adabiyotida sotsialistik realizm uslubida yozilgan bir necha nanunaviy asar bor: bu Maksim Gorkiyning "Ona" (1906) romani, Anton Makarenkoning "Pedagogik manzuma"si (1925-35), va Nikolay Ostrovskiyning "Po'lat qanday toblandi" (1932) romani. "Ona"da qoloq va mushtipar bir ayolning vaqt o'tgan sayin qay tarzda zukko inqilobchiga aylanishi, "Pedagogik manzuma"da bir vaqlar mahbuslikda o'tirgan odamlarning qanday qilib jamiyatda hurmatga sazovor kishilar safida joy olishi, "Po'lat qanday toblandi"da esa suqarolar urushi va sanoatlashuv davrida yosh vatanparvarlarning ko'rsatgan fidoyiliklari tarannum etiladi. Bu asarlardan tashqari yana ko'plab sotsialistik realizm usulida yozilgan asarlar mavjud edi.

Sovet Ittifoqida g'ayrirus xalqlarning milliy adabiyoti qanday bo'lgani masalasiga kelsak, ular uchun ham ma'lum ma'noda avtonom mazmunidagi "Shaklan milliy, mazmunan sotsialist"

formulası joriy qilingan edi. Aslida bu formula sotsialistik realizm usulini aslo chetlab o'tmasdan mahalliy adabiyotning mahalliy tillarda yozilishiga sharoit yaratara, faqat usulda chekinish yo'q edi. Nari borsa, masalan, o'zbekistonlik biror adibning o'z asarini o'zbeklar orasida bo'lib o'tgan biror voqeani o'zbekcha yozishi va asarning o'zbek tilida nashr qilinish imkoniyatini berar edi. Bunday huquq Ozarbajonga va yozuvchilariga ham berilgan edi.

Sovet Ittifoqining qaysi hududida bo'lmasin yangi adabiyotning mayog'i aslida rus adabiyoti edi. Markazdagi jarayonga joylarda haddan ortiq darajada taqlid qilinardi. Yangi ishchi obrazlari g'ayriodatiy bir tarzda bo'rttirilgan holda tasvirlanardi. Buning yaqqol misoli, Samat Vurg'unning haddan ortiq taqlidchilikka qarshi chiqib yozgan shu satrlarida o'z ifodasini topgan: "... Inson ba'zan sevadi, seviladi, ba'zan iztirob chekadi... Bizning yozuvchilarimiz buni unutmoqdalar. Ba'zan ishchini doimo shod-xurram, sevinchli, baxtiyor, yuzlari kulgidan porlab turgan tarzda tasvirlaydilar. Ba'zan esa aksincha juda jiddiy, bir kunda 24 soat ishlaydigan, tinim bilmaydigan inson sifatida ko'rsatishga harakat qilishadi. Biroq nima bo'Imaganda ham asar qahramoni inson-ku! Unga dam olish, yotish, uplash, yeyish-ichish kerak emasmi? Ishchining hech qanday dardi, fikri yo'qmi? Bizning yozuvchilar bu jihatlariga ahamiyat berishmaydi. Natijada hayotni buzib ko'rsatayaptilar" [8, 83].

Sotsialistik realizm usulining doirasi tor, talablari esa juda qattiq edi. Ko'pincha maorif ishlari bilan shug'ullanadigan, eng maqbul ravishda tanqidiy realizm chizig'ida qalam tebratgan, xalqning yangi davrga moslashuvi, qoloqlik va diniy taassubdan qutilishi uchun kurash olib borayotgan Ozarbajjon adiblari birdaniga sotsialistik realizmga duch kelgach o'ta qiyin ahvolda qoldilar. Ehtimol, shu bois Ozarbajjonda ilk Soviet romanı Abulhasan Alekberzoda tomonidan faqatgina 1930 yilda yozib tugallandi. "Jarliklar" deb nomlangan ushbu roman qishloqlarda yangi tuzilgan ko'lxozlar (kollektiv xo'jaliklar) haqidagi ilk asar edi. Faqat, har holda adib sotsialistik realizmni to'laqonli ifodalay olmagani-

dan bo'lsa kerak 1933 yilda va yana 1938 yilda roman ustida qayta ishlashga majbur bo'ldi. 1930- yillarda Mehmet Said O'rdubobiyning "Tumanli Tabriz", Sulaymon Rahimovning "Shamo", Mir Jalolning "Tirilgan odam", Ali Valievning "Qahramon", Abulhasanning "Dunyo joyidan siljimoqda" romanining o'rtaga chiqishi bilan Ozarbayjon adabiyotida roman turi keng yoyila boshladi.

Umuman olganda Sovet romanining, ular orasida Ozarbayjon romanining (roman so'nggi davrlarda adabiyotning eng keng tarqalgan turi bo'lgani uchun ham uni namuna sifatida keltirayapmiz) anatomiyasi va morfologiyasini aniqlash mumkin. Masalan, makon sifatida Ozarbayjon, mavzu sifatida qishloq, zamon sifatida 30- yillar... Adib Ali Aliyev qanday roman yozar edi? Qishloqda sinfiy ziddiyat borgan sari olovlanar, yer mulklari qo'lidan tortib olingan qishloq kadxudolariga endi kolxzogga a'zo bo'lib kirish taklif qilinar edi. Markazdan, viloyat va tumanlardan tashrif buyurgan partiya kattakonlari kolxzoning afzalliklari, o'ziga xosliklari haqida majlislar uyuştirar edilar. Qishloqdag'i kambag' allar buni xursandchilik bilan kutib olar, Mehmet og'aning sobiq xizmatkori Hasanni kolxzog raisi qilib saylardilar. Boy-badavlat kishilar ikki tanlov orasida qolgan edi: yo son-sanoqsiz chorvalarini, qo'y-echkilarini, otlarini, hatto itlarini kolxzogga berishi, yo bo'lmasa Sibirga surgun qilinishi lozim edi. Ba'zilar qo'rquvdan hamma narsasini kolxzogga topshirar, ba'zilar chet el-larga qochar, ba'zilar esa qo'liga quroq olib tog'larga chiqib ketardi. Yosh va sodda Hasan ayrim taktik xatolarga yo'l qo'yadi, buni fursat bilgan boylar bundan darhol foydalanib qolish yo'lini topishadi, Hasanni o'z qatoriga qo'shishga harakat qiladilar. Faqat mehnatkash omma uni qo'llab-quvvatlashadi, ahvol taranglashadi. Shunday bir paytda o'rtada sevgi-muhabbat mojarosi o'rtaga chiqib, Hasan puldor Husayn og'aning go'zal qizi Fotimaning sevib qoladi, og'a qizini bermagach. Hasan qizni olib qochadi. To'y oqshomida hamma musiqa chalib, raqs tushayotgan bir pallada boylar fitna qo'zg'ab tog'dagi qaroqchilar bilan

birga qishloqqa hostirib kirib, kolxozdag'i chorvalarning bir qismini qirib tashlab, oxurlarni, molxonalarini yoqib yuborishadi. Qurolli to'qnashuv paytida Hasan qaynisi Aslonni, Aslonning akasi Haydar esa Hasanning otasini otib tashlagan bir holat. Janjal borgan sari olov oladi, qishloq ahli bir-biri bilan olishayotgan bir palla, markazdan harbiy kuch yetib keladi... Natija ma'lum. Oxir-oqibatda mehnatkashlar g'olib chiqishadi...

Ayni ssenariy birorta fabrikada yoki sanoat korxonasida sodir bo'lgan biror voqeа uchun ham xosdir. Ishchi sinfiga mansub Ahmadga qarshi boylar tuzoq qo'yadilar, yuziga kulib qarab, yashirincha unga qarshi ish yuritadilar, mug'ombirona reja tuzadilar, faqat Ahmadni qo'llab-quvvatlagan do'stlari, partiya tashkiloti, rus va arman o'rtoqlari uning ezilishiga yo'l qo'yishmaydi. Fabrika va muassasa butun kuch-quvvati bilan ishlaydi, sotsialistik musobaqa va xalqlar do'stligi bahs mavzusidir. Yana bir sevgi-muhabbat mojarosi o'rtaga chiqadi. Ahmad rus qizini sevadi, ammo ba'zi xatoliklarga yo'l qo'yadi, ikkilanib qoladi, faqat partiya uni qutqaradi, metin bir ishchi qilib yetishtiradi. Nihoyat ishchi sinfi yana g'olib chiqadi. Mana sena standart sotsialistik realizm romani...

Ayrim mutaxassislarga ko'ra. Sovet davrida ikkita adabiyot mavjud edi: milliy adabiyot va Sovet adabiyoti. Milliy adabiyot barcha qiyinchiliklarga va zo'ravonliklarga, siyosiy va g'oyaviy qarshiliklarga, amalga oshirilgan tahdid va jazolarga qaramasdan badiiy qoidalarga mos ravishda yaratilmoqda edi. Sovet adabiyoti esa badiiy vogelikka nisbatan ko'proq ideologik vogelik edi. "Shaklan milliy, mazmunan sotsialist" formulasi shakl va mazmun orasida sun'iy devor tortishdan boshqa bir narsa emasdi. Bu tushunchalarni e'tirozsiz qabul qilishning imkonini yo'q kabi ko'rinsa-da, faqat haqiqatan ham shunga o'xshash vaziyat hukmron edi. Hatto, yuz foiz Sovet asari hisoblangan ba'zi asarlar ham Ozarbayjon milliy o'zligiga ma'lum darajada hissa qo'shganligi aniq. Masalan, Samat Vurg'unning keyinchalik sahnalashtirilgan "Komsomol" manzumasi yo'qsil va ezilgan qishloqliklarga yordam berish uchun jonini jabborga bergen yetti nafar o'smirga atab

yozilgan she'riy xotira sifatida baholanadi. Diqqatga sazovor jihatni, manzumaning nash'ali tili, shoirming yuksak ifodalash usuli asarda ozarbayjon turkchasingin jozibasini o'rtaga qo'yadi.

Ba'zi ideologik asarlarning xalq tomonidan sevib o'qilishining sababi Sovet Ittifoqi deklaratasiyasida o'rinni o'lgan g'oyalarning xalq istagiga hamohang kelishi bilan aloqalidir. Sulaymon Rahimov "Mehmon" asarining qahramonini kitobxonda muayyan bir sovet prokurori emas,adolat o'matgan pok va samimiyligi bir huquq xodimi sifatida muhabbat uyg'ota olgan. Mirza Ibrohimovning "Buyuk asos" romani kolxoz hayatini tasvirlagan juda ajoyib bir asardir. Bugun ushbu asarni o'qir ekanmiz kolxozni zararga uchratishni xohlagan g'alamislarga xayrixoh bo'lolmaymiz, chunki mavzu bahs manfur kolxoz emas, xalqning yo'qtotib yuborilishga harakat qilingan peshona teridir, boyligidir. Har ikkala asar sahnalashtirilgan. Demak, ayrim asarlar, ham sotsialistik realizm g'oyasini, hamda badiiy qoidalarni yetarlicha o'zida aks ettilish g'oyasi bilan sug'orilgan edi.

Sotsialistik realizmnning madaniy merosiga munosabati ham farqli edi: eski adabiyotdagi barcha asarlar qaytadan ko'zdan kechirilishi, sinfiylik jihatidan bizga mos asarlar va adiblar saqlab qolinishi, boshqalari esa rad qilinishi lozim edi. Masalan, saroyda yashagan biron-bir shoir bizning adabiyot vakili bo'lishi mumkin emasdi. M. S. O'rdubodiy "Oktabr va Ozarbayjon adabiyoti" maqolasida bunday munosabatga e'tiroz bildirib: "Nigilistlar shunday o'ylaydilarki, go'yo klassik adabiyot muayyan bir bo'shliq ichidadir. Ularning fikriga ko'ra, Ozarbayjon klassik adabiyoti Sharq fazolarida so'nib, yo'qolib ketgan. Yo'q, so'nmagan. Klassik adabiyot bizning hozirgi Sovet adabiyotimizning rivojiga ko'mak bermoqda va berajakdir" [1, 47].

Ayrim otashin, o'ta proletar adiblar saroya yoki boshqasiga mansubligiga qaramasdan klassik adabiyotni boshdan-oyoq inkor qilib, masalani "Yo'qolsin Fuzuliy!" shiorini ko'tarib chiqishgacha olib borardi. Mashhur yozuvchi va munaqqid Mahdi Husayn shunday yozgandi: "Nizomiyni saroy yetishtirganmidi? Fuzuliyini

saroy yetishtirganmidi? M.F. Oxundzodani saroy yetishtirganmid?" [7, 107].

Faqat rejim adabiyotni nazoratda tutish uchun qamoqqa olish, azoblash, otib tashlash, Sibirga yoki boshqa jazo lagerlariga jo'natish kabi tahdid va qo'rqtishlar bilan birgalikda yozuvchilarga, xususan, Yozuvchilar Uyushmasining rahbarlariga katta e'tibor berar edi. Uyushma rahabarları va ayrim mashhur yozuvchilarni deputat qilib saylar, kitoblarini va ko'p jildlab tanlangan asarlarini nashr qildirar, boshqa tillarga o'girtirar, katta miqdorda qalam haqi berar, nishon va medallarga, turli mukofotlarga va faxriy unvonlarga tavsiya etar, uy-joy, hovli va dachalar sovg'a qilar, xizmat mashinasi ajratar, chet ellarga yuborar edi. Hatto Yozuvchilar Uyushmasining yuqori mansabдорларидан бирі, ko'pincha rahbar muovinларидан бирі yoki kotibларидан бирі KGBning maxfiy xodimi bo'lar, hammani nazorat qilar edi.

Sho'rolar nazdida eng qo'rqinchli tashkilotlardan biri Yozuvchilar Uyushmasi edi, eng qattiq, eng mushkul nazorat esa yozuvchilarga joriy qilinar edi. Chunki ular hech kutilmagan biror usul bilan inqilobga qarshi asarlar yozgan hollar uchrardi. Masalan, chor tarafdoi oqlar qizillarning, xalq va Oktabr inqilobining, shu tariqa sotsializm va kommunizmning eng ashaddiy va eng azaliy dushmanlari bo'lsa-da, shoira Marina Svetayevaning shu tizmalarida xuddi qizillar kabi ma'sum va aybsiz tasvirlangan edi:

Yuz askar yotibdi yonma-yon,  
O'liklar dushman bo'lmas!  
Bilganlar aytsin menga:  
Kim qizil-u, kimdir oq?

Oq askar qizil bo'lmish,  
Belangach ol qoniga.  
Qizil-chi oq tus olmiss,  
O'lim soya solgach qoniga

(Ruschadan R. Askar tarjimasi).

Ozarbayjon adabiyotining ma'rifatparvarligi singari vatan sevgisi, el-yurtga mehr-muhabbatni tarannum etuvchi jihatlari ham kuchli edi. 1980- yillarda yaratilgan asarlar orasida ona vatanining qahramonliklarga to'la moziysini bayon qiluvchi tarixiy romanlar muhim o'rinn tutadi. Bu asarlar yosh avlodga eski davrlar hashamatini, hurriyat ta'mini berish bilan cheklanib qolmagan, ularni mustaqillik uchun kurashga chorlagan ham edi. Anvar Mammadxonlining "Bobak" romanida 9- asrda arab istilosiga qarshi Bobakning 20 yillik kurashini tasvirlanadi. Farmon Karimzodaning "Chaldiron jangi" va "Xudofarming ko'prigi", Alisa Nadjotning "Qizilboshlardan" romanida mashhur ozarbayjon shoiri va hukmdori Ismoil Xatayining hayoti va davri yoritiladi. Elchinning "Mahmud va Maryam" romanida musulmon yigit bilan xristian qizining omadsizlikka uchrangan sevgisidan, Yusuf Samado'g'lining "Qatl kuni" romanida 1937 yildagi voqealar haqidagi gap boradi. Sobir Rustamxonlining millat va yurt sevgisiga to'la "Umr kitobi" Ozarbayjondagi ko'plab qishloq va tumanlarni tasvirlab beradi [4, 807]. Bundan tashqari, Sobir Ahmedovning "To'g'ona" (1981), "Yasamal ko'lidagi qayiqlar" (1984), "Ket-ganlarning qaytishi, dunyoning arshini" (1985) kitoblari yozuvchining o'ziga xos jiddiylik va matonatini aks ettiradi [4, 803]. Sobir Ozariyning birin-ketin nashr qilingan "Quyoshga to'g'ri yo'l olganda" (1988), "Qo'rquv" (1989) va "Ovchining xotiralari" (1989) nomli uch kitobi [4, 801], Sayron Saxovatning "Tor ko'yak" (1987) va "Tosh avlod" (1989) nomli ikkita romani kitobxonlarning ko'ngliga yo'l topadi [4, 836].

Mashhur shoirlardan biri Baxtiyor Vahobzoda, Xalil Rizo Uluturk, Mahmat Aras, Nabi Xazriy va boshqa shoirlarning she'r-lari 80- yillarda o'quvchilarda vatan sevgisi va vatandoshlik tuyg'ularini kuchaytirishga xizmat qildi. Shoir Vagif Samado'g'li esa hurriyatga atab yozgan she'ri bilan oddiy Ozarbayjon kishisining istiqlol sog'inchini tasvirlaydi:

Sen mening  
O'z onamsan, hurriyat,

Men sening  
Begona eshidiga  
O'sgan farzanding...

Bu davrning, to'g'ridan-to'g'ri 80- yillarining muhiti va voqeliklarini aks ettirgan ikkita asar mashhur. Bular Anorming "Mehmonxonadagi nomer" va Safar Alisharlining "Mayestro" romanlaridir. Sahnalashtirilgan va tomoshabinlar olqishiga sazovor bo'lgan "Mehmonxonadagi nomer" asarida universitet domlasi, taniqli olim Karim Askaro'g'lining shaxsiy tragediyasi fonda ozarbayjon ziyolilaridan birining ayanchli tugagan hayoti bayon qilinadi. Mustaqillik uchun kurashda katta rol o'ynagan, Qorabog' masalasida fidoyilik qilgan, doimo o'zligi va pokligrini saqlab qolgan Karim Askaro'g'li anjumanga qatnashish uchun Anqarga boradi, u yerdan ko'p yillardan chuqur sog'inch tuygan Istanbulga o'tadi. Maqsadi bu yerdagi universitetlardan birida ishlash. Faqt Sovet davrida turkchilik, turkchilar va millatparvarlarni yoqtirmaydigan, yurtparvarlarga doimo panturkist tamg'asini yopishtirib yurgan, endigi kunlarda esa bir dumalab turkchi va millatparvarga aylanib qolgan Cho'pur Jabbor singari mansabparast, suvdan quruq chiqadigan kimsa uni turkiyalik hamkasblariga eski kommunist va Sovet tarfadori deb to'hmat qiladi. Shu bois Istanbulda ishlash rejalarini puchga aylangan Karim Askaro'g'li ba'zi shaxsiy muammolarga ham duch kelgach mehmonxonadagi xonasida g'azabdan bug'riqib vafot etadi. Bu holat bizga Najib Fozil Qisakurakning badiiy ijodida muhim o'rinn tutgan "mehmonxonadagi nomerlar" motivini eslatadi.

Safar Alisharlining "Mayestro" romanida hurriyat yo'lida kurash olib borgan bir guruh ziyolilarni adabiy portreti chiziladi. Iстиqlolchilik harakatining umumiyoq voqealari va detallari tarkibida goh-goh Abulfayz Elchibey va uning yaqin hammaqsad do'stlarini uchratib qolamiz.

80- yillarda klassik dramalar yozgan mashhur yozuvchi Ilyos Afandiiev "Xurshidbonu Notavon", "Muhammad xiyoboni" nomli tarixiy mavzudagi dramalarni sahnalashtirdi. Bulardan

boshqa yana “Orqaga qaramang, qariya”, “G‘arib tolemiz” va h.k. dramalarını tomoshabinlarga taqdim qildi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aliyev Akif. Edebiyatımıza Muasır Bakış. – B.: Elm, 1999. 196 s.
2. Azerbaycan Filoloji Fikri: Dünen, Bugün, Sabah / Elmi konfransın tezisleri. Red.: N.Q.Ceferov, M.M.Meimmedov. – B.: Bakü Universiteti, 2001. – 83 s.
3. Azerbaycan Sovet Edebiyatı Tarihi. I. Cilt. - B.: Azerbaycan Elmlər Akademiyası Neşriyatı, 1967. – 640 s.
4. Azerbaycan Yazıcıları XX-XXI. Yüzyıllıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). – B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
5. Qarayev Y. Tarih: yakından ve uzaktan. – B.: Sabah, 1996. – 712 s.
6. Esgerli Z. XX esr Azerbaycan edebiyatı: qiymetlendirme ve perspektivler / XX esr Azerbaycan edebiyatı meseleleri. I k. – B.: Elm. 2006. – 428 s.
7. Hüseyin Mehti. Edebiyat ve Sanat Meseleleri. – B.: Azerneşir, 1958. – 610 s.
8. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki ciltte. I. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 504 s.
9. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki ciltte. II. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 564 s.
10. Nebiyev B. Roman ve Muasır Qehreman. - B.: Azerneşir. 1987. – 296 s.
11. Rzayev Yaşar. Milli Azatlık Şuurunun Formalaşmasında Azerbaycan Edebiyatının Rolü. Fil. elm... diss. avtoref. – B. 2006. – 26 s.

## OZARBAYJON XALQINING MILLIY, MA'NAVIY VA IJTIMOIY JIHATDAN RAVNAQI YO'LIDA ADABIYOTNING KURASHUVI

Adabiyotning missiyasi nimalardan iborat? Ushbu savolning javobi davrga, tuzumga, o'lkaza, hatto joylarga qarab o'zgaradi. Ushbu savolning javobi biroz bo'lsa-da muayyan bir xalq va davalatning duch kelgan muammolariga, madaniyatiga, rivojlanish saviyasiga, hayot tarziga bog'liqdır. Ayniqsa, temir devorlar mamlakati bo'lmish Sovet Sotsialistik Respublikalar Ittifoqi bahs mavzusi bo'lgach vaziyatning qanchalik vahimali bo'lganini tus-hunib yetish qiyin emas. Yevroosiyo qit'asining katta bir qismini qoplagan va bir uchidan ikkinchi uchiga 10.000 km uzunlikda cho'zilgan, maydoni 11 soat belbog'iga bo'lingan o'lkan imperiya va super kuch. 290 millionlik aholi. Dunyo miqyosida eng ustun ta'lim tizimi, xalqi yuz foiz savodli bo'lgan mamlakat. Bu mamlakatda yagona bir Moskva televideniyesi. Har respublikada yagona bir televideniye kanali. Yagona partiya, qattiq rejim, as-haddiy ideologiy... .

Bunday bir siyosiy muhitda bug'ilib, bug'riqib qolmaslikning iloji yo'q. Hech qanday haq-huquq, hech qanday erkinlik yoki hurriyat yo'q. Muxolisat yo'q, mustaqil gazeta yo'q, hur tus-huncha yo'q, namoyish haqqi yo'q, ish tashlash huquqi yo'q, bu haqda gapirish ta'qilangan, tanqid qilish haqqi yo'q. Senzura bor, bosim bor. Yugoslaviya istisno, sotsialistik blokka mansub mamlakatlarga turist sifatida kasaba uyushmalari orqali borish mumkin, faqat kutishga to'g'ri keladi; uzoqdan-uzoq navbatlar, limitlar, kvotalar bor. Kapitalist mamlakatlarga esa hamma ham bora olmaydi, borganlar ham partiya tashkiloti byurosining tasdig'idan o'tishga majbur. Vaziyat shunday bo'lgach, sovet fuqarolariga o'qishdan boshqa hech narsa qolmas edi. Sovet davrini ko'rjan hamma eslaydi: metroda, avtobusda, tramvayda barchanning qo'lida kitob bo'lardi, hamma roman o'qirdi. Romanda bir narsalar izlardi, adabiyotdan madad kutardi. Romanda sotsializm-

ni tanqid qilgan, kommunizmning quruq bir xayol ekanini ko'rsatib beradigan bir narsalar axtarardi. Satrlar orasidan biror narsa topsa sevinardi: ma'naviy jihatdan biroz bo'lsa-da rohatlanar edi. 1970- yillarda yozuvchi Sobir Ahmedovning "Qon qo'yish bekti" romani o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otgandi. Asarda kasal bir onaning yangi qonga ehtiyoji haqida so'z boradi. Doktorlar mushtipar onaning bolalarini onasiga qon berishga chaqiradilar, faqat ularning hammasi turli bahonalar topib qon berishni istamaydilar. Bu holatdan kitobxonlar hayajonga tushardilar: "O'z onasidan qonini ayaganlar sotsializm quradimi, shular kommunizm quruvchilarimi? Sovet Ittifoqi botib borayapti-yu xabarları yo'q, Sovet Ittifoqi o'lgan-u yig'laydigani yo'q. Bo'pti, qayerda kommunizm quruvchilarning ahloqiy qoidalari? Bularda hech qanday ahloq yo'q-ku!" deyuvchi kitobxonlar ma'naviy jihatdan o'zini ovutishga harakat qilardilar. Qisqasi, Sovet insonlari kommunizmga ishonmas va satrlar orasida bilvosita buning tasdig'ini ko'rgach, sevinar, asar muallifini olqishlardilar.

Kitob tiraji Rossiyada milliondan oshardi. Ozarbayjonda ham yomon emasdi: 70-80 yillarda 7-8 millionlik nufusga ega Ozarbayjonda yaxshi yozilgan romanlar 20 ming, hech bo'lma ganda 10 ming nusxada bosilar edi. O'rtacha sifatli asarlarning tiraji 5 ming bilan 10 ming orasida edi. Ba'zi kitoblarning tiraji 100 ming atrofida bosilgan holatlar ham bo'lardi. Masalan, Farmon Eyvazlining "Qochoq Karam" romani 1986 yilda 40 ming dona, 1987 yilda esa 80 ming donada nashr qilingan edi [3, 345]. Alisa Najotning "Qizilboshlar" va "Mirza Shafiy" romanlarining tiraji 40 ming dona edi [3, 290]. Mirza Husayinning "Komissar" romani 30 ming donada bosilgan edi [3, 577]. She'riy kitoblarga ham talab katta edi. Eng muhimi sotishga chiqarilgan kitoblar qisqa vaqt ichida sotilib, kitobxonlar tomonidan o'qilar edi. Masalan, Elchinning Ozarbayjonda va xorijda 100 dan ortiq kitobi 5 million nusxada bosilgan bo'lib, kam-kustsiz sotilib bo'lgan edi. Zamonomizning dunyoga mashhur dedektiv yozuvchisi Jengiz Abdullayevning qalamiga mansub 300 dan ortiq kitob 18 ta tilga o'girilib, 15 million tirajda nashr qilingan edi. Hozirgi tirajlarga

kelsak, G'arb tipidagi nashriyotlar, kitob sotish dukonlari va tarqatuvchi shub'alari hanuz tashkil etilmagani, yozuvchilarga qoniqtiradigan qalam haqi berilmagani bois yozuvchilar kitoblarini o'z puliga nashr qildirishadi, nashrdan chiqqan kitobini o'zi olib, Bokudagi bir qator kitob dukonlariga topshirib, ular orqali sotishga chiqaradilar. Tirajlar 500 dona, eng ko'p chiqarilsa 1000-2000 donadan iborat bo'ladi. Faqatgina prezident buyrug'i bilan krill-dan lotinga ag'darilib nashr qilingan klassik adabiyot namunalari 25 ming tirajda bosiladi.

Temir devor ichidagi sovet jamiyatining hayotida adabiyotning mustasno bir o'rni bor edi. Chunki total yolg'onnei, total targ'ibotni, total maqtovn ni yorib o'tadigan yagona omil adabiyot edi. Shunga qaramay uning ham amaliy kuchi yo'q edi. Matbuotning amaliy kuchi adabiyotnikidan kuchliroq edi. Matbuot har qanday bir mavzuda tanqidiy chiqish qilsa mahalliy boshqaruvalar, ba'zan hatto vazirliklar harakatga tushib, uning oldini olishga urinar, bajarilgan yoki amalga oshirilishi ko'zda tutilgan ishlar borasida gazetani xabardor qilar edilar. Tanqidlar tabiiyki, siyosiy yoki shunga o'xshash bo'lmay, shahar va qishloq hayotining ko'zga tashlanib turgan suv, yo'l, asfalt singari kichik muammo-lari edi.

Adabiyot tanqidiga kim javob berardi? Hamda bunday tanqidlarning aniq bir adresi yo'q edi! Adabiy asar haqidagi xabar kimga yetib borardi? Ya'ni adabiyotning kurashi va funksiyasi nima, maqsad va vazifasi nimadan iborat edi?

So'z san'ati o'laroq adabiyotning uch asosiy funksiyasi bor: Yorituvchi, ya'ni o'rgatuvchi, tarbiyalovchi va estetik. O'rgatuvchilik va tarbiyalovchilik funksiyalari ikkalasi bir orada dunyo, tabiat, jamiyat va insonning tushunib yetishna xizmat qiladi. Adabiyot bunday paytda o'quvchiga ham o'rgatadi, ham tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Masalan, Mehmet Said O'rdubodiyning tarixiy "Qilich va qalam" romanini o'qigan kishi Ozarbayjon tarixining 12- asrdagi manzarasini, buyuk shoir Nizomiy Ganjaviy hayoti va san'atini eng inj a detallarigacha o'rganib oladi.

Asarlarini ruscha yozgan va 37 yoshida vafot etgan yozuvchi Anatoliy Zuhrobbeyovning (1909-1946) “O’t (olov)li diyor” romanı ham Ozarbayjon yurtsevarligining shohasari bo’lib, 70 yıldan beri yosh avlod tarbiyasida istisnosiz bir rol o’ynagan va o’ynamoqdadir [3, 67]. Bu asar arablarning Ozarbaydonga ilk hujumlari va xalqimizning qahramonlarcha kurashi haqida. Aslida mahalliy millatparvarlikni va milliy ongni uyg’otishga xizmat qilgani uchun Sovet davlati bunday asarlarning yozilishiga unchalik xayrixoh bo’lmasa-da, qarshi ham emasdi, faqat ularning ma’lum bir sxema bo’yicha yozilishini xohlar edi. Qaysi davr haqida so’z yuritsa yuritsin, har qanday asar sinfiylik nuqtai nazaridan qalamga olinmog’i, qadimgi davrlar ham sotsialistik realizm usulida yoritilmog’i shart edi. Mutlaqo ezuvchi va eziluvchi ikki sinf orasida janjal va urush doimo mavjud bo’lib kelganligi qalamga olinishi lozim edi. Musbat hukmdor qiyofasini yaratish ham mumkin emasdi, chunki ular ular ezuvchi sinfning tipik vakili va eng boshchisi edi.

Shu o’rinda bir-ikkita masalaga to’xtab ketaylik. Birinchisi, ilmiy turkologiyaning asoschisi buyuk tilchi va ensiklopedist Mahmud Koshg’ariyning mashhur “Devonu lug’otit-turk” asarining turli turkiy tillarga, jumladan, ozarbayjon turkchasiga o’girilishi bo’yicha 1926 yilda Bokuda bo’lib o’tgan 1. Turkologiya Qurultoyida qaror qabul qilingan edi. Asar 1935-1937 yillarda ke’lib chiqishi o’zbek bo’lgan ozarbayjonlik olim Said Xolid Xo’jayev tomonidan ozarbayjonchaga o’girilgan, faqat tarjimonning qamoqqa olinishi va otib tashlanishi natijasida nashr yuzini ko’rmagan edi, 1960- yillarda asarning ikkinchi bir tarjimasi amalga oshirilgan bo’lib, uni ham KGBning makkorliklari tufayli nashr qilishning imkonii bo’lmagan edi. KGBning maqsadi shu edi: Ushbu buyuk asar millatchilikka yo’l ochib beradi, mahalliy ziyorilar “Ming yil avval ruslar hali tarix sahnasiga chiqmagan bir pallada bizning mukammal tilimiz va shunchalar boy lug’atimiz bor edi. Shunday ekan nega bugun biz hur emasmiz?” deb o’ylashi va mag’rurlanishi mumkin edi. Ushbu asarning ozarbayjoncha nashriga zarurat yo’q, turkologlar va mutaxassislar asarning

o'zbekcha tarjimasidan foydalana olishlari mumkin. Xuddi shunday mantiqdan kelib chiqib Ozarbayjonda va boshqa turkiy respublikalarda til va tilshunoslik, adabiyot va folklor, tarix va geografiya, madaniyat va etnografiya sohalarida keng va chuqur tadqiqotlar tadqiqotlar olib borilmadi. "Devonu lug"otit-turk" ni hoyat ushbu satrlar muallifi tomonidan mustaqillik davrida ozarichaga o'girilib 2006 yilda bosilib chiqdi.

Ikkinchisi masala. Sovet tizimi o'z nazorati ostida yaratilgan adabiyotning hamma narsasiga aralashar edi. Kerak bo'lsa (Fadeyev va Abulhasan misollarida bo'lgani kabi) yozuvchini asar ustida qayta-qayta o'tirishga majbur qilardi. Asar juda qadim zamonalarga oid bo'lsa nima qilishardi? Masalan, "Dada Qo'rqu" dostonlari. Sho'rolar 1940-1950 yillarda ushbu asarni to'g'ridan-to'g'ri ta'qilagan bo'lib, bunga sabab o'laroq Sovet siyosiy tizimiga mos ravishda qiziq bir bahona ham topishgandi. "Dada Qo'rqu" Kavkaz xalqlarining qardoshligiga ters keladigan va o'g'uzlarning feodal hayotini maqtovchi zararli asar sifatida ta'-qqliq lansin. Shunchalik oson! Holbuki, bu asar o'g'uz urug'lariga mansub Ozarbayjon va Turkmaniston uchun juda muhim adabiy obida va tarixiy manba edi.

Shu o'rinda yana uchinchi masalaga to'xtalib o'tish zarur. Ne tongki, Rossiya tarixining eng suyukli imperatori Pyotr I har qanday tarixiy va adabiy tanqidlardan xoli tutilardi (xuddi shunday ahvol hamon davom etmoqda), chunki u buyuk Rossianing asoschisi, Rossiya iftixoridir. Chingizzon-chi? U bir bosqinch! Amir Temur-chi? U zolim, qattol va jalod! Bobur-chi? U ham yomonlardan! Sho'rolarda yozilmagan bir qonun bor edi: sharqlik, turkiy va musulmon fotihlarning barchasi qonxo'r va jallod, rus va xristian jahongirlarning barchasi taraqqiy parvar va insonparvar kishilardir. Ruslarning O'rta Osiyo va Kavkazni ishg'ol qilishi yaxshi ish bo'lgan, chunki ruslar bu o'lkalarga madaniyat va texnika, ilg'or boshqaruv shaklini olib kelgan edilar. Turkiylar va tatarlar bo'lsa istilo qilgan joylariga faqat zulm, o'lim va qon olib borgan edilar! Shunchalar qulay! Ma'lumki, turkiylar uch qit'aga

hokim bo'lishgan, biroq hech qachon mustamlakachi bo'lмаганлар, qo'lga kiritgan narsalarining ortig'i bilan sarmoya kiritgan edilar. Texnikaga, madaniyatga to'xtaladigan bo'lsak, 1812 yilda Napoleonning Rossiyani bosib olish fikriga ham ijobiy qarash kerak bo'lмaydim? Chunki, Fransiya u paytlarda Rossiyadan ancha ilg'or bir mamlakat edi. Yo'q, u Rossiyani istilo etish va qul qilishni xohlardi. Unda, Rossiya o'zga mamlakatlarni qanday maqsadda istilo qilgan? Aytayapmiz-ku; madaniyat va texnika, ilg'or boshqaruv shakli o'rnatish uchun! Bundan boshqa Rossiyaning hech qanday manfaati bo'lмаган! Koshki, bunday ilg'or va qudratli Rossiya vaqtida Sharqiy Yevropani, hatto G'arbiy Yevropani, Eronni, Turkiyani, Afg'onistonni, Hindistonni, Xitoy va butun Osiyonni ishg'ol qilib, bu mamlakalarga ham madaniyat va texnika, ilg'or boshqaruv shakli olib borsa edi. Afsus! Ming afsus! Shunday qilmagan! Yoki qila olmaganmi?

1918-1920 yillarda Oktabr to'ntarishi natijasida Rossiyada boshlangan fuqarolar urushidan foydalangan Ozarbayjon, Gruziya va Armaniston o'z mustaqilligini e'lon qilgan edilar. Mustaqillik davri Ozarbayjonda 23 oy davom etdi. 23 oydan keyin XI Qizil Armiya Bokuni va Ozarbayjoni ishg'ol qildi. Yovuz, mustamlakachi Chor Rossiyasini tushunish mumkin, inqilobchi Sovet Rossiysi nega istilochi bo'lib chiqdi? Lenin va Leninizm hurriyat, haq-huquq taraf'dori emasmidi? So'zda shunaqa edi. Unday bo'lsa Leninning "Bokuni mutlaqo ishg'ol qiling! Boku nefti bizga suv va havodek zarur!" mavzuidagi teleografi nima maqsadda edi? YO hozir shuning o'mimi? Bor-yo'g'i ikki satrlik bir telegراف! Koshki shu voqeа yuz bermasa edi!

Sovet Rossiyasining Ozarbayjoni ishg'ol qilishining ikkita rasmiy izohi bor edi. XI Qizil Armiya isyon ko'targan Boku proletariati uchun yordamga shoshilgandi. Biroq tarixda hech qanday isyon va yordam so'rab qilingan murojaat yo'qdir! Bo'lган taqdirda ham rus ishg'oliga rasmiy zamin yaratishi mumkin emasdi! Ikkinchisi varianti esa shunday: ruslar Onado'liga, xalqaro imperializmga qarshi jang qilayotgan kamolistlarga yordamga borayotgan edi! Bu ham yo'lgon! Kamolistlar harbiy yordam so'ragan emas,

biroq Lenindan bir miqdor quroq, o'q-dori va pul olgan edilar. Modomiki, Turkiyaga yordamga borayotgan ekansiz, unda bilintirmasdan borsangiz bo'lardi. Botumidan, Qrim ustidan boring...

Sovet Rossiyasi Ozarbayjoni 28 aprel 1920 yilda ishg'ol qildi va bu kunni hurriyat kuni, mustaqillik bayrami deb e'lon qildi. Bunchalik tahqirlash hech qachon na ko'rilgan, na eshitilgan edi! Xudo haqqi, siz bizni kimdan ozod qildingiz? Bizdanmi? Mayli, ozod qilgan bo'lsangiz nega birdan chiqib ketmadingiz? Har holda bizni, uzr, neftni, boylikni juda sevganingiz sababli yana 71 yil bu yerda qoldingiz!

O'rtoq Lenin, ham o'lkamizni ishg'ol qilib, bizning yerlari-mizda Armanistonni qurdi, ham adabiyotimizning bosh qahramoni bo'ldi. Ozarbayjon yozuvchilari unga bag'ishlab ko'plab asarlar, she'r, manzuma va hikoyalar yozdilar. Adabiy jihatni yuksak bo'lgan she'rlardan ayrimlarini keltirib o'taylik:

Lenin qurgan yangi dunyo  
Millionlarning tilagidir!  
Lenin yakka partiymizning  
Urib turgan yuragidir! (Sulaymon Rustam).

Siz millatga mujda bering:  
O'lmagandir bizning Lenin!  
Ellar navbat tutadilar  
Kecha kunduz mavzoleyin! (Samat Vurg'un).

Quyosh shimoldan tug'mas!  
Degan tabiat ilmi.  
Lenin shimolda tug'ildi,  
Lenin quyosh emasmi? (Sulaymon Rustam).

Ushbu she'rlar qariyb 50-60 yil bizning yoshligimizni Le-ninga sevgi-muhabbat chizgisida tutib, uni tengsiz daho deya taqdim va tarannum etdi. Bu, Sovet davlati istagan adabiyot edi. Le-

ninga bag'ishlangan hikoyalar orasida xalq yozuvchisi Mirza Ibrohimovning ustamон qalamidan to'kilgan "Pari Nina va Lenin" hikoyasi, manzumalar ichida xalq yozuvchisi Rasul Rizoning mislsiz "Lenin" manzumasi badiiy jihatdan shohasar, ideologik jihatdan, ya'ni sotsialistik realizm jihatidan muayyan bir cho'qqidir. Sovet adabiyot tarixi buni Vladimir Mayakovskiyning "Lenin" manzumasidan keyingi Leninga bag'ishlangan ikkinchi go'zal asar sifatida baholaydilar. Bu, faqatgina manzumaning yozilish sanasi jihatidan to'g'ri bo'lishi mungkin, badiiy jihatdan butunlay teskarisidir. Boshqa shoirlarimizdan farqli badiiy san'at maktabiga va milliy fikrga mansub bo'lган Rasul Rizo "Lenin" manzumasida "Rus xalqiga jon qurban!" satrlari bilan boshlaydigan qismini asarining so'nggi nashrlaridan chiqargan, bundan norizo bo'lган va sababini so'ragan kommunistlarga o'ta jiddiy sur'atda "O'sha qismlari biroz bo'sh chiqqan ekan, yangitdan yanada chiroyliroq yozmoqchiman" deb javob bergen va tabiiyki, yozmagan.

Adabiyotning estetik funksiyasi insonda badiiy va estetik zavq uyg'onishiga va o'zgarishiga, kitobxonning asardan zavqu-shavq olishi va mammun bo'lishini, badiiy obrazlar bilan, ya'ni tashbih, o'xshatish, kichraytish, bo'rttirma, kinoya, anons, dizanons, qiyos va h.k. bilan tanishuviga vosita bo'lishini ta'minlaydi. Bu nuqtadan insonning ma'naviy olami boyib, go'zallik va bu-yuklik singari estetik kategoriylar bilan tanishadi, adabiyot orqali til ilmi, hayotiy tajribasi va amaliyoti kengayadi, bir so'z bilan aytganda dunyo qarashi shakllanadi.

Adabiyotning anchagini ta'sirchan yana bir funksiyasi mavjud: kommunikativlik. Bu, yozuvchi bilan o'quvchi orasida ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan ma'lum bir aloqa o'rnatilishidir. Aslida bu aloqa bir tomonlama bo'lib, yozuvchining, to'g'riroq'i, adabiyotning kitobxonga ta'siri ma'nosidadir. Ya'ni, yozuvchi o'quvchini o'z badiiy dunyosining ichkarisiga yetaklaydi, xilmay-xil voqealarни tushuntirib beradi, tushunchalariga va tuyg'ulariga, ongiga va qalbiga xitob qiladi, talqin qilishga undaydi, o'zi yaratgan ijobjiy qahramonni ideal shaxs sifatida tanishtiradi, undan o'rnak olishga va taqlid qilishga chaqiradi. Xuddi shuning o'zi

Sho'rolarning adabiyotdan kutgan omilning aynan o'zi edi: Kommunizm qurishga ahd qilgan yangi avlodni tarbiya qilish.

Bu yergacha aytib o'tilganlardan yo'lga chiqib, umumlashtiradigan bo'lsak, shuni ta'kidlash lozim: Sho'rolar adabiyot siyosatining bosh markazi maktab va pedagogikadir. Ya'ni ta'lim va tahsilning, estetika va kommunikativlikning amaliyot maydoni asosan maktab va pedagogikadir. Proletar davridan keyin, xoh maktabga endigina qatnay boshlagan bolalar bo'lsin, xoh 1930-yillarda mamlakatning har burchagida ochilgan savodxonlik sinflariga qatnagan yoshi kattalar bo'lsin, istisnosiz o'laroq hamma bir xil pedagogik programma asosida ayni siyosiy va adabiy jaryondan o'tish majburiyatida qolgan va bu jarayonni boshdan kechirgan. Sovet maktabi, adabiyoti va pedagogik tizimi o'lkan bir fabrika singari kecha-kunduz ishlab to'xtovsiz millionlab nusخada yangi yagona kommunizm quruvchilarini ishlab chiqarardi! Jamiyatga, xususan, yoshlarga o'mak, standart va ideal shaxs sifatida taqdim qilingan adabiy qahramonlarning vaqtি kelib g'ayrihaqqoni, sun'iy, soxta va uydirma ekanligi ayon bo'ladi. Yolg'on va targ'ibot yo'lida juda katta maydonni tanlagan Sovet siyosiy tizimi oxir-oqibat vaziyatni tushunib yetgan, faqat orqaga qaytishni o'ylab ko'rishni ham xohlamagan.

Sho'rolarda biri haqiqat, ikkinchisi esa adabiy qahramon bo'lган ikki kishi katta-yu kichikka chuqur ta'sir ko'rsatgan edi. Ulardan biri Sovet tizimi haqida manfiy fikrlarni olg'a surgan o'z otasi haqida inqilobchilarga chaqimchilik qilib, uning jazolanishiga sabab bo'lган izquvar-yo'lboshchi Pavlik Morozovdir. 13 yoshdagи Pavlik misolida Sho'rolar bolalarni inilob, sotsializm va kommunizm yo'lida o'z otasini sotishga tashviq etardilar. Biroq keyinroq otasini sotish harakatining kelajakda teskari natija berishi mumkinligi mulohaza qilinib, aynan o'z otasini emas, asosan inqilob va xalq dushmanlarini fosh etish motivi old planga chiqdi. Ushbu harakatidan keyin inqilob dushmanlari (aslida qarindoshurug'lari) tomonidan o'ldirilgan Pavlikning haqiqiy yurtparvar va epchil bola bo'lishi sababli maktab darsliklariga u haqda bir necha hikoyalari kiritilib, o'nlab yillar mobaynidagi Sho'ro bolalarining

ongiga singdirilib bordi. Rossiyada turli joylarda o'nlab Pavliklar yetishib chiqdi. Baraka topsin, Ozarbayjon hayoti va adabiyotida hech qanday Pavlik Morozov yetishib chiqmagan. Faqat u davrlar haqida hikoya qiluvchi ba'zi romanlardan ma'lum bo'lishicha, yoshi ulug' kishilar har holda Pavlik Morozov misolini ko'zda tutib, "Diqqatli bo'ling, bolalarning yonida hamma narsani gaplashaver manglar, bilmasdan, u yerda, bu yerda og'zidan gap qochirishlari mumkin" deya bir-birlarini ogohlantirishgan.

Ikkinchi namunaviy qahramon esa fuqarolar urushi va sano-atlashuv davrida umrini sotsializmga bag'ishlagan va 30 yoshida o'lgan Pavel Korchagindir. Bitta oilada bir xil ismli bola bo'lishi mumkin emas, faqat shunga qaramasdan Sho'rolarning sinfiy ideologiyasi jihatidan uni Pavlikning akasi deb talqin qilish mumkin. Pavel, mashhur proletar yozuvchisi Nikolay Ostrovskiyning avtobiografik "Po'lat qanday toblandi" romanining bosh qahramonidir. Bu asar 1935 yildan to 1990 yilgacha Sho'rolarning 1-raqamli targ'ibot romani bo'lish mavqeini saqlab qoldi.

Shu saviyadagi ikkinchi bir targ'ibot asari o'z davrida Yozuvchilar Uyushmasi rahbari Aleksandr Fadeyev qalamiga mansub "Yosh komissarlar" nomli asardir. II Jahon urushi paytida Ukrainada nemislarga qarshi partizanlik janglari olib borgan bir hovuch o'rta maktab bitiruvchi sinf o'quvchisining qahramonliklarini yoritgan bu roman sotsialistik realizm usulining shohasari sifatida juda mashhur. 1946 yilda nashr qilingan paytida keng ko'lamda siyosiy va badiiy jihatdan kitobxonlar diqqatiga sazovor bo'lgan asar keyinchalik Kommunistik Partiyaning yo'lboshchilik roli yetarlicha yoritilmagan bahonasida tanqidga uchradi. Aleksandr Fadeyev asar ustidan ikki marta qayta ishlab tanqidga uchragan tomonlarini to'g'rilib chiqdi. Adabiyot sohasida Iosif Stalining yaqin odamlaridan biri bo'lishi munosabati bilan 1956 yilda Nikita Xrushchev tomonidan keskin tanqid qilingan Aleksandr Fadeyev o'sha yili dachada peshonasiga to'pponcha tirab, o'z joniga qasd qildi. Yozib qoldirgan jumlalarda chuqur vijdon azobi chekkanini va bunday vaziyatda foniylar yoniga tark etishning eng to'g'ri qaror bo'lishiga ishonganini

ta'kidlaydi. Fadeyev adabiyotning so'nggi holini shunday tasvirlaydi: "Adabiyot iste'dodsiz, kek saqlovchi va olchoq odamlarning hukmronligi ostidadir. Qalbida adabiyotning muqaddas olovini saqlagan nodir kishilar esa har qanday haq-huquqdan mahrum qilingan qul holatidadir, ular o'z umrlarini yashab bo'lishgan. Shu sabab qalbda badiiy san'at sevgisi va adabiyotga rag'bat qolmagan" [4, 8]. Ulug' tangrining inoyatidan bo'lsa kerak, Ozarbayjon adabiyotida bu ikki roman izidan har qanday bir taqlid qilish va ongni "yuvish" yo'lidan borilmadi.

Markazda, Moskvada, Rossiyada adabiy ahvol shunaqa ekan, milliy mintaqalarda, shu jumladan, Ozarbayjonda ahvol qanday edi? Avvalo, mahalliy adabiyotlar sotsialistik realizm jihatidan rus adabiyotining so'lg'in bir taqlidi edi. Ikkinchidan, mahalliy adabiyotlar iddaoli emasdilar, chunki mazmun va mohiyat, iste'dod va ustamonalik jihatidan kerakli saviyaga hanuz chiqmagan edilar. Uchinchidan, Moskvadan keladigan va har kuni o'zgarib turadigan buyruqlar va farmonlarga moslashishlari qiyin edi, ruscha yoza olmasdilar, umuman olganda, ruschasi yetarli emas edi. Ozarbyjonda Maqsud va Rustam Ibrohimovlar, Jengiz Abdullayev va Jengiz Husayinov, Qirg'izistonoda Chingiz Aytmatov kabi ruscha yozadigan adiblarning yetishib chiqishlari uchun 40-50 yillik bir vaqtga ehtiyoj bor edi.

Hayot davom etar, mahalliy kommunist tashkilotlari, mahalliy yozuvchilar uyushmalari doimo yangi asarlar xohlashardi. Yozish ham, jim yurish ham bir xilda tahlikali edi. Yozganda haqiqatni yashirish bilan ayblanish, jim yurganda muvaffaqiyatlarni ko'rmaslik bilan ayblanish oddiy hol edi. Adabiyot Sovet tuzumining umumiyligi rivojlanishiga mos ravishda taraqqiy etardi. 1917 yildan 1937 yilgacha bo'lgan davri tarixda "Sotsializmning butunlay va uzil-kesil g'alabasi" deb yuritiladi. 20 yil davom etgan bu pallada Ulug' Oktabr Sotsialistik Inqilobi amalga oshirilib, sanatoatlashuv, kollektiklashuv va madaniy inqilob ro'y bergandi.

Madaniy inqilob programmasi amalga oshirilgach, Moskva, Ozarbayjonda hamma joyda savodxonlik kurslari tashkil eti-

lib, boshlang'ich, o'rta va oliy o'quv muassasalari ochila boshlaydi. 1923 yilda Ozarbayjonda oliy o'quv yurti, 10 dorulmuallimlik ochilib, maktab o'quvchilarining soni 30 mingdan 100 mingga yetdi. Bularidan tashqari, inqilobning dastlabki yillarida Bokuda opera va drama teatrлari tashkil etilib, filmlar ("Qiz qal'asi", "Xoji Qora", "Gilon qizi", 26- lar" va h.k.) olindi.

Ozarbayjonda inqilob yoki shunga o'xshash hodis sodir bo'lмаган, 28 aprel 1920 yilda 11. Qizil Armiya mamlakatni to'g'ridan-to'g'ri istilo qilgandi. Bir necha kichik fabrika, korxona va MTS (motorli transport vositasi va traktor stnatsiyasi) istisno, Ozarbayjonda sanoat yoki shunga o'xshashlari qurilmadi, har holda bunga jiddiy bir ehtiyoj ham bo'lmadı. Chunki u paytlarda butun Rossiyada Boku miqyosidagi sanoat markazlari deyarli yo'q edi. Kollektivlashtiruv, ya'ni qishloq kadxudolarining, yirik yer egalarining butun mol-mulklari tortib olinib kolxoza berilishi Ozarbayjon adabiyotining eng asosiy mavzularidan biri bo'ldi. Madaniy inqilobga kelsak, Ozarbayjoni butun musulmon Sharq o'lkalari uchun o'tnak sotsialistik mamlakatga aylantirish uchun Sho'rolar 1928 yilda bu o'lkada arab alifbosidan lotinga, 1938 yilda esa lotindan krillga o'tishni ainalga oshirdilar, bir muddat o'tar-o'tmas xuddi shu amaliyotni butun turkiy mamlakatlarda joriy qildilar. Lotinga o'tish ziyorilar tomonidan qanchalik olqishlangan bo'lsa, krillga o'tish xuddi shu shaklda hayronlik va jimlik bilan kutib olindi. Bus-butun bir Ozarbayjonda Abdulboqiy Fevzi istisno, hech qaysi bir yozuvchi bunga qarshi c'tiroz bildirishga jasorat qilolmadi. Uning c'tirozi biror gazetada, birorta jurnalda yoki majlisda emas, pana-pastqamda va do'stlari davrasida ayttilgan shikoyatoimuz so'zlar edi. Ziyorilar va yozuvchilar orasida 1937 yilda haddan tashqari bosim va tazyiq sababli bo'lsa kerak, hatto Samat Vurg'un ham krill alifbosi tarasdori bo'lib ko'rinishga majbur bo'lib, buni o'ziga xos she'riy kalimalar bilan shu tariqa ifodalaydi: "Lotin alifbosi! Sen kichik va qorong'u kulbamizga nur sochgan bir sham eding. Endi esa muhtasham va go'zal saroyimizga quyosh tashrif buyurdi. Tur va o'rningni unga tark et!".

Madaniy inqilob natijasida Sovet tizimi o'z o'rmini topgan edi, deya olamiz. Bu paytda proletar diktaturasi o'rmatilgan, ezuvchi va dushman sinflarning ikkalasi ham (shaharda burjuaziya, qishloqda katta yer egalari) yo'q qilingan, o'rtoq Lenin tomonidan "siyosiy fohisha" deb atalgan ziyo'larning katta ko'pchiliги, yo o'qqa tutilgan, yo bo'lmasa Sibir va boshqa o'lim lagerlariiga surgun qilingan, marmalakatning sotsialistik rivoji yo'lida hech qanday to'siq qolmagan edi.

Yo'q qilingan ziyo'larning aniq soni ma'lum bo'lmasa-da, 30-40 ming atrofida bo'lgani taxmin qilinadi. Ular sotsialistik inqilobdan oldin Yevropada, Turkiyada va Rossiyada universitet va oliy o'quv yurtlarini bitirgan vrachlar, muhandislar, huquqchilar, madrasa tahsili ko'rgan imomlar, jamiyatning o'qigan a'zolari edi. Katta bir qismi esa so'nngi 15-20 yil orasida Sovet davrida yetishib chiqqan kishilar edi. Ularning orasida yozuvchilar ham oz emasdi. Ozarbayjon adabiyotining eng mumtoz siymolaridan Husayn Jovid, Mikoil Mushfiq, Said Husayn, Ahmad Jovid, Yusuf Vazir Chamanzaminli, Hanafiy Zaynalli, Bakir CHo'bonzoda, Otabobo Musaxonli, Buyukog'a Tolibli, Vali Xuluqli, Kantemir, Emin Obid, Ali Nozim, Mehmet Kozim Alekberli, Mustafo Quliyev, Salmon Mumtoz, Umar Foiq Numonzoda, Sulton Majid G'anizoda, Toqi Shahboziy, Xoji Karim Soniliy ... singari katta iste'dod sohiblari, millatparvar yozuvchilar, o'rtacha 15-20 daqiqa davom etgan uch a'zoli mahkamalarda (troyka) soxta ayblollar bilan; asosan xalq va rejim dushmani, xalqaro imperializm jossusi, panturkist e'lon qilinib, advokatsiz va himoyasiz o'lim jazo-siga tortilgan yoki uzoq muddatli surgunga yuborilgan edi [3, 12].

Sovet, shu jumladan, Ozarbayjon adabiyoti tarixini ayni etaplarga ko'ra taqsimlash to'g'riq bo'lardi, bizningcha. Zotan, Sovet Ittifoqida adabiyotni siyosat yo'lga solib, boshqarardi. Bunday holatda 1920-1937 yillarni Ozarbayjon sovet adabiyotining shakllanish va rivojlanish davri deb atash mumkin. Bu davr qattiq kurashlarni o'z ichiga oladi. Sho'rolar qalam ahlini proletar yozuvchilar, dushmanlar va yo'ldoshlar deya uch guruhga bo'lardi. Chig'irdoshlarning vaqtি kelib proletar yozuvchilar safiga

o'tish shansi bor edi [5, 39-40]. O'tmaganlar dushman yozuvchilar bilan birga yo'q qilindi, ya'ni adabiyot bilan, bevosita hayot bilan vidolashdi.

Bu davr adabiyotining o'ziga xos xususiyati kommunistik partianing direktivlari to'g'risida, Sovet senzurasining nazorati va sotsialistik realizm doirasida yozish edi. Drama sohasining zudlik bilan rivojlanishi adabiyotning ikkinchi o'ziga xos xususiyati edi. Bu soha 1850- yillardan boshlab M.F. Oxundov tashabbusi bilan shakllangan, boshqa yozuvchilarimiz tomonidan davom ettirilgan maorifchi missiyaga qo'shimcha o'laroq Sho'rolarning targ'ibot maydonida dramaga bo'lgan ehtiyoj bilan aloqali edi. Yangi dramaturgiyaning eng muhim namunalarini boryo'g'i 35 yil uchr surgan mashhur yozuvchi Ja'far Jabborli o'rta ga qo'ydi. Uning qalamiga mansub "O't (Olov) kelini" fojeasi Ozarbayjon adabiyotining eng nufuzli uch-to'rt asaridan biridir. Milliy ongning uyg'onishiga juda katta hissa qo'shgan bu asar 85 yildan beri tomoshabinlar tomonidan ayni zavq-shavq bilan ko'rib kelinadi. Asar 9. asrda arablarning Ozarbayjonga hujumi va Elxon boshchiligidagi xalqning istiloga qarshi kurashi tasvirlanadi. Arab qo'shinlari hamma narsani yoqib-yiqadi, o'lkaning boyliklarini tortib oladi, xalqni musulmon bo'lishga majbur qiladi. Asar 9 asr keyin yuz bergen rus ishg'olini, ayni talon-taroj voqealarini va xalqqa majburan qabul qildirilgan rus istilosini eslatadi. "O't kelini" xalqning istiqlol tuyg'ularini jo'mbushga keltirgan asar sifatida bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolayotir. Ja'far Jabborli keyinchalik yetishib chiqqan ayrim yozuvchilar uchun haqiqiy bir maktab rolini o'ynadi. Mirza Ibrohimov, Ilyos Afandiiev, Anvar Maminadxonli, Sobit Rahmon kabi dramaturglar undan katta ta'sir oldilar.

Ja'far Jabborlining jonli sahna tili, toza va sodda turkchasi yozuvchilar va yoshlarga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Hali-hamon uning asarlarida qo'llanilgan shaxs nomlari ko'pchilik uchun suyukli ismlarga aylangan va xalq tomonidan farzandlariga qo'yilib kelmoqda. Bunga o'tmak sifatida Sevil, Yashar, Olmos, Elxon, O'tegin ... singari ismlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Milliy shuurga ta'siri jihatidan u davrning eng yaxshi asarlaridan biri hech shubhasiz Jalil Mamatqulizodaning "Onamning kitobi" pyesasidir. "Mulla Nasriddin" hajviy jurnalining asoschisi Mirza Jalil Mamatqulizoda jurnalistik qalami bilan milliy matbuotning rivojiga, tuzli (totli) hikoyalari bilan esa nasrning rivojiga katta hissa qo'shdi. Adibning "Onamning kitobi" pyesasi g'oya va mazmun jihatidan juda qiziqdir. 1920 yilda qalamga olingan "Onamning kitobi" pyesasi Sho'rolarning dastlabki yillarda ham, keyinchalik ham tez-tez sahnaga qo'yildi. Bu asarda Ozarbayjonning qaysi madaniyat oid bo'lishi masalasi ko'tarilgan. Biri Rossiya, biri Eron, biri Turkiya tahsilini olgan uch aka-ukaning o'lka, til va madaniyat mavzusida tortishuvlari juda qiziqdir. Asarda Ozarbayjon g'oyasi va birligi bahs mavzusi bo'lsa-da, endi juda kech edi, chunki Ozarbayjon anchadan beri Chor Rossiyasining mustamlakasi, asar yozilgan paytlarda esa Sovet Ittifoqining bir qismi edi. Shu munosabat bilan 80- yillargacha faqatgina ruhiyatga va tafakkurga ozuqa bera oldi. Ozarbayjon mustaqillikka erishgandan keyin "Onamning kitobi" qaytadan dolzarblik kasb etdi. Chunki endi yangi bir siyosiy muhit paydo bo'lgan, Ozarbayjon o'z muammosini o'zi hal qiladigan holatga kelgandi.

Sovet, shu jumladan, Ozarbayjon adabiyotining ikkinchi rivojlanish bosqichi sifatida 1937-1956 yillar, hatto 1937-1960 yillarni olish to'g'ri bo'ladi. Bu davrda fin-sovet urushi, Sovet Ittifoqining G'arbiy Ukrainiani, Boltiq o'lkalarni qo'shib olishi, II Juhon urushi, Sharqiy blokning tashkil topishi, 1953 yilda Iosif Stalining o'limi, 1956 yilda Nikita Xrushchevning Stalinni tanqid qilib, siyosiy vaziyatni yumshatishi kabi o'ta muhim voqealar yuz berdi. Adabiyot bu jarayonlarga kechikib bo'lsa-da o'z munosabatini bildirdi.

Romanchilikning yuksak darajada rivojlanishi adabiyotning uchinchi o'ziga xosligidir. Ilk Ozarbayjon sovet romani "Jarlilar" Abulhasan Alekberzoda tomonidan 1930 yilda yozilsa ham, vaqtি kelib "povest" deb nomlanuvchi uzun hikoya va roman har qaysi yozuvchining qo'l urgan sohasiga aylandi. Bu sohada uch

mashhur yozuvchimiz va ularning bittadan romanı 20-asr Ozarbayjon adabiyoti tarixi uchun juda muhimdir. Ulardan birinchisi, Mahmud Said O'rdubodiy (1872-1950) hisoblanadi. Shoir, jurnalist, tarjimon va tadqiqotchi sifatida tanilgan O'rdubodiy, milliy madaniyat tariximizda muhim o'tin tutgan "Ko'ro'g'li (Go'ro'g'li)", "Nargiz" va "Nizomiy" operalarining, "Besh manatlik kelin" va "Qalb o'g'rilar" musiqiy komediyalarining libretto yozuvchisidir. Nizomiy, Fuzuliy, Vojif, Sobir va boshqa klassiklarimiz haqida maqolalar yozib, qalam tebratgan adibning "XII asr Ozarbayjon adabiyoti va uning klassik Sharq adabiyotiga ta'siri" nomli asari o'ta jiddiy tadqiqot hisoblanadi. Asosan, Sovet yashash tarzini targ'ib qilgan ba'zi dramatik asarlarni qalamga olgan bo'lsa-da, O'rdubodiy, Ozarbayjon adabiyotida roman-navis adib sifatida mashhurdır. U, to'rt jildlik "Tumanli Tabriz" (1946-1948) romanı bilan Ozarbayjon adabiyotida tarixiy roman-navislikning tamal toshini qo'ydi. "To'qnashgan shahar" (1938), "Yashirin Boku" (1940) nomli tarixiy romanlarida Sho'rolardan oldingi davr va inqilobning ilk pallalarini yoritgan adib, sotsialistik realizm doirasida yozdi.

Ulug' shoir va faylasuf Nizomiy Ganjaviy davrini qalamga olgan "Qilich va qalam" (1946-48) romanı. O'rdubodiyning va Ozarbayjon adabiyotining eng go'zal asarlaridan biridir. Bu asarda, ham Nizomiyning qiyofasi, hamda XII asr Ozarayjon hayotining etnomadaniy va siyosiy manzarasi birgalikda tasvirlab berilgan. O'quvchilar ona yurtning shonli moziysi, Saljuqiylar davring hashamati bilan tanishib, bundan g'urur tuyganlar. Bu g'urur yurtdoshlarning qalbida vatanning bir kun kelib mutlaqo mustaqil bo'lishi haqidagi tuyg'usini doimo olovlantririb keldi.

Mehmed Said O'rdubodiyning ravon tili, ergashtiruvchi uslubi, jozibador ifoda tarzi, uning romanlarining eng yorqin xususiyatidir.

Yusuf Vazir Ozarbayjonning mustaqillik yillari paytida (1918-20 yillar) dastlab Ukrainianada, keyinchalik Turkiyada Ozarbayjon elchisi bo'lib ishlaydi. Bu xizmatlari esa 1937 yilda unga

kulfat keltirib, ishdan haydaladi, O'zbekistonning Urganch shahriga ketib qoladi, qisqasi, tazyiqlar ostida qolishiga sabab bo'ladi.

XX asr Ozarbayjon adabiyotining rivojlanish bosqichlaridan biri sifatida 1960-1980 yillar deb hisoblanadi. Bu davrda Sovet Ittifoqida yangi jamoaviy ahloq va tushuncha tarzi hukmron bo'lib, adabiyotda ba'zi o'zgarishlar yuz beradi, ya'ni hamma narsaga partiyaviylik va sinfiy yondashuvda, bevosita, sotsialistik realizmda ham ayrim yumshashlar ko'zga tashlanadi. Bu paytga kelib asar qahramonlari partiyaning mirshabi sifatida kecha-kunduz sinfiy dushmanlarga qarshi kurashadigan, urish-janjal ko'taradigan, to'xtovsiz ishlaydigan, sotsialistik musobaqalarga qatnashadigan, ishlab chiqarish planlarini ortig'i bilan bajaradigan, jonini jabborga beradigan robot emas, milliy va insoniy qadriyat-larga ahamiyat beruvchi inson sifatida gavdalana boshlaydi.

Adabiyotda mustaqillik g'oyalarining tarannumi, hurriyat yo'lida kurashga chorlovchi, xalqning xotirasida qatra-qatra yig'ilgan milliy shon-shuhrat tuyg'usini va milliy ongni jilolaydi. Hurriyat shoiri Ahmad Javoddan, Olmos Yildirimdan, Mikoil Mushfiqdan Samat Vurg'unga, Rasul Rizoga, Sulaymon Rustamga, ulardan Baxtiyor Vahobzodaga, Nabi Hazriyga, Xalil Rizo Uluturkka, Mehmet Orazgacha bo'lган barcha shoirlar tomonidan yurtdoshlarning qalbiga va tomirlariga oqib kirgan Vatan tuyg'usi, Ozarbayjon sevgisi, bu tuproqning Sovet tuprog'i, bu millatning rus millati emasligini ta'kidlab, Ozarbayjonning farqli, o'zgacha va butunlay alohida bo'lishini o'n yillar davomida ularغا tushuntirib keldi.

Bu davrda 60- yillar avlodи deb nomlangan Isa Husaynov, Anor, Elchin, Akram Elyislis, Sobir Rustamxonli, Farmon Karimzoda, Sobir Ahmedov va boshqa yozuvchilar butunlay boshqa mavzularda umuman boshqacha qahramonlar va farqli adabiyot yaratishdi [8, 127-129].

Ozarbayjon adabiyoti yaratgan bir necha mustaqil qiyofalar, xususan, Ja'far Jabborlining po'lat irodali, jamiyat uchun namuna Elxoni, Samat Vurg'unning aqlli Vagifi, Anvar Muhammadxon-

lining yengilmas Bobaki, Mirza Ibrohimovning millatparvar, metin Fariduni, Farmon Karimzodaning qat'iyatlari Karbaloyi Ismoili, Ismoil Shixlining namunaviy Jahondor og'asi adabiy qahramon emas, go'yoki barchani ortidan ergashtiradigan haqiqiy va jonli qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Uchinchidan, tariximizni, moziyimizni kuylovchi asarlar millatga yangi ruh va nafas berdi. M.Ibrohimovning "Parvona", M.S. O'rdubodiyning "Tumanli Tabriz", F. Karimzodaning "Chaldiron jangi" tipidagi tarixiy asarlarga faqatgina moziyni aks ettirgan vosita sifatida qarayolmaymiz. Bu kitoblar yosh avlodga milliy shuurni singdirar, o'tmis bilan bugunni o'zaro yaqinlash-tirar, ular orasida rishta o'rnatish, yozuvchining sempatiyasini xalqqa yetkazib berar, asarlarning ijobiy qahramonlari milliy ongga o'mashib, u yerda o'rinn topar, yoshlari o'mak oladigan shaxslarga aylanar edi.

To'rtinchidan, Ozarbayjon tabiatining tarannum qilinishi o'quvchi ko'z o'ngida ushbu makonni vatanlashtirib, yurting turli burchaklari, qishloq va tumanlari, qasaba va mahallalari, ko'l va irmoqlari, tog' va qir-adirlarining go'zalligini hammaning qalbiga jo qildi, tabiat bilan insonni bir butun holga keltirdi.

Beshinchidan, adabiyotimiz ozarbayjon turkchasingo'zalligini, ravon, toza va jozibador tilga aylanishini, adabiy imkoniyatlarning kengligini, tarovati va boyligini, oddiylik va totlibligini hammaga tarannum qildi, isbotladi, bu tilning va unda so'ylovchilarning hayotiy haqqi ekanligini butun dunyoga namo-yish qildi.

Shunday qilib 20- asrda adabiyot birinchi navbatda ona tili-miz, madaniyatimiz, milliy, ma'naviy borlig'imizga aylanib xal-qimizni assimilyatsiyadan va xorijiy ta'sirlardan qo'rib, milliy zaminda tarbiyaladi, yangi ruh va ozuqa berdi, eng muhimi istiqlol sevgisi ongimizga jo qilinib, nihoyat hurriyatga qovushishimizga yordam berdi.

## Foydalanılgan adabiyotlar

1. Azerbaycan Edebiyati Tarihi: III cilt. Sovet dövri. – B.: Azerbaycan Elmlər Akademiyası Neşriyatı: 1957. – 562 s.
2. Azerbaycan Filoloji Fikri: Dünən, Bugün, Sabah / Elmi konfransın tezisleri. Red.: N.Q.Ceferov, M.M.Memmedov. – B.: Bakü Universiteti, 2001. – 83 s.
3. Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). – B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
4. Jukov Ivan. Kahramamın Ölümü // ‘Azerbaycan’ dergisi, No. 4, 1988, s.81.
5. Eliyev A. Edebiyyatımıza Muasır Bakış. – B.: Elm, 1999. – 196 s.
6. Efendiyev E. Millilik ve Umumbeşerilik / Dil ve edebiyat jurnalı, № 4 (22), 1999, s.428.
7. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. I. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 504 s.
8. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. I. Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 564 s.
9. Nebiyev B. Roman ve muasır qehreman. – B.: Azerneş, 1987. – 296 s.
10. Rzayev Yaşar. Milli Azatlıq Şuurunun Formalaşmasında Azerbaycan Edebiyatının Rolü. Fil. elm... diss. avtoref. – B.: 2006. – 26 s.

## 80- YILLAR SHE'RIYATI

Nasr va dramaturgiyaga nisbatan she'riyat Sharq, xususan, Ozarbayjon adabiyotining zamon va makon jihatidan yanada qadimiy va birinchi turidir. Insoniyatni, jamiyat va tabiatni, real hayot va xayolot dunyosini bir xil shaklda ifoda eta oladigan she'riyat hamma davrlarda ta'sirli kuch bo'lish xususiyatini saqlab qolgan. Qariyb ming yillik bir moziyga, buyuk va teran an'analarga ega Ozarbayjon she'riyati XX asrda ham ushbu vazifani bajarishda davom etdi [27, 11-12].

Iosif Stalining vafotidan keyin Sovet Ittifoqida paydo bo'lган nisbiy yumshash adabiyotda, shu jumladan, adabiyotning eng suyukli, keng yoyilgan turi bo'lmish she'riyatda o'z aksini topdi. Shoirlar o'sha chog'lari va undan keyinroq ham mavjud ahvolga qarshi e'tirozlarini imo-ishora yo'li bilan satr osti ma'no va ramzlar bilan, ko'pincha esa Ezop tilida ifodaladilar. Bu masalada eng muvaffaqiyatlari ijod qilgan shoir shubhasiz Rasul Rizodir. 1910 yilda tug'ilib, 1981 yilda "soyasini bu dunyodan olib ketib, mangulikka ravona bo'lgan" [24, XII] Rasul Rizo hur va osiy bir ruhiyatga sohib edi. U, sog'ligida va vafotidan keyin ham yosh shoirlar uchun dono maslahatgo'y bo'ldi. Ozarbayjon adabiyotiga ko'plab prinsip va g'oyalarni, ramz va tabu mavzularni, ayniqsa, erkin she'mi olib kirgan Rasul Rizo "Ranglar", "Ona qiz", "Sariq Dono va kichkintoy qiz", "Qizilgul bo'lmasa edi", "Qo'rquv", "Inson", "Iblis bilan suhbat" va hokazo asarlariga xalq va millat, vatan va yurt sevgisini, ozodlik va mustaqillik mavzularini jo qiladi, shu bois Kommunistik Partiya arboblari va rasmiy gazetalar tomonidan o'ta qattiq tanqid ostiga olinadi. Shoир badiiy san'atdagi shiorini shu misralarda ifodalagan:

Kurash bugun ham bor, ertaga ham.  
Men esa kurashning old saflarida.

XX ast Ozarbayjon she'riyatining eng yuksak cho'qqilaridan biri, eng hushyor, eng milliy va millatparvar shoiri Rasul Rizo

1980-1982 yillar orasida bosilib chiqqan 5 jildlik "Tanlangan asarlar"iga [25] kiritilgan 615 ta she'r va 19 ta manzumasi bilan bugun ham shoirlar va turli avlodga mansub kitobxonlarning fikr otasi bo'lib qolmoqda. Uning izdoshlari sifatida Fikrat Qo'ja, Ali Karim, Vagif Samado'g'lu, Fikrat Sodiq va boshqalar. Shoirlarimiz Rasul Rizo maktabidan, badiiy san'atidan va insoniyligidan katta ta'sir olgan, ko'p narsalarni o'rganganlar [20, 438-454].

80- yillar Ozarbayjon she'riyatiga o'z muhrini bosgan shoirlar ko'p. Aslida hech bir tarixiy davrda o'lkada bunchalar iste'dodli qalam sohiblari yetishib chiqmagan, ularning yetishib chiqishini ta'minlaydigan yuksak madaniy muhit, she'riyat va badiiy san'atni tekshirib turuvchi zaruriy siyosiy ideologik kurash muhit mavjud bo'lmadi.

Davrning mashhur shoirlari orasida ikki nafar qariya va tajribali insonni so'z boshidayoq qayd etib o'tish lozim. Ular Ozarbayjon sovet she'riyatining asoschilari safida o'rın olgan Usmon Sarivalli (1905-1990) va Sulaymon Rustamlardir (1906-1989).

Ilk she'ri 1928 yilda, ilk kitobi 1934 yilda bosilib chiqqan Usmon Sarivalli qariyb 60 yil davomida iste'dodli adib sifatida Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasida, Adabiyot gazetasida, Fanlar Akademiyasi Til va Adabiyot Institutida, nashriyotda faoliyat yuritdi, bir-biridan qadrli asarlar yozdi, tarjimalar amalga ossirdi [20, 346-358]. 80- yillarda shoirning katta bir kitobi va tanlangan asarlarining ikki jiddligi nashr qilindi [22; 23]. Ishqiy she'r turida yozilgan asarlarining bosh mavzusi inson sevgisidir.

Ozarbayjon sovet adabiyotining eng mashhur shoirlaridan bir o'laroq Sulaymon Rustam hanuz 20 yoshda ekan "Yosh Qizil Qalamlar" jamiyatining ta'sischilari, "Proletar Yozuvchilar jamiyat"ning a'zolari safida joy oldi [20, 170], juda yuqori adabiy va siyosiy lavozimlarda ishladi, 1938 yildan umrining oxirigacha deputat, bir muddat esa parlament raisi, SSSR va Ozarbayjon muhofotlariga loyiq deb topildi, uch marta Lenin ordeni, ikki marta Qizil Mehnat Bayrog'i nishoni bilan taqdirlandi. xalq shoiri va Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvonini oldi [6, 873]. Zimmasi-

ga yuklangan adabiy va siyosiy lavozimlar, loyiq ko'tilgan mu-kofot va unvonlar bo'yicha butun Sovet Ittifoqida faqatgina Mirza Ibrohimov u bilan bahslasha oladi. Tirikligida Sulaymon Rustamning qariyb 50 ta kitobi nashr yuzini ko'rdi, 80- yillarda o'quvchilarning olqishiga sazovor bo'lgan "Vatan taronaları", "Mening quyoshim", "Janub hasrati", "Ozarbayjonga tashrif bu-yursin" kabi she'riy kitoblari va tanlangan asarlarining 6 jildligi bosilib chiqdi [27].

Sulaymon Rustam romandan tashqari hamma mavzuda asarlar yozdi. 8 mart Xalqaro xotin-qizlar kunidan 1 May bayramiga, 28 aprel Ozarbayjonning sovetlashuvi kunidan 7 noyabr Ulug' Oktabr Sotsialistik inqilobiga, kosmosga uchirilgan Layka nomli itdan ilk astronovt Yuriy Gagarinka, maktab va boshqa o'quv yurtlarida dars boshlashidan tugagunigacha bo'lgan taqvimda joy olgan har turli rasmiy ta'tillar va maxsus kunlarga, bayram va yubileylarga atab she'rlar bitdi, bulardan tashqari katta-katta manzumalar, dramalar, maqolalar, hatto o'ta tuzli "totli" hikoyalar ham yozdi.

Mashhur shoirning badiiyatida Eron va Rossiya orasida taqsimlangan Ozarbayjon mavzusi alohida o'rın tutadi. Sulaymon Rustam II Jahon urushi paytida Eronda bo'lgan, Said Ja'far Pishvari yoshchiligidida yuritilgan Janubiy Ozarbayjon xalq inqilobini yaqindan kuzatib borgan. Tabrizda nashr qilingan "Vatan yo'li-da" nomli gazetada inqilob va milliy ruhni qo'llab-quvvatlovchi she'rlar yozgan edi. Uning "Tabrizim" va keyinchalik qalamga olgan "Shahriyor" she'ri bugun ham tillarda yod bo'lgan she'rlar qatoridadir [20, 177].

Sulaymon Rustam hamma joyda va hamma vaqt ona Ozarbayjoni cheksiz sevgi-muhabbat bilan tarannum etgan, uning go'zalliklarini tasvirlab bergen. Quyidagi misralar bunga yaqqol misol bo'la oladi:

Vatanimni sayr etishga chaqiraman ellarni,  
Millat ko'rmoq istagan Ozarbayjonga kelsin!  
Bezangan boshdan-oyoq chamanlari, cho'llari,  
Jannat ko'rmoq istagan Ozarbayjonga kelsin!

1980- yillarda Ozarbayjon she'riyatiga qo'shimcha rang kiritgan to'rt ayol shoirani alohida keltirib o'tish lozim: Marvarid Dilboziy (1912-2001), Nigor Rafibeyli (1913-1981), Madina Gulgun va Hukuma Billuriy (1926-2000). Bulardan biri, xalq shoiri Rasul Rizoning umr yo'ldoshi, xalq yozuvchisi Anorning onasi, keyinroq o'zi ham xalq shoiri unvoniga loyiq ko'rilgan Nigor Rafibeyli, Chor Rossiyasidan ajralib chiqib, 1918-1920 yillarda mustaqil yashagan Ozarbayjon Demokratik Respublikasining ilk sog'liq vaziri, keyinchalik Ganja voliysi bo'lgan mashhur davlat arbobi Xudodod Rafibeylining qizi edi. Xudodod bey 1920 yilda bolsheviklar tomonidan qo'lga olinib, kommunistlarga xos turli soxta ayblovlar bilan otib tashlanadi. Shunday bir aslzoda oilaning qizi 1930- yillarda adabiyotga kirib keladi va iste'dodiga qaramasdan sinfiy mansubligiga qarab proletar adabiy guruhlar tomonidan doiño xo'rланади, chetlashtirib kelinadi, tanqidlar ostiga olnadi. Mana shu metin xarakterli ayol 37- yillar va undan keyingi paytlarning butun azoblariga va qiyinchiliklariga bardosh berib, erkin badiiy asarlar, qiymatli tarjimalarni amalga oshirdi [6, 710]. Uning umr yo'ldoshi Rasul Rizoga, ona yurtning tabiiy go'zalliklariga, Ozarbayjon ayollarini va bolalariga, sevgi-muhabbatga va sog'inchga bag'ishlab yozgan she'rlarini bugun ham hajajonsiz o'qish mumkin emas. Bu asarlar qalbi ishq bilan to'la aslzoda bir ayolning injaytuyg'ularini aks ettiradi.

Xalq shoiri Marvarid Dilboziy ham 1937 yil dahshatlarini boshdan kechirgan eng nodir adiblarimizdan biridir. Ilk she'rini 1927 yilda 15 yoshida yozgan yosh qiz shundan keyin 75 yil davomida adabiyot olamida faoliyat yuritdi, 44 ta kitob yozdi. Ushbu kitoblardagi eng go'zal she'rlar uning 1981-1983 yillarda nashr qilingan 3 jiddligida to'plangan. "Qor chechaklari" (1984) nomli kitobiga kiritilgan she'rlari esa go'yo oq sochli onaning yoshlarga, bolalariga va jazzi nevaralariga murojaatidir [19].

Madina Gulgun va Hukuma Billuriy Sovet Ozarbayjoniga 1946 yilda Janubiy Ozarbayjon vakillari sifatida tashrif buyuradilar. Ikkalasi ham Janubiy Ozarbayjon inqilobida faol qatnashganliklari tufayli "21 Ozar" medalini olishgan. Madina Gulgunning

Tabrizda nashr etilgan “Vatan yo‘lida” gazetasida xalqni milliy kurashga chorlagan she’rlari bosilib chiqqan, Hukuma Billuriy esa she’r va maqolalar yozish bilan birga inqilobiy qo‘mita a‘zosi, muallima va kutubxona mudiri vazifalarida ishlagan. Har ikkala yosh Bokuga kelgach universitetda tahsil ko‘rgan, turli tashkilotlarda ishlagan, go‘zal she’rlar yozgan, kitoblar nashr qildirganlar. Bokuda Madina Gulgun 24, Hukuma Billuriyning 18 kitobi nashr yuzini ko‘rgan.

80- yillarda Madina Gulgunning “Umrga yelkan umidlarim”, “Umrning kuz bekati”, “Charchata olmas yo‘llar meni”, “Dunyo totli dunyodir” va “Tanlangan asarlar” [15] nomli beshta kitobi o‘quvchilar e’tiboriga sazovor bo‘lgan. Mazkur kitoblarida bu paytga kelib nafaqa yoshiga kelgan muayyan bir “horg‘in jangchi”ning, inqilobchi va millatparvar shoiraning hayoti, ko‘rgan-kechirganlari va tuyg‘ulari aks ettirilgan she’rlari yig‘ilgan [21, 24-34].

Xuddi shu pallalarda Hukuma Billuriyning “Muhammad Husayn Shahriyor” nomli bitta taddiqot kitobi, “She’rlar”, “Olib bor meni u yerbarga”, “Yana bahor kelsa”, “Tanlangan asarlar”, “Dunyo shunday dunyodir” nomli beshta farqli she’riy kitobi bosilib chiqdi. She’rlari asosan o‘tib ketgan yoshlikka va qoldirib kelgan joylariga sog‘inch, dunyoning vafosizligi, hayotning falsafiy ma’nosiga doir fikr-mulohazalardan iboratdir [11].

Shu o‘rinda 1946 yilda yana bir Janubiy Ozarbayjondan muhojir bo‘lib kelgan va Bokuda porlagan mashhur shoirlarimizdan Balash Ozaro‘g‘li (1921-2012), Ali Tuda (1924-1996) va Suhrob Tohirni (1926) eslاب o‘tishga to‘g‘ri keladi. XX asrda she’riyatimizning cho‘qqisiga chiqqan shoirlar orasida joy olgan ushbu uch nafar iste‘dodli shoirimiz adabiyot va inqilobni birlashtirgan adiblar sifatida hammaga namuna bo‘la oladi. Siyosiy va adabiy kurashlarni birga olib borish ularni 20-30 yillardagi rus shoirlari ga o‘xshatib qo‘ygan bo‘lsa-da, ushbu kurashlar ideologik emas, milliyidir. Eronda assimiliyatsiyaga va forslashishga majburlangan, eng oddiy milliy haqlari qo‘lidan tortib olingan, tili xo‘rlangan, ta‘qiqlangan, ona tilida bitta ham maktabi bo‘Imagan ozar-

bayjon xalqining 1940- yillarda shoh rejimiga qarshi kurashlari-ning old safida turgan Balash Ozaro'g'li, Ali Tuda va Suhrob To-  
hir ilk she'rlarini "Vatan yo'lida" gazetasida nashr qildirishgan,  
Ozarbayjon Demokratik Firqasi a'zosi sifatida ushbu partiyaning  
turli tashkilotlarida ishlagan, inqilob muvaffaqiyatsizlikka uchra-  
gach, Bokuga kelgan va bu yerdagi Boku Davlat universitetining  
Adabiyot fakultetida oliy ta'lim olgan, Bokuda yashab o'tishgan.

34 ta kitob muallifi Balash Ozaro'g'li 80- yillarda "Kel, ey  
bahor", "Ko'ksim Savalon tog'idir", "Bir kursi istayman" nomli  
uch kitobini nashr qildirdi, 1982-1983 yillarda tanlangan asarlar-  
ning 2 jildini bosib chiqaradi. She'rlari Sovet xalqlarining bir  
necha tillariga o'giriladi. O'zi ham bir necha forscha asarni ona  
tiliga tarjima qiladi [20, 464-472; 6, 116].

Ali Tuda qariyb 50 yil davom etgan adabiy hayoti mobaynida  
30 ta kitob, yuzlab she'r, 50 dan ortiq manzuma, xotira, povest va  
hikoyalar yozdi. Ularning katta bir qismi Erondagi ozarbayjon in-  
qilobiga, ona tilimizga, mustaqilligimizga aloqadordir. Ayniqsa,  
80- yillarda Bokuda nashr qilingan 6 kitobi, ya'ni "Nag'malar",  
"Quyoshli bahor yaproqlari", "Aras yoqasida o'rmon" va "Kech  
qolgan visol" nomli she'r kitoblari, "Torlarda to'lg'ongan hasrat-  
lar" nomli hikoyalar to'plami va "O'z ko'zlarim bilan" nomli xoti-  
ralar kitobi shu jihatdan katta ahamiyat kasb etadi [21, 37-47].

Suhrob Tohirming badiiy san'atiga xos jangovar ruh uning ilk  
kitobidan oxirgi kitobigacha kamchiliksiz va uzliksiz ravishda da-  
vom etdi. Shoiring Eronda haq-huquqi toptalgan ozarbayjonlik-  
larning ahvolini bayon qilgan shu misralari Sovet Ittifoqi uchun  
ham xos edi:

Tug'ildim,  
Onam men-la  
So'zlashadi o'z tilimda.  
Ulg'ayaman, dars olman  
Fors tilida.  
O'lganimda al-Fotiham  
Arab tilida.

Sovet davrida Ozarbayjon yoshlari ushbu she'rdagi "Ulg'ayaman, dars olaman fors tilida" satrlarini o'zgartirib "Ulg'ayaman, dars olaman rus tilida" tarzida o'qib, Sho'rolarning ruslashtirish siyosatini tanqid qilardilar.

Shoirning ilk she'ri 30 aprel 1949 yilda "Ozarbayjon" gazetasida, "Oy nurlari ostida" nomli ilk kitobi 1956 yilda Bokuda nashr qilinadi. Umr bo'yni 30 ta kitob yozgan Suhrob Tohir ozod yurt, mustaqil millat, baxtli inson yo'lida adabiy kurashlarini davom ettiradi, 80- yillarda "Jang lavhalari", "O'liindan kuchli, hayotdan ulug'", "Ishq ertagi", "Vatan ila ishq o'rtaida" kabi she'riy kitoblarini yozib tugallaydi, "Ikki marotaba oshiq bo'lgan odam" va "Qo'shni qizning maktublari" singari romanlarini nashr qildiradi [6, 865]. Bu asarlar Suhrob Tohirning adabiyotga va o'ziga nisbatan qanchalik mas'uliyatli bo'lganining tasdig'idir.

Ularning izdoshlari sifatida Qosim Qosimzoda (1923-1993), Husayn Orif (1924-1992), Nabi Hazriy (1924-2007), Qobil (1926-2007) va Tavfiq Mutallibov (1929-1992) singari adiblarni ko'rsatish mumkin.

Qosim Qosimzoda shoir, adabiyot tarixchisi va munaqqid sifatida XX asr adabiy hayotida muhim rol o'ynadi. Besh yil davomida Yozuvchilar Uyushmasining nashr organi "Adabiyot" gazetasining bosh muharriri bo'lgan prof. Qosim Qosimzoda uzoq yillar davomida Ozarbayjon Fanlar Akademiyasiga qarashli Adabiyot institutida bo'lim mudiri bo'lib ishlaydi. "Adabiyotda milliylik va baynalmilallik" (1982) nomli asari uchun Ozarbayjon Davlat mukofotiga loyiq ko'rildi. "Adabiyotimiz va ma'naviyatimiz" nomli teran va keng ko'lamli tadqiqoti ham adabiy muhitini o'ziga jalg qiladi.

Inja ruhli she'rlar yozgan Qosim Qosimzodaning mavzusi rang-barang va keng ko'lamlidir. U, ishq-muhabbat, birodarlik, do'stlik, tabiiy go'zalliklar, tariximiz, zamonaviy hayotimiz va ertamiz haqida his-tuyg'ularga to'la she'rlar yozib, Janubiy Ozarbayjon to'g'risida ham samimiy asarlar yaratdi. Klassik adabiyotimizda ko'plab o'rinn olgan mavzular: atirgul, gul, lola, binafsha, buloq kabi figuralar uning she'rlarida yangicha ma'no kasb etadi.

Shoirning ko'pgina lirik she'rlari bastlangan. Asosan tazod shaklida qalamga olingan she'rlari kutilmagan bir natija bilan tugab, o'quvchida xush taassurot qoldiradi. Masalan, "O'lmaz o'lmaz (bo'lmay iloji yo'q)" she'ri sohil bo'yida sayr qilgan qiz bilan yigitning dengizday chuqur, tabiat kabi go'zal sevgisini aks ettirgan. "Qo'shni yashashni istamam sen bilan" she'ri derazalari qarama-qarshi joylashgan qiz bilan yigit o'rtasida kechgan dialogni aks ettiradi. Yigit qizga bu qo'shnilik endi uning jonini siqa boshlaganini, bu holatga nuqta qo'yishning vaqt kelganini aytadi. Qiz bo'lsa o'rtada hech qanday araz va kelishmovchilik yo'qligini pesh qiladi. Yigit oyoq tirab turib olgach, qiz buning haqiqiy sababini so'raydi. Shu payt yigit:

Ko'chib o't bizga, quraylik yangi oila,  
Qo'shni bo'lmoq istamayman sen ila!

deya haqiqiy niyatini oshkor qiladi.

Qosim Qosimzodaning 80- yillarda boilib chiqqan "Toshdan qattiq so'z", "Sendan ayrilgandan beri" va "Tanlangan asarlar" [6, 529] nomli kitoblaridagi she'rlar bugungi kunda ham o'quvchilarining zavq va his-tuyg'ularini jo'mbushga keltiradi.

Husayn Orif adabiyot tariximizda maxsus o'rinn egallagan shoirlarimizdan biridir. Shoir va yozuvchilarimizning katta ko'pchiligi asosan adabiyot fakultetini tugallab, oxir-oqibat nashriyotlarda, gazeta va jurnallarda ishlasalar, Husayin Orif 18 yoshida II Jahon urushiga qatnashgan, Polsha va Chexoslovakiyada fashistlarga qarshi urushda qatnashgan, og'ir yaralangan, so'ngra Moskva Harbiy Muhandislar o'quv yurtida o'qigan, SSSR Ichki Ishlar Vazirligi qarashli tashkilotlarning birida ishlagan. U yerdan bo'shangandan keyin 1946-1951 yillarda Boku Davlat universitetining Sharqshunoslik institutida tahsil olgan, 1951 yilda aspiranturada o'qish uchun Moskvaga Maksim Gorkiy nomli Adabiyot institutiga borgan. Faqat u ham xuddi Najib Fozil Qisakurak singari she'riyatdan boshqa hech qanday narsa bilan jiddiy shug'ullanmaydi, shu bois aspiranturadan ham voz kechib, tartibli ish

faoliyatiga 33 yoshida boshlaydi. Bir muddat Chet el mamlakatlari bilan do'stlik va madaniy aloqlar jamiyatida va nashriyotda, 1982 yildan keyin esa Ozarbayjon Oshiqlar (Baxshilar) birligi tashkilotida ishlaydi [20, 361-363].

Husayn Orif, ehtimol xalqqa va xalq ruhiga eng yaqin bo'lgan shoirimiz bo'lishi mumkin. Uning oshiqlar she'riyati janrida yozgan asarlari bir necha asrlar avval yashagan Oshiq Abbas Tufarqonli va Xasta Qosimning billur kabi she'rlarini eslatadi. Uning she'rlarini o'qirkan ko'z o'ngimizda top-toza, musaffo tabiat, yengil yomg'irdan keyin chiqqan yetmish ikki rangdagi kamalak, shabnamli chamanzor ustida yalangoyoq kezgan va to'plagan gul-chechaklarni sochlariga taqib olgan nozli, g'amzali sevgili yor, jimirlab turgan buлоqdan suv ichayotgan ohu-jaylon keladi.

Husayn Orif yuz foiz lirik shoirdir. Uning lirkasi ko'p qirrali, keng ma'noli va ko'p tabaqalidir. Unda, ham yurtdoshlik, ham ishq, hamda falsafa mavjuddir. 1828 yilda Eron bilan Rossiya orasida taqsimlangan, Aras irmog'i bo'ylab ikkiga bo'lingan, o'sha kundan beri doimo ayri qolgan Shimoliy va Janubiy Ozarbayjon mavzusida qalamga olgan "Bokudan Tabrizgacha", "Tabrizim", "Ozarbayjon sinfoniyasi", "Aras sohilida" va boshqa she'rlari yurtdoshlik lirkasining go'zal o'raklaridir. Ushbu she'rlari o'ta milliy va his-tuyg'ularga to'ladir. Sanab o'tilgan she'rlardan oxirgisining ayrim qismlarini keltirib o'tamiz:

Oramizdan oqib o'tar  
Aras bulana-bulana.  
Kuzataman ko'rkamini  
Yaram suvlana-suvlana.

Tomirimda jo'shar qonim,  
Bir ummondir hayajonim.  
U yondadir yarim jonim,  
Boqmoqdaman yona-yona.

Husayn Orif Ozarbayjonning tabiiy go'zalliklarini, yuksak tog'larini va keng qir-adirlarini, yam-yashil o'rmonlarini, sokin ko'llarini va jo'shqin irmoqlarini, ko'zyoshi kabi musaffo buloqlarini cheksiz bir sevgi-muhabbat bilan vasf qildi. "Ona tabiat", "Tomchilar", "Bulutlar", "Binafsha", "Buloq" va hokazo she'rlari buning yorqin namunasidir.

Hayot, umr, koinot, inson, mavjudiyat, miqdok kabi narsalarning haqiqiy ma'nosi, shoirning falsafiy tushunchalari hikmatlilik jihatidan teran va ma'nodor, hissiyat jihatidan ta'sirli va tuyg'uli, tili jihatidan juda ravondir. Masalan, oxiratga ravona bo'lish, umr va yurak uchligida o'rin olgan shoir shunday deydi:

Safardaman, safarimni  
Boshlamadim uni hali...  
Umr deydi: qaribsan-da,  
Yurak deydi: yasha hali!

Husayn Orif o'xshashi yo'q ishq shoiridir. Ikki yoshning sof muhabbatni, ahdi paymoni, bu yo'lida tortgan azoblari, hasrat, sog'inch, visolga yetisha olmaslik, nostalgiya, eski kunlar xotirasini, cho'g'day yongan tuyg'ular uning ishqiy she'rlarini farqli qiladi. "So'yla, esingdami", "Sen men bilan kel", "Kelin sevinchi", "Lazgi qizi", "Sen darsga kelmaganda", "Biri sensan, biri men" kabi o'nlab she'rlari ishqiy qo'shiqlarga aylangan. She'laridan bir o'rnak keltirib o'tamiz:

Bir maqomda uch shalola ko'rganman,  
Biri cholg'u, biri parda, biri sim.  
Bir olamda uch yig'lagan ko'rganman,  
Biri menman, biri sensan, biri kim?

Husayn Orif lirik she'rlar bilan birqalikda go'zal manzumalar ham bitgan. XX asr she'riyatimizning bayroqdori Samat Vurg'unga atab yozgan "Yo'lida" manzumasi, ishqiy badiiy san'at ustasi Dilg'amning azobli sevgisini tarannum etgan "Muhabbat

manzumasi” va XXI asrning mashhur qalam sohibi, Qorabog’ xonimining qizi Xurshid Bonu Notavonning hayotiga bag’ishlangan “Notavon” manzumasi Husayn Orifning eng go’zal asarlaridir.

1980- yillar Husayn Orifning eng barakali chog’idir. Bu davrda shoirning “Umr deydi” (1981), “Ayro tushgandan beri” (1983), “Dilg’am” (1984), ikki jildlik “Tanlangan asarlar” (1985) kitoblari bosilib chiqdi.

Ozarbayjon xalq shoiri Nabi Hazriy 1958 yildan 2007 yilgacha qariyb 50 yil turli yuqori lavozimlarda ishlab kelgan. 1958-1965 yillar orasida Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi kotibi, 1965-1971 yillarda Ozarbayjon radio va TV ko’rsatuvlari rais o’rinbosari, 1971-1974 yillarda Ozarbayjon Madaniyat vaziri o’rinbosari bo’ldi 1974 yildan boshlab umrining oxirigacha vazirlik maqomiga ega Xorijiy Mamlakatlar Do’stligi va Madaniy Aloqalar Jamiyatining raisi vazifasida ishladi.

8 ta tarjima kitoblarni ham qo’shib hisoblaganda jami 44 ta kitobi nashr qilingan. Har holda zimmasidagi rasmiy lavozimlar tufayli uning badiiy ijodi ko’proq sotsialistik realizm doirasida amalga oshirildi. 1968 yilda Sovet Kommunist Yoshlar medalini, 1973 yilda SSSR Davlat medalini, 1982 yilda Ozarbayjon Davlat medalini oldi. Xalq shoiri unvoniga, turli Sovet nishonlariga, mustaqillikdan keyin Ozarbayjonning “Shuhrat” va “Istiqlol” nishonlariga loyiq ko’rildi [21, 169-180].

She’rlari sho’x va o’ynoqidir. Tili jilodi, uslubi sodda va oddiyidir. Ishqiy she’rlari ayniqsa ravonligi bilan o’ziga jalb qiladi. Buning eng go’zal o’rnaklaridan biri quyidagicha:

Bu mag’rur ishqimda tamannosizman,  
Bir tomchi istasam,  
Bir ummon ista.  
Men-chi bir dunyolik bahorman, yozman,  
Bittagina gul istasam,  
Guliston ista.  
Menga yulduz qadar nur bergin desam.  
Sen mendan quyoshli

Ko'k osmon ista.  
Agar bir soatlik visol istasam,  
Sen butun umrimni  
Armug'on ista.

Har qanday adabiyotchi kabi Nabi Hazriy ham ishqiy she'r-lari bilan birga manzuma va drama asarlari yozdi. Uning "Sumgait sahifalari", "Ikki Hazar", "Boku", "Umr yo'ldoshi", "Salotin", "In'om", "Shahidlar va shohidlar", "Atillaning otliqlari" va hokazo manzumalari o'quvchilarni o'ziga jalb qildi. Shoirning yubileylarida ba'zi muxlislari sahnaga chiqib, uning manzumalari boshdan-oyoq yoddan aytib berishgani buning isbotidir.

80- yillarda Nabi Hazriyning "In'om", "Haykalsiz obida", "Tanlangan asarlar" (4 jiddlik), "Nasllar, asrlar", "Oq chaqmoqlar", "She'r men uchun bir koinotdir", "Tuproq senga ont ichaman" kitoblari nashr qilindi. Bu kitoblar, xususan, tanlangan asarlari Nabi Hazriy ijodini o'zida to'laqonli aks ettiradi [6, 696].

Ozarbayjon Xalq shoiri Qobil xilma-xil yubileylarda, adabiy-badiiy tadbirdarda, adabiyot kunlarida, televideniye programmalarida qatnashib maxsus va go'zal nutqlar bilan chiqish qiladigan shaxs va yozuvchi edi. Adabiyotimizda u achchiq kinoyali she'rлari va klassik shoirimiz Nasimiyning hayoti va kurashlariga doir "Nasimiy" (I-III kitob) manzuma-romani va ruboyilar bilan mashhurdir. Qobil, "Nasimiy" manzumasi uchun Ozarbayjon Davlat mukofotini olgan. Asarlari bir necha tillarga tarjiima qilin-gan. 1992 yilda Xalq shoiri unvonini olgan, "Shuhrat" nishoniga va ba'zi medallarga loyiq ko'rilgan [3, 34-36].

1980- yillarda Qobilning "Nasimiy" manzuma-romanining uch kitobi bir vaqtida bosilib chiqdi, "Nog'orachi", "Tozalik", "Ruboyilar", "Nomsiz buloqlar", "Umr dorilari" nomli kitoblari va tanlangan asarlari nashr yuzini ko'rdi.

Tavfiq Mutallibovning Ozarbayjon adabiyoti oldidagi eng asosiy xizmati yangi iste'dodlari adabiyot sahnasiga olib chiqishidir. 60- yillarda Boku televideniyesida muharrir, 1971-1992 yillar orasida "Ozarbayjon yoshlari" gazetasida adabiyot, san'at va

madaniyat bo'limi mudiri vazifalarida ishlagan paytlarida tanaf-fussiz, deyarli har kuni yosh shoir va yozuvchilar bilan uchrashib, ularning asarlarini tahlil qilib, ijobiy va salbiy tomonlarini ko'rsatdi, ularni tanlab olib, nashrga tayyorladi. Tavfiq Mutallibovning 300 dan ortiq she'riga musiqa bastalangan. Ular orasida dunyoda mashhur "Jo'jalarim" she'ri o'rinni o'lgan [6, 947].

1930- yillarda dunyoga kelgan Ozarbayjon shoirlari 50- yillarda adabiy faoliyat olib borib, ilk asarlarini nashr qildira boshladilar. Bu naslga mansub shoirlardan Fikrat Sodiq (1930), Narimon Hasanzoda (1931), Tavfiq Mahmud (1931-1997), Jobir Navruz (1933-2002) va Tavfiq Bayram (1934-1991) o'z iste'dodlari soyasida o'z davrining porloq yulduzlariga aylandi, go'zal asarlari bilan mashhur bo'lishdi.

30 ga yaqin kitob yozgan Fikrat Sodiq 80- yillarda nashr qilingan "Yerdan ko'kka umid", "Ko'kdan olma tushmadi", "Mendan so'rasalar" kitoblarida, xususan, "Dunyo o'z ichidadir" [13] nomli kitobida bir-biridan go'zal ijod namunalari o'rinni o'lgan. Bulardan tashqari, shoirning yana ko'plab "g'ayrirasmiy" she'lari ham mashhur. Ulardan bir o'mak:

Aksiya, aksiya  
Mindim taksiga,  
Yetishdim Oqsuvga.

Fikrat Sodiq 1990 yilda Ozarbayjon Davlat mukofotini oldi [6, 350-351].

Shoir va dramaturg Narimon Hasanzoda baddiyati va zarif shaxsiyati tufayli barchaning ko'nglini qozongan. Ganja universitetining adabiyot fakultetini, keiynroq Moskvada Maksim Gorkiy nomidagi Dunyo Adabiyoti institutini bitirgan Narimon Hasanzoda "Ukraina – Ozarbayjon adabiy aloqalari" mavzusida fan nomzodi bo'lgach, Ozarbayjon televideniyesida, Bolalar va Yoshlar nashriyotida, "Ozarbayjon yoshlari" gazetasida, Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasining nashr organi bo'lmish "Ozarbayjon" jurnalida ishlagan. SSSR Adabiyot fondining

Ozarbayjon bo'limida mudir vazifasida faoliyat yuritgan, 1978-1991 yillarda Davlat matbuot qo'mitasi rais muovini, 1993-2001 yillarda Matbuot va Informatsiya vaziri yordamchisi va vazir muovini bo'lib ishlagan. Hozirgi kunda Milliy Aviatsiya Akademiyasida til va adabiyot kafedrasining professor-o'qituvchisi va mudiridir.

50 yildan ko'proq vaqt mobaynida lirk she'rlar, epik-dramatik manzumalar, tarixiy dramatik asarlar yozgan Narimon Hasanzodaning 7 jildlik kulliyotiga sonsiz-sanoqsiz inja va latif she'rlari, mashhur yozuvchi, dramaturg va davlat arbobi Narimon Narimonovning hayoti va kurash yo'llarini yorituvchi "Butun Sharq bilsin", Saljuqiylar davridagi Ozarbayjon hukmdorlari hayotini bayon qiluvchi "Otabeklar" va "Pompeyning Kavkazga yurishi" nomli pyesalari, "Nabat xolaning noni" romani ilmiy va adabiy-tanqidiy maqolalari kiritilgan. 2005 yilda Ozarbayjon Xalq shoiri unvoniga loyiq ko'rnilgan Narimon Hasanzoda bir muddat deputat qilib saylandi [21, 53-62].

Tirikligida 19 ta original asar, 5 tarjima, tanlangan asarlari nashr qilingan [8; 9]. O'ta kamtarin inson bo'lган Jobir Navruz 1999 yilda Ozarbayjon Xalq shoiri unvoniga loyiq topildi.

30- yillarda tavallud topib, 50- yillarda adabiyotga kirib kelgan Rufat Zebio'g'li (1932-1983), Yusuf Hasanboy (1932), Rufat Ahmadzoda (1933-1988), Husayn Kurdo'g'li (1934-2003), Famil Mahdi (1934-2003), Ilyos Toptiq (1934), O'qtoy Rizo (1934), Shakar Arslon (1935-1995), Sulton Yusuf (1935-2003), Hamid Abbas (1935-1999), Fikrat Qo'ja (1935), Maston Gunar (1935), Iltifot Solih (1935), Ibrohim Go'kchoyli (1936), Ahad Muxtor (1937-1998), Viloyat Rustamzoda (1937-2001), Musa Yoqub (1937), Ramiz Mammadzoda (1937), Hafiz Ali (1937), Shams-hod Rizo (1938-2000), Ali Vakil (1938), Ramiz Duyg'un (1938), Rafiq Zako Xandon (1939-1999) o'z asarlari bilan adabiyotimizni boyitishdi. Ushbu shoirlar orasida Fikrat Qo'ja adabiyotimiz oldida yuksak xizmatlari uchun xalq shoiri unvoniga [6, 349-350], Maston Gunar [21, 62-63] va Rafiq Zako Xandon Ozarbayjon Davlat mukofotiga loyiq deb topildilar. Rafiq Zako Xandon 80-

yillarda katta jasorat bilan adabiyotimizga ilk marotaba turkiylik, turkchilik mavzularini olib kirib, Turkiya va Otaturk haqida o'ta qadrli va ijobjiy maqolalar chop ettirdi [6, 775]. Famil Mahdi va Rafiq Zako ayni paytda ilm bilan shug'ullanishdi, professor unvonini qozonib, universitet muallimlik faoliyati olib borishdi.

Ilyos Toptiq va Viloyat Rustamzoda qiymatli original asarlar yozish barobarida tarjima sohasida katta muvaffaqiyatlar qozondilar. Masalan, Ilyos Toptiq 20 original kitob, 9 tarjima asar [6, 467], Viloyat Rustamzoda esa 3 original kitob, ruscha, o'zbekcha va gruzinchadan 18 ta asar [6, 982] o'girdi. Ahad Muxtorning tirikligida 6 ta orginal, 10 ta tarjima kitobi bosilib chiqdi [6, 231]. Bu sohada mutlaq birinchilik Viloyat Rustamzodaga oid bo'lib, maslakdoshi Ahad Muxtorga bag'ishlab yozgan do'stlik rishtasida hazil yo'sinida shu misralari diqqatga sazovor:

Ahad Muxtor, Ahad Muxtor,  
Originali bir sotix-u  
Tarjimasi yetti gektar.

Bu naslning 1939 yilda tug'ilgan ikki nafar shoiri, ya'ni Mammad Ismoil bilan Mammad Aslon Bokuda adabiyot fakultetini bitirib, tug'ilib o'sgan joylariga qaytishgan va litseyda va mahalliy gazetalarda ishlab, keyinchalik Bokuga ko'chib kelishgan. Bu yerda dastlab turli nashriyotlarda, jurnal va gazetalarda, nihoyat Ozarbayjon Radio va Televizion Ko'rsatuvlar qo'mitasida ishlashgan. Mammad Aslon hozirgi paytda nafaqaga chiqqan [6, 602], Mammad Ismoil bo'lsa Turkiyada Chanoqqal'a 18 Mart universitetida muallimlik qilmoqda [6, 606-607]. Har ikkala shoming 20 atrofida kitobi nashr yuzini ko'rdi. Mammad Aslonning she'rlari lirik, his-tuyg'uga boy va ravon [16], Mammad Ismoilning she'rlari nostalgik va lirik bo'lish bilan birga ko'proq ijtimoiyidir [18].

1940- yillarda tug'ilgan Shohin Fozil (1940), Mustafo Iskandarzoda (1947), Isa Ismoilzoda (1941-1997), Ali Akbar Salohzo-

da (1941), Dovud Najib (1942-2003), Eldor Ismoil (1942), Siyavush Sarxonli (1943-2005), Minoya Aliyeva (1943), Hidoyat (1944), Jengiz Alio'g'li (1994), Ahmad Elbrus (1944-2008), Vohid Aziz (1945), Nusrat Kasamanli (1946-2003), Sobir Rustamxonli (1946), Ramiz Ravshan (1947), Elmon Habib (1949-2009) va boshqa shoirlarimiz 1960- yillarda adabiyot olamiga kirib kelib, Ozarbayjon she'riyatiga yangi rang, yangi nafas qo'shdilar. Aynan 1960- yillar nosirlari singari ular ham imkon darajasida sotsialistik realizm qoidalaridan uzoqlashgan, mehnatkash, partiya a'zosi, kapitalizm va uning tarafдорлари bilan janjallashuvchi ishchi va dehqon obrazlari o'miga his-tuyg'uga boy, samimiyl, sevgan, sevilgan, hasrat va sog'inch tuygan jonli inson obrazlari yarata boshlaganlar.

Sobir Rustamxonli, Hidoyat, Jengiz Alio'g'li, Vohid Aziz ishqiy lirikasi bilan birga ijtimoiy mavzularga e'tibor qaratganlar. Ozarbayjon milliy ozodlik harakati a'zosi bo'lgan Sobir Rustamxonning [6, 807] Boku baladiyasiga she'riy yo'l bilan yozgan maktubi juda katta ta'sir uyg'otgan. Shoir ushbu maktubida Bokuning ko'cha-ko'ylarida xalqqa begona arman va rus kommunistlarining nomi berilganini, faqat Ozarbayjon poytaxtida asl vatan farzandlarining unutilganini yozib, buning sababini so'raydi. hokimiyatdan javob talab qiladi. Eldor Boqish esa [6, 187] baliqning og'zi bo'lsa-da, ne tongki ba'zi odamlar singari gapira olmasligini yozib, Ezop tiliga murojaat etib, rus imperializmiga va ruslar qo'lidagi asir xalqlarga imo qiladi.

Bu davrda Nusrat Kasamanlining [6, 729] va Ramiz Ravshanning [6, 767] lirik rubobidan taralgan ishqiy she'rlari adabiyotimizda butun boshli bir voqeа bo'lib, yoshlarga ayniqsa katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu chizgilarda Zelimxon Yoqub (1950), Shamxal Rustam (1952), Odil Jamil (1954), Rustam Behrudiy (1957) va boshqa iste'dodli shoirlarimiz faoliyat yuritganlar. Zelimxon Yoqubning ishqiy she'ridan kuch-quvvat olib, ta'sirlangan ilhomni ona vatanning shon-sharasiga dostonlar qo'shdi. Shamxal Rustam [6, 886] esa yakka va sodda satrlarda sobit tuyg'ularinishu tariqa ifodaladi:

Yo'llarda, izlarda tuman bor hali,  
Demak. kelishingga guman bor hali.

Rustam Behrudiy [6, 796] tarqalib ketgan Sovet imperiyasini, yangitdan shakllangan Yevroosiyo geogorafiyasini, mustaqil yangi turkiy respublikalarining tashkil topishini cheksiz bir sevinch va hayajon bilan kutib olgan, bu voqeani buyuk Turon sari qo'yilgan qadam sifatida baholadi:

Ont bo'lsin Tangritoqqa,  
O'tga, suvga yaproqqa,  
Turon turgan oyoqqa,  
Qilichlar qinga kirmas!

Shu yergacha aytib o'tganlarimizni xulosalaydigan bo'lsak, 80- yillar Ozarbayjon adabiyotida ismi yuqorida keltirib o'tilgan va o'tilmagan mashhur shoirlar bilan birlilikda so'nggi satrlarimizda uch nafar buyuk shoirga qisqacha to'xtalib o'tamiz. Ular bugungi shoirlarimizning bayroqdori Baxtiyor Vahobzoda (1925-2009), dalli-g'ulli va otashin shoirimiz Xalil Rizo Uluturk (1932-1994) va eng lirik shoirimiz Mammad Orazdir (1933-2004).

Matn jihatidan o'ta xasis yondashgan ensiklopediyalar Baxtiyor Vahobzoda ismining oldida quyidagilarni yozishgan: shoir, dramaturg, adabiyotshunos, 1945 yildan Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasining a'zosi, Ozarbayjon Xalq shoiri (1984), filologiya fanlari doktori (1964), professor, Ozarbayjon Fanlar akademiyasining asl a'zosi (2000). Ozarbayjon Davlat mukofoti sovrindori (1976), SSSR Davlat mukofoti sohibi (1984), M. F. Oxundzoda Adabiy mukofoti sohibi, deputat (1990 yildan beri).

Baxtiyor Vahobzoda 1925 yilda Ozarbayjonning qadim kenti Shaki shahrida tug'ilgan. Oilasi 1934 yilda Bokuga ko'chib kelishgan. Dastlab mакtabni, so'ngra Boku Davlat universitetining Adabiyot fakultetini tugatgan. "Samat Vurg'un lirikasi" mavzusida nomzodlik dissertasiyasini, keyin esa "Samat Vurg'unning hayoti va ijodi" mavzusida doktorlik dissertasiyasini yoqlagan.

1950 yildan 1990 yilgacha 40 yil Boku Davlat universitetida zamonaviy Ozarbayjon adabiyoti kafedrasи professori bo'lib ishlagan. Ozarbayjon Milliy Ilmlar Akademiyasida muxbir a'zo (1980), so'ngra haqiqiy a'zo (2000) qilib saylangan. Sovet va Ozarbayjon yozuvchilar qurultoylarida Boshqaruв kengashi a'zosi, Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasida Oqsoqollar Sho'rosi a'zosi saylangan.

"Ona va rasm" nomli ilk she'ri 1943 yilda bosilib chiqqan. "Mening do'stlarim" nomli ilk kitobi 1949 yilda nashr etilgan. Shundan keyin bosib o'tgan 60 yillik hayoti bo'yи Ozarbayjonda 70 atrofida kitobi nashr yuzini ko'rgan. Tanlangan asarlarining 12 jildligi chop qilingan [7]. Xorijda ham ko'plab kitoblari nashr etilgan. Ba'zi nishon va medallarga loyiq ko'rilgan, shu jumladan, Ozarbayjonning "Istiqlol" nishoni bilan taqdirlangan.

13 fevral 2009 yilda Bokuda Haq rahmatiga qovushdi, Mashhurlar qabristoniga ko'mildi, qabri ustiga xotira toshi o'rnatildi. Boku Davlat universitetida maxsus Baxtiyor Vahobzoda stipendiyasi joriy qilingan. Bokuda, Anqarada, Qayseri va Shakida ko'chalarga nomi qo'yilgan. Shakida uning nomiga park barpo etilgan, byusti o'rnatilgan [21, 161-168].

Baxtiyor Vahobzoda ijodining o'ziga xosliklari nimada?

Avvalo bu ijod a harfidan z harfigacha milliydir, uning she'r larida mushki anbar kabi Ozarbayjon va turkiylik ifori tarqaladi. Shoirning teran inonchiga ko'ra, bu milliylik o'z ildizini milliy tarixdan, milliy psixologiyadan, milliy xarakterdan oladi. Shoir hech kimni kamsitmasdan, tahqirlamasdan o'z madaniyatini har qaysi madaniyatdan qiymatli, aziz hisoblaydi, kuchli ma'naviyatning har qanday qiyinchilikni yengishiga ishonadi. Qadimgi turklar ko'kka - chodir, quyoshga - bayroq deganliklari, dunyonи turkiylarning uyi deb bilgan davrni eslab, o'sha baxtli onlarning yanidan kelishini kutadi. o'sha muhtasham kunlarga doimo sog'inch tuyadi:

Quyosh bayroq, ko'klar chodir.  
Orzu menga genimdan boqar.

Qanday bo'lsa avval oxir,  
Men unga yetajakman.  
Biliyurman qudratimni.  
O'z-o'zimdan o'tajakman.

Ushbu she'rda vatanga muhabbat cheksizdir. U doimo hurriyat, mustaqillik sevgisi bilan yonib-tutashadi, Ozarbayjon va butun Turk dunyosining mustamlaka holatidan qutulishi uchun kurashtadi. She'rлarining birida bu yo'lда jon bergen, shahid ketgan har yuz kishining o'miga ming yigitning yetishib chiqishini va yolg'iz bu soyada vatanning mangu yashashi mujdasini beradi:

Dunyo quruq bir sas,  
G'am chekmoqqa arzimas,  
Yuz-yuzlab yitgan bo'lsin.  
Ming-minglab izdoshi bor.  
Shukronalar qilaylik,  
Bizdan ham avval,  
Ham so'ngra bir vatan bor.

Baxtiyor Vahobzoda ijodining boshqa bir o'ziga xos jihatiga ona tiliga nisbatan tuygan cheksiz sevgi, buyuk mehr-muhabbatdir. Chunki ona tili qo'lidan tortib olingan biror xalqning oxiroqibatda boshqa millatlarga yem bo'lgani va tarix sahnasidan tushib ketganidan yaxshi xabardor bo'lgan shoir "Ona tili" nomli she'rida buni eng yorqin ranglar bilan tasvirlab bergen. "Lotin tili" nomli she'rida esa o'z davrining muhatasham ilm va so'zlas-huv tili bo'lgan lotinchaning bugun hech qanday funksiyasi mavjud bo'lmasagan o'lik tilga aylanishi tipik namuna sisatida ko'z oldimizda namoyon bo'ladi.

Sovet Ittifoqi davrida joriy qilingan til siyosati ruschaning milliy tillarni, shu jumladan, ona tilimizni cheklab qo'yishi va ikkinchi darajali til ahvoliga tushirishi, milliy shuurdan uzoq ba'zi kimsalarning ona tiliga ahamiyat bermasligi, bolalarini rus mak-

tablariga yuborishi Baxtiyor Vahobzodani jonkuyar shoir va yurtsevar bir shaxs sifatida chuqr qayg'uga soladi. U, ona tiliga pi-sandsiz qaragan oliftalarni qattiq tanqid qiladi, ona vatanning havosini, suvini, nonini ularga harom deb biladi:

Ey, ona tilida so'zlashishni or bilgan  
Fasonli oliftalar!  
Qalbingizni titratmas qo'shiqlar. torli sozlar!  
Bular, qo'y, menim bo'lsin!  
Faqtat vatan noni sizlarga g'anim bo'lsin!

Baxtiyor Vahobzoda ijodining yana boshqa bir jihatni ishq mavzusidir. Sof, buyuk sevgi, sog'inch va azob, ko'ngil sirlari, xiyonat va parokandalik, adabiy ayrılıq, turli psixologik holat va his-tuyg'ular uzoq yillar davomida shoir qalbi va qalamini mashhg'ul qiladi. Shoir fikricha, sevishganlar bir-birlarini oyoq tovushidan tanishlari lozim:

Agar sevar bo'lsang, oyoq sasimdan  
Bilmog'ing kerakki, Baxtiyor kelur.

Baxtiyor Vahobzodanining ijodi falsafiydir, terandir, keng ko'lamlidir, fizika bilan meafizika aloqadorligi, modda va ma'naviy nomutanosibliklar zamirida bino qilingan. qarama-qarshiliklar kurashi, birdamlik, o'ziga xoslik kabi falsafiy kategoriyalar asosida barpo etilgan. Shu munosabat bilan o'zini mifologik samandar, ya'ni anqo qushi bilan solishtirgan shoir hayotda hech qanday tamanno va manfaat kutmasdan shu qush singari kulga aylanishni, zarur paytida esa qaytadan tirilib, o'z kullari uzra yan-gitdan tug'ilishni muqaddas vazifa deb biladi:

Ey ko'ngil, sen-da yon samandar kabi,  
Yashat tilagimni, yashat sevgimni.

Buyuk ijodkor haqiqiy bir faylasuf sifatida sham uzra turgan falsafiy tushunchalarini o'ta original bir shaklda tilga oladi:

Yashamoq yonmoqdir, yonging keladi,  
Hayotning ma' nosi yolg'iz undadir.  
Agar mum yonmasa, yashamayotir,  
Uning yashamog'i yoninog'idadir.

Baxtiyor Vahobzoda kamtarin bir shoir sifatida o'zini ijodda sintiq bir soz deya ta'riflagan, o'zidan mamnun emasligini doimiy ravishda ta'kidlaydi:

Doim hisob istayman  
Kechalar kunduzimdan,  
Bezovta, noroziman  
Umrim bo'yi o'zimdan.

Bizning ijod dunyosin  
Siniq torli soziman,  
Birgina undan roziman,  
O'zimdan noroziman...

Dalli-g'ulli shoirimiz Xalil Rizo Uluturkning ilk she'rlari Xalil Xalilov, Xalil Xalilbeyli, Xalil Rizo (Rizo otasining ismidir) va Xalil O'dsevar imzolari bilan bosilib chiqan. Ozarbayjonning poyetik nomi O'dlar Yurdu (Olovlar Yurti) hamohang ravishda tanlagan O'dsevar taxallusini mustaqillik davrida yoki uning arafasida Uluturk nomiga o'zgartirgan.

Xalil Rizo Uluturk 1932 yilda Ozarbayjonning Salyan qasa-basiga qarashli Pirabba qishlog'ida tug'ilgan. Boku Davlat universitetining jurnalistika fakultetini bitirgan, ikki yil mobaynida "Ozarbayjon xotin-qizlari" jurnalida ishlagan, so'ngra Moskvada Maksim Gorkiy nomidagi Jahon adabiyoti universitetida o'qigan. Keyinchalik Ozarbayjon Pedagogika universitetida muallimlik qilgan. 1969 yildan umrining oxirigacha 25 yil davomida Ozarbayjon Milliy Ilmlar akademiyasi tarkibidagi Adabiyot institutida

ishlab, "Urushdan keyingi davrda Ozarbayjon Sovet adabiyotida manzuma turi" mavzusida nomzodlik, "Maqsud Shayxzoda she'riyati va ozarbayjon-o'zbek adabiy aloqalarining dolzARB i masalalari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

1993-1994 yillarda "Gunoy" gazetasi bosh muharirini vazifa-sida faoliyat yuritgan.

Ozarbayjonning mustaqilligi yo'lida olib borgan jo'shqin kurashlari tufayli 1990 yil yanvar oyida qo'lga olinib Moskvaga olib ketilgan, mashhur Lefortovo qamoqxonasiga tashlangan. 22 oydan keyin xalq va Xalil Rizoni himoya qilish qo'mitasining talablari natijasida ozodlikka chiqarilgan. O'g'li Tabriz, Qorabog' uchun kurashda shahid bo'lgan va Ozarbayjon Milliy Qahramoni unvoniga loyiq topilgan (1992).

Xalil Rizo Uluturk 22 iyun 1994 yilda vafot etadi, Bokudagi Mashhurlar qabristoniga ko'milgan, qabri ustida xotira toshi o'rnatilgan. Vafotidan keyin (1995) Istiqlol nishoni bilan taqdirlangan.

"Kitob" nomli ilk she'ri 1948 yilda, "Bahor kelur" nomli ilk kitobi 1957 yilda bosilib chiqqadi. Tirikligida 23 ta original, 8 ta tarjima asar nashr qildiradi. Vafotidan keyin esa 30 original kitobi chop etilgan [6, 644-645]. Ularning bir qismi Rasul Rizo, Akram Ja'far, Baxtiyor Vahobzoda, Suhrob Tohir, Rafiq Zako, Sobir Rustamxonli haqida yozgan kitoblaridan, bir qismi esa arxivda saqlanayotgan she'rlaridan iboratdir. Xalil Rizo talabalik chog'la-ridayoq tartibli ravishda kundalik tutgan. Ular 40-50 jilddan iborat bo'lganligi taxmin qilinadi. Kuni kelib nashr qilinsa adabiyot tariximiz uchun katta va o'ta qiymatli manba rolini o'ynashiga hech qanday shubha yo'q.

Xalil Rizo yoshlik yillardidan beri osiy, so'zini tilidan, ko'zini butoqdan ayirmagan, qo'rquv bilmas bir kishi ekanligini isbot qiladi. Shu bois KGB tomonidan o'xtovsiz ravishda ta'qib qilingan. Faqat adabiyotga kirib kelgan 1948 yildan to 1998 yilgacha 40 yil mobaynida ijodda Ezop tilini qo'llash majburiyatida qoladi. Ozarbayjonning rus mustamlakasi ekanini va bo'linib qolganini senzura nazorati tufayli ochiqchasiga bayon qila olmagani uchun

ahvoli bizga yaqin o'lkalar haqida she'rlar yozgan, haqiqatlarga shu tariqa imo-ishora qilgan. Bo'linib ketgan Vietnam va Koreanning birlashish orzusini, 60- yillarda Afrika o'lkalarining mustamlakachilikka qarshi kurashini qo'llab-quvvatlagan "Afrikaning sasi", "Vatan va o'lim", "Nafratim bor", "Ont ichaman", "Men Sharqman", "Mening she'rim" asarlari bunga misol bo'la oladi [2, 458-465].

Hurriyatga, ozodlikka, mustaqillikka tashna bo'lган, qo'llidagi zanjirlarni sindirish, parcha-parcha qilish, ozodlikni dori-darmon kabi emas, quyosh va samo kabi istagan, orzu qilgan Xalil Rizo Uluturk bor ovozi bilan shunday hayqiradi:

Ozodlikni istamayman  
Zarra zarra, gram gram,  
Qo'llimdagи zanjirlarni  
Sindiraman, sindiraman.

Ozodlikni istamayman  
Dori kabi, darmon kabi,  
Istayurman samo kabi.  
Quyosh kabi, jahon kabi!

1988 yilda Qorabog' voqcalari boshlangan paytda Xalil Rizo Uluturk Bokudagi Ozodlik maydonida bo'lib o'tgan millionlik mitinglarni, namoyish va norozilik chiqishlarini boshqaradi, vatan xoini Ozarbayjon kommunistlarining Moskva oldidagi taslimchi siyosatiga zarba beradi, xalqimizning haq-huquqlarini himoya qilishga urinadi. Fevral 1988 yilda Sumgait shahrida sodir bo'lган provokativ voqelar, hech qanday zarurat yo'q paytida shaharga harbiy qo'shin qismlari, tank va to'plar jo'natilishiga aloqador "Sumgait dostoni" asarini yozadi:

... Qo'lda tros otildi.  
Qurolli bir qo'shinni qatim-qatim taxladi.  
... Rostovning o'limi ne, so'yla, bu yerda, ona?  
Tros uzildi, tushdi, boshqasini ber menga!

... Qani Xon saroyida u eski gilam, xoli?  
Ozarbayjon turkchasi davlat tili bo'ldi!

Moskva, G'arb mamlakatlari, rasmiy Sovet matbuoti, hatto o'zlarini butun dunyoga demokrat deb tanishtirgan rus ziyolilari ham qasddan va ongli ravishda faqat diniy tuyg'ularidan kelib chiqib armanlarni qo'llab-quvvatlagan, Ozarbayjonning infomatsion qamaliga olingen paytda Xalil Rizo Uluturk xalqiga ma'-naviy dastak bo'ldi, uning ruhi tushishiga yo'l qo'ymadidi. Bokuda uzoq muddat davomida amalda bo'lgan ko'chaga chiqish ta'qiqi, favqulodda holat va mudhish tazyiqlarga aloqador "Davom etar 37" asarini yozdi. 1937 yilda sobiq Sovet Ittifoqida, xususan, Ozarbayjonda yuz bergen mudhish qatlomiga imo qilgan shoir ushbu sananing va qirg'in-barot takror qaytalandi deb hayqiradi. Asarning asl mohiyati va naqorati shu ikki misrada jo bo'lgan:

Davom etar 37,  
Qo'rqinchliroq, yanada jiddiy!

Xalil Rizo Uluturk mashhur tarjimon hamdir. Dunyo va turkiy xalqlar adabiyotidan son-sanoqsiz tarjimalar qilgan. Ularning bir qismi "Dunyoga ochilgan deraza" nomli kitobida joy olgan [10].

Mammad Aras 14 oktabr 1933 yilda Naxchivonning Shohbuz qasabasiga qarashli Nurs qishlog'ida tug'ilgan. 1945 yilda otasi to'satdan "xalq dushmani" deb e'lon qilinib, Sibirga surgun qilinadi. 1955 yilda oqlanib, qaytib keladi. Mammad Aras maktabni bitirgach, Bokuda Pedagogika institutining geografiya fakultetida o'qiydi (1950-1954). Ikki yil davomida o'z qishlog'ida dars bergach. Bokuga kelib Matbuot bosh mudirligida faoliyat yuritgan, keyinchalik Moskvada Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institutida tahsil olgan. Keyinroq Bokuda "Maorif" va "Ozarnashr" nashriyotida, "Yulduz" jurnalida ishlaydi. 1970 yildan "Adabiyot va inja san'at" gazetasida bosh muharrir yordamchisi qilib tayinlanadi. 1972 yilda Narimon Narimonovning 100 yillik yubileyi munosabati bilan tayyorlangan maxsus sondagi

maqolasi tufayli millatchilikda ayblanib, ishdan haydaladi. 1973 yilda "Ozarnashr" nashriyotida ishlaydi, 1974 yilda yangi nashr bo'lmish "Ozarbayjon tabiat" jurnalida bosh muharrir etib tayinlangach, umrining oxirigacha shu jurnalda faoliyat yuritadi.

1971-1981 yillar orasida Ozarayjon Yozuvchilar Uyushmasi she'riyat bo'limining boshlig'i bo'lган paytida yosh shoirlarning yetishib chiqishiga katta hissa qo'shamdi. 1982 yilda "Dunyo sening, dunyo mening" nomli she'riy kitobi Ozarbayjon Davlat mukofotiga, faqat mukofotni ololmaydi. 1988 yilda "Ozarbayjon" va "Yulduz" jurnallarida chop qilingan she'rlari uchun Ozarbayjon Davlat mukofotiga loyiq topiladi. 1991 yilda Ozarbayjon Xalq shoiri unvonini, 1995 yilda Ozarbayjonning eng yuqori davlat mukofoti – "Istiqlol" nishonini oladi [6. 599].

Moskva va Bokuda bir qator kitoblari ruscha, Tbilissida gruzinchalari, bitta kitobi esa fransuz tilida Bokuda nashr qilingan. Turkiyada va Tabrizda bir donadan kitobi chop etilgan bo'lib, jami 40 ta kitobi nashr yuzini ko'rgan. 2003 yilda tanlangan asarlari ning 4 jiddligi, 2004 yilda 2 jiddligi chop etilgan.

Mammad Aras 1 dekabr 2004 yilda bu foni dunyo bilan xayrashdi, Mashhurlar qabristoniga ko'mildi, Bokudagi ko'chalardan biriga nomi qo'yildi.

Shoir M. Lermontov, N. Nekrasov, T. Shevchenko, S. Mikhalkov, M. Svetlov, Abay, Q. Quliyev, M. Karim va boshqa shoirlarning asarlarini ona tilimizga o'girgan va ularni 5 ta kitobida jamlagan.

Mammad Aras ijodining mavzulari farqli va boshqachadir: birinchi o'rinda Ozarbayjon, ushbu yurtni ikkiga ayirgan Aras daryosi turadi. Keyingi o'rinda ishq va yor keladi. Dunyo va tog'lar keladi, tog'lardagi cho'ponlar keladi, qoya, tuman keladi, soy, irmoq, dengiz keladi. Hayot va o'lim haqidagi fikrlar keladi. Boshqa narsalar keladi...

Mammad Araschalik Ozarbayjonga va Arasga original, tengsiz, samimiyy his-tuyg'ularini bag'ishlagan shoir oz. "Menden o'tdi, qardoshimga tegdi", "Ozarbayjon – dunyom mening", "Ona yurtim", "Mening yurtim", "Vatan menga o'g'il desa",

“Aras ustida chinor ko’rdim”, “Aras tili”, “Bu kecha tushimda Arasni ko’rdim” she’rlari bunga eng go’zal namuna bo’la oladi:

Ozarbayjon – qoyalarda bitgan chechak.  
Ozarbayjon – chechaklarning ichida qoya.  
Mening ko’nglim bu tuproqni vasf aylayajak.  
Ozarbayjon dunyosidan boqar dunyoga...

Yoki:

Vatan menga o’g’il desa ne derdim,  
Pechak bo’lib qoyasida bitardim.

“Muhabbat ko’prigimiz”, “Qayerdasan?”, “Afsus”, “Otliq qizning biri pari”, “Sen meni sevsayding”, “Bir kun edi”, “O’sha bir kun”, “Ishqimning mavsumlari”, “Ne bilay”, “Qochma mendan”, “Unut meni” singari his-tuyg’ularga to’la samirmiy she’rlar faqat va faqat Mammad Arasning qalamidan to’kilishi mumkin edi.

Dunyo haqida teran falsafiy fikrlarni o’z ichiga olgan “Dunyo go’zal dunyodir”, Qo’ring dunyoni”, “Dunyo seniki, dunyo meniki”, “Men bu dunyoning nimasidan arazlayman”, “Salomat bo’l va boshqa she’rlari Mammad Arasning ayni paytda faylasuf va mutafakkir bo’lganidan darak beradi.

Tog’larga atab yozgan “Ulug’ tog”, “Tog’lar”, “Tog’larga qor tushdi”, “Bir toqqa ochiq xat”, “Tog’lar arazlagan”, “Turnalari qaytmas bo’ldi tog’larning”, “Tog’ qo’pti o’rnidan”, “Tog’lar meni tanimadi” she’rlari, tog’lar farzandi cho’ponga atab bitgan “Cho’pon churagi, cho’pon yuragi”, “Cho’pon nag’masi”, “Cho’pon sahari” va hokazolar mas’umligi bilan insonni hayratlarga soladi.

Shoirning qoyalarga xitob qilib qalamga olgan “Yig’lagan qoyalar”, “Qanotli qoyalar”, “Inson qoyalar”, “Eshimgeldi qoyasi”, “Qoyalarga atab yozilgan sas”, “Qizil qoya”, “Mammad Aras qoyasi” kabi she’rlari tabiiatdan ta’sir olgan muayyan bir ijodga va tabiat bilan hamnafas yashagan ijodkorga xos lirik hikoyalardir.

Soy, daryo va dengiz mavzusi ham Mammad Arasga begona emas. "Soy oqayotir", "Tog' soyi", "Arpachoy nag'masi", "Kechir dengiz", "Dengiz o'sha dengiz edi", "Qora dengiz qo'shig'i" kabi she'rlarida shoir yurtning tabiatini tarannum etadi.

Shoir hayot va o'lim haqida yozgan she'rlarida ham (masalan, "Bir umr yo'lida", "Men yo'llarda o'lajakman", "O'lim qo'rkar qalamimdan", "Do'stlar qazsin mozorimni", "Haqqing yo'qdir, haqqing bor" va h.k.) she'rlarida biror faylasuf sifatida qarshimizga chiqadi.

Xullas, 1980- yillarda Ozarbayjon she'riyatining juda tez rivojlangani, o'nlab iste'dodli shoirlarning bunga o'z hissasini qo'shganini aytish mumkin.

### Foydalilanilgan adabiyotlar

1. Ali Tude. Geç Kalmış Visal. – B.: Yazıcı, 1988. – 256 s.
2. Azerbaycan Edebiyati Tarihi: 3 ciltte. XX. esrin evvellerinden 1970-ci ile qeder. II. cilt / Cildin red.: A. Sultanh, E. Mir Ehmedov, K. Talibzade. – B.: Azerbaycan SSR EA, 1980. – 908 s.
3. Azerbaycan Filoloji Fikri: Dünen, Bugün, Sabah / Elmi konfransın tezisleri. Red.: N.Q.Ceferov, M.M.Memmedov. – B.: Bakü Universiteti, 2001. – 83 s.
4. Azerbaycan Sovet Edebiyati Tarihi. I. Cilt. - B.: Azerbaycan Elmler Akademiyasi Neşriyatı, 1967. – 640 s.
5. Azerbaycan Sovet Edebiyati. – B.: Maarif, 1988. – 542
6. Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyillikta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). – B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
7. Bahtiyar Vahapzade. Seçilmiş Eserleri. 12 ciltte. I-XII. ciltler. – B.: Elm, 2008.
8. Cabir Nevruz. Seçilmiş Eserleri. I. Cilt. – B.: Yazıcı, 1982. – 336 s.
9. Cabir Nevruz. Seçilmiş Eserleri. II. Cilt. – B.: Yazıcı, 1983. – 245 s.
10. Halil Riza Ulutürk. Dünyaya Pencere. – B.: Çinar-Çap, 2010. – 1.152 s.

11. Hükume Billuri. Seçilmiş Eserleri. – B.: Azerneşr, 1986. – 343 s.
12. Fikret Koca. Seçilmiş Eserleri. – B.: Azerneşr, 1988. – 374 s.
13. Fikret Sadık. Dünya Kendi İşindedir. – B.: Yazıcı, 1989. – 182 s.
14. Kabil. Seçilmiş Eserleri. – B.: Azerneşr, 1988. – 335 s.
15. Medine Gülgün. Seçilmiş Eserleri. – B.: Azerneşr, 1986. – 303 s.
16. Memmed Aslan. Ömrün Yarı Yaşında. – B. Yazıcı, 1946. – 275 s.
17. Memmed Araz. Seçilmiş Eserleri. – B.: Halk Bank, 2010. – 656 s.
18. Memmed Ismail. Seçilmiş Eserleri. – B.: Azerneşr, 1993. – 302 s.
19. Mirvarid Dilbazi. Kar Çiçekleri. – B.: Gençlik, 1984. – 280 s.
20. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. I Cilt. – B.: Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 504 s.
22. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. II Cilt. – B.: Bakü Üniversitesi Neşriyatı, 2007. – 564 s.
23. Osman Sarıvelli. Seçilmiş Eserleri. I. cilt. – B.: Azerneşr, 1986. – 448.
24. Osman Sarıvelli. Seçilmiş Eserleri. II. cilt. – B.: Azerneşr, 1986. – 445.
25. Resul Rıza. Seçilmiş Şiirler. Çeviren: İmdat Avşar. – Ankara, 2010. – 256 s.
26. Resul Rıza. Seçilmiş Eserler. 5 ciltte. I-V Ciltler. – B.: 1980-1981.
27. Rzayev Yaşar. Milli Azatlık Şuurunun Formalaşmasında Azerbaycan Edebiyatının Rolü. Fil. elm... diss. avtoref. – B.: 2006. – 26 s.
28. Süleyman Rüstem. Seçilmiş Eserleri. 6 ciltte. I-VI Ciltler. – B.: 1983-1986.

## 80- YILLAR NASRI

XX asr Ozarbayjon adabiyoti mavzu, tur va asarlari jihatidan o'ta darajada boydir. Bu asrda ikkita jahon urushi, fuqarolar urushi, inqilob va to'ntarishlar yuz berdi, fojeaviy voqealar bo'lib o'tdi, yoppasiga surgunlar va qirg'in-barotlar sodir bo'ldi. XX asrda kapitalizmdan sotsializmga va sotsializmdan kapitalizmga o'tildi. Tabiiy ravishda Ozarbayjon xalqi va adabiyoti ham bundan o'z nasibasini oldi, hech bir davrda eshitilmagan, ko'rilmagan, tanish bo'limgan ijtimoiy-siyosiy va adabiy-badiiy voqealarga, atamalarga duch kelindi. Masalan, partiya, kommunist, bolshevik, proletar, Sovet, NKVD, kolxoz, sanoatlashuv, madaniy inqilob, troyka, yozuvchilar uyushmasi, roman, povest, poema, kritika va hokazolar.

Adabiyot hayotning sahnasi bo'lgani uchun voqealar va insonni badiiy shaklda aks ettiradi. Bu normal bir narsa. Normal bo'limgani buni "shu-shu parametrlar orasiga ol va bu-bu shaklda aks ettir" deya adabiyotga siyosiy, ideologik va badiiy ramkaga joylashtirishdir. Sovet Ittifoqiga xos bo'lgan bu xususiyat total shaklda va zo'rma-zo'raki o'laroq amalga oshirildi. Ozarbayjon adabiyoti qariyb 70 yil Sho'rolar adabiyotining bir parchasi bo'lgani uchun bu ahvoldan yetarlicha, hatto ortig'i bilan ta'sirlandi.

1920 yilda Ozarbayjon istilo qilinib sovetlashtirilishi ayni paytda ma'naviyatning, madaniyatning, shu jumladan, adabiyotning ishg'ol etilishi va ideologiyalashtirilishi degani edi. Shu sanadan e'tiboran har sohada doimiy bosim va zug'um, hatto q'pollik va zo'ravonlik hokim bo'ldi.

XIX asrda tug'ilgan, Sovet hokimiyatigacha 54 yoshni ortda qodirgan mashhur nosir Sulton Majid G'anizoda (1866-1942) yoki Ozarbayjon sovetlashtirilganda aynan 40 yoshga qadam qo'ygan mashhur Abdulla Shoiq (1881-1959) bo'lsin, yoxud XX asr yozuvchilari Sulaymon Rahimova (1900-1983) yoki Ali Valiyev (1901-1983) bo'lsin, hech qanday farqli jihatsiz barchasi Sovet davrida bir xil ramka ichida mahsulot berishgan.

Sovet adabiyoti doktrinasiga qarshi tura olmasligi tushunib yetgan Sulton Majid G'anizoda 1922 yilda "Lug'ati rusiy va turkiy", 1924 yilda "Sufi Shaydo" kitoblarini nashr qildirgandan keyin yozishni tashlagan bo'lsa-da, 1937 yilda qo'lga olinib surgunga yuboriladi [5, 867-868]. Abdulla Shoiq esa 1920 yildan keyin asosan bolalar adabiyoti sohasida ijod qilgan, manzum bolalar pyesalari yozgan, o'qituvchilik qilgan, tarjima bilan shug'ullan-gan. "Aras" romani, "Qo'ch Po'lat" va "Hasay" nomli asarlarini 1937 yilda tazyiqlari biroz sovugandan keyin yozgan. Masalaning qiziq tomoni, Abdulla Shoiq 10 yil davomida SSSR parlamentiga (1946-1956) deputat qilib saylangan [5, 25-26].

Sulaymon Rahimov turli yillarda uch marotaba Yozuvchilar Uyushmasi rahbari bo'lgan, ba'zi tumanlarda kommunistik partiya kotibligi vazifalarida bo'lган. Ozarbayjon adabiyotining hajm jihatidan eng katta asari bo'lgan "Shamo" (4 jild), "Kavkaz bur-gutii" (3 jild), "Sochli" (3 jild), "Oqbuloq tog'larida" (3 jild), "Ona obidasi" romanlarini, "Mehmon" povesti va ko'plab miqdorda hi-koyalar yozdi. 1968-1981 yilar orasida tanlangan asarlarining 10 jildi nashr qilingan [5, 871-872]. Ancha chigal, mahalliy sheva ustuvor, qiyin o'qiladigan va zo'rg'a tushuniladigan bir til uslubi qo'llagan. Tabiat tasvirlari juda uzun va zerikarli. Faqat qishloq hayotini tasvirlash va tipik obrazlar yaratishda uning o'xshashi yo'qdir. 50 yoshida Ozarbayjon Xalq yozuvchisi, 75 yoshida Sotsialist Mehnat Qahramoni unvonini olgan.

Ali Valiyev ham ayni sifat va saviyadagi bir yozuvchidir [7, 64-73]. U ham ba'zi tumanlarda partiya ma'muri vazifalarida ish-lagan, ayrim gazetalarning, shu jumladan, "Kommunist" gazeta-sining bosh muharriri sifatida faoliyat yuritgan, hatto bir muddat deputat qilib saylangan. Uning "Qahramon", "Chechakli", "Qalb do'stlari", "Turachliga eltuvchi yo'l", avtobiografik "Butoqning xotiralari" romanlarida, ba'zi povestlari va hikoyalarda asosan qishloq hayoti va kolxozi mavzusi, qishloqliklar va mulkdor boy-lar orasida kechgan kurash tasvirlangan. Tanlangan asarlarining 6 jildi bosilib chiqqan [5, 119]. Har ikkala yozuvchi sotsialistik realizm usuliga qattiy ravishda amal qilganlar.

Abulhasan (1904-1986) Ozarbayjon adabiyoti tarixida ilk sovet romanining muallifi sifatida joy oldi. 1933 yilda "Jarliklar" va "Dunyo o'midan qo'zg'olayotir" nomli romanlari nashr qilin-gan. Umumiy mavzusi qishloq hayoti va kolxozdir. Sotsialistik realizmga to'laqonli mos tushishi uchun asarlari ustida bir necha bor qaytadan o'tirgan, tanqidchilar tomonidan ko'rsatilgan kamc-hiliklarni to'g'rilaqan. Keyinroq "Do'stlik qal'asi" (4 jild) va "Sa-doqat" romanlarini, bir qator povest ("Tomosha kampirning ne-varalari", "Ters odamlar", "Uyalchan") va ko'p miqdorda hiko-yalar yozdi, 1984 yilda tanlangan asarlarining 3 jildi bosilib chiq-di [5, 224].

Bayram Bayramov (1918-1940, 80- yillargacha yozgan asar-larini 1984 yilda tanlangan asarlarining 3 jildida jamlagan [5, 119]. Unda "Yaproqlar", "Uning ko'zları", "Xazina", "Baloli sevgim", "Uzilishlar" kabi romanlari, ba'zi povestlari o'rinn olgan. Ushbu asarlarda adabiy masala oila va do'stlik mavzusidadir. Satrlar orasida ayrim imo-ishoralar uchraydi. "Ishchi birodar" asari butunlay sotsialistik realizm doirasida yozilgan. Eng go'zal asari hisoblanuvchi "Karvon yo'li" (2 jild) romanini 1986 yilda yozib tugatadi. Bu asarda arxiv materiallari va xotiralarga asosla-nib buyuk yozuvchimiz Mirza Jalil va uning ayoli Hamida xo-nimning hayotini g'oyat go'zal bir tarzda tasvirlab bera olgan. Bayram Bayramov bir muddat deputat qilib saylangan [7, 73-85].

XX asr Ozarbayjon adabiyotida ayol nosirlar ham son jihat-dan ko'p bo'lsa-da, ijod olamiga 30-40 yillarda kirib kelganlari ozchilikni tashkil etadi. Ular orasida faqatgina Xolida Hosilova (1920-1996), Aziza Ja'farzoda (1921-2003), Alaviya Boboyeva (1921-2013) va Aziza Turkon (1932-2003) sermahsul ijod qilish-gan. Partiyaga yaqin tashkilotlarda, jurnal va nashriyotlarda ish-laganliklari sababli oz miqdorda roman, povest va hikoya yozgan, ko'plab tarjimalar amalga oshirgan boshqa hamkasblaridan farqli o'laroq Aziza Ja'farzoda adabiyotda va milliy shuurda teran iz qoldirgan.

"Azroil" nomli ilk hikoyasini 1937 yilda 16 yoshida yozgan adibaning 1948 yilning may oyida "Hikoyalar" nomli kitobi nashr

qilinadi, faqat sotishga chiqarilmasdan yoqib yuborildi. Kitobning signal varianti to'g'risida yozuvchi va munaqqid Jalol Mamadov "Ozarbayjon yoshlari" gazetasining 11 iyun sonida o'z fikrlarini bildirib maqola e'lon qiladi. Mana shu maqola tufayli butun boshli kitobning butun tirajlari yoqiladi, Aziza Ja'farzoda o'z asarining hatto muqovasini ham ko'ra olmaydi. Xo'sh, sabab nimada? Sababi juda katta va chuqur ekan. 1948 yilda shonli Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi Markaziy qo'mitasi "Zvezda" va "Leningrad" jurnallari qaror chiqargan edi. Ushbu jurnallarda ayniqsa Anna Axmatova va yozuvchi Mixail Zoshchenkoning Sho'ro haqiqatini aks ettirmagan, Sovet insonining buyuk xarakterini buzib ko'rsatgan zararli maqolalari chop etilgani tanqid qilingandi. O'quvchilar uchun qiziqarli bo'lishini o'ylab Mixail Zoshchenkoning tanqidga uchragan bitta hikoyasining mazmuni ni berib o'tamiz.

Bir musiqiy kechada yosh bir talaba chiroyli kiyangan go'zal bir qiz bilan tanishadi. Yoshlar bir-birlarini juda yoqtiradilar, qat-tiq quchishgan holda raqsga tushadilar. O'rtalarida ko'ngil rishtalari bog'langan edi go'yo. Konsert bitgach, yoshlar romantik bir muhitda sayr qilgani chiqishadi. She'r, qo'shiq aytib ketishar ekan, kimsasiz bir ko'chada bir necha bezori ularning oldini kesib chiqishadi. Ular quroq uqtalib, yosh yigitdan kostyumini yechib berishni so'rashadi. Yigit e'tiroz bildirib: "Nahotki sizlarda hech qanday insof yo'q? Hech qanday mardlik yo'q?" Bu sovuq havoda qizning qimmataho paltosiga tegmasdan bechora va kambag'al bir talabaning bittagina va eski kostyumini olib nima qilasizlar?"

Mana shu hikoya partiyaga yoqmagan edi. Partiya nimani yoqtirmagan edi? Partiyaga ko'ra, yigit bezorilarga propaganda qilgan holda odamlami tunash to'g'ri ish bo'lmasligiga ularni is-hontirishi kerak edi? Bu ish bermagan taqdirda o'z kostyumi va qizning paltosini oldirib qo'ymaslik uchun janjallahishi kerak edimi? Xo'p, janjal paytida qon suv kabi oqsa nima bo'lardi? Normal mantiqdan kelib chiqib partianing fikrini tushunish qiyin, hatto imkonli yo'q; faqat sotsialistik realizm usuliga ko'ra,

partiyaning fikri kunday aniq. Sotsialistik realizm usulining muhim bir g'oyasi tipiklashtirish va umumlashtirish emasmidi? Ha. Unday bo'lsa Zoshchenko ushu yigit timsolida butun sovet yoshlaringin tipik va umum suratini yaratmagan edimi? Yuksak ahloqli va sof ma'naviyatli sovet yoshlari ushu ovsar o'smir singari emasligidan kelib chiqilsa Zoshchenko va uning asari qat'iy ravishda tanqid qilinishi lozim edi.

Xo'sh shunday ekan, Aziza Ja'farzodaning bunda aybi nim? Uning aybi ham hech qanday yengil ayb emasdi. Ustiga ustak, bir marotaba 1945 yilda uni arab alifbosida nashr qilingan romanni o'qiyotganida ushlab olgandilar. Bu qanday badkirdorlik, bunga qanday qarab turish mumkin? Arab alifbosi 1928 yilda ta'qıqlangan emasmidi? Bundan tashqari, Ozarbayjon madaniy inqilob doirasida butun Sharqda ilk bor boshi tik holda, viqor bilan lotin alifbosiga, keyinroq esa go'zal krill alifbosiga o'tmagan edimi?! Endi bo'lsa, bu o'zidan bexabar qiz haligacha arab alifbosidagi kitob o'qishda davom etayotir? Bu balki kechirilishi mumkin: "hali yosh, johil, o'qigan bo'lishi mumkin" deb qo'ya qolinardi, ammo kelib-kelib u o'qigan kitob turkcha roman edi. Boz ustiga "Otaturk"ning ishqiy hayotiga bag'ishlangan edi! Shundan kelib chiqib, Aziza Ja'farzodani haqli ravishda Boku Davlat universitetining birinchi kursidan haydagan edilar. Xo'sh, bu voqeanning yoqilgan kitobga qanday aloqasi bor edi? Curishti-rib bilishsa, unga xuddi Axmatova singari salon (saroy) lirikasi usulida yozgan deb ayb qo'yishgandi [7, 86]. Butunlay yolg'on. Birinchidan, Axmatova she'r, Ja'farzoda hikoya yozar edi. Ikkincidan, Bokuda, Ozarbayjonda go'yo salon bor edi, kiborlar jamiyatni mayjud edi-yu. Aziza Ja'farzoda ularga lirik asarlar yozgan edimi? Bunday yolg'on hech bir joyda ko'rilmagan bo'lsa kerak.

Biz yoqilgan kitob bilan buning aloqadorligidan yaxshigina xabardormiz: Moskvadagilar tirnoq olsalar, Moskvaga xush ko'rinish uchun Ozarbayjon kommunistlari doimo barmoq kesgan edilar; Moskvadagilar soch olsalar, Bokudagilar kalla kesgan edilar! Aziza Ja'farzoda voqeasi ham shunday: siz biror hikoyani

tanqid qildingizmi, biz butun boshli bir kitobni yoqamiz! Nukta-don bir Sharq latifasida shunday deyilgan: Bir quyon o'rnonda yugurib ketayotganmish. To'xtatib sababini so'rashibdi. Kimning uchta qulog'i bo'lsa, kesishayotibdi" deb javob bergenmish. "Sen qo'rqma va qochma, sening ikkita qulog'ing bor" deyishibdi. Qu-yon javob beribdi: "Men-ku bilaman, bular avval kesishadi. keyin sanashadi".

Aziza Ja'farzoda 15 yil kutib, faqatgina 1963 yilda ilk kito-bini nashr qildira oladi. Yosh bir yozuvchining hayotida 15 yil nima degani? Tabiiyki, Aziza xonim qo'ldan chiqarib yuborgan yillarni tezda bartaraf qilib, to'rtta hikoyalar kitobidan keyin ket-ma-ket "Olamda sasim bor mening" (ikki jild, klassik shoirimiz Said Azim Shirvoni haqida), "Vatanga qayt" (shoir Nishot Shirvoni haqida), "Xotirla meni" (mashhur shoir Abbas Sihhat haqida), "Boku – 1501" (Safaviylar davri va Shoh Ismoil Xatayi haqida), "Yig'lar kulag'on Sobir" (buyuk hajv ustasi Mirza Akbar Akbar Sobir haqida) kabi tarixiy mavzularda bir-biridan qiymatli roman va povestlar yozadi [5, 322].

Millatparvar va uddaburon ziyoli Aziza Ja'farzoda adabiyot tarixchisi, o'qituvchi, professor sifatida ba'zi shoirlarni, xususan, ayol shoiralarni xalqimizga taniitan. Uning qalamiga mansub "Fotima xonim Kamina", "Ozarbayjonning oshiqlari va shoira ayollari" (ikki jild), "Shirvonning uch shoiri", "Har butoqdan bir yap-roq", "Ozarbayjon poeziyasida xalq she'riy uslubi" nomli kitoblarini bunga namuna sifatida keltirish mumkin.

Mashhur yozuvchilardan biri prof. Gulhusayn Husayno'g'li (1923), Vidodiy Bobonli (1926) va prof. Jengiz Husaynov (1929) adabiyotimizga bir-biridan go'zal asarlar tuhfa qilishgan. Boku Davlat universiteti professor-o'qituvchisi Gulhusayn Husayno'g'li inja hikoyalar va lirik, ravon mansur she'rlar muallifi sifatida tanilgan. Uning "Mujri" nomli she'ri yod olingan. Baxtli va faraxli yillarda mujri (quti) doimiy ravishda ochiladi va unga javohirlar, tillaqosh, sirg'a, uzuk, bilaguzuk... solinadi. So'ngra yomon kunlar keladi va mujri qayta ochiladi va ehtiyojga ko'ra qayta-qayta javohirlar chiqarila boshlaydi. Bolalar ulg'ayishadi,

mujri yana ochiladi, o'qish xarajatlari uchun undan bir narsalar chiqarib olinadi. Mujri yana ochiladi, bu navbat endi unga javohirlar emas, universitet diplomlari solinadi [5, 322; 7, 112-117].

Yozuvchi Vidodiy Bobon adabiyotga she'r bilan kirib kelgan. So'ngra nasrga o'tgan, ishchi sinf hayotini yaqindan o'tganimish va yozish uchun ishchilar yotoqxonasida, keyinchalik kim-yoviy tadqiqotlar markazida ishlagan, "Hayot bizni sinayotir" va "Vijdon jim bo'lganda" kabi asarlarini qalamga olgan [5, 979]. Adabiy tanqid unga qarshi ishlaydi, "Sovet insonining vijdoni aslo jim turmaydi, dunyoning eng vijdonli insonlari bizning jamiyatimizdadir" deya komunistlarga xos siyosiy tergash usulidan borishadi [7, 117-121].

Jengiz Husaynov o'z asarlarini ruscha yozadi. Uzoq yillar davomida Moskvada Sovet Ittifoqi Yozuvchilar Uyushmasida, Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiya qoshidagi Ijtimoiy Fanlar Akademiyasining sotsialistik madaniyat bo'limida ishlaydi [5, 168]. Rasmiy Sho'ro madaniyati va adabiyotini juda yaxshi bilgan bir yozuvchidir. Eng mashhur asari ruscha yozilgan va o'zi tomonidan ozarbayjonchaga ham tarjima qilingan "Fath Ali Fathiy" nomli romanidir. Bu asarda mutafakkir, faylasuf, drama yozuvchisi Mirza Fathali Oxundovning qiziqarli hayot hikoyasi tilga olingan [7, 107-112].

XX asrning 80- yillarida Ozarbayjon nasriga o'z muhrini bosgan eng yaxshi yozuvchilarimiz orasida Mirza Ibrohimov (1911-1993), Ismoil Shixli (1919-1995), Iso Mug'anna (dastlabki taxallusi Husaynov, 1928), Sobir Ahmadli (Ahmedov: 1930-2013), Anor (1938), Elchin (1943), Akram Eylisli (1937) va Mavlid Sulaymonli (1943) kabilarni keltirishimiz mumkin.

Mirza Ibrohimov 1984 yilda eng yaxshi asarlaridan biri "Parvona" romanini yozadi [5, 650]. Romandagi markaziy figura noyob tarixiy shaxs, inqilobchi, yozuvchi, doktor Narimon Narimonovdir. Faqat asardagi Narimonov bilan haqiqiy Narimonov orasida anchagina tafovutlar bor. Haqiqiy Narimonov Marksizm-Leninizm ta'limotiga chin yurakdan ishongan, keyinchalik aldangani bilib qolgan, orqaga qaytishga fursat topolmasdan (aslida

bunga imkon va vaqt yo'q edi) xuddi Sulton Galiyev misolida bo'lganidek Kremlning fitnalari qurboni bo'lgan. Mirza Ibrohimov ishning asl mohiyatini bilsa-da, asarining shu qismini zaif tasvirlagan. Avvalo, umr bo'yи Kommunistik Partiyaning nonini yegan bir kishi sifatida partianing kirdikorlarini fosh qilishga ko'ngli bo'limgan. Ikkinchidan, haqiqatni yozib, Sho'rolarning Chor Rossiyasidan hech qanday farqi yo'qligini, mustamlaka tizimining aynan va yanada yomon holatda davom etganini. Lenin va Stalin tomonidan armanlarning boshimiz ustiga o'tirg'izib qo'yilganini ham ochiqchasiga, hamda badiiy so'zning barcha kuchini ishga solish kerak bo'lardi. Bu esa xalqlar do'stligi g'oya-siga qattiq bog'langan ozarbayjon xalqining miyasida muhim savollar uyg'otishi mumkin edi. Asar yozilgan paytda "qayta qu-rish" va "oshkoraliq" hali kuchaymagan edi, Mirza Ibrohimov 90-yillarda ma'naviy sabablar tufayli, balki sog'ligi munosabati bilan asar ustidan qayta ishlash zaruriyati his qilmagandir, ehtimol.

80- yillarda Ismoil Shixli ham juda oz original mahsulot yozib qoldirdi. 1968 yilda yozib tugallangan "Telba Kur" romani ikki marta qaytadan nashr qilindi va tanlangan asarlarining ikki jildi chop etildi [5, 498]. 1981-1987 yillarda Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi bosh kotibligi va Sovet Ittifoqi Yozuvchilar Uyushmasi kotibligi vazifalarida ishlagan, qisqa bir vaqtida bu mamlakatning parchalanib ketganiga guvoh bo'ldi va buni o'z asarlarida ko'rsatib bera oldi. Oradan bir necha yil o'tgandan keyin uning yozganlari amalga oshdi. "Telba Kur" romanida yaratgan Jahondor og'a obrazi XX asr adabiyotimizda eng sevillgan obrazlardan biridir. Bu yerda yozuvchi sinfiylik bilan milliylikni bir orada ko'rsata olgan, bitta oila timsolida muayyan bir xalqning toleini tasvirlab bergen [7, 158-160]. Adabiy davralarda ushbu romanning mashhur rus yozuvchisi Mixail Sholoxovning "Tinch Don" asarining ta'siri ostida yozilgani to'g'risida qarashlar yoyilgan. Faqat har ikkla asar ham originaldir, bizniki, yuz foiz biznikidir.

Bir qator mashhur yozuvchilarimiz adabiyot bilan siyosatni bir orada olib borib, Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi boshqaruvidagi vazifalarda ishlashdi, ba'zilari partiya ma'muri bo'ldi, vazir va deputat qilib saylanishdi. Faqat Iso Mug'anna doimo yolg'iz adabiyotchi bo'lib qolaverdi. Iso Mug'annani Ozarbayjonning Chingiz Aytmatovi deya olamiz. Millatparvar ruh bilan tarixiylik, epik jihat bilan teran psixologiya uning ijodiga xos bo'lgan asosiy xususiyatdir.

Iso Mug'anna maktab ta'limidan keyin 1945 yilda tibbiyot fakultetiga o'qishga kirgan, bir semestr o'qigan, so'ngra esa hakim bo'lishdan voz kechgan, 1946 yilda adabiyot fakultetiga o'qishga kirib, to'rtinchı kursda Moskvadagi Maksim Gorkiy nomidagi Adabiyot institida o'qishini davom ettirgan, oliy tahsilini o'sha yerda tugatgan, Ozarnashr matbaasida, "Literaturniy Azerbaydjan" jurnalida, Ozarbayjon studiyasida, kinomatografiya qo'mitasida faoliyat yuritgan [5, 481].

Iso Mug'anna "Mahshar", "Ideal", "Jahannam" va "Qabriston" romanlarining muallifidir. Ushbu asarlar orasida "Mahshar" va "Ideal" muhim o'rinn tutadi. XIV – XV asr voqealarini, Amir Temurning Kavkazga, Onado'liga, Yaqin Sharqqa yurishlari, Xurufiylik ta'limoti, Said Imomiddin Nasimiyy va uning ustozasi Fazlulloh Noimiyyning hayoti, ijodi, g'avg'oli umri va fojaviy taqdiri "Mahshar"ning asos detallarini tashkil qiladi. Asar shu qadar murakkab va ziddiyatli, shu qadar ko'p tabaqalidirki, adabiyot tanqidchilik unga "romani tadqiqot" laqabini taqishgan [7, 146-147]. Shemaxi, Naxchivon, Tabriz, Damashq, Bayt-ul muqaddasidagi "Mahshar" irmog'i, Amir Temur va o'g'li Mironshoh, Ozarbayjon hukmdori Ibrohimshoh, ustozasi Noimiyy, sevgilisi husni komil Fotima kabi o'nlab tarixiy va to'qima shaxslar, makon, tez, bosh do'ndiruvchi voqealar, kutilmagan voqealar rivoji va boshqa asarlari qo'ldan-qo'lga o'tib o'qiladigan adabiyotga aylangan.

"Ideal" yozuvchining ikkinchi tarixiy romanidir. Aslida bu asarda haqiqiy bir tarix emas, noma'lumi bir tarix bahs mavzusidir. 1960 yilda Iso Mug'anna "Yonar yurak" nomli romanini kitobxonlarga taqdim qilgandi. Bir muddat o'tgach, bu asarini qayta

ishlab "Ideal" nomi ostida 1985 yilda nashr qildiradi. Asarda Ozarbayjonning chegara qismida nomi qo'yilmagan bir tumanda Kommunistik partiyasi raisi Sulton Amirli va jiyanolari, Mir G'azab – Stalinning yaqin ish do'sti, 1956 yilgacha Ozarbayjon Kommunistik partiyasining boshlig'i Mir Ja'far Bag'irovning badiiy ismi), tarixchi Midiy (Kavkazda, shu jumladan, Ozarbayjonda turklar emas, eroni yalqlar qadimgi va mahalliy ekanligini isbotlashga harakat qilgan, Moskvaning buyurtmasi bilan siyosiy tarix yozgan prof. Iqror Aliyevning badiiy ismi), mashhur faylasuf Haydar Husaynov ("Shayx Shomil" monografiyasini uchun Stalin mukofotiga loyiq topilgan. Mir Ja'farning aralashuvi bilan tarixda ilk va oxirgi marotaba mukofoti bekor qilinib, qaytib olin-gan, shu bois 1950 yilda tomirini kesib o'z joniga qasd qilgan) va ayrim kishilar qo'rqinchli va yashirin bir muhitda, maxfiy xizmat xodimlarining hamma joyni ag'dar-to'ntar qilib yurgan har bir shahar, har bir qishloq, har bir ovulda, har bir qasabada, har bir ko'chada, har bir oilada chaqimchilik avj olgan, har bir tanob yerda necha-necha josuslar kezib yurgan bir pallada kurash olib borishadi. Tabiiyki, bu kurashda har kimning o'z maqsadi bor edi. Sulton Amirli to Zardusht davridan xabar beruvchi, qadim davrlarda Behistun qoyalari sirtiga o'yib yozilgan bitiklarning asl ma'nosini ochgan, Britaniyaning Bir O'd (o't'olov), Fransiyaning Fer O'd, Onado'lining Ona O'd deb nomlanganini juda qadim zamonalarda dunyoda eng nufuzli madaniyatning turkiy madaniyat, eng bilimli millat esa turkiy millat ekanini tasdiqlovchi 750 jiddlik bir kutubxonanining izidan tushadi. Barcha maxfiy xizmat tashkilotlari tomonidan axtarilayotgan bu kutubxona ba'zi ma'lumotlarga ko'ra Naxchivondagi qadim xonaqohlardan birida saqlanadi. Sulton Amirli bo'lsa eng yaqin odamlari bilan tuz olib kelish bahonasida Naxchivonga boradilar. Romanning "Yashirin dunyo" bo'limida bir qator sirlar o'rta ga chiqadi. Tarixdan avvalgi davrlarda yer yuzini suv bosayotganda turkiylarning uzoq Hindistoniga va Himolayga kemalar yuborib, odamlarni qutqarib qolganliklari, har tarafga madaniyat olib borganliklari, vaqt o'tib ushbu haqiqatlarning yashirilganligi, qasddan pinhon tutilganligi, turkiy

madaniyatning talon-taroj qilinib, yo'q qilinganligi o'quvchilarga ishonchli tarzda bitta-bitta izohlab beriladi.

Iso Mug'anna o'zi qatnashgan suhbat va reportajlarda bu ma'lumotlarning unga g'oyib olamidan yashirin kuchlar, o'zga sayyoraliklar tomonidan berilganini ta'kidlaydi. Buning qay darajada to'g'ri ekanini aytish qiyin. Faqat yozuvchining ayrim holdarda g'aroyib holatlarga tushganiga adabiy davralar guvoh bo'lishgan. Shunga qaramasdan, yozgan ishlarida mantiq bilan izohlab bo'lmaydigan mistik biror narsa yo'q. Biroq adabiy tanqid yozuvchi tomonidan ko'zda tutilgan milliy g'oya va bashariy falsafani anglay olmaganidan 750 jildlik kutubxonaning hech bo'limganda bir jildini bo'lsa ham tasdiq sifatida ko'rsatishini qaysarona bir tarzda talab qilib keladi [7, 154].

Sobir Ahmadli asarlarida tabiat – atrof, tabiat – inson, qishloq – shahar, shaharlik – qishloqlik munosabatlarini har tomonlama tasvirlab beradi. Masalan, yozuvchining 1981 yilda nashr qildirgan "To'g'ona" romanida shahardan yaylovga dam olish uchun kelgan bir guruh ziyoli bilan To'g'ona qishlog'ining insonlari orasida yuz bergan voqealar hikoya qilinadi. Qishloqdagi og'ir hayot shart-sharoitlari, texnik qoloqlik, ma'lumot yetarsizligi, biroq ma'naviy poklik, tabiatga nisbatan mas'uliyat, shaharlik mehnoplarga qattiq ta'sir qiladi [7, 474]. Yozuvchiga ko'ra, haqqoniy va asl munosabat inson bilan inson orasidagi munosabatdir. Bu munosabat qanchalar sog'lom bo'lsa jamiyat ham, xalq ham, millat ham shunchalar sog'lom bo'ladi.

Adibning 80- yillarda yozgan "Yosamal ko'lida qayiqlar suzar", "Ketganlarning qaytishi, dunyoning arshini" asarlarida ham ayni ruh va falsafa, ayni sotsial psixologik tasvir va teran tahlil ustuvorlik qiladi. 1989 yilda Sobir Ahmadli tanlangan asarlari ning ikki jiddligi nashr qilinadi [5, 803].

Ozarbayjon adabiyotida 60- yillar avlodni sifatida tanilgan Anor, Elchin va Akram Eylisli (bu yerga shartli raivshda Yusuf Samado'g'lini va Mavlid Sulaymonlini ham qo'shish mumkin) badiiy ijodga yangi ruh, yangi tushuncha va qahramon olib kirishgan. Bu avlod qattiq partiya nazaratida, sovetlar qo'l ostida, hatto

asirlikda bo'lgan adabiyotga yangi qon bo'lib qo'shilishgan, astasekinlik bilan bo'lsa-da, adabiyotni sotsialistik realizm istibdodidan birmuncha qutqarish yo'lidan borganlar. Oldinlari asar qahramoni insondan ko'ra ko'proq robotni eslatardi. Partiya g'oyalariiga qattiq bog'langan, metin bolshevik, bo'ysunmas kommunist, imperializmga qarshi kurashuvchi, atrofdagilari bilan murosasiz, doimio dushmanona kayfiyatda, hech bo'lmaganda raqib topib janjallashadigan, shaxsiy hayoti rangsiz, hayotining ma'nosini kecha-yu kunduz ishlashdan iborat deb biladigan va sotsialistik mehnat musobaqasida birinchi bo'lishni orzu qiladigan mehnatkash obrazi tarixda qoldi; o'miga inson kabi inson, oddiy, ayni o'z odamlarimiz kela boshlashdi. Sovet Ittifoqi tarqalib ketishidan oldin mamlakat aholisining soni 290 million, kommunistlarning soni 18 million edi. Ya'ni qarib har 16 kishidan biri Kommunistik partiya a'zosi edi. Qolgan 16 kishining ijobili qahramon bo'lish shansi deyarli yo'q edi; ular faqat salbiy yoki ikkinchi va uchinchi darajali qahramon bo'lishlari mumkin edi xolos. Chunki partiya tushunchasiga ko'ra adabiyot, asl Sovet kishisining qanday bo'lishi kerakligini pozitiv kommunist, pozitiv ishchi obrazlari timsolida xalqqa ko'rsatish bilan shug'ullanar edilar.

60- yillar avlodining eng obro'li yozuvchisi Anordir. Ijodi juda rang-barang, xarakteri esa turli ranglarga to'la. Hikoya, povest, roman, drama, ssenariy yozgan, adabiy tanqidlar va adabiyot tarixi bilan shug'ullangan, kitoblar tarjima qilgan, rejissyorlik bilan mashg'ul bo'lgan va 8 ta filmga rahbarlik qilgan.

Anor 1938 yilda Bokuda tug'ilgan. Otasi xalq shoiri Rasul Rizo, onasi xalq shoiri Nigor Rafibeylidir. Boku universitetining Adabiyot fakultetini bitirgan. Bir muddat Ozarbayjon Adabiyoti muzeyida tadqiqotchi va Boku radiosida muharrir bo'lib ishlagan. Keyinroq Moskvada ssenariy va rejisura kurslarida o'qigan. Yozuvchilar Uyushmasining nashr organi bo'lmish "Gobuston" nomli san'at jurnalining umumiy nashr rahbari bo'lgan. 1987 yildan beri 26 yil davomida Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasining raisi sifatida faoliyat yuritib keladi. Bugungacha ushbu tashkilotda uzliksiz ravishda hech kim bunchalik uzoq muddat raislik

qilgan emas. Turli yillarda Sovet va Ozarbayjon parlamentlarida bir necha marta deputat qilib saylangan [7, 487].

Adabiyotga 1960 yilda “Ozarbayjon” jurnalida chiqqan “O’tgan yilning so’nggi kechasi” va “Bayram hasratida” kabi hikoyalari bilan kirib kelgan. Ilk kitobi 1963 yilda (“Bayram hasratida”) bosilib chiqqan. Birin-ketin “Yomg’ir tindi”, “Sutlimon”, “Mulla Nasriddin – 66”, “Odamning odami”, “Majol”, “Icharishahr” nomli kitoblari chop etilgan. 80- yillarda “Besh qavatli uyning oltinchi qavati”, “Dada Qo’rqt”, “Sizni deb kelganman”, “Dunyo bir derazadir” va “Tanlangan asarlar”i (ikki jildlik) kitobxonlarga havola qilingan.

Bu asarlar orasida “Besh qavatli uyning oltinchi qavati” romanı jamiyatda katta aks-sado uyg’otdi. Asar qahramoni Zaur va Tahmina bir-birini sevadigan ikki yosh sifatida jamiyatdagı ba’zi eskirgan qoidalariga qarshi chiqib, ajabo nima deyisharkan degan savolga javob izlamasdan o’zlari to’g’ri deb bilganlaricha harakat qilishi, ayniqsa, Tahmina mish-mish va gap-so’zlarga hech parvo qilmaydi, sevgisi uchunu hamma narsaga tayyor bo’ladi, oxir-oqibatda bularga hayotini fido qiladi. Qiziq tomoni, Chingiz Aytmatovning “Jamila”si xuddi shu tarzda harakat qilib, baxtga cris-hadi, Anorning Tahminasi ro’shnolik ko’rmaydi.

Anorning ushbu romanı nemis (Demokratik Germaniya va Federativ Germaniya va Shvetsariyada), chech, slovak, vengr, turk va rus tillariga tarjima qilingan. Adibning asarlari o’zbek, qozoq, tojik, gruzin va eston tillarida ham nashr qilingan. Umuman olganda uning asarlari 20 tilga o’girilgan [5, 66].

Elchinning ijodi ayniqsa 80- yillarda porlaydi. Bu davrda yozuvchi mashhur “Umrning so’ng bahori”, “Bulbul” nomli kitoblarini, “Mahmud va Maryam”, “Oq tuyu”, “O’lim hukmi” romanlarini nashr qildirgan, tanlangan asarlarining ikki jildini o’quvhilar e’tiboriga havola qilgan [5, 183].

“Mahmud va Maryam” romanı “Asli va Karam” dostonining motivlari asosida qalamga olingan. Voqealar XVI asrda yashab o’tgan Sulton Salim, Shoh Ismoil Xatayi va Muhammad Fuzuliy

hayotini qamrab olgan. Bu davrda Usmoniyalar va Safaviylar orasida raqobat davom etardi [7, 522-525]. Bu muhitda musulmon yigitleri Mahmud va xristian qizi Maryam bir-birlarini sevib qoladilar. "Asli va Karam" dostonida bu sevgi achchiq va fojeali tugaydi. Narimon Narimonovning "Bahodir va Suna" romanida ham natija salbiyidir. Elchinda ham dinlar farqliligi ikki yoshni ajaratadi. Hayotda, xususan, Sho'rolarning ilk davrlarida targ'ibot-tashviqot juda kuchaygan 20- yillarda turklar va armanlar orasida o'zaro nikohlar kam emasdi. Bular har doim musulmon (asosan ozarbayjon) yoshlarining arman qizlariga uylanishi shaklida edi. Musulmon, ayniqsa turk qizlari armanlar bilan turmush qurishmagan. Haqiqiy hayotda kelinlar. "Mahmud va Maryam"da, "Asli va Karam"da, "Bahodir va Suna"da qizlar doimiy ravishda arman qizidir. Nega natijalar salbiyidir? Sabab va sabablar nimada? Taassubmi? Islom dini xristian ayloga uylanishga izn beradi. Bu uch asarda ham yigitlarning oilalari nikohga qashi emasdirlar. Haqiqiy hayotda mumkin bo'lмаган ba'zi narsalar adabiyotda mumkin bo'lishi mumkin. Bu yerda esa butunlay teskaricha, hayotda mumkin bo'lган narsalarning adabiyotda imkon yo'q. Demak, adabiy asarlar yashirin bir ramziylik tashimoqda. Elchin ham bu ramzga qo'lida bo'lмаган holda ergashgan.

Elchinning keyinroq qalamga olgan "Oq tuya" va "O'lim hukmi" romanlarida esa yaqin moziyda yuz bergan ziddiyatli, dramatik va nihoyatda hazin voqealarning badiiy tahlili, bu keng qamrovli tahlil asosida inson va zamin munosabatlarining anatomiyasiga izoh berilgan. Mashhur nosirning asarlari rus, turk, ingliz, fransuz, nemsi, ispan, vengr, fin, chex, slovak, bolgar, arab, fors va boshqa tillarga tarjima qilingan.

Adabiy davralarda keng tarqalgan fikrga ko'ra, Anorning ijodida ko'proq Bokuning kibor muhiti, Elchinda ayni paytda shaharlik va qishloqlik bo'lган Boku manzarasi, Akram Eylislidagi qishloq hayoti mavzusi ustunlik qiladi. Asarlarining mavzulriga, qahramonlariga, odamlarning xarakteriga, voqealarning detal to'qimasisiga nazar tashlaganda bu fikrning to'g'riligiga amin bo'lamic.

XX asrning 80- yillarda Akram Elyislari, Yusuf Samado'g'li va Mavlid Sulaymonlining adabiyotga qo'shgan hissasi asarlardan tashqari gardanidagi vazifalar yaratilgan imkoniyatlar bilan birligida yanada ortadi. Akram Yozuvchilar Uyushmasining nashr organi "Ozarbayjon" jurnalining bosh muharriri va "Yozar (Yozuvchi)" nashriyotining direktori bo'lган paytlarda yaxshi asarlar chop qilgan [5, 251], Mavlid Sulaymonli esa Ozarbayjon radiosida adabiyot va drama bo'limi boshlig'i vazifalarida ishlagan paytlarda xalq orasida juda populyar bo'lган qo'shni Turkiyada va Eronda, Gruziya va Armanistonda ham keng o'quvchi ommasiga ega "Xalq yaratuvchanligi – Buloq" programmasini ochib, so'z san'atiga katta xizmat ko'rsatgan [5, 657]. To'g'ridan-to'g'ri adabiyotga kelsak, Akram Elyislarning "Odamlar va og'ochlar uchligi", Mavlid Sulaymonlining "Tegirmon", "Shayton" va "Ko'ch" asarlari sotuvga chiqar-chiqmas katta shov-shuvlarga sabab bo'lган, munaqqidlar va o'quvchilar orasida haftalab davom etgan bahs-munozaralar yuz bergan.

Yusuf Samado'g'lining "Qatl kuni" romani 80- yillar adabiyotimizda boshdan-oyoq katta voqeja bo'ldi. Asar eski davr, 20-30 yillar va bizning kunlar o'laroq uchta vaqt pallasini bir orada jonlantirib. Sovet jazo mashinasining insonlarni qay shaklda tegirmon toshi kabi un misoli maydalaganini, shafqatsizlarcha yo'q qilganini butun ikir-chikirlari bilan ko'z oldimizda namoyon qiladi. Mutaxassislar fikricha, yozuvchi o'z tushunchalarini farqli badiiy vositalar bilan ifodalagan; o'mni kelganda mifik, o'mni kelganda haqqoniylavhalar va sahnalar yaratgan.

Bulardan tashqari ismi va asarlari haqida alohida to'xtalib o'tilmagan yozuvchilardan aka-uka Maqsud va Rustam Ibrohimbekovlar, Farmon Karimzoda, Jamil Alibeyov, Sobir Rustamxonli, Yusuf Samado'g'li, Sulaymon Valiyev, Manaf Sulaymonov, Yusuf Azimzoda, Jalol Bergushat, Ahmadog'a Mug'onli, Alibobo Hojizoda, Sobir Ozariy, Alisa Najot, Kamol Abdulloh, Farmon Eyvazli, Aqshin Boboyev, Isi Malikzoda, Notiq Rasulzoda, Yosif Nosirli, Mammad O'ruch, Aqil Abbas, Safar Alisharli va

boshqa yozuvchilar Ozarbayjon adabiyotining rivoji uchun istedodlari ko'lamida va qo'llaridan kelgunicha o'z ulushlarini qo'shishgan.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Azerbaycan Edebiyati Tarihi: 3 ciltte. XX. esrin evvelerinden 1970-ci ile qeder. II. cilt / Cildin red.: A. Sultanli, E. Mir Ehmedov, K. Talibzade. - B.: Azerbaycan SSR EA, 1980. – 908 s.
2. Azerbaycan Filoloji Fikri: Diinen, Bugiin, Sabah / Elmi konfransin tezisleri. Red.: N. Q. Ceferov, M. M. Memmedov. – B.: Baku Universiteti, 2001. – 83 s.
3. Azerbaycan Sovet Edebiyati Tarihi. I. Cilt. – B.: Azerbaycan Elmler Akademiyasi Neşriyati, 1967. – 640 s.
4. Azerbaycan Sovet Edebiyati. - B.: Maarif, 1988. - 542 s.
5. Azerbaycan Yazicilari XX-XXI. Yilizyilhkta (Ansiklopedik Malumat Kitabi). – B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
6. Muasir Azerbaycan Edebiyyati Tarihi. Iki ciltte. I. Cilt. - B.: Bakü Universiteti Neşriyati, 2007. – 504 s.
7. Muasir Azerbaycan Edebiyyati Tarihi. Iki ciltte. II. cilt. - B.: Bakü Universiteti Neşriyati, 2007. – 564 s.

## 80- YILLAR DRAMA YOZUVCHILARI

Drama, Ozarbayjon adabiyotida eng yosh adabiy tur hisoblanadi. Buyuk mutafakkir, yozuvchi va faylasuf Mirza Fathali Oxundzoda (1812-1878) 1850-1855 yillar orasida qalamga olgan oltita komediya bilan Ozarbayjon adabiyotida drama turini boshlab beradi. "Hikoyati Mulla Ibrohim Xalil Kimyogar" (1850), "Hikoyati Musyo Jordon Hakimi Nabotot va Darvish Mastalishoh Jadikuni Mashhur" (1850), "Sarguzashti Vaziri Xoni Lenkaron" (1850), "Hikoyati Hirs Quldurbosan" (1851), "Sarguzashti Mardi Xasis" (1852) va "Murafiya vakillarining hikoyati" (1855) asarlari Ozarbayjon adabiyotida yap-yangi va qiziq bir sahifa ochadi [7, 250-252].

22 mart 1873 yilda "Hikoyati Vaziri Xoni Lenkaron" kome diyasining Bokuda sahnaga qo'yilishi bilan Bokuda teatr san'ati boshlanadi. O'sha davrning mashhur ziyolilari Najaf bey Vazirov, Abdurahmon bey Haqverdiyev va boshqalar bu ishda tashabbuskor bo'lishadi. XIX asrning oxirlaridan e'tiboran Ozarbayjon adabiyotida fojea turi ham paydo bo'ladi. Mashhur drama yozuvchisi Najaf bey Vazirov 1896 yilda "Musibati Faxriddin" nomli ilk fojeani yozadi [7, 462], Abdurahmon bey Haqverdiyev ham o'sha yili "Tarqalib ketgan Tifak"ni, 1900 yilda "Baxtsiz javon"ni, 1907 yilda "Og'a Muhammad shoh Qochor" asarini qalamga oladi [58, 167-170].

Jalil Mamatqulizoda "O'liklar", "Donobosh qishlog'ining maktabi", "Telba majlisi" va "Onamning kitobi" [8, 83-99] asarlari bilan Ozarbayjon dramaturgiyasini rivojlantiradi. Adibning eng yaxshi asarlaridan biri "Onamning kitobi" pyesasidir.

Asardan ma'lum bo'lishicha, bir oilaning uch farzandi, uch og'a-ini farqli o'lkalarda tahsil olishadi. Aka Rustam bey Peterburgda ruscha, o'rtancha farzand Mirza Muhammad Ali Najaf-ul Ashraf Eronda forscha, kenjası Samad Vohid Istanbulda usmonlicha o'qiydi. Tabiiy ravishda ularning kiyim-kechaklari, madaniyati, kitoblari, muhiti, g'oyalari, tushunchalari va gapirish tarzi farqli edi va shu bois ular orasida doimo xusumat mavjud bo'ladi. Natijada hech qanday bir umumiyy mahrajda birlasha olmagan

og'a-inilar ota uyini tark etishni istaydilar: faqat onasi Zuhrabegim bunga qarshi chiqadi. Aka-ukalar farqli madaniyatlar ramzi bo'lishlariga qaramay Zuhrabegin va Gulbahor Ozarbayjoni, cho'ponlar Qanbar, Zamon va Qurbon; Ozarbayjon turkiysida gaplashadilar. Og'a-inilar olgan tahsillariga mos ravishda o'zlarini shunday tanishtiradilar:

**Rustam bey.** Rustam bey Abdulazimov.

**Mirza Muhammad Ali.** Mirza Muhammad Ali xalifai marmum og'a Abdulazim.

**Samad Vohid.** Abdulazimzodai Samad Vohid.

Ular o'rtasidagi ilk janjal Gulbahorning turmush qurishi masalasida kelib chiqadi. Gulbahor Ozarbayjoni tamsil qilishiga ko'ra uning kimga uzatilishi oila sha'ni-sharafi masalasidir. Rustam bey qizni rus tili va madaniyatini o'zlashtirgan do'sti Aslon bey bilan, Mirza Muhammad Ali uning fors madaniyatiga ega do'sti bilan, Samad Vohid esa o'z do'sti bilan turmush qurishini istashadi.

Asar so'nggida Zuhrabeginning divani ostidagi kitobda ota ning o'g'illariga bir necha satrlik vasiyati o'rtaga chiqadi: til, madaniyat, birlik va birdamlikni har doim qo'riqlash lozimdir! O'zida aks etirgan bu milliy tushuncha bilan "Onamning kitobi" Ozarbayjon adabiyoti va jamiyatida o'zlik shuurining, til va madaniyatning rivojlanishida muhim hissa qo'shadi [9, 23-24].

Mashhur murabbiy yozuvchi va davlat arbobi Narimon Naimonov dramaturgiyaning uchala turida ham qalam tebratgan. "Nodonlik" nomli pyesasida (1894), "Tilning balosi va Shamdon bey" komedyasida (1895) va "Nodir shoh" (1899) fojeasida [8, 152-154] o'ziga xos mahoratini ishga soladi. Bu asarlar mana yuz yildan oshibdiki, teatrlarimizning reperetuarlarida joy olib keladi.

Ozarbayjon adabiyotida ham shoirlar, ham nosirlar drama asarlari yozishgan. Shoirlar asosan drama asarlarini naznda, nosirlar nasrda qalamga olishgan. Adabiyot tariximizda faqatgina drama yozuvchisi bo'lmasa-da, ko'proq dramaturg sifatida tanilgan bir necha kishi uchraydi. Bular Husayn Jovid, Ja'far Jabborli, Ilyos Afandihev, Sobit Rahmondir.

XX asrning 30-40 yillarigacha drama yozuvchiligi Husayn Jovid va Ja'far Jabborli shaxsida o'z cho'qqisiga chiqqan. Ulug'

ustoz Husayn Jovidning "Ona", "Maral", "Shaydo", "Shayx Siron", "Oqsoq Temur", "Uchurim", "Iblis", "Payg'ambar", "Siyovush", "Knyaz", "Hayyom", "Iblisning intiqomi" kabi sahna asarları [8, 350-351] drama san'ati jihatidan mukammal bo'lsa-da, ideologik jihatdan Sho'rolarni unchalik mammun qilmagan, ularning ishiga yaramagan. Hamma narsani propaganda asosida qurgan Sho'rolarning ehtiyoj tuygan bo'shlig'ini Ja'far Jabborli-ning asarları to'ldiradi. Tengsiz iste'dod sohibi Ja'far Jabborli 20 yilda 20 ta drama asarını qalamga olgan [5, 350-351]. Mutaxassislarining fikricha, yozuvchining ijodiga ham maorifchilik, ham realizm, ham tanqidiy realizm, ham sentimentalizm, ham roman-tizm, hamda sotsialistik realizm ta'sir qilgan; usul va oqim farq-liligi XX asr adabiy jarayonida tug'ilgan xususiyatdir. Yozuvchining xotin-qizlar ozodligi ("Sevil"), madaniy inqilob, aslida esa teatr ("O'qtoy Elo'g'li", "Qaytish"), eskilik bilan yangilikning kurashi ("Yashar") mavzusida yozgan mazmundor pyesaları ada-biyotimizning eng nodir sahna asarlarıdir. Bular Sho'rolar uchun suv va havo kabi zarur edi. Faqat yozuvchining xalqlar do'stligi mavzusidagi ("1905 yilda") pyesalarida propagandaning dozasi biroz buzilganga o'xshaydi. Qishloqqa o'qituvchi bo'lib kelgan Olmos ismli bir qiz bu yerda yuz bergen hamma narsaga, kolxozi bilan aloqador har bir voqeaga haddan ortiq darajada aralashadi, mashhur ozariy iborasi bilan aytganda, yetishganiga yetishadi, yeta olmaganiga tosh otadi, ikkinchi asarda esa arman obrazlari bizga do'st, hatto qardosh sifatida qaraladi [9, 144-155]. So'nggi asari har holda sotsialistik realizm yuzasidan yozilgani tufaylidir.

Ja'far Jabborlining "O't (olov) kelini" fojeasini haqiqiy maqsadi esa bizningcha, Sho'rolarning adabiy va siyosiy davralari to-monidan to'g'ri qabul qilinmagan ko'rindi. Ozarbayjon dramaturgiyasining eng go'zal va parloq asarlaridan biri bo'lgan "O't kelini" ko'rinishda ming yil avvalgi arab ishg'oli va islom diniga qarshi bo'lsa-da, ayni paytda sahnalaشتirilgan yillarda sodir bo'lgan Sovet istilosini eslatardi. Sho'rolarning buni ko'rmay qolishlarining sababi asarda arablarga va islomga qarshi shiddatli urg'u berilishida edi.

Ja'far Jabborlining 35 yoshida vafoti adabiy davrlarda va xalq orasida chuqur qayg'u bilan kutib olinadi. Maksim Gorkiy ham Yozuvchilar Uyushmasining umumiy yig'ilishida adibga katta hurmat ko'rsatib, uni shu so'zlar bilan maqtab, esga oladi: "Yozuvchilar va shoirlar 30-35 yoshida asar yozishga boshlagan holda Ja'far Jabborli 35 yoshida mukammal, usta bir drama yozuvchisi edi. Shunday zamonlar keladiki, dunyoning ko'plab universitetilari va tadqiqot markazlarida Ja'far Jabborlining ijodi tahlil etilajak, uning dramaturgiyasini satrma-satr tadqiq qilinajakdir" [9, 155].

Mashhur nosir Mirza Ibrohimov go'zal romanlar bilan yonma-yon 7 dona sahna asari ham yozgan. Ular orasida "Hayot" 1935 yilda, "Madrid" 1939 yilda, "Muhabbat" esa 1941 yilda qalamga olingan. "Hayot" asari o'sha davrda yangigina qurilgan mashina-traktor stansiyalari, ya'ni MTSlarga aloqador pyesalaradir. MTSga muhandis sifatida yuborilgan yosh va go'zal Hayot xonimning qishloqni rivojlantirish, qishloqliklarning ongini o'stirish maqsadida olib borgan kurashini bayon qiluvchi bu asar uzoq yillar davoimda sahnalarda o'rinni olib keldi. "Madrid" pyesasi 30-yillarda Ispaniyada sodir bo'lgan fuqarolar urushi haqidadir. Sho'rolar bu urushga aralashgani uchun adabiyot ham o'z sohasida rasmiy Sovet qarashlarini qo'llab-quvvatlagandi. "Muhabbat" dramasida Muhabbat ismli yosh qizning quroq-aslahha zavodida natsistlarga qarshi yangi bir quroq o'ylab topganini, xalq dushanlari esa bu ishni yo'qqa chiqarish uchun turli hylalar qilishgani, faqat oxir-oqibat Muhabbat va do'stlarining g'olib chiqqani tasvirlanadi.

20 yillik bir tanaffusdan keyin Mirza Ibrohimov qaytadan drama hayotiga ehtiyoj tuyib, bu dafa "Qishloq qizi" (1961), "Yaxshi odam" (1963) va "Lov-lov yongan o'choqlar" (1967) va "Don Juan yoki bashariyat komediyasi" (1970) kabi dramatik asarlar yozib, Ozarbayjon adabiyotini boyitdi [5, 650-651].

"Qishloq qizi"da tahsil olish uchun qishloqdan shaharga kelgan Manaksha ismli qiz bilan bu yerda tanishgan Vohid ismli bir yigit bir-birini sevishadi. Faqat ularning dunyoqarashlari ancha farq qiladi. Shahar va qishloq tarbiyasidagi tasovutlardan kelib

chiqqan farqliliklar, shaharliklarning qishloqliklarga bepisand qarashlari Manaksha soyasida o'rtadan olib tashlanadi

"Yaxshi odam" komediysi ahloq mavzusidadir. Bu asardagi tazod (qarama-qarshilik) ikkita farqli joy vakili bo'lmish ikki kishi orasida emas, ikki guruh, ya'ni hech qanday manfaat kutmasdan jamiyatga xizmat qilgan yaxshi odamlar bilan manfaatparast manman va yomon odamlar orasidadir. Tabiiyki, bu g'avg'oda yaxshi odamlar g'olib chiqishadi.

"Lov-lov yongan o'choqlar" tarixiy mavzuga bag'ishlangan bir asardir. Mirza Ibrohimov bu asarida XX asrning ilk choragida Ozarbayjonda va Chor Rossiyasida sodir bo'lgan voqealarni, xususan, mashhur yozuvchi, hakim va davlat arbobi Narimon Narimonovning hayoti va kurash yo'lini tasvirlaydi. O'sha yillarda Narimonova rasmiy qarashlar biroz farqli bo'lib, armanlarning harakatlari tufayli Moskva uni Lenining yaqin do'sti va inqilobchi emas, millatchi sifatida ko'rар edi. Chunki Narimonov Ozarbayjonda davlat ma'murlarining mahalliy xalq vakillaridan tayinlanishi, davlat tilining turkiy til bo'lishini istagan, Boku nefting Tbilissida va Yerevanda nima sababdan arzon solishining sababini so'rpgan, bu va bunga o'xshash mavzularda Leninga e'tiroz xatlari yuborgan edi. Faqatgina 1970 yilda Haydar Aliyevning favquloda say-harakatlari tufayli Narimon Narimonov oqlanadi, Ozarbayjon tarixida va adabiyotidagi sharaflı o'mini olad, asarlari bosilib chiqadi, 1972 yilda Bokuda haykali o'matiladi.

Mirza Ibrohimovning so'nggi ijod namunalaridan biri J.B. Molyerning "Don Juan" komediya asari motivlari asosida yozilgan "Bashariyat komediysi" asaridir [9, 416-420].

1958 yildan 1965 yilgacha Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi bosh kotibi vazifasida bo'lgan Mahdi Husayn "Shomil" (1940-41, "Nizomiy" (1942), "Javonshir" (1943-44), "Intizor" (1944, Ilyos Afandihev bilan birga), "Qardoshlar" (1948), "Olov" (1961) nomli oltita sahna asarini qalamga olgan. Ulardan ilk uchta tarixiy, qolgan uchta esa ahloqiy mavzularga bag'ishlangan [5, 576-577].

"Shomil" pyesasi Kavkazni 25 yil davomida Rossiya bosqiniga qarshi himoya qilgan mashhur Shayx Shomil haqidadir.

O'sha paytda Shomilning ismini ham tilga olish ta'qiqlangan bir pallada Mahdi Husaynov singari sotsialistik realizm chegarasiga juda yaqin bo'lgan bir yozuvchining bu mavzuda drama yozishi juda qiziq. Afsuski, asar na bosilib chiqqan, na sahnaga qo'yilgan. Yozuvchi Shomilni, tog'liklarni, kavkazliklarni butun asar bo'yir rus zobiti Tamarinning tilidan maqtaydi.

Yozuvchining ikkinchi tarixiy asari "Nizomiy" pyesasidir. Buyuk ozarbayjon shoiri va mutafakkiri Nizomiy haqida asar yozish aslida qulay ish emas. Buning uchun shoirning hayoti, ijodi va davrni yaxshi bilish kerak. Asardan ma'lum bo'lishicha, yozuvchi barcha qiyinchiliklarni yengib o'tgan. Bu asar qayta-qayta chop qilinib, ko'p marotaba sahnalashtirilgan.

Mahdi Husayn "Javonshir" dramasiga ham ayni mas'uliyat bilan yondashgan. "Javonshir" asari "Nizomiy"ga qaraganda yanada og'irroq mavzu. Chunki Nizomiyning hayoti va ijodi adabiyotchilar tomonidan yetarlicha ilmiy tadqiqotlarga tortilgan, buning aksiga Javonshir VII asr Ozarbayjon tarixinining, ayniqsa 1940- yillarda hech qanday o'r ganilmagan bir davriga oid hukmdordir. Shunga qaramasdan yozuvchi bu asarida ham muvaffaqiyat qozongan [9, 392-394].

Asarlarini ruscha yozganiga qaramay XX asr asr adabiyotimizda muayyan o'mni bo'lgan Imron Qosimov (1918-1981) "Dengiz ustidagi shafaq", "Inson maskan qurayotir", "Dinsizning tavbasi" pyesalarini yozadi [5, 472]. Bular ma'naviy qadriyatlarni ustunligini isbotlagan va sotsialistik realizm chizig'idan aslo chiqmagan asarlardir. Imron Qosimov 1975-1981 yillar orasida Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi bosh kotibi vazifasida faoliyat yuritgani bois ba'zi mavzularda, shu jumladan, sotsialistik realizm mavzusida boshqa yozuvchilarga shaxsiy o'mnak bo'lishni ham unutmagan.

XX asr Ozarbayjon drama yozuvchiligi tarixida muhim o'rin egallagan Sobit Rahmon (1910-1970) ijod olamiga yoshlik yilla-rida kirib kelgan. 21 yoshida ilk hikoyalar kitobi ("Bo'zg'in") nashr qilingan. Bokuda tahsilini olgandan keyin bir muddat o'qtuvchilik va jurnalistik faoliyat olib borgan, teatrda va Yozuvchi-

lar Uyushmasida ishlagandan keyin Moskvada ssenariy kurslari-da o'qigan. 1930-1940 yillar orasida "Arshin mol olon", "U bo'lmasin, bu bo'lmasin", "Ko'ro'g'li (Go'ro'g'li)", "Ahmad qayerda?" filmlarining ssenariysini, "Yulduz", "Hijron" kabi musiqiyatlari va "Yetti go'zal" baletining librettosini, "To'y", "Xushbaxtlar", "Oshnolar", "Oydinlik", "Nishonli qiz", "Aliquli uylanayapdi", "Yolg'on", "Tiriklar" kabi komediyalarni yozgan. Jami 29 ta kitobi, shu jumladan, 1975-1978 yillarda tanlangan asarlarining 6 jiddligi bosilib chiqqan [5, 809-810].

Sobit Rahmon ijodining birinchi xususiyati sog'lom hazil-mutoyibadir. Ya'ni kuldirish uchun to'qib chiqilgan komik vaziyat emas, haqiqiy va ma'noli, o'ylantiruvchi, dars chiqariladigan va ibrat olinadigan latifalardir. Shu jihatdan yozuvchi tanlagan mazular va voqealar hayotdan olingan bo'lib, real hayotni aks et-tirgan. Har asari bir-biridan qiziqlaridir [9, 433-438].

Ilyos Afandiiev Ozarbayjon adabiyoti tarixida eng ko'p drama asari yozgan o'lkan yozuvchidir. U, "Intizor" nomli ilk pyessasini 1944 yilda Mahdi Husayn bilan birga qalamga olgan. Shundan keyin 1994 yilda 50 yil ichida jami 22 ta drama asarini yozgan. Ular orasida "Nurli yo'llar" (1947), "Bahor suvlari" (1948), "Otayevlar oilasi" (1954), "Sen har zamon men bilansan", yoxud "Boychechak" (1964), "Mening aybim" (1967), "Otashli sahro-dan kelgan shayton", "O'n manatlik Aviza", "Unuta olinayman", "Bizga inon" (1968), "Mahv bo'lgan kundaliklar" (1969), "Qo'shiq tog'larda qoldi" (1971), "G'arib o'g'lon" (1973), "Bog'lardan kelgan sas" (1975) nomli asarlarida yozuvchi yosh avlodlarga sof ishq va ma'naviy ahloqiy qadriyatlarni talqin qil-gan. 1980 yildan keyin yozgan "Xurshid Bonu Notavon" (1980), "Sircha saroyda" (1983), "Shayx Muhammad Xiyoboni" (1986), "G'arib toleimiz" (1988), "Sevgililarning jahannamda visoli" (1989), "Tanho jiyda daraxti" (1991), "Aqlilar va telbalar" (1992), "Hukmdor va qizi" (1994) nomli asarlarida ko'proq tarixiy va falsafiy mavzularga to'xtalgan [5, 464-465]. Ilyos Afandiyevning asarlarida, asosan, hayotning barcha mavzulari, xususan, inson va zamon, shaxs va jamiyat, ma'naviy boylik va halollik, ulug'lik va sof ahloq, sevgi va do'stlik, yaxshilik va yomonlik,

yurtsevarlik va insonparvarlik kabi mavzular ergashtiruvchi bir romantik-lirk uslubda tasvirlangan. Shu bois, ijtimoiy-ma'naviy yil-pig'ich hech bir drama yozuvchi adibimizda Ilyos Afandihev ijdida bo'lganidek keng qamrovli va teran emasdir [10, 460-464].

Xalq shoiri Baxtiyor Vahobzoda o'z vaqtida bir-biridan go'zal sahna asarlari yozgan. U, drama san'atiimizda muhiim o'rinnegallagan "Ikkinchchi ovoz", "Yomg'irdan keyin", "Yo'llarga iz tushayotir", "Qizil olma", "Dor", "Faryod", "O'zimizni kesgan qilich" ("Ko'kturklar") dramalarini yozib [5, 130-131; 10] adabiyotimizga yangi bir nafas olib kirdi. Baxtiyor Vahobzodaning drama san'ati ham xuddi she'rlari kabi vatan va vatandosh tenglamasi ustida qurilgan. Shonli moziy, tengsiz qahramonlar, millat va jamiyat, ishq va tuyg'u, inson va ichki dunyosi, siyosiy va jamoaviy voqealar doimo lirk-psixologik va epik-falsafiy planda berilgan. Xususan, Ko'kturklar davrini yorituvchi "O'zimizni kesgan qilich" dramasi bundan ming yil avvalgi tarixni bugunimiz bilan bog'lash va bundan dars olish uchun qilingan murojatadir [10, 168-169].

Nabi Hazriyning drama asarlari uzoq yillar davomida Ozarbayjon sahnalarini bezab keldi. Shoир qalamiga mansub "Aks-sado" (1969), "Sen yonmasang" (1969), "Mirza Shafiy Vozih", "Tuproqqa sanchilgan qilich", "Burla xotun", "Tunda o'g'irlangan qalblar" kabi pycsalarini lirk-psixologik asarlar deb atash mumkin [5, 695-696]. Mavzulari bo'yicha xilma-xillik kasb etuvchi ushbu asarlarda o'quvchilarga berilgan tushuncha ham farqlidir. "Mirza Shafiy Vozih", "Tuproqqa sanchilgan qilich", "Burla xotun" tarixiy dramalar bo'lib, kitobxonga sen qadimiylar boy madaniyatga egasan deb uqtiradi, boshqa asarlarda esa bizning bugunimiz odamlari obrazlarini yaratadi [10, 179-180].

Afkon Asqarovning "U mening o'g'limdir", "Tog' seli", "Sariq qo'lqop", "Qiz otasi", "Kulmagan odam" kabi pyesalarida ahloq va ma'naviyat jamiyat va oila muammolari tasvirlangan [5, 227].

Shoirlardan Tavfiq Mutallibov bolalar uchun bir qator teatr asari yozdi. Qo'g'irchoq teatri va Yosh tomoshabinlar teatrida uning "Ormon masali" (1981), "So'ylovchi qoyalar" (1982) va

“Jo‘jalarim” (1984) nomli allegorik pyeslari sahnalashtirilgan va ko‘pchilik tomonidan yaxshi kutib olingan [5, 497-498].

Zamonaviy she‘riyatimizning eng mumtoz siymolaridan biri bo‘lgan Narimon Hasanzodaning hayoti va kurashlariga bag‘ishlangan “Butun Sharq bilsin”, Saljuqiylar davrining Ozarbayjon hukmdorlari mavzusidagi “Otabeklar” va “Pompeyning Kavkaz safari” nomli manzum pyesalarini yozdi [5, 702-703]. Narimon Hasanzoda bu asarlarida mavzu, mazmun, tiplashtirish, jonlilik, haqiqiylik va ishontiruvchanlik jihatidan diqqatni jalb qiladi [10, 53-58].

Zamonaviy Ozarbayjon adabiyotining eng mashhur nosirlaridan biri bo‘lgan Anor roman turida bo‘lgani kabi drama sohasida ham hormay-tolmay ishlab, sermahsul ijod qildi. Yoshlik yillarida Moskvada ssenariy va rejisura kurslarida o‘qishi drama va teatr san‘atining butun mayda-chuydalarigacha o‘rganib olishiga imkon yaratgan edi. 1968-1987 yillar orasida “Gobuston” san‘at jurnalida bosh muharrir bo‘lib ishlashi esa Anorning usta drama yozuvchisi bo‘lib yetishiga hissa qo‘shti. 1987 yildan beri Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi raisi vazifasini bajarib kelayotgan Anor bir necha marotaba Sovet Ittifoqi va Ozarbayjon parlamentlarida deputat qilib saylandi.

“O‘tgan yilning so‘nggi kechasi”, “Shaharning yoz kunlari”, “Sahro ruyolari”, “Odamning odami”, “Sizni deb kelganman”, “Karavelli”, “Yashil aroba”, “Uylari ko‘ndalang yor”, “Tahmina va Zaur” [5, 65-66] kabi drama asarlarini yozgan Anor doimiy ravishda ma’naviy-ahloqiy va ijtimoiy-siyosiy mavzularga, jiddiy xarakterlarga (musbat yoki manfiy bo‘lishiga qaramasdan) e’tibor qaratib, o‘xshashi yo‘q va original obrazlar yaratdi. Yozuvchingin dramalari uzoq yillardan beri Ozarbayjon sahnalarida o‘ynalib keladi va diqqatni jalb qilishda davom etmoqda [10, 492-496].

XX asrning 80- yillarida Sayron Saxovat ham drama sohasida anchagina barakali ijod qildi. Uning “Oltin patnis” pyesasi Bo-kuda (1988), “Byust” dramasi Lenkaronda (1989), “Eshiklarning nariyog‘idagi qolgan dunyo” pyesasi esa Fuzuliyda (1990) sahnga qo‘yilgan. Ushbu asarlarda oshkoraliydan oldin tabu sanalgan

ba'zi mavzular, xususan, mehnatkash xalqning og'ir shart-sharoitlar ostida ishlashi va baxtsizligi, ma'murlarning o'z vazifasini suiste'mol qilishlari tilga olingen [5, 836].

Xullas, Ozarbayjon adabiyoti tarixida eng yosh soha bo'lgan dramaturgiyaning o'ta tez suratda rivojlanganini aytib o'tish mumkin. Yangi avlod M.F. Oxundzoda, N.B. Vazirov, A.B. Haqverdiyev, J. Mammadqulizoda, H. Jovid, J. Jabborli, Q. Rahmon, M. Ibrohimov kabi dramanavislarning an'analarini davom ettirib, kreativ tarzda rivojlantirdilar.

### Foydalaniłgan adabiyotlar

1. Azerbaycan Edebiyati Tarihi: 3 ciltte. XX. esrin evvelerinden 1970-ci ile qeder. II. cilt / Cildin red.: A. Sultanlı, E. Mir Ehmedov, K. Talibzade. – B.: Azerbaycan SSR EA, 1980. – 908 s.
2. Azerbaycan Filoloji Fikri: Dünen, Bugün, Sabah / Elmi konfransın tezisleri. Red.: N.Q.Ceferov, M.M.Memmedov. – B.: Bakı Universiteti, 2001. – 83 s.
3. Azerbaycan Sovet Edebiyati Tarihi. I. Cilt. - B.: Azerbaycan Elmlər Akademiyası Neşriyatı, 1967. – 640 s.
4. Azerbaycan Sovet Edebiyati. – B.: Maarif, 1988. – 542
5. Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyıllıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). – B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.
6. Bahtiyar Vahapzade. Seçilmiş Eserleri. 12 ciltte. I-XII. ciltler. – B.: Elm, 2008.
7. Kasimzada F. XXI. asr Azerbaycan Edebiyatı Tarihi. – B.: Maarif, 1966. – 488 s.
8. Mir Celal, Hüseyinov F. XX asr Azerbaycan Edebiyatı. – B.: Maarif, 1982. – 428 s.
9. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 504 s.
10. Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. Bakü Universiteti Neşriyatı, 2007. – 564 s.

## MUSTAQIL O'LKANING HUR ADABIYOTI: YANGI SIYOSIY VA ADABIY MUHITGA YONDASHUVLAR

18 oktabr 1991 yilda Ozarbayjon parlamenti Ozarbayjon Respublikasining mustaqilligini e'lon qildi. 19 oktabr kuni Ozarbayjon, tuprog'i va millati bilan birga boshqa bir tongda uyg'ondi. Ko'k-osmon, yer-zamin, quyosh, havo barcha-barchasi oldingiday edi, shamol esar, qushlar sayrar, odamlar qayerlargadir yugurishar, hayot oldingisiday davom etardi. Ammo hamma narsada qandaydir bir boshqacha his-tuyg'u va rang hukmron edi. His-tuyg'u uzoq va qo'rqinchli jangu-jadallardan g'alaba bilan chiq-qan, necha kunlab to'xtamasdan ot yogurtirib, uyiga shoshilgan horg'in jangchini eslatuvchi baxtdan entikkan hayajon tuyg'usi hokim edi, ranglar esa alvonga tortgan binafsha rang tusida edi. 19 oktabr tongi yorug' va musaffo edi, faqat shaffof emasdi, hatto xavotirli edi. Bu his-tuyg'u va rang Ozarbayjonning hamma narsasida, shu jumladan, adabiyotida hukmron edi. Holbuki, Sovet davrida adabiyot ma'naviy jihatdan hamma narsaga hukmini o'tqazardi. O'quvchi (yurtdosh) faqatgina adabiyotdan umid qilar, savollarining javobini adabiyotdan izlar, satrlar orasidagi imo-ishoratlarni birdaniga anglab olishga intilishar, insonga, hurriyatga va hur tushunchaga chuqur nafrat bilan qaragan sotsializm tizimiga qarshi tuygan alam va g'azabni adabiy asarlar bilan ovutardilar.

Ozarbayjon ko'p asrlardan beri muayyan bir Sharq o'lkasi o'laroq ayricha bir zehniyatga sohib edi: davlat va jamiyatni hukmdor boshqarardi. Bu sohada hukmdorning rahbari muqaddas kitob, maslahatchilari diniy amaldorlar edi. Hukmdor rasmiy avtoritet edi, jamiyat nazdida ma'naviy jihatdan o'ng safda payg'ambarlar, so'ngra shoirlar, keyin esa diniy amaldorlar joy olgan edilar. Ya'ni shoirga hurmat juda yuqori edi. Yusuf Xos Hojib mashhur "Qutadg'u bilig" nomli siyosatnoma asarida, Ni-

zomiy Ganjaviy esa “Xamsa”sinı tashkil etuvchi asarlarida davlatni boshqarish va fuqarolar bilan munosabatlari masalasida hukmdorlarga maslahat bergen edilar.

Adabiyotning o'mi ham boshqa san'atlar ichida farqli va butunlay boshqacha edi. Me'morchilik, musiqa, haykaltaroshlik va rasm kabi san'at tarmoqlari bilan qiyoslansa, adabiyot xuddi bugungiday juda populyar edi, qamrov jihatidan yanada keng yoyilgan edi, hamina narsaga ochiq edi. Go'zal bir me'moriy asarni hamma ham ko'rmasligi mumkin edi. Biroq yaxshi bir she'r tildan-tilga o'tib, qisqa bir vaqt ichida butun aholi tabaqalariga yetib borardi.

Endi nima bo'ladi? 70 yillik ma'shum Sovet hukmronligi taixiga ko'milgan edi. Adabiyotga, san'atga, ijodga, ijodkorga tazyiq o'tkazgan, har kuni birorta qaror chiqargan, biror farmon e'llon qilgan, istagan paytida e-yo'q, be-yo'q sabablar bilan osgan, so'ygan, o'qqa uchirgan, qo'rqtgan yoxud yelkasini suvagan, iltifot ko'rsatgan, martaba, mashina, uy, dacha, yuqori maosh bergen butun boshli Kommunistik Partiya yo'q edi. Endi asarlar qanday yozilmog'i kerak edi, qay yo'sinda ko'rib chiqiladi-yu, yaxshi va yomon qanday farqlanadi, oq qo'chqor va qora qo'chqor qay shaklda aniqlanadi? Adabiyot va ijodni kim boshqaradi-yu, kim yo'lga solib turadi? Direktivlarni kim beradi? Yozuvchilar Uyushmasimi yoki mustaqil Ozarbayjon davlatining to'g'ridan-to'g'ri o'zimi? Yozuvchilar Uyushmasi butun xalqning ko'z o'ngida bo'lmasa-da, yozuvchilar oldida mish-mishlar, pichir-pichir va fitnaning uyasi, eng janjalkash, eng qattiq guruh va hizbiy talashuv-tortishuvlar makoni o'laroq bilinar edi. Yosh va tajribasiz davlatga kelsak, uning shu kunlardagi e'tibor qaratishi mumkin bo'lgan eng so'nggi narsa adabiyot edi. Ming bitta masala bilan boshi qotgan chorasiz davlat shoshqaloq bir vaziyatda va nima qilishini bilolmay boshi garang edi. O'z tasdig'ini topgan mahalliy bir ibora bilan aytganda “boshini yitirgan (yo'qotib qo'ygan)” edi. Armanistondan quvilgan chor-nochor qochqinlar-mi, O'zbekistondan Ozarbayjonga sig'ingan bechora mesxeti

turklarimi, Yuqori Qorabog' va atroflaridan oqib kelgan bir million atrofidagi qochqin va ko'chkinlarni joylashtirsinmi. Arman bosqinchilariga qarshilik ko'rsatsinmi, ichki va tashqi muxolifat bilan kurash olib borsinmi, Moskvaning, G'arbning ikkiyuzlamachi siyosatiga qarshi chiqsinmi, Ozarbayjon masalasida yangilish tomonga solib yuborilgan dunyo hamjamiyatini haqiqiy ahvoldan xabardor qilsinmi, qasddan qilingan nazariyalarni churitsinmi, haqiqiy demokratiyani joriy qilsinmi, yo'qsa hamma davlatlar singari demokratiya o'yini o'ynasinmi?

Bu vaziyatda adabiyotning gardaniga tushgan va undan kutilgan missiyani demokratiya degan janobat o'z zimmasiga olishga to'g'ri keldi. Faqatgina adabiyotdami? Yo'q, hayotning hamma sohasiga, siyosatga, iqtisodga, ijtimoiy, siyosiy va ma'naviy munosabatlarga... Turmush o'rtog'iga, do'stiga, ostiga-ustiga, mudiriga, o'quvchisiga araz qilganlar, zaharxanda bo'lganlar "bunaqa demokratiya bo'ladimi", "endi, demokratiya deganlari shumi, ya'ni", "o'rtoqlar, lutfan, demokratik yondashaylik" singari bir narsalar o'rtada edi. 90- yillarda eng ko'p ishlataligan kallima mana shu demokratiya so'zi edi.

Sobiq Sovet jumhuriyatlarida davlat ramzlari milliy ong tizimida juda muhim o'rin egallaydi. Unga bayroq, gerb, milliy marsh va milliy pul birlklari doxildir. Ular har bir mamlakatda yo'eskidan beri mavjud edi, yo Chor rejimi va Sovet rejimi orasida paydo bo'lgan qisqa davrlik mustaqillik davridan qolgan ramzlar edi. Sovet davrida mahkum millatlarning hamma milliy narsasi ta'qilangani uchun bu ramzlar hozirgi kunda g'ayrirus har bir yurtdosh tomonidan muqaddas bir obyekt sifatida bilinadi. Qizig'i shuki, sobiq Sovet Ittifoqi odamlari miyasida Sovet davridan qolgan ba'zi ramzlar haligacha saqlanib qolgan. Unga Fanlar akademiyasi, yozuvchilar, rassomlar, bastakorlar, me'moriy uyushmalar va boshqa kasbiy tashkilotlar kiradi. Ya'ni biror o'lkada Fanlar Akademiyasi bo'lmasa o'sha o'lkada ilm-texnik, Yozuvchilar Uyushmasi bo'lmasa adabiyot va yozuvchi bo'lmasligiga ishoniladi.

Ne tongki, 1991-92 yillarda Fanlar Akademiyasi, Yozuvchilar Uyushmasi kabi ayrim tashkilotlarning yopilishi dolzarb masalaga aylandi. Chunki ularga davlat yelkasidagi ortiqcha xarajat sifatida qarala boshlandi. Ustiga-ustak, Xalq Jabhasining ba'zi liderlari qayta qurish va oshkoraliidan avval uzoq muddat Akademianing Tarix institutida tadqiqotchi yoki ilmiy xodim sifatida ishlagan, ne hikmatki, ulardan hech biri dissertatsiyasini himoya qilgan yoki yozib bitirgan emasdi. Bunda Ozarbayjonning mustaqilligi masalasida Institut rahbariyati bilan oralaridagi siyosiy va ilmiy fikr ayroligi ham muhim rol o'ynagan edi. Barakat topsin, na Fanlar Akademiyasi, na Yozuvchilar Uyushmasi, na boshqa tashkilot va muassasalar yopilmadi; faqatgina qiyin bir davr yashab o'tildi, oylik ozligi sababli sifatlari xodimlar boshqa ishlarga o'tib ketdilar yoki xorijda, xususan, qardosh Turkiya universitetlarida ishlay boshlashdi. Yozuvchilar Uyushmasiga kelsak, moddiy qiyinchiliklarni bartaraf qilish maqsadida Uyushmaning ayrim bo'limlarini tijoriy tashkilotlarga ijara qilingan berish vositasida ahvolni tuzatishga harakat qilindi.

1993 yildan keyin ahvol asta-sekin o'zgara boshladи, chunki Haydar Aliyev qaytadan davlat tepasiga keldi. Haydar Aliyevning Ozarbayjon madaniyati, san'ati, adabiyoti uchun ahamiyatini bir-ikki o'rnat bilan ko'rsatib o'tish mumkin. 2015 yilda Ozarbayjon matbuoti 140 yoshga to'ladi. Uning butun 40 yili ilk daf'a 1969 yilda, ikkincha marta 1993 yilda davlat tepasiga kelgan Haydar Aliyev, 2003 yilda Prezident qilib saylangan va haligacha shu vazifadagi o'g'li Ilhom Aliyev davriga to'g'ri keladi. 1934 yilda ta'sis qilingan Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi 80 yillik bir moziyga sohibdir. Buning ham qariyb yarimi Aliyevlar davriga oid. San'at va madaniyatning, musiqa, rassomchilik, me'morçilik, haykaltaroshlik va boshqa sohalarning so'nggi 40 yillik va eng porloq davri Aliyevlar mahsulidir. Bu, suv yuqmaydigan bir haqiqat.

Ozarbayjon adabiyoti tarixida va rivojida Haydar Aliyevning roliga kelsak, Yozuvchilar Uyushmasining 1971 yilda o'tkazilgan 5- Qurultoyidan boshab 6- (1976), 7- (1981), 8- (1986) va 10-

(1997) qurultoylariga o'lkanning eng yuqori martabali boshqaruvchisi – Kommunistik Partiyaning birinchi sekretari o'laroq aynan o'zi ishtirok etgan va partiyaning madaniyat, shu jumladan, adabiyot siyosati, yozuvchilardan kutilayotgan vazifalar, adabiy jarayon haqida juda keng va qamrovli nutq irod qilgan. Ushbu nutqlar mazmun-mohiyati jihatidan Yozuvchilar Uyushmasi rahbariyati tomonidan qurultoyda qilingan hisobotlardan ko'proq qiziqarli edi deyish mumkin. Haydar Aliyev 1987 yilda Politbyuro a'oligidan va SSSR Boshvazir Birinchi Muovini vazifasidan bo'shagandan keyin Yozuvchilar Uyushmasining 1991 yilda o'tkazilgan 9- qurultoyiga maxsus taklif qilinadi. Bu yerda rasmiy nutq so'zlamasa-da, davra suhbatlarida adabiy jarayonni diqqat bilan kuzatib borayotganini ta'kidlagan. 10- Qurultoy arafasida keksa va yosh avlodga mansub yozuvchilar bilan uchrashuvi paytida bugungi adabiyotning missiyasi va kelajagi borasda o'z tus-hunchalarini aytib o'tgan edi [1].

Haydar Aliyev mamlakatda ikkinchi marta davlat tepasiga kelgandan so'ng yozuvchilarga davlat e'tiborining orttirilishi haqida maxsus qaror [2] imzolab, Yozuvchilar Uyushmasi nashr organlarining ("Ozarbayjon", "Gobuston", "Ulduz (Yulduz)", ruscha "Literaturniy Azerbaydjan" jurnallari va «Adabiyot» gazetasi) xarajatlari bundan keyin doimo davlat byudjetidan qoplanishini buyuradi. Keyinroq bu scmiz ro'yxatga "Dunyo adabiyoti" jurnali, "Adabiyot" gazetasining ruscha "Mir literaturi" ilovasi, "Hazar" jurnali, "Mutarjim" va "Ko'prik" jurnallart, ba'zi saytlar va elektronik portallar qo'shilgan.

Yozuvchilar Uyushmasida, Uyushmaga keyinchalik qo'shilgan Badiiy tarjima va adabiy aloqalar markazida, Ozarbayjon Adabiyot fondida, Badiiy adabiyot targ'ibot byurosida, Yozuvchilar Uyushmasi klinikasida, Yozuvchilarning Shuvalandagi (Boku atrofida) Yaratuvchilik Uyida ishlaydigan xodimlarning, Uyushmaning Shaki, Shirvon, Mug'on, Naxchivon, Qorabog', Ganja, Qazax, Quba, Mingechevir, Lenkaron, Sumgait, Aran shu'balarida va mamlakat tashqarisida faoliyat ko'rsatuvchi Moskva, Gruziya (Borchali) va Istanbul shu'balarida (jami 15

shu'ba) ishlaydigan xodimlarning maoshlari va xarajatlari butunlay davlat tomonidan qarshilanmoqda.

Ish bu bilan cheklanib qolmadı. Yozuvchilarning moddiy qiyinchiliklarini yengillatish maqsadida Haydar Aliyev keksa va yosh yozuvchilarga Prezident stipendiyasi berilishi haqida ham qaror chiqardi. Yozuvchilar Uyushmasi tomonidan tavsiya qilin-gan 70 nafar yozuvchining (yoshi asosan 70 dan oshganlar) bir qismi shaxsiy, bir qisimi faxriy stipendiya va 35 yoshdan kichkina 20 nafar iste'dodli yozuvchi esa maxsus stipendiya olishadi. Qariyb bir ming ikki yuz dollar atrofida stipendiyani keksa yozuvchilar umrining so'nggigacha, besh yuz dollarlik stipendiyani esa yosh yozuvchilar o'n ikki oy muddatda olishadi. Yil oxirida yosh yozuvchilarning ro'yxati butunlay o'zgartirilib, yangi ro'yxat tuziladi. Vafot etgan keksa nafaqa sohiblarining o'rniiga esa yangi nomzodlar ko'rsatiladi.

Yubileyi o'tkazilayotgan yozuvchilar uchun (agar hayot bo'lса) Haydar Aliyev mutlaqo qutlov maktubi yo'llagan, yubilyarni yuqori nishonlardan biri bilan taqdirlagan. Nishonni egasiga aynan o'zi topshirish va bu o'sha kuni samimiy bir nutq so'zlash, yozuvchining yoki boshqa yozuvchilarning hayoti bilan bog'liq Sovet davriga aloqador yashirin ma'lumotlarni aytib o'tish Haydar Aliyevga xos xususiyat edi. Masalan, Baxtiyor Vahobzodaning 70 yillik yubileyiga aynan o'zi qatnashgan Haydar Aliyev ba'zi xotiralarni tilga olgan, KGBning qanday poyloqchilik qilganini, yozuvchilarning zarariga qanday qavariq hujjatlar yig'ma jildi to'planganini, o'zining necha martalab voqealarga aralashib, shoirlarni qay tarzda qutqarib qolganini aytib bergen edi. Ayniqsa, Baxtiyor Vahobzodaning Ozarbayjoni Eron va Rossiya orasida ikkiga bo'lgan Guliston kelishuvi (1813) haqida yozgan "Guliston" manzumasining KGBni qanchalik bezovta qilgani bilan bog'liq Haydar Aliyevning ilk marotaba oshkor qilgan ma'lumotlari jamoatchilikda katta qiziqish bilan kutib olinadi.

Haydar Aliyev hayotdan ko'z yumgan yozuvchilarning ham yubileyлari o'tkazilishi, tanlangan asarlarining nashr qilinishi haqida qaror chiqaradi. Mashhur yozuvchilarga yodgorlik toshlari

va haykallar o'matilishi, byust, hatto xotira-qabri tashkil etilishi, yashagan uyi devoriga xotira lavhalarining o'yib yozdirilishi, uy-muzeylarining ochilishi, ko'cha, prospekt, o'quv yurti, muassasa va hokazolarga nomi berilishi kabi ishlar Haydar Aliyevning ijodkor insonlarga nisbatan tuygan chuqur hurmat-ehtirom va cheksiz mehr-vafo sohibi ekanining o'rnatklaridir. Bokuda va mamlakatning turli yerlerida Haydar Aliyev davrida va undan avval mashhur bo'lган yozuvchilar xotirasiga o'matilgan obidalar, ham badiiy, hamda ma'naviy jihatdan millatni oyoqda tutish, yoshlarni vatanga muhabbat va ona tiliga sevgi ruhida tarbiyalash jihatidan katta ahamiyat kasb etadi. Nizomiy, Fuzuliy, Nasimiy, Xatayi, Mirza Fathali Oxundzoda, Notavon, Sobir, Jalil Mammadqulizada, Narimon Narimonov, Mammad Said O'rdbodiy, Husayn Jovid, Uzayir Xojibeyli, Ja'far Jabborli, Samat Vurg'un, Olmos Yildirim, Sulaymon Rahimov, Shixali Qurbonov, Rasul, Rizo, Sulaymon Rustam, Mikoil Mushfiq, Nigor Rafibeyli, Ismoil Shixli, Xalil Rizo Uluturk, Mammad Oraz, Aliog'a Vohid, Tavfiq Bayram, Jobir Navruz, Yusuf Samado'g'li, Ali Karim va boshqa yozuvchilarga qo'yilgan yodgorlikning katta qismi aynan Haydar Aliyevning tashabbusi va e'tibori natijasida o'rnatilgandir [4].

Shu o'rinda bir masalaga to'xtalib o'taylik. Haydar Aliyev 1937 yilda Sibirga surgun qilingan, keyinchalik u yerda vafot etgan mashhur dramaturg Husayn Jovidning 100 yillik yubileyini katta marosim bilan o'tkazish uchun 1981 yilda maxsus qaror chiqarib, uning uy-muzeyini ochadi, tanlangan asarlarini bosib chiqartiradi 1982 yilda tarixda bo'lмаган bir ishni amalga oshirib, 41 yil oldin surgunda o'lган shoirning suyagini Sibirdan (Jovid 5 dekabr 1941 yilda Rossiyaning Irkutsk viloyatining Tayshet tumanida Shevchenko qishlog'ida vafot etgan) Ozarbayjonga olib kelingan va tug'ilib o'sgan joyi Naxchivonda tuproqqa topshirilgan. 29 dekabr 1996 yilda esa Husayn Jovidning qabri ustida o'z tashabbusi bilan o'rnatirgan xotira-qabrnинг tashkil etilishida ishtirok etadi. Bu voqeа adabiyotning va adiblar homisi Haydar Aliyevning nomini Ozarbayjon adabiyotida abadiy o'larоq muhr-lanib qolishiga sabab bo'ldi.

Adabiyotchilarning taqdirlanishi Sovet tuzumiga xos narsa edi va haligacha davom etayotir. Qayta qurish va oshkoraliq davrida odamlar orasida ayirmachilikning kelib chiqishiga sabab bo'ldi degan vaj-karson bilan taqdirlashning bekor qilish mavzusi tez-tez dolzarb masala sifatida jamoatchilik o'rtasida bahsmunozara qilingan, faqat buning iste'dod egalari haqqi ekanligi fikri g'olib chiqqan edi. Mukofotlashning ilk etapi faxriy nomlar (unvonlar) berilishidir. Adabiyotchi uchun faxriy nom "Xalq shoiri" va "Xalq yozuvchisi" unvonlaridir. "Xalq shoiri" unvoni 1956 yilda ta'sis etilgan va dastlabkisi 50 yillik yubileyi munosabati bilan Samat Vurg'unga berilgan. Bugungacha 24 ozarbayjon shoiri ushbu faxriy unvonga loyiq topilgan. Turli yillarda, asosan, 60 yoki 70 yillik yubileyida, kam hollarda boshqa yil munosabati bilan (alifbo tartibida) Baxtiyor Vahobzoda (1984), Balash Ozaro'g'li (1981), Jobir Navruz (1999), Fikrat Qo'ja (1998), Qobil (1992), Xalil Rizo Uluturk (1992), Hukuma Billuriy (1998), Husayn Orif (1989), Mammad Oraz (1991), Mammad Rahim (1957), Marvarid Dilboziy (1979), Nabi Hazriy (1984), Narimon Hasanzoda (2005), Nigor Rafibeyli (1981), Usmon Sarivelli (1977), Rasul Rizo (1960), Sobir Rustamxonli (2005), Suhrob Tohir (1998), Sulaymon Rustam (1960), Vagif Samiado'g'li (1999) va Zelimxon Yoqub (2005) Ozarbayjon Xalq shoiri unvoni bilan taqdirlanganlar [5].

Millati bo'yicha ozarbayjon bo'lмаган, asarlarini boshqa tilarda yozgan ikki kishi ham Sovet davrida siyosiy mulohazalaridan kelib chiqilib, Ozarbayjon Xalq shoiri unvoniga loyiq topilgan. Ular mashhur rus adabiyotchisi, Sovet Yozuvchilar Uyushmasi boshqaruvchilaridan Nikolay Tixonov va Bokuda yashagan Ozarbayjon fuqarosi, arman millatiga mansub Samvel Grigoryan edi. Nikolay Tixonov Ozarbayjonning, Haydar Aliyev va yozuvchilarimizning samimi do'sti edi. Ozarbayjon adiblarining Bokuda, xususan, Moskvada eng nufuzli marosimlar o'tkazilgan Ittifoqlar Uyining Ustunli Saroyida tashkil etilgan yubiley tadbirlerida hurmat-ehtirom ko'rgan, shoirlarimizning asarlarini ruscha-

ga o`girgan dunyo miqyosida mashhur adabiyot, siyosat va jamo-at arbobi edi. Samvel Grigoryanga kelsa, ozarbayjonchani yaxshi biladigan, xususan, Sobir va Oshiq Alaskerning she`rlarini mohirona arman tiliga tarjima qilgan va arman adabiyotiga aruz vazni-ni olib kirgan o`rta darajadagi bir shoir edi. Radioda ishlagan yillarimda armancha eshitirshlar bo`limi muharriri (afsuski familiyasini unutibiman) Bagrat, Samvel Grigoryanni shunday ta`riflar edi: "Siz uni yaxshi bilmaysiz, o`ta mug'ombir odam u. Yerivanga borgach, Bokuda yuragim siqiladi. bulvarda kezishdan va den-gizga qarashdan siqilaman. Bu yer go`zal, kunda 24 soat Ararat tog`ini tomosha qilaman, ko`nglim yoziladi. Bokuga qaytgach, uf, hayot bu yerda ekan, salqin bulvar, moviy dengiz! Yerivanda ni-mayam bor? Odam bitta toqqa necha soat qarab turishi mumkin? deb har ikki tomonni mamnun qilib katta miqdorda gonorar oladi".

Men tanigan armanlar orasida Bagratchalik obyektiv va betaraf kishi yo`q edi. Qorabog` voqealarining sodir bo`lishi va juda katta muammolar keltirib chiqarishini o`n yil oldin aytgan edi. Armanlarning Qorabog` masalasida jiddiy ekanini shunday bir misol bilan tushuntirar edi: "Uch kishilik bir xonaga kirib mikrofonda salom armanlar deb ko`ring. Kimsa sizni eshitmaydi. 50 ming kishilik stadionga kirib pichirlab Qorabog`dan keldim deng, hamma hayajonlanib Qorabog`danmi? Qachon olamiz Qora-bog`ni deya so`raydi...".

Xalq yozuvchisi unvoniga bugungacha 25 nafar yozuvchi lo-yiq topilgan. Bu unvon ilk marotaba 1960 yilda Sulaymon Rahimovga berilgan. Undan keyin navbat bilan Mirza Ibrohimov (1961), Mahdi Husayn (1964), Ali Valiyev (1974), Imron Qosimov (1979), Abulhasan (1979), Ilyos Afandihev (1979), Bayram Bayramov (1984), Ismoil Shixli (1984), Anvar Mammadxonli (1987), Iso Husaynov (1988), Husayn Ibrohimov (1991), Husayn Abbaszoda (1991), Sobir Ahmadli (1992), Maqsud Ibrohimbe-yov (1998), Yusuf Samado`g`li (1998), Akram Eylisli (1998), Anor (1998), Rustam Ibrohimov (1998), Elchin (1998), Aziza Ja`farzoda (2001), G`ilmon Ilkin (2003), Gulhusayn Husayno`g`li (2005), Jengiz Abdullayev (2005) va eng so`ng Mavlid

Sulaymono'g'li (2006) Ozarbayjon Xalq yozuvchisi unvonini olishgan [6]. Milliy va adabiy xiyonati tufayli Akram Eylislining Xalq yozuvchisi unvoni Prezidentning maxsus qarori bilan olib qo'yilgan, shu tariqa ularning soni 24 ga tushgan. 2003 yilgacha berilgan faxriy nomlarning barchasi Haydar Aliyev davriga, 2003 yildan beri Ilhom Aliyev davlat tepasiga kelgan davrga oiddir.

Xalq shoiri va Xalq yozuvchisi unvoni eng iste'dodli va yoshi ulug' adiblarga berilgani bois boshqa qalam sohiblari boshqa unvonlar bilan mukofotlantiriladi. Bu unvonlar son jihatidan unc-ha ko'p emas. O'z sohasida uzoq yillar davomida kamchiliksiz mehnat qilgan ijodkor Xizmat ko'rsatgan san'at xodimi (xizmatchisi), Xizmat ko'rsatgan Madaniyat xodimi, Xizmat ko'rstanigan ilmiy xodim, Xizmat ko'rsatgan jurnalist kabi unvonlar beriladi. Bular asosan universitetlarda adabiyot va axborot fakultetlarida, San'at kafedralarida ishlaydigan Yozuvchilar Uyushmasi a'zosi muallimlar va to'g'ridan-to'g'ri Yozuvchilar Uyushmasi a'zosi bo'lган jurnalistlardir. Faxriy unvon egalariga jamiyat va davlat nazdida hurmat qozondirish bilan cheklanilmaydi, har oyda qariyb 75 dollar atrofida moddiy manfaat ham yaratiladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra kelajakda bu raqamning maksimal maoshning bir necha misliga aylantirishi mo'ljallanmoqda.

Medal va nishonlar ham imtiyozga kiradi. Yosh chog'ida "Taraqqiy" medalini olish bir yozuvchi uchun xayr ishorasi, kelajagi uchun esa tamal toshidir. Ushbu unvonlardan keyin navbat bilan "Shuhrat", "Sharaf", "Istiqlol" va "Haydar Aliyev" nishonlar joy olgan. Bugungi kungacha Yozuvchilar Uyushmasidan 2 kishi "Taraqqiy" medalini, 28 kishi "Shuhrat", 1 nafar yozuvchi "Sharaf" nishoni, 11 nafar yozuvchi bo'lsa "Istiqlol" nishoni bilan taqdirlanganlar [7]. Hozirgacha ayrim xorijlik va mashhur ras-som Tohir Salohovdan tashqari biror kimsa, shu jumladan, hech bir yozuvchi "Haydar Aliyev" nishoniga loyiq topilmagan.

Olkamizda Ozarbayjon Davlat mukofoti va Haydar Aliyev fondi mukofotini olgan bir necha yozuvchi bor. Faqat bu mukofotlar yanada keng sohalarni qamrab olgani uchun (ilm, madani-

yat, tarix, texnika, va h.k. kabi), ustiga-ustak, Davlat mukofoti ikki yilda bir marta berilganidan hozircha adabiyot sohasida sovrindorlari kam.

Sovet davrida eng yuksak mukofotlar Lenin mukofotini keyinchalik nomi Davlat mukofotini deb o'zgartirilgan Stalin mukofotini edi. Turli yillarda 10 nafar yozuvchimiz Stalin va Davlat mukofotiga loyiq topilganlar. Bular mukofot olgan yiliga qarab Samat Vurg'un (1941 va 1942 yillarda), Haydar Husaynov (filosof-yozuvchi, 1947), Mammad Rahim (1949), Mirza Ibrohimov (1950), Mahdi Husayn (1950), Sulaymon Rustam (1950), Rasul Rizo (1951), Nabi Hazriy (1979), Baxtiyor Vahobzoda (1980), Rustam Ibrohimbeyovlardir (1981). Sovet davrida Ozarbayjondan mashhur bastakor Qora Qorayevdan tashqari san'at dunyosida biror kimsha Lenin mukofotini ololmagan [8].

Sovet Ittifoqi davrida grajdalar va harbiy o'laroq turlicha medal va ordenlar bor edi. Ordenlar orasida eng nufuzlisi navbat bilan Lenin ordeni, Oktabr Inqilobi, Qizil Mehnat Bayrog'i, va Xalqlar Do'stligi ordenlari edi. Ko'plab ozarbayjon yozuvchilar ushbu nishonlardan hech bo'limganda bирortasiga va bir nechta-siga sazovor bo'lishgan. Medal olgan yozuvchilarimizning soni to'laqonli aniq emas.

Sovet davrida eng yuksak faxriy unvon Sotsialistik Mehnat Qahramoni edi. Bu, Sovet Ittifoqi Qahramoni harbiy unvonining fuqaroviyligi muqobili edi. Bu unvонni olish juda ham mushkul edi. Ozarbayjondan faqtgina 4 nafar yozuvchi bu unvonga loyiq topilgan. 1975 yilda Sulaymon Rahimov, 1976 yilda Sulaymon Rustam, 1980 yilda Rasul Rizo va so'nggisi bo'lib Mirza Ibrohimov Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvonini olishgan [9]. Tabiiyki, Haydar Aliyevning siyosiy dastagi bo'lmasdan bunga erishish qiyin edi. TVdagi bir yubiley tabrigida Haydar Aliyev bu masalada ba'zi bir hayron qolarlik misollar keltirgan va mashhur musiqashunos Maestro Niyoziyga Sotsialistik Mehnat Qahramoni unvonini olish uchun qanday kurashganini shu tarza aytib bergen edi: "Eng yuqori amaldorlarga (o'z davrida Sovet Ittifoqining bosh lideri Leonid Ilich Brejnev va Politbyuroni nazarda tutgan

edi – R.A.) taklif bilan chiqdim. Hayratga tushishdi. Sovet tarixida hech bir musiqa bastalovchisiga bu unvon berilmagan edi; Rossiyada bunday kishi yo‘q. Ukrainianada ham yo‘q. Belorussiya da ham yo‘q deyishdi. Men qaysarlik qilib so‘zimda turib oldim. Unday bo‘lsa ilk kishi Ozarbajjondan bo‘lsin dedim. Nihoyat hammani ko‘ndirdim”.

Bir qancha Ozarbajjon yozuvchilarining yubileyari Moskva vada Sho‘rolar miqyosida qutlangan. O‘sha paytlarda Moskva universiteti o‘quvchisi ekan Bolshoy teatrda va Ittifoqlar Uyining Ustunli Saroyida o‘tkazilgan ba’zi yubileylarga qatnashgan edim.

Haydar Aliyevning yozuvchilarining yubileylarida so‘zlagan ma’ruzalari xuddi qurultoy ma’ruzalari singari porloq va qiziqarli edi. Masalan, Sulaymon Rustam va Mirza Ibrohimovning yubileylarida Ozarbajjon she’riyati va nasrini xuddi adabiyotshunos professorday boshdan-oyoq tahlil qilib, ushbu ikki yozuvchining ijodida Janubiy Ozarbajjon va bo‘lingan vatan mavzusini ishtirokchilarining ko‘z o‘ngida gavdalitrgan edi. Holbuki, o‘sha paytgacha hatto Janubiy Ozarbajjon nomi rasmiy davralarda tilga olinmagandi. Mashhur bastakor Qora Qorayevning yubileyida so‘zlagan chiroyli bir ma’ruzasida xuddi musiqa va san’at profesori darajasida edi.

Ehtimol, dunyoda juda kam lider adabiyot va san’atga, gaza ta va jurnalga, radio-televideniyega, jamoaviy axborot va propaganda vositalariga Haydar Aliyevchalik ahamiyat bergen va o‘z siyosatida ulardan Haydar Aliyevchalik foydlangan bo‘lsa kerak. Bu sohada uning boy tajribasi va namuna bo‘lishi kelajak tadqiqotlariga mavzu bo‘ladi va izlanishlar olib boriladi.

Haydar Aliyev adabiyotga nima sababdan ahamiyat berishini shunday izohlaydi: “Bugun mustaqillik haqida gapirar ekanmiz adabiyotimizning xalqimiz uchun qanchalik boy meros va xazina ekanini ta’kidlab o‘tish kerak... Adabiyotimizning xalqimizga qilgan eng buyuk xizmati shundan iboratdir: Shoirlarimiz, yozuvchilarimiz o‘z asarlari bilan Ozarbajjonda, xalqimizda, millatimizda, doimo milliy tuyg‘ularni uyg‘otishga harakat qilganlar. Milliy

jonlanish va uyg'onish jarayoni to‘g'ridan-to‘g'ri adabiyot vosi-tasida amalgal oshgan.... Bugun biz mustaqil davlat sifatida go‘zal ozarbayjon tili bilan g‘ururlanamiz. Ozarbayjon tilining shakllan-nish va rivojlanishida, bugungi yuksak saviyaga yetishishida yo-zuvchilarimizning, shoirlarimizning, adabiyotshunoslarning, tils-hunos olimlarning buyuk xizmati singgan” [10].

Haydar Aliyevning adabiyotni yuksak qadrlashi, adabiyotchiga nisbatan ko‘rsatgan hurmat va ehtiromi, qalam ahliga bo‘lgan mehribonchiligi, jo‘mardlarcha qilgan moddiy va ma‘naviy dastagi mustaqillik yaratgan hurriyat bilan birlashib yozuvchilarda cheksiz bir ishonch tuyg‘usiga aylandi. Yozuvchilar ongi-da “Haydar Aliyev hayotdadir, biz bilandir, purtanalar bizga tash-lanishi mumkin, sig‘inadigan ishonchli sohilimiz bor” tushunchasi hokimdir. Baraka topsin, bu tushuncha aslo bo‘sh ketmagan, biror kishining orzusi sarobga aylanmagandir.

### Foydalilanigan adabiyotlar

[1] Azerbaycan Prezidenti Haydar Aliyev’ in Yaşlı Nesilden Olan Yazıcıların Bir Grupu ile Görüşü; Edebi Gençk Nlimayendeleri ile Görüşü // Edebiyat gazetesi. 31.10. 1997.

[2] Azerbaycan Yazıcılarına Devlet Qaygısının Arttırılması Hakkında Azerbaycan Respublikası Prezidentinin Ferman Azerbaycan gazetesi. 25.10. 1997.

[3] Yazıcılar Birliginin Bölmeleri / Azerbaycan Yazıcılar Bırığı - 75. Baku, Letterpress, 2009, s. 114.

[4] Azerbaycan Şair ve Yazıcılarının Heykelleri / Azerbaycan Yazıcılar Bırığı - 75. Baku, Letterpress, 2009, s.225-256.

[5] Народные поэты Азербайджана / Союз писателей Азербайджана - 75. Baku, Letterpress, 2009, s.142-152.

[6] Народные писатели Азербайджана / Союз писателей Азербайджана - 75. Baku, Letterpress, 2009, s.153-166.

[7] Ali Devlet Mükafatlarına ve Fahri Adlara Layık Yaziçi ve Şairler / Azerbaycan Yazıcılar Bırığı - Letterpress, 2009, s. 123-126.

[8] SSRİ Devlet Mükafatı Almış Azerbaycan Yazarı ve Şairler / Azerbaycan Yazarlar Birliği - 75. Baku, Letterpress. 2009

[9] Sosyalist Emegi Kahramanı Fahri Adına Layık Azerbaycan Yazarı ve Şairleri / Azerbaycan Yazarlar Birliği. Baku, Letterpress, 2009, s. 123-126.

[10] Речь Гейдара Алиева на X съезде писателей Азербайджана / Союз писателей Азербайджана - 75. Baku, 2009, s.100-108.

[11] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). - B.: Nurlar, 2011. – 1056 s.

[12] Muasır Azerbaycan Edebiyyatı Tarihi. İki Ciltte. Bakü Üniversitesi Neşriyatı, 2007. – 564 s.

## OZARBAYJON NASRI 1991-2000 YILLARDA

1991 iylda Ozarbayjon rasman mustaqil, adabiyot bo'lsa erkinlikka qovushdi. Davlat bir onini ham qo'ldan boy bermay o'z vazifasini, ish mexanizmini davom ettirdi; davlat qilishi kerak bo'lgan hamma narsa bajara boshladi. Adabiyotning yangi ahvolga o'rGANISHI va moslashuvi hurriyatni his qilishi kerak edi. Bu jarayonning muddatini aniqlashning imkonи yo'q; balki ayrim shoirlar 18 oktabr kunida muayyan she'rlar yozgan bo'lishi mumkin. Bu she'rlar, oddiy bir ishq-muhabbatga bag'ishlangan bo'lishi yoki mustaqillik kuniga maqtov bo'lish ham mumkin. Ammo umuman olganda, adabiyot chaqqon sport qayig'i emas, og'ir bir okean kemasidir. Hamma narsaga zudlik bilan javob bermaydi, berolmaydi ham. Chunki adabiyot yaratuvchilik, san'at ishidir, shaxsiy, individual bir ishdir. "Badiiy nasr, jamoaviy va siyosiy jarayonlarni asta-sekin va gantel shaklida aks ettirishga moyildir" [1].

Bu, to'g'ri va tushunarli bir narsa. Faqat biz 70 yillik bir qattiq Sovet senzurasi, KGB tazyiqi, Sibir surguni, otib tashlanish qo'rquvini boshdan kechirgan bu iste'dodli adiblarning yurak qoni bilan yozilgan, faqat yuzaga chiqarishning iloji bo'Imagan, yetti kalitli sandiqlarda saqlangan san'at asarlarini kuta-kuta charchadik. G'arbda "muxolifat" adabiyoti deb ataladigan namunalar bizda yo'q emish... Hayrat! Shunday bo'lishi mumkinmi? Har bir yozuvchining hikoya va romanlaridagi satr orasi imo-ishoralari, mubolag'alarini bir joyga yig'sang bitta roman bo'ladi. Qanday qilib, hech qaysi yozuvchi san'at san'at uchundir shioriga mos ravishda birorta asar yozmagan, "hozircha sandiqda tursin, vaqt kelgach bosilib chiqadi demagan"; undan so'ng o'rtaga chiqib "jonajon sevgili kitobxonlar, aslida ko'p narsalar yozardim, ammo bu mash'um Soviet tuzumi va sotsialistik realizm ruxsat bermandi" deb o'zini oqlash yo'lidan bormagan. Yozuvchilar samimiy bo'lsalar edi shunday deyishlari lozim edi: jon shirindir deganlar-ku, to'g'ri ekan. 1937 yilda otilgan birodarlarimizni ko'rgach, qo'rqdik. Alohida asar yozmadik, shundan kelib chiqib, imo-ishora yo'lini tanladik. Bizzdan shugina, chumoli qarorichalik.

Mana shunday holatlarga atab aytilgan ozarbayjonchada juda chiroyli bir maqol bor. Qo'llar belda, ko'kragi shishgan, burun tip-tikka, bekorga chirangan, kurka kabi g'art-g'art qilib kerilgan, yon-atrofga chalim sotgan, past tog'larni o'zi yaratgan kabi kibirlangan va g'o'di-g'o'di (bekorga) gapiradigan odamlarga nisbatan shunday deyishadi: *Yohu, boqsang-a odamning og'ziga chulli guyon sig'maydi!*

Sandiq adabiyoti yo'q, ozodlikni birdaniga tarannum etish ham yo'q, mayli unda nima bor?

Gazeta bor, jurnalistlik bor, eski ta'qiqlangan mavzularni va kishilarни, shu jumladan, adiblar va asarlarni, vatan tarixidagi ba'-zi oq dog'larni jamiyatga yetkazish bor. Ozarbayjon Demokratik Respublikasining (1918-1920) tarixini, asoschilarining siyosatini, nufuzli kishilarini, parlamentini, davlat qurishdagi urinishlarini, ba'zi islohatlarni, bayrog'ini, milliy marshini, gerbini, pullarini xalqqa tanitish va milliy shuurni uyg'otish va kuchaytirish bor. Burjua millatchilari va ziyolilari deya ayblanib, 70 yildan beri muttasil ravishda nomi ta'qiqlangan, esga olinganda ham yomonlash, dog'tushirish uchun esga olingen Mehmet Amin Rasulzoda, Ali Bey Husaynzoda, Ahmad Og'ao'g'li, Ali Mardon To'pchi-boshi, Mirza Bola Mehmetzoda, Jayhun Xojibeyli, Ahmad Ja'farog'li va boshqa muhojir siyosiy va adabiy shaxslarning oqlanishi va asarlarining chop etila boshlashi 90- yillarning asosiy xususiyatidir. Shu jihatdan Mehmet Amin Rasulzodaning "Ozarbayjon jumhuriyati" [2] "Asrimizning Siyovushi";, "Zamonaviy Ozarbayjon Jumhuriyati", "Zamonaviy Ozarbayjon tarixi", "Zamonaviy Ozarbayjon adabiyoti" [3], "Ozarbayjon shoiri Nizomiy" [4], "Bolsheviklarning Sharq siyosati" [5] asarlari, turklashuv, islomlashuv, zamonaviylashuv shiorlarini olg'a surgan mashhur turkchi Ali Bey Husaynzodaning "Siyosati furusat" [6], "Qizil qorong'uliklar ichidagi yog'dular" [7], "Turklar kimdir va kimilardan iboratdir" [8], "G'arbning ilk dostonida turk" [8] nomli kitoblari, Mirza Bola Mehmetzodaning "Milliy Ozarbayjon harakati" [10] nomli asarlari ayniqsa muhimdir.

Yana o'sha yillarda Sovet ideologiyasiga teskari bo'lgani uchun ta'qiqlangan ba'zi asarlar, shu jumladan, Mir Muhsin Navvobning "1905-1906 yillarda arman-musulmon jangi" [11] nomli asari, mashhur romannavis Mammad Said O'rdubobodiyning "Qonli sanalar" [12] asari, eng yangi tariximizda Kavkazdag'i arman-turk to'nashuvlariga doir yozilgan ayrim kitoblar, "Qorabog'nomlar" ilk marotaba nashr yuzini ko'rdi.

Shu munosabat bilan klassik adiblarimizning ba'zi asarlari ham arxivlarning ochilishi bilan chop etildi. Masalan, mashhur yozuvchi Ja'far Jabborlining Sovet hokimiyatidan biroz avval yozilgan "Trablusgarb jangi", "Edirna fathi" [13] kabi turkni va turklikni madh qilgan asarlari nashr qilindi, hatto sahnalashtirildi.

1937 yilda Sho'rolar sinfiy dushman va zararli unsur deb e'llon qilib, Sibirga surgun qilgan yoki otib tashlagan ziyolilarning, yozuvchilarning mahkama hujjatlari, KGB arxivlaridan chiqqan tarixiy ma'lumot, hujjat va materiallar, xususan, Ziyo Bunyodovning "Qizil terror" [14], Murtuz Sodiqovning "Javobini tarix beradi" [15] kitoblari katta qiziqishlarga sabab bo'ldi. Haqsizlikka uchragan va oqlangan etgan yozuvchilarimizdan Ahmad Javod, Olmos Yildirim, Samad Mansur, Bakir Cho'bonzoda, Emin Obid, Salmon Mumtoz, Ali Nozim va boshqa yana bir qator ziyolilarning ba'zi asarlari kun nurini ko'rdi, biografiyalari, ijodi, ijod yo'llari ommaga havola qilindi.

Sho'rolar eng qo'rqqan ikkita sohada ham qiziqarli o'zgarishlar yuz berdi. Bulardan biri diniy sohadir. Ateist Sovet rejimi dinning, e'tiqodning, xususan, islom dinining ashaddiy dushmani edi. 1992 yilda Ziyo Bunyodov va Vosim Mammadaliyev "Qur'on karim"ning [16] ilk tarjimasini nashr qildirishdi 1993 yilda Narimon Qosimo'g'li ikkinchi "Qur'on" tarjimasini [17] kitobxonlarga havola qildi. "Hazrati Muhammadning hayoti", "Hotam-ul anbiyo" kitoblarining, Hazrati Alining "Nahj-ul balog'a" [18] asarining, islom dini bo'yicha ba'zi qulovuz (rahbar kitob)larning, 19-asrning mashhur marsiyanavis shoirlari Rojiy va Qumri kitoblarining nashri, faqatgina dindor toifaning emas, butun jamiyatning diqqatiga sazovor ish bo'ldi. Islomiq qadriyatlar

yangitdan jamiyatga qaytarildi, xalq e'tiboriga tushgan pirlarga va ularning ziyyoragohlariga borish uchun yo'l ochildi. Yangi masjid va jomelar qurildi. 1989 yilda Bokuda ochilgan Islom madrasasi tamalida Islom universiteti tashkil topdi. Boku Davlat universiteti qoshida Illohiyot fakulteti ochildi. 1990 yildan e'tiboran musulmonlarning muqaddas joylariga, ya'ni Makkaga va shialarning Mashhadga va Karbaloga ziyyaratga borishlari qonuniylashdi va davlat tomonidan tashkillashtiriladigan bo'ldi. Hatto "Islom" gazetasi nashr qilina boshladi. Barcha diniy bayramlar davlat tomonidan nishonlanadigan, rasmiy ta'til kunlari sifatida tanila boshladi.

Sho'rolarning ikkinchi asosiy qo'rquvi turkchilik edi. Mas'um bir madaniy oqim bo'lmish turkchilik Sovetlar nazdida panturkizm sanalib, qayerda uchratilsa boshi yanchilishi kerak edi. 1930- yillarda Sovet Ittifoqida milliy tuyg'ularga ega, yurtsevar ozarbayjon, tatar, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, boshqird, chuvash, qoraqalpoq, no'g'oy, hatto saxa (yoqut) ziyolilarining deyarli barchasi otib tashlangan yoki Sibirdagi, Uzoq Sharqdagi, Shimoliy qutbdagi va Markaziy Osiyodagi sovuq surgun lagerlarda jon bergen edilar, endi turkchilik yo'lida kurashadigan biror kimsa qolmagan edi. Suv uxlardan, dushman uxlamas deyishadi. Biror kor-hol yuz bermasin deya KGB yanada hushyor edi, 1940-nchi, 50-nchi, 60-nchi, 70-nchi, hatto 80-nchi yillarda panturkist oviga chiqqan edi.

Miyamni egovlaydigan bir voqeaga to'xtalib o'tishni istayman. 1985 yilda tanishgan keksa bir ozarbayjon ziyolisi menga 1937 yilda Leningradda univesitetda talaba ekan qo'lga olinib, Finlandiya chegrasiga yaqin Arxangelsk oblastiga surgun qilinishining qiziq hikoyasini aytib bergandi. Faqat universitet talabi bo'lgani uchungina qo'lga olingan va qiyonoqlarga solingan bu yigit ashaddiy millatchi sifatida tergov qilingan ekan. Baraka topsin, surishtiruv ishlarini olib borgan zabit Kavkaz xalqlarini va siyosiy tashkilotlarini, shu jumladan, Dashnoq va Musovot partiyasini bir-biridan ajrata olmaydigan bo'lib chiqadi. Bizning talabaga "Sovet tuzumining ashaddiy dushmani, imperializm malayı,

aksilinqilobiy Dashnoq partiyasining a'zosi" deb g'alati bir ayblov qo'ygan, bizniki ham biroz hadiksirab, biroz umid bilan chorasiz qabul qilib, lagerga surgun qilingan ekan. Uch yildan keyin Stalin surgundagi mashhur bir xodimni qayta chiqarganda bizniki "xalqlar otasi" Stalinga ariza yozib, unga beradi va Moskvadagi pochta qutisiga tashlab qo'yishini iltimos qiladi (Surgun qilinganlarning to'g'ridan-to'g'ri ariza yozish haqqi yo'q edi). Arizada o'zining ozarbayjon ekanligi, bir ozarbayjonning o'zi istagan taqdirda ham Dashnoq partiyasiga a'zo bo'lish imkonining yo'qligi, qynoqlar natijasida bu ayblovni qabul qilganini yozib, yanglish qamoqqa olinganini ko'rsatgan edi. Natijada bir anglashmovchilik soyasida qisqa bir muddatdan keyin ozodlikka chiqarilgan ekan. Endi siz haqiqiy Musovotchilarning yoki Musovotchi deb qamoqqa olingan ozrabayjonlarning ahvolini tasavvur qilib ko'ring.

Qayta qurish va oshkoraliq ilmiy tomondan ham bir narsa-larga yaradi. Hech bo'limganda qadimgi turk-run obidalari masalasida bir necha zaruriy kitob bosilib chiqdi. Bahoaddin O'geling "Buyuk Xun imperiyasi", Ziyo Go'kalpning mashhur "Turkchilik asoslari", Faruq Sumerning "O'g'uzlar (Turkmanlar)" kabi kitoblari tarjima qilindi.

20 yanvar mavzusi 90- yillar adabiyotida uzluksiz ravishda yozilgan. Faqat bu mavzu ko'proq his-tuyg'ularga murojaat etgani uchun she'r bilan ifodalanishga mosdir. Shu bois viloyatlar, tumanlar, hatto qishloqlarga aloqador 20 may va Qorabog' shahidlari mavzusida ko'p miqdorda hujjatli asarlar yozilgan bo'lsa-da badiiy nasriy asarlar juda kamchilikni tashkil etadi. Bu sohada Sobir Ahmadlining "Yanvar hikoyalari" [19], "Qorabog'ning qorli qalqonlari" [20], Fozil Rahmondarning "Asrga tatigulik kecha" [21], Rafiq Samandarning "Shahidlari" [23], Quli Qangarlining "Qonli yanvar shahidlari" [24] asari eng yaxshi namunalar hisolanadi.

90- yillar nasrida yangi davrga xos muayyan mavzular diq-qatni tortadi. Ulardan biri va birinchisi Qorabog' mavzuli asarlar-

dir. Qorabog' yo'lida jang qilish, vatanimiz, hududiy yaxlitligimiz, kelajagimiz, milliy borlig'imiz uchun nihoyat darajada muhimdir, hatto hayotiy ahamiyat kasb etadi. Ayol yozuvchilardan Zemfira Muharramli "Jangga qizlar borayotir" [25] kitobi bilan milliy tuyg'ularni ifodalagan. Yozuvchi ayni tuyg'ulariga Turkiya turkchasida Istanbulda nashr qildirgan "Qorabog'da savash bor" [26] nomli kitobida urg'u bergen. Keksa yozuvchi Alibola Xojizodaning "Qon" hikoyasi ham ayni motivlarni tasvirlaydi. Bu yerda bizning beparvolik kasalligiga yo'liqqanligimiz, armanlar esa turkofobiya (turk dushmanligi) kabi tuzalmas bir marazga mubtalo bo'lganliklari ishonchli badiiy bo'yoqlar bilan tasvirlab berilgan.

Qorabog' mavzuli romanlarni ham son va sifat jihatidan yuqori deb bo'lmaydi. Avvalo, biz g'alabaga erisha olmadik, shu sababdan romanlar tugallangan asarlar emas. Ikkinchidan, bu mavzuni eng mukammal o'laroq voqealarни shaxsan o'z ko'zi bilan ko'rgan qochoq yozuvchilar qalamga olishlari maqsadga muvofiq (Qochoqlar orasida albatta yozuvchilar ham bor). Uchinchidan, mavzuning yetarlicha ifodalanishi va hazm qilinishi uchun biroz vaqt kerak. Sobir Ahmadlining "Guruh" [27], Ali Amirlichening "Maydon" [28] va "O'liklar tug'ilgan kent" [29], Orif Abdullazodaning "Qonli xotira" [30] romanlari Qorabog' va mustaqillik yo'lidagi jangu-jadallarning badiiy solnomasi hisoblanishi mumkin.

90- yillarning ba'zi asarlari alamli o'tish davrining muammolaridan bahs yuritadi. Odamlarning avvaldan beri o'rganib qolgan hayot tarzi, farovonligi, yaxshimi yomonmi bir ishi, ijtimoiy ishonchi bozor iqtisodiyoti dastidan bir onda barbod bo'lsa, ishsizlik, moddiy va ma'naviy qiyinchilik bois yomon ahvolga tushsa, yozuvchi va adabiyotning bunga kuzatuvchi bo'lib qolishi mumkin emas. Suhrob Tohirning "Skelet" [31], Tovfiq Qahramonovning "Totli piyoz" [32], Sobir Ozariyning "G'urub davri" [33], Mehribon Vazirning "Chechak yomg'iri" [34], Safar Kalbixonlining "So'nggi suvoqlash" [35] asarlari va boshqa asarlarda bu jihatdan jamiyat muammolari yoritilgan. Har tong uyqudan

uyg'ongach, ish quollarini olib, xalq tomonidan "qul bozori" degan g'arib nom bilan ataladigan mardikorlikka boruvchi va u yerda ish kutib turuvchi umidsiz, bir tiyinsiz, chorasz, faqir kishilar ning psixologiyasi, ichki dunyosiga bag'ishlangan bir qator hikoya, farovonlik va baxtning jamiyatdagi har bir shaxsning haqqi ekaniga urg'u berish adabiyotning insonparvar missiyasini ko'rsatadi.

90- yillarda xotira mavzusida ko'plab asar yozildi. Ular orasida eng diqqatga sazovorlari Manaf Sulaymonovning asarlaridir. Uning "Eshitganlarim, o'qiganlarim, ko'rganlarim" [36] nomli ilk kitobi 1987 yilda yozildi va katta qiziqish bilan kutib olindi. Asar izinma-ketin bir necha bor qayta nashr qilindi. Asosan 1918-20 yillarda 23 oy mustaqil yashagan Ozarbajjonda, poytaxt Bokuda yuz bergen voqealardan hikoya qiluvchi ushbu kitobning eng qiziqarli sahifalari turk armiyasining 1919 yilda Bokuga kiriши va qattiq intizom bilan tinchlik o'rnatishidir. Yozuvchi bu janrda boshqa xotiralarini ham tilga oldi: "Lahichda o'tgan kunlar" [37], "Xoji Zaynal Obidin" [Tagiyev] [38], "Musulmon dunyosida ilk jumuhuriyat" [38] nomli asarlari ham ayni qiziqish bilan kutib olindi. G'ilmon Ilkin qalamiga mansub "Boku va bokulliklar" [40] va "Tabriz xotiralari" [41] asarlari ham nostalgik hujjatli asar o'laroq insonni his-tuyg'ular sari yetaklaydi. Husayn Abboszoda "Boq, dunyodan qanday insonlar o'tgan" [42] sarlav-hali xotiralarida hamkasblarining, shu jumladan, Samat Vurg'un, Rasul Rizo, Rustam Sulaymon, Aliog'a Vohid va boshqalarning hayotidan juda qiziqarli epizodlar keltiriladi, ular bilan bog'liq ayrim voqealarga oydinlik kiritadi. Ayol yozuvchilarimizdan Alaviya Boboyeva "Rangli tushlar" [43] nomli xotira kitobida oltmis yillik adabiy moziiga ayol qarashlari bilan nazar soladi. Akram Eylislining "Eylisdan Eylisgacha" [44] nomli kitobida tug'ilib-o'sgan Eylis qishlog'idan o'rta maktabni bitirishi, nafa-qaga chiqishi va yana Eylis qishlog'iiga qaytishini hamda kechgan bu vaqt mobaynida boshidan kechirgan voqealarni bitta-bitta bayon qiladi, hayotda qozongan va yo'qotgan hamma narsani, adabiy va shaxsiy mojarolarini o'ziga xos shaklda tushuntiradi. Xalil

Rizo Uluturk ham qayerda bo'lmasin (rasmiy yig'ilish bo'lsin, do'stlar majlisi bo'lsin) yonidan qalın daftar chiqarib bir narsalar yozardi. Umrning so'nggigacha o'nلarcha jilda xotira daftari to'ldirgani haqida gapirishadi. Kun kelib ushbu xotiralar nashr qilinsa o'tgan kurnlardan, adabiyot va siyosat sohasida juda qiziqarli voqealarga doir ma'lumotlar ko'z oldimizda namoyon bo'lishi aniq. Marvarid Dilboziy, Aziza Ja'farzoda va boshqalar ham turli tadbirlar munosabati bilan, ayniqsa yubileyalar arafasida qalam do'stlari va hamkasblari Sulaymon Rustam, Mikoil Mushfiq, Abulhasan va h.k. haqidagi xotiralarini qog'ozga tushirganlar.

90- yillar Ozarbayjon adabiyotida hajv ham o'ziga xos o'rinn egallaydi. Bu, Sovet hajvidan farqlidir. Sovet davridagi hajv ideologiyaga va Sovet yashash tarziga teskari keladigan, asosan islam dini va mullaharga qarshi soxta kulgidan iborat hikoya, latifa, sahnacha va karikaturadan tashkil topgan narsalar edi. Maxsus hajv jurnali "Kirpi" bularning ma'nosiz namunalari bilan to'la edi. Klassik yozuvchimiz Abdurahim bey Haqverdiyevning har qanday manfiy obrazga "Maral" ismini qo'yishi, adabiyotda "Marallar" o'laroq tanilgan tiplar galeriyasining yaratilishiga (shakllanishiga) sabab bo'lgandi. Rasmiy ideologiyada bu turdag'i shaxslarga "antipod" deyilar, bundaylar Sovet jamiyatiga yarashmaydigan manfiy ruhiyatdagi kishilar sifatida baholanar edi.

Yangi davrda islam diniga til tekkizish va diniy xodimlarni pastga urish hollari qisman bo'lsa-da ozaygan, faqat butunlay o'rtadan olib tashlangan deb bo'lmaydi. Bu mavzudagi asarlarga Xojibola Amirning "Bir qop kulgi" [45], Xayriddin Qo'janing "Hamma o'z payini olib ketsin" [46] va boshqalari misol bo'lishi mumkin. Bir paytlar muqaddas xaj ziyyaratiga borgan kishilarning manfiy obrazlari adabiyotda va jamiyatda keng yoyilgan edi. 90-yillarning boshida Saudiya Arabiston'i qiroli tomonidan har yili Ozarbayjonga 2-3 ming kishilik katta bir xaj kvotasining ajratilishi, ko'p miqdordagi odamlarning, asosan eskidan qamalib chiq-qanlarning, puldorlarning, ma'naviy ayb qilgan amaldorlarning, qorong'u amal egalarining tavba uchun o'z mablag'i bilan xajga

borishi jamiyatda ma'naviy inflyatsiyaga sabab bo'lgan, har voqeanning tagidan biror xojining chiqishi adabiy asarlarda ham o'z aksini topgan edi. Shu bilan birqalikda, taqvo sohibi sof odamlar tipiga ham duch kelamiz. Masalan, Rauf Og'ayev "Bobo xajga borolmadi" [47] hikoyasida haqiqiy xaj nomzodi tipini tasvirlagan. Necha yillardan beri nafaqasidan ma'lum miqdorda pul yiq-qan bobo, nihoyat xajga borishga qaror qiladi. Boradigan yili boryo'g'i yuz dollar yetmay qoladi. Butun qarindoshlariga odam yuborib yuz dollar qarz so'raydi. "Tog'am uchun qarz bo'ladimi, ming dollar berayin, butun xarajatlarini faqatgina o'zim qoplayman" deb og'zini to'ldirib gapiradigan jiyani, "pul nima, amakimga jonim qurban bo'lsin" degan boshqa jiyani, yaxshi pul topadigan o'g'illari va nevaralari, boshqa qarindosh-urug'lari boboning qo'ygan shartlarini eshitgach, shoshib qolishadi. Bobo fahqat halol pul bo'lishini xohlab, "bir tiyini ham harom bo'lsa, bo'lmaydi" deydi. Qarindosh, qo'ni-qo'shni, yor-birodar, tanish hamma boboga yordam bera olmaganidan juda xafa bo'lishadi. Demak, barchaning pulida qandaydir bir miqdorda harom borenkan. Jamiyatdagi ma'naviy poklikning tarozisi, barometri bo'lishi hijatidan ushbu hikoya katta ma'noga ega.

90- yillar Ozarbayjon adabiyotida zamонавија и долзарб мавзулар билан бирга адабиётни actual масала сифатида тарихиев мавзулар ham egallay boshladi. Улар орасида Mammad O'ruchning "Ko'chirilish" [48], Miraslon Bakirlining "Egasizlar" [49] асарлари bugungi kunda Armaniston deb yuritiladigan eski turk yurtidan kuch ishlatish va zo'ravonlik yo'li bilan 1990-1991 yillarda haydab chiqarilgan millatdoshlarimizning fojecasini tilga ola-di. Bayram Bayramovning "Karvon yo'li" [50] romanı Jalil Matqulizoda bilan umr yo'ldoshi Hamida xonimning hayotini. Anvar Mammadxonlining "Bobak" romanı Ozarbayjonda 9. asrda yuz bergen arab istilosи va islomga o'tish jarayonini, Alisohib Isrofilzodaning "Gurzi ko'zi" [51] romanı 1920 yilda Ozarbayjonnı ishg'ol qilib, ostin-ustin qilgan 11. Qizil Armiyani tasvirlaydi.

90- yillar romaniga kelsak, Qorabog' mavzusidagi асарлар mashhur rus адабиёт nazariyotchisi M. Baxtinning "xronotop"

(kronos – zamon, topos – makon) tushunchasi doirasida yanada yaxshiroq anglashiladi. Zotan, falsafada zamon-makon birligi deb ataladigan bir kategoriya mavjud. M. Baxtin “Epos va roman” nomli kitobida [52] xronotopning adabiy asarlar turini aniqlashda roli katta ekanini ta’kidlagan. Xronotopda makon vositasida zamon va mutlaqo teskarisiga zamon vositasida makon aniqlanadi. Ushbu o’zaro aloqalar natijasida zamon va makon adabiy zamon va adabiy makon sifatida ko’z oldimizda paydo bo’ladi.

Qorabog’ mavzusida yozilgan asarlar doimo erkinlik, ozodlik yo’lida Bokuda Lenin maydonida (hozirgi Ozodlik maydoni) amalga oshirilgan namoyish, ish tashlash va noroziliklar bilan mos keladi. Bu romanlar haqida adabiyot tarixchisi Elchin Mehraliyev “Muhoraba va adabiyot” [53] nomli keng qamrovli tadqiqot olib borgan. Xalq yozuvchisi Mavlid Sulaymonlining “Gunoh duosi” [54], Vagif Sultonlining “Inson dengizi” [55], Vilodiy Bononlining “Umr oxirigacha jazo” [56] romanlari adabiy jihatdan yanada kuchliroq asarlardir.

Qorabog’ mavzuli asarlarda armanlarning turk dushmanligini 1890- yillardan e’tiboran boshlagani, Sharqiy Onado’li va Kavkazda 1895, 1905-1907, 1918-1920 yillarda musulmonlarga qarsishi g’addorlarcha yuritilgan qatlomi haqida ham zaruriy ma’lumotlar berilib, tarixiy zamon bilan hozirgi zamon, tarixiy makon bilan bugungi makon o’zaro birlashadi.

Qorabog’ mavzusida yozilgan asarlar orasida Isiy Malikzodaning “Qizil shayton” [57] asari ham diqqatga sazovordir. Yozuvchi, Moskvaning ikki yuzli siyosatini ochiqchasiga fosh qilib, Kremlning arman tarafdoi ish olib borishi qattiq tanqid qilinadi. “Qizil shayton” deganda yozuvchi to’g’ridan-to’g’ri Qizil Moskvanii nazarda tutadi. Bu asarlarda Qorabog’ jangining xalqimiz uchun katta fojea ekaniga urg‘u berilib, xalqning ongi oshirilmoqda, g’alaba qilishga da’vat qilinib, tayyorgarlik vazifasini o’tamoqdadir.

90- yillarda ko’plab asar yozgan adiblar orasida Aziza Ja’farzodaning alohida o’mi bor. Charchoq bilmas yozuvchi “Eldan elga” [58] nomli tarixiy romanida mashhur Ozarbayjon sayyohi va

olim Zaynal Obidin Shirvoniylar haqida hikoya qilib, uning Turkiya, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va arab o'lkalariiga amalga oshirgan sayohatlarini bayon qiladi. bu mamlakatlarda yashaydigan xalqlar hayotidan qiziqarli etnografik manzaralar tasvirini keltiradi.

Aziza Ja'farzoda "Gulistondan avval" [59] nomli romanida Ozarbayjonning 1813 yilda Rossiya va Eron orasida ikkiga bo'linishining ba'zi sahifalari, shu jumladan, Kurakchoy kelishuvni (1806) haqida ma'lumotlar beradi. Yozuvchi, "Zarrintoj va Tohirra" [60] va "Nur sari" [61] romanlarida bobiylilik va bahoiylilik tarixiga to'xtalib, ushbu tariqatlarning Ozarbayjonga aloqador ba'zi jihatlarini tadqiq qiladi. Aziza Ja'farzoda "Bir ovoz fojeasi" [62] romanida Ozarbayjonning ilk ayol xonandasini 1913 yilda Vengriyaning Monarx-Rekord firmasi tarafidan qo'shiqlari plastinkaga tushirilgan Mirza Gullarning fojeaviy qismatini yoritadi.

Aziza Ja'farzoda tomonidan qalamga olingan so'nggi tarixiy roman "Balo" [63] deb nomlanadi. Asar 1578-1587 yillar orasida Safaviy saltanatini boshqargan Muhammad Xudobanda davrida (Shoh Ismoil naslidan) Erondagagi turk urug'lari orasida yuz bergen siyosiy tortishuvlar va shohning harami Mahdi Ulyanining davlatni forslashtirish yo'lida say-harakatlarini yoritishga bag'ishlangan.

Boshqa sermahsul ayol yozuvchiimiz Alaviya Boboyeva 90-yillarda bir necha kichik hajmli kitob bilan birligida 4 ta katta romanni kitobxonlarga havola qiladi. Bular 1994 yilda yozilgan "Alvido" [64], 1996 yilda qalamga olingan "Balki tong otmad" [65], 1998 yilga oid "Telba Suna" [66] va 2000 yilda nashr etilgan "So'nggi charxpalak" [67] romanlaridir.

Yozuvchi Alibola Xojizoda 90- yillar adabiyotga butunlay boshqacha bir mavzu – Eron va Afg'oniston mavzusini olib kirib, adabiy dolzarb mavzularni qisman o'zgartirishga muvaffaq bo'la-di. Uzoq yillar davomida qo'shni o'lkalarda tarjimon bo'lib ish-lagan yozuvchining kuzatishlari natijasida o'rtaga chiqqan "Yo'qolgan kelin" [68] uchligi tez kunlar ichida mashhur bo'lib ketdi. Keyinchalik, sahnalashtirilgan, hatto TV serialiga aylantirilgan bu asar bugungi kunda ham o'quvchilarning diqqatini tor-tib kelmoqda.

Ozarbayjon adabiyotining mashhur siymolaridan biri bo'lgan xalq yozuvchisi Ismoil Shixli 1995 yilda vafotidn biroz avval qalamga olib "O'lgan dunyom" [69] deb nomlagan asarda Sovet davrida milliy shuurning qasddan buzilgani fikriga boradi. Yozuvchi "Kur" romanida tasvirlagan biroz feodal milliy hayotning, an'ana va urf-odatlarning, mardlik, jasurlik, shijoat, qahramonlik va musofirlik kabi tushunchalarining va qadriyatlarining bugungi kunga kelib butunlay yo'qolganini, ularning o'mniga sun'iy o'laroq sinfiy munosabatlarning suqilgani va tanazzulga yuz tutganligi ochiqchasiga yozib, buyuk bir millatning, qadimiy madianiyatning qanday yo'ldan og'ib ketganligiga urg'u bergen.

60- yillar avlodining mashhur vakili Anor 90- yillarda o'ziga xos energiya va jiddiylik bilan yozish-yaratishda davom etdi. 1992 yilda "Sizsiz" [70] roman-xotirasini nashr qildiradi. Otasi Rasul Rizo va onasi xalq shoirasi Nigor Rafibeylining hayoti, ijodi, mojarolariga doir hamma narsani bitta kitobda bir joyga to'pladi. Xuddi shu yili "Kentning yoz kunlari" [71] kitobini, 1995 yilda "Mehmonxona nomeri" [72], 1999 yilda "Dada Qo'rqt" [73] va "Dada Qo'rqt dunyosi" [74] tadqiqotlarini, 2000 yilda "1500 yilning O'g'uz she'riyati antologiyasini" nashr qildirdi.

Yana 60- yillar vakillaridan Elchin, "bu paytlarda nimalar yozdi ekan?" deb so'raydigan bo'lsak, yozuvchining o'ta barakali ijod qilganiga guvoh bo'lamiz. 1993 yildan beri Boshvazir muovini vazifasida bo'lishi, tez-tez majlislarda ishtirok etishi va tadbirlarda qatnashishi, bundan tashqari, xorijda rasmiy safarlarda bo'lishi nazarda tutiladigan bo'lsa Elchinning ijod uchun juda oz vaqt bo'lishi ayon bo'ladi. Zotan, yozuvchi TV chiqishlarida shosha-pisha munosabatda bo'lib, bir on avval bo'lsa ham u yo bu narsani yozish uchun talpinganini tez-tez tilga oladi.

90- yillarda Elchin klassik yozuvchidan Ja'far Jabborli, Nrimon Narimonov va Mehmet Emin Rasulzoda haqida kichik hajmli monografiyalar, nasr va adabiy tanqid, adabiyotning yaratuvchanlik muammolari, ishqiy she'rlar, dunyo mavzularida tadqiqotlar yozadi [76]. 1993 yilda "Umrning so'nggi tonggi" [77],

1996 yilda “Jinnixonadan telba qochibdi” [78], 2000 yilda “Boladadashning ilk muhabbatı” [79] nomli kitoblarini va shuningdek ko‘p miqdorda maqolalar yozadi.

Bu davrdagi asarlar orasida haqiqiy ma’noda adabiyot, san’at asari hisoblanadigan “Dengidagi qasirg‘a” [80] romani diqqatni o‘ziga tortadi. Maqsut Ibrohimbeyovning mohir qalamiga mansub bu roman mazmun jihatidan ko‘p zamonli, nufuzli kishilar jihatidan ko‘p millatlidir. Sovet Ittifoqi – Moskva – Ozarbayjon – Boku – neft, Iosif Stalin – Mir Jalol Bagirov – mashhur ximik olim Mammadaliyev, Germaniya – Gitler – Angliya – Cherc-hill – agent Shuls, Yevropa – Osiyo – Afrika – Amerika, mamlakatlar – qit’alar, urushlar – qo’shinlar – qon – g’alabalar – mag’lubiyatlar, ssenariylar – panoramalar – lavhalar – ... – yuqori tezlik – emaklatuvchi sarguzasht va boshqa obyektlar yozuvchining mohir qalamni vositasida bir joyda mujassamlashgan. Afsuski, ushbu qiziqarli, kaotik-murakkab roman adabiyotimizda o‘z o’mini ololmagan va onimalashmagan. Qanoatimizga ko‘ra, buning asosiy sababi asarini sotsialistik realizm chizig‘iga ongli ravishda moslashtiar olgan yozuvchining Sovet Ittifoqiga, Kremlga va sotsializmga nisbatan tuygan chuqur sempatiyasidir.

Qisman yosh yozuvchilardan Sodiq Eljonlining ijodi 90- yillarda ancha rivoj topdi va chuqur milliy mazmun kasb etdi. Yozuvchi, 1991 yilda qalamga olgan “Ong yarasi” [81] asarida mag’lubiyatlarimizning sabablarini tadqiq qilib, asosan o‘zimizning javobgar ekanligimiz fikriga keladi. Haqiqatan ham sen – men mojarosi, siyosatchilarga xos ma’nosiz, urra-urrachilik, qu-surli tortishuvlar, “insholloh, bir narsa bo‘lmaydi” falsafasi, “yo, armanlar bizga nima qila oladi. ham Kreml bunga yo‘l qo‘ymaydi” kabi tushunchalar natijasida katta fojealarga aylandi. Sodiq Eljonlining 1994 yilda o‘quvchilarga taqdim etgan “Qonli quzg‘un maydoni” [82] romani va 1999 yilda kun yuziga chiqqan “Mening mavqeim” [83] kitobi yozuvchining ayni milliy chizgida borganidan darak beradi.

Sovet davrida jurnalistikaning bir tarmog'i sifatida shakllangan va publitsistika deb ataladigan sohada (keng xalq ommasi uchun jamoaviy va ma'naviy jihatni ustuvor mavzularni tadqiq etuvchi alohida janr) yozadigan kishilar orasida Ziyaddin Sultonovning kitoblari muhim bir bo'shlqnini to'ldirgan. Uning "Qorabog' kundaligi" [84], "Xo'jali fojeasi" [85], "Oqdaradan kimdir kelayotir" [86], "Bu yerdan bir oqliq o'tdi" [87], "Bir qo'noqman bu dunyoda" [88], "Asirlar, garovdagilar, izsiz yo'qolganlar" [89] kabi yuqori sifatli kitoblari bir sira milliy mukofotlarga loyiq topildi.

Ushbu va undan avvalgi qismrlarning mushtarak xulosasini berish kerak bo'lsa, shu savolga javob topish lozim bo'ladi: 90-yillar Ozarbayjon adabiyotining, shu jumladan, nasming xususiyatlari nimada? Tabiiyki, savolning tom va qamrovli javobini topish juda qiyin bo'lsa-da, asosiy xususiyatlarini shu tariqa ko'rsatib o'tishimiz mumkin:

Birinchidan, fikrimizcha Ozarbayjon adabiyoti erkinligini yuz foiz anglab yetgan emas, faqat erkinlikning ta'mini olishgan. To'laqonli tushunib yetmaganligining sababini shu tariqa izohlash mumkin: avvalgi o'rganib qolgan usullardan voz kechish, yangi muhitga moslashish kutilganidek oson ish emas. Bundan tashqari, yozuvchi biror asar ustida ba'zan ko'p yillar davomida bosh qotiradi va uni yillar bo'ylab yozadi. Yaxshi bir roman miyada shakllantirilgandan stolda so'nggi nuqta qo'yilgunigacha 3-5 yil vaqt oladi. Siyosiy muhit, hatto ba'zan muhit o'zgarib, hamma narsa ag'dar-to'ntar bo'ladigan bo'lsa, bu jarayon yana ham cho'zilishi mumkin. Shu munosabat bilan mamlakat mustaqilligining ilk o'n yilligida muhtasham adabiy asarlarning o'rtaga chiqmasligini to'g'ri tushunish kerak.

Ikkinchidan, siyosiy tuzumning o'zgarishichalik muhim bo'lgan boshqa bir voqeа Qorabog' urushi va uning hayotga, shu jumladan, adabiyotga salbiy ta'siridir. Oddiy vatandoshga bo'lganidek yozuvchiga ham ma'lum bir pessimist (o'zini yerga urilgan deb bilish) tuyg'usini shakllantirgan bu urush, ijobiyl natija bilan yakun topmagani kabi katta bir asar bilan ham tojlantirilgan emas.

Adabiyot asosan senzurasiz, ideologiyasiz bir muhitda erkin ravishda rivojlandi. Davlat dastlab adabiyotdan uzilgan, faqat adabiyot nima bo'lsayam davlatdan uzilib qolishni istamagan bir sharoitda Haydar Aliyevning shaxsida u o'ziga tarafdror topdi. Asosan, madaniyat va san'atning, shu jumladan, adabiyotning rivojida Haydar Aliyevning ijobiy ta'sirini alohida ta'kidlab o'tish kerak. Yozuvchilar Uyushmasi tarkibidagi barcha tashkilot va nashr organlarining xarajatlarini davlat byudjeti tomonidan ko'targan Haydar Aliyev yuzga yaqin keksa va yosh adibga Prezident byudjetidan nafaqa va stipendiyalar berib, yozuvchilarining bemalol ishlashlari uchun zaruriy moddiy va ma'naviy muhitni yaratib berdi.

### Foydalanaligan adabiyotlar

- [1] Muasir Azerbaycan Edebiyyati Tarihi. İki critte. Bakü II. cilt. - B.: Universiteti Neşriyatı, 2007, s. 27.
- [2] Mehmet Emin Resulzade. Azerbaycan Cumhuriyeti. B.: 1990.
- [3] Mehmet Emin Resulzade. Asrimizning Siyawus'u. Çağdaş Azerbaycan Cumhuriyeti; Çağdaş Azerbaycan Tarihi; Çağdaş Azerbaycan Edebiyatı. B.: 1991.
- [4] Mehmet Emin Resulzade. Azerbaycan Şairi Nizami. B.: 1991.
- [5] Mehmet Emin Resulzade. Bolşeviklerin Şark siyaseti. B.: 1994.
- [6] Ali Bey Hüseyinzade. Siyaset-i Friruset. B.: İlim, 1994.
- [7] Ali Bey Hüseyinzade. Kırmızı Karanlıklar içinde İşklar. Azerneşr, 1996.
- [8] Ali Bey Htiseyinzad,e. Trirkreer Kimdir ve Kimlerden ibarettir. B.: Miitercim. 1997.
- [9] Ali Bey Htiseyinzade. Garbin İlk Destanında Türk. B.: Ağrıdag, 1998.
- [10] Mirza Bara Mehmetzade. Milri Azerbaycan Harekatı. B.: Nicat. 1992.

- [11] Mir Muhsin Newab. 1905-1906 yıllarında Ermeni-Müsülmân Savaşı. B.: Şur, 1991.
- [12] Memmed Said Ordubadi. Kanlı Seneler. B.: 1991.
- [13] Cafer Cabbarh. Edirne Fethi. B.: İlim, 1996.
- [14] Ziya Brinyadov. Kızıl Terör. B.: Azerneşr, 1993.
- [15] Murtuz Sadîkov. Yanıtını Tarih Verecek. B.: 1995.
- [16] Kur'an-i Kerim (Ziya Bünyadov ve Vasim Memmed-aliyev tercümesi). B.: Azerneşr, 1992.
- [17] Kur'an-i Kerim (Neriman Kasımoğlu tercümesi). B.: Azerbaycan, 1993.
- [18] Ali ibn Abutalib. Nеч-ül Belage. B.: Nurlar, 1994.
- [19] Sabir Ahmedli. Yanvar. Hikayeleri. B.: Azerneşr: 1992.
- [20] Sabir Ahmedli. Karabağ'ın Karşı Siperleri // Edebiyat gazeti, 9.04.1993.
- [21] Fazıl Rehmanzade. Asra Beraber Gece. B.: Işık :1991
- [22] Refik Semender. Şehitler // Azerbaycan, 1990:No, 9.
- [23] Sait Yakubov. Şehitler ve Şahitler. B.: 1990.
- [24] Yusuf Kengerli. Kara Yanvar Şehitleri B.: 1990.
- [25] Zenfira Muharremli. Doğu'ye Kızlar Gidiyor. B.: Dünya, 1997.
- [26] Zenfira Muharremli. Karabağ'da Savaş Var İstanbul: Turan, 1999.
- [27] Sabir Ahmedli. Kitle. B.: Azerneşr.1999.
- [28] Ali Emirli. Meydan // Azerbaycan, 1991. No. 1-4.
- [29] Ali Emirli. Ölü Doguran Kent. B.: Gençlik, 1999.
- [30] Arif Abdullahzade. Kanlı Bellek // Azerbaycan, 1992. No. 5-8.
- [31] Söhrap Tahir. İskelet // Edebîl'at gazetî' 1'01' 1997 '
- [32] foru Kahramanov' Tath Soşan Edebîvat gazetî' 1991.
- [33] Sabir Azeri.Gürub Çağı // Mustakîl gazet, 6-12.03. 1997.
- [34] Mehriban Vezir. Çiçek Yağmuru // 525-ci gazet. 23.04.1997.
- [35] Sefer Kelbihanlı. Son Sıvazlama. B.: 1998.

- [36] Manaf Süleymanov. Duyduklarımı, Okuduklarım, Gördüklerim. B.: Azerneşr, 1987.
- [37] Manaf Süleymanov. Lahiç'ta Öten Günler // Azerbaycan, 1993, No.1-8.
- [38] Manaf Süleymanov. Hacı Zeynel Abidin [Takiyev] // Azerbaycan, 1994, No. 4-6, 1995, No. 1-3.
- [39] Manaf Süleymanov. Müslüman Dünyasında ilk Cumhuriyet // Azerbaycan, 1998, No. 9-11.
- [40] Gilman İlkin. Bakü ve Baküller. B.: 1996.
- [41] Gilman İlkin. Tebriz Hatıraları // Azerbaycan, 1997, No. 1-2.
- [42] Hüseyin Abbaszade. Dünyadan Gör Nasıl İnsanlar Gitmiş. B.: Gençlik, 1998.
- [43] Aleviye Babayeva. Renkli Rüyalar. B.: Araz, 2000.
- [44] Ekrem Eylisli. Eylis'ten Elyis'ecen. B.: Çapoğlu, 2000.
- [45] Hacibala Emir. Bir Çuval Gülüş. B.: Ebilov-Zeynalov ve oğulları, 1998.
- [46] Hayrettin Koca. Herkes Kendi Payını Gotürsün. B.: 1998.
- [47] Rauf Ağayev. Dedem Hacc'a Gidemedi // Cuma gazeti, 1996.
- [48] Mərimmed Oruç. Göçürülmə. B.: Yaziçı, 1990.
- [49] Miraslan Bekirli. Sahipsizler // Azerbaycan, 1993, No. 1 -2.
- [50] Bayram Bayramov. Kervan Yolu. B.: I cilt, 1986, II cilt, 1993.
- [51] Alisahip İsrafilzade. Gürze Gözü. Gence: 1998.
- [52] М.М.Бахтин. Эпос и роман. Сборник. СПб.: Азбука, 2000.
- [53] Elçin Mehraliyev. Muharebe ve Edebiyat. B.: Azerneşr, 2000.
- [54] Mevlüt Süleymanlı. Suç Duası // Azerbaycan, 1990, No. 8.
- [55] Vakıf Sultanlı. İnsan Denizi. B.: Gençik, 1992.
- [56] Vidadi Babanlı. Müebbet Ceza // Azerbaycan, 1991, No.1-2; 1997, No.9-10.

- [57] İsi Melikzade. Kızıl Şeytan // Azerbaycan, 1992. No. 9-
- 10.
- [58] Azize Caferzade. İlden İle. B.: Gençlik, 1992.
- [59] Azize Caferzade. Gülistan'dan Önce. B.: Şur, 1996.
- [60] Azize Caferzade. Zerrintaç - Tahire. B.: Göktürk, 1996.
- [61] Azize Caferzade. İşığa Doğru. B.: 1998.
- [62] Azize Caferzade. Bir Sesin Faciası. B.: 1997.
- [63] Azize Caferzade. Bela. B.: 1999.
- [64] Aleviye Babayeva. Elveda. B.: Bedii Tercüme Merkezi, 1994.
- [65] Aleviye Babayeva. Belki Sabah Olmadı. B.: Şur, 1996.
- [66] Aleviye Babayeva. Deli Suna. B.: Şirvanneşr, 1998.
- [67] Aleviye Babayeva. Son Donge. B.: Azerbaycan, 2000.
- [68] Alibala Haazade. Yitkin Gelin. I-II-III kitap. B.: Azerneşr, 1992.
- [69] İsmail Şihli. Ölen Dünyam. B.: 1995
- [70] Anar. Sızsız (roman-hatıra). B.: Yazarı, 1992.
- [71] Anar. Kentin Yaz Günleri. B.: Yazarı, 1992.
- [72] Anar. Otel Odası. B.: Gençlik, 1995.
- [73] Anar. Dede Korkut. B.: Yurt, 1999.
- [74] Anar. Dede Korkut Dünyası. B.: Yeni Neşrler Evi, 1999.
- [75] Anar. 1500 Yılın Oğuz Şiiri Antolojisi. B.: Azerbacan, 2000.
- [76] Anar. Azerbaycan Yazarları XX-XXI yüzyıllıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 183.
- [77] Elçin. Ömrün Son Seheri. B.: Gençlik, 1993.
- [78] Elçin. Tımarhaneden Deli Kaçmış. B.: Gençlik, 1996.
- [79] Elçin. Baladadaş'ın ilk Muhabbeti. B.: Qapp-Poligraf, 2000
- [80] Maksut İbrahimbeyov. Denizde Kasırga // Azerbaycan, 1998, No.3-4.
- [81] Sadık Elcanlı. Bellek Yarası. B.: Yazarı, 1991.
- [82] Sadık Elcanlı. Kanlı Kuzgun Meydanı. B.: Gençlik, 1994.

- [83] Sadık Elcanlı. Benim Mevkiim. B.: Gençlik, 1999.
- [84] Ziyaeddin Sultanov. Karabağ Gündeligi. B.: Yaziçi, 1990.
- [85] Ziyaeddin Sultanov. Hocah Facası. B.: Işık, 1992.
- [86] Ziyaeddin Sultanov. Akdere'den Gelen Var. B.: Işık, 1993.
- [87] Ziyaeddin Sultanov. Burdan Bir Atlı Geçti. B.: Işık, 1994.
- [88] Ziyaeddin Sultanov. Bir Konugum Bu Dünyada. B.: Harbi neşriyat.
- [89] Ziyaeddin Sultanov. Esirler, Rehineler, Yitkinler. B.: Harbi neşriyat, 2000

## ÖZARBAYJON NASRI 2001-2015 YILLARDA

2001 yildan keyingi Ozarbayjon adabiyotining asosiy xususiyati nimada? savoliga shunday javob berish mumkin: adabiyot jamiyat nazdida eski jozibador va mistik kuchini, tilsim va sehrini yo'qotgan, oddiy bir san'at turiga aylanib qolgan. Bugungi kunga kelib adabiyotdan madad kutish, satrlar orasiga yashiringan imoishoralar izlash, Ezop tilini yechish davri o'z kuchini yo'qotgan.

Adabiyot jiddiyligini va eski kuchini yoki o'quvchilar adabiyotga nisbatan tuygan ishonchini yo'qotishganmi ajabo? Orada yo'qotish bor. Bunga shubha yo'q. Hamda o'zaro yo'qotish mavjud.

Adabiyot o'quvchilarning kutganlariga javob bera olmayapti. Dard ko'p, hamdard yo'q! Hayot og'ir, muammo ko'p! Hamma yomon ahvolda! Ishsizlik haddan oshgan, pulsizlik, kambag'allik, faqirlik, yo'qsillik keng yoyilgan! Hamma olib-sotar. Hamnia bir narsalar olib, bir narsalar sotishadi! Hamma tijoratciga aylangan! Harom-harish haloldan oldinlab ketgan. It izi bo'ri izi bilan aralashib ketgan. Din, iymon, insof, muruvvat qolmagan. Ma'naviy qadriyatlар o'zgargan, hatto yo'qolib ketgan. Fursatini qilgan joyini topgan, otni olgan Uskudarni kechgan. Qayerda bularning adabiyotda o'z aksini topishi? Adabiyot oddiy kitobxonni tanimaydi. Diplomlar qadrsiz! Texnika universitetini bitirganlar bugun taksichilik qilishadi. O'qituvchilar, duxtirlar 150-200 dollar maosh olishadi! Litseyni zo'rg'a bitirgan, sindan-sinfga qolib yurgan, universitetga hasrat ko'zi bilan qaragan kishilar ne tongki bugun millioner, tadbirkorga aylanishgan! Bular qayerdan paydo bo'lishdi? Yomg'irdan keyin chiqqan qo'ziqorin kabi qanday ko'payib ketdi? Harom luqma yegan, pora olgan, davlat xizmatchilari – ma'murlar jamiyatning eng hurmatli odamlari bo'lib olishgan! Qani bularning obrazlari? Olg'irlar hamma joyda hozir u nozir, biroq adabiyot hech biri haqida yozmaydi.

Bu savollarni adabiyotchiga, yozuvchiga bersang senga shunday javob beradi: go'yo men sizdan farqliday? Men ham faqirman, kambag'alman. Avvallari hech qanday xavotirim yo'q edi; kitoblarim davlat matbaasida o'n minglab tirajda bosilar,

menga esa katta miqdorda gonorar berilardi. Har yili yangi model import mashina olardim. Pulim mo'l, kayfiyatim yuqori edi, jamiyat muhandisi edim. Butun ish-kuchim kitobxonni va ijodni o'ylash va yozish edi. Endi bo'lsa cho'ntagimdan pul berib 400-500 dona kitob bostiraman, uni ham kitob dukonlariga o'zim tarqataman. bir haftadan keyin sotilmaganini eshitaman. Kitob oluvchi, kitob o'quvchi yo'q! Olg'irlarga kelsak, ularni men ham ko'rib turibman, biroq qaysi birini yozay? Bular katta-katta universitetlar qurishayapti, yirik fabrikalar ochishayapti, miliardlik banklar ta'sis qilishayapti, hatto siyosiy partiyalar tuzishayapti, ni-hoyat yo qamoqqa kirayapti yoki bo'lmasa xorijga qochishayapti. Hatto, eski Prezidentlar, eski Kommunistik partiya liderlari vazifasini tashlab xorijga qochib ketishgan. Xudo haqqi hayronman!

Haqiqatdan ham aytilganlarning hammasi bo'lib o'tgan yoki sodir bo'lmoqda, faqat adabiyot befarq. Nega? Balki mamlakat kichkina-yu, yozuvchi oz, sabab shu! Yo'q, mamlakat katta, yozuvchi ko'p. Olg'irlar, firibgarlar undan ham katta, xalqaro miq-yosda. Yozsang dunyo miqyosida mashhur bo'lasan.

Bu yerda adabiyotga ta'sir ko'rsatuvchi, nima bo'lsa-da, ko'z yumilgan nozik va milliy bir maqom mavjud. Avvallari o'lkamiz mustamlaka edi, milliy zulm va siyosiy ishg'ol ostida chor-nochor ingrar edi, siyosiy tuzum bizga begona edi, senzura bor edi, milliy davlatimizni qo'lidan chiqarib yuborgandik, milliy qadriyatlarimizni yo'qtgandik, sonsiz-sanoqsiz qurbanlar bergandik, yozuvchilar dardimizni, muanimolarimizni yozishar, ularning har bir imo-ishorasi yuragimizdagи tikanlarni olib tashlar, bizni ovutar, yupatardi. Endi, o'lka ham, adabiyot ham, adib ham erkin, senzura esa yo'q. Ammo muamnu bor, muammo! Yozish kerak!

2000- yillar nasrida bir qator infilyatsiya va zilzila ko'zga tashlanadi. Avvalo hamma yozuvchiga aylangan, adabiyot olamida nomi eshitilmagan hamma yozayotir. Hikoya yozish nima degani, to'g'ridan-to'g'ri roman yozishayapti. Bozor iqtisodiyoti bo'lgani tufayli nashr qildirish ham oson. Ber pulini, bostir ro-

manni. Romani ko'p o'qilmaganlar depretsiyaga tushadilar, chi-qib yangisini yozishmoqda. So'nggi davrlarda kallasiga kelganni yozadigan o'n besh, yigirma, yigirma besh yoshda, burni havoda ko'plab adiblar paydo bo'lib qolgan. Yozmoqdalar. Yozsinlar. Haqqi.

Bugunning eng populyar adabiy janri romanchilik. Mazmun va mavzu bo'yicha ko'p qirrali. Qorabog' mavzuli romanlar bor, tarixiy romanlar, psixologik romanlar bor...

Tanqidchi Vagif Yusufli romanga doir o'z fikrini shunday bayon qiladi: "Roman yozish badiiy tafakkurning bu keng sohasiga chiqish, detallarni epik lavhalar vositasida berish, ko'p qirrali voqealarni tasvirlash, romandagi obrazlarni xarakter tizmasiga solish tabiiyki qiyin. Bugun badiiy nasrimizda tom ma'noda roman qahatchiligi yuz bermoqda. Roman deb bosilgan asarlarning katta bir qismida ko'zga yaqqol tashlanuvchi asosiy alomat sifat emas, sondir. Anig'i shuki, yozuvchilar badiiy to'qimaga ko'plab voqeilar va obrazlarni jamlab, voqealarning borishini, hodisalarning mazmun va mohiyati, obrazlarning ichki rivojlanish jarayoni tamalida qurmaydilar, faqat yanada ko'proq voqealarni tasvirlash nomiga roman yozadilar... Boshqa bir ta'bir bilan aytganda, bugun bir qancha yozuvchilarning roman haqidagi tushunchalari 30-50 yilarning ayrim romanchilarining saviyasidan nariga o'ta olmagan" [1]. Bu davrda Qorabog' mavzuli romanlar orasida Mohira Abdullohning "Avval, oxir", Og'arahim Rahimovning "Ikkili dun-yom", Nushaba Mammadlining "Zangula", Elza Mullayevanining "Asir yuraklarning faryodi" asarlari adabiy jihatdan anchagina quvvatlidir.

Nushaba Mammadlining "Zangula" [2] romanida yosh, bola, keksa, erkak, ayol demasdan fuqarolarning asir olinishi, hech qanday yashash shariti bo'limgan eski sigir og'ilxonalarida va otxonalarda hayvon kabi ustma-ust yotqizilgan, qo'llari, oyoqlari bog'liq erkaklarning ko'z o'ngida qizlarining, xotinlarining nomusiga tegish kabi arman zulmining butun kirdikorlarini ko'z oldimizda namoyon qiladi. Asirlarning ichki organlarining xorijiy

o'lkalarda, Amerikada, Yevropada, Osiyoda va hokazolarda sotilishini ham alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Romanda tarixiy voqealar keng qamrovli tasvirlangan. Armanlarning 1905-07 yillarda Qurabog' va Zangizurda, 1915 yilda Turkiyada, 1918 yilda Bokuda, Shamaxi va Qubada oddiy xalqni qatlom qilishi haqida ma'lumotlar beradi. Qiyomat buvining tilidan 1918-20 yillarda armanlarning oddiy musulmon fuqarolarga qarshi amalga oshirgan jinoyatlari otasi Askarga qilingan vahshiylig misolida ko'rsatib beriladi.

Qorabog' mavzuli asarlarda armanlardagi turk dushmanligining 1890- yillardan e'tiboran tashqi qora kuchlarning gij-gijlashi bilan boshlagani, Sharqiy Onado'li va Kavkazda 1895, 1905-1907, 1918-1920 yillarda armanlarning musulmonlarga qarshi cheksiz g'addirliklar bilan amalga oshirgan qatlomlari haqida ham ma'lumotlar berilib, tarixiy zamon bilan hozirgi zamon, tarixiy makon bilan bugungi makon o'zaro uyg'unlashadi.

Bu mavzudagi asarlar orasida Elchin Mehraliyevning "To'qsoninchi yillar" [3] romani alohida diqqatga sazovordir. Birinchidan, yozuvchi Milliy Fanlar Akademiyasiga qarashli Nizomiy nomidagi Adabiyot institutida ishlagan va adabiyotimizda urush mavzusini tadqiq etgan mashhur mutaxassisidir. Ikkinchidan, o'zi ham Qorabog'likdir, qarindoshlari orasida qochoq holtiga tushgan, fojealarga duch kelgan ko'plab tanishlari bor, yozuvchi ulardan ipidan-ignasigacha xabardor. Uchinchidan, Elchin Mehraliyev asarida nihoyatda haqqoniy bir yo'ldan boradi, hujjatli film yaratayotgandek voqcalarni joy-joyida, odamlarni nomma-nom, shaxsma-shaxs, geografiyani qishloqma-qishloq, qasaqa-qasaba, mahalla-mahalla, ko'cha-ko'cha, uy-uy, tog'larni, te-palarni, past-balndliliklarni, qoyalarni, daralarni, uchurimlarni, kechuvlarni, buloqlarni, soylarni, ko'llarni, cho'llarni nihoyatda sinchkovlik bilan birma-bir, qadamma-qadam, qarish-qarish tashvirlaydi va ayni paytda umumiylashtirish va tipiklashtirishni ham unutmeydi.

Yozuvchi o'z asariga sovuq, qor-bo'ronli qish tasviri bilan boshlaydi, shu tariqa voqealarning tez va qattiq kechishiga ishora

qiladi. Qora qish insonning achchiq tolei, taqdiri ramzidir, og'ir fojealarning boshlang'ichi bo'ladi. Asarda bir oila a'zolari bo'lgan G'amza Abbas qizi, Kamol, Sari Muhammad, Yodulloh, Umid, Zarish, Husnibonu va Matlab armanlarning qishloqqa to'satdan bostirib kirishlari oqibatida qop-qorong'u kechada tog' yo'li bilan qochishga majbur bo'ladilar. Ta'qib qilingan, tuzoqqa tushirilgan bu kishilar birma-bir o'lim changalida jon berishadi. G'amza Abbas qizi miltig'ida qolgan so'nggi o'q bilan mansur bir armanni yer tishlatgandan keyin dushman qo'liga tushmaslik uchun o'zini soyga tashlaydi. Qurolsiz Kamol qurolsiz, bo'sh qo'llari bilan armanlarga hujum qilib, ulardan birini o'ldiradi, fagaqt o'zi shahid bo'ladi. Ko'p yillardan beri yaqin qo'shnisi va do'sti bo'lgan arman Samvel uning oldin ko'zlarini o'yib oladi, quloqlarini kesib tashlaydi, so'ngra boshini tanasidan judo qiladi. Yodulloh va ukasi Sari Muhammad qochqinlarga biroz vaqtadan yutishlari uchun armanlarning yo'lini to'sishni istashadi, faqat ko'pchilikdan iborat dushmanlar qarshisida ikkalasi ham shahid bo'ladi. Husnibonu qorong'ulikda sirg'anib ketib, jarlikka uchadi. Matlab, arman o'qiga duchor bo'ladi. Ammo qishdan keyin nima bo'lgaydam bahor kelishiga ko'ra asarning oxirida tirik qolgan Umid onasining yetishadi. Yozuvchi, sakkiz kishilik bir oila timsolida Ozarbayjon xalqining dushman bosqiniga uchrugani, yosh bir bola, ya'ni Umid timsolida Ozarbayjonning bu bosqindan qutulishiga urg'u beradi. Asarning o'quvchilarga qilgan badiiy murojaat ham qiziqdirdi: sakkiz kishidan yettitasi o'lsa hamki oxir-oqibatda g'alaba bizniki bo'lajak.

"To'qsoninchi yillar" romanida bu urushning 70-80 yil oldin boshlanganini, bugun boshqa bir muhitda davom etayotgani ta'kidlanadi. Tarixiy ma'lumotlar G'amza Abbas qizining tilidan hikoya qilinadi: xuddi bugungiday o'sha paytda ham to'satdan hamma narsa ostin-ustin bo'lgan, davlat va hukumat parishon ahvolda, armanlar musulmonlarga hujum qilgan, insonlarni o'ldirish, qishloqlarni yoqishni boshlab yuborganlar. Bokuda, Quba-da, Shamaxida, Xoqiqabulda bizning qonimiz suv kabi oqqan.

Urush o'sha davrda ham, hozirda ham ayni ssenariy bo'yicha davom etayapti: armanlar qurollangan, ozarbayjonlar qurolsizdir; ular hujum qilishadi. biznikilar himoyalanishadi. Har ikki davrda ham fatvo bergen ruslar, Rossiya boshchiligidagi G'arb kuchlari, imperializm, armanlarni qo'llab-quvvatlaydi, bizning orqamizda faqatgina Turkiya bor.

Romanda aniq bir shaklda qaysi obraz yoki obrazlarning bosh qahramonligi ochiq qolayotir. Munaqqid Vagif Yusufli bu masalda shunday bir fikr bildiradi: "Romanning bosh va adabiy qahramoni INSON – butun stixiyasi, hayat tarzi, fikr va mulohazasi, haq va hurriyati bilan o'z yurtida va butun yer yuzida inson-day yashash, sevmoq, sevilmoq, uy-joy qurmoq istagan inson! Elchinning 90- yillar asarida bizga taqdim etgan bu bashariy inson, madaniy dunyoning ko'z o'ngida o'limga, yo'qolib ketishga tark etilgan fuqaro, sodda Ozarbayjon isnonidir" [4, 228].

2007 yilda Oqil Abbos o'quvchilarga taqdim qilgan "Do'l" [5] romani adabiyotga bomba kabi ta'sir qildi, adabiy davralarda katta qiziqishga sazovor bo'ldi, kitobxonlar tomonidan cheksiz qiziqish bilan, hatto xursandchilik bilan kutib olindi. Chunki ilk marotaba bu asar voqealarni bu darajada ochiqchasiga va haqiqiy o'laroq, hech qanday jilolar va bo'yoqlarsiz, kutilmagan va shaf-qatsizlarcha tasvirlaydi. Ilk marotaba hamma o'z ismi bilan nomlangan edi. Asar nashr qilinganda ijobiy va salbiy munosabatlarni o'zi bilan birga olib keldi. Adabiyotda bundan-da normal bir narsa bo'lishi mumkin emas.

Asarning nomi ham o'quvchilarga bir narsalarni imo-ishora qiladi: bu ham osmondan yog'in shaklida yoqqan do'l, hamda u o'sha kunlarda armanlar qo'lida bo'lgan, keyinroq esa bizda ham ozmi-ko'pmi uchragan Sovet Armiyasining eng mudhish qurollaridan "Grad" (Do'l) nomli masxus qurol edi. Bironta Kamaz ustiga o'matilgan va u yoqdan bu yoqqa olib yuriladigan, bir paytning o'zida 40 yoki undan ko'proq raketani bir vaqtida shatranj xonalari kabi joylarni nishonga oladigan bu qurol Qorabog'dagi shahar va qishloqlarimizni dahshatga tushirgan tush edi, go'yo.

Borib tushgan joyida katta-katta maydonlarni xarobaga aylantiradigan, yoqib-qovuradigan Grad nihoyatda yuqori darajada shovqin chiqarar, barchaning ko'ngliga vasvasa solar edi.

Voqealar 1988-91 yillarda Qorabog'da va dunyoning eng boy shahrida sodir bo'ladi. Bu shahar tushunib yetganimizdek Yuqori va Quyi Qorabog'ning iqtisodiy va tijoriy markazi Ag'dam shahridir. Yozuvchi, o'z mamlakati bo'lmish bu shaharni shu tarzda ta'riflaydi: "Bizning bu shahar Sho'rolarning eng nufuzli, gurillab-yashnagan chog'larida bu nomni qozongan edi. Bu kent o'sha paytlarda bozoridagi har xil, qonuniy va noqonuniy tovarlari bilan maqtanardi. Hatto, Moskvada topilmaydigan narsalar ham shu bozorda topilar edi. Gap-so'zlarga qaraganda bu shahar bozorida atom bombasi ham sotilardi" [6, 70].

Bu yer oddiy bir Sovet Ozarbayjoni kentidir, uni kotib (Kommunistik Partiya tuman tashkiloti boshlig'i), rasmiy ravishda hu yerga yuborilgan davlat ma'murlari (qaymoqom, militsiya boshlig'i, prokuror, hokim va boshqa amaldorlar) va g'ayrirasmiy boshqaruvchilar idora qilishadi. Ikkinci guruhga shaharning ba'-zi nufuzli kishilari, Xalq Jabhasi a'zolari, vatanni, millatni arman bosqinlariga qarshi qo'riqlaydigan ko'ngilli harbiy guruuhlar kirdi. Rasmiy amaldorlardan ba'zi yurtsevar kishilar ikkinchi guruhga yashirincha yordam berishadi, Ganjada joylashgan Sovet qo'shinidan katta inablag' evaziga qurol-yarog' sotib oladi. Dunyoning eng boy kentini armanlardan, xususan, qo'rqinchli "grad'lardan qo'riqlashga tirishadilar. Aksincha, Bokudagi rasmiy idoralar ushbu hamkorlikdan bezovtadir, shahar boshqaruvchilariga bosim o'tkazishadi, ularni Xalq Jabhasiga taslim bo'lganlikda ayblaydi. ikki guruh orasida fitna chiqarish uchun KGBga buyruq beradi, hatto Ozarbayjon Kommunistik Partiyasining ikkinchi sekretari, Moskvaning jonkuyari Viktor Polyanichko Bokudan chiqib bu yerga keladi, voqealarni so'rab-surishtiradi, yurtsevar kishilarni vazifasidan bo'shatadi. Maqsadi bizni armanlar oldida zaiflashtirishdir. Bizning pulsor ba'zi kishilar bu holatdan o'z mansaatlari yo'lida foydalanadilar.

Roman hajman kichik, o'ntacha atrofida nufuzli obrazdan iborat. Hikoyasi ham sodda. Yarim kechada "grad"lardan o't ochila boshlaydi. Bitta o'q Musaning onasining ikki oyog'iga birdan kelib tegadi. Bokudagi duxtirlar ayolning oyog'ini kesish uchun Musadan ming manat pora so'raydilar. Dunyoning Eng Boy Shahrini qo'riqlaydigan ko'ngilli harbiy qismning "Drakon kod" nomli jasur jangchisi zudlik bilan bu pulni topish uchun urinadi, romandagi nomi Ot Belida Kezuvchi Odamdan pul so'raydi. U pul bermagach, askarlarni yuborib, uni oldiga olib keltirib, quroq uqtalgan holda shimini yechishni buyuradi. Juda vahimali va murakkab vaziyat paydo bo'ladi. "Palang kod" ismli yosh va jasur bir jangchi voqeaga aralashadi. Ikki jangchi orasida mojarov va janjal sodir bo'ladi, bir-birlarini endigina bo'g'izlamoqchi bo'lib turishganda Qo'mondon kirib keladi va voqeani tinchlantiradi. Faqat yuziga qattiq musht yegan Drakon Palangni o'ldirishga ont ichadi. Drakon bir muddat qamoqda yotgan o'ta jasur jangchidir. Palang ham undan qolishmaydi, qismida Drakon eng yaxshi ko'radian yigitdir. Bu yigit bir necha kun avval shaharga konservt qo'yishga kelgan dunyo miqyosidagi mashhur qo'shiqchi Rashid Behbudov turgan xonadan uning xanjari va qalpog'ini o'g'irlaydi, sevgan qiziga ko'rsatib, maqtanchoqlik qiladi. Xabar yoyilib ketgach, shahar ahli g'alayonga keladi. Rashid Behbudov konsertlarni to'xtatadi. Militsiya boshlig'i va prokuror yordam so'rab Drakonga murojaat qilishadi. U bo'lsa Palangni topib, o'g'irlangan narsalarni undan oladi. Bu marotaba esa mashhur qo'shiqchi Palang bilan tanishishni istaydi. Palang kelib, ishning aslida qanday bo'lganini uzr so'raydi, chiroyli bir qo'shiq kuylab o'zini kechirtiradi. Rashid Behbudov xanjar va qalpoqni Palangga sovg'a qiladi.

Qumondon ham boshidan ko'p voqealar o'tgan bir kishidir. Bir vaqtlar Elchibey bilan birga 18 oy qamoqxonada yotgan, uning universitetini bitirgan, Elchibeyni haqorat qilgan xodimning boshini tuvalet qutisiga suqqani uchun Osiyo qit'asining eng chekka uchidagi joyga, uzoq Magadanga surgun qilingan, u yerda

ham gapi o'tadigan odamlar orasida obro'ga ega bo'lgan, o'ta durust, ko'zini butoqdan ayirmaydigan, bir gapi ikki qilinmaydigan, yurtsevar bir yigitdir.

Boshqa xarakterlar epizodikdir, bir ko'rinish, bir ko'rinnmay qolishadi. Ular orasida Ot Belida Kezuvchi Odam, kotib, militsiya boshlig'i, Palangning onasi eng faol xarakterlardir. Kotib shahdag'i eng yuqori martabadagi boshqaruvchi, Boku rasmiy maqomlari oldida ma'suliyatli bo'lib, ko'pincha u yedan kelgan buyruqlarga qarshi chiqadi, oyoq tiraydi, yashirinchcha qurol sotib olib, ko'ngillilarga yetqazib beradi. Militsiya boshlig'i ham mudofaa-ga, jangchilarga qo'lidan kelguncha yordamni ayamaydi, Ot Belida Kezuvchi Odamning Drakonni o'rtadan yo'qot, seni Ganja shahrining militsiya boshlig'i qilay, Bokuda istagan uyingni olib beray, istaganingcha pul beray mazmundagi takliflarini darhol qaytarib tashlaydi, oxir-oqibat uning qilgan chaqimchiligi yuzidan Polyanichko tomonidan ishdan olinadi. Palangning onasi zahmatkash bir ozarbayjon ayolidir. Kecha-yu kunduz armanlar-ga nafratomuz so'zlamli yog'diradi. Turkiyaning bu ishga aralashib, tezlik bilan uni tugatishini hasrat bilan kutadi. Palang onasini ovutish uchun turklarning Bokuda do'nar (kabob)xona ochib, u yerda qurol-yarog' yasashayotganini aytadi, onasi bunga juda xursand bo'ladi. O'g'lidan og'izda Drakonni o'ldirish uchun, assida qismning xarajatlarini qoplash uchun Ot Belida Kezuvchi Odamdan olgan bir quti pulni qayerdan kelganini surishtirgach, buni turklar yuborganini, bu pul bilan qurol sotib olinishini aytadi. Palang shahid bo'lgach, onasi pulni keltirib, hammaning ko'z o'ngida Qumondonga beradi, Palangga ishonib, pulni turklar yuborganini ta'kidlaydi. Birdan maydonda turk bayrog'i o'rnatilib, hayajonli ko'pchilik: "Yashasin Turkiya!" deb hayqirishadi. Keyinchalik Palangning onasi Musaning oyoqlari kesilgan onasiga yordam beradi va shahid ketgan yoshlarning qabrlari ustiga gullar ekadi.

Drakon va Palangning bitta jangda dushmanning ustun kuchlarini qaytarib, qahramonlarcha shahid bo'lislilarini yozuvchi joni va ta'sirchan bir tarzda tasvirlab beradi. Xuddi shu kuni jang

maydonini tashlab qochgan harbiy qismilarning oddiy askarlarini to'xtatgan Qumondon ularning boshlig'i bo'lgan mayor bilan tortishib qoladi va qurolini chiqarib uni otib tashlaydi. Vaziyatni ko'rghan askarlar jasoratlanib, ortga qaytishadi va dushmanni bartaraf qiladilar.

Tabiiy ravishda Qumondon qo'lga olinadi, vatanga xiyonatdan boshqa bir qancha modda bilan, hatto nomiga xorijda pul keilib tushgan aybi bilan tergov qilinib, 15 yilga qamaladi. Bokuda qamoqxonada yotganida Yevropa Ittifoqidan u yotgan xonaga kirgan komissiya a'zolari bian shaxmat o'ynab, ularni yengadi. Ulardan biri "Bu, Fisher kabi o'ynaydi", deb Qumondonni maqtaydi. Qamoqdan chiqqandan keyin Bokuda bir uy ijara oladi, faqat uni bu yerda ham tinch qo'yishmaydi.

Bir kun choy ichib o'tirgan bir pallada qo'shni stoldagi uch jurnalistning suhbati qulog'iga chalinadi. Ular armanlarning siyosiy arboblari bilan bo'lgan uchrashuvlari va muloqotlari haqida bahs yuritib, armanlarni maqtaydilar. Diqqat qilib qarasa jurnalistlardan biri bilan oldin ham tanishganini eslaydi. Bu jurnalist bir vaqtlar u bilan so'zlashish uchun jang maydoniga kelgan edi. O'midan turib uchalasini ham yaxshilab savalaydi, og'zi-burnini qonga belaydi. Militsiya keldi, to'rtalasini ham idorasiga olib boradi. Ulami tergov qilishganda, jurnalistlar shovqin solib, Yevropa Kengashiga. Xalqaro Inson Huquqlari Komissiyasiga, o'ngga-so'lga qo'ng'iroq qilib, militsiyadan, hukumatdan shikoyatchi bo'lishadi. Militsiya boshlig'i Qumondonning yozganlari ni o'qigach, uni taniydi va o'midan turib, qo'li va oyog'ini yuziga surtib, "Siz bir marta mening otamni o'limdan qutqargan ekansiz" deydi. Ma'lum bo'lishicha, militsiya boshlig'i Ot Belida Kezuvchi Odamning o'g'lidir. U. jurnalistlarga keltirilgan moddiy zararning, sindirib tashlangan mashinaning zarari qoplanishini, har bir jurnalistga uch-to'rt manat jim bo'lishlari uchun pul, ya'ni pora berilishini buyurib, Qumondonni qo'yib yuboradi.

Qumondon taksiga minib, Dunyoning eng boy shahriga to'g'ri yo'lga chiqadi. Shahar bu paytga kelib armanlarning qo'lidadir. Eng so'nggi punktda mashinadan tushadi. U yerda bizning

qo'limizdagи yemakxonaga boradi. Yemakxona yaqinidagi koriza kirb, u yerda quroldosh do'stlari Drakon va Palangning ruhi bilan qovushadi. Ya'ni o'ladi...

"Do'l"ning qahramonlari o'zlarini istamasdan jangga aralishib qoladilar. Qizig'i shuki, bu jangning ssenariyi G'arb poytaxtlari-dagi eng katta saroylarda eng tajribali siyosatchilar va askarlar tomonidan yozilib, amaliyotga joriy qilingandir, faqat qahramonlarning bu haqda hech qanday xabarlar yo'q. Na ular, na Ozarbayjon bu ssenariyga zarracha aralashmaydi. Chunki ssenaristlar ham, uni boshqaruvchilar ham armanlarning qarindoshlari bo'lib, bu ssenariyning filmini dunyoning eng mashhuri ikki kinostudiysi – Gollivud va Mosfilm sahnalaشتiradi.

Asarning eng original tomoni – mana shu ochiqchaligidadir. Romanda Ezop tili ishlatilmagan, imo-ishoralarga hech qanday ehtiyoj tuyilmagan. O'z davrining haqiqatlarini aks ettirgan "Do'l" mustaqillikdan keyingi eng ta'sirchan, eng sifatli romanlaridan biridir.

Bu davrning eng yaxshi asarlari orasida Sobir Ahmadlining "Umr urasi" (ura – yerda qolgan chiqindi degani – R.A.), Komil Abdullaning "Yarim qo'lyozma", Akram Eylislining "Atirshoh Masan", Akif Alining "Azman", Kanon Xojining "Xotira karti", Zokir Sadatlining "Afg'oniston uchurimi", Narimon Abdulrahmonlining "Yo'lovchi", Elchin Husaynbeylining "Moviy oqcharloqlar", Eyvaz Zeynalovning "Qulovuz" va "O'ch", Iroda Aytelning "Desantlarningg achchiq haqiqatlari", Sevinch Elsevarning "Folchi", Ilkar Fahmining "Qarg'a uyasi", Narimon Mahmudning "Zanjirlangan adolat", Elchin Afandining "O'chmagan izlar", Qoraqonning "Tahliya", Muboriz Ja'farlining "Bog'bon", Shomil Sodiqning "O't-Erlar", Orif Aliyevning "So'nggi chaqiruv", Mushfi Xonning "So'nggi hadya", Elxon Xonalizodaning "Zanjir", Ahmad Shohidovning "Samir" va "Sifr nuqtasi", O'rxon Fikrato'g'lining "O'lik matn", Jaloliddin Qosimovning "O'chmagan dog" va "24 yilning o'ligi", Ilhom Y. Aliyevning "Qonli vodiy", Vuqor Zifaro'g'lining "Sir" nomli romanlari va boshqa asarlarni ko'rsatishimiz mumkin.

Ularning deyarli barchasi hajm, hikoya, xarakterlarining ko‘pligi jihatidan roman, faqat yozuvchilar tomonidan yonlarda ma’lum bir so‘zlar bilan taqdim etilgan. Masalan, Narimon Mahmudning “Zanjirlanganadolat” asari hujjatli roman, marhum Zokir Sadatlining “Afg'oniston uchurimi” asari xotira-roman, Kanon Xojining “Xotira karti” es-xotira-roman, Orif Aliyevning “Desantlarning achchiq haqiqatlari” asari biografik-roman, Narimon Abdulrahmonlining “Yo‘lovchi” asari roman-solnoma sifatida taqdim etilgan.

Xalq yozuvchisi Sobir Ahmadlining “Umr urasi” [7] romani Qorabog‘ urushidan hikoya qiladi. Asarda o‘lkamizning ishg‘ol qilingan shaharlari, qishloq va tumanlari, insonlar yo‘liqqan fojealar tasvirlangan. Asar qahramoni Kishi biroz avtobiografik xarakterdir. Kishi bir vaqtlar qishloqda o‘qituvchi bo‘lib ishlagan, keyinchalik Bokuga ko‘chib o‘tgan, faqat qishloq bilan aloqalari doimo jonli saqlanib qolgan. Kishi ota yurtida bir uy qurdiradi, bu uyda bir kun ham yashashga firsat topolmasdan Qorabog‘ urushi boshlanadi. Janglardan keyin Kishi orqaga qaytib keladi. Tunian markazi, qishloq butunlay vayron qilingan. Qishloqda dastlabki ishi uyining borib ko‘rish bo‘ladi. Armanlar uyni vayron qilgan, ichidagi narsalarni talon-taroj, yog‘mo qilib olib ketishgan. Hatto, Aras irmog‘idan narigi tomonidan, Erondan kelgan qardoshlarimiz ham bu yog‘moga qo‘shilishgan, chorvalarini, uyruzg‘or buyumlarini talon qilishgan. Kishining ikkinchi ishi 1944 yilda Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga loyiq topilgan ukasining yodgorlik toshini borib ko‘rish bo‘ladi. Qiziq tomoni, yodgorlik joyida, hatto atrofida ekilgan gullar yap-yangidir. Kishi hayron bo‘ladi, ammo buning sababini tushunib yetishda kechikmaydi. 1960- yillarda qahramon ukasining qabrini Varshavadan topgan va u yerdagi tarixiy hujjatda Gitler yer yuzidan supirib tashlamoqchi bo‘lgan millatlar orasida armanlar nomini ham o‘z ko‘zi bilan o‘qigan edi. Demak, armanlar uning birodariga Gitlerning bu istagini yo‘qqa chiqargan shaxslardan biri sifatida hurmat ko‘rsatishgan.

Kishi atrofiga qaragach, gilam sexida ishlagan qizlardan birini ko'rib qoladi. Kimsa qo'rquvga tushmasin, qishloqdan qochmasin deb sexni ham boshqa joyga evakuatsiya qilishmagan edi, dushman sex bilan birga qizlarni ham asir olishgandi. Bu rang-barang gilamlar ustida qizlarning nomusiga tegishgandi...

Kishi bularning barchasi haqida o'laydi, u ora-sira o'z davri boshqaruvchilari, matbuot, radio va televideniyening xalqni aldagani eslaydi, qochoqlarning poytaxt Boku va boshqa shaharlarda joylashishganini, endi bo'lsa Qorabog'ga qaytishni istamasliklarini ko'z oldimizda namoyon qiladi. Bokuda jadal o'zgarayotgan burjuaziyaning villalari, saroylari, osmono'par binolari, qasrlari, xorijiy va mahalliy shirkatlar, ofislar yomg'irdan keyin chiqqan qo'ziqorindek ko'paygan. Go'yo, o'lkada urush va shunga o'xshash voqealar bo'limgan, go'yo bir million atrofida qochoq va muhojir yo'q edi. Kishi tushunib yetadiki, hayot degani shu, hech narsaga qayrilib qaramaydi, oqib ketaveradi. Ayricha, hamma narsa o'z o'mini topadi, xarobaga aylangan qishloqlar ham, shaharlар ham qaytadan qad ko'taradi, avvalgisidan ham go'zalashadi, qochoqlar, muhojirlar o'z yurtlariga qaytadi, faqatgina shahidlar qaytishmaydi, ular mangu ko'chib ketishgan...

Ozarbayjonning iste'dodli insonlaridan biri bo'lgan Kamol Abdulla juda yosh paytidanoq yuksalishda davom etdi. Tezlikda, orqa-oldin fan nomzodi, fan doktori, professor, Ozarbayjon Milliy Akademiyasining muxbir a'zosi, Bokudagi Slavyan universiteti rektori bo'lgan Kamol Abdulla hozir Prezident maslahatchisi. Nasr, nazm va sahna asarlari o'ziga xos va benazirdir. Yozuvchining "Sir ichida doston yoxud gizli Dada Qo'rqu" (1993), "Unutishga kimsa yo'q" (1994), "Ruh" (1997), "Kadarli tanlovlar" (2003), "Bir, ikki, bizniki" (2003), "Sehrgarlar darasi" (2006), "300 ozarbayjonlik" (2007), "Misdan yozuvga yoxud gizli Dada Qo'rqu" (2009) va boshqa asarlari o'quvchilar va adabiy tanqid tiliga tushdi. 2004 yilda qalamga olgan "Yarim qo'lyozma" [8] nomli romani esa butun kutilganlardan o'tib tushib, adabiy davalarning katta olqishiga sazovor bo'ldi.

Bu asar haqiqatmi, xayol mahsulimi, fantaziyami, to'qimami, asli-astari bormi? Ba'zi kitobxonlarga ko'ra, Kamol Abdulla Milliy Qo'lyozmalar institutining Qo'lyozma asarlar katalogidagi A21/733 raqamli qo'lyozmasidan nusxa olgandan so'ng qo'lyozmaning astini yo'qotib yuborgan, asarini esa o'sha qo'lyozma nusxasi asosida yozgan. Ba'zilarning fikricha, bu bir postmodernistik asardir. Ayrim o'quvchilarga ko'ra, bu, asar ham emas, Ol-loh biladi nima o'zi?

"Yarim qo'lyozma" romanida zamon uch, makon bir o'lchamli. Zamon o'laroq o'g'uzlar yashagan davr, Shoh Ismoil davri va uning o'limidan keyingi davr va yozuvchi yashayotgan hozirgi davr, makon sifatida esa sharq-g'arb yo'nalishi bo'ylab Bokudan Bayburtga, shimol-janub yo'nalishida Darbanddan Hamadongacha cho'zilgan tarixiy Ozarbayjon tuproqlari romanning o'lchamlaridir. Yozuvchi bu davrlar orasida hemalol borib-qaytib turadi, biridan ikkinchisiga, shundan bunga va teskarisiga o'tib qaytadi.

Kamol Abdulla bu romanda, ham "Dada Qo'rqt" dostonini, hamda Safaviylar tarixini qaytadan, o'ziga ma'qul ko'rgan, to'g'ri deb hisoblagan tarzda yozgan. Aslida buni yozgan deb emas, tuzatgan deyish kerak. Doston va romandagi xarakterlar ko'p hollarda o'zaro mos tushadi, faqat muayyan darajada og'ishlar bor. Masalan, Aruz Qo'ja romanda ijobiq qahramon, o'g'uzlarning eng nufuzli beklaridan biri. Solur Qozon ham biroz farqli planda taqdim qilingan: Boyindirxonning go'zal qizi Burla xotunga go'yo amal uchun uylangan. Burla xotun aslida Basatni sevar emish. Solur Qozon bilan Aruz Qo'ja orasidagi xusumat Burla xotun yuzidan kelib chiqqan emish. Yozuvchi Shoh Ismoil Xatayi davri tarixiga oid qanday tuzatishlar kiritganini aniq bilmaymiz. faqat shuni aniqliki, bu yerda ham Kamol Abdullaning o'zi qo'shgan bir narsalar bo'lishi kerak. Hatto, Qo'rqt bilan Shoh Ismoil orasida ba'zi o'zaro uyg'unliklar borligiga ishorat qilgan.

Asarda doston, roman va ertak uslubi o'zaro bir-biriga aralashib ketgan bo'lsa ham, aslida bu bir romandir, muayyan bir badiiy asardir. Undan "Dada Qo'rqt" dostoni nusxasini kutmaslik

kerak, bu yerda yozuvchining istagi, fantaziysi, u yoki bu obrazning gardaniga yuklagan ma'no va missiya farqlidir, yuz foiz yozuvchining o'ziga xos bir haqqidir. Uning foydasi va zarariga ko'p narsalar yozilgan bo'lishiga qaramay bu roman zamonaviy eng so'nggi yutuqlaridan biridir. Bugungacha asar ingliz, fransuz, rus, portugal, turk, arab va qozoq tilariga o'girilgan bo'lib, Nobel adabiyot mukofotiga nomzodi ko'rsatilgan.

Akram Eylislining "Atirshoh Masan" [9] romani o'z davrining asosiy asarlaridan biri sifatida tanitilishiga qaramay, voqe-liklari, ma'no va va mazmuni bo'yicha oddiyidir. Uzoq bir tog' qishlog'idagi bir oila timsolida mustaqillik harakati, o'lkaning si-yosiy, ijtimoiy va ma'naviy hayoti haqida so'z yuritiladi. Masan oddiy bir qishloq qizi. Onasi o'lgach, otasi uylanadi, o'gay onasi bilan kelisha olmagan o'n beshli qizni singlisining kasal o'g'li Yodullaga uzatadi. Hayratlanarlisi, Masan shu kungacha ammasini biror marta ko'rmagan, turmush o'rtog'ini esa o'n yil oldin bir martagina ko'rgan xolos. Kasal eridan nafratlangan Masan Tangridan o'lim so'raydi. Shunday bir pallada onasi oq kapalak shaklida ko'ziga ko'rindi va qizidan atirshoh chechagi o'stiris-hini talab qiladi. Bir muddat o'tib qaynonasi, keyinroq esa eri Yodulla o'lgach Masan yolg'iz qoladi. Qishloqdoshi Quduz Gazan-far bilan ishqiy sarguzashtlari bo'ladi, undan Aslon ismli bir o'g'li bo'ladi. Masan atirshoh o'stirish bilan ovora bo'ladi, atirshoh sonini 70 guldstaga yetkazadi.

Bir payt qishloq kengashida ishlaydigan qattiq bosh og'riq kasalligiga yo'liqqaq Saldat Sokina Masanlarnikiga keladi, atirshoh gullarining yonida bir pas o'tirib dam olgach, bosh og'rig'i bordan to'xtaydi. Bu xabar atrof qishloqlarga yashin tezligida yoyiladi, Masanning uyi qisqa bir vaqt ichida shifo o'chog'iga aylanadi. Kelgan har qaysi odam yonida biror narsani hadya sifatida olib kelishadi, Masan va o'g'li urush yillarini osonlik bilan boshdan o'tkazadilar. Erkatoy bir o'g'il sifatida Aslon ulg'ayib, askarlikka boradi, harbiy boshlig'ini urgani uchun to'rt yil qamoqda o'tirib qaytadi. So'ngra qo'shni qishloqdagi konda ishlaydi,

uylanib o'sha yerda yashaydi. U ham, ne tongki, xotinini qishlog'iga bir martagina olib keladi. Bir kuni xotinining bosh muhandis bilan munosabatlar borligidan shubhalanib, muhandisga to'qqiz marta pichoq sanchadi va qamoqqa olinadi. Qamoqxonada yana bir qator og'ir jinoyatlarga qo'l uradi va u yerdan chiqishi qiyinlashadi.

Aslon qamoqda paytda xotini besh yoshli qizi Surayyoni buvisiga qoldirib ketadi va boshqa qaytib kelmaydi. Surayyo ertaklarda bo'lganabi tezda ulg'ayadi, buvisining jiyanlaridan biriga oshiq bo'ladi, u she'r yozgani uchun, o'zi ham she'r yoza boshlaydi. Surayyo keyinchalik Ozodlik radiosini tinglay boshlab, Xalq Jabhasiga a'zo bo'ladi va imperializmga qarshi kurashda qatnashadi. Bir kuni tuman markazida Xalq Jabhasining mitingga qatnashib, Bokudan kelgan mashhur shoir Buyuk Beyning eng yaqin do'sti bo'lgan Aslon Ag'ridog' bilan tanishadi va uning taklifi bilan jo'shqin nutq so'zlaydi. Aslon Ag'ridog' uni Bokuga taklif qiladi. Surayyo bir kun Bokuga boradi. U yerda tasodifan Aslonni topadi, uning vositasida shaxsan Buyuk Bey bilan tanishadi, hatto bino podvalida unga she'rlarini o'qib beradi. So'ngra hech qanday ta'lim olmaganiga qaramasdan gazetalardan biriga ishga kiradi, ajablanarlisi, qisqa bir muddat o'tgach depetat qilib saylanadi.

Masan, Surayyoga xatlar yozib, qamoqdagi otasini chiqarib olishini iltimos qiladi. Surayyo nihoyat buni uddalaydi, biroq nomusli va sharafli bir odam bo'lgan otasi qamoqxonadan chiqishni istamaydi. Ayniqsa, mahbuslarga qizining qanday va qay yo'sinda, qaysi tahsili va xizmati evaziga deputat bo'lganini izohlay olmagani uchun uyaladi. Chiqishiga ikki kun qolganda miyasiga qon quyilib vafot etadi. Undan ikki kun keyin Masan o'ladi, ikkalasini ham bir kunda tuproqqa qo'yishadi. Bokudan otasining jasadini olib kelgan Surayyo bir muddat qishloqda qoladi, buvisining uzoq yillar davomida Moskvada yashagan boshqa bir jiyani bilan o'n ikki kun ichida telbalarcha ishqiy sarguzasht yashashadi. Jigan unga bir maktub qoldirib, to'satdan ketib qoladi. Xatida: "o'g'limiz tug'iladi, unga yo mening yoki otangning ismini qo'y"

deb yozilgandi. Surayyo ham bir necha kundan keyin Bokuga qaytadi. Masanning yuzdan ortiq atirshohlari shamol va qishloq bolalari qo'lida yo'q bo'lib ketadi.

Yozuvchi tomonidan roman-reportaj o'laroq ta'kidlab o'tilgan bu asarning yagona ustun tomoni bor: tili nihoyatda go'zal yozilgan. Romanda Masandan boshqa hech qanday kuchli xarakter (obraz) yo'q. Asardagi uch ayolning uchalasi ham (Masan, kelinli So'lmaZ va nevarasi Surayyo) boshqa erkaklar bilan osonlikeha bitta yotoqda yotadilar. Mustaqillik yo'lidagi xalq harakati, maydon mitinglari va milliy kurash ham yuzaki, hatto biroz mazaxomuz tasvirlangan. Turkchi shoir esa tipik bir ahmoq sifatida tasvirlangan. Hamma narsa kutilmagan va tasodifiy voqealarga bog'lab talqin etiladi. Aslida Akram Eylislining bunchalar zaif bir asar yozishi ham tasodif bo'lsa kerak. Romanda mashhur yozuvchi Markezning ta'siri ochiqchasiga ko'riniB turibdi.

Akram Eylislining Moskvada chiqqan "Drujba narodov" jurnalining 2012 yil dekabr sonida "Kamenniye sni" (Tosh uyqular) nomli kichik hajmdagi romani bosilib chiqdi [10] va katta noroziliklarga sabab bo'ldi. 2013 yilning deyarli butun qismi ushbu asarning ta'siri ostida kechdi. O'quvchilar, ziyorolar, gazetalar, radio va TVlar, yozuvchilar, Yozuvchilar Uyushmasi, jamoatchilik tashkilotlari, siyosiy partiyalar adib va uning asariga qarshi o'z munosabatlarin bildirishdi. Akram Eylislining uyi oldida namoyishlar o'tkazildi, yozuvchiga tahdidlar bo'ldi, uyiga tuxum uloqtirildi, mamlakatni tark etishi talab qilindi.

Bu asarning mazmuni va jamiyatga bergen badiiy fikr nima edi? Mazmuni oddiy, badiiy fikr qo'rqinchli va subyektiv edi. Voqealar 1989 yilda Bokuda bo'lib o'tadi. Roman poytaxtning mashhur Favvoralar maydonida Armanistondan bir necha kun oldin zo'rlik va zo'ravonlik bilan quvib chiqarilgan qochoqlar tomonidan keksa bir armanni do'pposlavotgan paytda voqeaga aralashgan mashhur sahna san'atkori Saday Sodiqlini yaxshilab salayotganliklari, tasodifan u yerdan o'tayotgan boshqa bir sahna san'ati ustasi, Saday Sodiqlining yaqin do'sti Nuvorish Qorabog'lining (Ozarbayjonda Nuvorish ismi yo'q) uni ko'zi qonga

to'lganlarning qo'lidan qutqarib shifoxonaga olib borishi bilan boshlanadi. Doktor Farid Farzoniy Saday Sodiqlini jarrohlik amaliyoti bilan tuzatadi.

Yozuvchi bizni yana uchta vahimali voqealari bilan tanishtiradi: ikki hafta avval metroda ayollar tomonidan do'pposlangan yosh bir arman qizi ham bu yerga olib kelingandi, bir-ikki kun avval manyak bir shoir kasalxonaga kelib, bu yerda qirq yil davomida odamlarning hayotini saqlab qolgan bir arman duxtirni ishdan haydattirib yuborgandi. Teatrda garderobchi bo'lib ishlagan arman ayoli Greta Minasova o'zini o'ninchi qavatdan pastga tashlagandi. Greta, o'z joniga qasd qilishining sababi yozilgan bir xat qoldirgandi, faqat yozuvchi buning o'z joniga qasd qilish yoki shunga o'xshash narsa emasligini, yuz foiz Shushalik Shohgajar Arniag'anov tomonidan amalga oshirilgan bir jinoyat bo'lganiga ishonishini yozgandi.

Doktor Farzoniy jarrohlik amaliyotida ekan Nuvorish kasalxonada o'tirib xayolga toladi, birinchi bilan (ba'zan unga Xozyayin, ya'ni Xo'jayin deydi) ikki marotaba ko'rishganini, Xo'jayining unga va garderobchi Gretaga ko'pqavatli uylardan kvartira sotib olib bergenini eslaydi. Saday Sodiqli "Sizning ham chtiyojingiz bormi?" deb so'raganda uning Xujayinga mag'rur bir alfozda "Yo'q, kerakmas!" deb javob bergenini ham eslaydi.

Bir oz o'tgach, doktor Farzoniy jarrohlik amaliyotini tugatib chiqadi, kasalning yaxshi ekanini aytadi. Shkafdan aroq oladi, Nuvorish bilan birga ichishadi. Kasal haqida ba'zi ma'lumotlarni olgan duxtir, uning mashhur psixiatr duxtir Abbosalievning qizi Ozoda xonimning eri ekanini bilib oladi. O'quvchilar ham uning Naxchivonning Eylis qishlog'idan ekanliklarini, bu qishloqni cheksiz mehr bilan sevishini, bir vaqtlar bu yerda armanlar ham yashashgani, dunyoda armanlarchalik vijdonli, madaniy, mehnatkash kishilar yo'q ekanini bilib olishadi. Saday beyning Sovet davridan boshlaboq tilini qisib yurmaganini, shu bois haq qozongan e'tibor va unvonni ololmagani ma'lum bo'ladi. Hatto, u kuchli dindor aholi yashaydigan Nardaron qishlog'ida sunnatning za-

Xalq shoiri Sobir Rustamxonli mashhur nazmiy asarlari bilan birga so'nggi yillarda birin-ketin go'zal nasriy asarlar, xususan, romanlar yozdi. Ular orasida "Otamning ruhi", "Xatayi yurti", "O'lim yashamoqdan totli emish (Javod xon)", "Difoiy fidoyilar", "Ko'k Tangri" romanlarini ko'rsata olamiz. Ruslar tomonidan 1804 yilda Ganjaga qilingan bosqinchilik va Ganja xonligiga barham berilishi, undan qariyb bir asr keyin mashhur mutafakkir, jurnalist va yozuvchi Ahmad Og'ao'g'lining ruslarga va armanlarga qarshi tashkil qilgan Difoiy partiyasining tarixi, qadim va shonli turk tarixiga mas'hala tutgan va so'nggi bir necha yilda Turkiyada birin-ketin uch marta qayta nashr qilingan "Ko'k Tangri" romani yozuvchining iste'dod va qobiliyatini o'quvchilar ko'z o'ngida naomyon qiladi. Sobir Rustamxonlining so'nggi romani "Tsunami" [11] esa fantastik va samoviy asardir. Vahshiy dinozavrular davridan ikki oyoqli inson-dinozavr largacha o'tgan davrda insoniyat tarixiga nazar solgan bu murakkab va g'aroyib asar hanuz o'quvchilar va adabiy tanqidchilar tomonidan yetarlıcha qabul qilinmagan.

2011 yilda Ozarbajjonda har yili beriladigan "Milliy kitob mukofoti"ni "Yot tilda" [12] romani bilan yozuvchi Parviz Jabroil qozondi. Roman ko'p tarmoqli iycrarxik bir tuzilishga ega. G'addir va beshafqat bir davr hukim suradi. Solur Qozon, Bayrak, Bonu Chechak, Burla Xotun, Qonturali, Basat, Seljon Xotun, Tepako'z, Yalonchiq va Dada Qo'rqt dostonlarining boshqa qahramonlari hayotdadirlar. Faqat Dada Qo'rqtuning o'zi yo'qdir. O'g'uz o'lkasi Tepako'zning qo'lida. Ikkili kishilikka sohib Tepako'z buloq bosagini egallab olib, hammani suvsizlikdan qirgan Albay (polkovnik) shaklida o'zini namoyon qiladi. XX asrning mashhur inqilobchisi She Guevara ham asar qahramonlari orasidadir.

Romanda tasvirlangan boshqa bir mavzu Sharq falsafasining Xurufiylik oqimidir. Boshqa bir mavzu Ollohnning yer yuzida sodir bo'lgan hamma narsani shaxsan ko'rish uchun dunyoga kelishi va bu yerda o'lishi. Bir so'z bilan xulosa qiladigan bo'lsak, romanda xuddi hamma narsa qush tilida, begona bir tilda izohlangan.

2011 yilda boshqa bir muhim voqeа amalga oshdi. Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev qarori bilan Yozuvchilar Uyushmasining raisi, Xalq yozuvchisi Anorga “Haydar Aliyev medali” berildi. 2014 yilda Elmira Oxundova, Haydar Aliyev haqida yozgan olti jildlik yirik asari uchun “Ozarbayjon Jumhuriyatি Davlat Mukofoti”ga loyiq topildi.

Bu davrda yozilgan qiziqarli asarlar orasida yozuvchi va turkolog olim Yunus O'g'uzning tarixiy romanlariga alohida urg'u berib o'tish kerak. Yozuvchi qalamiga mansub “Amir Temur: cho'qqiga sari” [13], “Amir Temur: dunyoning hokimi” [14], “Nodir shoh” [15], “Tahmash” [16] “Shoh ayoli va jodugar” [17] nomli tarixiy romanlari turklikning eski va hashamatli chog'larning badiiy solnomasidir. Yozuvchining porloq iste'dodi, tasvirlash kuchi uning asarlarini o'quvchilar nazdida bestseller (eng ko'p sotilgan kitoblar)ga aylantirdi. Yunus O'g'uzning romanlari chet tillarga o'girilib, xorijda ham katta qiziqishga sabab bo'ldi. “Amir Temur” 2011 yilda va 2012 yilda ruscha, 2012 yilda turkcha va qozoqcha, 2013 yilda o'zbekcha va qirg'izcha nashr qilindi. “Nodir shoh” 2010 yilda inglizcha va turkchaga ag'darildi.

Mavlud Sulaymonlining “Arman nomidagi harflar”, Vilodiy Bobonlining “G'arib ishq” va “Gizlilar”, Ozar Abdullaning “Sariq tog”, Maqsad Nurning “Shahar meri”, Notiq Rasulzodaning “Qon ichuvchilar” (ruscha), Pasha Qalbinurning “Qora suv”, Sayron Salovatning “Yahudiy alifbosi”, Husaynbola Miralamovning “Qirqinchi xona”, “Yongan qor”, “Jazo”, Elchin Husanybeylining “Yuvvosh oqcharloqlar”, “Don Juan”, “Metro”, Mohira Abdullaning “Avval, oxir”, “Yurak kechinmasi”, Narimon Abdurahmonlining “Ko'ngil elchisi”. Alabbosning “Qoraterak cho'llari”, Mustafo Chamanlining “Fred Osif” romanlari va boshqa asarlar o'z davriga muhrini bosgan. Afsuski, ular haqida ayri-ayri to'xtalib o'tish imkonи yo'q. Asosan, bu davrda 150 ortiq roman yozilgани va nashr qilingани taxmin qilinadi.

17-18 iyul 2014 yilda Bokuda Ozarbayjon yozuvchilarining XII Qurultoyi o'tkazildi. Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi alisbo tartibida Abbos Abdulla bilan boshlaydigan va Zumrud

Yog'mur bilan tugaydigan 1644 a'zosi orasidan 440 delegatning, Turk dunyosi va boshqa xorijiy o'lkalardan taklif qilingan atoqli qo'noq yozuvchilar ishtirokida amalga oshirilgan bu qurultoyda, zamonaviy davrda adabiyot missiyasi haqida nutqlar so'zlandi, ma'ruzalar qilindi, bosib o'tilgan yo'lga baho berildi, istiqboldagi davr perspektivalari muhokama qilindi.

Xalq yozuvchisi Anor yangidan Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasining raisi qilib saylandi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

- [1] Vakif Yusuflu. 2004 Yılınnı Nesri // Azerbaycan, 2006, No. 2, s. 167.
- [2] Nüşabe Memmedli. Zengule. B.: Qapp-Poligraf, 2004.
- [3] Elçin Mehraliyev. Doksanlı Yıllar. B.: Nurlan, 2004.
- [4] Gene orada. s. 228.
- [5] Akil Abbas. Dolu // Azerbaycan, 2007, No. 12.
- [6] Gene orada. s. 70.
- [7] Sabir Ahmetli. Omür Urası // Azerbaycan, 2002, No. 5.
- [8] Kemal Abdulla. Yarım Elyazma. B.: XXI-YNE, 2004.
- [9] Ekrem Eylisli. Itirşah Masan // Azerbaycan, 2004, No. 6.
- [10] Ekrem Eylisli. Taş Uykular// ([www.deyerler.org](http://www.deyerler.org)).
- [11] Sabir Rüstemhanlı. Tsunami. B.: Kanun, 2011.
- [12] Perviz Cebrail. Yad Dilde. B.: Kanun, 2009.
- [13] Yunus Oğuz. Emir Teymur. Zirveye Doğru. B.: Apostrof, 2012.
- [14] Yunus Oğuz. Emir Teymur. Dunyanın Hakimi. B.: Apostrof, 2013.
- [15] Yunus Oğuz. Nadir Şah. B.: Apostrof, 2008; 2009; 2010.
- [16] Yunus Oğuz. Tehmasip. B.: Apostrof, 2009; 2010.
- [17] Yunus Oğuz. Şah Karış ve Caduger. B.: 01, 2013.

## OZARBAYJON SHE'RIYATI 1991-2000 YILLARDA

Sovet davrida nashr qilingan she'riy asarlarning so'nggi sahifalarga qo'yilgan mundarija qismiga nazar tashlansa shunday ahvolga duch kelasiz: Yozuvchi ilk sahifalarda joy olgan bir necha she'rini ulug' yo'lboshchi Leninga, "Butun muvaffaqiyatlarimizning manbai, yo'lchi yulduzi va harakat soluvchi kuchi Kommunistik Partiyaga", ba'zan esa faqatgina "Markaziy Komitetga", navbatdagi uch-to'tt she'rini xalqlar do'stligi mavzusiga ajratgandan keyin Ozarbayjon va vatan mavzuidagi she'rлarini berar edi.

Lenin, partiya va qo'mita haqida adabiy va siyosiy jihatdan juda go'zal she'rлar yozilgani va nashr qilinganini aytishimiz mumkin. Sotsialistik realizm degan prinsipning eng muhim obyektlari sifatidagi adabiyotning partiyaviyligi va xalqlar do'stligi mana shu edi.

Endi bo'lsa avhol o'zgargan, biroq nima bo'lganda ham biroz tabiiy ravishda, biroz eski moda zaruriyatidan yozuvchilar she'riy kitoblarining bosh sahifalariga Ozarbayjon, vatan, yurt va millat mavzusidagi joylashtiradilar. 1988 yildan keyin Qorabog', 20 yanvar 1990 sanasidan so'ngra bu yerga shahidlar mavzusida gi she'rлarini ham joylashtira boshladilar.

1991-2000 yillar orasidagi she'riyatimizda mavzu o'laroq Qorabog'da vatan yo'lida olib borilgan janglarda, 20 yanvar va Xo'jali fojealarida jon bergen shahidlarimiz, tirik qolgan g'oziylarimiz, qo'shin va askarimiz, turkchilik, halq va millat old safda joy oldi. 90- yillarning ijtimoiy-siyosiy voqealar, xalqning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, bozor iqtisodiyoti munosabatlari adabiyotga, shu jumladan, she'riyatimizga salbiy jihatdan ta'sir qildi. Sevgi-muhabbat va hasrat, hayot va o'lim, ahloq va ma'naviyat, moziy va kelajak kabi mavzular eski dolzarbligini saqlashda davom etgan bo'lsa-da Ozarbayjon she'riyati zamon qahramonini yarata olmadi. Ko'zni qamashtiruvchi o'zgarishlar, tez-tez o'zgargan siyosiy voqealar, davlat to'ntarishiga tashabbuslar, siyosiy mojarova intrigalar, noqis iqtidor – muxolifat ziddiyatlari, qahramonning

dushman, dushmanning qahramon kabi tanitilishi hayotda va si-yosatda bo'lgani kabi adabiyotda ham xarxasha, g'avg'o va mav-humlikni keltirib chiqardi.

Qiziq tomoni, mustaqillik davridan keyin ma'naviyatimizga o'z muhrini bosgan islomiy qadriyatlar va Qur'oni Karim mavzusi adabiyotda yetarli darajada o'z aksini topmadi. Buning ko'plab sabablari bo'lisi mumkin. Birinchidan, din mavzusi hammani, shu jumladan, har shoirni ham bilgani yoki biladigan darajada oson, qulay mavzu emasdir. Ikkinchidan, biladigan shoirlar hain yozmaydi yoki yoza olmaydilar, chunki buning uchun aruz vazni va devon adabiyotini bilishi kerak. Uchinchidan, aruz vazni va devon adabiyotini biladiganlar ham yozmadyilar, chunki shoirlarimiz asosan ilhom parisi bilan aroq ichib topishadilar. To'rtinchidan, kichik istisnolardan tashqari, diniy she'rlar yozish bir asr-dirk'i bizda adabiyotga teskari hisoblanadi. Ozarbayjonda savod-xonlik yillarda taassub va xurofotga qarshi kurashganlarning boshida shoirlar turgan. Bugungi shoirlar ateist bo'lmasa-da ko'pchiligi eski Sovet shoirlaridir. Ammo diniy mavzuda yak-kam-dukkam yozib turadiganlar ham yo'q emasdir. Ular orasida Mammad Aslonning she'rlari juda mukanimaldir.

Zamonaviy Ozarbayjon she'riyatining bosh qahramoni Ozarbayjon va shahidlardir. Bu ikki mavzu Ozarbayjonning milliy borlig'i demakdir. Boshqa mavzular qo'shimcha va umumlashtiruvchi temalardir. XX asr adabiyotiimzda Ozarbayjon haqida eng go'zal she'rni Samat Vurg'un yozgan. Yozuvchining 1935 yilda qalamga olgan uzundan-uzun "Ozarbayjon" she'rini millionlarcha kishilar yoddan bilishadi. She'rning ilk misrlari shunday:

El bilurki, sen menimsan,  
Yurtim, uyam, maskanimsan,  
Onam, tuqqan vatanimsan,  
Ayrilurmi ko'ngil jondan?  
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

She'rning so'nggi misrlari originalda shunday bo'lgan:

Tingla meni go'zal vatan.  
Bir so'z kelur yuragiindan:  
Stalinning ishqil-la sen  
Kulajaksan har bir zamon,  
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

Bu yerdag'i "Stalin"ning so'zi Stalinizmning siyosiy jihatdan tanazzulidan keyin 1960- yillarda "Partiyaning" (Kommunistik Partiya nazarda tutilmoxda – R.A.) so'ziga almashtirilgan. Haqiqatni aytadigan bo'lsak, mustaqillik davrida Partiyaning o'mini boshqa bir so'z egallagan, biroq uni hech qachon ko'rGANIM yo'q. Bo'g'in soni va mazmuniga ko'ra, buning "Istiqlolning", "Ertamizning", "Sabohlarning" so'zlariga yaqin bo'lishi lozim. Milliy she'riyatimizdagi Lenin, Stalin va Partiya so'zlari muqobil so'zlarga o'zgartirilishi alohida bir mavzu. Afsuski, o'zgartirish har doim muvaffaqiyatlari chiqmasligi mumkin. Masalan, yana Samat Vurg'unning badiiy jihatdan eng kuchli she'rlaridan biri bo'l mish mashhur "Partiyamizdir" she'ridagi to'rtlikka qarab ko'raylik:

Bashariyat vijdoni, ishqil, yuragi,  
Zchni, tushunchasi, fikri, tilagi,  
Butun yer yuzining xo'sh kelajagi,  
Har zavqi, safosi partiyamizdir!

Ba'zan o'zgartirishga zarurat qolmaydi. Samat Vurg'un tomonidan cheksiz bir ilhom bilan qalamga olib, Stalinga atagan va 1938 yilda Moskvada o'tkazilgan Ozarbayjon madaniyat dekadası (o'n kunligi) paytida Kremlda Stalin huzurida o'qigan "Rahbarga salom" she'ri buning eng yaxshi namunasidir. Bunday she'rlar ko'p. Ular adabiyot tariximizda joy olgan asarlardir, ular dan aslo voz kecha olmaymiz, faqat ushu she'rlarni maktab o'quv kitoblariga kirgizib, bolalarning miyasini achitish muammo tug'diradi.

Samat Vurg'unning "Ozarbayjon" she'ri Ahmad Javod tomonidan yozilgan va 30 yanvar 1920 milliy gimn uchun o'tkazilgan tanlovda birinchi o'rinni olgan Ozarbayjon Milliy gimnichilik mashhurdir, faqat Milliy Gimn 1991 yilga qadar ta'qiqланib kelganidan bir necha avlod undan xabarsiz qolgan, holbuki. Samat Vurg'unning "Ozarbayjon" she'ri yozilgan kunidan beri doimo dars kitoblarida joy olgan.

Milliy gimn she'r matni o'laroq sodda, tantanali va patetik, faqat poetik emasdir.

Ozarbayjon! Ozarbayjon!  
Ey qahramon avlodning shonli vatanı!  
Sening uchun jon berishga jumla hozirmiz!  
Sening uchun qon to'kishga jumla qodirmiz!  
Uch rangli bayrog'ing-la mas'ud yasha!

Minglarcha jon qurban bo'ldi,  
Siynang harbga maydon bo'ldi,  
O'z haqqidan kechgan askar  
Har biri qahramon bo'ldi!

Sen bo'lsasan guliston,  
Senga har on jon qurban!  
Senga ming bir muhabbat  
Siynamda tutgan makon!

Nomusingni qo'riqlashga,  
Bayrog'ingni yuksaltishga,  
Nomusingni qo'riqlashga,  
Jumla yoshlari mushtoqdir!  
Shonli vatan! Shonli vatan!  
Ozarbayjon! Ozarbayjon!  
Ozarbayjon! Ozarbayjon!

90- yillarda Ozarbayjon she'riyatiga o'z muhrini bosgan Baxtiyor Vahobzoda muayyan bir shoir va yurtdosh o'lar oqibat bu kurashlari zafar bilan tugab, ona vatan mustaqillikka erishgan. Shoirning "Umidga yodgorlik tiking" (1993) [1], "Vatandosh" (1994) [2], "Faryod" (1995) [3], "Ko'priq soydan uzoq tushgan" (1996) [4], "Bir umr uyqu" (1998) [5], "Istiqlol" (1999) [6], "Aql boshqa, yurak boshqa" (2000) [7] nomli kitoblaridagi har bir ijod namunasi Ozarbayjonga va uning hasrat bilan kutilgan istiqloliga maqtov, sevgi va olqishdan iborat. Baxtiyor Vahobzoda bir farzand sifatida ona vatanga bog'liligin shu misralarda tilga oladi:

Ozarbayjon, oting o'tdir, o'zing nur, so'zing nурdir,  
Biz ham sening bu muqaddas tuprog'ingda bo'y o'sganmiz.  
Sensan bizning bu dunyoda maslagimiz, amalimiz,  
Yo'limizga nurlar sochsin yulduzimiz, hilolimiz.

Shoir boshqa bir she'rda vatanning yur yuzidagi eng qadrli borliq ekanini, uni sevish va kelajak avlodlar uchun qo'riqlash kerakligini uqtiradi:

Chaqirar endi butun millatni imdodga vatan,  
Almashilmash, ey o'g'il, jannatga dunyoda vatan.  
Bizga maydon o'quvchi bilib qo'yishi kerak,  
Na sotilmas, na berilmas binodan yotga vatan.  
Ulug'lar uxlamadi bor – vatanga, faqat dedilar:  
Eng katta hadyamiz bizdan har avlodga vatan!

Sovet davridayoq o'z qalami bilan Ozarbayjon istiqloli yo'llida kurashgan, shu bois doimiy ravishda KGB tomonidan ta'qib qilingan mashhur shoir Xalil Rizo Uluturk 1988 yildan keyin bu mojaroni yanada qorong'ulikda davom ettiradi. Milliy mustaqillik harakatining yo'lboshillaridan biri sifatida maydon mitinglari ni olib boradi, xalqni mustamlakachilik va imperializmga qarshi

mutlaq g' alaba qilishga chaqiradi. Moskva, Mixail Gorbachyov, qayta qurish va armanlarga qarshi kuchli nutqlar so'zlaydi. 1988 yilda Ozarbayjon bugun Armaniston deb nomlanayotgan ajdodlardan yodgor tuproqlardan kuch va zo'rlik bilan quvib chiqarilishini qoralab, armanlarning ham Ozarbayjondan haydab chiqarilishi istab, shunday yozadi:

Biz Turkiston ellarimiz,  
Sharaf, qudrat, sellarimiz.  
Dashnoqlarni quvgan bizmiz,  
Tor ko'zlamni o'ygan bizmiz.  
Yetar, maydon suvladilar,  
Yurtimizni taladilar,  
Bokumizni azizlaylik,  
Chayonlardan tozalaylik,  
Shul'a bersin bu la'l, marjon –  
Armanisiz Ozarbayjon!

Osiy ruhli shoir 26 yanvar 1990 yilda bir necha da'vo do'stlari bilan birga KGB tomonidan qo'lga olinib. Moskvada Lefortovo qamoqxonasiga tashlanib, uzoq muddat o'sha yerda saqlanadi. Faqat zindon ham uning po'lat irodasini sindira olmaydi. Xalil Rizo bu yerda "Lefortovo kundaligi" nomi ostida 200 dan ortiq she'r, manzuma va maktub yozaji. Tarix bo'yи hibsda yotgan shoirlarga atab "Habsiya" deb atalgan bu she'rlarini shoirlarning ozodlik va istiqlol haqidagi she'rlari deb hisoblay olamiz. Ular orasida "Kaliti u yuzdan bo'lgan eshiklar", "Xususiy tayyorada", "Sizni ko'rdim", "Qo'rquv kirmadi qalbga", "Zindonda Navruz bayrami", "Menga bechora demang", "Sensiz qanday qaytsam uysa", "Zindonda yasharayapman" she'rlari ayniqsa nihoyatda go'zal yozilgan. Uning "Salohiyat istayman", "Tur, qayerga qochayapsan", "Qurollan", "Qo'rkoqlik jasurlik" kabi she'rlari ham o'ta kuchli saviyadadir.

Xalil Rizo Uluturkning bir qismi 90- yillarda bosilib chiqqan, bir qismi vafotidan so'ngra nashr qilingan "Davom etayotir

37” [8], “Oy ila quyosh orasida” [9], “Qahramon Tabrizim” [10], “Uzoq cho‘zilgan yoshlik” [11], “Turkon dunyosi” [12], “Men Sharqman” [13], “Kechir ey vatan” [14], “Lefortovo zindonida” [15], “Ilk Ollohim, so‘nggi Ollohim kurash” [16], “Menga o‘xsha” [17], “Turkning dostoni” [18] nomli kitoblari milliy mustaqillik harakatimizning poetik solnomasidir. Qardosh turkiy xalqlar shoirlarining o‘girgan she’rlarini 1992 yilda “Turon chalangi” [19] nomi ostida chop qildirgan Xalil Rizo, Yusuf Bolo-sog‘uniyning “Qutadg‘u bilig” [20] asarini ham tarjima qiladi. Ayni paytda taniqli olim bo‘lgan Xalil Rizo Uluturk ozarbayjon shoirlari haqida go‘zal tadqiqotlar amalgalashgan, bu haqda kitoblar yozgan. Ular orasida “Umr kitobini yozgan shoirga” [21] (Sobir Rustamxonli haqida), “Ustozim Baxtiyor Vahobzoda haqida” [22], “Rafiq Zako Xandon haqida” [23], “Rasul Rizo hasrati” [24] kitoblarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Mammad Oraz ijodidan ham Ozarbayjon mavzusi qizil chiziq kabi o‘tadi. Shoiring 1992 yilda o‘quvchilarga taqdim qilin-gan “Dunyo tuzalmaydi” [25], 1993 yilda bosilib chiqqan “Tosh hayqiriq” [26], 1994 yilda chop etilgan “Qoyalarga yozilgan sas” [27] va 1997 yilda bosilgan “Yo‘l ayirg‘ichda suhbat” [28] nomli kitoblarida vatan haqidagi she’rlarning eng go‘zal o‘rnaklariga duch kelamiz. Bu she’rlarda ona yurtga, vatanga, millatga telba-vor bir murojaat va hayqirish hokimdir:

Ne yotibsan, yirik vulqon, sen bilanman!  
Tur, oyoqqa Ozarbayjon, sen bilanman!  
Sendan g‘ayri biz har nasrani bo‘lsak bo‘lur,  
Sendan g‘ayri biz hammamiz o‘lsak bo‘lur!

Yoxud:

Bu kun kerak  
Har onimiz vatan desin!  
Qilichimiz, qalqonimiz,  
Vatan desin!  
O‘lgan o‘lib, qolgan qolib,  
Qolganimiz vatan desin!

Vatan desin  
Qalbimizning har tuyg'usi,  
Har urg'usi  
Vatan desin.  
Hech farqi yo'q qayda bo'lsak,  
Zamonimiz, makonimiz  
Vatan desin!

Kitoblarining soniga qarab, Xalq shoiri Narimon Hasanzoda 90- yillarda she'r sohasida yetarli darajada mahsulot bera olma-gan ko'rinadi. Chunki u paytlarda drama asarlari ustida ishlagan, deputat bo'lgan (1990-1995), Matbuot va axborot vaziri vakili (1993-2001) vazifalarida faoliyat olib borgan. Faqat shunga qaramasdan 1991 yilda "Butun millatlarga" [29], 1993 yilda "Tole-ning hadyasi" va 1995 yilda "Kelishli, ketishli dunyo" [31] nomli uchta go'zal kitobini adapbiyot olamiga havola qiladi. Shoiring, balki har ikkita she'ridan bittasi Ozarbayjon haqidadir. Ushbu she'rlarida u ona vatanga farzand sevgisi, vatanning go'zalliklari va go'zalliklarning vatani ifodalangan. Ba'zi o'rnatklarga ko'z tashlaylik:

O't yurakli, o't nafasli diyorimsan,  
O'chog'ingga jonim qurbon, Ozarbayjon!  
Ezilsang-da, egilmagan viqorimsan,  
Bu chog'ingga jonim qurbon, Ozarbayjon!

Necha gizli sarvat yotar quchog'ingda,  
Necha o'lka o't oladi o'chog'ingdan.  
Ozodlikning ol rangi bor bayrog'ingda.  
Bayrog'ingga jonim qurbon, Ozarbayjon!  
Shoir boshqa bir she'rida shunday deydi:  
Sen abadiy bir o'choqsan, Ozarbayjon!  
Yashagan sari yonajaksan, Ozarbayjon!

1995-2000 yillar orasida deputat bo'lgan Xalq shoiri Jobir Navruz 1991-1993 yillarda "Adabiyot" gazetasining bosh muharri vazifasida ishlagan edi. Butun bo'sh vaqtini ijodga bag'ishlagan shoir 1994 yilda "Vatan abadiy qo'riqdir" [32], "O'zingni qo'riqla xalqim" [33] kitoblarini nashr qildirgan. Ushbu kitoblarda yosh avlodga vatan sevgisini singdiruvchi o'mak she'rlar o'rinn ol-gan. Shoир, ona vatanni bir qo'riq kabi qo'riqlashni hammaga tawsiya qiladi va buni rangdor bo'yoqlar bilan ko'rsatib beradi, vatanning onadan ham, otadan ham qadrli ekanligiga urg'u beradi:

Oddiy vatan tuprog'i  
Ruhdan, jondan ilgari (ortiq),  
U, onadan oldinda,  
U, otadan ilgari...

90-yillarda Zelimxon Yoqubning shoir sifatida tez sur'atlar-da o'sgan davridir. Bu davrda bittasi fransuzcha, yana bittasi gruzincha o'laroq jami 7 ta kitobi bosilib chiqadi: "Ziyorating qabul bo'lsin" [34], "Shoir hayqirig'i" [35], "Bir qo'li tuproqda, bir qo'li Haqda" [3.6], "Le Destin du Poete" [37] (fransuzcha), "So'z oynasi" [38] (gruzincha), "Shoirming tolei" [39], "Bu yashil og'ochning osti bizniki" [40]. Shoirming ijod ufqi nihoyatda keng. Uning asarlarida ishqiy mavzulardan to Janubiy Ozarbayjon, Qorabog', Darband, Bo'tchali, Karkuk, askar, qo'shin, shahid, qochiq, ko'chkin (muhojir), tabiat va boshqa mavzulardagi she'rlarga duch kelish mumkin. Zelimxon Yoqubning "O'rdum (qo'shini) bordir, yurtim bor" she'ri ona vatanga nisbatan cheksiz sevgining eng yorqin o'magidir:

Menga o'rdu kerakdir, xastaga darmon kabi,  
Menga o'rdu kerakdir, nafas kabi, jon kabi.  
Menga o'rdu kerakdir, yengilmas jahon kabi.  
O'rdum bordir, yurtim bor,  
O'rdum yo'qsa, yurtim yo'q!

Dushmanning uyasini qo'lim-la buzmog'im shart,  
Qalqonni tirnog'im-la, tishim-la qazmog'im shart,  
Tariixni qalam-la, yo'q, qonim-la yozmog'im shart,  
O'rdum bo'lsa, yurtim bor,  
O'rdum yo'qsa, yurtim yo'q!

Tuproqqa ega chiqib, yer uzra yerlashmasak,  
Bir jonda, bir yurakda, bir ruhda birlashmasak.  
Millatning toleini durust fikrlashmasak,  
Boshqalardan bizlarga tirnoqcha yordami yo'q,  
O'rdum bo'lsa, yurtim bor,  
O'rdum yo'qsa, yurtim yo'q!

Sobir Rustamxonli 90- yillarda ko'proq nasrda ijod qilgan bo'lsa-da, she'riyatdan aslo uzoq turmagan. Prezident saylovlarida nomzodini ko'rsatishdek nufuzli o'laroq siyosat bilan shug'ulangan, 1990 yildan beri deputat, Yurtdosh birdamligi partiyasining asoschisi va rahbari, Ozarbayjon Til Jamiyati boshlig'i bo'lgan, jamoatchilik foydasiga bir qancha vazifalarni o'z gardaniga olgan shoir bu davrda o'nlab she'r va maqola, bir necha roman yozgan, turli tillardan tarjimalar amalga oshirgan. Bu davrda uning 1994 yilda "Bir butunlik hasrati" [41], 1995 yilda "Zamon mendan o'tar" [42] nomli ikki she'riy kitobi bosilib chiqadi. 1995 yilda nashr qilingan "Bu sening xalqingdir" [43] nomli kitobida esa adabiy tanqid va gazeta maqolalari o'rin olgan. Ham she'rlarida, hamda maqolalarida Sobir Rustamxonli muayyan bir vatan savdolisi, bir Turon savdolisidir.

90- yillar Ozarbayjon she'riyatida bayroq, shahidlar, shahid onasi, Xo'jali fojeasi va boshqa motivlar ham tasvirlanadi. Ularni bitta-bitta ko'zdan kechirish imkonи yo'q. Shunga ko'ra, ayrim o'raklar bilan cheklanishga majburniz. Bayroq mavzusi Xalq shoirimiz Baxtiyor Vahobzodaning shu tizmalarida eng yuksak saviyada ifodalangan:

Bayroq menligimdir, bayroq o'zligim,  
Bayroq o'z yurtimga, o'z hokimligim!

Shoir boshqa bir she'rida bayroq bilan bayroq yo'lida shahid bo'lganlarni bir ko'zda ko'radi, tenglashtiradi:

Qotil o'qqa qurban ketarkan,  
Ko'zini sabohga tikdi shahidlar,  
Uch rangli bayroqni o'z qonlari-la  
Vatan tuprog'iga chekdi shahidlar.

Dunyamin ismli yosh bir shoirimiz vatan, tuproq va bayroq mavzusini bitta to'rtlikda bir orada keltiradi:

Dinimiz, tilimiz, tuprog'imiz bor,  
Tog'imiz, cho'limiz, irmog'imiz bor,  
Ey vatan, uch rangli bayrog'imiz bor,  
CHo'qqiga yuksalgan, enmoqqa qo'yma!

Shoir Ilhom Idriso'g'li shahid onalariga atalgan uzun bir she'rida ularga tasalli berishga harakat qiladi:

Titroq qo'llar-la olib rasmini,  
Oh chekib yig'lama, shahid onasi!  
Tizlaring ustiga egib belingni,  
Sellardek chog'lama, shahid onasi!

20 yanvar 1990 yil fojeasi paytida shahid bo'lgan insonlar tuproqqa berilgan vaqtida Bokuning butun ko'cha-ko'ylarida millionlab karanfil tizilgan edi. So'ngra har yili takrorlangan bu manzara shoirlarga ham rosa ta'sir qilgan shekilli, ko'plab she'rlar yozildi. Ulardan eng ta'sirlisi, eng go'zali Mammad Aslonning "Yig'la karanfil" she'ridir. She'rdan bir necha misra:

Karanfil – shahid qoni,  
Yig'la karanfil, yig'la!  
Yig'la, ingrat maydonni,  
Yig'la karanfil, yig'la!

Javonlarni qiydilar,  
Tank ostiga qo'ydilar.  
Qonin ichib to'ydilar,  
Yig'la karanfil, yig'la!

Yig'la yurak bo'shalsin,  
Uning ko'kka yuksalsin,  
Yig'la tog'lar yumshasin  
Yig'la karanfil yig'la!

Bu gunohsiz qonlarga,  
Bu titilgan jonlarga,  
Bu jonsiz javonlarga  
Yig'la karanfil, yig'la!

Xayrga shar ustun keldi,  
Ingragan bir un keldi...  
Yig'lamoqqa kun keldi,  
Yig'la karanfil yig'la!

Qismatiga qochoqlik tushgan shoir Eldor Ismoil Armanistonda Oshiq Alaskerning mamlakati Go'kchada tug'ilib o'sgan. 1988 yilda yuz minglab ozariy millatdoshi kabi o'z yurtidan quvilgan ijodkor qochqinlar ahvolini, ularning og'riq-alamlarini, dushmanga chuqur nafratini, ertaga ajdod o'chog'iga qaytadan qaytish istagi va ishonchini qalamga olgan. Eldor Ismoil 90-yillarda bir qismi she'r, bir qismi esa tadqiqotdan iborat "Ulug' Go'kcha" [44], "Olloh omonati" [45], "Vatan dedi Ibrohim" [46], "Armaniston turklarining 1988 yilgi qatliomi" [47], "Go'kchanning qasosi qolayotir" [48], "Shahid yurtning shahida avlodlari" [49], "Hikmat dunyosi" [50], "Sattor o'g'li" [51], "Men bu yerda g'aribman, yurt u yerda g'arib" [52], "Ag'ridog" (Ararat) qadar og'riqlarim bor" [53], "O'g'uz yurtining avlodlari" [54] nomli kitoblarini nashr qildirgan. Eldor Ismoilning kitoblari o'quvchilar

tomonidan yaxshi kutib olingan, yozuvchi bir qancha nufuzli mukofotlarga, shu jumladan, Turkiyaning “Turk dunyosiga xizmat” mukofotiga loyiq topilgan.

Maqola so‘ngida shoir Fikrat Qo‘janing 90- yillarda yozgan manzumalariga doir bir necha so‘z aytib o‘tish lozim deb o‘yaldik. Sovet davrida hikoya yozgan har kishining roman yozishi qanchalar tabiiy bo‘lsa, she’r yozgan har kishining ham manzuma yozishi ham shunchalar tabiiy hol edi. Har bir shoirming bir yoki bir necha manzumasi mavjud. Mustaqillik davrida manzuma janri birdaniga jozibasini yo‘qotdi. Har holda bu tezlikda o‘zgarayotgan vogeliklar bilan aloqalidir. Biror voqeaga she’r bilan munosabat bildirish qulayroq. Fikrat Qo‘ja ham 60- yillarda Ozarbayjon yoshlarining hayoti haqida bahs yurituvchi “Charxlar teskari do‘nayotir”, “Yarali chechaklar” va “Rassom o‘ylanmoqda” nomli uchta manzuma yozgan edi. Keyinroq xalqaro nufuz sohibi bo‘lgan mashhur kishilarga atab bir nacha asarlar yozdi. Masalan, Lotin Amerikalik inqilobchi Ernesto de Gevara haqida “Adressiz maktublar”, Gvineya-Bisaulik inqilobchi Amilkar Kabral haqida “Amirkal Kabral”, filippinlik milliy qahramon Xose Risal to‘g‘risida “Xose Risal” va Vietnamlik yosh qahramon Li Vi Tom to‘g‘risida “Li Vi Tom” manzumalarini yozdi. 90- yillarda Fikrat Qo‘ja qaytadan yoshlarimizning qahramonligi mavzusiga qaytdi va milliy ozodlik harakatini yorituvchi “Shahidlar xiyoboni”, “Boku-Quba yo‘li”, “Bu kunlarni ko‘rishing kerak edi”, “To‘rt qadam”, “Otashdan o‘tganlar”, “Inson saviyasi”, “Sodda haqiqatlar”, “Jannatdan quvilganlar”, “Gabala” nomli go‘zal manzumalarni qalamga oldi [55].

Kapitalizm bilan birga kelgan balo-qazolar ham she’riyatimda o‘z ifodasini topdi. Ishsizlik, yo‘qolib borayotgan ma’naviy qadriyatlar, ahloqiy tanazzul, buzuq farovon hayot, hamma narsaning pul bilan o‘lchanishi, ziyoli toifanining achinarli ahvoli kabi mavzular adabiyotga, she’riyatga ham kirib keldi, bir qator hajviy asarlarning, noo‘rin she’rlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Masalan, mashhur shoir va muallim prof. Fomil Mahdi

“Tilan professor, uyalma tilan” sarlavhali bir she'r yozib, gazetalarlardan birida nashr qildiradi. Holbuki, bu uyatli bir ahvol bo'lib, qaysidir bir professorming tilanchilik qilishi mavzu bahs qilinmagan edi.

Bu qismni yakunlar ekanmiz qisqa satrlarda ba'zi xulosalarni keltirib o'tish lozim:

- 1991-2000 yillar orasida Ozarbayjon she'riyati o'z davrining siyosiy, ijtimoiy va sotsio-iqtisodiy ahvoliga mos ravishda rivojlanib, mustamlakachilikdan qutulib, ozod bo'lgan millat va o'lkaning yangi statusini aks ettiradi;

- Ozarbayjon she'riyati yangi missiyasiga muqobil ravishda siyosiylashdi;

- she'riyatga yangi mavzular, mustaqillik, milliy kurash, urush, askar, shahid, o'rdu (qo'shin) va boshqa temalar kirib keldi;

- manzumalar juda kam hollarda qalamga olindi;

- lirik she'rlar ham eski davrlarga nisbatan anchagini kamyib ketdi.

### Foydalanaligan adabiyotlar

[1] Bahtiyor Vahapzade. Umide Anit Dikin. B.: 1993.

[2] Bahtiyor Vahapzade. Vatandaş. B.: 1994.

[3] Bahtiyor Vahapzade. Feryad. B.: 1995.

[4] Bahtiyor Vahapzade. Koprü Çaydan Uzak Düşmuş. B.: 1996.

[5] Bahtiyor Vahapzade. Bir Omür Uyku. B.: 1998.

[6] Bahtiyor Vahapzade. İstiklal. B.: 1999.

[7] Bahtiyor Vahapzade. Akıl Başka Yürek Başka. B.: 2000.

[8] Halil Riza Ulutürk. Devam Edir 37. B.: Gençlik, 1992.

[9] Halil Riza Ulutürk. Ay'la Güneş Arasında. B.: Yaziçi, 1992.

[10] Halil Riza Ulutürk. Kahraman Tebrizim. B.: Gençlik, 1994.

[11] Halil Riza Ulutürk. Uzun Süren Gençlik. B.: Azerneşir, 1994.

- [12] Halil Riza Ulutürk. Türkün Dünyası. B.: Korkut, 1994.
- [13] Halil Riza Ulutürk. Ben Şark'ım. B.: Elm, 1994.
- [14] Halil Riza Ulutürk. Bağışla Ey Vatan. B.: Korkut, 1995.
- [15] Halil Riza Ulutürk. Lefortovo Zindanında. B.: Azerbaycan, 1998.
- [16] Halil Riza Ulutürk. İlk Allahim Son Allahim Mubarize. B.: Gençlik, 1999.
- [17] Halil Riza Ulutürk. Bana Benze. B.: Gençlik, 2000.
- [18] Halil Riza Ulutürk. Türkün Destanı. B.: Gençlik, 2000.
- [19] Turan Çelengi. B.: Elm, 1992.
- [20] Yusuf Balasagunlu. Kutadgu Bilig. B.: Gençlik, 1998.
- [21] Halil Riza Ulutürk. Ömür Kitabını Yazan Şaire. B.: Mütercim, 1998.
- [22] Halil Riza Ulutürk. Ustadım Bahtiyar Vahapzade Hakkında. B.: Azerbaycan, 1999.
- [23] Halil Riza Ulutürk. Refik Zeka Handan Hakkında. B.: Mütercim, 1999.
- [24] Halil Riza Ulutürk. Resul Riza Hasreti. B.: Elm, 2000.
- [25] Memmed Araz. Dünya Düzelmir. B.: Azerbaycan, 1992.
- [26] Memmed Araz. Daş Harayı. B.: Yazarı, 1993.
- [27] Memmed Araz. Kayalara Yazılan Ses. B.: Azerbaycan, 1994.
- [28] Memmed Araz. Yol Ayncında Sohbet. B.: Azerbaycan, 1997.
- [29] Neriman Hasanzade. Bütün Milletlere. B.: Yazarı, 1991.
- [30] Neriman Hasanzade. Talihin Hediyesi. B.: Gençlik, 1993.
- [31] Neriman Hasanzade. Gelimli Gidimli Dünya. B.: Şark-Garp, 1995.
- [32] Cabir Nevruz. Vatan Ebedi Koru'dur. B.: Yazarı, 1992.
- [33] Cabir Nevruz. Kendini Koru Halkım. B.: Şirvanneşr, 1996.
- [34] Zelimhan Yakup. Ziyaretin Kabul Olsun. B.: Gençlik, 1991.

- [35] Zelimhan Yakup. Şair Harayı. B.: Gençlik, 1995.
- [36] Zelimhan Yakup. Bir Eli Toprakta, Bir Eli Hakta. B.: Azerbaycan, 1997.
- [37] Zelimhan Yakup. Le Destin du Poete. B.: Azerbaycan, 1998.
- [38] Zelimhan Yakup. Söz Cami. B.: Azerbaycan, 1998. Gürcüce.
- [39] Zelimhan Yakup. Şairin Talihi. B.: Azerbaycan, 1998.
- [40] Zelimhan Yakup. Bu Yeşil Ağacın Altı Bizimdir. B.: Azerbaycan, 2000.
- [41] Sabir Rüstəmhan. Bütünlük Hasreti. B.: Azerneşr, 1994.
- [42] Sabir Rüstəmhan. Bu Senin Halkındır. B.: Şark-Garb, 1995.
- [43] Sabir Rüstəmhan. Zaman Benden Geçer. B.: Azerneşr, 1995.
- [44] Eldar İbrahim. Ulu Gökçe. B.: Yaziçi, 1990.
- [45] Eldar İbrahim. Allah Emaneti. B.: Bayati, 1994.
- [46] Eldar İbrahim. Vatan Dedi İbrahim. B.: Seher, 1995.
- [47] Eldar İbrahim. Ermenistan Türklerinin 1988 Soykırımı. B.: 1995.
- [48] Eldar İbrahim. Gökçe'nin Kısısı Kalıyor. B.: Zaman, 1997.
- [49] Eldar İbrahim. Şehit Yurdun Şehit Evlatları. B.: Ağrıdağ, 1997.
- [50] Eldar İbrahim. Hikmet Dünyası. B.: Agridag, 1997.
- [51] Eldar İbrahim. Settar Oğlu. B.: Azerbaycan, 1997.
- [52] Eldar İbrahim. Ben Burda Garibim, Yurt Orda Garip. B.: Seda, 1998.
- [53] Eldar İbrahim. Ağrıdağ Kadar Ağrılarım Var. B.: Ağrıdağ, 1999.
- [54] Eldar İbrahim. Oğuz Yurdunun Evlatları. I. Kitap. B.: Tabib, 1999.
- [55] Fikret Koca. Sönen Değil Bu Ocak. B.: Elm ve Tahsil, 2012.

## OZARBAYJON SHE'RIYATI 2001-2015 YILLARDA

2001 yilga kelgach, Ozarbayjonning mustaqillikka erishganidan so'ng qariyb o'n yillik bir muddat o'tib bo'lgandi. Hayotda, shu jumladan, adabiyotda bir qancha toshlar o'z o'mini topgan, eski telbalarcha his-hayajon, shoshqalovlik va tezlik bu kunga ke-lib o'z o'mini og'ir-bosiqlikka tark etgandi. Faqat o'lkaning nomer 1 muammosi, ya'ni Yuqori Qorabog' muammosi, mamlakat hududining yuzda 20 foizining ishg'ol ostida bo'lishi, 1 million atrofida qochoq va muhojirning og'ir moddiy-ma'naviy ahvoli hammani bezovta qilardi. Vatan deb bong urgan adabiyotning bu sohada amaliy jihatdan biror narsa qo'lidan kelmasdi.

2014 yilning oxirlarida Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasining 1600 atrofida a'zosi bor edi. Ulardan 1200 kishining ismidan oldin "shoir", "nosir", "munaqqid", "tarjimon", "dramaturg", "adabiyotshunos", "publitsist" (jurnalist) deya yettita maxsus qayddan eng kamida uchtasi, ba'zan to'rttasi joy olgan. Faqat bu mamlakatdagi shoirlarning haqiqiy sonini aks ettirmaydi. Menimcha, bu raqam nari-beri 10000 dir. Hozirgi kunda Ozarbayjonning nufusi qariyb 10 million. Har ming kishidan bittasining she'r yozishini taxmin qilsak (bunga hech qanday shubha yo'q) soni jihatidan o'n ming raqami hech narsa emas. Sifat jihatidan ahvol boshqacha bo'lishi mumkin. Shoirlilik kasb emasligi uchun, hamma she'r yozish huquqiga ega bo'lgani uchun shoirlikni havaskor va professional deb ayirib bo'lmaydi ham. Faqat bir xil ishni qiluvchi ikki kishi orasidagi farqni belgilash uchun ozarbayjoncha shunday maqol bor: "Har o'qigan Mulla Panoh bo'lolmas". Buni "Har she'r yozadigan odam ham Samat Vurg'un bo'lolmas" deya o'zgartirish mumkin. Sovet davrida mashur rus shoiri Nikolay Tixonovga maxsus bir ibora mavjud edi: "Ozarbayjon xalqi shoir xalqdir". Bu ibora uzoq yillar davomida (40-50 yil) kuzatishlar orqali paydo bo'lgan.

Ozarbayjonning rasiniy va g'ayrirasmiy statusli shoirlari 2001-2015 yillarni qamrab olgan davrda nima yozdilar? Janr ji-hatidan hamma narsa. An'anaviy she'r janrlaridan qo'shma (tarkibiy janrlari: go'zallama, ustoznama, qifilband, vujudnama), gerayli, bayotiy (tarkibiy janrlari: ag'i, loylo, nozlama, sayoji so'zi, xo'lover, vasfi hol), tajnis (tarkibiy janrlari: dudoq tegmas, oyoqli tajnis yoki mustazod, jig'ali tajnis), devoniy va hokazo shoirlarimiz va oshiq-o'zonlarimiz tomonidan ko'pchiligi qullanilib kelgan. Devon adabiyoti turlaridan g'azal, qasida (tarkibiy janrlari: tawhid, munajoat, nat, madhiya, faxriya, hajv, marsiya), qit'a, ruboyi, tuyuq, muxammas, musaddas, taxmis, murabba, masnaviy va hokozo katta qismi qullanilgan.

Vazn o'laroq ham bo'g'in, ham aruz, hamda sarbast (erkin) vaznda yozilgan.

Ushbu satrlar yozilayotgan paytlarda (senyatbr 2014) Xalq shoirlaridan Balash Ozaro'g'li, Baxtiyor Vahobzoda, Mammad Oraz, Nabi Hazriy, Qobil, Jobir Navruz hayotga vidolashgan edilar. Mashhur shoirlardan yana Nusrat Kasamanli, Xonimona Alibeyli, Maston Gunar, Orif Abdullazoda, Husayn Kurdo'g'li, Fomil Mahdi, Ramiz Haydar, Siyovush Sarxonli, Eldor Nasibli, Dovud Nasib, Fathali Sohib, Kalontar Kalontarli, Alakber Salohzoda, Og'a Lochinli, Ibrohim Go'kchoyli, Elmon Habib va boshqlar bu foni dunyoni tark etib ketgandilar.

Ozarbayjon she'riyatining oqsoqoli Xalq shoiri Baxtiyor Vahobzoda vafot etgan 2009 yilgacha "Oq otli o'g'lon" [1] deb nomlangan kitob chop qildirib, butun vaqtini tanlangan asarlarining (12 jild) [2] tayyorlashga sarf qildi. Sog'lig'ida muammolar bo'lgan, duxtirlarning tavsiyasi bilan yozda ko'pincha Bokudan 500 km uzoqda joylashgan mamlakati Shakida o'tkazgan shoir har bir jildni bitta-bittalab ko'zdan kechirgan, she'rlarini mavzu jihatidan guruhlarga taqsimlagan, har bir sahifani shaxsan o'zi ko'rib chiqqan va tekshirgan. Natijada asarlarining deyarli barchasini qamrab olgan 12 jild uning Ozarbayjon xalqiga so'nggi armug'oni bo'ldi.

Keksa shoir Balash Ozaro<sup>g</sup>li 2009 yilda ramziy nom bilan atalgan “Kuzning yaproq to‘kimi” [3] nomli so‘nggi kitobini nashr qildirib, 2011 yilda adabiyot va hayot bilan vidolashadi. Bu kitobdagagi ijod namunalarining bir qismi sevikli turmush o‘rtog‘i, mashhur shoira Madina Gulgunja va 1940-46 yillarda Eronda Said Ja‘far Pishavariy boshchiligidagi Ozarbayjon inqilobini amalga oshirgan da‘vo do‘srlariga atalgan.

“Insonni tanib bo‘lmaydi” [4] kitobi esa she‘r bulbuli Jobir Navruzning so‘nggi qo‘shig‘i bo‘lib qoldi. Vafotidan keyin “Tanolangan asarlari” [5] va “Yo‘qolgan qo‘lyozmalar” [6] nomli boshqa ikki kitobi taqdim etilib, cheksiz rag‘bat ko‘rdi.

Xalq shoiri Mammad Oraz umrining so‘nggi yillarida yettita kitob yozib nashr qildiradi. Bulardan ilk uchtasi – “Yig‘lagan qoyalar” [7], “Vatan deng” [8] va “Askar onti” [9] shoirning so‘nggi she‘rlari jamlangan kitoblaridir. 2003 yilda “O‘zon” nashriyoti Mammad Orazning tanlangan asarlarini (4 jild) [10] nafis ko‘rinishda chop etadi.

2005 yil Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi bosh sekretari Fikrat Qo‘ja uchun juda barakali bo‘ldi. 2005 yilda uning qariyb 40 yillik ijod moziyining natijasi sifatida tanlangan asarlarining 1-6 jildlari [11] kun yuzini ko‘rdi. 2009 yilda shoirning izma-iz 4 kitobi bosilib chiqdi. Bular “Bekatda uchrashuv” [162], “Ko‘nglimdan kechganlar” [13], “Tolening og‘ir tolei” [14] va “Ozdir, sozdir, tuzukdir” [15] kitoblaridir. Fikrat Qo‘ja she‘rlari aslida juda teran va falsafiy, inson va zamon haqida, voqealarga umumiy va shaxsiy qarashlardir. Shu to‘rtlikka diqqat qiling:

Hozir o‘tish davridir,  
Qil ko‘priordan o‘tilayotir...  
Yomonlar tanlanayotir,  
Yaxshilar ham tanlanayotir.

Fikrat Qo‘ja tomonidan 2008 yilda qalamga olingan “Xotinlar” (“Ayollar”) she‘ri ham o‘ta qiziq:

Xotinlar umr otli sahroda suvdir,  
Yonar qalblarning orzusi,  
Uyqusiz oshiqlarning rangli uyqusi.  
Xotinlar ko'kdan yerga qadar yog'ishdir,  
O'pkalansa layson otli qarg'ishdir,  
Ba'zan seldir; yuzib bo'lmaydi,  
Ba'zan soydir; kechib bo'lmaydi,  
Xotinlar dunyoda suv kabi ko'pdir,  
Ko'pini ham ichib bo'lmaydi.

Shoirming zamonning hayratga tushiradigan darajada tez o'tishiga atalgan she'ri ham insonni hayratga soladi:

G'olibo, bahor  
Navbatdan tashqari keladi,  
Insonlar hazildan oldin kuladi,  
Jonililar tug'ilishdan avval o'ladi,  
Bunday ketsa, kelajak har holda  
Juda erta keladi.

Keyingi paytlarda izin-ketin chiroyli tarixiy romanlar yozgan Sobir Rustamxonli 2004 yilda bir jild shaklida tanlangan asarlarini [16] o'quvchilarga taqdim qildi. Bu kitob sotishga chiqarilgandan dastlabki kundan boshlab adabiy davralarning diqqat markazidan joy oldi, chunki bu to'plamda shoirming eng yaxshi she'rlari joy olgandi. Sobir Rustamxonli milliy muammolarga e-tiborliligi, vatansevarligi bilan barchaning chuqrur hurmatini qozongan. Uning "Ona tilim", "Vatan", "Javod xon" kabi asarlari tillardan tushmaydi, yod olingan. Bundan bir necha yil avval Armaniston bilan chegaralarini ochishi uchun Turkiyaga qattiq taziyiq o'tkazgan G'arbni shoir o'ta shiddat bilan qoralab, Ozarbayjon – Turkiya qardoshligini tilga olgan, turk millatining po'lat irodasini ko'z oldimizda namoyon qilgan:

Chegaralar ochilish kerak! G'arb shunday buyurdi,  
Qurgan kim, yashatgan kim, boshqargan kim bu yurtni?

Tovushqonning oyog‘iga olib borajak Bo‘z bo‘rini,  
Sharaflı tarixiga sharafsizlik yoz deydi,  
Iqtidor yo‘l izlaydi, turk xalqi “o‘lmaz” deydi.

Turkning ota yurtida Armaniston qurilmish,  
Ishtahasin so‘nggi yo‘q, ichgan qoni oz deydi,  
Jallodlar pistirmada! ... Turk xalqi bo‘lmas! deydi!  
Millat Qorabog‘ deydi, bular neft, gaz deydi,  
Oddiy jonivorlarga turk xalqi “o‘lmaz”! deydi!

Zelimxon Yoqub bu davrda ham porloq ijod qildi, inja zarif ishqiy she’rlar bilan birga hazin va og‘ir-bosiq diniy she’rlar, Ozarbayjon vasfini kuylovchi yuqori ko‘tarinkili she’rlar, buyuk yo‘lboshchi Haydar Aliyevning hayoti va kurash yo‘llari haqida haqiqiy san’at namunasi bo‘lgan manzumalar qalamga oldi. Ular-dan qay biri yanada muvaffaqiyatli chiqanini aytish qiyin. Chunki ulardan barchasining ayni iste’dod va ilhom bilan yozilganiga gu-voh bo‘lamiz.

Zelimxon Yoqubning “Qanday yo‘l topaman sening qalbinga?” [17], “Buyuk umr dostoni” [18], “Qaytaylik avalgi xotiralar-ga” [19], “Ko‘zlarim nuridir tug‘ilgan tuproq” [20], “Men bir tog‘dagi soyman” [21], “Abadiyat dostoni” [22], “Payg‘ambar” [23], “Ekkан daraxtingga yaslan” 1. Jild [24] va 2. Jild [25], “Biz nega sevmaylik” [26] va “Tushunchalar simfoniyasi” [27] kabi she’rlari XXI asr Ozarbayjon she’riyatining eng go‘zal namuna-lari orasidan joy olgan. Shoiring inja rubobidan chiqqan kichik, biroq mazmunli she’riga ko‘z qirimizni tashlaylik:

Shahar dunyosidir...  
Kunda maydonga  
Aqlisi chiqar,  
Telbasi chiqar.

Har kasning bir nav‘i  
Nafas kesgani.

Har kasning bir nav'i  
Dallisi chiqar.

Har kas bu shaharga  
Tip-tirik kelar,  
Har kasning shahardan  
O'ligi chiqar.

Shu kunlarda Ozarbajjon adabiyotining eng yoshi ulug' va kili Xalq shoirimiz Narimon Hasanzodadir. Fevral oyida 83 yoshida to'lgan mashhur adabiyotchi va olim san nomzodi Narimon Hasanzoda Boku Milliy Aviatsiya Akademiyasida gumanitar fanlar kafedrasи mudiri vazifasida ishlayapti. Shoир 2005 yilda Ozarbajjon Xalq shoiri unvoniga, 2011 yilda Sharaf nishoniga loyiқ ko'rilgan. 2004 yilda tanlangan asarlari [28] bosilib chiqqan. 2007 yilda tug'ilib o'sgan joyi qishloq haqida "Po'ylu – beshigim mening" [29] kitobi, 2009 yilda "Narimon" [30] manzumasi, 2010 yilda "Nuri Posho" [31] manzumasi nashr qilindi. "Nuri Posho" manzumasi, ham Ozarbajjonda, ham Turkiyada katta e'tibor ko'rgan.

Ozarbayjon she'riyati faqatgina Bokuda emas, o'lkaning uzoq hududlarida ham rivojlanmoqda. Yozuvchilar Uyushmasi mamlakatning turli chekkalarida yashaydigan adiblarni har jihatdan ta'minlab turibdi. Uyushmaning hozircha uchtasi xorijda bo'lgan 17 shub'asi faoliyat yuritadi. Shuba'alardan biri Naxchivonda. Universtitet yillari istisno Elmjon Habibning hayoti butunlay Naxchivonda o'tgan. U, iste'dodli bir inson sifatida chekka joylarda ham go'zal asarlar yozilishi mumkinligini ko'rsatib bera olgan. Shoир 2000- yillarda "Senli sensiz kunlarim" [32], "Olloh salomi" [33], "Quyoshning vatani" [34], "Mamlakatim, muhabbatim" [35], "Menligim sukuti" [36], "Har so'zning zamoni" [37], "Yer va ko'k orasida" [38], "Men ko'rgan shahar emas" [39], "Ilhom – xalqning ilhomni" [40], "Naxchivonna" [41], "Haydarnoma" [42], "San'atning qisqa yo'li – she'r" [43], "Tilimizda so'zlashga uyalmaylik" [44], "85 yilning 15 yili" [45].

“Tanlangan asarlar. 1. jild”, “Tanlangan asarlar. 2. jild” [47] kitoblarini yozgan va xalqimizga boy meros qoldirib, 60 yoshida to’satdan vafot etgan. Elmon Habib bir she’rida vatanga bo’lgan tuyg’ularini shu tarzda tilga olgan:

Yuragimdan kechganlarni  
Men dedimmi, demadimmi?  
Bu tuproqni yetralicha  
Madh etdimmi, etmadimmi?  
Ne bilayin menda bir jon,  
U ham bo’lsa yurtga qurban,  
Ota yurtim Ozarbayjon,  
Ona yurtim Naxchivon!

Chekka hududlarda yashagan boshqa shoirlardan Maminad Olim (Ganja), Barot Vusol (Qozox), Iltifot Solih (Lenkaron), Ismoil Imomzoda (Mingechevir), Sobir Sarvon (Sumgait), Ramiz Quzarchayli (Guba), Sarvoz Husayno’g’li (Arron), Nomiq Xojihaydarli (Mug’on), Mirdamet Aziz (Shirvon), Og’asafo (Xizi), Xoqoniy Habibbeyli (Yevlaq), Sobir O’zgun (Fuzuliy), Mustafa Darvish (Aqdash), Vagif Aslon (Shaki) va o’nlab boshqa shoirlarni va nosirlarni ko’rsata olamiz.

Eldor Ismoil 2001 yildan keyin ham ayni shavq va ilhom bilan yozib-yaratishda davom etib, 20 atrofida kitob nashr qildirdi. Ular Mustafo Kamol Otaturk va Haydar Aliyevga, Turkiya va Ozarbayjonga, Buyuk Turk dunyosiga, qo’limizdan chiqib ketgan hududlarimizga, shahidlarimizga, qahramon avlodlarimizga, davronga, zamonga, dunyoga, o’tmishga, bugun va kelajakka atalgan nazm va nasr o’rnaklaridir.

“Tongga maktub” [48], “Ichimda o’sgan binafsha” [49], “Mendan boshqa Armaniston yo’q edi” [50], “Yaxshilik, mudriklik, go’zallik” [51], “Umrni yo’qotamiz yosh olgan sari” [52], “Sensizlik na yomon qattiq ekan Sardor” [53], “Buyuk yo’lboshchi” [54], “Men butun Ozarbayjon bo’lishim kerak” [55], “Sattor o’g’li” (ilovali qayta nashr) [56], “Xotirla meni” [57], “Turkning

“xaloskori” [58], “Sen meni alday olmaysan dunyo” [59], “Men kimman” [60], “Ulug’ Turon yo’lida” [61], “Zamonsiz dunyo” [62], “Zamon meni anglamadi” [63], “Jahon umri” [64], “Zulmatda porlagan qilich” [65], “Yuksalt turkning bayrog’ini” [66]. “Yaproqlar to’kilmox istamas hali” [67], “Ulug’ Go’kcha ayt, yotganlar uyg’onsin” [68], “Vatanimdir Ozarbayjon” [69], “Bir yigitning umri” [70] kitoblari yuragini xalqi va vatani uchun bir mash’ala qilgan. Turk dunyosi va Ozarbayjon ishqida tutab-yongan bir shoirning, buyuk bir iste’dodning bizga armug’onidir.

Ozarbayjon adabiyotiga 60- yillarda kirib kelgan original uslub va tushuncha egasi shoir Alakber Salohzoda yoshlik paytida partiyaviy adabiyotga hech qanday e’tibor bermagani uchun qat-tiq tanqid olovi ostida qolgan, Rasul Rizo soyasida ijoddha o‘z o’mmini saqlab qolgan. Uning so‘z san’atida adabiyotga va xalq ruhiga yaqin she’rlari adabiy olamda qiziqish bilan kutib olinar, chunki ular kutilmagan go’zal she’riy kashfiyotlarga to’la edi, oniy va kutilmagan bir shaklda yakunlanardi. Masalan:

Barmoqdan tez cholg’u bilur:  
Simning simdan xabari bor.  
Isyon-la ko’kka qalqan,  
Zilning qo‘ng’iroqdan xabari bor.

...Har ikkisi bir shaharda  
Munajjim-da, kimyogar-da...  
Biri ko’kda, biri yerda  
Kimning kimdan xabari bor?

Sovet davrida she’r va manzumalar yozgan Alakber Salohzoda 1995 yilda “Yangiltuvchi alifbo” (Qaytariqli alifbo) kitobi bilan bolalar adabiyotiga to’g’ri keskin bir qaytish qildi. Ozarbayjon adabiyoti tarixida deyarli hamma shoir bolalar uchun she’r yozishgan. Mustaqillik davridan beri Ilyos Toptiq, Zohid Xalil, G’arib Mahdi, Islom Sodiq va boshqa shoirlar bolalar adabiyoti

sohasida ko'plab asarlar yozishgan. Ular orasida Alakber Saloh-zodaning maxsus o'mi bor. U, "Vaqt vodiysi" [71] nomli kitobi dan keyin birin-ketin "Yo'qolgan qalamlar masali" [72], "Olma kemirgan bo'ri masali" [73], "O'q otgan kirpi masali" [74], "Ars-lon bo'lmoq istagan mushuk" [75], "Kim nimaga o'xshaydi" [76], "O'rmonga arazlagan ayiq" [77], "Daladagi tanho daraxt masali" [78], "Do'st izlagan echki masali" [79], "Toqqa chiqqan baqa masali" [80], "O'ziga mahliyo bo'lgan xo'roz" [81], "Ayiq-nning savoli" [82] kitoblarini yozib, bu sohada haqiqiy rekord o'rnatgan. Ushbu asarlarda rangli bolalar dunyosining va bolalar psixologiyasining o'ta nozik tasviri insonni hayratga soladi.

Kamoliddin Qadim 2000- yillarning eng ko'p o'qilgan va mehrini qozongan shoiridir. Toza va pok, hikmatli va mazmunli, o'zibilarmonlikdan va sun'iylikdan uzoq, qulay o'qiladigan va yodlashga oson she'rлaridan yig'ilgan 8 kitobidan 6 tasi o'n yil ichida nashr qilingan. "Gunohni yozuvchi malak" [83], "Yig'ish-tir, ketaylik aybim" [84], "Ollohdır, shaytondir, meniki" [85], "Yashamoqda nima bo'lsa" [86], "Ollohnı sevsayding" [87], "Tag'in so'ngimni yozayapman" [88] kitoblari bilan shoir xalqa-ro mukofotlarga, shu jumladan, Turkiyaning nufuzli "Turk dun-yosiga xizmat" mukofotiga loyiq topilgan. Uning so'nggi kitobi-ga nashriyot tomonidan yozilgan so'zboshida shunday satrlar uchraydi: "Bu kitobda u qo'llagan so'zlar, kalimalar, misralar shunchalar tabiiy, shunchalar porloqki, bu she'rлarda shamolning, yomg'irning, uchgan qushning va insonning ichida ko'rtak ocha-yotgan savdolarning sasini tuyasan. Shoir o'z she'rлari bilan ichida yashayotganimiz dunyoga oyna tutadi. So'zning oynasida op-poq bulutlar, yam-yashil og'ochlar, xinoli tog'lar va umidning ming bir tusli rangi o'ynoqlaydi".

Kamoliddin Qadimning "Yodimga tushar" she'riga nazar so-laylik:

Bir vaqtlar sevgandim seni,  
Falak yodimga tushar.  
Malak eding ko'zlarimda.  
Malak yodimga tushar...

Quchoq, sening, menimdi.  
U chog' sening, menimdi  
Pichoq sening, menimdi  
Kurak yodimga tushar...

Bir qiz-la aldaganning,  
Ustda aylantirganing.  
Hajrida yondirganing  
Yurak yodimga tushar...

Qanday o'zding otimdan,  
Kechding yetti qatimdan.  
Kafan chiqmas yodimdan.  
Xotir yodimga tushar...

Kamoliddin Qadmining sh'rlaridagi ba'zi misrlar qanotli ifodalarchalik go'zal va mazmundordir. Ulardan bir nechasini quyida keltiramiz:

Odamlardan tushayotir  
Bu shaharda og'ochlar.

\* \* \*

Qo'rhma, bu yerda ohim tutmas.  
Bu yerda so'zim tutgan seni.

\* \* \*

Uyg'onar uyqusidan.  
Baxtim yotgan, yig'lama.

\* \* \*

Yo'qotinoqdan charchaganman  
Har topganim yerda seni.

Bu yerda ayrim shoirlarimizan ba'zi she'riy parchalar keltirib o'tishni lozim topdik. Masalan, Vagif Samado'g'li Polshalik go'zal bir qizga yozgan hazil yo'sinidagi bir she'rda shunday xitob qiladi:

Polyak qizi, men senga  
Nafas deyin, oh deyin?  
Chiqar xochni bo'yningdan,  
Men bismilloh deyin.

Ko'p yillardan beri ... topib nuktadonlik qilgan Fikrat Sodiqning ba'zi bayt va tizmalari mashhurdir. Masalan, Sovet davrida-yoq flamaster va master so'zlaridan iborat takror (qaytariq) tipdagi she'ri tillarga tushgandi:

Yaxshi master  
Topa olmaz flamaster,  
Flamaster  
Topa olmas yaxshi master.

Fikrat Sodiq har tarafda inglizcha keng yoyilgan bugungi kunda buni inglizchaga ham qo'llab ko'rghan. Inglizcha okey (ha, mayli bo'ladi) so'zi bilan ozarbayjonchaning key (dangalak, ov-sar, aqlsiz, uyquchi) so'zlarini yonma-yon qo'yib, qiziq bir bayt hosil qilgan:

Bu key u keyga deydi: okey!  
U key bu keyga deydi: u key.

Nohaqlik qilmaslik lozim, Fikrat Sodiqning qalamidan fav-quloda darajada go'zal tizmalar ham chiqadi. Masalan:

Nega tole zolim bo'lsin!  
Ko'klar menga zamin bo'lsin!  
Bir dara mozorim bo'lsin.  
Bir tog' o'rtsin ustimga!

Jo'shqin ilhom va iste'dod sohibi shoir Musa Yoqubning har bir she'ri mukammal bir san'at asari o'laroq insonr uhiga ozuqa beradi. Nozik tuyg'ularini she'rga gilam misoli bitta-bitta to'qigan

shoir tazodlar tamalida yozgan asarlarida ayniqsa muvaffaqiyat qozongan. Buni quyidagi mazmundor parchada ham ko'ramiz:

Bu dunyoda sevinch-da bor,  
Dard-da bor;  
Ular har tarafga chekar  
Ko'nglimni.  
Yaxshiki nomard yonida  
Mard-da bor;  
Biri yiqsa, biri tikar  
Ko'nglimni.

Yoxud prof. Askar Rasulov she'rlarining hammasi go'zal, "Dengiz suvi kabisan" she'ri ayniqsa his-tuyg'uli va hazindir. Ko'ramiz:

Kirib buhron yoshingga,  
Qolmishsan tek boshingga,  
O'z qo'ling o'z boshingga  
Yostiq bo'lgandan beri.

Unut deding, unutdim,  
Mcnga orqa, umidding.  
Men o'z so'zimni tutdim,  
Araz degandan beri.

Dengiz suvi kabisan,  
Yoziq, na ichilarsan.  
Na-da voz kechilarsan,  
Do'stmiz degandan beri.

Vohid Bahmanlining shu misralariga ham gap yo'q:  
Havoga sekdir Odamga gunoh,  
Erkakda qovurg'a, yelka og'riydi,  
Xotin yig'laganda kuladi Ollo,  
Erkak yig'laganda Ollo yig'laydi.

Xalq she'ri tarziga teran oshno bo'lgan va bu chizgida o'xshashi yo'q mahsul bergen Ziraddin G'afforlining "Qatdim" she'ri ham ko'zdan yosh oqizadigan darajada ta'sirchan va nostalgikdir. Ikki misrasiga qarab ko'raylik:

Bir go'dak jujuq edim,  
Sochlarim oppoq qaytdim,  
Ajalga yo'ldosh bo'lmadim,  
Ajal ketdi, men qaytdim.

Ay Ziraddin, g'am key (kuchsiz) emish,  
Sevinch uyg'oq, g'am key (uyquda) emish,  
O'lim naqadar arzon emish,  
O'ldim, o'limdan qaytdim.

Iste'dodli ayol shoiralarimizdan Talli Panohqizining shu she'riga diqqat qarataylik:

Men ruh odamiman, so'z odamiman,  
Bir iliq boqishli ko'z odamiman,  
Tep-tekis, Tangrining o'z odamiman;  
Sen kimga omonat etarsan meni?

Ha, shoirlar ruh odami, so'z odami, nihoyat Tangrining o'z odamlaridir. 2000 yildan beri Ozarbayjon she'riyat nimalar qilinib-qilinmaganini shu tariqa xulosalash mumkin:

- Ozarbayjon adabiyotining umumiy rivojiga muhim hissa qo'shdilar;
- Davrning ijtimoiy, siyosiy va sotsio-iqtisodiy ahvolini ma'lum bir darajada adabiyotda aks ettirdilar;
- Ko'p mahsulot berishdi, ko'p asarlar yozishdi, faqat zamonamiz qahramonining haqiqiy obrazini yarata olishmad;
- Shoirlar jamiyat oldida yana bir oz e'tibor va nufuz tusishiga uchradilar;

- Kitoblarining tiraj miqdori so'nggi davrning eng past da-rajasiga tushdi;
- Mavzu va janr jihatidan yaxshi muvaffaqiyatlarga erishdilar;
- Bir qancha mahalliy va xalqaro mukofot va medallar olishdi.

### Foydalanolgan adabiyotlar

- [1] Bahtiyar Vahapzade. Ak Atlı Oğlan. B.: Tahsil, 2002.
- [2] Bahtiyar Vahapzade. Seçilmiş Eserleri. 1-12. Ciltler. B.: 2001-2008.
- [3] Balaş Azeroğlu. Güzün Yaprak Dökümü. B.: Nurlan, 2009.
- [4] Cabir Nevruz. İnsanı Tanımak Olmır. B.: Azerbaycan, 2001.
- [5] Cabir Nevruz. Seçilmiş Eserleri. B.: Lider, 2004.
- [6] Cabir Nevruz. Yitmiş Elyazmalar. B.: Çaşıoğlu, 12005.
- [7] Memmed Araz. Allayan Kayalar. B.: Araz, 2002.
- [8] Memmed Araz. Vatan Deyin. B.: Adilioğlu, 2003.
- [9] Memmed Araz. Asker Andı. B.: Araz, 2003.
- [10] Memmed, Araz. Seçilmiş Eserler. 1.-4. Ciltler, B.: Ozan, 2003.
- [11] Fikret Koca. Seçilmiş Eserler. 1.-6. ciltler, B.: Azerneşr, 2005.
- [12] Fikret Koca. Durakta Buluşma. B.: Nurlan, 2009.
- [13] Fikret Koca. Gönlümden Geçenler. B.: Azerneşr, 2009.
- [14] Fikret Koca. Talih'in Ağrı Talihi. B.: Nurlan, 2009.
- [15] Fikret Koca. Azdır, Sazdır, Düzdür. B.: 2009.
- [16] Sabir Rüstemhan. Seçilmiş Eserler. B.: Şark-Garb, 2004.
- [17] Zelimhan Yakup. Nasıl Yol Bulurum Senin Kalbine. B.: 2004.
- [18] Zelimhan Yakup. Büyük Ömrün Destanı. B.: YNE, 2004.
- [19] Zelimhan Yakup. Dönemim Ewelki Hatıralara. B.: Gençlik, 2004.
- [20] Zelimhan Yakup. Gözümün Nurudur Doğduğum Toprak. B.: 2005.

- [21] Zelimhan Yakup. Ben Bir Dağ Çayıyım. B.: Pedagogik, 2006.
- [22] Zelimhan Yakup. Ebediyet Destanı. B.: Pedagogika, 2008.
- [23] Zeltmhan Yakup. Peygamber. B.: Pedagogika, 2009.
- [24] Zelimhan Yakup. Diktiğin Ağaca Yaslan. 1. Cilt. B.: Şark-Garb, 2010.
- [25] Zelimhan Yakup. Diktiğin Ağaca Yaslan. 2. Cilt. B.: Şark-Garb, 2010.
- [26] Zelimhan Yakup. Biz Niye Sevmeyelim. B.: Çapoğlu 2011.
- [27] Zelimhan Yakup. Düşüncelerin Semfonisi. B.: Vatan, 2011.
- [28] Neriman Hasanzade. Seçilmiş Eserleri. B.: Şark-Garb, 2004.
- [29] Neriman Hasanzade. Poylu - Beşigim Benim. B.: 2007.
- [30] Neriman Hasanzade. Neriman. B.: 2009.
- [31] NerimanHasanzadec. Nuri Paşa. B.: 2010.
- [32] Elman Habib. Senli Sensiz Günlerim. B.: Sabah, 2002.
- [33] Elman Habib. Allah Selamı. B.: Sabah, 2002.
- [34] Elman Habib. Güneşin Vatanı. Nahçıvan: Acemi, 2004.
- [35] Elman Habib. Memleketim, Muhabbetim. B.: Seba, 2006.
- [36] Elman Habib. Benimliğin Sukutu. B.: Şirvanneşr, 2007.
- [37] Elman Habib. Her Sözün Zamanı. Nahçıvan: Acem, 2007.
- [38] Elman Habib. Yerle Gök Arasında. B.: Şirvanneşr, 2007.
- [39] Elman Habib. Bu Ben Gören Şehir Degil. B.: Şirvanneşr, 2008.
- [40] Elman Habib. İlham - Halkın İlhamı. Nahçıvan: Kızıl Dağ, 2008.
- [41] Elman Habib. Nahçıvanname. B.: Şirvanneşr, 2008.
- [42] Elman Habib. Haydarname. B.: Şirvanneşr, 2008.
- [43] Elman Habib. Sanatın Kısa Yolu - Şiir. B.: Şirvanneşr, 2009.
- [44] Elman Habib. Dilimizi Konuşmaya Utanmayalım. B.: E.L., 2009.
- [45] Elman Habib. 85 Yılın 15 Yılı. B.: Şirvanneşr, 2009.

- [46] Elman Habib. Seçilmiş Eserleri. I cilt. B.: Şirvanneşr, 2009.
- [47] Elman Habib. Seçilmiş Eserleri. II cilt. B.: Şirvanneşr, 2009.
- [48] Eldar İsmail. Sabaha Mektup. B.: Seda, 2001.
- [49] Eldar İsmail. İçimde Biten Menekşe. B.: Nurlan, 2002.
- [50] Eldar İsmail. Benden Ötürü Ermenistan Yotku. B.: Nurlan, 2002.
- [51] Eldar İsmail. İyilik, Müdriklik, Güzellik. B.: Nurlan, 2002.
- [52] Eldar İsmail. Ömür Yitiriz Yaş Kazandıkça. B.: Nurlan, 2004.
- [53] Eldar İsmail. Sensizlik Ne Yaman Çetinmiş Serdar. B.: Nurlan, 2004.
- [54] Eldar İsmail. Büyük Onder. B.: Nurlan, 2004.
- [55] Eldar İsmail. Bütün Azerbaycan Olmalıyam Ben. B.: Nurlan, 2004.
- [56] Eldar İsmail. Settar Oğlu (ekiyle tekrar baskı). B.: Nurlan, 2005.
- [57] Eldar İsmail. Hatırla Beni. B.: Nurlan, 2005.
- [58] Eldar İsmail. Türkün Halaskarı. B.: Nurlan, 2005.
- [59] Eldar İsmail. Sen Beni Kandırılamazın Dünya. B.: Nurlan, 2006.
- [60] Eldar İsmail. Ben Kimim. B.: Nurlan, 2007.
- [61] Eldar İsmail. Ulu Turan Yolunda. B.: Nurlan, 2007.
- [62] Eldar İsmail. Zamansız Dünya. B.: Gençlik, 2008.
- [63] Eldar İsmail. Zaman Beni Anlamadı. B.: Seda, 2008.
- [64] Eldar İsmail. Cihan Ömrü. B.: Seda, 2008.
- [65] Eldar İsmail. Zülmnette Parlayan Kılıç. B.: Azerneşr, 2009.
- [66] Eldar İsmail. Yücelt Türkün Bayrağını. B.: Elm ve Tahsil, 2011.
- [67] Eldar İsmail. Yapraklar Dokülmek İstemir Hala. B.: Çamlıbel, 2071.
- [68] Eldar İsmail. Ulu GökçeDe Yatanlar Ayılsın. B.: Nurlar, 2011.
- [69] Eldar İsmail. Vatanındır Azerbaycan. B.: Elm ve Tahsil, 2012.

- [70] Eldar İsmail. Bir Yigitin Ömrü. B.: Tefekkür, 2013.
- [71] Alekber Salahzade. Vakit Vadisi. B.: Nergiz, 2007.
- [72] Alekber Salahzade. Yiten Karandaşların Masalı. B.: Beşik, 2008.
- [73] Alekber Salahzade. Elma Kemiren Kurdun Masalı. B.: Beşik, 2008.
- [74] Alekber Salahzade. Ok Atan Kirpinin Masalı. B.: Beşik, 2008.
- [75] Alekber Salahzade. Aslan Olmak İsteyen Kedi. B.: Beşik, 2008.
- [76] Alekber Salahzade. Kim Neye Benziyor. B.: Beşik, 2008.
- [77] Alekber Salahzade. Ormana Küsen Ayı. B.: Beşik, 2009.
- [78] Alekber Salahzade. Tarladaki Tenha Ağacın Masalı. B.: Beşik, 2009.
- [79] Alekber Salahzade. Dost Arayan Çepişin Masalı. B.: Beşik, 2009.
- [80] Alekber Salahzade. Dağa Çıkan Bağanın Masalı. B.: Beşik, 2009.
- [81] Alekber Salahzade. Kendini Beğenmiş Horoz. B.: Beşik, 2009.
- [82] Alekber Salahzade. Ayının Sorusu. B.: Beşik, 2009.
- [83] Kemalettin Kadim. Günahı Yazan Melek. B.: Vektor, 2003.
- [84] Kemalettin Kadim. Toparlan Gidelim Suçum. B.: Vektor, 2007.
- [85] Kemalettin Kadim. Allahtır, Şeytandır, Benim. B.: Vektor, 2009.
- [86] Kemalettin Kadim. Yaşamakta Ne Varsa. B.: Vektor, 2012.
- [87] Kemalettin Kadim. Allahı Sevseydin. B.: Yazarı, 2013.
- [88] Kemalettin Kadim. Daha Sonumu Yazıyorum. B.: Elm ve Tahsil, 2014.

"Kim uxlagan, kim uyg'oq? Qahramonimiz birdan "Hamma uxlagan-u Jirttan uyg'oq" deydi. "Jirttan nega uyg'oq" deb so'ra-gach, devga "Buvim har oqshom shu soatda menga to'qqiz dona tuxum quymog'i pishiradi, men yeb bo'lib uxlardim" deydi. Dev Jirttanning aytganini qiladi. Jirttan quymoqni yeb, yotadi. Birozdan keyin dev qayta keladi, Jirttanning yana uyg'oq ekanini ko'radi. Sababini so'raydi. Jirttan bu marotaba o'ta asosli bahona topadi: "Buvim choynak qalbur bilan suv keltirar, men ichib keyin yotardim". Aqlsiz dev tezda chelakni olib soyga yuguradi, suv keltirishni hech qanday eplay olmaydi, Jirttan esa bolalarni uyg'otadi va bu yerdan qochib ketishadi.

Zamona xuddi dev kabi qorong'uliklar ichida qolgan sahna yozuvchisini yeish uchun yarim kecha so'rabdi: "Kim uxlagan, kim uyg'oq?" Birinchilardan Ilyos Afandiiev bo'lgan bir guruh drama yozuvchisi "Hamma uxlagan, biz uyg'oq" deptilar.

Ha, 90- yillarda Ozarbayjon teatrini devning qo'rqinchli tishlaridan Ilyos Afandiiev qutqardi. U, Ozarbayjon adabiyoti tarixida mustaqillik davrigacha son jihatidan eng ko'p, sifat jihatidan eng ustun drama asarlari yozgan ijodkordir. Ilk pyesasini 1944 yilda Mahdi Husayn bilan birga qalamga oladi, undan keyin 1994 yilgacha 50 yil davomida jami 22 ta drama asari yozadi. Ularning bir qismida yozuvchi yosh avlodga sof ishq va ma'naviy, ahloqiy qadriyatlarni talqin qiladi, bir qismida esa tarixiy va falsafiy mavzularga katta e'tibor qaratadi. Mamlakat mustaqillikka erishgach, horg'in jangchi kabi yoshi ulug' bo'lishiga qaramasdan "Tango jiyda daraxti" (1991), "Aqlilar va telbalar" (1992), "Hukmdor va qizi" (1994) nomli uchta chiroyli sahna asari yozdi [1, 464-465]. Ilyos Afandiiev bilan aloqador qiziqarli voqealar uning ijodi, hayoti va kishiligini tushunib yetish jihatidan muhim bo'lishi mumkin. Yozuvchining oilasi kelib chiqishi bo'yicha Qarslikdir, u yerdan ko'chib, Ozarbayjonning Qorabog' o'lkasida joylashadi. Bu oila bolshevizmga doimo chuqr nafrat bilan qaraydi. Ilyos Afandiiev yoshligidagi bir muddat jurnalda, gazetada, nashriyotda va radioda adabiyot bo'limining mudiri, nihoyat Yozuvchilar Uyushmasida maslahatchi va mas'ul kotib bo'lib ishlagan, 1961

yildan umrining oxirigacha (1996) hech qayerda ishlamagan. 1964 yilda "Sen har zamon men bilansan" pyesasi orqali porloq yulduzga aylanadi. Bu asar Ozarbayjon sahnalarida ming marta- dan ko'proq qo'yilgan. Bu rekordni quvib o'tgan va unga yaqin kelgan hech qanday asar yo'q. Yozuvchi 1972 yilda Ozarbayjon Davlat mukofotiga, 1979 yilda Ozarbayjon Xalq yozuvchisi unvoniga loyiq topilgan. Ilyos Afandiyev butun Sovet Ittifoqi miq-yosida Kommunistik Partiyaga a'zo bo'limgan nodir yozuvchilardan biridir. Faqat ijodining buyukligi sababli Sho'rolarning eng yuksak nishonlari bilan taqdirlangan. Ular orasida "Sharaf" nishoni, "Qizil Mehnat Bayrog'i", "Oktabr inqilobi" va "Lenin" medallarini ko'rsatish mumkin. 1984 yilda 70 yillik yubileyi arafasida Ozarbayjon Kommunistik Partiyasi Markaziy Komiteti birinchi sekretari Kamron Bagirov, yozuvchining o'g'li (hozir Xalq yozuvchisi) Elchinni chaqirib, Ilyos Afandiyevga SSSRning eng yuqori faxriy unvoni berilishi uchun shaxsan Mixail Gorbachyoga murojaat qilganini, faqat kommunist bo'limgan bir yozuvchiga bu unvonning berilmasligi shartini pesh ilib iltimosining bajarilmaganini aytadi. Yozuvchi 80 yoshga kirganda esa SSSR uch yil oldin tarixga aylanib qolgan edi.

Ilyos Afandiyevning adabiyot bilan vidolashgach, teatr afis-halarida yangi-yangi imzolar paydo bo'ldi. Tanqidchilar Ilyos Afandiyevdan keyingi davrni an'anachilar va yangilikchilar o'la-roq ikkita guruhga ajratishadi. An'anachilar guruhiga Fikrat Qo'ja, Ali Amirli, Husaynbola Miralamov, Tamara Valiyeva, Hidoyat O'rujov, Hasan Hasanov, Orif Madatov, O'qtoy Oltunboy, Ramiz Navruzov, Jengiz Askarli, Vidodiy Bobonli, Tavfiq Ismoilov, yangilikchilar guruhiga esa Elchin, Kamol Abdulla, Feruz Mustafo, Ofoq Mas'ud, Mavlid Sulaymonli, Ramiz Fathaliyev, Ajdar O'l, Elchin Husaynbeyli va Oygun Hasano'g'lini kiritishadi [2]. Bundaya guruhlash aslida to'g'ri bo'lsa-da, asl masala qaysi guruhga oidlikdan ko'ra ko'proq qanday yozganlikdadir.

Xalq shoiri Baxtiyor Vahobzoda ijodida drama asarlari muhim o'rinn egalaydi. Adabiyotda millatparvar, yurtsevar chizgini

davom ettirgan bu yozuvchi 1960 yildan 2003 yilgacha 15 atrofida drama asari yozadi [3]. Ulardan bir qismida insonning ichki dunyosi, ishq va do'stlik, vafo va xiyonat kabi umumiy insoniy tuyg'ular, ijtimoiy munosabatlar psixologik va lirik tonda berilgan. "Vijdon", "Ikkinci sas", "Yomg'irdan so'ngra", "Jazosiz ayb" pyesalarini bunga namuna sifatida ko'rsatish mumkin. Pyesalarining bir qismini tarixiy mavzularga ajratgan shoir Turkiya va Ozarbayjon tarixining eng alamli va tortishuvli davrlariga oid voqealarni sahnalaشتirdi. Masalan, "Dor" nomli dramasi arab qo'shinlarining 9. asrda Ozarbayjonga hujumlari va Bobak boshchiligidagi xalqning ozodlik yo'lida olib borgan kurashi yoritiladi. Asarning Ozarbayjon Akademik Milliy Drama Teatrida 10.06.2000 yilida sahnlashtirgan artistlar guruhi juda mukammal chiqqan. Asarda Bobak, Elxon, Afshin, Sabutoy kabi obrazlar o'ta yuqori saviyada o'ynalgan. Bu yerdagi fojea arablarga qarshi chiqqan xalq qahramoni Bobakning turk Elxon tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va turk Afshin tomonidan mag'lub etilishidir. Baxtiyor Vahobzodaning tomoshabinlarga bergen badiiy tus-hunchasi shu: turkni yana turkning qo'li bilan yo'q qilganlarga qarshi bundan keyin birlashishimiz lozim.

"Faryod" dramasi buyuk shoir Sayyid Imodaddin Nasimiying hayoti va kurashiga bag'ishlangan. She'riyatda xurufiylik jarayonining eng yirik vakili, mutaassib, qoloqlik va diniy taassubga, insonni hech qanday inobatga olmaydigan tushunchalar va siyosiy tuzumga analhaq shiori bilan qarshi chiqqan Nasimi o'z g'oyalaridan bir qadam ham orqaga chekinmagan. Halabda tiriklayin terisi shilib olingen. Asarda Chalpapak, Rahmon, Oypara, Subhon kabi ijobiy obrazlar, Nasimiying fikrlarini o'rtoqlashgan, bu yo'lida zindonga tushgan, xurufiylikka ko'ngil bergen insonlarni ko'ramiz. Bu yerda yozuvchining yosh avlodga bergen badiiy tushunchasi shu: shoir bo'lishingiz, she'r yozishingiz shart emas, siz vatan va ozodlik yo'lida kurashda Nasimiyni o'mak oling, u kabi mard va qat'iyatli bo'ling. o'z g'oyalaringizdan orqaga qaytmang!

Baxtiyor Vahobzodaning mohir qalamidan 1998 yilda chiq-qan va Ozarbayjon adabiyotida, drama yozishda boshdan-oyoq yangilik hisoblanib, olqishlarga sazovor bo'lgan "O'zimizni kесgan qilich" asarining mavzusi eski turk tarixiga, shon-shavkatli Ko'kturk davriga oiddir. Bundan ming yil avvalgi voqealarga zamонавиј тушунчаси билан юндашган шоир бутун fojealarimizning birlik va birdamlikda bo'la olmaganimizdan kelib chiqqanini ijod tili bilan, biroq juda aniq va ochiqchasiga ko'rsata olgan, mustaqilligini yangigina qo'lga kiritgan turkiy davlatlariga yaxshi bir badiiy tushuncha bergen. Asarda Qoraxon, Duluxon, Kurs-hod, Solurxon, Eltarish, Burla Xotun, Seljon Xotun obrazlari ulug' ajdodimizning hayajon, his-tuyg'u va tushunchalarini, to'g'ri va yanglish tomonlarini ko'z oldimizda namoyon qiladi, barchani o'tmisning achchiq voqealaridan dars olishga chaqiradi. Marhum Haydar Aliyev bu asarni Bokuda tomosha qilgan, ni-hoyat darajada yuksak qadrlagan. Asar Turkiyada ham namoyish qilingan va katta olqishlar olgan.

Baxtiyor Vahobzoda ijodiga, lirik, epik va dramatik asarlari-ning hammasiga xos bo'lgan ayni chizgi, mavjud imkonlar dara-jasida insonning ichki dunyosiga kirib borish, uning aysberg mi-soli yopiq, ko'rinnmaydigan ost qismlarini kafsh qilishdir. Shoир-ning zotan buni tasdiqlaydigan bir she'ri mavjud: Inson ko'kda oy kabidir / Ko'rinnmagan tarafi bor [4].

Xalq shoiri Vagif Samado'g'li o'z qalamini drama dunyosida ham sinab ko'rgan va Ozarbayjon sahnasiga bir-biridan qiymatli asarlar tuhfa etgan [5]. Uning "Baxt uzugi", "Yuksak tog' boshi-da", "Lotereya", "Yozda qorbo'ron o'yini", "Yashil ko'zoynakli odam", "Generalning so'nggi buyrug'i", "Mamoy amakining tush-lari" pyesalari Boku, Naxchivon va Shaki teatrlarida ko'p marota-ba sahnaga qo'yilgan [6]. Yozuvchining "Baxt uzugi" pyesasi mavzu va qahramonlarning xarakteriga ko'ra juda qiziq.

Voqeа aslida oddiy. Yozda shahardan tashqaridagi dengiz sohilida bir necha oila dacha kiralab, dam olishadi. Qo'shnilaridan birining nikoh uzugi yo'qoladi. Ayol aroqxo'r eridan shubhalana-

di, masala militsiyagacha yetib boradi. Militsyaning odamlar us-tidan kulib, ularni pastga urishi asar qahramonlaridan biri bo'lgan, asarning boshidan oxirigacha "xushbaxtlik" so'ziga biror bir qofiya topolmagan shoir Mo'shu Go'kazanliga yoqmaydi, "Men shoirmen, xalqning ovoziman" deb lof uring, militsiya boshlig'ining ovozini o'chiradi. Uzuk topilmaydi, asar mavhum bir yakun topadi. Bu asarning sahna va TV versiyalari, shuningdek, kinosi ham bor. TV variantini tomoshabinlar ko'proq yoqtiradilar.

Vagif Samado'g'lining eng yaxshi asarlaridan bir "Generalning so'nggi buyrug'i" asaridir. Yosh tomoshabinlar teatrda, keyinchalik Akademik Milliy Drama teatrda sahnaga qo'yilgan. Asardagi voqealar va uning mazmuni juda boy bo'lib, shu darajada o'z mohiyatida kuchli hazil-mutoyiba bilan birga absurd va surrealist teatr unsurlarini o'zida mujassam qiladi. Haqiqiy obrazlar bilan to'qima obrazlar, ya'ni o'liklar bilan tiriklarni, tiriklar bilan o'liklarni bir paytning o'zida yonma-yon ko'rsatib beradi. Bu fikrlar Ozarbayjon Xalq shoiri Anorga oiddir [7].

Shekspirning "Purtana", Bertolt Brextning "Galilo Galiley" pyesalarini [8] ozarbayjonchaga o'girgan Xalq yozuvchisi Anorning drama asarlari Ozarbayjonning deyarli barcha teatrлarda sahnaga qo'yilgan. Akademik Drama teatrda besh pyesasi ("Shaharning yoz kunlari", "Odamning odami", "Sahro uyqular", "Sizni deb kelganman", "Tahmina va Zaur"). Yosh tomoshabinlar teatrda "O'tgan yilning so'nggi kechasi", Qo'g'irchoq teatrda "Qoravelli" pyesasi sahnalashtirilgan. Ozarbayjondan tashqarida Anorning pyesalari Moskva, Qozon, Toshkent, Ashxabod, Bishkek teatrлarda, Polsha, Bolgariya, Rossiya shaharlarida va Turkiyada sahna yuzini ko'rди. Moskva televideniyesi yozuvchining dastlab "Men, sen, u va telefon" hikoyasini, keyin esa "O'tgan yilning so'nggi kechasi" hikoyasini sahnalashtirgan. Rossianing Mosfilm kinostudiysi "Men, sen, u va telefon" hikoyasining motivlari asosida "Har kecha soat 11 da" nomli badiiy filmni suratga olgan [9].

Anor muayyan bir janr sifatida pyesaga juda yaqin bo'lgan badiiy va hujjatli filmlar, televizion filmlarning ssenariylarini

yozdi. U o'n bitta badiiy film ("Tuproq", "Dengiz", "Otash", "Samo", "Kun o'tdi", "Dada Qo'rqu", "Dantening yubileyi", "Uzayir umri", "O'tgan yilning so'nggi kechasi", "G'am derazasi", "Imtihon", "Aloqa", "Tahmina", "Mehmonxona nomeri"), bir necha hujjatli va televizion film ("Dengiz", "Gobuston", "Tosh soating ovozi", "Qadimgi Ganja – Yangi Ganja", "Bu, Sattor Behlulzodadir", "Bu Javoddir", "Tindirar asr bizni", "Uylari ko'ndalang yor") ssenariylari muallifidir. "Dantening yubileyi" filmining ikki qismdan iborat "Uzayir umri" va "G'am derazasi" filmalarini suratga olishda Anorning o'zi rahbarlik qildi [10].

Ajoyib Ozarbayjon yozuvchisi Elchin [Afandiyev]ning "Ming bir kechadan biri" nomli ilk kitobi 1965 yilda nashr qilin-gan. Shundan keyin turli mamlakatlarda yuzga yaqin kitobi chop etildi. Asarlari ingliz, fransuz, nemis, ispan, rus, vengr, poyalk, chex, slovak, serb, xorvat, bolgar, litva, moldovan, turk, arab, fors, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman, tojik, xitoy va boshqa til-larga o'girilgan. Kitoblarining umumiy tiraji 5 million nusxdan ortiq. Adib "Qizil" nomli ilk pyesasini 1973 yilda qalamga olgan.

Elchin 10 jiddlik tanlangan asarlarining 3-chi va 4-chi jiddlarini butunlay drama asarlariga ajratgan. 3- chi jidda adibning 9 kichik pyesa degan ibora ostidagi 16 ta pyesasi o'rinn olgan [11]. Ular orasida "Ordenli yozuvchilar bilan uchrashuv" va "Qizil" 1990 yildan avval yozilgani uchun mavzumizdan tashqaridir. "Mehmonxona nomerida uchrashuv", "Havson piyozi", "Qasos" va "Suv" pyesalarining oldida qo'shtirnoq ichida "absurd" iborasi qayd etilgan. Bular yozuvchining absurd hikoyalarini eslatadi. Qizig'i, "Suv" pyesasida dialog ham yo'q. paypoq to'qigan bir ayol o'z-o'ziga gapiradi. ba'zan telefonda so'zlashadi, suv astasekin oqa-oqa hamina joyni bosib, ayol suv ichida qoladi...

Elchinning kichik pyesalarining barchasi, shu jumladan, "Xususiy buyurtma", "Teatr", "U ham oshiq bo'lgan bahorga dunyoda"... sahnalashtirish uchun emas, o'qish uchun yozilgan. Yozuvchi qolgan 7 pyesasi hajm, syujet, asosiy kishilar va bokazo parametrlari bo'yicha bu janming butun talablariga javob beradi-gan normal va standart sahna asarlaridir. Ulardan to'rttasi ("Oh,

Parij, Parij!", "Men sening tog'angman", "Jinnixonadan telba qochibdi yoxud menin sevimli telbam", "Mening erim telbadir") komediya, bittasi ("Pochtaxonadagi xayol") tragedik komediya, yana bittasi esa "Mahmud va Maryam", "O'lim hukmi" romanlarining drama variantidir.

"Oh Parij, Parij!" komediyasi bir qaraganda oddiy ko'rning muayyan bir istak, ya'ni odamlarning Parijga joylashuv, u yerda zavqli bir hayot kechirish orzusi asosida kurilgan. Voqealar Ozarbayjonning mustaqilligi arafasida sodir bo'ladi. Eski millionerlar dan birining Parijda yashagan yosh va chirolyi qarindoshi ota yurtini ko'rish va bu yerdan bir qizga uylanib Parijga olib ketish uchun Bokuga keladi. Buni eshitgan hammani totli bir hayajon qoplab oladi. Bokudagi puldorlardan biri iflos pullarini garantiyalash uchuno'z qizini unga bermoqchi bo'ladi. Hatto, Ozarbayjon komunistlarining lideri ertaga nima bo'ladi, nima qo'yadi degan xavotirda qizining millionerga turmushga chiqishini orzu qiladi. Bir vaqtlar Lenin rolini o'ynagan mashhur, faqat endi kambag'al ahvolga tushgan bir rus san'atchi ham bu masalada achchiq-achchiq o'ylanadi, chunki uning qiz yo'qdir. Nihoyat chorasini topadi: Lenining ayoli rolini o'ynagan yosh va go'zal ayoliga "Men bilan ajrash, u yigitga turmushga chiqib, Parijga ket, keyin undan ajralib, boyligining yarimini qo'lga kiritgandan so'ng, meni ham u yerga taklif qil, baxtli hayot kechiraylik" deydi. Turmushning moddiy qiyinchiliklaridan qutulish uchun yoshlarning, hatto kesalarning ham yurtdan tashqariga ketish istagi o'sha paytda (hozir ham) juda keng yoyilgan edi. Faqat ularning katta qismi bu ishiga ming pushaymon bo'lishar edi. Rus san'atkori va shoiri, "perestroyka"ning ma'naviy asoschilaridan biri bo'lmish Vladimir Vitsotskiy mashhur "Parijdan Vanyaga maktub" nomli she'rida qanday qilib bo'lsa-da, Parijga ketgan bir yigitning do'sti Vanyaga yozgan maktubida shunday yozgandi:

Fransuzlar, sen bilasan, kulturli.  
Faqat kulmas begonaga yuzlari.  
Ne qilsalar, tushunmaslar bir turli,

Rus aksiyentli fransuzcha so'zlarni.  
Parij bizga, biz Parijga ko'p oshiq,  
Oshxonada yuvinoqdamiz tovoq-qoshiq  
(ruschadan tar. R. Asker).

Elchin tomonidan shunga yaqin mavzuda qalamga olingan ikkita komedyadan ("Jinnixonada qochgan telba yoxud mening sevimli telbam" va "Mening erim telbadir") birida "telba" so'zi majoziy, ikkinchisi esa haqiqiy ma'noda ishlataligani. Har ikki asar yuzaki emas, chuqur va mazmundor kulgi sahnalariga to'la, tomoshabinning madaniy saviyasini orttirib, estetik zavqini kuchaytiradi.

O'z davrining dramaturgiyasida katta iz qoldirgan yozuvchilarimizdan biri professor Feruz Mustafodir. U, uzoq yillar davomida Ozarbayjon Milliy Fanlar Akademiyasiga qarashli Falsafa va Huquq institutida ilmiy xodim, TVda, "Ozarbayjon yoshlari" gazetasida muxbir, "Maorifchi va madaniyat" gazetasida bosh muharrir, Yevroosiyo universitetida prorektor va falsafa kafedrasini boshlig'i bo'lган. Hozirgi kunda Yozuvchilar Uyushmasining drama bo'limi boshlig'i, "Toj" gazetasasi va "Tcatr" jurnalining taassischisidir. Mashhur faylasuflardan N. Berdyayev va F. Nitsshe ning, rus shoirlaridan Aleksandr Blok va Sergey Yeseninning, yozuvchi Vasiliy Shukshinining asarlarini tarjima qilgan. Bugungacha yozuvchining sakkizta ruscha, ikkitasi inglizcha o'laroq to'plam 34 ta kitobi bosilib chiqqan. Feruz Mustafoning drama asarlariga xos ba'zi xususiyatlarni alohida ta'kidlab o'tish kerak. Birinchidan, asarlarining ostida (oxirida) qaysi kuni yozib tugal langani ko'rsatilmaydi, ikkinchidan, voqlarning qachon bo'lib o'tgani ma'lum bo'lmaydi, uchinchidan, qahramonlarning yoshi tom ma'noda mavhum bo'lib qoladi.

Feruz Mustafoning miqdori ham to'liq aniq emas, qirq atrofidadir. Shaxsiy suhbatlarimizda yozuvchi bir necha kitobining, shu jumladan, dramalarining nashrga tayyor ekanni faqat moliyaviy yetishmovchiliklar sababli chop qilinmaganini

aytib o'tdi. Bugungacha 25 ta asari sahnalashtirilgan [12]. Ular-ning yarimini 90- yillarda, yarimini 2000 yillarda yozilganini tax-min qilsak, o'shanda tadqiq qilinayotgan davrga shu asarlari kiri-tish mumkin: "Aqli odam", "Qafas", "Tobut", "Vido marshi", "Qora quti", "Suv parisi", "Manken", "Musiqiy maktublar", "Sa-rob", "Sevmasam o'laman", "Oy tabassumi" va "Ifrita".

Feruz Mustafoning asarlari asosan falsafiy mohiyatga ega. Asardan ma'lum bo'lishicha, Maryamning eri Mikoiyl Yusufov va Mariyaning eri Mixail Yusupov bitta samolyotda avariyyaga uchraydilar. Duxtirlar yanglish jarrohlik amaliyoti o'tkazib, Mi-koilning miyasini Mixailning boshiga ko'chirib o'tqazishadi. Mi-xail navbat bilan Maryamning va Mariyaning yoniga kelib, ah-volni tushuntiradi. Ayollarning hech biri unga o'rgana olmaydi, chunki u tashqi ko'rinishidan Mariya uchun maqbul, faqat xotira va tuyg'ulari jihatidan yuz foiz unga begona. Maryam uchun xo-tira va tuyg'u jihatidan maqbul, tashqi ko'rinishi bo'yicha esa bu-tulay notanishdir. Mariya uni mutant odam deb nomlaydi. Bu yer-da badiiy va falsafiy ziddiyat bir vaqtning o'zida asarda hukm-ronlik qiladi. Bu hayotda o'rni yo'qligini tushunib yetgan, hamma tomonidan rad qilingan qahramon nihoyat o'z joniga qasd qilish-ga majbur bo'ladi.

Yozuvchining "Qafas" pyesasida ham chuqr falsafiy maz-mun bor. Hayvonot bog'ida ishlaydigan kishilar, ya'ni mudir. duxtir, hayvon tarbiyalovchi, hayvonot bog'chasi militsiyasi, xiz-matchi va boshqa kishilar hayvonlashadilar. Asar qahramoni ikki oyoqli Aslon ham insondar orasida mavjud bo'lgan haqsizliklar-dan, yomonliklardan qutulish uchun to'rt oyoqli bir asrlon bilan kelishib, uning qafasiga kiradi va o'zini bu yerda yanada yaxshi-roq, bemalolroq va yanada insoniyroq his qiladi.

Yoki "Sarob" dramasini qarab ko'raylik. Asar qahramoni rassom Chapar bundan uzoq yillar avval sevgan, faqat yetisha ol-magan sevgilisi Mayanинг portretini chizadi va charchab uxbab qoladi. Uyqusida Mayanинг xuddi portretdagи kabi yosh va go'zal bo'lib turganini, faqat tengdoshlarining qariganini ko'radi. Cha-parning do'sti Alpay portretga qarab, ahvolning butunlay teskari

ekanini, Mayaning keksa bir aylanganini aytadi. Asar so'nggida Maya o'z rasmini ko'rish uchun keladi. Eski sevgililar qaytadan topishadilar, bir-birinng quchog'iga otiladilar. Demak, haqiqiy sevgi zamon tanimaydi, har zamon yosh bo'lib turavera-di, qarimaydi. Asarda aytilishi istalgan fazoviy fikr aynan shu.

Feruz Mustafoning tez-tez fizika bilan metafizika, ong va on-gosti o'zaro birlashadi yoki o'rin almashadi, ba'zan esa turlararo ichki aralashuvlar sodir bo'ladi, dramadan melodramaga, melodramadan komediyaga, komediyadan tragediyaga yoki teskarisiga kabi bir harakatlilik kuzatiladi yoki seziladi. Bular yozuvchining estetik va falsafiy g'oyasiga uyg'un o'laroq sodir bo'lgan voye-liklardir [13].

90- yillarda porlagan drama yozuvchilaridan yana biri Ali Amirlidir. Dramadan tashqari hikoya va romanlardan iborat 7 ta kitob yozgan. 2000 yilda adabiy muvaffaqiyatlari uchun "Humoy ilohasi" medaliga loyiq ko'rildi. Fan nomzodi, dotsent Ali Amirli 1999 yildan beri Ozarbayjon Davlat Madaniyat va Go'zal San'atlar universitetining Adabiy ijodkorlik kafedrasida profes-sor-o'qituvchi lavozimida ishlaydi.

Yozuvchi ikkitasi film ssenariysidan iborat jami 25 ta sahna asarini qalamga olgan. Ulardan 13 tasi bizni qiziqtradirigan davr mahsulidir [14]: "Ariza" (1990), "Maydon" (1992), "Oqqa'yun-lilar va Qoraqo'yunlilar" (1993), "Bola balo so'zidanmi?" (1993), "Baxtli kun" (1994), "Yigirma yildan so'ng" (1995), "Uning ikki qovurg'asi" (1996), "Yettita mahbus ayol" (1996), "Eki uy" (1996), "G'oyib xo'ja yoki ufologiya ehtiroslari" (1997), "Boy xotin" (1999), "Sahnadagi ishq" (1999). Asarlarining mavzular asosan insoniy aloqalar, baxtli bo'lisp istagi, sevgi va nafrat, vazifa va topshiriq, ehtiros va pul, ishonch va tasalli, moddiylik va ma'naviyatdir. Ali Amirlining asarlari o'lkamizning ko'pchilik sahnalarida, Dog'istonda qumiqcha, O'rta Osiyo teatrlarida qo-zoqcha, qirg'izcha, tojikcha va ruscha, Gruziyada ruscha sahna-lashtirilgan. Tojikcha versiyasi Olma-otada o'tkazilgan Xalqaro O'rta Osiyo teatr festivalida oltin medalga loyiq topilgan. 1993

yilda adibning "Bola balo so'zidanmi" komediyasi asosida olin-gan "Bola demoq, balo demoq" televizion filmi Ozarbayjon TVlari tomonidan qayta-qaytalab ko'rsatilgan va tomoshabinlar-da katta qiziqish uyg'otgan.

Romannavis Akram Eylislining ijodida drama asarlar ham alohida o'rIN tutadi. "Qushi uchib ketgan shoxlar", "Mening nag'machi ammam", "Bag'dodga yo'llanma bor", "Onamning pasporti", "Vazifa", "Ota mulki", "Bir juft badmushk daraxti", "Yassi tepa" nomli pyesalari Boku, Ganja, Naxchivon teatrlarida sahnalashtirilgan [15]. Faqat bu asarlar tomoshabinlar nazdida unchalik muxlis topmadи.

Nasr, drama yozuvchisi Ali Samadli bolalar uchun 40 atrofi-da sahna asari yaratdi. Ular orasida "Ortiq ta'ma bosh yorar" nomli ertak-pyesasi Abdulla Shoiq nomli Davlat Qo'g'irchoq Te-atrida 250 marta sahnaga qo'yilgan. Keyinroq "Har kishining bir yulduzi", "Gugurt cho'plarining sarguzashtlari", "Sehrli gilam" masal-pyesalari, "Sariq ip xonim" komediyasi, "Azobli kunlar-ning oxiri", "Otalar va o'g'illar", "Kelishuv bo'lmaydi (Shayx Shomilning hayotiga doir)", "Generalning bolaligi", "Qonli binafshalar" pyesalari ko'rsatuvga qo'yilgan [16]. Adibning 1995 yilda sahnalashtirilgan "Oq dev, qora dev" nomli asari tomosha-binlarning diqqatiga sazovor bo'ldi. Ali Samadlining ba'zi asar-lari O'zbekiston, Turkmaniston va Belorussiya teatrlarida sahnala-shtirilgan, bolalar uchun yozgan mazmundor hikoyalari xorijiy tillarga tarjima qilingan.

Oygun Hasano'g'li dramaturgiya sohasida ilk qadamini 80-yillar oxirida qo'ydi. "Kechirilmas xato yoxud telbalar ham kula-di", "G'or", "Vatanga o'g'il kerak", "O'qi bulbul", "Ozodlik nag'masi", "To'tt birodarning singlisi" nomli pyesalari 1994-1996 yillar orasida Boku, Ganja, Go'ranbo'y, va Gabala xalq te-atrlarida sahnaga qo'yilgan [17]. Yozuvchi 2000 yilgacha boshqa pyesalar ham yozdi. "Chig'ir", "Kapalak", "Yerosti dunyosidagi sayohat", "Erkaklar qaytayotir", "Ko'lanka", "Oq uyqular" va "G'or" kabi sahna asarlari "Qovuq" [18] kitobida bosilib chiqqan. Ular orasida "G'or" Ozarbayjon adabiyotida to'g'ridan-to'g'ri

Qorabog' mavzusida yozilgan ilk drama asaridir. Pyesa Bokudagi Yosh Tomoshabinlar Teatrida sahnaga qo'yilgandan keyin Yo-zuvchilar Uyushmasida asarning syujeti, sahna tajassumi, akter-larning mahorati va rejisserning uddaburonligi, berilgan badiiy tushuncha boshdan-oyoq muhokama qilingan va yuqori baholangan. Oygun Hasano'g'lining nashavandlikka qarshi qalamga ol-gan ta'sirchan va dolzarb "Oq uyqular" pyesasi bu mavzuda amalga oshirilgan drama asarlari musobaqasida ikkinchi o'ringa loyiq deb topilgan. Yozuvchi, 2000- yillar ma'lum muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritgan.

Xalq shoiri Narimon Hasanzoda "Otabeklar", "Pompeyning Kavkazga safari" va "Midiya saroyi" kabi tarixiy dramalarni yo-zib, Ozarbayjon adabiyoti va teatrini tarixiy asarlar jihatidan yanada boyitadi. "Otabeklar" dramasi avvalroq Ozarbayjon teatrlarida uzoq muddat davomida ko'rsatilib, katta tarafda yiqqan. "Midiya saroyi" asari esa hali sahnalaشتirilmagan. Shoir tomonidan 1997 yilda katta ilhom bilan qalamga olgan "Pompeyning Kavkazga safari" faqatgina yozuvchining emas, hozirgi dramaturgiyamizning muhim muvaffaqiyatidir [19]. Bu asarda berilgan badiiy fikr ham muhim: Ozarbayjon bundan asrlar oldin Rim hukmndori Pompey safarga chiqish majburiyatida qolgan bo'lsada, bu o'lkamizning boyliklari hisobigadir, bu go'zal o'lkamizni sevaylik, ardoqlaylik.

Drama yozish bilan shug'ullangan va shug'ullanayotgan yo-zuvchilardan aka-uka Maqsud va Rustam Ibrohimbeyov, Nabi Hazriy, Kamol Abdulla, Vidodiy Bobonli, Aqshin Boboyev, Jamol Yusufzoda, Hidoyat O'rujov, Elchin Husaynbeyli va boshqa qalam egalarini ko'rsata olamiz. Ular orasida Aqshin Boboyevning "Yaralar", "Jazo", "Tufon", "Dushman", "Bir parcha hayot" asarlari turli yillarda Boku teatrlarida sahnaga qo'yilgan [20]. Jamol Yusufzoda "Tog'lar orqasiz bo'lmas", "Kim telba, kim aqli", "O'limni ko'yylakdan o'tkazgan bola", "Tongga umr topgan odamlar" nomli qiziqarli asarlarni o'quvchilarga havola qilgan. Hidoyat O'rujovning "Sevgi hali yashayapti", "Meni

qarg‘amang”, “Manzil ahvoli” va boshqa asarlari sahnalashtirilgan [22].

Ushbu yozuvchilarining, shuningdek, nomi va asarlarini keltilra olmaganimiz ko‘plab drama yozuvchilarining asarlari Ozarbayjon dramaturgiyasini rivojlantirdi, boyitdi.

Ushbu qismni yakunlar ekanmiz qo‘lga kiritilgan ba’zi xulosalarni keltirib o‘tishimiz kerak:

- 1991-2000 yillarda Ozarbayjonda drama yozish ishi boshqa adabiy janrlarga nisbatan o‘lkada yuz bergen siyosiy va sotsio-iqtisodiy vogeliklarga qarshi ancha oz munosabat bildirgan yoki hech qanday munosabat bildirmagan; bu holat ushbu janrning harakatchan va o‘ngg‘ay emasligi bilan aloqalidir: roman, hikoya va she’rdan farqli o‘laroq drama asarlarining qalamga olinishi, ko‘rsatuvga tayyorlanishi va tomoshabinga taqdim qilinishi uzoq bir davr oladi;

- Janrning tabiatidan kelib chiqqan ba’zi xususiyatlariga ko‘ra, Ozarbayjonning mustaqilligi, Qorabog‘ urushi, boshqa milliy mavzular drama yozish ishiga va sahna madaniyatida zarur darajada o‘z aksini topmagan;

- Ozarbayjon dramaturgiysi so‘nggi asrning eng iqtidorli ijodkorlaridan biri mohiyatidagi Ilyos Afandiyevdan ayrılib qoldi;

- Baxtiyor Vahobzoda “O‘zimizni kesgan qilich” asari bilan teatr tariximizda yangi bir bosqichni boshlab berdi;

- 90- yillarda Elchin, Ali Amirli, Feruz Mustafo va Oygun Hasano‘g‘li kabi dramanavislар barakali ijod qilib, sahnamizga yangi mavularda yangi asarlar qo‘shdi;

- Ozarbayjon teatrining xalqaro aloqalari rivojlandi.

### Foydalilanigan adabiyotlar

[1] Azerbaycan Yaziçilari XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 464-465.

[2] Esat Cihangir. Dionis'in Sagligina / Azerbaycan Yaziçilarinin XII. Kurultayı. B.: Letterpress, 2014, s. 52.

[3] Bahtiyor Vahapzade. Vikipediya.

- [4] Muasir Azerbaycan Edebiyatı. İki ciltte. II cilt, B.: 2007, s. 168-169.
- [5] Vakif Samedoglu. Baht Yüzügü / Piyesler. B.: Gençlik, 1999.
- [6] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 965.
- [7] Anar. 'Balaca' Vakıfın Büyük Sanatı // 525-ci gazet, 05.06.2014.
- [8] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 66.
- [9] [www.anar.az](http://www.anar.az).
- [10] [www.anar.az](http://www.anar.az).
- [11] Elçin. Seçilmiş Eserleri. On ciltte. 3. cilt. Piyesler. B.: Çınar-Çap, 2005.
- [12] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 358.
- [13] Firuz Mustafa. Adsız (Piyesler). B.: Adiloglu, 2001.
- [14] Ali Emirli. Wikipedia.
- [15] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 251.
- [16] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 274.
- [17] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 100.
- [18] Aygün Hasanoğlu. Kavuk. B.: Ağrıdağ, 2000.
- [19] Neriman Hasanzade. Seçilmiş Eserleri. Yedi ciltte. 3. cilt. Piyesler. B.: CBS, 2010.
- [20] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 55.
- [21] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 147.
- [22] Azerbaycan Yazarları XX-XXI. Yüzyılıkta (Ansiklopedik Malumat Kitabı). B.: Nurlar, 2011, s. 409.

## OZARBAYJON DRAMATURGIYASI 2001-2015 YILLARDA

Ozarbajjon Prezidenti Ilhom Aliyevning 19 fevral 2007 yilda "2008-2018 yillar orasida teatr san'atining rivojlantirish haqidagi" qarori chiqди. Ushbu qarorga ko'ra, milliy madaniyatimizning eng muhim sohalardan biri bo'lgan teatrlar yangidan quriladigan bo'ldi. Teatr binolarida butunlay ta'mir ishlari olib borilishi, teatrlar uchun san'atkori, menedjer, rassom va boshqa kadrlar tayyorlash maqsadida tahsiliy ishlarning rivojlantirilishi, kerakli mutaxassislarning, shu jumladan, teatr rahbarlarining xorijda oqitilishi, teatrlar tarkibida maxsus studiyalar ochilishi ko'zda tutildi. Bundan tashqari, qarorga ko'ra, Haydar Aliyev saroyi, Milliy Drama teatri, Opera va Balet teatri, Yosh tomoshabinlar teatri, Rus drama teatri, Qo'g'irchoq teatri, Yoshlar teatri, Pandomim teatri, Yerevan Drama teatri, Shusha musiqiy teatri, Fuzuliy nomidagi drama teatri, Ag'dam Drama teatri va Bokudagi Yashil teatr fundamental ta'mir qilinishi va zaruriy texnik vositalar bilan ta'minlanishi shart qilib qo'yildi. Bu ishlarning katta bir qismi bugungi kunda amalga oshirildi.

Hozirda Ozarbajjonda keng miqyomli teatr tarmog'i mavjud. Yuqorida aytib o'tilgan teatrlardan tashqari Bokuda Musiqiy komediya teatri, Shahar hokimiyyati teatri, Ta'lif teatri, Marosim teatri, klassik teatrdan biroz farqli bo'lsa-da, ko'rsatib o'tish kerak bo'lsa Ashula teatri, Maqom teatri, Opera studiyasi, Kamerorkestra teatri, Naxchivon, Ganja, Mingechevir, Lenkaron, Sumgait, Qozox va Gusar shaharlarida Davlat drama teatrlari faoliyat olib boradi. Bulardan tashqari, Ganjada Nizomiy Poeziya teatri va Gelinjik (kelinchak) teatri, Naxchivonda Jovid Poeziya teatri, Qo'g'irchoq teatri, Shakida Hajviy teatr muhim madaniyat mazkazlaridir. Bu ro'yxatga eng yosh teatrlarimizdan biri bo'lgan Uns Ijodkorlar sahnasini ham qo'shish kerak.

Mamlakatimizdagi teatrlarda ishlagan, madaniyatimiz qarsisida muhim xizmati singgan ko'plab sahma ustalarimiz Ozarbajjon Xalq san'atkori va Xizmat ko'rsatgan faxriy unvonlarga

hamda Prezident maxsus grantlariga loyiq ko‘rilgan. Maxsus grant olgan san’atkorlar orasida Yozuvchilar Uyushmasining a’zolari, shu jumladan, dramaturglar ham bor.

2001-2015 yillar orasida Ozarbayjon dramaturgiysi yangi bir rivojlanish bosqichiga kirdi. Bu davrda Elchin, Ali Amirli, Feroz Mustafo, Elchin Husaynbeyli kabi yozuvchilar drama sohasida ayniqsa samarali xizmat qildilar, yangi-yangi asarlar yozib, Husaynbola Miralamov, Ofoq Mas’ud, Ajdar O’l, Oygun Hasano‘g‘li, Fikrat Qo‘ja va boshqa yozuvchilarimiz ma’lum muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishdi.

Bizga qolsa, Ali Amirlining muvaffaqiyatlari chakana ishlardan emas. Ali Amirli 1971 yildan beri adabiyot bilan shug‘ullanib, 1990 yildan e’tiboran drama asarlari yozib keladi. Uning hikoya va romanlari “Ozarbayjon”, “Yulduz”, “Literurniy Azerbaydjan” kabi jurnallarda bosilib chiqqan. “Chaqmoqsavar”, “Oxiratdan oldingi sayohat”, “Harom”, “Maydon”, “Sunalar ko‘li”, “Bir yil”, “Ariza”, “To‘pponcha”, “O‘lik tug‘adigan kent” nomli roman va yirik hikoyalarni qalamga oldi. Pyesalari o‘lkamizning deyarli butun teatrlarida, shu jumladan, Milliy Drama teatrida, Musiqiy komediya teatrida, Yosh tomoshabinlar teatrida, Yoshlar teatrida, Sumgait, Gana, Lenkaron, Qozox, Mingechevir, Gusar, Shaki davlat teatrlarida sahnalashtirilgan. Yozuvchining “Uning ikki qovurg‘asi” nomli mashhur komediyasi Tbillisida, “Boy xotin” pyesasi esa Tojikistonda Rus Drama teatrida ruscha, Yoshlar teatrida tojik tilida ko‘rsatuvga qo‘yilgan. Tojikcha varianti Olma-otada o‘tkazilgan Yaqin Sharq mamlakatlarining 2. Xalqaro teatr festivalida ikkita nominatsiya bo‘yicha mukofotga va oltin medalga loyiq deb topilgan. Ana shu festivalda boshqa teatrlarning diqqatini ham jalb qilgan “Boy xotin” 2009 yilda Bishkek shahar teatrida qirg‘izcha va ruscha o‘laroq sahnalashtirilgan. Asar Qozog‘istonning yangi poytaxti Astanada Rus Drama teatrida sahnaga qo‘yilgan. Ali Amirlining asarlari turk, qozoq, qirg‘iz, tojik va rus tillariga o‘girilgan.

Yozuvchi so'nggi yillarda bir-biridan qiymatli asarlar may-donga keldi. "Masanat" (2001), "Jannat eshiklari" (2003, 24 seri-yadan iborat teleseriallar ssenariy), "Erkak va ayol" (2003), "Sevgan ayol" (2004), "Muqaddas Valentin kuni" (2004), "Butun aytib o'tilganlarga qaramay yoxud Og'a Muhammad Qojor" (2005), "Ali va Nano" (2006, Qurbon Saidning xuddi shu nomdag'i ro-manning motivlari asosida), "Yulduzlar janggi" (2007), "Yolg'on hayot" (2008), "Hisorning narigi yuzi" (2008), "M.S.S. – Men se-ni sevaman" (2009), "Boku–Istanbul" (2010, 10 seriyadan iborat teleserial ssenariyi), "Ikki san'atkor ayol uchun bosh rol" (2011) asarlarini yozadi [1].

2006 yilda Ali Amirlining "15 pyesa" nomli kitobi nashr qilindi. Bu kitobga uning nomlari yuqorida aytib o'tilgan pyesalari va 2000 yildan avval yozgan ba'zi sahna asarlari kiritilgan. Aka-demik Milliy Drama teatri uning "Butun aytib o'tilganlarga qara-may yoxud Og'a Muhammad Shoh Qojor" variantiini 2014 yil bahorida Ozarbayjon Jumhuriyati Davlat mukofotiga nomzod ko'rsatilgan, faqat Madaniyat Vazirligi noma'lum bir sabab bilan bu asarni qaytargan.

Ali Amirlining bu davrga oid asarlari orasida eng mashhuri "Shoh Qojor"dir. Adabiyotimizda tarixiy drama janri N. Narimonovning "Nodir shoh" asari bilan boshlanib, J. Jabborlining "Nas-riddin shoh" asari bilan davom ettirilgan. Qojorlar masalasi Ozarbayjon adabiyotida bir necha marotaba ishlangan. 1907 yilda dramaturgimiz Abdurahim bey Haqverdiyev, "Og'a Muhammad Shoh Qojor" nomli tragediya yozadi. 1938 yilda Samat Vurg'un "Vaqf" dramasini yozish jarayonida asar bosh qahramonlaridan biri sifatida Qojor obrazini yaratdi. Abdurahim Beyning "Qojor"i tarixiy asliga juda yaqin bo'lib, Samat Vurg'un yaratgan Qojor orazi asliyatdan birmuncha uzoq ko'rindi. Samat Vurg'un bu obrazni tasvirlar ekan, biroz idealogiyani aralashturib yuborgan. Ali Amirli bu masalada o'rta yo'l tutib, 17 yil davomida o'lkan bir saltanatni boshqarib, bosh qumondonlikni ham bevosita o'z gar-daniga olgan Qojorni shoh va inson sifatida tuyg'u va his-haya-jonlari bilan birga tasvirlaydi. Yozuvchiga ko'ra, 150 yil davom

etgan xonadon asoschisi Qojor juda aqli, bilimdon, adolatli, taqvodor va mumin kishi bo'lib, pyesada ham shunday tasvirlangan. Asardagi Jaylon xonim. Karim xon Zand. Ja'farquli xon, Shayx Ja'far va boshqa obrazlar ham haqqoniy obrazlar sifatida asarda joy olgan.

Yozuvchi "Masanat" nomli tarixiy mavzuidagi boshqa bir pyesasida mashhur xayrsevar va kapitalist Xoji Zaynalobidin Tagiyev obrazini yaratdi. Tagiyev qisman yaqin o'tmis (qariyb 90 yil oldin) kishisi bo'lib, salbiy tomoni yo'q edi. Sho'rolar uni to'laqonli ish olami, tadbirkor bo'lgani uchun yoqtirishmasdi. U, mamlakatining kelajagi yo'lida juda katta ishlar qilgan, Bokuda qizlar litseyi ochgan, yoshlar Rossiyadagi universitetlarda o'qishi uchun grantlar ajratgan, musulmon xayriya tashkilotlariga moddiy mablag' bergen, turk tilida gazetalar nashrini yo'lga qo'ygan. Bunday bir tarixiy shaxsning hayoti va kurashini sahnaga olib chiqish, moziy va bugun orasida rishta qurish, uni millatga teatr orqali tanitish har qanday maqtovga arziydi. Asar 50 marta sahnaga qo'yilgandan keyin unda rol o'ynagan san'atkorlardan ba'zilarining vafoti natijasida repertuarlardan asta-sekin tushdi. 2000-yillarda yozuvchi tomonidan qalamga olingan "Sevgan ayol", "Ali va Nino" pyesalarida farqli ayollar obraziga duch kelamiz. Ali Amirli "Boy xotin"da pul ketidan yugurgan Havvo, "Sevgan ayol"da erkakning izidan qolmaydigan Elmina, "Hisorning narigi yuzida" faqt Tangri ishqida yongan Humoy, "Ali va Nino"da Aliga oshiq Nino obrazlari misolida go'yo ayollar ko'rgazmasi tashkil qiladi va jamiyatga turfa xil ayol tiplarini taqdim etadi. Yozuvchi tomonidan 1998 yilda yozilgan "Boy xotin" Bokuda doimo katta qiziqish bilan sahnalashtirilgan, bugun esa yetti o'lkaning teatrlari reperetuarida joy olgan.

Ali Amirlining 1900 yilda Yosh Tomoshabinlar teatriga taqdim qilgan "Ariza" pyesasi 23 yil keyin "M.S.S. – Men seni sevaman" deb qayta nomlanib, qaytadan sahnaga qo'yilgan. Yosh avlodning ma'naviy tarbiyasiga bag'ishlangan pyesa o'quv muassasalaridagi ba'zi salbiy holatlarning, ayniqsa poraning yo'qo-

tilishiga, o'quvchi – o'qituvchi, o'qituvchi – voliy, maktab – jamiyat munosabatlarining tuzatilishiga yunaltirilgan jiddiy bir davlatdir. Muallimlardan Saboh va G'olibha orasidagi munosabatlarning Rayhon va Nozi kabi o'quvchilarga, Malak va Sakina kabi onalarga yuqmasligi uchun yozilgan. Ali Amirli 2006 yilda pyesalarining katta bir qismini kitob shaklida o'quvchilar va tomoshabinlarga taqdim qilgan.

Mashhur drama yozuvchisi Ali Amirlining ijodi yaxshi va yomonni, shirin va achchiqni bir orada ko'rsatgan holda yoshi va jinsiga qaramasdan yosh, keksa, erkak va ayol, barchaga xitob qiladi, insonni musbat jihatlarga yo'naltiradi, jamiyat tomiriga fagatgina ijobiy qon qo'yadi.

Bugungi Ozarbayjon dramaturgiyasining taniqli vakili Feruz Mustafo bu davrda ham barakali ijod qildi. Munaqqidlardan bir u haqda shunday yozadi: Feruz Mustafo sahna asarlarining miqdoriga ko'ra Shekspirni quvib o'tgan yagona Ozarbayjon dramaturgidir. Qirqdan ortiq pyesa muallifi bo'lgan Feruz Mustafo ijodining tamal g'oyasi haqiqatni izlashdir" [3]. 2001 yildan beri o'tgan 13 yilda yozuvchining yettitasi ruscha, bittasi inglizcha o'laroq 26 ta kitobi nashr qilingandirki, bu esa har yili ikkitadan kitob demakdir. Feruz Mustafo ba'zi kitoblariga eng mashhur drama asarlarining nomini bergen yoki ularni asosan komediylar, pyesalar deb nomlagan (Asarlarining nashr yili bilan yozilgan yili mos kelmaydi). Ular orasida "Otsiz" (2001), "Komediylar" (2004), "Qora quti" (2006), "Manken" (2009), "Monopyesalar" (2010), "Chordoqda podval" (2011) asarlari va inglizcha, ruscha bir necha kitobini ko'rsata olamiz. Ayni paytda uning qalamidan "Koridor", "Otsiz", "Senga so'zim bor", "Chumoli tuzog'i", "Tuzoq", "Aqrab burji", "Sehrboz", "Tiqin", "Zamon", "Qora yulduzlar", "Arslon yili", "Betaraf joy", "O'xshashlar", "Peshona yozuvi", "Sifat", "Safari", "Hisobot", "Senatda to'y", "Bir kishi uchun vakolat" va boshqa sahna asarlari ham mavjud. Katta ehtimol bilan aytish mumkinki, bu ro'yxat to'liq emas, chunki bizga ma'lum bo'lishicha, yozuvchining nashrga hozir yana bir necha dramasi bor.

Feruz Mustafoning eng mazmundor, ijtimoiy asarlaridan biri "Betaraf joy"dir. Voqealar qaysi geografik hududda bo'lib o'tgani aytilmagan bittasi xristian (u yerdan serkov qo'ng'irog'ining oavozi keladi), ikkinchisi musulmon (u yerdan azon ovozi eshitiladi) ikkita qo'shni davlatning chegaralari orasidagi betaraf joyda sodir bo'ladi. Ba'zi alomatlardan (ayol qahramonlarning ismidan va h.k.) bular Rossiya va Ozarbayjon ekanini taxmin qilamiz. Vosif ismli asar qahramoni chegaraning bu tarafidan borib, u tarafiga o'tmoqchi bo'ladi. Chegara xizmatchisi undan pasport talab qildi. Ammo pasport yo'q. Vosif butun cho'ntaklarini, ko'ylagini, shimini, ichi bo'sh chaymadonini ag'dar-to'ntar qiladi, biroq nima qilsa ham pasportini topa olmaydi. Nihoyat uyiga qo'ng'iroq qilib xotini Umidadan pasporti haqida so'raydi. Uyda qolib ketmaganini bilgach, qarshi tomonga telefon qilib Nadejda ismli boshqa bir ayol bilan gaplashmoqchi va pasporti haqida so'ramoqchi bo'ladi, faqat u ayolning uni kutib olish uchun chegara postiga qarab yo'lga chiqqanini o'rghanadi. Shu tariqa Vosifning biri bu o'lkada, ikkinchisi narigi o'lkada o'laroq ikkita xotini borligi ma'lum bo'ladi. Bir oz o'tgach, xotinlarining ikkisi ham betaraf joyga kelishadi va bu yerda tanishib qolishadi. Faqat kundoshlarining harakatlarida hech qanday xusumat yo'q, aksincha, do'stlik mavjud. Ikkalasi ham Vosifni bu yerdan qutqarish uchun harakat qilishadi, faqat hech iloji bo'lmaydi. Bu ishga sog'u-so'ldagi mamlakatlardan inson haq-huquqlari bo'yicha tashkilotlar vakillari aralashadilar, muamimo xalqaro tashkilotlariga, parlamentlar-gacha yetib boradi, faqat bu harakatlar ham naf' bermaydi, ijobiy bir natija chiqmaydi.

Bu orada betaraf joyda bitta it ham qolib ketgani ma'lum bo'ladi. U vazirlardan birining xotiniga qarashli it bo'lib, ayol chegaradan o'tayotganp aytda tasodifan shu yerdan qolib ketgan ekan. Ko'p o'tmay bu it uchun, aslida uning nufuzli egasi uchun katta shov-shuv ko'tariladi, qiyomat qo'padi, itni egasiga yuborish uchun uni bu yerdan olib lyuks mehmonxonaga joylashtiris-hadi. Vosif esa betaraf joyda qolishda davom etadi. Bechora

odam "Qayerda mening egam? Qayerda? Ya 'ni mening shu itchilik qadrim yo 'qmi? Men odam bo 'lishni istamayman! Men it bo 'lishni istayman!" deya hayqiradi. Yozuvchi orqasi bor itning bir insondan ko 'proq qadrli ekaniga ishora qiladi.

Yozuvchining "Koridor" dramasi ta'sirchan va ijtimoiy bo'lib, ba'zi tragedik voqelarni o'zida aks ettirgan. Voqealar koridorda joylashgan kichkina bir kafeda bo'lib o'tadi. Xozi Sergeyning bu muassasi atrofda juda mashhurdir. Bu yerda qonuniy va noqonuniy hamma narsa, qush suti, jonga darmon topiladi. Shu bois hamma shu yerga keladi: o'ngchi va so'lchi, sharqchi va g'arbchi siyosiy partiyalar boshliqlari, siyosatchilar, ziyolilar, batto urush veterinarlari. Janobi ko'ngillari nima istaydi? Ta'qiqlangan ichkilikmi, ayolmi, nashami? Bu yerda hamma narsa bor. Xozi Sergey va uning xodimlari har qanday narsani hoziru nozir qiladi. Shu Xozi Sergey deganlari juda kirishimli odam; kerak paytida pok, dindor va mumin, Hazrati Alidan keltirgan ibratli hadislar bilan insonni hidoyatga, to'g'ri yo'lga da'vat qiladi, kerak paytida sizni xafa qilmaslik uchun bir qultum aroq ichadi. Hamda madaniyatli va jentilmendir; qizlarga doimo birga bo'lish uchun takalluf qiladi. Bu yerda pul topish uchun yolg'on ham, haromharish ham, hamma narsa mubohdir. Bu razolatga, ahloqsizlikka qarshi hech kim e'tiroz qila olmaydi. Urush veterani Kamoldan tashqari. Qorabog' urushidan keyin sobiq qaylig'i Parvonaning bu koridor girdobiga tushganini ko'rgan Kamol bu ifloslik uyasi ni yer bilan bir qilishni istaydi [4].

Bu koridorda ma'nosiz siyosiy suhbatlar o'ta muhim o'rinnegallaydi, kulgili va bekorchi takliflar ham o'z o'mniga ega. Massalan, "Keling qaror qilaylik, konstitusiyaga yangi bir modda qo'shilsin va hamboshqaruvchilik ta'sis qilinsin, ya 'ni ikkita prezident bo'lsin. Har holda ikkita kalla bitta kalladan yaxshiroq ishlaydi... Bir vazir kursisiga ham ikki kishi tayinlansin. Ya 'ni biri o'ngchi, biri esa so'lchi...".

Asar nomi ramziy ma'noga ega, zero bunday koridorlar mamlakatning hamma joyida bor, hamma bunday koridordan

o'tadi va o'tishga majbur. Bu yerda qancha-qanchalab pullar aylanadi, ko'plab odamlar undan namo topadi, bir qancha rasmiy muassasa va kishilar bu ishga sherikdir. Bu koridor xuddi qasirg'a kabi o'ta toza va gunohsiz odamlarni ham o'z girdobiga tortadi. Bitta shaxs, bir kishi unga bir narsa qila olmaydi, davlat, millat, jamiyat birlashib unga chek qo'yishi kerak!

Urush g'oziylari mavzusi Feruz Mustafoning "Koridor" pyesasidan tashqari "Zamon" dramasida ham o'rin olgan. Zamon bir muddat Afg'onistonda jang qilgan, o'lim bilan ko'p marotaba yuzma-yuz kelgan, urushning har turli yuzini ko'rgan. Kobuldan "o'ldi!" degan xabar keladi, aslida asir tushgan, katta qiyinchiliklar bilan vataniga qaytgan. Xotining militsiya boshlig'i Jorullohga turmushga chiqqanini eshitgach, ko'ngli vayron bo'ladi, urushda boshdan kechirganlarining buning oldida juda mayda narsa narsa ekanini his qiladi. Zamonga qabr ham qazilgan edi. Do'stlari bilan qabni ko'rgani borgan Zamon qabrga kiradi va alamidan... o'ladi. Yozuvchi g'oziylarning oddiy hayotda katta haqsizlikka duch kelib, tushkunlikka uchraganini, hatto ko'plab g'ozilar dori olish uchun ham pul topa olishmaganini ko'z oldimizda namoyon qiladi.

Dramaturgiya adabiyotning bir tarmog'idir. Drama asarlari janr sifatida o'z ichida bir qator tarmoqlarga bo'linadi: pyesa, komediya, tragediya. Qatnashadigan aktyor soniga qarab tasnifilaydigan bo'lsak, drama va monodrama shaklida ikki guruhg'a bo'linadi. Feruz Mustafoda har ikkalasi bor. Yozuvchi tomonidan yaratilgan monodramalarga misol sifatida "Musiqiy maktublar", "Manken", "Hisobot", "Sifat" va "Ifrit"ni ko'rsata olamiz. Uning dramalari son jihatidan kam emas: "Peshona yozuvi", "Suv parisi", "Aqrab burji", "Koridor", "Ayiq tabassumi", "Sarob", "Tiqach", "Otsiz" va h.k. Feruz Mustafao bir qator qiziqrqli komediyaning ("Sevmasam o'laman", "Vido marshi") va adabiyotimizdagi ilk manzum komediyaning ("Senatda to'y") muallifidir. Uning antikomediya, tragedik komediya, komik tragediya, grotesk, tutu-

riqsiz komediya, fors, egzotik komediya, mini-fors va boshqa turlardagi asarlari mavjud. Bularning barchasi uning bir drama yozuvchisi sifatida naqadar iste'dodli ekanidan darak beradi.

Monodramalar haqida biroz kengroq to'xtalishga to'g'ri keladi. Yozuvchining besh monodramasidan ikkitasi ("Sifat", "Hisobot") mazmun jihatidan monokomediyalar turiga to'g'ri keladi. Qolgan uchtasi esa ("Musiqiy makutblar", "Manken", "Ifrit") klassik monodrama sifatida baholanishi mumkin. Zamonaviy teatr va radio tamsillarida monodramalar bitta aktyorning teatri deb ham ataladi, chunki buunda faqatgina birnafar aktyor qatanashadi.

"Musiqiy makutblar" asarida monodramaning qahramoni bitta ayoldir. Eri mashhur pianist, bastakor; kam gapiradigan, sasiz, o'z ichiga yopiq bir odam. Ayol juda baxtli, faqat erining asta-sekin undan uzoqlashib borayotganini his qiladi, hayotini biroz ranglantirish uchun bloknotida turmush o'rtog'iga xatlar yozadi. Eri bularning o'z xotini tomonidan yozilganidan bexabar. G'oyibona tanishadi, hatto do'stlashib oladi. Ayolining makutblar unga yangi asarlar yozishiga ilhom beradi. Bir kuni ayoli unga "Xotiningizga biror marta xiyonat qildingizmi?" deb so'raydi. U esa "Ha!" ma'nosida bir javob qaytaradi. Erini kechirish-kechirmasligi masalasida mojaro boshlanadi. Nihoyat nafrat ustun keladi. Ayol eriga ko'rishish taklifini beradi, uchrashadilar, erkak hayron-lol bo'lib qoladi. Xiyonat tufayli ayol erini kechirmaydi. Bu ularning so'nggi uchrashuvi bo'ladi.

Original nomi "Muqovva" bo'lgan "Manken" asari ham monodramadir. Bu asarda yolg'iz bir ayolning hayoti haqida bahs yuritiladi. Eridan ajralgan yosh ayol hech kimga ko'ngil qo'ymaydi, erkaklarga nisbatan chuqur nafrat his qiladi. Vaqtini magazindan sotib olgan manken bilan o'tkazadi. Unga bir narsalar deydi, har qanday masalada u bilan mastlahatlashadi. Manken ni jonli odam, erkak sifatida ko'radi, manken ham jonlanib, ayolni quchog'iga oladi.

Feruz Mustafo zamonaviy Ozarbayjon drama san'atining eng iste'dodli, old safdag'i yozuvchilaridan biridir. Hayotining eng barakali chog'ida bo'lgan yozuvchining bundan keyin ham adabiyo-timizga go'zal asarlar tuhfa etishiga hech qanday shubha yo'qdir.

Xalq yozuvchisi Elchin bu davrda yozgan drama asarlari va sahnalashtirilgan pyesalari bilan butun dunyoda katta shuhrat qozondi. Adib oldinroq yozgan ba'zi nasriy asarlarini sahnalashtirib, ularga ikkinchi marotaba hayot baxshida etdi. Ular orasida "Mahmud bilan Maryam" (1998), "Kolera yashaydi" (2000), "Oq tuya" (2002) pyesalari sahnada muvaffaqiyatli chiqqan. "Qotil" pyesasi esa butun kutilganlardan oshib tushgan. Sehrlovchi Elchinning ijodiy namunalari ichida "Arilar orasida", "Jahannam aholisi", "Shusha tog'larini tuman qopadi", "Bo'lbo'liston shahzodasi yoxud yashasin imperator Buyuk Arslon III", "Otibi Molimi Delembor tir-tir", "Shekspir", "Teleskop yoki uyqudag'i va haqiqiy uchishlar", "San'atkorning tolei" nomli pyesalari adabiy jamoatchilikning eng yoqtirgan asarlari orasidan joy olgan. Qiziq tomoni, janr doxil tasniflashda Elchin qo'shtirnoq ichida har asarga bir kiyim kiydirgan. Masalan, Shekspir pyesasini "Jiddiy va kadarli komediya" deb nomlagan. "Jahannam aholisi" drama, "Teleskop" tragedik komedyadir. Hozirgi kunda yozuvchining oxirgi pyesasi bo'lib turgan "San'atkorning tolei" asari esa tragediyadir [5].

Shu tariqa, Elchin adabiyotdagi dramaturgiya sohasining ham psesa, ham komediya, hamda tragediya tarmoqlarining barchasida asarlar yozgan va janr ichi tasniflashda asarlarning nomiga muayyan iboralar qo'shgan. Bu, shunchaki tasodifiy istak yoki kapriz emas, mazmundan kelib chiqqan bir holdir.

"Arilar uyasida" pyesasi bir oila timsolida odamlar orasidagi munosabatlar va ziddiyatlarni ko'z oldimizda namoyon qiladi. Oila kattadir; ayol va erkak, ularning o'g'li, doimo qarzlar dengizida suzib yuradigan To'push; To'pushning umrida tog', o'rmon ko'rmagan qaylig'i Lyalya, oilaning og'ir atletikada jahon championi bo'lishni orzu qilgan jussador qizi Zulya, Zulyaning qan-

daydir bir marotaba Ginada turnirda qatnashgan, doimo to-mog'ini, tovush pardalarini asrab yuruvchi, tongda turib xom tu-xum yutadigan qo'shiqchi qaylig'i, xotinchalish Jaba va Dayadan tashkil togan. Mana shu oila yoz kunlarining birida Bokuda 240 km uzoqda joylashgan tog'da arichilik bilan shug'ullanuvchi 84 yoshdag'i boboning yoniga borishga qaror qiladilar. Borishadi, fa-qat tabiattdagi shart-sharoitlar oila a'zolariga mos kelmaydi, o'za-ro munosabatlarda kelishishga harakat qilishlari ham natija ber-maydi, bobo ham yangi avlodga mansub bu g'alati yoshlarni tus-hunishda qiyinchilik tortadi. Oxir-oqibat qo'noqlar boboning ular uchun ajratib qo'ygan asalini ham unutib Bokuga qaytib kelisha-di. Faqat tabiat va arilarning tilini tushunadigan ikki qariya, bobo va Daya o'rtoq til topishadi. Daya u yerda qoladi.

Elchinning "Qotil" asari tragediyaga yaqin bo'lib, oxiri fojea bilan bitsa-da, yuz foiz tragediya emas. Yozuvchi uch qismdan tashkil topgan asarining bo'limlarini "Ishq", "Yulduzlar dunyosi-da" va "Falokat" deb nomlagan, ular o'zaro ichki mazmunga mos. Birinchi bo'limda Xotin bir vaqtlar dars bergen Yosh Erkakka duch keladi, romantik bir tuyg'u bilan unga telbalarcha oshiq bo'ladi. Ikkinci qismida bu romantik sevgi achchiq haqiqatlar qarshisida saroy misoli parcha-parcha bo'ladi, uysiz-joysiz oliga Yosh Erkak ayolning bu zaifligidan (sevgisidan) foydalaniib, uning boyligini qo'lga kiritishga harakat qiladi. "Falokat" qismida odamning yuzidagi niqobi tushadi. Xotin uni zaharlab intiqa-minni oladi. Bu yerda go'yo bitta pyesa ichida uchta pyesa o'ynaladi, bitta pyesa ichida uchta voqe'a bo'lib o'tadi. Ushbu ajoyib asar "Yulduzlar ostidagi qatl" nomi bian 2006 yilda Istanbul Bu-yukshahar Baladiyasi teatridda, 2007 yilda mashhur Muhsin Er-tug'rul sahnasida muvaffaqiyatli ravishda namoyish qilinib, mux-lislarning olqishiga sazovor bo'lgan. Bundan avval Elchinning qardosh Turkiyada "Men sening tog'angman", "Mening sevikli telbam", "Mening erim telbadir" asarlari sahnaga qo'yilgan edi. Ular orasida "Mening erim telbadir" pyesasi avvalroq Erzurumda sahnaga qo'yilgan, keyinroq esa Qars, Erzurum, Sivos, Konya,

Antaliya, Alaniya va Anqarada sahna yuzini ko'rib, katta qiziqish bilan kutib olingandi.

Elehining "Shekspir" asari 2007 yilda Uns Ijodkorlik sahnasida namoyish qilingan, keyinroq esa boshqa teatrlarga mehmon bo'lgan edi. 6 mart 2012 yilda Akademik Milliy Drama teatrinda sahnaga qo'yilgan asar qisqa vaqt ichida yurtdan tashqarida ham shuhrat qozongan. Moskva Darvish teatrining, Londondagi Avangard teatrining, Ukrainianing Qrim-tatar musiqiy drama teatrining repretuariga kiritilgan [7].

Shekspir yirik, teran va murakkab falsafiy asardir. Absurd unsurlarni ham o'z ichiga olgan, jamiyatning aqli va telba a'zolarini qarama-qarshi qo'ygan asarda voqelar jinnixonalardan birlida sodir bo'ladi. Tanlab olingen kishilar orasida XX asrning eng mashhur diktatori Iosif Stalin, tarixdagi eng buyuk sahna san'atкори Sarah Bernhardt, uzoq Vanderprandur sayyorasidan tashrif buyurgan Bo'lu 13, Venus sayyorasidan, juft kishilik sohibi Er-Xotin, Bosh hakim, Hakim ayol, Sanitar obrazlari bor. Bosh hakim aqli odamdir, faqat asl telbalarni aqli hisoblovchi, ular singari telba bo'lishni xohlaydi. Sanitar o'ta yomon kayfiyatdagi odam, qo'liga tushgan hamma narsani o'g'irlab ketadi. Venuslik 17 yildan beri har kuni derazadan fazo bo'shlig'iga boqib, sayyoradoshlarining kelib, uni olib ketishlarini kutadi. Hamma narsa o'zga sayyoralik Bo'lu 13 ning bu yerga kelishi bilan boshlanadi. O'zini doimo Julet rolida his qilgan Sarah uning shaxsida Romeo ni topadi. Bu yerda odamlar orasidagi yomon munosabatlarni, yolg'on-yashiqlarini ko'rgan bechora o'zga sayyoralikning telepatik kanali yopilib qoladi, u aqli bilan telbani qanday ajratish mumkin ekanini so'raydi, berilgan javobni anglamaydi, bunga javoban Shekspir va Sarah soyasida teatrning nima ekanini tushunib yetadi, uyga qaytganda u yerda teatr ochishini aytadi. Hamma uning ta'siriga tushadi va u bilan Vanderprandur sayyorasiga borishni xohlaydi. Asarning eng muhim sahnalaridan biri Iosif Stalining o'z qilmishlari tufayli tavba qilib, odamlardan uzr so'rashidir. Shekspir asarda virtual kishi sifatida qatnashadi. U, Stalin, Sarah, Bo'lu 13 va boshqa odamlar bilan munosabat o'mnatib, ular

bilan telefonda so'zlashadi, bir so'z bilan aytganda ishtirokchi kishilar orasida kelishuv o'matadi. Yozuvchi o'z asariga "Shekspir" nomini qo'yish bilan dunyo adabiyotining eng buyuk dramaturgi bo'lgan Uilyam Shekspirga, madaniyatning eng nozik, eng ziyokor va eng ta'sirchan tarmog'i bo'l mish teatrغا nisbatan tuygan cheksiz mehrini bildirishni istagan va bu masalada muvaffaqiyat qozongan [8].

Elchinning eng go'zal asarlaridan biri bo'lgan "Teleskop yoki uyqudagi va haqiqiy uchishlar" ilk marotaba 11 oktabr 2013 yilda Bokuda Rus dravma teatrida namoyish qilingan. Bu asarda klinik o'lim holatiga tushgan bir erkakning ruhi badanidan chiqib, dunyo va oxirat orasidagi bekatga boradi va u yerdan teleskop bilan yer yuzini tomosha qiladi, har xil razilliklarning eng mayda detallarigacha guvoh bo'ladi. Bu pyesaning ikki varianti bor. Birinchi variantda erkak jirkanchliklar uyasi bo'l mish yer yuziga qaytishni istamaydi, ikkinchi variantda achchig'i-yu totlisi bilan birga yer yuzini tanlaydi. Yozuvchi qo'llagan bunday juft final juda original va adabiyotimizda ilk marotaba qalamga olingan.

Bu asar va "Shekspir" jahonning bir qancha sahnalarida, shu jumladan, Angliya va Turkiyada ko'p marotaba namoyish qilingan. "Shekspir" Elchinning Turkiyada sahnaga qo'yilgan oltinchi pycsasidir. "Oh, Parij, Parij", "Mening sevikli telbam", "Mening erim telbadir", "Qotil", "Pochtaxonadagi xayol", "Mahmud va Maryam", "Oq tuya", "Atilar orasida", "Shekspir", "Teleskop" va boshqa pyesalari turli o'lkalarda katta muvaffaqiyatlar bilan sahnaga olib chiqilgan.

Adib asarlarining tomoshabinlar orasida populyar bo'lishi ayni haqiqatdir. Masalan, 2012 yilda yilning eng yaxshi uch pyesasi tanlovida birinchini "Qotil", ikkinchini esa "Shekspir" pyesalari oлган [9].

Elchin ba'zi xorijlik dramaturglarning asarlarini tilimizga ag'dargan. Ular orasida Molyerning "Skapening mug'ombirligi", "Jorj Danden", Pirandelloning "Ahmoq", Maltsning "ErHiks", Hoinskiyning "Bir kecha voqeasi" pyesalarini ko'rish mumkin.

Ushbu tarjimalarni Ozarbayjon adabiyotiga, shu jumladan, dramaturgiyasiga muhim hissa sifatida qabul qilishimiz mumkin.

Elchin ayni paytda 22 filmning ssenariyini yozgan: "Orqadan zarba", "Kut meni", "Kumush tusli furgon", "Bog' mavsumi", "Sohilsiz kecha", "Uch cho'qqining fotihi", "Hukmdorning tolei", "O'chmas izlar", "Mahmud bilan Maryam" va boshqa filmlar milliy madaniyatimizni boyitgan [10].

Yosh dramaturglardan biri Oygun Hasano'g'li bu davrda oлdingiga nisbatan passiv bo'ldi. Yozuvchi 2004 yilda nashr qildirgan kitobida bundan avval aytib o'tilgan yetti drama asarini yiq-qan [11], bulardan tashqari oltita sahna asarini ham o'quvchilarga havola qilgan. Butun dunyoni mustamlaka qilgan, faqat to'ydim bilmagan G'arb imperializmining hozirgi qiyofasini aks ettirgan "Supra", mashhur xayrsevar millioner Xoji Zaynobiddin Tagiyev faoliyatini yoritgan "Quyosh chiqayotganda" va bugungi Ozarbayjon mavzusiga bag'ishlangan "Dovul" pyesalari, Qurbon Saidning "Oltinsoch" va Ismoil Qutkoshanlining "Rashid bey" va "Saodat xonim" asarlaridan asarlari asosida amalga oshirgan asarlar va "Samaniy" pyesasi [12] uning so'nggi drama asaridir. Yozuvchining bu qadar sekinlashuvining sababi arman-turk munosabatlari bo'yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borishi, katta hajmli "Annan sindromi" nomli kitobini nashr qildirishi va nasr sohasidagi asarlarga ko'proq e'tibor qaratishidir. Oygun Hasano'g'li adabiy sohada avvalgi yurtsevarlik faoliyatlarini davom ettirmoqda.

Yozuvchi Husaynbola Miralamov keyingi yillarda asosan tarixiy mavzulardagi drama asarlariga ko'proq e'tibor qaratmoqda. Uning "Ganja darvozalari", "Panoh Ali xon Javonshir", "Layoqat", "Vijdonning ovozi" va "Uyat" nomli besh pyesasidan ikkitalasi XVIII asrning ikki nafar mashhur tarixiy shaxsi, ya'ni Ganja hukmdori Javod xon va Qorabog' hukmdori Panoh Ali xon Javonshir haqidadir. Ular davridagi boshqaruv tarzi, jangu-jadallari, to'g'ri va noto'g'ri ishlari, aholiga, xususan, armanlarga nisbatan yumshoq va insoniy muomalasi, xiyonatga uchrashi kabi masala-

lar asliyatga mos ravishda ko'rsatib berilgan. Muallif "Ganja darvozalari" asarida gruzin qiroli Georgiy, uning qizi Nona, arman Revaz, general Sisiyanov; "Panoh Ali xon Javonshir" pyesasidagi Ollohquli, Husni, Usub, Yegan kabi obrazlarni o'ziga xos tarzda tasvirlagan.

"Layoqat" va "Vijdon hukmi" da g'oya o'laroq tarixiy mavzuda yozilgan asarlar safida hisoblanishi mumkin, faqatgina qahramonlari sodda insonlardir. "Layoqat"da Il Jahon urushi qahramoni Umid, "Vijdon hukmi"da Qorabog' urushi g'oziy jangisi Rahim muayyan bir yurdosh, vatansevar o'laroq talqin qilinadi va yangi avlodga o'mak sifatida ko'rsatiladi. "Uyat" pyesasi Xo'jali fojeasiga doir bahs yuritadi. Asar qahramonlari Vatan, Murod, Farg'ona va boshqalar yozuvchining mohir qalamida say-qal topgan. Bu pyesa bir necha teatrлarning tadbirlarida, shu jumladan, Xalqaro Belgrad va Yalta festivallarida medal qo'lga kiritgan pyesalar orasidan o'rinn olgan [13].

Qariyb 20 atrofida pyesa muallifi Elchin Husaynbeyli drama asarlarining bir qismini 2005 yilda chop qilgan "Ikki kishi uchun o'yin" nomli yirik hajmli kitobida bir joyga keltirgan [14]. Ushbu kitobdan uning yetti ta pyesasining sahnalashtirilganiga guvoh bo'lamiz. "Fotiha", "Oxiri sokinlikdir", "Ikki kishi uchun o'yin", "Qo'choq qariyalar" kabi pyesalari hali sahnaga chiqmagan. Yozuvchining 2009 yilda nashr qildirgan "Metro vodiysi" kitobiga "Imperator", "Odam ila Havvo", "Laylo va Majnun" va "Sezar" pyesalarini kirtan [15].

"Qo'choq qariyalar"da qishloqlari armanlar tomonidan ishg'ol qilingan ikkita qariya Bokuda uchrashib qolishadi va qishloqqa borishga qaror qilishadi. Yozuvchi bu pyesasida yoshlarga badiiy fikr beradi: qishloqni va butun Qorabog'ni keksa kishilar emas, sizlar qutqarasizlar.

"Laylo va Majnun" komediyasida sevgi-muhabbatdan ko'proq siyosat mavjud. Yozuvchi butun obrazlarni butunlay boshqacha bir shaklda tasvirlagan. Bu yerda Laylo ham, Majnun ham, Nofel ham, Salom ham bizga folklor orqali ma'lum bo'lgan dostondag'i asliga mos emas. Bu Laylo u Layloga, bu Majnun u

Majnunga parodiya o'laroq taqdim qilingan. Laylo siyosiy hokimiyatning, Majnun bo'sha muxolifatning ramzidir, Nofel Yevropalashuv tarafdori, Salom vatanparvar obrazdir. Oxir-oqibatda Majnun ham, Salom ham Layloni o'z yo'lidan voz kechishga undaydi.

"Odam va Havvo" pyesasi ham ancha original bir syujetga ega. Odam va Havvo g'ayrirasmiy jinsiy aloqa qildi degan vaj bilan zamonamizning standart mahkamasi huzuridadir. Iblis guvoh rolida, Hokim taraddudli bir tipdir, Prokuror esa feminist bir ayol. Advokatlarning jinsi tortishuvga sabab bo'ladi, ayolmi yo erkakmi ekanligi majhuldir, mahkama kotibi ichkilikbozlikka ruju' qo'yan. Shunday bir muhitda davom etgan mahkama jarayonini bir o'ylab ko'raylik.

"Imperator" va "Sezar" pyesalarida hokimiyatning qonuniyligi va xarizmasi, tabiiy va qonuniy mas'uliyati to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita o'laroq ko'rsatilgan. Masalan, yozuvchi "Sezar"dagi Sezar, Lusiy, Pompey, Kleopatra va Oq Otli O'g'lon obrazlarning hozirgi Ozarbayjon siyosiy elitasidan kimlarni tamsil qilgannini, kimlarning prototipi ekaniga imo-ishora qiladi, hattoki ochiqchasiga ko'rsatishgacha boradi.

Elchin Husaynbeyli dramaturgiyasи hozirgi kun Ozarbayjon adabiyotida mustaqil, qiziqarli va yangi bir sahifadir. Yozuvching kelajakda yanada mukammal asarlar yozishiga shubha yo'q. Bugungacha yozganlari buning kafolatidir.

Keyingi paytlarda Ofoq Mas'udning ("Poyezdning tagiga tashlangan ayol"), "U meni sevadi", "Jon fido", Fikrat Qo'janing ("Otelloning o'g'li yoxud Uchinchilar"), Ajdar O'Ining ("So'nggi maktub", "Dubay vaqtii"), Aqshin Boboyevning ("Qutqaruvchi"), Olamdon Qulizodaning ("Panoh uyi"), Iftixor Piriyevning ("Tong yeri boshlaganda"), Jengiz Alakerlining ("Shohidga aylangan shahid") va boshqa yozuvchilarning asarlari milliy drama san'atimizga muhim hissa qo'shishgan, boyitishgan [16].

## Foydalingan adabiyotlar

- [1] Ali Emirli. Wikipedia.
- [2] Ali Emirli. 15 Piyes. Bakü, Onder, 2006.
- [3] Esat Cihangir. Firuz Mustafalı // 525'inci Gazet, 11.06.2011.
- [4] Sabir Begirov. Firuz Mustafa: His ile İdrakin Vahdeti (Edebi Portre). Bakü, Araz, 2012, s. 146-207.
- [5] Vakıf Yusuflu. Elçin XXI. Asırda // Azerbaycan Dergisi, 2013, No. 1.
- [6] Vefa Hanoglan. Elçin'in Yaratıcılığı Dünya Meridyenlerinde // Halk Gazeti, 06.05.2012.
- [7] Şekspir Tiyatroseverlerle ilk Görüşmeye Gelir // azertag.az
- [8] Meryem Alizade. Şekspir veya Harmoninin Tantanası // 525. inci Gazet. 17 Nisan 2012.
- [9] 2012-ci Yılın En Yahşları //www.kaspi.az/news.
- [10] Gazanfer Paşayev. Elçin'in Sanat Dünyası // Respublika, 17.05.1913.
- [11] Aygün Hasanoğlu. Yedi Kapı. Bakü, 2004.
- [12] Esat Cihangir. Aygiin Hasanoğlu / Azetbaycan Yazarları Kurultayı. Bakü, 2014, s. 64-65.
- [13] www.anspress.com.
- [14] Elçin Hüseyinbeyli. İki Kişi İçin Oyun. Bakü, Adiloglu, 2005.
- [15] Elgin Hüseyinbeyli. Metro Vadisi. Bakü, Vektor, 2009.
- [16] Aydın Dadaşov. Çağdaş Piyesler // www.azyb.net/cg.

## MUSTAQILLIK DAVRI OZARBAYJON ADABIYOTSHUNOSLIGI

Adabiyot ilmi, eski atama bilan aytganda adabiyotshunostlik uch asosiy tarmoqdan tashkil topgan: adabiyot tarixi, adabiyot tushunchasi va adabiy tanqid. Adabiyotshunoslik asosan siyosatga uzoq sohadir. Adabiyotning siyosiyashtirilishi boshqa hech bir davr va tizimda u qadar shiddat va zo'ravonlik kuchi bilan bajarilmagan, bunchalik qonli shaklda amalga oshirilmagan. Sovet tizimining bosh falsafasiga ko'ra, butun yozma va og'zaki adabiyot muayyan bir kriteriyalar asosida ko'zdan kechirilishi va sinfiy jihatdan talqin qilinishi kerak edi. Shu bois adabiyotshunoslik va adabiy tanqidga katta ehtiyoj sezilgan. Sho'rolar faqat bugunni emas, o'tmishga ham aralashar, sotsialistik realizm g'oyalarini har xil davrlarga va asarlarga joriy qilar edi. Masalan, ming yillar oldin yaratilgan "Dada Qo'rqu" dostoniga ham til tekizilib, uni Kavkaz xalqlari qardoshligiga teskari bo'lgan (?!?) asar sifatida e'-lon qilingandi. Buyuk shoir Nizomiy Ganjaviyning insonparvar ijodida ilmiy kommunizmning, utopik sotsializmning bir qator unsurlarini kashf qilar edi. Masalan:

Bizda barobardir har kasning bori;  
Barobar bo'lamiz butun mollarni.

misralaridan yo'lga chiqib buyuk Nizomiyni Kommunistik Partiya a'zoligiga olishni istashardi.

Yoki Fuzuliyni o'z safiga og'dirish va undan siyosiy maqsadlarda foydalanish uchun:

Ko'ngil sajdaga bosmagin oyoq, tasbihga qo'l urma,  
Namoz ahliga uyma, ular bilan o'tirma, turma.

misralariga yopishib olishardi. Bu bayt shoirni ateist e'lon qilishga yetardi, darvoqe u sufiy shoir edi; shu sabab u bechora bolshe-

vik, kommunist tanqidchilarning oshqozonida yem bo'lar edi. Istaklari bekor ketsa "Doloy Fuzuli!" ("Yo'qolsin Fuzuliy!) deb na'ra tortib baqirishlari tabiiy edi.

Biron shoir saroyda yashagan bo'lsa, ijodining mazmuniga qaramasdan uni saroy shoiri deb e'lon qilishardi. Hukmron sinflar uchun asar yozgan bahonasi bilan har qanday shoirga "feodalizm shoiri" tamg'asini bosish juda oson edi. Xo'p, dunyo adabiyotida feodalizm yoki kapitalizm davrida yashagan, faqat shonli kommunizm davrini tarannum qilgan shoirlar bor edimi, ajabo? Hajv yoki hazil-mutoyiba yozgan shoirlarning ishi biroz bo'lsa ham osonroq edi. Balki shaxsiy o'laroq feodal, bek yoki boyga tosh otgani uchun uni xalqqa yaqin hisoblash yanada qulay edi. Ba'zan ijodi unchalik yaxshi bilinmagan biror shoirning davr-u davronidan, falak va toleidan yana shaxsiy tama' asosida shikoyati va zorlanish bilan ifodalagan biror baytini iqtibos ko'rsatib, orqasidan "Shunday qilib shoir o'z zamonasidan achchiq-achchiq shikoyat qilgan" deya shovqin solishardi.

Adabiyot nazariyasi Sovet istaklaridan biroz tashqarida qolgan edi, uni siyosiylashtirish mumkin emasdi: chunki bu yerda texnik jihatdan janrlar va ularning zohiriyligini xususiyatlari (mazmun adabiy tanqidga oiddir) mavzu bahs edi. Ozarbayjoncha "vikipedia" bizga adabiyot nazariyasi sohasiga kiramagan 80 atrofida adabiy janrning ajoyib ro'yxatini taqdirm qiladi: aruz vazni, bo'g'in vazni, nasr, drama asarlari, manzuma, lirik tur, epik tur, dramatik tur, qo'shma, gerayli, tajnis, jig'ali tajnis, dudoq tegmas tajnis, mustazod tajnis, dudoq tegmas, muxammas, g'azal, qasida, qit'a, ruboi, tuyuq, she'r, tarjiband, tarkibband, devoniy, safarnoma, mustazod, mayxona, taxmis, ustoznama, tamsid, qo'shsha yaproq, varsoqi, murabba', musaddas, musammo, bayotiy, marsiya, hajv, loylo (alla), ag'it (yig'i), topishmoq, o'xshama (silama), yangiltmoch (takrorlama), latifa, ota so'zlari (maqol), zarbulmasal, vasfi hol, qifilband, mahni (qo'shiq), nahma, mehnat nag'masi, marosim nag'masi, xo'lover, sayoji so'zlari, vujudnomma, doston, nag'il (masal), afsona, hikoya, xalq o'yini-timsollari, qo'g'irchoq teatri timsollari, maqola, ocherk, retsenziya (tanqid),

felyeton, roman, novella, detektiv, fantastika, mazax (hajv), manzum maktub [1].

Bu yerga boshqa ba'zi atama va turlarning nomlarini ham qo'shish mumkin. Masalan, misra, bayt, dubayt, shohbayt, band, gufta, fors, grotesk, vodvil, melodrama, monodrama, tragediya-komediya, sharqi, turku, xo'yrot, safar qaydlari, musohaba (mu-loqot), sarbast vazn, oq she'r, mif, asotir, rivoyat, mish-mish, shabih, qoravelli, bahoriya, xazoniya, faxriya, tavhid, naat, munojot, me'rojiya, aytishuv, harbu zarb, maxlas, taxallus, ilohiy, nafas, soqiyinoima va hokazo.

Sho'rolar yozuvchilarni maorifchi, demokrat, ma'rifatchi-demokrat va inqilobchi-demokrat toifalariga ajratar edi. Albatta, ular orasida nozik bir chiziq bor edi; qoloqlik, din, taassubga qarshi yozgan adiblarga asosan maorifchi, xalqni bek va boylarning zulmiga qarshi himoya qilgan adiblarni demokrat, masalani ezilgan va ezuvchi sinflar asosida sotsial va siyosiy ma'noda qaragan maorifchi-demokart, kapitalizmga, despotizm va zulmga qarshi chiqqan, to'ntarish yasab mavjud tuzumni yiqitishga, ishchi-dehqon hukumati qurishga chaqirgan adiblarga inqilobchi-demokrat deyishardi. Faqat ajablanarli shuki, bu tasnidga milliy mustaqillik va milliy davlat qurishni istagan yozuvchilar yo'q edi. Ular istagan mustaqillik mutlaqo Sovet Rossiyasi va Sovet Ittifoqi dorasida edi. Boshqa bir millatning mustamlakasi bo'la turib o'zini ozod hioblash yoki boshqa birini asir qilib, sen mustaqilsan demoq Sovet davrining ijodi bo'lса kerak. Sho'rolardan alohida ozodlik istagan adiblar xalq dushmani nomi bilan otib tashlangan yoki Sibirga surgun qilingan edi. Hatto, Chor Rossiyasi yoki Sho'rolardan arazlab yurtdan tashqariga muhojirlikka ketgan demokrat ruslar ham Rossiyani yagona va bo'linmas o'laroq bilar, Kavkaz, O'rta Osiyo, Ukraina, Moldaviya, Boltiq jumhuriyatları kabi mustamlakalarning undan ajralib chiqishini aslo istamas edilar, hozir ham istaunaydilar. Ruslar uchun farovon hayot, yaxshi va sifatli umr kechirish, lyuks yashash ikkinchi darajali bir narsa, ular uchun xaritaga qarab "Uchsiz bepoyon vatanim!" deb mag'rurlanish yanada jozibalidir.

Yaxshi, adabiy tanqid nima va u Ozarbayjon adabiyotida qachon boshlangan? Adabiy tanqid o'z zamonasining adabiy jarayonlarini doimiy ravishda kuzatib boradi va tadqiq qiladi, yangi yozilgan asarlarni tahlil qiladi, alohida-alohida adabiy namuna-larning ijobiylari va salbiy tomonlarini tahlil qilib umumlashtiradi, zamonaviy adabiy jarayonlarni tushunish ishida o'quvchilarga yo'l ko'rsatadi. Adabiyot tarixchisi va nazariyachilaridan farqli o'laroq munaqqid ilm va ijod orasida yaqin munosabat o'matadi, yozuvchi va o'quvchi orasida o'zaro tushunish malakasini oshiradi. Zamonaviy adabiy tanqidchiligidan buyuk mutafakkir Mirza Fathali Oxundov (1812-1878) bilan aloqadordir. Ungacha ba'zi Ozarbayjon olimlari arabcha va forscha adabiy risolalar, to'g'rirog'i, Sharq she'r tizimi borasida ayrim risolalar yozgan, ba'zi tazkira va jo'nklar dunyoga keltirishgan. Faqat ularni na adabiyot tarixi, na adabiy tanqid deb bo'lmaydi.

Adabiyotshunoslik Ozarbayjonda Faridun bey Go'charlining (1863-1920) shaxsiy g'ayratlari tufayli paydo bo'lgan. 1903 yilda adibning mashhur "Ozarbayjon tatarlari adabiyoti", 1925 yilda esa "Ozarbayjon turklari adabiyoti tarixi" kitoblari bosilib chiqqan. Ancha keyin esa "Ozarbayjon adabiyoti" nomi bilan bu kitobning I. Jildi 1978 yilda [2], 2. Jildi 1980 yilda [3]. bu jiddlarning qayta nashri 2005 yilda [4] bosilib chiqqan. Faridun bey Go'charli 28 may 1918 yilda mustaqil Ozarbayjon Demokratik Respublikasi e'lon qilingan Ozarbayjon Milliy Sho'rosining a'zosi bo'lGANI uchun 1920 yilda arman dashnoqlarining gij-gijlashi natijasida bolsheviklar tomonidan otib tashlangan. nomi va asarlari Sovet Ittifoqi davrida uzoq yillar davomida ta'qiqlab qo'yilgan.

Ozarbayjon adabiyoti tarixining poydevorini qo'yganlar sa-fida taniqli maorischchi, adabiyotshunos va diniy arbob, bir muddat Kavkaz muftisi vazifasida bo'lgan Mirza Husayn Afandi G'oyibovni (1830-1917) maxsus aytib o'tish kerak. Yaqin do'sti Mirza Fathali Oxundzodaning tashviqi bilan Mirza Husayn Afandi "Ozarbayjonda mashhur bo'lgan shuaroning ash'origa majmudir" nomli to'r jiddlik asar yozib tugallagan. XVIII – XIX asrlarda

yashab ijod qilgan Ozarbayjon shoirlarining asarlaridan namunalar yig'ilgan bu asar ikki jild holida Bokuda bosilib chiqqan [5].

1919 yilda Yusuf Vazir Chamanzaminli (1887-1943) Istanbulda "Ozarbayjon adabiyotiga bir nazar" nomli monografiyasini nashr qildirgan. Yozuvchi ushbu tadqiqotida adabiyotimizni Imadaddin Nasimi bilan boshlagan, Shoh Ismoil Xatayi, Muhammad Fuzuliy, Mulla Panoh Voqif, Mulla Vali Vidodiy, Abbosquli Og'a Boqixonov, Mirza Fathali Oxundzoda, Qosim bey Zokir, Mirza Ali Akbar Sobir, Faridun bey Go'charli kabi qalam sohiblarining ijodini juda yaxshi taxlil qilgan [6].

Tabrizlik jurnalist, maorifchi ziyoli Muhammad Ali Tarbiyat (1877-1970) eski davrlardan 1930- yillargacha butun ozariy shoir, yozuvchi, rassom, xattot, musiqachi, jurnalist va boshqa madaniyat xodimlari haqida keng ma'lumotlarni o'ziga jo qilgan "Donishmandoni Ozarbayjon" nomli kitobi ham adabiy manbalarimizdan biridir. Adabiyot tariximiz uchun muhim bir tamal toshi bo'lgan bu kitob Bokuda chop qilingan [7].

Keyinchalik Ozarbayjon Fanlar Akademiyasining Adabiyot instituti uch jildlik "Ozarbayjon adabiyoti tarixi"ni tayyorlash jarayonida Faridun bey Go'charli, Mirza Husayn Afandi G'oyibov va Muhammad Ali Tarbiyatning asarlaridan asosiy manba sifatida foydalangan [8]. Ilk keng qamrovli va tizimli adabiyot tarixi bo'lgan bu kitobni mutaxassislar va o'quvchilar katta qiziqish bilan kutib olishgan.

Sovet hukmronligining ilk yillarda Salmon Mumtoz, Ali Nozim, Mustafo Quliyev, Ruhulloh Oxundov, Mammad Kozim Alakberli, Vali Xuluflı, Emin Obid, Otabobo Musaxonli, Xanafiy Zaynalli, Bakir Cho'bonzoda kabi kuchli munaqqidlar adabiy jarayonni nazoratda tutishgan. Normal mamlakatlarda adabiy tanqid sokin va yumshoq shaklda, mantiq doirasida rivojlangan bo'lsa, Sho'rolarda bu jarayon ko'zma-ko'z, tishma-tish, to'g'rirog'i, yoqavayron talashuv, haqiqiy bir janjal holatida davom etgan. Siyosiy demagogiya, qoralash, yomonlash, og'izga olib bo'lmaydigan darajada siyosiy haqoratlashlar havosi hukm sur-

gan majlislar tuhmat, chaqimchilik, joususlik va tuhmatlardan iborat maqolalarz ziyolilami 1937 yilning ostonasiga olib kelgan, qancha-qanchalab vatanparvarlarning hayotiga zomin bo'lgan.

1937 yildan keyin siyosiy janjal va adabiy hayajonlar qisman sekinlashgan, Ja'far Ja'farov, Mammad Orif, Mammad Ja'far, Ja'far Xandon, Azizi Sharif, Mikoil Rafili, Ali Sultonli, Muboriz Alizoda kabi munaqqidlar bu ishni yanada iliqroq va muloyim yondashuv holatida davom ettirishgan. Ular bilan yonma-yon Abdulla Shoiq, Samat Vurg'un, Mahdi Husayn, Mirza Ibrohimov, Rasul Rizo, Mir Jalol, Qosim Qosimzoda va boshqa ajoyib yozuvchilar nazariya va tanqid masalalari bilan ham shug'ullanishgan.

Sho'rolarning so'nggi davrlariga yaqin Mahdi Mamadov, Akbar Og'ayev, Abbas Zamonov, Aziz Mirahmedov, Kamol Tolibzoda, Yashar Qorayev, Quli Xalilov, Bakir Nabihev, Xayrulla Mammadov, Yusuf Sayidov, Shomil Salmonov, Faridun Husaynov, Jalol Abdullayev, Osif Afandihev, Panoh Xalilov, Shomil Qurbonov, Gulruh Alibeyli, Xolid Alimirzayev, Mas'ud Alio'g'li, Orif Abdullohzoda kabi bir qancha taniqli munaqqid adabiyotni yo'naltirgan.

Ozarbayjonda adabiyotshunoslik va adabiy tanqidchilikning shakllanishi va rivojida Mammad Orif Dadashzodaning (1904-1975) mustasno roli bordir. U, 1939-1950 va 1957-1959 yillarda akademianing Til va Adabiyot instituti (1969 yilda ikkita alohida institutga bo'lingan) mudiri vazifasida ishlagan. 1950 yilda mashhur faylasuf Haydar Husaynovga qarshi qoralash kampaniyasiga qo'shilmagani uchun institut mudiri va universitetda kafedra mudirligidan bo'shatilgan, Kommunistik Partiya va Yo-zuvchilar Uyushmasi a'zoligidan chiqarilgan, bir necha yil uy qamog'ida saqlangan. Faqat Nikita Xrushchev Stalinni qoralab chiqqanidan so'ng 1957 yilda eski vazifalariga tiklangan. Mammad Orif Dadashzoda 1960 yildan umrining oxirigacha Fanlar Akademiyasi rais o'rinosari bo'lib, bu davrda Ozarbayjonda ijtimoiy va gumanitar fanlarning rivoji uchun bor kuchi bilan xizmat qilgan.

Mammad Orif Dadashzodaning “Ja’far Jabborlining ijod yo’li” (1956), “Ozarbayjon xalq adabiyoti” (1958), “Samat Vurg‘un dramaturgiyasi” (1964) nomli monografiyalari va “Tanlangan asarlari” (uch jildda, 1968-1970) mutaxassis va o‘quvchilarning ardoqli kitoblaridir. “Qisqacha Ozarbayjon adabiyoti tarixi” (ikki jildda, 1943-1944), “Ozarbayjon adabiyoti tarixi” (uch jildda, 1957-1960), “Ozarbayjon sovet adabiyoti tarixi” (ikki jilda, 1967) kabi muhim tadqiqotlar muallifi va noshirlaridan biri ham Mammad Orif Dadashzoda bo‘ldi. Samat Vurg‘un u haqda “Taqidimizning vijdoni” degan, prof. Shomil Salmonov shunday yozgan: “U, F. Go‘charlidan keyin Ozarbayjon adabiyoti tarixining eng tamal voqeа va tamoyillari, rivojlanish bosqichlari va tabiiy rivojlanishidan iborat asar yozgan yagona muallif va shaxsdir” [9].

Muhammad Orif; Genrix Geyne, Vissarion Belinskiy, Aleksandr Pushkin, Lev Tolstoy, Ivan Kirilov, Anton Chexov, Vladimir Mayakovskiy, Maksim Gorkiy kabi adiblar haqida kitob yozgan; Evripid, N. Gogol, A. Chexov, M. Gorkiy, I. Bexer, K. Nikoforov, L. Averbax, A. Barbus, L. Vaysenberg, A. Kojevnikovning asarlarini ona tilimizga o‘girgan. M. Servantesning “Don Ki-xot”, A. Makarenkoning “Pedagogik manzurna”, Lev Tolstoyning “Urush va tinchlik”, Nikolay Ostrovskiyning “Po‘lat qanday toblandi”, Erix Maria Remarkning “G‘arbiy jahhada yangi bir narsa yo‘q” asarlarini katta mahorat bilan tarjima qilgan.

2014 yilda Mammaad Orif Dadashzodaning 110 yillik yubileyining davlat miqyosida nishonlanishi uchun Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyev qaror chiqardi.

Mashhur adabiyot tarixchisi va munaqqid Kamol Tolibzoda (1923-2006) “XX asr Ozarbayjon adabiyoti tanqidi” [10] kitobini yozish bilan adabiy tanqid tarixiga muhim hissa qo‘shtigan, keyinchalik “Ozarbayjon adabiy tanqidi tarixi” [11] nomli monografiyasini, “Tanqid va tanqidchilar” [12] kitobini qalamga olgan. Uning “Tanlangan asarlar”i [13] (ikki jildda, 1991-1994) munaqqidlarning stol ustи kitobiga aylangan.

Tanqidchi-adabiyotshunos Yashar Qorayev (1936-2002) har ikkala sohaga o'z muhrini bosgan, bir-biridan qiymatli kitoblar yozib qoldirgan. Uning "Fojea va qahramon, tanqid: muammolar, portretlar", "She'r va nasr", "Realizm: ijod va haqiqat", "Tarix: yaqindan va uzoqdan", "Ozarbayjon adabiyoti tarixi" (XIX – XX asrlar)" kabi asarlari buyuk bir iste'dodning bizga tuhfasiidir [14].

Adabiyotimiz tarixida Bakir Nabiyevning (1930-2012) yusak xizmatlarini aslo unutib bo'lmaydi. Ozarbayjon faniga 60 yildan ko'proq xizmat qilgan haqiqiy ustoz va olim bo'l mish Bakir Nabiyev alohida-alohida adib va davrlar haqida qiymatli tadqiqotlar amalga oshirgan. Ular orasida "Tanqid va adabiy jarayon", "Ahmad Javod", "Faridun bey Go'charli" va boshqa monografiyalari diqqatga sazovordir [15].

Adabiyot tarixchilari Hamid Arasli va Fayzulla Qosimzoda ning adabiyotimiz uchun xizmatlari kattadir. Hamid Arasli klassik shoirlarimizdan Qozi Burhoniddin, Nasimi, Shoh Ismoil Xatayi, Kishvari, Habibiy, Fuzuliy, Qavsiy, Masihiy, Soib, Omoniy, Fidoiy, Nishod Shirvoni, Majhur Shirvoni, Vidodiy va Voqif haqida ilk mu'tabar tadqiqotlar amalga oshirgan, ularning asarlarini nashr qildirgan. 1939 yilda, 1962 yilda va 1978 yilda "Kitobi Dada Qo'rqui" dostonlarini chop qilib, turkologiya ilmiga mislsiz hissa qo'shgan. "XVII – XVIII asrlarda ozarbayjon adabiyoti tarixi" kitobi olimning shoh asarlaridandir [16].

Muallimlar muallimi Fayzulloh Qosimzoda Ozarbayjon adabiyotshunosligi olamida 30 professor, 120 nafar fan nomzodi va fan doktori, 600 dan ortiq ilmiy maqola, o'nlab monografiya va kitob yozgan. Ular orasida eng mashhuri "XIX asr ozarbayjon adabiyoti tarixi" kitobidir [17].

Hozirgi kun munaqqidlari orasida Iso Habibbeyli, Tahsin Mutallimov, Qora Namozov, Kamol Abdulloh, Nizomiy Ja'sarov, Nargiz Poshoyeva, Ablufaz Omono'g'li, Teymur Ahmedov, Yovuz Oxundli, Tavfiq Husayno'g'li, Akif Husaynov, Orif Sayfiyev, Jalil Nagiyev, Amirxon Xalilov, Minaxonim Teklali, Oybeniz Aliyeva, Ifrot Aliyeva, Muxtor Imonov, Kamron Aliyev, Himalay Qosimov, Orif Xejiyev, Viloyat Quliyev, Voqif Yusuflı.

Javonshir Yusufli, Nizomiddin Shamsizoda, Rahim Aliyev, Elchin Mehraliyev, Marziya Najafova, Elnora Akimova, Oydin Dadashov, Ismoil Valiyev, Tayyor Salomo'g'li, Odilxon Bayramov, Rustam Kamol, Nargiz Qurbonova, Asad Jahongir, Tahron Alissono'g'li, Nizomiddin Boboyev, Suna Xayol, Yoqub Ismoilov, Osif Rustamli kabi qalam sohiblarini ko'rsata olamiz.

Hozirgi zamon adabiy tanqid sohasida Xalq yozuvchisi Elchin maxsus o'ringa ega. Mashhur yozuvchi, dramaturg va munaqqid hisoblanadigan prof. Elchinning 10 jiddlik "Tanlangan asarlar" ning to'rt jildi ilmiy asarlardan iboratdir. Ular mazmun va mohiyat jihatidan ustun saviyadagi tadqiqotlardir. Monografiya va kitoblari, ilmiy-nazariy maqolalari Elchinni adabiyotshunoslik va adabiy tanqid sohasida ham katta e'tibor qozonishiga olib kelgan. Ushbu monografiyalarning mazmunini tushunish uchun ularning nomiga ko'z tashlash yetarlidir: "Adabiyot tarixi va zamnaviylik masalasi", "Tanqid va adabiyotimiz masalalari", "Klassiklar va zamondoshlarimiz", "Klassik ishqiy she'rlarda "Dunyo" tushunchasi" va boshqa asarları yuqorida aytib o'tilgan fikrlarni tasdiqlaydi.

Elchin asarlarining bir qismi alohida-alohida yozuvchilarimizning ijodi va adabiy shaxsiyati haqida bahs yuritadi. Bunga misol sifatida bastakor Uzayir Xojibeyliga atab yozgan "Bastakorming vatandosh so'zi", buyuk adib Ja'far Jabborli haqida yozilgan "Shaxsiyat va iste'dod" kabi asarlarini ko'rsatish mumkin. Adibning "Sotsialistik realizm bizga nima berdi" turkum maqolalari adabiy davralarda katta qiziqish bilan kutib olingan [18].

Mustaqillik davrida eng ko'p mahsulot bergen munaqqidlaridan biri Nizomiy Ja'farovdir. Uning "Ozarbayjon intibohi: muammolar va mulohazalar", "Fuzuliydan Voqifgacha", "Ozarbayjonshunoslikka kirish", "Aylan kapgirim aylan", "Eposdan kitobga", "Klassiklardan zamondoshlarga" va boshqa kitoblari adabiy tanqid va adabiyot tarixining bir qator muammolariga oydinlik kiritgan. Uning "Turkiy xalqlar adabiyoti" kitobi (to'rt jilda) o'quvchilar orasida ayniqsa mashhurdir [19].

Iste'dodli adabiyotshunos va munaqqid Voqif Sultonlining asarlari muhojirot adabiyoti va yurt tashqarisida yaratilgan tanqid haqida qiziqarli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan. Uning Ozarbayjon Demokratik Respublikasi asoschisi M.E. Rasulzoda haqidagi yuksak saviyadagi go'zal asarlari bu sohadagi katta bo'shliqni to'ldirgan: "Mammad Emin Rasulzodaning hayoti va adabiy faoliyati" (1996), "Og'ir yo'lning yo'lchisi" (1996), "Ozarbayjon muhojirot adabiyoti" (1998) kitoblari aytib o'tilganlarga namuna bo'la oladi. "Adabiy tanqid darslari" kitobida yozuvchi butun asarlarini xulosalab bergan.

Adabiy tanqid bu davrda ham yangi asarlar va yozuvchilar ning yo'l hamrohi bo'lish vazifasini davom ettirib, adabiyotda ba'zi nazariy, etik, estetik va ma'naviy masalalar tadqiqini davom ettirgan, bir qator asarlarni o'rtaga qo'ygan. Ular orasida "Ozarbayjon Xalq Jumhuriyati (adabiyot, til va madaniyat muammolari, 1998), "Ozarbayjon muhojirot adabiyoti" (1991), "Milliy-ma'naviy qadriyatlar va adabiy-badiiy meros" (2001), "Ikki asr orasida adabiy va nazariy fikr" (2001) va "Ozarbayjon shoirlari ijodida irfon" (2003) ayniqsa qiymatlidir. Muhojirot adabiyoti sohasida amalga oshirilgan tadqiqotlar va yozilgan kitoblar XX asr Ozarbayjon adabiyotining manzarasini umumlashtirish jihatidan katta ahamiyat kasb etadi. Xususan, Bakir Nabiyevning "Ozarbayjon adabiyotida g'urbat lirikasi" (1991), "Bezovta shoir Olmos Yildirimning ijod yo'li" (1995), Ali Sadiddinning "Ahmad Javodning ijod yo'li" (1992), Shalola Hasanovaning "Muhojir merosimizdan sahifalar" (1995), Tayyor Salomo'g'lining "Fojeaviy tolelar" (1998, bu asarda Samat Mansur, Ahmad Javod, Umkulsum va Olmos Yildirimning hayoti va ijodi tadqiq etilgan) asarlari milliy filologiya ilmiga katta hissa qo'shgan [21].

Sovet hukmronligi yillarda burjua adibi va tanqidchisi kabi domo tanqid ostiga olingan, asarlarining nashr qilnishi ta'qiqlangan atoqli mutafakkir va turkchi Ali bey Husaynzodaning mashhur "Qizil qorong'uliklar ichida yashil nurlar" [22], "Turklar kimdir va kiplardan iboratdir" [23] kitoblarining nashr qilnishi mu-

him bir vogelik o'laroq ta'tiflangan. Ozarbayjon va Turkiya matbuot tarixiga katta hissa qo'shgan boshqa bir mutafakkir va turkchi yozuvchi Ahmad Og'ao'g'lining "Uch madaniyat" [24] asari kechikib bo'lsa-da, ilm dunyosiga tanitilishi uning ahamiyatini ta'kidlab ko'rsatish uchun yetarlidir. Ali Bey Husaynzoda tomonidan nashri yo'lga qo'yilgan "Fuyuzot" jurnalni va bu jurnal doirasida tashkil etilgan "Fuyuzot" adabiy maktabi haqida Shomil Valiyev (Ko'pruli)ning qalamidan chiqqan keng qamrovli monografiyani ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Mustaqillik davrining ilk o'n besh yilini shu tariqa xulosalash mumkin: adabiyot bilimi va adabiy tanqid milliy ozodlikni tom ma'noda qamrab olmagan. Adabiyotshunoslik fani sovet davrining yo'qotishlaridan butunlay qutula olmagan, sotsialistik realizm panjasidan to'laqonli ozod bo'la olmagan. Usullar va tahlillar eski yo'nalishda davom etmoqda. Yangi va milliy adabiyot tarixi haligacha yaratilmagan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- [1] Edebiyat Nazariyesi. Wikipedia.
- [2] Firidun Bey Göçerli. Azerbaycan Edebiyatı. I. cilt. Bakü: Elm, 1978.
- [3] Firidun Bey Göçerli. Azerbaycan Edebiyatı. II. cilt. Bakü: Elm, 1981.
- [4] Firidun Bey Göçerli. Azerbaycan Edebiyatı. I.-II. ciltler. Bakü: Avrasya Press, 2005.
- [5] Mirza Hüseyin Efendi Gayibov. Azerbaycan'da Meşhur Olan şuaranın Aşarına Mecmuadır. I.-II. ciltler. Bakü: 1986, 1989.
- [6] Muası Azerbaycan Edebiyatı. I. cilt. Bakü: 2007, s. 25-27.
- [7] Muhammed Ali Terbiyet. Danişmendan-i Azerbaycan. Bakü: Azerneş, 1987.
- [8] Azerbaycan Edebiyatı Tarihi. I.-II.-III. ciltler. Bakü: 1957-1960.

- [9] XX. Asır Azerbaycan Edebiyatı Meseleleri. I. Kitap. Bakü: Elm, 2006, s. 40.
- [10] Kemal Talipzade. XX. Asır Azerbaycan Tenkidi. Bakü: 1966.
- [11] Kemal Talipzade. Azerbaycan Edebi Tenkidinin Tarihi. Bakü: Maarif, 1984.
- [12] Kemal Talipzade. Tenkit ve Tenkitçiler. Bakü: Yazi9i, 1989.
- [13] Kemal Talipzade. Seçilmiş Eserleri. I.-II. ciltler. Bakü: Yaziçi, 1991-1994.
- [14] Tahran Alişanoglu. Yaşar Karayev'in şahsiyeti ve Ömür Yolu. Bakü: 1996.
- [15] Bekir Nebiyev. Wikipedia.
- [16] Hamid Araslı. Wikipedia.
- [17] Feyzullah Kasimzade. XIX. Asır Azerbaycan Edebiyatı Tarihi. Bakü: 1974.
- [18] El\$in. Se?ilmiş Eserleri. On ciltte. I.-IV. ciltler. Bakü: Çınar-Çap, 2005.
- [19] Nizami Caferov. Türk Halkları Edebiyatı. I.-IV. ciltler. Bakü: Çaşıoglu, 2007.
- [20] Vakif Sultanlı. Edebi Tenkidin Tedrisi Meseleleri. Bakü: Azermeşr, 2007.
- [21] Muasır Azerbaycan Edebiyatı. II. cilt, Bakü: 2007, s. 456.
- [22] Ali Bey Hüseyinzade. Kırmızı Karanlıklar Ifinde Yeşil Işıklar. Bakü: 1996
- [23] Ali Bey Hüseyinzade. Türkler Kimdir ve Kimlerden Ibarettir. Bakü: 1997.
- [24] Ahmet Agaoglu. Üç Medeniyet. Bakü: Mittercim, 2006.
- [25] Şamil Veliyev (Koprülü). Fiyuzat Edebi Mektebi. Bakü: Elm, 1999.

# MUSTAQILLIK DAVRI OZARBAYJON ADABIYOTI RIVOJLANISHINING BA'ZI NATIJALARI: YANGI IZMLAR VA YANGI OQIMLAR

Postmodernizm nima va nima emas? Nega bu so'z hamma-ning tilida? Qiyin savol. Unga javob topish uchun "modernizm" so'zidan boshlash kerak. Modern so'zi "zamonaviy, asrdosh", modernizm esa "zamonaviylik, zamonaviy chilik" degan ma'noddadir. Unday bo'lsa, postmodernizm harfma-harf "modernlikdan keyin, zamonaviylikdan so'ng" ma'nosida bo'ladi. Bu, qurg'u ilmi va fantastika sohasiga tortadi. San'atda, shu jumladan, adabiyotda postmodernizm, eskidan voz kechib, yangi bir jarayonga boshlash sifatida baholanishi mumkin.

Postmodernizmni yanada yaxshiroq tushunish uchun mashhur Vikipediya ensiklopediyalarida o'rin olgan XX asrning barha oqimlariga qisqacha nazar tashlash foydali bo'ladi. Ulardan biri dadaizmdir. Fransuzcha dadaisme, dada so'zidan olingan bo'lib ma'nosiz uyg'unlik deganidir. I Jahon urushi yillarida Shveysariyada paydo bo'lib, Germaniya va Fransiyada keng yoyilgan oqim. Dadaistlar logizmni (mantiqiyni) emas, alogizmni (noman-tiqiy) asos sifatida olib, san'atda prinsiplarni, g'oyalarni rad qildilar. Ular uchun tushuncha va shaklning mosligi emas, no-uyg'unligi muhimroqdir. Eng mashhur vakillari T. Tsara, R. Gulsenbek, Y. Gross va J. Xarfield edi. 20- yillarda dekadant jarayonlar bilan birlashdilar. Ekspressionizm jarayoni (fransuzcha expressionism – ifoda ma'nosida) XX asrning ilk choragida Yevropa san'atiga, shu jumladan, adabiyotda muayyan bir oqim sifatida o'rta ga chiqqan, ayniqsa, Germaniya va Avstriyada tarafdarlar topgan. Ijodkorning individual dunyosini nasnal borliqning haqiqiy tasviriga qarshi chiqish ekspressionizmning bosh yo'nalişidir. She'riyatdagi eng mashhurlari I. Bexer va V. Farvel, nasrda F. Kafka, G. Krayzer, K. Shterxeym, E. Toller va boshqalar bu oqimga yopishib olishgan.

Eksiztiansializm loinchcha ekstansiya so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "borliq" ma'nosidadir. Irratsional va subyektiv, idealist va

falsafiy oqim. Dastlab Germaniyada, keyinroq esa Fransiya va Amerikada yoyilgan. Xaydegger va Jasprersve Albert Kamyu bilan Jon Pol Sart shaxsiyatlarida nemis va fransuz maktablariga bo'lingan. Zamonaviy G'arbda bugun ham o'z ta'sirini davom ettirmoqda. Bu oqim asosan hayotning absurd va negativ tomonlarini asos qilib oladi. Ekzistansializm oqimi ziyolilashuv davri va klassik nemis falsafasi davrining ratsionalizm va Kantchi pozitivist falsafasiga javob edi.

Futurizm lotinchcha future so'zidan olingan bo'lib, "kelajak" ma'nosidadir. XX asrning ilk yillarida Yevropada "avangard" (ilg'or) adabiy oqim o'laroq paydo bo'lган, Italiyada, keyinroq Rossiya va boshqa Yevropa o'lklarida yoyilgan. Kelajak san'atini yaratish da'vosida bo'lган futuristlar madaniy merosga, bu merosning etika va estetikasiga, ma'naviy va ahloqiy birikimlari ga qarshi chiqib, urbanizmni, ya'ni shaharlashuvni, shahar mada-niyatini asos qilib oladilar, she'riyatda tabiiy tildan voz kechadilari. Bu oqimning asoschisi, keyinchalik fashizmni propaganda qilgan, futurizm manifestining (1909) muallifi F.T. Marinetti edi. Mashhur rus inqilobchi shoiti V. Mayakovskiy ham bir muddat futurizmga qiziqish bilan qaragan.

Klassizm adabiyotda qadimgi Yunon va Rim san'atini asos o'laroq qabul qilgan oqim sifatida 17. asrning ikkinchi yarimida Fransiyada paydo bo'lib, butun Yevropaga yoyilgan. Ichki prinsiplari aslzodalik, aqlchilik, go'zallik, uyg'unlik, muvozanat, universallik, o'Ichovlilik va ihtishomdir. Klassik hisoblanish uchun har qanday asar shu shartlarga mos bo'lishi kerak. Oqimning xususiyatlari quyidagicha: asarlarning mavzusi qadimgi Yunon va Rim mifologiyasidan olinishi kerak; "San'at san'at uchun" tus-hunchasi taribida amalga oshirilishi kerak; san'atkori (yozuvchi) asarda o'z shaxsiyatini yashirishi va o'zgarmas tiplar yaratishi lozimdir. Eng mashhur vakillari Dekart va Molyerdir. XIX asrning oxiri – XX asrning boshiga to'g'ri kelgan bu davrda klassizm jaryoni yana bir karra dolzarblik kasb etib, bu marotabada neoklassizm nomi bilan yoyilgan. Bu oqim Amerikada "yangi gumanizm" nomini olgan. Prinsip va xususiyatlari klassizm bilan bir xil.

Harfehilik, boshqacha ibora bilan aytganda letrizm oqimi II Jahon urushidan keyin Ruminiyada Isidor Isou tomonidan rivojlantirilgan. Bu oqim she'riyatda kalimalarni, so'zlarni emas, harflarni asos qilib oladi. Maurik Lemaytre va Fransua Dufren eng mashhur vakillaridir. Letrism kino boshda o'laroq davr musiqasi va raqsiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

Naturalizm XIX asrning o'rtalaridan e'tiboran Yevropa va Amerikada yoyilgan. Bu oqimning asosida tabiatning haqiqiy tasviri yotadi. Aka-uka G. Alaubert va Gonsortlar shaxsiyatida ilk yozuvchilarini topgan, G. Mopassan, H. Ibsen, N. Naupertman, F. Norris va boshqa yozuvchilarning ijodida o'zini yaqqol ko'rsatgan, Emil Zola shaxsiyatida o'zining eng yuksak bosqichiga chiqqan. Naturalizm manifesti Emil Zolaning 1880 yilda qalamga olgan "Eksperimental roman" asaridir. Oqimning bosh shiori "xuddi rassom kabi" ifodasi edi. Hayotni jonli o'laroq kuzatish va Darwinist qarashlar jihatidan tasvirlash naturalizmning aynan o'zi edi. Xususan, Emil Zola kuzatishlarni maqsadga aylantirib mashhur "Germinal" asarini yozgan. Bu oqim unchalik keng tarafdir topmagan, chunki tasvirchilik boshqa oqim va tarmoqlarda ham mavjuddir. Masalan, sotsialistik realizmda, kinochilik, hujjalı film va fotografiyada tasvir muhim joy egallaydi.

Parnas (fransuzcha parnasse) adabiy jarayoni Fransiyada o'rtaga chiqqan, XIX asrning ikkinchi yarmida SH. Lekont de Lil, SH. Bodler, A. Sulli Prudhomme, P. Verlайн, S. Malarme va boshqa shoirlar tomonidan rivojlantirilgan. Parnaschilar "san'at san'at uchun" prinsipini himoya qildilar. adabiyotning siyosiy va ijtimoiy rolini inkor etadilar.

Personalizm (lotincha persona – kishi, shaxs) XIX asrning oxirlarida paydo bo'lган va adabiyotga mistik bo'lmasa-da, diniy bir kayfiyat olib kirgan. Ularga ko'ra, shaxs ilk o'laroq haqiqat va buyuk ruhiy boylik, koinot bolsa ruhiy borliqning (Ollohnning) asaridir. Ilmiy materializm tushunchasiga qarshi chiqqan personalizmga ko'ra, hamma narsa plyurializm (ko'p ruhlар) teizmning (Buyuk Yaratuvchi, ya'ni Olloh) vahdatidan iboratdir. B. Boun,

R. Flyuling, E. Braytmen, E. Munye, J. Lakrua va boshqalar bu oqimning yo'lboshchilaridir.

Romantizm (fransuzcha romantisme) XVIII asrning oxirida Amerika va Yevropada yoyilgan oqim edi. Asosi Germaniyada Jena maktabining vakillari (aka-uka Shlegel, L. Tik, F. Novalis, V. Vakenroder) tomonidan qo'yilgan. Yevropada bu oqimga A. Hoffman, G. Bayron, P.B. Shelli, F.R. Shatobrian, V. Gyugo, SH. Petofi, M. Eminesku, Rossiyada A.S. Pushkin, M.Y. Lermontov, T.G. Shevchenko, Ozarbayjonda Husayn Jovid, Muhammad Hodiy, Abbas Sihat kabi shoirlar mansub edi. Ular hayotni qanday bo'lsa shundayligicha emas, "bo'lishi kerak shakli"da tasvirlashardi.

Santimantalizm oqimi ahloq va hayotda tuyg'uni old planga chiqqargan oqimning nomidir. Falsafa va adabiyotda keng yoyilgan. Adabiy atama sifatida ilk marotaba 1868 yilda Lessingning ta'siri J.J. Bode qalamidan o'quvchilarga havola qilingan. Oqim qahramoni doimo o'z ichiga berkinib olgan, ko'zi yoshli, baxtdan umidini uzgan, his-tuyg'ulari bilan ish tutadigan bechora biridir. Karamzin yozgan "Bechora Liza" nomli yirik hikoya rus va Yevropa adabiyotida santimantalizmning eng tipik asarlaridan hisoblanadi.

Simvolizm jarayoni o'z nomini fransuzcha symbolisme, yu-noncha symbolon – ishorat, ramz so'zidan olgan. XIX asrning ikkinchi yarmida naturalizmda realistik g'oyalarning buzilishi natijasida paydo bo'lган. Simvolizm P. Verlайн, A. Rimbaud, G. Hoffman va A. Blokning ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Simvolizmning tamal xususiyatlari shular: o'quvchini siyosatdan uzoq tutish, ashaddiy individuallik va mistiklikni maqtash, adabiyotning ijtimoiy vazifalarini inkor qilish, haqiqatni mavhum simvollar bilan buzuq bir shaklda aks ettirish, pessimizmni, hayotga nafarat va o'limni (asosan o'z joniga qasd qilishni) tarannum qilish.

Empresionalizm (fransuzcha impresionisme, impression – izlanish) XIX asrning 60-70 yillarda Fransiyada yoyilgan oqimdir. Oniy kuzatishlarning adabiy asarlarda o'rin olishini maqsad qilgan san'at maktabidir. Bu oqim K. Hamsun, M. Proust, G. Bar kabi mashhur vakillariga ega bo'lган. XX asrning o'rtalarida o'z-o'zidan yo'qolib ketgan.

Surrealizm oqimi (fransuzcha surrealism – realizm usti) XX asr madaniyati va adabiyotida ilg'or bo'lgan oqim. XX asrning 20- yillarda Fransiyada o'rtaq chiqqan. Atama sifatida ilk bor G. Apolinaire tomonidan ishlatalgan. L. Aragon, P. Eluard, R. Desnos va boshqalar bu oqimning yirik vakillaridir. Surrealistlar xasta ko'ngillarning qiynalishi va ingrashi, bosinqirash va dahshatli tushlarni san'atning haqiqiy manbai va estetik prinsipi sifatida ko'radilar. Mashhur surrealistlardan biri shunday degan: "Ruh xastalari asl surrealistlardir". Surrealistlar dunyoga murakkab voqealar maydoni sifatida qarashadi, hodisalar orasida mantiqiy bog'liqlikni subyektiv tushunchalar bilan izohlashga tiris-hardilar. Surrealizm Yevropada XX asrning 30- yillarda kuchsizlangan, L. Aragon va P. Eluard undan uzoqlashganlar. 1940 yildan e'tiboran surrealizm markazi AQSH bo'lgan, A. Breton, M. Dyushan, S. Dali, I. Tanki va boshqa surrealistlar AQShga ko'chib o'tishgan.

Transsensualizm 1830-60 yillarda AQShda adabiy falsafiy harakat sifatida paydo bo'lgan. 1836 yilda idealist faylasuf va yozuvchilardan biri Ralf Vold Emerson, G. Riqli, T Parker, M. Fuller, N.D. Toro va boshqalar mashhur "Transsensual klub"ning tamal toshini qo'yishgan. Transsensualistlar sensualizmga (tuyish) salbiy yondashganlar, Kant va Fixtening, Shleyermixer va Yakob falsafasiga mos tushishlarini ta'kidlashgan.

Amerika puritanizmining etik-sotsial g'oyalari, Platonning, ingliz romantik shoirlaridan Kolrik va Vordsvortning "Ko'l maktabi" va Jan Jak Russo ularga katta ta'sir ko'rsatgan. Transsensualistlar kapitalizmni qattiq tanqid qilgan, tabiat bilan birlashishni sinab ko'rishgan, 1841 yilda Boston yaqinida Bruk Farm nomli furerist koloniya qurishgan. Qarashlari Ralf Vold Emer-sonning "Tabiat" asarida to'laqonli o'z ifodasini topgan.

Realizm to'g'risida boshqa maqolalarimizda keng to'xtalganmiz, xususan, sotsialistik realizm haqida ma'lumot berib o'tdik. Shunga qaramay, yana ba'zi ma'lumotlarni keltirib o'tishni lozim topdik. Realizm muayyan bir oqim va maktab sifatida

XVII – XVIII asrlarda Yevropada ancha ta'sirga ega bo'lgan. Romantik oqimga qarshi paydo bo'lgan. Realistlar real hayotni va tarixiy voqealarni yozish tarafidori edilar. Ular o'z gardaniga olgan missiyadan kelib chiqib, maorifchilik bilan shug'ullanar edilar. Roman, teatr va dramaga ahamiyat bergen Volter, Didro va Monteskyu maorifchilikning eng yirik vakillari edi.

Ozarbayjonda maorifchi realizmning eng mashhur vakillari A.A. Bakixonov, M.F. Oxundzoda, N. Narimonov, J. Mammadqulizoda, N.B. Vazirov edi. Ular asosan jaholatga, diniy taassubga va jaholatga qarshi kurashar, qoloqlikdan qutulish uchun yangi tipdagi maktablar va maorifning ahamiyatini tushuntirar, Rossiya va Yevropani namuna sifatida ko'rsatishar edilar. Faqat I Jahon urushi paytida yirik Usmoniyalar davlatining yiqilishi va millionlab musulmonlarning o'limi islom maorifchilarining nazdida Yevropaning ilg'or va ijobiliy imagini zaiflashtirdi. Yevropaga nisbatan bo'lgan ishonch butunlay inqirozga uchradi, maorifchilik o'z-o'zidan cho'kdi.

Realizmning boshqa bir tarmog'i tanqidiy realizmdir. Yevropadagi ilk mashhur vakillari Stendal va Balzak edi. Balzak o'zini "Fransuz xalqining kotibi" deb atardi. Keyinchalik bu maktabni G. Flaubert, G. Mopassan, CH. Dikkens, L. Aragon, P. Neruda kabi mashhur yozuvchilar ham o'zlashtirishgan. Oqimning nomidagi tanqid so'zi kapitalizmga, xususan, burjuaziyaga qaratilgan bo'lib, kapitalizmning yomon tomonlarini tanqid qilar edilar. Tanqidchi realistlar hayotning eng quyi qatlamidagi insonlarni ham o'z ichiga oluvchi btun sinf, guruh va tabaqalargacha qamrab olardi. Rossiyada L.N. Tolstoy, M.F. Dostoveskiy, A.P. Chexov, I.S. Turgenov kabi buyuk ustalari bor edi.

Sotsialistik realizm SSSRda bolshevik inqilobidan keyin paydo bo'ldi. Bolsheviklarga ko'tra, hokimiyatni qo'lga olgan ishchi sinfi yangi madaniyat va adabiyotni ham o'zi yaratishi shart edi. Yangi kadrlarning inqilobchi ishchilar orasidan yetishib chiqishi kutilmoqda edi. Faqat Bolsheviklar yanglishganliklarini anglab qolishdi. Shu bois, madaniyatni, adabiyotni qattiq nazorat

ostiga oldilar. Yuqoridagi maqolalarimizda ham bu mavzuni an-chagina tahlil qilgandik.

Modernizm (fransuzcha modern – zamonaviy, yangi) oqimi adabiyot va san'atda o'z o'mini topgan bir oqimdir. Modernizmning nazariyotchisi ispan faylasufi Orteag U Gassetning fikriga ko'ra, modernizm eski adabiyot va san'atning boshdan-oyoq inkori demak. Boshlang'ichi 1907-14 yillar davriga to'g'ri keladi. Turli tarixiy etaplarda ekspressionizm, futurizm, abstraktsionizm, atonol musiqa, kubizm va boshqa realizmga zid oqimlarga bo'lin-gan. Modernizm oqimi P. Fluard, B. Brext, P. Neruda, N. Hikmat, E. Heminguey, V. Faulkner va G. Grinning ijodiga jiddiy ta'sir ko'rsatgan. Ularning asarlari shakl va mazmun jihatidan modernist oqimning talablarini qarshilaydi.

Bu yergacha ko'rib o'tilgan oqimlardan keyin postmodernizmga to'xtalishimiz mumkin. Dunyoda barcha tomonidan qabul qilingan fikriga ko'ra, postmodernizm oqimi modernizmdan keyingi va oldingi ma'nodagi muayyan bir tushunchadir [1]. Postmodernizmning Yevropadagi eng taniqli nazariyotchilaridan biri Umberto Ekoga ko'ra, agar san'at va adabiyot har marotabasida o'zidan oldingi maktabdan voz kechgan va yangi bir oqimni o'zlashtirgan bo'lса, demak, postmodernizm sodir bo'lgan.

Falsafada inkorni inkor kategoriysi eng asosiy kategoriya ekanligidan kelib chiqilsa, demak, postmodernizm eng qadimgi davrlardan beri mavjud bo'lgan. Shu ma'noda postmodernizmning adabiyotga qachon kirib kelganini aniqlash qiyin. Umberto Ekoning fikricha, "Postmodernizm xronologik bir voqeа emas, ruhiy bir holatdir. Shu bois, har davrning o'z postmodernizmi bor" [2]. Faqat hozirgi kun postmodernizm farqlidir. So'nggi postmodernizm bo'lmish ushbu oqim II Jahon urushidan keyin o'rtaqa chiqqan. Sovet Ittifoqi va Ozarbayjonda bu oqimning mavjud bo'lganligi aytildi.

Postmodernizm SSSR ag'darilgandan bir muddat o'tgach, 90- yillarda postsoviet makonda rivojlana boshladi. Faqat ushbu maktabning Ozarbayjonda yoyilishi va amaliy natija berishi qariyb o'n yillik bir vaqt oldi. Dastlab yosh yozuvchilar o'z adabiy

davralarini tashkil etdilar. Ular rasmiy Yozuvchilar Uyushmasini yoqtirmaydigan, uni ho'rolardan qolgan tashkilot deb hisoblovchi yosh ijodkorlar edi, ularning katta ko'pchiligi o'z ijodiy tajribalari haqida yuqori fikrda bo'lgan, sotsialistik realizm uslubida yozilgan asarlarni qabul qilmaydigan iste'dodli va aksincha insonlar edi. Bir xil tushunchada bo'lgan ushbu yoshlar guruhlarga birlashib, AYOO (Ozod Yoshlar O'chog'i), Parvonachilar, Egochilar, Aloto'ronchilar, Yangi ijodkorlar, Bajachilar, Nuqtachilar, To'qqiz iqlimchilar, CHo'chilar, 2+mistik poyeziya, Qultozchilar, Otyozarchilar, Yangi yozuvchilar, Ijodkorlar tashkiloti va boshqa nomlar bilan yangi tashkilotlarga asos solishdi. Ushbu tashkilotlardan hech birining na manifesti, na programmasi va na tuzugi bor edi.

Bu yerda nozik bir nyuans bor. Yoshlar guruhlari o'laroq birlashishlari mumkin, faqat guruh bo'lib asar yozolmaydilar. Shu bois, ushbu nasl uzoq vaqtgacha sog'-so'lga qarab turdi va bir narsa qila olishmadidi. Ilk postmodernistik asarlar faqatgina 2003-2004 yilda o'rtaga chiqsa boshladi. Yangi asarlar shakl, mazmun va uslub jihatidan eskilardan farqli bir kayfiyatda edi. Shuningdek, bunday asarlarning nomlanishi ham anchagini g'aroyib edi. Masalan, "Yarim qo'lyozma", "Unutishga kimsa yo'q", "Tarixsiz kundalik", "Sehrbozlar darasi", "Nekrolog", "Chamlibel tulkisi", "Qarg'a uyasi", "Go'sht va go'sht mahsulotlari", "18.6 sm", "Porloq qush", "Anna Karenina bilan mahkamalik ishlar", "Qotilga didaktik darslar", "Jannatda terror voqealar", "Sizning zamonningizdan avval", "Layloning majnunligi", "Katastrofiklar", "147 dona sen" kabi nomlar dastlab biroz yotsirash bilan qaralgan bo'lsa, ma'lum bir qiziqishlarga ham noil bo'ldi. Kitobxonlar, yozuvchilarga nisbatan ko'proq asarlarning nomiga qiziqa boshladilar.

Ozarbayjon postmodernizmining ikkinchi xususiyati asarlar mavzusidir. Bu masalada ham g'alati tuyulgan bir holatga duch keldik. Postmodernist yozuvchilarimiz mavzu o'laroq deyarli bir narsaga: folklorga, mif va ertakka, juda-juda qadim davrlar va o'rta asrlarga, afsonaviy va tarixiy kishilarga, ma'lum voqealar

va voqeliklarga murojaat qilishdi. Mashhur Malik Mammad ertagidan O'g'uz xoqon dostoniga, Dada Qo'rqt eposidan Ko'ro'g'liga, Shoh Ismoil Xatayidan boshlab Qorabog' hokimi Ibrohim Xalil xongacha bo'lgan uzundan-uzoq bir folklorik va tarixiy asarlar yozildi. Bu pallada majburiy o'laroq ba'zi taftish va o'zgarishlar ham sodir bo'ldi. Masalan, Dada Qo'rqt haqida yozgan muallif bizga Dada Qo'rqtun yangidan qaytarib berolmaydi, mustaqil ravishda mutlaqo bir narsalarni o'zgartirishi kerak. Hatto, ancha oldinroq yozilgan asarlar bilan mazax qilayotgandek bo'lib, bir xil nomda romanlar chop etishdi. Masalan, Ismoil Shixlining "Telba Kur" va Rashod Nuri Guntekinning "Tamt'a" romanlariga ergashib, xuddi shunday nomdag'i asarlar yozildi. Biz ularga asosan parallel mavzular desak yanglishmagan bo'laniiz. Parallel mavzularda adabiy va tarixiy taftishlar va o'zgartirishlar, zamon va makon, uslub va xarakter jihatidan ham kerak, hatto zaruriyidir. Ba'zi munaqqidlar haqli o'laroq ta'kidlaganlaridek, yozuvchilarining bu tariqa yondashuvi xalqning tarixiy o'tmishiga mas'hala tutishdan ko'ra ko'proq millat, xalq va denga taalluqli qadriyatlarga postmodernistik yondashuvtar nati-jasidir. Bu taftish tarix, davr va qahramon taftishidir (Nega otabobolarimiz shu-shu davrlarda bu-bu narsalarni yanglish bajarganlar), hamda bu mavzularni faqat marksistik qarash bilan izohlagan tarixchilarining, sotsialistik realizm jihatidan qalamga olgan yozuvchilarining taftishidir (Nega to'g'rin yozmadingiz). Bu taftish ba'zan sotsial, milliy g'oya bersa, ba'zan esa yozuvchining o'ziga oiddir. Yozuvchining bu masalada qay darajada muvaffaqiyat qozongani yoki aksinchaligi uning maqsadi, g'oyasi va iste'dodi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liqidir.

Ozarbayjon postmodernizmining boshqa bir xususiyati bu oqimga xos modellardan, badiiy montaj effektlari va usullaridan foydalanilishidir. Tekis talqindan talqin ilmiga o'tishgacha bo'lgan har turli murakkab vositalari bilan o'quvchini hayratga tushirish keng tarqalgan, hatto sarguzasht va mojaroga qochuvchi, politsiya va detektiv mavzuli asarlar ham oz emas. Faqat ular-

da obrazlarning chuqur orqa planlari ko'pincha yo'q va psixologik holatlar kamchilikni tashkil etadi. Oqim, ham ijod, ham figuralar jihatidan hali o'z o'mini topa olmagan.

Boshqa bir xususiyat esa eski voqealarga bugungi prizmadan qarashga intilishdir. Ba'zan qahramon zamonaviy tushuncha va atamalardan foydalanadi, hozirgi zamон jonli tilida yoki shevasiда gapiradi, bugunga xos ifodalarga murojaat qiladi. O'quvchi, qahramonni o'z tengdoshi va zamondoshi sifatida ko'radi, sal qoladi yozuvchidan "Qilichini shimardi" o'miga "To'pponchasini chiqardi" deb yozishini kutadi. Asarlarning tili asosan tasviriy va oddiyidir, jurnalistik tili badiiy tildan yanada bosimliroqdir.

Zamonaviy Ozarbayjon postmodernistlar orasida Kamol Abdullaning o'mi o'ziga xosdir. Hamma narsadan oldin Kamol Abdulla yozuvchidan ko'ra ko'proq olim, olimdan ko'ra ko'proq yozuvchidir. Uning qalamidan "Kitobi Dada Qo'rqt"ning ikkita shakli yoki varianti o'quvchilarga havola qilingan. Dastlab u "Gizli Dada Qo'rqt"ni yozgan [3]. Qo'limizdagи doston o'n ikki uruqqa bag'ishlangan. Ammo, haqiqatda o'g'uzlar nechta urug'dan tashkil topgan? O'n ikkimi? Yigirma to'rtmi? Nega urug'lar izma-iz tizilmagan? Nega Ich O'g'uz bilan Tash(qi) O'g'uz bir-biriga osiydir? Nega dostonda xonlar xoni Boyindirxon yo'q darajadadir, o'rtada hech ko'rinnmaydi? Solur Qozon, Burla Xotun, Qonturali, Saljon Xotun, Bomsi Bayrak, Bonu Chechak, Tepako'z, Deli Dumrul, Alp Aruz, Dada Qo'rqtning bevosita o'zi... nega bunday emas-da, unday qilishgan? Buning siri nimada, hikmati nima? Yozuvchi o'nlab gizli, sir-sanoatlari vollar beradi va hammasini "Sir ichidagi doston" yoki "Gizli Dada Qo'rqt" nomli asarida ilmiy jihatdan javoblantiradi [4].

Keyinchalik Kamol Abdulla "Kitobi Dada Qo'rqt"ni badiiy jihatdan ko'rib chiqdi, "Yarim qo'lyozma" [5] romanida doston-dagi ba'zi bo'shliqlarni to'ldirdi, unda yo'q narsalarni qo'shdi, ba'zi obrazlarni mukammallashtirdi, hatto tanib bo'lmaydigan darajada o'zgartirdi, dostonni romanga aylantirdi, zamonaviy versiyasini yaratdi. Shunchalik darajadaki, kitobxonlar kompasni

adashtirib qo‘ydilar: dostondan umumiy chizgilardan tashqari de-yarli hech bir narsa qolmadi. Roman katta noroziliklarni keltirib chiqardi. Ularning hammasi ijobjiy emasdi, faqat ijobjiyлари ham qiziq edi. Ba’zilari romandagi voqealaming haqiqiy ekanini, boshqalari esa butunlay teskarisiga haqiqiy bo‘lmaganini o‘ylash-di. Miyalarni g‘ovlatib yuborgan uch zamon tilimi ham yozuvchining va voqealarning ikir-chikirlari bilan birlashgach, hamma narsa chalkashib ketdi. Eng qadimgi O‘g‘uz davridan bugungacha, bugundan Shoh Ismoil davriga va teskarisiga erkin borib-kel-gan yozuvchining taniqli kishilarga yangi o‘zliklar kiritishi ishni boshi berk ko‘chaga kirgizib qo‘ydi. Dada Qo‘rqt bizning naz-dimida muqaddas biri emasmidi? Aruz Qo‘ja kim edi, O‘g‘uzga fitna solgan biri emasmidi? Solor Qozon O‘g‘uzning eng mash-hur bahodirlaridan biri emasmidi?

Ruxsat bering, bir soniya o‘ylab ko‘raylik... Bo‘lmaydi! Roman butun tezligi bilan davom etadi.

Shoh Ismoil davriga nazar tashlaydigan bo‘lsak, bu masalada ham g‘alati holatga duch kelamiz. To‘g‘ri, yozuvchi tarixiy va adabiy zarba berayapti, biz tanigan, ardoqlagan ulug‘larni buyuklik taxtidan tushirayapti. Butun ishongan kemalarimiz olatasirda qoldi, g‘arq bo‘ldi, yagona umidimiz kitob javonlarimizdag‘i Da-da Qo‘rqt va Shoh Ismoil haqida boshqa yozuvchilar tomonidan qalamga olingen tarixiy va badiiy asarlardadir.

Faqat bularni o‘qib chiqqach. Kamol Abdulladan keyin boshqalarning qadri pasayadi...

O‘tmish va shaxslarni taftish qilish Ozarbayjon postmodernist yozuvchilarining deyarli hammasiga xosdir. Masalan, Ilg‘or Fahmi adabiyotimizda postmodernistik detektiv asarlarning ilk namunalaridan biri bo‘lgan xalq qahramoni Ko‘ro‘g‘li va Jaloliylar harakati haqida bahs yurituvchi “Chamlibel tulkisi” [16] trilogiyasida Ko‘ro‘g‘lini taxtidan tushirib, uni qo‘rkoq, hatto hiylakor, mutaassib va xotinboz sifatida ko‘rsatadi. Holbuki, uning dostondag‘i Ko‘ro‘g‘liga na yaqindan va na uzoqdan aloqasi yo‘q. Dostonda mansiy bir tip o‘laroq taniganimiz Kal Hamza bu asarda ijobjiy qahramondir, hatto Ko‘ro‘g‘lining g‘alabalari uning

mug'ombirligi soyasidadir. Romanning syujeti farqli shaklda bo'lib, mistik va detektiv unsurlar murakkab va o'zaro aralashib ketgan. Yozuvchi "Akvarium", "San'atkor ayol" va "Akvalang" nomli asarlarini ham xuddi shunday badiiy usulda qalamga olgan.

Postmodern yozuvchilardan yana biri Hamid Harisch 90-yillarda postmodernist oqimiga championlik qilgan, uning falsafasi haqida qiziq fikrlar bayon qilgan va buni o'z asarlarida ko'rsatishga harakat qilgan qalam ahlidan biridir. Faqat sinov stilida yozgan "Nekrolog" [7] romanida sinovga xos bir til va uslub, asardagi to'qima, spekulyatsiya, xarakter va tiplarda butunlikning yo'qligi, adabiyotning "Tamt'a" va "Telba Kur" kabi yaxshi namunalariga dekonstruksiyaga tobe tutish tashabbusi to'xtovsiz tanqidlar ostida qolishiga olib kelgan. Parallel mavzularning adabiyotga olib kirilishi aslida o'quvchilar dunyoqarashini kengaytiradi, eski va yangi maktabga mansub yozuvchilarning ijodiy jihatini qiyoslash uchun sharoit yaratadi. Hamid Harischining boshqa bir o'ziga xos xususiyati asarlarini mahalliy kitobxonlar uchun emas, G'arb o'quvchilari uchun yozishidir. Asarlaridagi intelektuallikni yuksaltirishini shu bilan izohlagan Hamid Harisch G'arbda M.F. Oxundzoda, Sobir va Mirza Jalil kabi adiblarning anchadan beri eskirib qolganini bizda esa haligacha toza (yangi)ligini saqlaganini, bundan yo'lga chiqib bizning estetik zavqimizning orqada qolib ketganini ta'kidlab o'tadi.

Ozarbayjondagi ilk postmodernist guruhlardan biri bo'lmish AYoni 2002 yilda qurgan. 2004-2008 yillarda dastlab "Alato'ron" nomli haftalik adabiyot va san'at byuletени, so'ngra "Alato'ron" jurnalini chiqargan Rasim Qarajaning asarlarida ("Agar eng yaqin do'sting", "Dunyoning eng ishonchli yeri", "Kim uxlagan, kim uyg'oq", "Egri uyning ayoli" [8] "11 kecha" [9] sotsio-psixologik muammolar doimo old safda joy oladi. Adibning tili juda mukammal va rang-barangdir, badiiy jihatdan falsafiy va ilmiyidir. Hamid Harischiga nisbatan xalqqa yanada sodda, yanada yaqin va yaxshi tushuniladigan bir til uslubidir.

Postmodernist yozuvchilardan Saymur Boyjon eng ko'zga ko'ringan alato'ronchilardan biridir. Dastlabki yirik asarlari o'ziga xos va qiziq "Et (go'sht)" va "Et mahuslotlari" [10] romani va "18.6 sm" [11] nomli skelet-xotira asaridir. So'nggi asarini Saymur XXX imzosi bilan nashr qildirgan yozuvchi bu yerda sayohat qaydlarini qalamga olgan. Hazil-mutoyibali uslub qo'llagan yozuvchi jamoaviy hayotda va shaxsiy hayotida duch kelgan salbiy voqealar ba'zan qattiq, ba'zan esa yumshoq bir til bilan tushuntirib o'quvchini kuldiradi. Vaqt o'tgan sayin o'quvchi yozuvchining emas, o'z ustidan kulganini tushunib yetadi. Ya'ni menga kuling formulasini o'zingizga kuling formulasiga aylanadi. Saynur Boyjon o'z ijod kredosini "Mening muborizam (g'avg'om)" nomli asarida juda yaxshi ifodalagan [12].

Yangi Nasl guruhining yetakchilaridan biri bo'lган Aqshin Yeniseyning ("Ko'lga qamish sanchgan", "Janatda terror voqeasi" [13], "147 dona sen" [14], O'rxun Fikrato'g'lining ("O'ga y", "O'girilma", "Uchinchi kunning odami", "Yagona" [15]), Muboriz Ja'farlinning ("Barpochi", "Shohid poyezd", "Uydirma", "Banno" "El" [16]), Maqsad Nurning ("Ters kabi", "Erogigiyenik", "Katasrofiklar", "Shamolli shahar", "Shahar meri", "Inson ustidan kurraiy tekshiruvlar"), Ajdar O'lning ("O'lim bilan hazillashish", "Bo'ri urug'i", "Ko'ngil jangchisi", "Grafoman" [17]), Sharif Og'ayorning ("Onaxonim", "Uyimiz", "General", "G'isht qo'yuvchi odam dostoni", "Haromi"), Aslon Quliyevning ("Ag'ri (Ararat)" [18]), Tolih Shahsuvorlining "Jonlanma" [19]), Murod Ko'hnaql'aning ("Kumush ko'za", "Bulut etigi"), Faxri Ug'urli ("Farhodning Xusravni o'ldirishi", "Iskandarning qonuni", "Layloning majnunligi"), Etimod Boshkechitning ("Ming kez menga so'ylaydi" [20]) asarlari oddiy odamlarning hayotga boqishi, orzu va umidlari, muhabbat va nafrati hamda hajajonlarini postmodernistik shaklda aks ettiradi.

Elxon Qoraxon, Samit Aliyev, Ozod Qoradaralii, Voris, Samir Sori, Karomat Buyukcho'l, Mirmahdi Oq'ao'g'li, Baxtiyor Hidoyat, Ilkar Rasul, Jovid Zaynalli, Ozar Qorachanli, Ziyod Quлизода, Samir Sadoqato'g'li, Xonamir, Shohlar Ruhiy, Nomiq

Rassom, Jalil Javonshir, Ragif Raufo'g'li, Baxtiyor Eljon, O'qtoy Xojimusali, Anor Gulimso'y, Bahodur Gobustonli va boshqa yosh yozuvchilar yangi-yangi asarlar ustida qalam tebratishgan.

Masalaning qiziq tomoni postmodernizm yosh ayol yozuvchilar orasida ham o'ziga ancha-muncha tarafdarlar topdi. Ajabo, ular sotsialistik realizm va modernizmning xotin-qizlar ozodligi masalasida amalgal oshirgan kurashlarni yetarsiz deb topdilarini? Har holda, Sho'rolar va Sho'ro adabiyoti ayollar va erkaklar tengligini faqat deklaratsiya e'lon qilgan, de jure e'lon qilgan, de fakt oshira olmagan edilar. Modernizm adabiyoti sotsio-ekonomik va ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra ayol mavzusiga yetarlicha diqqat qarata olmagandi, shu bois, postmodernistik adabiyot ayollar mavzusini keraklicha ahamiyatli deb bildi. Savdoning "Olmado'vorning xotinlari", Sevinch Chilginning "Gapdonning maktublari", Gunal Mavludning "Bir kishi uchun duduk konserti", Elucha Atalining minatyuralari, Shalola Abilning "Ich nuri", "Xamla", Narmin Kamolning "Yotmoq", "Mavsimlar" kabi hikoyalari, Sevinch Parvonanining ayol qalbining eng go'zal pichrlashlarini aks ettirgan "Shahar" romani, Sohila Ibrohimova, Narmin Husaynzoda, Zumrud Yog'mur, Jola Ismoil va boshqa ayol yozuvchilarining asarlari xotin-qizlar muammoasiga oydinlik kiritса ham, hozircha tabiiy, haqiqiy adabiyotdan uzoq ko'rindi.

Ozarbayjon postmodernizmi adabiy bir jarayon qirg'og'idan oshib, afsuski, ideologik bir ko'chaa yo'nalgan, OYU (Ozarbayjon Yozuvchilar Uyushmasi) bilan OYO' (Ozod Yoshlar O'chog'i) orasida muayyan bir hudud mojarosiga aylangan. OYuning postmodernistlarga va postmodernistlarning OYO'ga qarshi iddasini uch misol bilan ko'rsatib o'tamiz. Ulardan birinchisi, OYuning o'sha paydag'i Bosh kotibi, Xalq shoiri Fikrat Qo'janing bir muloqotidan olingen parchalar: "Bular go'yo adabiyotimizga yangilik olib kirishmoqda, biroq bu adabiyot emas... Ma'lumki filarmoniya bor, tualet ham, ular birinchisini emas, ikkinchisini yozishni qahramonlik deb hisoblashadi... Bu odamlarning o'z oilasiga hurmati yo'q. Ular yozganlarini oilasiga, bolasiga o'qib bera olishadimi? Menimcha ravo ko'rishmaydi, amma

o'quvchiga ravo ko'radilar... Bular aytishadiki, Mirza Jalil bo'limgan, Fuzuliy ham. Tolesizlik shuki, yoshmiz deb tuhmatlaridan boshqa hech narsa qila olishmagan va endi ularning yoshi ham 40 ga yaqinlashgan. Ushbu yillar davomida bizga tuhmat qilgandan ko'ra biror asar yozib o'rtaqa qo'ysa bo'lardi, ulardan bir ishorat bo'lardi".

Ham OYU, ham OYO'da faoliyat yuritgan Sharif Og'ayor bu ikki tashkilotni shunday ta'riflaydi: "Tabiiyki OYU va OYO'ni solishtirib bo'lmaydi. OYO'da jamoaviy tashkilotdan ko'ra yanada ko'proq birodarlik ideologiyasi, yanada samimiyroq munosabatlar ko'zga tashlanadi. O'rta da pul va shunga o'xshash narsalar bo'lsa insonlar orasidagi munosabat o'zgarib qoladi. Afsuski, faqatgina Ozarbayjonda emas, butun dunyoda shunaqa. OYO'ning eng katta muvaffaqiyati shundan boshlandiki, uning har qanday mulki yoki puli yo'q edi. Unda insonlarni birlashtirib turgan narsa faqat ma'naviy o'lchovlar, ma'naviy qadriyatlar edi. Mening bu ma'naviy qadriyatlardan ajralib chiqishimga kelsak, bunga sabab OYO'ning o'zini muayyan bir tashkilot sifatida to'g'rilab olmaganligi bo'ldi. Biz yoshimiz o'lg'aygan sari birgalikda rasm tushish, bir-birimizga iltifot yog'dirish bilan cheklnardik, bu ham qiyin bir holat".

OYO'ning 2012 yil hisobotidan bir pasaj: "Ozarbayjon yozuvchilari bilan davlat orasidagi yagona rasmiy tashkilot bo'lgan Yozuvchilar Uyushmasi Sovet davridan qolgan muhofazakor yondashuvi va avtoritar prinsiplaridan aslo voz kechmaganini, islohatlarga tayyor bo'limganini va buni istamaganini isbot qildi".

Nihoyat, Ozarbayjondagi postmodernizmning bugungi kundagi ahvolini shu tarzda xulosalay olamiz:

- Ozarbayjonda postmodernizm muayyan bir oqim sifatida mavjuddir, faqat uning tom ma'noda mukammallashuvi uchun yana biroz vaqt kerak.

- Ozarbayjonda postmodernizm asosan Sovet adabiyotiga va sotsialistik realizmga qarshi chuqur nafrat tuygan yangi nasl tomonidan boshlatilgan. faqat bir necha muvaffaqiyatli istisnodan tashqari porloq namunalari hanuz o'rtaqa chiqqanicha yo'q.

- Ozarbayjonda postmodernizm izlanışları içindedir. Izlagen mutlaqo topadi.

### Foydalaniłgan adabiyotlar

- [1] R.B.Rey. Postmodernizm Nedir // Cihan Dergisi, Bakü, 1997, № 1, s. 106.
- [2] Eko U. Postmodernizm // Tenkitnet, Bakü, 2007, № 3, s. 70.
- [3] Kemal Abdulla. Gizli Dede Korkut. Bakü: Yaziçi 1991.
- [4] Kemal Abdulla. Sır içinde Destan, yahut Gizli Dede Korkut. Bakü, Elm, 1999.
- [5] Kemal Abdulla. Yarım[çık] Elyazma. Bakü: XXI YNE, 2004.
- [6] İlkar Fehmi. Çamlıbel Tilkisi. I-II.-III. kitap. Bakü, 2005-2007.
- [7] Hamit Herişçi. Nekrolog. Baku, Oka Ofset, 2005.
- [8] Rasim Karaca. Egri Evin Kadını. Bakü, 2010.
- [9] Rasim Karaca. 11 Gece. Bakü, 2012.
- [10] Seymour Baycan. Et ve Et Ürünleri. Bakü, 2005.
- [11] Seymour Baycan. 18.6 cm. Bakü, Kanun, 2007.
- [12] Seymour Baycan. Menim Mübarizem. I.-II. kitap. Bakü, 2013- 2014.
- [13] Akşin Yensey. Cennette Terror Olayı. Bakü, Kanun, 2009.
- [14] Akşin Yenisey. 147 Tanc Sen. Bakü, 2013.
- [15] Orhan Fikretoglu. Tek. Baku, Elm ve Tahsil, 2014.
- [16] Mübariz Caferli. El // Azerbaycan, 2009, No. 11.
- [17] Ejder Ol. Grafoman. Bakü, Mütercim, 2009.
- [18] Aslan Kuliyev. Ağrı. Bakü, Kanun, 2014.
- [19] Talih Şehsüvarlı. Canlanma. Bakü, Araz, 2009.
- [20] İtimat Başgeçit. Bin Kez Bana Söyler. Bakü, Miitercim, 2012.

## **Prof., dok. Ramiz Asker**

1954 yilda Gumaruning Amasya tumaniga qarashli Qorachanta qishlog‘ida (bugungi kunda Armaniston hududida) tug‘ildi. Qorachanta maktabini imtiyozli attestat bilan bitirib. 1972 yilda Boku Davlat universiteti Aloqa bo‘limiga o‘qishga kirdi. 1975 yilda bo‘limning iqtidorli talabasi sifatida Lomonosov nomidagi Moskva Universiteti Aloqa bo‘limiga yuborildi va u yerda tahsilini davom ettirib, 1978 yilda o‘qishni bitirdi.

1978-83 yillarda Ozarbayjon Ovozi radiosida ishladi.

1983-84 yillarda ozarbayjoncha, turkcha, arabcha, forscha, inglizcha, fransuzcha va nemischa nashr qilinadigan “Ozarbayjon bugun” jurnalni Bosh nashri muharriri vazifasida ishladi.

1984-91 yillarda lotin, krill va arab harflarida chop etiladigan “O‘t (olov)lar yurti” gazetasida Bosh nashr muharriri sifatida faoliyat yuritdi.

1991-93 yillarda “Hurriyat” gazetasi (Istanbul) va “Xalqaro Xabar agentligi”ning (UHA) Ozarbayjon muxbiri sifatida ishladi.

1993-97 yillarda “Yangi Forum” jurnalining Bokudagi vakili bo‘ldi.

1993-94 yillarda Ozarbayjon Turizm Vazirligi Tanitish bo‘limi bosh direktori bo‘lib ishladi.

1994-96 yillarda “XXI asr” gazetasi Bosh nashr muharriri vazifasida faoliyat yuritdi.

1992-97 yillar orasida Ozarbayjon Jurnalistlar Uyushmasi kotibi vazifasida bo‘ldi (jamoatchilik asosida).

1997 yildan beri Ozarbayjon Jurnalistlar Uyushmasi Bosh kotibidir (jamoatchilik asosida).

2000-2006 yillarda Boku Davlat universiteti Turkologiya kafedrasida ishladi, ozarbayjoncha, ruscha o‘laroq “Turk madaniyat tarixi”, “Turkologiya asoslari”, “Devonu lug‘otit-turk”, “Kitobi Dada Qo‘rqut”, “Qutadg‘u bilig”, “Manas” dostonlari bilan talarbalarni tanishтиrdi. 2007-2012 yilda Adabiyot fakulteti badiiy tajima laboratoriysi boshlig‘i bo‘ldi. 2012 yilda Turkiy xalqlar

adabiyoti kafedrasi boshlig'i qilib tayinlandi. Nomzodlik disser-tatsiyasini "Qutadg'u bilig" bo'yicha, doktorlik dissertatsiyasini "Devonu lug'otit-turk" bo'yicha himoya qildi.

Jurnalistika sohasida "Oltin qalam", "Hasan bey Zardobiy", "Humoy" milliy mukofotlarini, Turkiyaning "Yangi O'rxun", Quvaytning "Islomga xizmat" mukofotlarini oldi. Ilmiy izlanish-lari va tarjimalari uchun "Turk Dunyosiga xizmat" va "Oltin olma" mukofotiga, O'zbekistonning "Bobur", Turkmanistonning "Oltin asr", Ukrainianing "Bakir Cho'bonzoda", TurkSOYning maxsus mukofotiga, Qozog'iston, Turkmaniston, Qirg'iziston, Tatariston va TurkSOYning qator medallariga loyiq ko'rildi. Xal-qaro Matbuot instituti (IPI, Vena) va Yevroosiyo Yozuvchilar Uyushmasi (Anqara) a'zosi. 40 ga yaqin xalqaro sempoziym va konferensiyalarga qatnashdi.

2010 yilda Ozarbayjonda Xizmat ko'rsatgan jurnalist faxriy un-voniga, 2014 yilda Ozarbayjon "Shuhrat" nishoniga loyiq topildi.

Turkologiya, adabiyot, tarix va jurnalistika sohalarida ba'zi kitoblar yozdi, turkcha va ruschadan tarjimalardan tashqari turke-ha va ruschaga tarjimalari ham mavjud.

### **Yozgan kitoblari:**

1. Ramiz Asker. Iqlidan iqlimga, taqvimdan taqvimga. Tadqiqot. Original. Boku: "Ishiq", 1987, 104 b.
2. Ramiz Asker. Qutadg'u bilig. Tadqiqot-MonografiY. Original. Boku: "Elm", 2003, 320 b.
3. Ramiz Asker. M.K. Otaturk TMBBning barpochisi. Original. Boku: Milliy Majlis matb., 2003, 26 b.
4. Ramiz Askar. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asari. Tadqiqot. Original. Boku: MBM, 2008, 432 b.
5. Ramiz Asker. Mahmud Koshg'ariyning 1000 yillik yubileyiga 1000 bibliografik indeks. Tadqiqot. Original. Boku: MBM. 2008, 96 b.
6. Ramiz Asker. MAhmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit-turk" asariga doir bibliografik va grammatik indeks. Tadqiqot. Original. Boku: MBM, 2008, 192 b.

7. Ramiz Askar. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asari. Tadqiqot. Original. Boku: MBM, 2008, 532 b.
8. Ramiz Askar. Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asari bo'yicha darslar. Boku: MBM, 2010, 192 b.
9. Ramiz Asker. Turkiy xalqlar adabiyoti. Boku: MBM, 2011, 320 b.
10. Ramiz Asker. O'rxun obidalari. Tadqiqot. Boku: "Ilm va tahsil", 2012, 272 b.
11. Ramiz Asker. Qutadg'u bilig bibliografiyasi. Boku: BXQR, 2016, 292 b.
12. Ramiz Asker, Noila Asker. Kitobi Dada Qo'rqut bibliografiyasi. 1- jild (nashrda).
13. Ramiz Asker, Noila Asker. Kitobi Dada Qo'rqut bibliografiyasi. 2- jild (nashrda).

#### **Tarjima kitoblari:**

1. Ozarbayjon ertaklari. Turkiya turkchasiiga tarjima. Boku: Yozuvchi, 1982, 196 b.
2. M.B. Mahmazoda. Milliy Ozarbayjon harakati. Turkchadan tarjima. Boku: Najot, 1991, 248 b.
3. Faruk Sumer. O'g'uzlar. Turkchadan tarjima. Boku: Yozuvchi, 1992, 432 b.
4. Yusuf Balosog'uniy. Qutadg'u bilig. Qadimgi turkchadan tarjima. Boku: Ozarmashr, 1994, 492 b.
5. Murot Toqiy. Hayotim. Turkchadan tarjima. Boku: Oka offset, 1998, 92 b.
6. Erik Fixtelius. Jurnalistikaning o'nta oltin qoidasi. Rusc-hadan tarjima. Boku: AJB, 2002, 192 b.
7. Bahaddin O'gel. Turk mifologiyasi. Turkchadan tarjima. Boku: Sado, 2004, 1- jild, 626 b.
8. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Qadimgi turkchadan tarjima. Boku: O'zon, 2006, 1- jild, 626 b.
9. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Qadimgi turkchadan tarjima. Boku: O'zon, 2006, 2- jild, 400 b.

10. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Qadimgi turkchadan tarjima. Boku: O'zon, 2006, 3- jild, 400 b.
11. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Qadimgi turkchadan tarjima. Boku: O'zon, 2006, 4- jild, 752 b.
12. N. Ozerov. Ilhom Aliyev: Men Ozarbayjonimga ishona-man. Ruschadan tarjima. Boku: Ozarnashr, 2007, 376 b.
13. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Ruschaga tarjima. Boku: MBM, 2009, 1- jild, 512 b.
14. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Ruschaga tarjima. Boku: MBM, 2009, 2- jild, 400 b.
15. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit-turk. Ruschaga tarjima. Boku: MBM, 2009, 3- jild, 492 b.
16. O'roz Yog'mur. Qorabog'lik onanıng motami. Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2009, 84 b.
17. XX asr o'zbek she'riyati antologiyasi. O'zbekchadan tarjima. Boku: MBM, 2009, 96 b.
18. Mulla Nafas. Bu makonga kelmishman. Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2010, 160 b.
19. Mulla Nafas. Tanlangan asarlari. Turkmanchadan tarji-ma. Boku: MBM, 2010, 240 b.
20. Todur Zanet. Ona tilim. Gagauzchadan tarjima. Boku: MBM, 2010, 104 b.
21. Mahdumquli Firog'iy. Tanlangan asarlari. Turkmancha-dan tarjima. Boku: MBM, 2010, 448 b.
22. Turk adabiyoti tarixi. Turkchadan tarjima. Boku: MBM, 2001, 602 b. 1- jild.
23. Turk adabiyoti tarixi. Turkchadan tarjima. Boku: MBM, 2001, 658 b. 2- jild.
24. Nurmuhammad Andalib. She'rilar, poemalar, dostonlar. Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 292 b.
25. Zahiriddin Muhammad Bobur. Tanlangan asarlari. Chig'atoychadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 328 b.
26. Sulton Husayn Boyqaro. Devon. Chig'atoychadan tarji-ma. Boku: MBM, 2011, 248 b.

27. Abdulla Tuqay. Millatim. Tatarchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 268 b.
28. Abdulla Tuqay. Tanlangan asarlari. Tatarchadan tarjima. Boku: Nag'il uyi, 2011, 268 b.
29. Mehri Xotun. Devon. Turkchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 368 b.
30. Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma. Chig'atoychadan tarjima. Boku: BXQR, 2011, 432 b. + 32 b. rangli miniatURA.
31. Gurbonguli Berdimuhamedov. Axalteke oti. Turkmanchadan tarjima. Boku: GBS, 2011, 232 b.
32. Turkman she'riyati anatologiyasi (XVII – XIX asrlar). Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 400 b.
33. Abdulla Shohbanda. Tanlangan asarlari. Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 6,5 b.t., 104 b.
34. Turkman muammolari, aytimlari va vujudnomalari. Turkmanchadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 128 b.
35. Mo'g'ullarning gizli tarixi. Turkchadan, ruschadan va ne'mischadan tarjima. Boku: MBM, 2011, 360 b.
36. Ali Oqbosh. Tanlangan she'rlari. Turkchadan tarjima. Boku: "Ilm va tahsil", 2011, 150 b.
37. Bakir CHo'bonzoda. Tanlangan asarlari. Qrim-tatarchadan tarjima. Boku: Nurlan, 2011, 160 b.
38. Bakir CHo'bonzoda. Tanlangan badiiy asarlari. Qrim-tatarchadan tarjima. Boku: BXQR, 2012, 240 b.
39. Davlatmamat Ozodiy. Tanlangan asarlari. Turkmanchadan tarjima. Boku: Nurlan, 2012, 264 b.
40. Faruk Sumer. O'g'uzlar (tukrmanlar). Turkchadan tarjima. Boku: BXQR, 2013, 465 b.
41. Toqtog'o'l. Qirg'izchadan tarjima. Eskishehr: 2014, 320 b.
42. Qiz Jibek. Qozoqchadan tarjima. Boku: BXQR, 2016, 244 b.
43. Rajab Olbayroq. Turklarning Eroni. Turkchadan tarjima. 1-jild (nashrda).
44. Rajab Olbayroq. Turklarning Eroni. Turkchadan tarjima. 2-jild (nashrda).

*Bichimi* 60x84 1/16  
*Sharthi b.t.* 21  
*Adadi* 500

